Innovatsiyalar davrida internet saytlari va ularning tasnifi. Ingliz tili faniga oid saytlar va ulardan darsda foydalanish metodikasi. Ingliz tili o‘qituvchilari kasbiy mahoratini har tomonlama oshirishga mo‘ljallangan mahalliy hamda xalqaro o‘quv portallar, saytlari bilan tanishtirish, undagi bloklarda ishlash va ulardan qanday foydalanish yuzasidan tavsiyalar berish.

O‘quvchilar bilimlari va kompetensiyalarini baholashning turli strategiyalari. Rasmiy va norasmiy, diagnostik va umumiy yondashuvga asoslangan baholash usullari. Baholash — ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida. Baholash orqali o‘quvchilar bilan teskari aloqani o‘rnatish. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini, bilim va kompetensiyalarini baholashning turli usul va vositalari. O‘quvchilar o‘zini baholashi, o‘quvchilar boshqa o‘quvchilarni baholashi va o‘qituvchi tomonidan baholash yondashuvlari, ulardan samarali foydalanish. Chet tillarni o‘rganishda diktant turlari va ulardan unumli foydalanish usullari. Mavzuga mos ta’limiy va nazorat uchun beriladigan matnlardan to‘g‘ri foydalanish.

3.4. Tanlov fanlari

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha qayta tayyorlash kursiga mos ravishda, mavjud ehtiyoj va buyurtmachilarni takliflari inobatga olingan holda ishlab chiqiladi.

4. IXTISOSLIK FANLARI

4.1. Ingliz tilining nazariy kursi

Ta’lim oluvchilarni kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan ingliz tilining nazariy jihatlari: tovush sistemasi — unli va undosh tovushlar, leksikasi va til qurilishini o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish. Jumladan, harf va tovushlarni farqlash, so‘z urg‘usi, gap urg‘usi, ohang (intonatsiya) va uning turlari.

Ingliz tili grammatikasi morfologiya va sintaksis, so‘z turkumlari: mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Grammatik kategoriyalar, grammatik shakllar va ularning vazifasi. Gap va gap bo‘laklari, gapning ma’no va tuzilishiga ko‘ra turlari.

Ingliz tili lug‘at tarkibining asosiy birliklari, so‘zning morfologik, sintaktik, leksik va semantik tuzilishi, so‘z yasalishi, leksik tizim va uning xususiyatlari, so‘zlarning kelib chiqishi, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, turg‘un birikmalar, frazeologik iboralar, predlogli birikmalar, idiomalar, qisqartmalar, lug‘at kitoblarining mazmuni.

4.2. Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi kursi

Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi amaliy kursi davomida ingliz tilini bilish darajasini umumyevropa standarti hamda ingliz tillarini o‘rganish, o‘rgatish va uzluksiz ta’lim tizimining ingliz tillari bo‘yicha Jahon standartlari va Davlat ingliz tili ta’limi talablarida belgilangan B1 dan B2 va undan yuqori darajasiga yetkazish. Nutq ko‘nikmalarini integratsiyasi amaliy kursida nutq faoliyatining quyidagi turlari integrallashgan holda o‘qitiladi:

- To‘g‘ri talaffuz qoidalari;
- Og‘zaki nutq amaliyoti (Tinglab tushunish, o‘qish, yozish, gapirish amaliy grammatika va leksika)

Kundalik va ijtimoiy hayotga oid mavzular, shaxsiy ma’lumot, avtobiografiya, oila haqida ma’lumot, bo‘sh vaqtni o‘tkazish, taqvim, ob-havo, kasblar, sport, yashash joyi, shaharlar va mamlakatlar, kiyim-kechak va kiyinish odobi, salomatlik, transport, ta’lim sohasi, turli kasblar, kundalik hayotdagi voqea va hodisalarning qisqa tasviri, qiziqishlari, ovqatlanish, insonning xarakteri va fazilatlarini tasvirlash, san’at turlari, uy anjomlari, sayohat va turizm, biznes, kitob, kino va teledasturlar turlari va ularning sifati, turli mamlakatlardagi siyosiy tizim, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi, oliy o‘quv yurti, atrof-muhitni muhofaza qilish, O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy masalalar, jumladan, yoshlar tarbiyasi, turli kasalliklar va ularning simptomlari, ixtisosligiga oid mavzular, kasbi bilan bog‘liq dolzarb masalalar va h.k. mavzularni, til ko‘nikmalarini, ya’ni so‘zlashish, tinglab tushunish, o‘qib

tushunish va yozish amaliyotlarini hamda fonetika, grammatika va leksik birliklarni kommunikativ uyg‘unlikda o‘qitish. Turli sohalarda dalillarga asoslangan murakkab bo‘lmagan matnlarni o‘qib to‘liq tushuna olish, kundalik va yo‘nalish sohasiga oid Internet saytlaridan olingan risolalar, reklamalar, gazeta e’lonlarini, OAV matnlarini o‘qib asosiy mazmunini tushunish.

Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish ko‘nikmalariga yozish til ko‘nikmasini integrallashtirgan holda o‘z suhbatdoshiga xat va xabarlar yozish, anketani turli shaxsiy ma’lumotlar bilan to‘ldirish, shaxsiy hamda kasb-hunarga oid kontekstlarda qaydlar va xabarlar yozish, sohaga oid hisobotlar yozish, ariza, rezyume va yo‘llanma xatlar yozish.

4.3. Ingliz tilida o‘qish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish

Ingliz tilida turli uslublarga xos matnlarni o‘qib tushunishga, tahlil qilish, murakkab matnlardan o‘ziga kerakli ma’lumotni qidirib topib, amaliy maqsadlarda qo‘llay olish, turli uslubga xos matnlarni bexato va mazmunli tuzish. Jumladan, o‘z sohalariga oid turli matn turlarini (kichik hikoyalar) jurnal va gazeta maqolalari, yangiliklar bayoni, internet matnlari) o‘qib, matn yuzasidan xulosa chiqara olish; matnlardagi fikrlarni, muallif g‘oyasini va mubolag‘ani aniqlashlari; o‘z sohasiga oid bo‘lmagan keng qamrovli mazmundagi matnlarni lug‘at va lug‘atsiz o‘qib tushunish; yo‘riqnomalarni o‘qib kerakli ko‘rsatmalarni tushunish; badiiy matnlarni (mas, hikoya, romandan parcha, she’r) o‘qib, ular g‘oyasini, voqealar rivoji va oqibatini tushunish; madaniyat va san’atga oid mavzulardagi (film, teatr, badiiy adabiyot) taqrizlarni o‘qib, undagi asosiy fikrlarni ayta olish; o‘qish jarayonida duch keladigan muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish.

4.4. Ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish

So‘zlashuvchining kayfiyati va munosabatini anglay olish; tanish yoki o‘zini qiziqtirgan mavzularda yuzma-yuz muloqotga kirisha olish, muloqotni samarali davom ettirish va tugallash; norasmiy muhokamalarda o‘z nuqtai nazarini va fikrini bayon eta olish va boshqalarning fikrini so‘ray olish; hissiyotlari va munosabatini tasvirlagan holda ko‘rgan-kechirganlarini batafsil bayon qila olish; kasbga oid mavzulardagi aniq va batafsil og‘zaki tavsiflarni tushunishi va matn tuza olishi; adabiy (standart) og‘zaki nutqni shovqin yoki nutq yaxshi eshitilishiga to‘sqinlik qilayotgan boshqa tashqi omillar sharoitida ham tushuna olish; tanish mavzulardagi, jumladan kasbga oid mavzulardagi aniq va ravon tuzilgan ma’ruza yoki nutqni tushuna olishi va unga doir savollarga javob bera olish; adabiy (standart) tilda olib boriladigan radio va TV dasturlar

(hujjatli filmlar, jonli intervyular, tok-shou va aksariyat badiiy filmlar)ni tushuna olishi va mazmunini qisqacha og‘zaki bayon eta olish; turli variantlar, sabab, natija, turli holatlarning yutuq va kamchiliklarini e’tirof etgan holda o‘z nuqtai nazarini ifoda etish; turli ijtimoiy kontekstlarda tegishli til birliklaridan o‘rinli foydalana olish.

4.5. Ingliz tilida yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish

Berilgan mavzu bo‘yicha inshoni ma’no va tuzilishi jihatdan rejalashtirish; o‘zlariga tanish bo‘lgan mavzu bo‘yicha matn tuzish; eshitgan, ko‘rgan va o‘qigan mavzulari asosida 150-250 so‘zlik paragraflar yoza olish ko‘nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish; inshoning tuzilishi (kirish, asosiy qism va xulosa), uning mantiqiy uzviyligi va yaxlitligini ta’minlay olish; rasmiy xatlarni "o‘quvchi", "buyurtmachi" ehtiyojidan kelib chiqqan holda yoza olish; o‘z fikr va mulohazalarini 150 — 250 so‘zdan iborat turli insho turlari va mavzulari bo‘yicha yozma bayon etish; qiyosiy, tahliliy va tanqidiy turdagi bayonlarda o‘z fikrlarini yozma muloqot qonun-qoidalariga amal qilgan holda bayon eta olish; keng qamrovli va o‘zlariga yaqin mavzudagi maqolalarning qisqacha mazmunini yoza olish; turli maqsadlarga mo‘ljallangan norasmiy va rasmiy xatlar (masalan, tushuntirish xati, iltimosnoma, murojaat xati va h.k.) va arizalar yoza olish; kitob yoki filmlarning mazmunini yozma bayon eta olish va ularga qisqa taqriz yoza olish.

4.6. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi

Ingliz tili fanini o‘qitish metodikasi fanining mazmun mohiyati, ilmiy asoslari, tamoyillari. Ingliz tillarini o‘qitish bo‘yicha davlat ta’limi standarti, o‘quv dasturining mazmuni va talablari, shuningdek, maktab darsliklari mazmuni va metodik tuzilishi, Tillarni qiyoslab o‘rganish usullari. An’anaviy va kommunikativ metodlar. Xorijiy tillarni tabiiy va kommunikativ muhitda o‘rgatish. Kommunikativ yondashuv nazariyasi. Kommunikativ yondashuvning dars davomidagi roli. Mashg‘ulot davomida o‘qituvchi va o‘quvchining roli. Ingliz tilini o‘rganuvchilarning dars jarayonidagi faolligini ta’minlovchi metodlar.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonini tashkil etish, nutq faoliyatining retseptiv (tinglab tushunish, o‘qib tushunish) va produktiv (gapirish va yozish) turlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishning samarali yo‘llari, og‘zaki va yozma nutq shakllarida muloqot qilish metodikasi, maxsus ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, ingliz tilini o‘rgatish va o‘rganish jarayonini rejalashtirish, ingliz tili darslarini tashkil etish va taqdim etish metodikasi, ko‘rgazmali va texnik vositalardan foydalanish, ingliz tilini o‘rgatish va

o‘rganish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar, ona tili va ikkinchi ingliz tili o‘rganishdagi farqlanishlar. Oraliq farqlarni aniqlash. Ingliz tilini o‘rganishda xato qilishning roli va ahamiyati.

Sinfni boshqarishda o‘qituvchining roli. O‘qituvchining bilimi. Dars davomida o‘qituvchining bilimi va malakasi. Muammoli vaziyatlarda sinfni boshqarish uslublari

Dars davomida o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolar, o‘quvchilarning bilish faoliyatini baholash va xatolar ustida ishlash metodikasi. Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning xatolarini kategoriyalashtirish (turkumlash). Xatolar ustida ishlash va ularni bartaraf etish usullari. Til o‘rganishda xato turlari va ularni to‘g‘rilash texnikalari.

Ingliz tili darslari davomida to‘g‘ri ko‘rsatma berish. Mashqlarni tushuntirishda to‘g‘ri ko‘rsatma berish usullarining o‘rni. Muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri ko‘rsatma berish texnikalari. Dars davomida to‘g‘ri ko‘rsatma berishda sinfdagi o‘quvchilarning til bilish darajasining ahamiyati.

Leksikani boyitish uchun mo‘ljallangan interaktiv faoliyat turlari. O‘quvchilarga yangi so‘zlarni taqdim qilishda ularning tayanch bilimlarini hisobga olishning unumli va natijaviy usullari. Grammatikani taqdim etishning Deduktiv va Induktiv (qoidasiz grammatika) yo‘llari. Grammatikani o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va metodlarni qo‘llash. Tilni tinglab va muloqot qilib o‘rganishning afzalliklari**.**

O‘quvchilarning til ko‘nikmalari va darsdagi g‘oyalariga fidbak (fikr-mulohaza) berish usullari. Og‘zaki va yozma fidbak. O‘quvchilarga motivatsiya berish maqsadida qo‘llaniladigan fidbak.

4.7. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish metodikasi

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish konsepsiyasi, mazmuni maqsad va vazifalari, didaktik prinsiplar va uning o‘ziga xos xususiyatlari, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda va ta’lim jarayoniga jalb etishda o‘qituvchining innovatsion yondashuvlari.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili o‘rgatishda o‘rganish usullarining (learning styles) ahamiyati. Ingliz til o‘qitishda turli xil o‘rganish usullari (visual, auditory, tactile, kinesthetic,…). Ingliz tilini oson o‘rgatish uchun o‘quvchilarning o‘rganish usullarini aniqlash yo‘llari. Turli xil o‘rganish uslublariga mos o‘quv materiallarini tayyorlash. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari.

Harf va tovushlarni farqlashni o‘rgatish usullari. Talaffuz, so‘z urg‘usi, so‘z va gapda ohangning o‘rni, nutqiy bog‘lanishlar. Ingliz tilida talaffuzni

o‘rgatishning qiyinchiliklari, xususiyatlari. Talaffuzni o‘rgatishning samarali usullari. Boshlang‘ich sinflarda, darsda o‘qituvchining talaffuzi. 1-4-sinf xorijiy til darsliklari yordamida to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatish mashqlari tahlili va ular bilan ishlash metodikasi. Intonatsiya va urg‘uni o‘rgatishda samarali mashqlardan foydalanish tajribasidan. Talaffuz malakalarini rivojlantiruvchi o‘yinlar.

Ingliz tili darslarida o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning so‘z boyligini va nutqni ostirish. Ingliz tili darslari uchun qiziqarli o‘quv materialini tayyorlash va o‘quvchilarga yetkazishda yangicha yondashuvlar. O‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatishda o‘yinlarning o‘rni va roli. Mavzuga mos o‘yinlarni tanlash yo‘llari.

O‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni hal eta olish va bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan turli ta’lim yondashuvlari, texnologiya va metodlar. Boshlang‘ich sinf darsliklari mazmuni, dars ishlanmalarini ishlab chiqish, darslarni taqdim etishning o‘ziga xos xususiyatlari.

4.8. Tanlov fanlari

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha qayta tayyorlash kursiga mos ravishda, mavjud ehtiyoj va buyurtmachilarni takliflari inobatga olingan holda ishlab chiqiladi.

Yakuniy attestatsiyasi

Ta’lim muassasalarida tashkil qilinadigan kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kurslari bitiruvchilarining yakuniy attestatsiyasi mazkur kurslarning o‘quv rejasi hamda o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq o‘tkaziladi.

Yakuniy attestatsiyasi kursning o‘quv rejasidagi o‘quv fanlari bloklari (mutaxassislik va ixtisoslik) bo‘yicha yakuniy nazoratdan (test, yozma yoki ijodiy ish, og‘zaki) iborat.

Yakuniy nazoratga qayta tayyorlash kursi ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan tinglovchilar qo‘yiladi.

Yakuniy attestatsiyasi ta’lim muassasasida qayta tayyorlash kurslari bo‘yicha tuziladigan yakuniy attestatsiya komissiyalari (bundan buyon matnda komissiya deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar fanlar doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturning axborot-metodik ta’minoti

Bloklarni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog‘oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Huquqiy-me’yoriy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktab ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF – 5712-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son)

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.12.2018 yil, 09/18/997/2289-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79 son Farmoni, — T.: 2023.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori, — T.: 2024.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining ta’limga oid qarorlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tegishli buyruqlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

6. Umumta’lim maktablari 1-11–sinflari uchun ingliz tilidan o‘quv dasturlari, 2024-yil.

7. Umumta’lim maktablari ingliz tili darsligi majmualari:

- Susannah Reed with Kay Bentley. Gues What 1- 6- sinflar uchun. Cambridge University Press. 2021

- Joanna Kosta, Melannie Williams. Prepare. 7-11-sinflar uchun. Cambridge University Press. 2021.

Fanga oid adabiyotlar:

1. Adam Szczegielniak. Introduction to Linguistic Theory. Phonetics: The Sounds of Language. https://scholar.harvard.edu

2. Adrian Underhill. Sound Foundations. Learning and teaching pronunciation. Macmillian Publishers Limited, 2005

3. Adrian Doff. Teach English. Cambridge, 1994.

4. Aish, F. and Tomlinson, J. Collins EAP. Lectures. Learn Listening and Note – Taking Skills. Collins Publishers, London, 2013.

5. Anikin G.V. Mixalskaya N.P. “Ingliz adabiyoti tarixi”. M., 1985

6. Azizxodjayeva A.K. Pedagogik texnologiya — T., 2006.

7. Baqoyeva M., Muratova E., Ochilova M. Ingliz adabiyoti. T. : 2010

8. Baugh, Albert C. and Thomas Cable A. History of the English Language, 4th edition, London: Routledge. 1993.

9. Berardo, S. The use of authentic materials in the teaching of reading. The Reading Matrix, 6(2), 2006. 60-69.

10. British Council. English for Academics 1 and 2nd. British Council. 2016.

11. Daise, D & Norloff, Ch. Q: Skills for Success. Reading and writing. Oxford. Second Edition. 2015.

12. David Bohlke. Skillful Foundation Reading & Writing Second edition Student’s Book Pack. Macmillan Education, 2018.

13. Dorothy E. Zemach. Open Mind. A1 Student’s book. Macmillan education limited. 90 pages, 2014.

14. Driscol, L. Reading Extra A resource book of multi-level skills activities. CUP. 2004.

15. Earl, L. (). Assessment as Learning: Using Classroom Assessment to Maximise Student Learning. Thousand Oaks, CA: Corwin Press. 2003.

16. Fennel, Barbara A. A History of English. Oxford: Blackwell Publishers. 2001.

17. Fry, E. B. Skimming and scanning Pre-intermediate. Jamestown Publishers. 2000.

18. Gill Holley. Get involved. A1+ Student’s book. Macmillan education limited. 128 pages, 2021.

19. Greenall, S. & D. Pye, Reading 1, Cambridge Skills for Fluency. Cambridge: CUP. 2007.

20. Hattie, J., & Timperley, H. The Power of Feedback. Review of Educational Research, 77(1), 2007, pp. 81-112.

21. Ilyish B.A. The structure of Modern English, M,1995.

22. Ivasheva V.V. “XIX asr — Angliya adabiyoti”. M., 1984.

23. Jacobson, E., Degener, S. and Purcell-Gates, V. Creating Authentic Materials and Activities for the Adult Literacy Classroom: A Handbook for Practitioners. USA: NCSALL, 2003.

24. Jack C. Richards and Theodore S. Rodgers Approach and methods in language Teaching. Cambridge University. Press. 1986.

25. Jalolov J.J. “Chet tili o‘qitish metodikasi” — T., 1996.

26. Kilickaya, F. Authentic materials and culture content in EFL classrooms. The Internet ELT Journal, 10(7), 2004.

27. Конишева А.В. Английский язик. Современние методи обучения. (Английский язык. Современные методы обучения). Минск, 2005.

28. Kovasz, K. Collins Эnglish for Exam. Writing for IELTS, Harper Collins Publishers, London, 2011.

23. Larsen-Freeman, Diane. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press, 2000

24. Louis Rogers and Jennifer Wilkin, Dorothy E.Zemach (2012) Skillful 3 ва 4. Reading and writing. Macmillan.

25. Mark Hancock. English Pronunciation in Use. Cambridge university press, 2003.

26. Marianne Celce-Murcia, Donna M. Brinton, Janet M. Goodwin, Barry Griner. Teaching Pronunciation. A course book and reference guide. Cambridge University Press, 2010.

27. Mixalskaya N.P., Anikin. G.V. XX asr ingliz romani. M., 1982.

28. Mirzayeva, Z. and Jalilov, K. English. Key to Success, Part 1. The Outline of English Grammar. Turon zamin Ziyo, Tashkent, 2014.

29. Newspapers and magazines (e.g. English Teaching professional, Modern English Teacher, Uzbekistan Today, The Economist, The New Scientist, National Geographic etc).

30. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi.- T.. O‘qituvchi, 1995.

31. Resource Centre Manager Training materials — British Council August 5, 2010.

32. Swan, M. Practical English Usage. Third ed., revised. Oxford University Press, Oxford, 2005.

33. Scarry, S., & Scarry, J. The Writer’s Workplace with Readings: Building College Writing Skills. Thomson Learning. Sixth Edition. 2010.

34. Teaching English – Training Videos- British Council, 2008.

35. Teaching Knowledge Test (TKT), Modules 1-3. Handbook for Teachers, University of Cambridge ESOL Examinations. 2021.

36. Training materials and manuals. A.Avloni Retraining and In-Service Institute of Managers and Specialists of Public Education system, 2015-2017.

37. Virginia Evans. Successful writing upper-intermediate. Express publisher. 2000.

38. Virginia French Allen “Techniques in teaching vocabulary”, Oxford University Press, 1993.

39. Williams, A. Collins English for Exam. Writing for IELTS Harper Collins Publishers, London, 2011.

40. Xoshimov O‘. Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi — T., 2003.
41. Z.Harris, Transformational Theory, “Language” 1996,v 41, N3.
42. Zaripova R.A. Chet tili o‘qitish metodikasidan qo‘llanma. – T., 1986.
43. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2012.
44. A.A. Abduqodirov, Q.M. Karimov, I.A. Yuldoshev. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015.
45. B.Boltayev, A.Azamatov va boshqalar. Microsoft Office dasturlari MS Word // Toshkent, 2014 yil.
46. S.S. Jumanazarov, B.Xaydarov, D.Li, Sh.Qayumov “Kompyuter savodxonligi asoslari”.–T.:2014 y.
47. Aripova S.X.“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2010 y.
48. R.Mavlonova. D.Abdurahimova. “Pedagogik mahorat”. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2012 y.
49. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – T.: “Nihol”, 2013y.
50. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil
51. Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil
52. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiev. “Pedagogika”. – T.: “O‘qituvchi”, 2010 y.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.developreading.com
2. www.online-literature.com
3. www.literature.org/
4. www.pearsonlongman.com/ae/
5. https://www.nationalgeographic.com/science
6. www.teachingenglish.org – Britaniya Kengashi sayti — Teaching English Website and resources of English – British Council.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 30 ”sentabrdagi
367-son buyrug‘iga
5.20-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

TARIX FANINI O‘QITISH HUQUQINI BERISH BO‘YICHA KASBIY VA PEDAGOGIK QAYTA TAYYORLASH KURSINING

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar: **N.X. Mannanova –** A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti;
N.M.Turapova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti.
D.M. Hakimova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent;
M.T. Ergasheva – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Pedagogika, psixologiya” kafedrasi mudiri p.f.d. (DSc), dotsent.
M.U. Badalova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rektor maslahatchisi.
F.A. Murodova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Tayanch doktorant.

Taqrizchilar: **X.M.Xakimova** – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.
N.N.Narziyev – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti tarix kafedrasi dotsenti, t.f.d. (PhD).
N.A. Yuldasheva – Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.d., DSc, prof.
D. F. Yusupova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim menejmenti kafedrasi mudiri v.b.

Mazkur o‘quv reja va dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 20__-yil _____dagi __-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KURSINING O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:

1. **Tabiiy va ilmiy fanlar**

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

2. Pedagogika va psixologiya

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

2.2. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

2.5. Umumiy pedagogika

2.6. Umumiy psixologiya

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

3. Umumkasbiy fanlar

3.1. Tarixshunoslik va manbashunoslik

3.2. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi

3.3. O‘zbek davlatchiligi tarixi

3.4. Tarixiy geografiya

3.5. Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm

3.6. Arxeologiya

3.7. Etnologiya

3.8. Arxivshunoslik va muzeyshunoslik

3.9.Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi

4. Ixtisoslik fanlari

4.1. Tarix fanini o‘qitish metodikasi

4.2. Sharq allomalarining ilmiy merosi

4.3. Jahon tarixi

4.4. O‘zbekiston tarixi

4.5. O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi

4.6. Yordamchi fanlar tarixi

4.7. Tanlov fanlari:

4.7.1. Jahon sivilizatsiyasi tarixi

4.7.2. Raqamli tarix

4.7.3. Fan va texnika tarixi

1. TABIIY VA ILMIY FANLAR

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

Ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Maktab ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”i, Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

Maktab ta’limi sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar.

Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. Maktablarning lokal hujjatlari (ustav, ichki tartib qoidalar).

O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari.

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. Ta’lim oluvchilarning informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi.

Fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Ta’lim oluvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash texnologiyalari zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasi, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish kabi bilimlarga ega bo‘lishi.

Operatsion tizimlar, ularning turlari bilish faolligini oshirish va mustaqil ta’limini tashkil etish asosida amaliy dasturlardan foydalanib, fanni o‘zlashtirishi.

Amaliy dasturlar asosida darslarni tashkil etish. Microsoft Office dasturlarida fanga oid elektron ishlanma va taqdimotlarni yaratish texnologiyalari.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda, o‘zining kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish, amaliy dasturlar, jumladan MS Ofice dasturlar paketi va ularda ishlash,

amaliyotda qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi, interfaol ta’lim, “Case study” yordamida o‘quv jarayonida AKTdan foydalanish fanini o‘qitishda amaliy dasturlardan maqsadli foydalanish. Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda elektron jadval muharrirlaridan, jumladan MS Excel dasturi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish. MS Excelda avtomati qo‘shish, avtoto‘ldirish, sodda formulalar, funksiyalar, diagrammalar va filtrlash. Power Point dasturida taqdimotlar yaratish.

Multimediali darslar asosida ta’lim samaradorligini oshirish.

Ta’lim oluvchilarning kasbiy yo‘nalishlaridagi bilish faolligini oshirishda multimedianing asosiy elementlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, audio va video axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

Internet tarmog‘i vositalari. Elektron pochta, ro‘yxatdan o‘tish va fanni o‘qitishda undan foydalanish.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda masofadan o‘qitish texnologiyasidan foydalanib, fanni o‘qitish. Masofaviy ta’limda mahorat darslari, vebinarlarni tashkil etish texnologiyalari. LMS texnologiyasi.

Masofaviy ta’lim. O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.

O‘qituvchining virtual kutubxonasi. O‘quvchining elektron portfoliosi. Fanni o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi.

Internet. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar. Internet turlari va ularning klassifikatsiyasi. Internet xizmatlari va jumladan elektron pochta xizmati.

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

Kirish. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. O‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.

Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining tarixi va rivojlanish tendensiyalari, anatomiya, fiziologiya, yosh fiziologiyasi va gigiyena fanlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining biologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Sog‘lom avlod dasturi va uni targ‘ib qilish. Respublikamizda bolalar salomatligini saqlash yo‘lida olib borilayotgan islohotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena sohasidagi yutuqlar. Fanning vazifalari, o‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Ta’lim jarayonida ratsional usullarni qo‘llashda, har bir o‘quvchiga individual yondashishda pedagoglarning bola organizmining o‘ziga xos o‘sish va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimga ega bo‘lishlari. Yoshlik davrlari va yoshga oid o‘zgarishlari haqida tushuncha. Hujayraning umumiy tuzilishi. Irsiy kasalliklar va ularning turlari.

Nerv tizimining yosh xususiyatlari.

Nerv tizimining ahamiyati va umumiy tuzilishi shakli. Nerv markazlari haqida tushuncha. Nerv markazlarining fiziologik xususiyatlari: qo‘zg‘alish va tormozlanish, taassurotlarni summatsiyalash, kislorod tanqisligiga chidamsizlik, irradiatsiya, induksiya, A.A. Uxtomskiyning “Dominanta qonuni”. Markaziy nerv tizimi bo‘limlari-ning yoshga oid xususiyatlari. Vegetativ nerv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Organizm reflektor faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatini tekshirish usullari. Shartli va shartsiz reflekslar haqida tushuncha. Ularning bir-biridan farqi. Shartli reflekslarning hosil bolishidagi shart-sharoitlar. Dinamik stereotip, nutq funksiyasi va uning fiziologik asosi. Bolalar oliy nerv faoliyatining tiplari va ularning plastikligi.

Nerv tizimi gigiyenasi. Bolalar va o‘smirlarning ishchanlik qobiliyati, charchash va o‘ta charchash haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiya psixogigiyeniyasi. Nevroz (asabiylik). Asab buzilishini oldini olish.

Analizatorlarning yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Analizatorlarning umumiy tuzilishi va ahamiyati. Analizatorlarning turlari: ko‘rish analizatorining yosh xususiyatlari. Ko‘rish qobiliyatining pasayishini oldini olish. Eshitish analizatori. Bolalarda eshitish organining rivojlanishi. Eshitish gigiyenasi. Muvozanat apparati.

Ichki sekretsiya bezlarining yosh xususiyatlari.

Organizmdagi fiziologik jarayonlarining neyron-endokrin sistemasi orqali boshqarilishi. Ichki sekretsiya bezlari haqida tushuncha. Ichki sekretsiya bezlarining joylashuvi. Garmonlar, ularning organizmdagi vazifasi. Organizmning gumoral boshqaruvida garmonlarning tutgan o‘rni. Garmon va stress. Garmonlar va jinsiy yetilish. Ichki sekretsiya bezlarining yoshga oid xususiyatlari.

Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Tayanch-harakat apparatining ahamiyati va vazifasi. Odam skeletining umumiy tuzilishi va yosh xususiyatlari. Suyak tuzilishining yosh xususiyatlari. Umurtqa pog‘onasi va ularning egriliklari, egriliklarning shakllanishi. Bosh, gavda va qol-oyoq skeletining o‘sishi va rivojlanishi. Muskullarning dinamik va statik ishi. Turli yosh davrlarida mushaklar kuchi, tezligi, chaqqonligi, chidamliligi, va massasining o‘zgarishi. Charchash, uning fiziologik mexanizmi. Skolioz, uning kelib chiqish sabablari va uni oldini olish.

Ovqat hazm qilish tizimining yosh xususiyatlari va ovqatlanish gigiyenasi.

Og‘iz boshligida, me’da va ichakda ovqat hazm bo‘lishining xususiyatlari. Jigarning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Moddalar va energiya almashinuvining yosh xususiyatlari. Bola o‘sishi va rivojlanishida suv, mineral tuzlar va vitaminlarning ahamiyati. Turli yosh davrlarda bolalar ovqatlanishining o‘ziga xosligi. Ovqatlanish gigiyenasi.

Qon va qon aylanish tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Qonning ahamiyati. Qon tarkibi, uning vazifalari. Ularning yosh xususiyatlari. Qon aylanishining ahamiyati. Katta va kichik qon aylanish doirasi. Ona qornida homilaning qon aylanishi. Yurakning funksiyalari va yosh xususiyatlari. Puls va qon bosimi. Ularning yosh xususiyatlari.

Nafas organlarining yosh xususiyatlari va gigiyenasi. Nafas olishning ahamiyati. Nafas tizimining vazifasi. Tashqi va ichki nafas olish. O‘pkaning tiriklik sig‘imi. O‘pka ventilyatsiyasi. Uning yoshga, jismoniy mashqqa bog‘liqligi. Muskul ishi vaqtida nafas olish. Nafas gigiyenasi.

Ayiruv tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Ayiruv jarayonlarining ahamiyati. Buyraklar tuzilishi va ularni yosh xususiyatlari. Siydik hosil bo‘lish mexanizmi. Turli yoshdagi bolalar sutkalik siydik miqdori. Bolalarda tunda siydik tuta olmaslik, uning kelib chiqish sabablari.

Salomatlik haqida tushuncha. Bolalar va o‘smirlar salomatlik holati. Kasalliklar. Sog‘liq holatining maktab o‘quvchisining ishchanlik qobiliyatiga ta’siri. O‘tkir va surunkali kasalliklar. Kasalliklarni tarqalish manbalari. Tug‘ma va hayot davomida orttirilgan immunitet. Ta’lim va tarbiyaning tinglovchi sog‘ligiga ta’siri.

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

O‘zbekiston Respublikasida atrof muhitni muhofaza qilish masalasida amalga oshirilayotgan isloxotlar. Atrof-muhit tushunchasi va asosiy komponentlari (havo, suv, tuproq, biologik xilma-xillik) haqida tushunchalar berish.

Inson faoliyatining ekologiyaga ta’siri (sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi). Ekologik inqirozlar va ularning oqibatlari (global isish, cho‘llanish, deforestatsiya).

Yashil iqtisodiyot nima? Uning asosiy tamoyillari. Innovatsion yechimlar orqali ekologik muammolarni hal qilish. Quyosh va shamol energiyasi, bioyoqilg‘i, energiya samaradorligi. Oqilona suv va chiqindi boshqaruvi.

Ekologik madaniyat. Fuqaroning ekologik xatti-harakatlari (maishiy chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, transportdan foydalanish odatlari). Jamiyatdagi ekologik tashabbuslar (ko‘ngillilar harakati, daraxt ekish, eko-marafonlar). Aholi o‘rtasida va jamoalarda ekologik faollikni oshirish yo‘llari.

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish. Qonunlar, jazolar va profilaktika choralar.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning biologik, psixologik va ijtimoiy oqibatlari. Giyohvand moddalarni sog‘likka salbiy ta’sirlari. Davolash, reabilitatsiya va jamiyatga moslashuv, davolash usullari (narkologik xizmatlar).

Dunyo va O‘zbekistonda giyohvand moddalar tarqalishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

Milliy strategiyada belgilangan asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi (giyohvand moddalar aylanmasi, tarqatish, saqlash va iste’mol qilish bo‘yicha).

2. PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

O‘quvchilarni baholash nazariyasi. Baholash, baholashning maqsadi va vazifalari. Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot). Baholash turlari (diagnostik, formativ, summativ). Baholash tamoyillari va mezonlari.

O‘quvchilarning sinfdagi faoliyatini baholash. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalari.

O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholash. O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari(tanqidiy, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasi.

2.2. Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar

Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar. Hozirgi kunda jahonda va O‘zbekiston ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan ilg‘or xorijiy tajribalar haqida umumiy ma’lumot. “5E” modeli haqida tushuncha. “4K” tizimi. XXI asr ko‘nikmalari.

“Lesson Study” metodikasining mohiyati. Sharq va G‘arb mamlakatlarida “Lesson Study” yondashuvining paydo bo‘lishi va hozirgi kundagi ahamiyati. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Lesson Study” yondashuvidan foydalanishning amaliy talqini. Boshlang‘ich ta’limda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. 10–11- sinflarda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish istiqbollari. Raqamli ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt.

Ta’limda IT va raqamli platformalardan foydalanish. Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari. Inklyuziv ta’limni joriy etishdagi afzallik va kamchiliklar. Ta’limda kreativlikdan foydalanish. Ta’limda kreativlikning amaliy talqini. O‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv.

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi modernizatsiya jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish muammosi. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv fanini o‘rganishda tinglovchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish. Pedagogik kompetentlikka oid akmeologik yondashuvlar.

Metodik kompetentlik. Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalarini shakllantirish. Mashg‘ulotlarni metodik jihatdan tashkil etish, bilimlarni oqilona baholay olish. Ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish. O‘z kasb mahoratini tinmay oshirib borish.

O‘qituvchi kasbiga qo‘yilgan talablar. Pedagogik kreativlik. Interfaol o‘qitish metodlari asosida tinglovchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi. Pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlari. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari va shartlari. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo‘l va shakllari. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari.

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash. Tarbiya tushunchasini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni. Buyuk allomalarning tarbiya borasidagi qarashlari. Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari.

Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. Maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyati. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati.

Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash. Insonlar ongida ma’naviy va o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish usullari. Shaxsning ma’naviy yuksalishida milliy qadriyatlarning o‘rni.

Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish.

Intellekt so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Insonning aqliy qobiliyatini rivojlantirish usullari. Shaxsning voqelikka munosabatlarini o‘rganish. Boshqarish faoliyati. Fikrlash, o‘qish-o‘rganish qobiliyati. Insonning dunyoni bilish va ijtimoiy tajribasini qabul qilish qobiliyati. Oqilona ish bajarishni o‘rganish. Voqea-hodisalarni oldindan bilish.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish. Tarbiyaga yo‘naltirilgan vaziyatlarni asoslash. O‘quv munozaralarini tizimli tarzda tashkil etish. O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga ongli ravishda yondashish. O‘quvchilar bilimlarini mustahkamlab axborotlarni egallashga o‘rgatish usullari. O‘quvchilarda muammolarni bilish va ular haqida fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatish usullari.

Tarbiya texnologiyalari.

Tarbiya texnologiyasi haqida tushuncha. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish. O‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish usullari. Tarbiya texnologiyasi rejalashtirish va unga erishish usullari. Tarbiya texnologiyasini modellashtirish. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini tashkil etish usullari. Tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash usullari.

Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari. Tarbiyaning maqsadi – shaxsning rivojlanishini ta’minlashdan iborat ekanligi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayonini tashkil etish mazmuni. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuvning mohiyati. Pedagogning asosiy vazifasi. Jamiyatda shaxs tarbiyasini shakllantirish usullari.

Tarbiya tizimida innovatsiyalar.

Tarbiya tizimining yangilanishida innovatsiyalarning o‘rni. Innovatsiyalarning amalga oshirish usullari. Innovatsiyani tashkil topish jarayonini mazmuni. Innovatsiyani falsafiy-metodologik (o‘qitish maqsadlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani nazariy (o‘qitish mazmuni, o‘qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani texnologik (o‘qitish jarayoni qoidalar tamoyili) asoslarini o‘rganish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Zamonaviy maktab rahbarining vazifasi. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish usullari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga o‘quvchilarni jalb qilish usullari. O‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish usullari. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.

Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari. Tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar tarbiyasidagi o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maktab rejasi bilan bog‘liqligini o‘rganish. Sinf rahbarlari va ota-onalar qo‘mitasi hamkorligi ishini o‘rganish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ishlarini o‘rganish. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishini asoslab berish.

Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash.

Jamoa so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoa tushunchasining ikki xil ma’noda ishlatilish mazmuni. Jamoani tashkil etish usullari. O‘quvchilar jamoasini rivojlantirish usullari. O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xos xususiyatlari. Jamoada shaxsni tarbiyalash usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari. Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o‘rni.

Sinfda sog‘lom muhitini yaratish. O‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va shakllantirish usullari. Sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari. Sinfda do‘stona munosabatlarni shakllantirish usullari. Ota-ona hamda o‘quvchilarning ma’naviy-madaniy qiziqishlari rivojlantirish usullari. Sinfda ta’lim-tarbiya samadorligini oshirish usullari.

Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiyaning zamonaviy usullari. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni va vositalari. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Jamiyatning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishiga, mehnat qilishiga o‘rgatish usullari.

O‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda sinf rahbariga qo‘yilgan talablar.

O‘quvchilarni o‘rganish usullari. O‘quvchilarga tarbiya va ta’lim berish usullari. O‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etish usullari. O‘quvchilarning o‘quv samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini

oshirishga ijodiy yondashishni o‘rganish usullari. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishiga qo‘yilgan talablar.

Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.

O‘quvchilar bilim sifatini oshirishda sinfda intizomlilikni mustahkamlash. Sinf rahbari ishini rejalashtirish.

Maktabda to‘garak ishlarini tashkil etish.

To‘garak a’zolarining bilim sifatini nazorat qilish. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan Davlat talablarining mazmuni. To‘garak ishlarida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullari. O‘quvchilarni to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilish usullari. O‘quvchilarning qiziqish va xohishlariga qarab to‘garak yo‘nalishlarini tanlash. To‘garak a’zolarining to‘laqonli bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Maktabda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda sinf rahbarining vazifalari. Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. O‘quvchilar ongida ma’naviyatni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarning o‘rni.

2.5. Umumiy pedagogika

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida qonun”i. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta’lim. Pedagogikaning ilmiy asoslari. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi.

Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.

Pedagogika fanining metodologiyasi, metodologik madaniyat haqida tushuncha. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limi.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: muhit, irsiyat, ta’lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari.

Didaktika – ta’lim nazariyasi.

Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma(model)lari. Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Ta’lim texnologiyasi. Innovatsion pedagogika mazmuni. Innovatsion jarayonning rivojlanishiga umumiy yo‘nalish. Ta’limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish. Muammoli ta’lim metodlari.

Ta’limning mazmuni.

O‘zbekiston maktablaridagi ta’limning mazmuni. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti. O‘quv rejasi, dasturlari va darsliklar. Darslik va o‘quv faoliyatini tashkil qilish.

O‘qitish jarayoni.

O‘quv jarayonini tashkil etishning shakllari. Ta’limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi. Dars – maktabda o‘quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli. Darsga qo‘yiladigan talablar. Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari. Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar.

O‘qitish metodlari.

O‘qitish metodlarining nazariy asoslari. O‘qitish metodlarining tasnifi. O‘qitishning og‘zaki metodlari. Yangi material ustida ishlash. O‘tilgan material ustida ishlash va yangi materialni o‘rganishga tayyorlanish. O‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari. Reproduktiv ta’limdan amaliy ta’limga o‘tish. O‘qitishning amaliy metodlari.

Kreativ ta’lim.

Kreativ ta’limga zamonaviy yondashish. Kreativlik va uning tashxis etilishi. Kreativ dars tuzilishiga doir metodik tavsiyalar. Kreativ dars yo‘nalishlarining mazmuni va psixologik asosi.

Tarbiya nazariyasi va usullari.

“Sharq allomalarining tarbiya haqidagi ilmiy-ma’naviy merosi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. O‘rta Osiyoda ilm-fan taraqqiyoti va ilmiy markazlar. Dunyoviy ilmlar rivoji va ilmlar tasnifi (IX — XII), Muso al-Xorazmiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiyning hayoti va faoliyati, Ahmad al-Farg‘oniy va Ahmad al-Marvaziyning hayoti va faoliyati. O‘rta Osiyoda diniy ilmlar taraqqiyoti. Imom al-Buxoriy va Abu Iso Muhammad at-Termiziyning hayoti va ilmiy merosi. Abu Nasr Forobiy – o‘rta asrning buyuk qomusiy olimi. Abu Mansur al-Moturidiy – kalom imomi va fiqh allomasi. Qaffol ash-Shoshiy – O‘rta Osiyolik buyuk alloma. Abu Ali ibn Sino – O‘rta Osiyolik buyuk ensiklopedist alloma. Abu Rayhon Beruniy – Xorazm Ma’mun akademiyasining raisi. Abu al-Mu’yin an-Nasafiy, Mahmud az-Zamaxshariy va Burhoniddin al-Marg‘inoniylarning ilmiy merosi. Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchining hayoti va ilmiy merosi. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati. O‘rta Osiyoda tasavvuf ilmi rivoji va tariqatlari. Dunyoviy ilmlar tasnifida ma’naviy-axloqiy

tarbiyaning rivoji.

Markaziy Osiyo musiqasi va raqs san’atining tarbiyaviy ahamiyati, milliy an’analar va urf odatlar, xalqimizning boy ma’naviy merosi, XXI-asr ilm-fan va madaniyat sohalarida yangiliklar.

4.3. “Tarbiya” fanini o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari. Tarbiyaning maqsadi, vazifalari va metodlari

Tarbiyaga oid umumiy tushunchalar, iboralar, tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, tasavvur va tafakkur uyg‘unligi, vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik, bag‘rikenglik, moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylash, yuksak fazilatlar, shaxsning ma’naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan rivojlanishiga yordam beradigan tamoyillar va uslubi. Tarbiya jarayoni shaxsni jamiyatga mos ravishda tarbiyalash va uning ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishini ta’minlash.

4.4. Komil inson kamolotida tarbiya – muhim omil sifatida. Sog‘lom avlod – yurt tayanchi.

Komil inson kamoloti va tarbiya – bu shaxsning barcha jihatlarini, ya’ni aqliy, ruhiy, jismoniy va axloqiy rivojlanishini ta’minlash jarayoni. Komil inson tarbiyasi, asosan, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida shakllantirish, maktab va oliy ta’lim muassasalari komil insonni tarbiyalashda asosiy roli, ta’lim jarayonida bilim berish bilan birga, axloqiy va madaniy qadriyatlarni ham o‘rgatish, jamiyatda mavjud ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlarning tarbiya jarayoniga ta’sirini anglash, ijtimoiy muhitda komil insonni shakllantirish.

4.5. Oilada tarbiyaviy an’analar va ma’naviyat tushunchalari. Oila qadriyatlari

Oila ma’naviyati – bu oilaning ichki muhitida, a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar va axloqiy qadriyatlar tizimi, oila ma’naviyati inson hayotining asosiy poydevori, oila ma’naviyatning ahamiyati, oila a’zolari o‘rtasida hurmat, sevgi va mehr-muhabbat muhitini yaratish, Oila ichidagi axloqiy me’yorlar va qadriyatlar, oila ma’naviyatini shakllantiruvchi omillar, oilaviy an’analar va urf-odatlar, oilada ochiq muloqot, ijtimoiy barqarorlik, oila ma’naviyati shaxsning rivojlanishiga ta’siri, oila ma’naviyatini oshirish yo‘llari.

4.6. Tarbiyada madaniyat va san’atining ahamiyati. Estetik tarbiya

O‘zbekistonning madaniyati va san’ati fanining maqsadi va vazifalari, O‘zbekistonning eng qadimgi davr madaniyati va san’ati, Bronza va ilk temir davri madaniyati va san’ati, Ahamoniylar davri madaniyati va san’ati, Antik davri madaniyati va san’ati, Ilk o‘rta asrlar madaniyat va san’ati, IX-XIII asrlarda O‘zbekiston madaniyati va san’ati, Amir Temur davrida madaniyat va san’at taraqqiyoti, Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda madaniyat va san’at rivoji, Buxoro xonligi va amirligi davri madaniyati va san’ati, Xiva xonligi davrida madaniyat va san’at, Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida Turkistonda madaniyat va san’at (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlari), Sovet mustabid tuzumi davrida O‘zbekiston madaniyati va san’ati, Mustaqillik yillarida O‘zbekiston madaniyati va san’ati**.** Qadimiy musiqa madaniyati va san’at namunalarining tarbiyaviy ahamiyati. Tarbiya an’analarini san’at namunalarida aks etishi.

4.7. Tarbiya va huquq fanlarini o‘qitish metodikasi. Huquqiy tarbiya

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitiladigan Tarbiya va huquq fanlarini o‘qitish metodikasi, uning maqsadi, mazmuni, obyekti va predmeti, o‘qitish usullari, metodlari, texnologiyalari, fanni o‘qitish samaradorligi, metodika, didaktika, ta’lim oluvchilarning hamkorlik ijodkorligi, 4K ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, dars mashg‘ulotlarida zamonaviy-innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish.

4.8. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. Fuqarolik tarbiyasi.

“Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” – bu o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy va iqtisodiy merosini qayta tiklash va rivojlantirish jarayonini, ushbu jarayonning ko‘plab davlatlar uchun muhim ahamiyati, xalqning o‘zligini, qadriyatlarini va ma’naviyatini mustahkamlashda asosiy roli, g‘oyasi negizida madaniy bilimlarini o‘zlashtirish, Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g‘oyasi orqali ma’naviyatini boyitish, yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini amaliy faoliyatda qo‘llash; ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan madaniy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari hamda mexanizmlarni yanada kengaytirish, fan doirasidagi zamonaviy loyihalar ishlab chiqish va tarbiyaviy-ijtimoiy ahamiyatini oshirish.

4.9. Tanlov fanlari

Yangi O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol, taraqqiyot va strategik yo‘li

Yangi O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol, taraqqiyot va strategik yo‘li,

O‘zbekistondagi iqtisodiy-siyosiy islohotlarning ma’naviy qiyofasi, O‘zbekistondagi madaniy va ma’rifiy islohotlar, O‘zbekistonda boshqaruv tizimi, Oliy Majlis. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi – fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi. Yangi O‘zbekistonning ta’lim tizimi islohotlari, O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi, O‘zbekiston jahon indekslarida, O‘zbekistonning rivojlanishida “Harakatlar strategiyasi 2017–2021” va “Taraqqiyot strategiyasi 2030” ahamiyati va roli.

Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans asoslarining shakllanishi

Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans asoslari O‘zbekistonning mustaqillik davrida, ya’ni 1991 yildan keyin shakllana boshlagan jarayon, Mustaqillik va milliy o‘zlik, ta’lim va ilm-fan, madaniyat va san’at, iqtisodiy rivojlanish, xalqaro aloqalar, Inson huquqlari va demokratiya, O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichiga o‘tishi va mamlakatning kelajakdagi istiqbollarini belgilash.

Tarbiya va ta’lim, o‘qituvchi va murabbiylarning tarbiyadagi roli

Tarbiya va ta’lim jarayonida o‘qituvchi va murabbiylarning roli. Ular nafaqat bilim beruvchilar, balki yosh avlodni tarbiyalovchi, ularning shaxsiyati va dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy shaxslar, bilim berish, tarbiyaviy faoliyat, shaxsiy namuna, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar, tarbiya va ta’lim jarayonida o‘qituvchi va murabbiylarning roli, shaxsiyatni shakllantirish va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirish.

Tarbiya jarayonida sport va jismoniy faoliyatning ahamiyati

Tarbiya jarayonida sport va jismoniy faoliyatning ahamiyati, jismoniy sog‘liqni yaxshilash, sport orqali muvaffaqiyatga erishish, ruhiy va ijtimoiy rivojlanish, ruhiy salomatlik, jamoaviy ish ko‘nikmalarini shakllantirish, muvaffaqiyatli natijalarda o‘z-o‘zini baholash, ruhiy o‘z-o‘zini baholash, ijtimoiy ko‘nikmalar orqali muloqotchanlikni shakllantirish, o‘quvchilarning umumiy ruhiy, jismoniy farovonligini yaxshilash usullari

Tarbiya, etika va estetika

Tarbiya, etika va estetika – bu hayotning muhim sohalardan, Insonni tarbiya qilish, aqidalarini shakllantirish va xulq-atvorini yo‘lga qo‘yish, etika, axloqiy qadriyatlar va qoidalarni o‘rganadi, insonning to‘g‘ri va noto‘g‘ri harakatlarini belgilaydi, estetika esa san’at, go‘zallik va estetik tajribalarni o‘rganadi, insonlarning

go‘zallikni qabul qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ushbu sohalar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va insonning ma’naviy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynaydi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va jamiyat ma’naviy qiyofasi

Amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning ma’naviy qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan. Bu islohotlar ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va iqtisodiy sohalarda yangiliklar kiritish orqali amalga oshirilmoqda. Ularning maqsadi axloqiy qadriyatlarni oshirish, madaniy merosni saqlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdir. Bunday islohotlar jamiyatda yangicha fikrlash, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni ta’minlaydi.

Davlat attestatsiyasi

Ta’lim muassasalarida tashkil qilinadigan kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kurslari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi mazkur kurslarning o‘quv rejasi hamda o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq o‘tkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi kursning o‘quv rejasidagi o‘quv fanlari bloklari (mutaxassislik va ixtisoslik) bo‘yicha yakuniy nazorat (test, yozma yoki ijodiy ish, og‘zaki) va bitiruv ishi himoyasidan iborat.

Yakuniy nazorat va bitiruv ishi himoyasiga qayta tayyorlash kursi ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan tinglovchilar qo‘yiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi ta’lim muassasasida qayta tayyorlash kurslari bo‘yicha tuziladigan yakuniy attestatsiya komissiyalari (bundan buyon matnda komissiya deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar fanlar doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturning axborot-metodik ta’minoti

Bloklarni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog‘oz

variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-6445145.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ–637- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5013007.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonuni: 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ–419- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-3088008.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF–5712- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-4312785.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF–60- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5841063.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni: 2022-yil 11-may, PF–134- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-6008663.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qO‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5239538.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba].– URL: https://lex.uz/ru/docs/-5828765.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–23 1- son qarori, T.: 2024.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. I.A. Karimov Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. Toshkent:

O‘zbekiston, 1996. 349 b.

2. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q //Islom Karimov. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. Toshkent: O‘zbekiston, 1999.

3. Sh.M. Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

4. Sh. M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

5. Sh.M. Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

6. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

7. Sh.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

8. Sh.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Fayziyeva U., Jumayev N. Umumiy psixologiya. Buxoro, 2021. – 219 bet.

2. Green, A. Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action, New York, NY: Routledge, 2014.

3. Gruenert S., Whitaker T. School Culture Recharged: Strategies to Energize Your Staff and Culture. ASCD. February 16, 2017. 200 pages. https://www.aitsl.edu.au/migrate-to-australia/apply-for-a-skills-assessment.

4. Human resources in education: development and utilization. Chinwe Edith Okafor. International Journal of Novel Research in Humanity and Social Sciences. 2018. pp 238-242.5.

5. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika [Maru]. Darslik. T., “Sahhof”, 2023, 416-bet.

6. Ibraimov X., Quronov M., lbragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Marn]. Darslik. — T., “Sahhof”, 2023.392-bet.

7. Ота-она — мураббий [Матн] / Х. Ибраимов, М.Куронов, Ж.Фозилов, Ф.Зарипов; — Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2024. — 220 б.

8. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, Ta’lim va tarbiyada innovatsion

pedagogik texnologiyalar. // Toshkent. – “Nihol” nashriyoti, 2013.

9. Ixtiyorova O‘. “Umumta’lim maktablarida pedagogik kengash faoliyatini tashkil etish”. Science and innovation/ Xalqaro konferensiya (To‘plam). -T., 2024, 718-723 betlar.

10. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent. “Akademnashr” nashriyoti. 2022. – 252 bet

11. Satish Prakash Chand, Karishma Kavita Pilley “Formativ va summative baholash O‘rtasidagi asosiy farqlarni tushunish”. – 2024.

12. Scheerens J., Glas C., Sally M. Educational evaluation, assessment, and monitoring. A systemic approach. Lisse abingdon exton (pa) Tokyo.

13. Schleicher A. PISA 2022: Insights and Interpretations. OECD 2023. 68 p.

14. Sharipov Sh., Zokirov I., Tohirov O‘. va b. Umumiy O‘rta ta’limning kasbga yo‘naltirilgan mazmunini klaster texnologiyalari. Metodik tavsiyanoma. – T.: “ABU MATBUOT-KONSALT”, 2012.

15. Sharipov Sh.S., Vorobyov A.I., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasb ta’limi pedagogikasi. — Toshkent., 2005. — 58 b.

16. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. O‘quv qo‘llanma. TDPU. –Toshkent. 2017. 160 bet

17. Shlyayxer A. Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? / so‘z boshi Sh.Shermatov, H.Umarova; Umumiy tahrir.

18. Djuraev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent: “Sanostandart” MChJ, 2010. – 88 b.

19. Xidoyatova D.A. Samarali interaktiv metodlar 1.0/ – Toshkent: “VNESHINVESTPROM”, 2024. – 152 b.

20. D.Norboeva; tarjimonlar: R.Axmatova, D.Norboeva. – Toshkent: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022 – 344 bet.

21. Alimova R. R. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 2009.

22. Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi / O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDShI, 2014. 233 b.

23. Qo‘chqorov V., O.Mahmudov, Z.Zamonov. Ma’naviyat asoslari. T., 2018.

24. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, 2000. 368 b.

25. Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent., 2006.

26. Akademiya nauk v intellektualnoy istorii Uzbekistana. Tashkent: Yangi nashr, 2012. 224 s.

27. Amir Temur saltanati tarixiga oid yozma manbalar tadqiqi va tavsifi / To‘plovchi: A. Sharipov. Toshkent: Fan, 2020. 256 b.

28. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. (qadimgi zamon va O‘rta asrlar). T., 2001.

29. Babanskiy Yu. K. “Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktablarida o‘qitish metodlari”. T., “O‘zbekiston”, 1990.

30. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnoe texnologii obucheniya. Institut prof.obr.Ministerstva Obrazovaniya Rossii. M., 1995. 336 s.

31. Jabbarov I., Jabbarov S. Jahon dinlari tarixi. Toshkent: O‘zbekiston, 2002.

32. Jabborov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. Toshkent: Sharq, 1999

33. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Toshkent, 1999. 193 b.

34. Ishmuhamedov R., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. T., 2016.

35. Karimov F. Yaqin Sharqdagi etnosiyosiy muammolar va mintaqaviy xavfsizlik masalalari. Monografiya. — “Sharq” nashriyoti; ToshDShI, 2016.

36. Mavlanov O. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. T., 2008.

37. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. Toshkent: Fan, 2007.

38. Madraimov A., Fuzailova U. Tarixiy manbashunoslik. O‘quv qo‘llanma. T.: Fan. 2010.

39. Mamashokirov S., Hukumov A., Lafasov M.va boshqalar. Shaxs va jamiyat. Nazariy masalalar amaliy mashg‘ulotlar. T.: “O‘qituvchi”, 2005.

40. Mo‘minov I. O‘rta Osiyo tarixida Amir Temurning tutgan o‘rni. Toshkent, 1968. 43 b.

41. Paxrutdinov Sh., S.Saidolimov, D.Mamatqulov. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari (o‘quv qo‘llanma). — Toshkent 2017.

42. Sagdullayev A. O‘zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent, 2001.

43. Sagdullayev T. O‘zbekiston tarixi ilk yozma manbalarda. Toshkent, 1996. 255 b.

44. To‘xtayev I. Amir Temur va temuriylaming moliya-pul siyosati. “O‘zbekiston” NMIU, 2006

45. Hujjatlar. Arxiv atamalari izohli lug‘ati. T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”. 2000.

46. Umumiy o‘rta ta’limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent 2017 yil.

47. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2012.

48. A.A. Abduqodirov, Q.M. Karimov, I.A. Yuldoshev. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015.

49. B.Boltayev, A.Azamatov va boshqalar. Microsoft Office dasturlari MS Word // Toshkent, 2014 yil.

50. S.S. Jumanazarov, B.Xaydarov, D.Li, Sh.Qayumov “Kompyuter savodxonligi asoslari”.–T.:2014 y.

51. Aripova S.X.“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2010 y.

52. R.Mavlonova. D.Abdurahimova. “Pedagogik mahorat”. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2012 y.

53. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – T.: “Nihol”, 2013y.

54. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil

55. Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil

56. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiev. “Pedagogika”. – T.: “O‘qituvchi”, 2010 y.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
5. infocom.uz – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali sayti.
6. uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.
7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
8. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
9. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 30 ”sentabrdagi
367-son buyrug‘iga
5.22-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

MATEMATIKA FANINI O‘QITISH HUQUQINI BERISH BO‘YICHA KASBIY VA PEDAGOGIK QAYTA TAYYORLASH KURSINING

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar: **D.U. Turanova –** A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining matematika fani metodisti.
Xolboyev – Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy matematika”
kafedrasi dotsenti, f.-m.f.f.d. (PhD).
E. Ismoilov – Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy matematika” kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD).
D.M. Hakimova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent;
M.T. Ergasheva – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Pedagogika, psixologiya” kafedrasi mudiri p.f.d. (DSc), dotsent.
M.U. Badalova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rektor maslahatchisi.
F.A. Murodova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Tayanch doktorant.

Taqrizchilar: **M. E. Nurillayev –** Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Umumiy matematika” kafedrasi mudiri, dotsent, f.-m.f.f.d. (PhD).
E.E. Ostonayev – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti
N.A. Yuldasheva – Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.d., DSc, prof.
D. F. Yusupova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim menejmenti kafedrasi mudiri v.b.

Mazkur o‘quv dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2025-yil _____dagi __-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KURSNING NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:

1. **Tabiiy va ilmiy fanlar**

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

2. Pedagogika va psixologiya

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

2.2. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

2.5. Umumiy pedagogika

2.6. Umumiy psixologiya

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

3. Umumkasbiy fanlar

3.1. Inklyuziv ta’lim

3.2. Matematik jarayonlarni modellashtirish

3.3. Xalqaro baholash dasturlari

3.4. Matematikani kasbga yo‘naltirib o‘qitish

3.5. Matematikani o‘qitishda innovatsion ta’lim

4. Ixtisoslik fanlari

4.1. Matematik analiz

4.2. Algebra sonlar nazariyasi

4.3. Geometriya

4.4. Matematika o‘qitish metodikasi

4.5. Matematikadan misol va masalalar yechish

4.6. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari

4.7. Tanlov fani 1

4.8. Tanlov fani 2

1. TABIIY VA ILMIY FANLAR

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

Ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Maktab ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”i, Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

Maktab ta’limi sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar.

Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. Maktablarning lokal hujjatlari (ustav, ichki tartib qoidalar).

O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari.

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. Ta’lim oluvchilarning informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi.

Fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Ta’lim oluvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash texnologiyalari zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasi, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish kabi bilimlarga ega bo‘lishi.

Operatsion tizimlar, ularning turlari bilish faolligini oshirish va mustaqil ta’limini tashkil etish asosida amaliy dasturlardan foydalanib, fanni o‘zlashtirishi.

Amaliy dasturlar asosida darslarni tashkil etish. Microsoft Office dasturlarida fanga oid elektron ishlanma va taqdimotlarni yaratish texnologiyalari.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda, o‘zining kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish, amaliy dasturlar, jumladan MS Ofice dasturlar paketi va ularda ishlash, amaliyotda qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi, interfaol ta’lim, “Case study” yordamida o‘quv jarayonida AKTdan foydalanish fanini o‘qitishda amaliy dasturlardan maqsadli foydalanish. Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda elektron jadval muharrirlaridan, jumladan MS Excel dasturi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish. MS Excelda avtomati qo‘shish, avtoto‘ldirish, sodda formulalar, funksiyalar, diagrammalar va filtrlash. Power Point dasturida taqdimotlar yaratish.

Multimediali darslar asosida ta’lim samaradorligini oshirish.

Ta’lim oluvchilarning kasbiy yo‘nalishlaridagi bilish faolligini oshirishda multimedianing asosiy elementlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, audio va video axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

Internet tarmog‘i vositalari. Elektron pochta, ro‘yxatdan o‘tish va fanni o‘qitishda undan foydalanish.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda masofadan o‘qitish texnologiyasidan foydalanib, fanni o‘qitish. Masofaviy ta’limda mahorat darslari, vebinarlarni tashkil etish texnologiyalari. LMS texnologiyasi.

Masofaviy ta’lim. O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.

O‘qituvchining virtual kutubxonasi. O‘quvchining elektron portfoliosi. Fanni o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi.

Internet. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar. Internet turlari va ularning klassifikatsiyasi. Internet xizmatlari va jumladan elektron pochta xizmati.

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

Kirish. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. O‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.

Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining tarixi va rivojlanish tendensiyalari, anatomiya, fiziologiya, yosh fiziologiyasi va gigiyena fanlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining biologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Sog‘lom avlod dasturi va uni targ‘ib qilish. Respublikamizda bolalar salomatligini saqlash yo‘lida olib borilayotgan islohotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena sohasidagi yutuqlar. Fanning vazifalari, o‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Ta’lim jarayonida ratsional usullarni qo‘llashda, har bir o‘quvchiga individual yondashishda pedagoglarning bola

organizmining o‘ziga xos o‘sish va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimga ega bo‘lishlari. Yoshlik davrlari va yoshga oid o‘zgarishlari haqida tushuncha. Hujayraning umumiy tuzilishi. Irsiy kasalliklar va ularning turlari.

Nerv tizimining yosh xususiyatlari.

Nerv tizimining ahamiyati va umumiy tuzilishi shakli. Nerv markazlari haqida tushuncha. Nerv markazlarining fiziologik xususiyatlari: qo‘zg‘alish va tormozlanish, taassurotlarni summatsiyalash, kislorod tanqisligiga chidamsizlik, irradiatsiya, induksiya, A.A. Uxtomskiyning “Dominanta qonuni”. Markaziy nerv tizimi bo‘limlari-ning yoshga oid xususiyatlari. Vegetativ nerv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Organizm reflektor faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatini tekshirish usullari. Shartli va shartsiz reflekslar haqida tushuncha. Ularning bir-biridan farqi. Shartli reflekslarning hosil bolishidagi shart-sharoitlar. Dinamik stereotip, nutq funksiyasi va uning fiziologik asosi. Bolalar oliy nerv faoliyatining tiplari va ularning plastikligi.

Nerv tizimi gigiyenasi. Bolalar va o‘smirlarning ishchanlik qobiliyati, charchash va o‘ta charchash haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiya psixogigiyeniyasi. Nevroz (asabiylik). Asab buzilishini oldini olish.

Analizatorlarning yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Analizatorlarning umumiy tuzilishi va ahamiyati. Analizatorlarning turlari: ko‘rish analizatorining yosh xususiyatlari. Ko‘rish qobiliyatining pasayishini oldini olish. Eshitish analizatori. Bolalarda eshitish organining rivojlanishi. Eshitish gigiyenasi. Muvozanat apparati.

Ichki sekretsiya bezlarining yosh xususiyatlari.

Organizmdagi fiziologik jarayonlarining neyron-endokrin sistemasi orqali boshqarilishi. Ichki sekretsiya bezlari haqida tushuncha. Ichki sekretsiya bezlarining joylashuvi. Garmonlar, ularning organizmdagi vazifasi. Organizmning gumoral boshqaruvida garmonlarning tutgan o‘rni. Garmon va stress. Garmonlar va jinsiy yetilish. Ichki sekretsiya bezlarining yoshga oid xususiyatlari.

Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Tayanch-harakat apparatining ahamiyati va vazifasi. Odam skeletining umumiy tuzilishi va yosh xususiyatlari. Suyak tuzilishining yosh xususiyatlari. Umurtqa pog‘onasi va ularning egriliklari, egriliklarning shakllanishi. Bosh, gavda va qol-oyoq skeletining o‘sishi va rivojlanishi. Muskullarning dinamik va statik ishi. Turli yosh davrlarida mushaklar kuchi, tezligi, chaqqonligi, chidamliligi, va massasining o‘zgarishi. Charchash, uning fiziologik mexanizmi. Skolioz, uning kelib chiqish sabablari va uni oldini olish.

Ovqat hazm qilish tizimining yosh xususiyatlari va ovqatlanish gigiyenasi.

Og‘iz boshligida, me’da va ichakda ovqat hazm bo‘lishining xususiyatlari. Jigarning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Moddalar va energiya almashinuvining yosh xususiyatlari. Bola o‘sishi va rivojlanishida suv, mineral tuzlar va vitaminlarning ahamiyati. Turli yosh davrlarda bolalar ovqatlanishining o‘ziga xosligi. Ovqatlanish gigiyenasi.

Qon va qon aylanish tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Qonning ahamiyati. Qon tarkibi, uning vazifalari. Ularning yosh xususiyatlari. Qon aylanishining ahamiyati. Katta va kichik qon aylanish doirasi. Ona qornida homilaning qon aylanishi. Yurakning funksiyalari va yosh xususiyatlari. Puls va qon bosimi. Ularning yosh xususiyatlari.

Nafas organlarining yosh xususiyatlari va gigiyenasi. Nafas olishning ahamiyati. Nafas tizimining vazifasi. Tashqi va ichki nafas olish. O‘pkaning tiriklik sig‘imi. O‘pka ventilyatsiyasi. Uning yoshga, jismoniy mashqqa bog‘liqligi. Muskul ishi vaqtida nafas olish. Nafas gigiyenasi.

Ayiruv tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Ayiruv jarayonlarining ahamiyati. Buyraklar tuzilishi va ularni yosh xususiyatlari. Siydik hosil bo‘lish mexanizmi. Turli yoshdagi bolalar sutkalik siydik miqdori. Bolalarda tunda siydik tuta olmaslik, uning kelib chiqish sabablari.

Salomatlik haqida tushuncha. Bolalar va o‘smirlar salomatlik holati. Kasalliklar. Sog‘liq holatining maktab o‘quvchisining ishchanlik qobiliyatiga ta’siri. O‘tkir va surunkali kasalliklar. Kasalliklarni tarqalish manbalari. Tug‘ma va hayot davomida orttirilgan immunitet. Ta’lim va tarbiyaning tinglovchi sog‘ligiga ta’siri.

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

O‘zbekiston Respublikasida atrof muhitni muhofaza qilish masalasida amalga oshirilayotgan isloxotlar. Atrof-muhit tushunchasi va asosiy komponentlari (havo, suv, tuproq, biologik xilma-xillik) haqida tushunchalar berish.

Inson faoliyatining ekologiyaga ta’siri (sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi). Ekologik inqirozlar va ularning oqibatlari (global isish, cho‘llanish, deforestatsiya).

Yashil iqtisodiyot nima? Uning asosiy tamoyillari. Innovatsion yechimlar orqali ekologik muammolarni hal qilish. Quyosh va shamol energiyasi, bioyoqilg‘i, energiya samaradorligi. Oqilona suv va chiqindi boshqaruvi.

Ekologik madaniyat. Fuqaroning ekologik xatti-harakatlari (maishiy chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, transportdan foydalanish odatlari). Jamiyatdagi ekologik tashabbuslar (ko‘ngillilar harakati, daraxt ekish, eko-marafonlar). Aholi o‘rtasida va jamoalarda ekologik faollikni oshirish yo‘llari.

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish. Qonunlar, jazolar va profilaktika choralar.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning biologik, psixologik va ijtimoiy oqibatlari. Giyohvand moddalarni sog‘likka salbiy ta’sirlari. Davolash, reabilitatsiya va jamiyatga moslashuv, davolash usullari (narkologik xizmatlar).

Dunyo va O‘zbekistonda giyohvand moddalar tarqalishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

Milliy strategiyada belgilangan asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi (giyohvand moddalar aylanmasi, tarqatish, saqlash va iste’mol qilish bo‘yicha).

2. PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

O‘quvchilarni baholash nazariyasi. Baholash, baholashning maqsadi va vazifalari. Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot). Baholash turlari (diagnostik, formativ, summativ). Baholash tamoyillari va mezonlari.

O‘quvchilarning sinfdagi faoliyatini baholash. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalari.

O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholash. O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari(tanqidiy, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasi.

2.2. Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar

Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar. Hozirgi kunda jahonda va O‘zbekiston ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan ilg‘or xorijiy tajribalar haqida umumiy ma’lumot. “5E” modeli haqida tushuncha. “4K” tizimi. XXI asr ko‘nikmalari.

“Lesson Study” metodikasining mohiyati. Sharq va G‘arb mamlakatlarida “Lesson Study” yondashuvining paydo bo‘lishi va hozirgi kundagi ahamiyati. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Lesson Study” yondashuvidan foydalanishning amaliy talqini. Boshlang‘ich ta’limda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. 10–11- sinflarda “Lesson Study”

yondashuvidan foydalanish metodikasi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish istiqbollari. Raqamli ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt.

Ta’limda IT va raqamli platformalardan foydalanish. Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari. Inklyuziv ta’limni joriy etishdagi afzallik va kamchiliklar. Ta’limda kreativlikdan foydalanish. Ta’limda kreativlikning amaliy talqini. O‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv.

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi modernizatsiya jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish muammosi. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv fanini o‘rganishda tinglovchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish. Pedagogik kompetentlikka oid akmeologik yondashuvlar.

Metodik kompetentlik. Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalarini shakllantirish. Mashg‘ulotlarni metodik jihatdan tashkil etish, bilimlarni oqilona baholay olish. Ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish. O‘z kasb mahoratini tinmay oshirib borish.

O‘qituvchi kasbiga qo‘yilgan talablar. Pedagogik kreativlik. Interfaol o‘qitish metodlari asosida tinglovchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi. Pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlari. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari va shartlari. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo‘l va shakllari. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari.

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash. Tarbiya tushunchasini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni. Buyuk allomalarning tarbiya borasidagi qarashlari. Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari.

Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. Maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyati. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati.

Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash. Insonlar ongida ma’naviy va o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish usullari. Shaxsning ma’naviy yuksalishida milliy qadriyatlarning o‘rni.

Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish.

Intellekt so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Insonning aqliy qobiliyatini rivojlantirish usullari. Shaxsning voqelikka munosabatlarini o‘rganish. Boshqarish faoliyati. Fikrlash, o‘qish-o‘rganish qobiliyati. Insonning dunyoni bilish va ijtimoiy tajribasini qabul qilish qobiliyati. Oqilona ish bajarishni o‘rganish. Voqea-hodisalarni oldindan bilish.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish. Tarbiyaga yo‘naltirilgan vaziyatlarni asoslash. O‘quv munozaralarini tizimli tarzda tashkil etish. O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga ongli ravishda yondashish. O‘quvchilar bilimlarini mustahkamlab axborotlarni egallashga o‘rgatish usullari. O‘quvchilarda muammolarni bilish va ular haqida fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatish usullari.

Tarbiya texnologiyalari.

Tarbiya texnologiyasi haqida tushuncha. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish. O‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish usullari. Tarbiya texnologiyasi rejalashtirish va unga erishish usullari. Tarbiya texnologiyasini modellashtirish. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini tashkil etish usullari. Tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash usullari.

Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari. Tarbiyaning maqsadi – shaxsning rivojlanishini ta’minlashdan iborat ekanligi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayonini tashkil etish mazmuni. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuvning mohiyati. Pedagogning asosiy vazifasi. Jamiyatda shaxs tarbiyasini shakllantirish usullari.

Tarbiya tizimida innovatsiyalar.

Tarbiya tizimining yangilanishida innovatsiyalarning o‘rni. Innovatsiyalarning amalga oshirish usullari. Innovatsiyani tashkil topish jarayonini mazmuni. Innovatsiyani falsafiy-metodologik (o‘qitish maqsadlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani nazariy (o‘qitish mazmuni, o‘qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani texnologik (o‘qitish jarayoni qoidalar tamoyili) asoslarini o‘rganish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Zamonaviy maktab rahbarining vazifasi. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish usullari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga o‘quvchilarni jalb qilish usullari. O‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish usullari. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.

Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari. Tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar tarbiyasidagi o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maktab rejasi bilan bog‘liqligini o‘rganish. Sinf rahbarlari va ota-onalar qo‘mitasi hamkorligi ishini o‘rganish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ishlarini o‘rganish. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishini asoslab berish.

Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash.

Jamoa so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoa tushunchasining ikki xil ma’noda ishlatilish mazmuni. Jamoani tashkil etish usullari. O‘quvchilar jamoasini rivojlantirish usullari. O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xos xususiyatlari. Jamoada shaxsni tarbiyalash usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari. Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o‘rni.

Sinfda sog‘lom muhitini yaratish. O‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va shakllantirish usullari. Sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari. Sinfda do‘stona munosabatlarni shakllantirish usullari. Ota-ona hamda

o‘quvchilarning ma’naviy-madaniy qiziqishlari rivojlantirish usullari. Sinfda ta’lim-tarbiya samadorligini oshirish usullari.

Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiyaning zamonaviy usullari. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni va vositalari. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Jamiyatning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishiga, mehnat qilishiga o‘rgatish usullari.

O‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda sinf rahbariga qo‘yilgan talablar.

O‘quvchilarni o‘rganish usullari. O‘quvchilarga tarbiya va ta’lim berish usullari. O‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etish usullari. O‘quvchilarning o‘quv samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishga ijodiy yondashishni o‘rganish usullari. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishiga qo‘yilgan talablar.

Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.

O‘quvchilar bilim sifatini oshirishda sinfda intizomlilikni mustahkamlash. Sinf rahbari ishini rejalashtirish.

Maktabda to‘garak ishlarini tashkil etish.

To‘garak a’zolarining bilim sifatini nazorat qilish. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan Davlat talablarining mazmuni. To‘garak ishlarida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullari. O‘quvchilarni to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilish usullari. O‘quvchilarning qiziqish va xohishlariga qarab to‘garak yo‘nalishlarini tanlash. To‘garak a’zolarining to‘laqonli bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Maktabda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda sinf rahbarining vazifalari. Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. O‘quvchilar ongida ma’naviyatni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarning o‘rni.

2.5. Umumiy pedagogika

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida qonun”i. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta’lim. Pedagogikaning ilmiy asoslari. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari. Pedagogika fanining asosiy

kategoriyalari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi.

Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.

Pedagogika fanining metodologiyasi, metodologik madaniyat haqida tushuncha. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'limi.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar: muhit, irsiyat, ta'lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari.

Didaktika – ta'lim nazariyasi.

Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigma(model)lari. Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Ta'lim texnologiyasi. Innovatsion pedagogika mazmuni. Innovatsion jarayonning rivojlanishiga umumiy yo‘nalish. Ta'limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish. Muammoli ta'lim metodlari.

Ta'limning mazmuni.

O‘zbekiston maktablaridagi ta'limning mazmuni. Umumiy o‘rta ta'limning Davlat ta'lim standarti. O‘quv rejasi, dasturlari va darsliklar. Darslik va o‘quv faoliyatini tashkil qilish.

O‘qitish jarayoni.

O‘quv jarayonini tashkil etishning shakllari. Ta'limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi. Dars – maktabda o‘quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli. Darsga qo‘yiladigan talablar. Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari. Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar.

O‘qitish metodlari.

O‘qitish metodlarining nazariy asoslari. O‘qitish metodlarining tasnifi. O‘qitishning og‘zaki metodlari. Yangi material ustida ishlash. O‘tilgan material ustida ishlash va yangi materialni o‘rganishga tayyorlanish. O‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari. Reproduktiv ta'limdan amaliy ta'limga o‘tish. O‘qitishning amaliy metodlari.

Kreativ ta'lim.

Kreativ ta'limga zamonaviy yondashish. Kreativlik va uning tashxis etilishi. Kreativ dars tuzilishiga doir metodik tavsiyalar. Kreativ dars yo‘nalishlarining mazmuni va psixologik asosi.

Tarbiya nazariyasi va usullari.

Tarbiya jarayoni mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. Tarbiya usullari. Tarbiya usullari haqida umumiy tushuncha. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashi va taffakurni shakllantirish. Shaxsning ilmiy dunyoqarash shakllantirishda allomalarimiz fikrlari. Fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. O‘quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasining maqsadi, vazifalari va metodlari. Huquqiy tarbiya mazmun mohiyati. Mehnat tarbiyasi. Iqtisodiy tarbiya. Ekologik tarbiya. Nafosat tarbiyasi. Jismoniy tarbiya. Oila tarbiyasi. Oilada bola tarbiyasida ota-onaning o‘rni.

Pedagogika tarixining maqsad va vazifasi. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

Pedagogika tarixi faning mazmun mohiyati. Eng qadimgi davrlardan VII-IX asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. “Avesto” eng qadimgi yozma maorifi yodgorlik sifatida. Pedagogika tarixi ijtimoiy, nazariy va amaliy fan ekanligi. Qadimgi Gretsiyada ta’lim tarbiya.

VII asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrda maktab, tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.

Islom dini g‘oyalarining ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablarida ta’lim-tarbiya mazmuni. Hadis ilmining paydo bo‘lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy, Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.

Sharq uyg‘onish davri va unda ta’lim-tarbiya masalalari.

Sharq Uyg‘onish davrida pedagogik fikr taraqqiyoti. Sharq uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyatlari. Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinoning ta’limiy-axloqiy qarashlari. Mutaffakirlarning hayoti, faoliyati, ijtimoiy falsafiy qarashlari, yaratgan asarlari va undagi inson kamolotiga oid g‘oyalar.

Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar.

Ta’limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo‘lishi. Yusuf Xos Hojib. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida yetuk insonni kamolga etkazish masalalari.

XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogikaning yaratilishi. Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Boburning ta’limiy-tarbiyaviy va ma’rifiy-axloqiy qarashlari. Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ta’limiy-axloqiy qarashlari.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ta’lim tizimi. Turkiston o‘lkasidagi ma’rifatparvar olim va shoirlarining hayoti, ma’naviy merosining tarbiyaviy ahamiyati. Dastlabki maktablarning vujudga kelishi ularning mazmuni. Jadidlik oqimi namoyondalari: Ismoil Gaspirali, Munavvarqori, A.Fitrat, M.Behbudiy va A.Avloniylarning hayoti va ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari.

Chet el va Rossiyadagi ilg‘or pedagogik g‘oyalar. G‘arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti.

Yan Amos Komenskiy, Adolf Disterveg, Konstantin Dmitrievich Ushinskiylar-ning pedagogik qarashlari.

Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, nazariy asoslari. O‘qituvchi muomalasida pedagogik mahoratning o‘rni. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati.

Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi.

Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo‘llari. Pedagogik texnika. Pedagogik texnikani egallash yo‘llari.

2.6. Umumiy psixologiya

Umumiy psixologiyaning predmeti.

Umumiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, umumiy psixologiya fanining shakllanish tarixi, umumiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Umumiy psixologiyaning amaliy asoslari, o‘quv fanlari tizimida umumiy psixologiya, umumiy psixologiya mutaxassislik fani sifatida.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tadqiqot metodlari.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va prinsiplari. Determinizm prinsipi, ong va faoliyat birligi prinsipi, ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi. Aniq faoliyatni o‘rganuvchi psixologiya sohalari, rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi psixologiya sohalari, shaxs va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganuvchi psixologiya sohalari. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari va ularning tahlili, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so‘rovnoma metodi, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi, psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.

Psixika va ongning taraqqiyoti.

Psixika haqida tushuncha, psixikaning oriyentirovka biluvchanlik va boshqaruvchalik vazifasi. Psixik aks ettirish – obyektiv olamning subyektiv obrazi ekanligi. Bosh miya va psixika. Odam psixikasining paydo boʻlishi va uning taraqqiyoti. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti, seskanuvchanlik va sezuvchanlik, tropizmlarning mohiyati, instinkt tushunchasining mazmuni, koʻnikma va malakalar, hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari, psixikaning muhit va aʼzolar tuzilishiga bogʻliqligi. Psixika va ong munosabati. Ongning paydo boʻlishi va uning taraqqiyoti. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib etmagan harakatlar) holatlari. Odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi.

Faoliyat va motivatsiya.

Faoliyat haqida tushuncha, faoliyatning psixologik tahlili. Faoliyatning tuzilishi, faoliyatning oʻziga xosligi, faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizasiyasi. Faoliyatning oʻzlashtirilishi va malakalarni egallash. Faoliyatning asosiy turlari, oʻyin, taʼlim va mehnat faoliyati mazmuni. A.N. Leontev boyicha faoliyat tuzilishi. Faoliyat va motivlar. Motivatsiya va emotsiya tushunchasining mazmuni, motivatsiya sohalari, Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiya muammosi. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari, motiv muammosiga doir mulohazalar. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning ahamiyati.

Shaxsning hissiy-emotsional sohasi.

Emotsiya va hissiyot haqida tushuncha. His-tuygʻularning vazifalari. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Yuksak hislar. Hissiy ton, affekt, stress, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar. Hissiyotning oʻziga xosligi. Hissiyotni boshqarish.

Shaxs haqida tushuncha va shaxsning oʻz-oʻzini anglashi.

Shaxs haqida tushuncha, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchasining mazmuni. Shaxs shakllanishiga taʼsir etuvchi omillar. Shaxs psixologik strukturasi. Biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, konstitutsion nazariya, rollar nazariyasi mazmuni. Dunyoqarash va eʼtiqod. Shaxsning oʻzini-oʻzi anglashi. “Men” konsepsiya va uning rivojlanishi. Shaxsning oʻzini-oʻzi anglashi va baholashiga taʼsir etuvchi omillar. Shaxsning oʻziga nisbatan ishonchini yuzaga keltirish va rivojlantirish. Shaxsning oʻzini-oʻzi boshqarishi muammosi. Milliy ong va milliy oʻzini-oʻzi anglash.

Shaxsning bilish jarayonlari.

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari. Sezgilar haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, ekstroretseptiv sezgilar. Idrok haqida tushuncha. Idrokning nerv-fiziologik asoslari. Idrokning murakkabligi. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik. Idrokning xossalari, idrokda obyekt va fon, appersepsiya, idrokning konstantligi. Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. Xotira turlari, faoliyatga koʻra xotira turlari, maqsadiga koʻra xotira turlari, muddatiga koʻra xotira turlari. Xayol haqida tushuncha. Xayol jarayonlari. Xayol turlari, tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol, orzu, tush koʻrish va shirin xayol. Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, tafakkur sifatlari, tafakkurning mazmundorligi. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi.

Xarakter, temperament va qobiliyatlarni bilishning ahamiyati.

Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari. Xarakter tipologiyasi, xarakter tarkibi, xarakterning shakllanishi, xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari. Xarakter borasidagi ta’limotlar. Xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bogʻliqligi. Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tarixi. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari. Faoliyatning individual uslubi va temperament. Temperamentni tarbiyalash. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo boʻlishi va tuzilishi.

Yosh va pedagogik psixologiyaning maqsad va vazifasi.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy sohalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh va pedagogik psixologiyadagi ilmiy maktablar. Yosh va pedagogik psixologiya fanining oʻqituvchi faoliyatida tutgan oʻrni.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va soʻrovnoma metodi, faoliyat mahsulini oʻrganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi.

Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi.

Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o‘ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar). Yosh davrlarining yetakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin). Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi.

Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar.

Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug‘ilish davri inqirozi. “Tirilish kompleksi” haqida. Go‘daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati. Bir yosh inqirozi haqida. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.

Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida (o‘yin faoliyatining mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari, o‘yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta’siri muammosi). Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. Maktabgacha yosh davrida emotsional-ifodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy emotsiyalarning shakllanishi. Maktabgacha yosh davrida motivatsion sohadagi o‘zgarishlar. 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv-affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida bolaning o‘zi haqidagi tasavvurlari va xulq-atvori. Pedagogik baho va kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish aloqasining psixologik mexanizmlari. Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari

O‘smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

O‘smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. O‘smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari.O‘smirlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivatsiyasi,

o‘quv faoliyati motivatsiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari). O‘smirlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi muammosi.

Ilk o‘spirinlik yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Ilk o‘spirinlik davri psixologiyasiga umumiy tavsif. Ilk o‘spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Ilk o‘spirinlik davrida o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi. Ilk o‘spirinlik davrida o‘quv-kasbiy faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi. Ilk o‘spirinlikda kasbga yo‘naltirishning psixologik muammolari.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mazmuni va ahamiyati. Maktab psixologining ish funksiyalari. Pedagogik faoliyatda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish texnologiyalari. Yosh psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish. Pedagog birlamchi psixologik yordam subyekti sifatida.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

Oilaviy hayotga psixologik tayyorlikning mohiyati. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqida umumiy tushuncha. Oila funksiyalari. Oilada shaxslar-aro munosabatlar. Shaxs psixik taraqqiyotida oilaviy muhitning roli.

O‘qituvchi psixologiyasi.

Jamiyatda o‘qituvchining tutgan o‘rni va uning vazifalari. O‘qituvchiga shaxsiga qo‘yiladigan talablar. O‘qituvchining kasbiga xos xislatlari. O‘qituvchi o‘quvchilarning hayot va faoliyati tashkilotchisi ekanligi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishning psixologik muammolari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot. Pedagogik ijodiyot va uning mohiyati. O‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va pedagogik jamoadagi psixologik iqlim. Bo‘lg‘usi o‘qituvchi shaxsi sifatlari.

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

Ta’limga texnologik yondashuv.

Ta’limga texnologik yondashuv tushunchasi. Ta’lim texnologiyasining kategoriyalari, tamoyillari, tarkibiy qismlari, tasnifi, asosiy jihatlari. Ta’lim texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari. An’anaviy ta’limning texnologik yondashuvga asoslangan ta’limdan farqli jihatlari. Sharqning buyuk qomusiy

olimlari asarlarida maktab va madrasalarda insonni aqliy kamolotga etkazishda o‘qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanish haqida.

Ta’limda innovatsion jarayonlar.

Ta’lim jarayonidagi innovatsiya. Pedagogik jarayonlarga innovatsiyalarni tatbiq etish. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mazmuni, maqsadi va amaliyotga joriy etish zarurligi. Pedagogik texnologiyalar – innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismi sifatida. Texnologik yondashuv ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilganligi. Interfaol va faol ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va qo‘llanilish hollari.

Ta’lim texnologiyalari ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda charxpalak, blits-so‘rov, 3x4 metodi va muammoli savollarni qo‘llash.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati.

O‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi. Innovatsion faoliyat tushunchasi. O‘qituvining innovatsion faoliyati tuzilmasi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarish. O‘qituvchining yangi axborotlar bilan ishlash madaniyati.

Ta’lim vositalari. Grafik organayzerlar texnikasi.

Ta’lim vositalari va ularning ta’lim texnologiyalaridagi o‘rni. Grafik organayzerlar. Ularning turlari. Ta’lim jarayonida qo‘llashning maqsad va vazifasi. Grafik organayzerlar texnikasi haqida amaliy ko‘nikmalar. Noan’anaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

O‘quv jarayonida muammoli o‘qitish texnologiyalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Muammoli o‘qitish. Muammoli o‘qitish mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari. Muammoli vaziyat belgilari, ularni anglab olish va hal etish yo‘llari. Dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari. Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchiga hamda muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarishga qo‘yiladigan talablar. Muammoli ta’limning o‘quvchilar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishdagi ahamiyati. Muammoli o‘qitish texnologiyalari va ularni tashkil etish bosqichlari.

Ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Interfaol ta’lim, uning mazmuni, mohiyati, mezonlari va turlari. Ta’lim va tarbiya jarayonida interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari. Interfaol mashg‘ulot samaradorligini belgilashning pedagogik-psixologik asoslari. Interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni. Interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari, ularni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish usullari. Uning mazmuni va mohiyati. O‘yinli texnologiyalarning ijtimoiy-psixologik muammolari. O‘yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari. O‘yinli texnologiyalarning funksiyalari.

3. UMUMKASBIY FANLAR

3.1. Inklyuziv ta’lim

Inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik va metodologik asoslari. Inklyuziv va tabaqalashtirilgan ta’limning qiyosiy tavsiflari. Inklyuziv ta’limning maqsadi. Differensial ta’lim tushunchasi va mohiyati. Ta’limda xilma-xillik, inklyuzivlik va differensyal yondashuvning dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta’lim sifatida tan olinganligi.

O‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash; ta’lim muassasasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish; ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan va sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish; ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish; jamiyatda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchi va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish.

O‘quvchilar va sinfdagi xilma-xillik. O‘quvchilar va ular tomonidan ta’limiy materialni o‘zlashtirish usullari. Ta’limdagi qiyinchiliklar va ta’lim olish qobiliyatining buzilishi o‘rtasidagi farqlar. Ta’limdagi qiyinchiliklarning asosiy shakllari. Ta’limda tenglikni ta’minlash uchun zarur pedagogik xizmatlarni tashkil etishi. Differensial ko‘rsatmalar tushunchasi. Individual ta’lim dasturi tushunchasi. Individual ta’limiy marshrut tushunchasi. Har bir alohida holat uchun individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish zarurati.

Inklyuziv va tabaqalashtirilgan sinflar bilan ishlashda yangicha pedagogik qarashlar; dars davomida barcha o‘quvchilarning ishiga ijobiy hissiy kayfiyatni yaratish; o‘quvchilarni vazifalarni bajarishning turli usullarini tanlash va mustaqil va guruhda ishlashga undash imkoniyatlarini kengaytirish usul va vositalari

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va texnologiyalari. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar va ta’lim modeli. O‘quvchi shaxsini rivojlantirish jismoniy, harakat, sezish, anglash, til va ijtimoiy-hissiy omillari.

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchilar mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. Loyihaning tanlanishi, tadqiqot va tahlil, loyihani rejalashtirish, natijalarni taqdim etish orqali tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishning usul va vositalari.

3.2. Matematik jarayonlarni modellashtirish

Model va modellashtirish tushunchalari. Bilish jarayonida va insonning amaliy faoliyatida modellashtirishning roli. Matematik model tushunchasi. Matematik modelga misollar. Matematik modelni ifodalash shakllari. Matematik modellarga qo‘yiladigan asosiy talablar. Matematik modellarni qurish metodlari. Matematik model va uning Real obyekti orasidagi muvofiqlik. Matematik modellarning nazariy va amaliy tadqiqoti, ularning adekvatligi.

Energiyaning saqlanish qonuni. Massa (materiya)ning saqlanish qonuni. Impulsning saqlanish qonuni. Matematik modellashtirishda analogiya usuli. Chiziqli programmalash. Iyerarxiya prinsipidan foydalanib, matematik modellar qurish.

Jamiyat rivojlanishining Maltus va Ferxyulst-Perl modellari. Logistik model. Populyatsiya chiziqsiz modelining uch turdagi rejimi. “Yirtqich-o‘lja” sistemasining o‘zaro munosabat modeli. Beylining epidemiya modellari. Mikroorganizmlarning diffuziyasi modeli, biosintez modellari.

“Yirtqich-o‘lja” sistemasining o‘zaro munosabat modeli. Ikki davlat o‘rtasidagi qurollanish poygasi modeli. Ikki armiya jangovar harakati modeli. Volter-Lotka modeli.

O‘zaro ta’sirlashuvchi populyatsiyalar sonini modellashtirish. Modda va energiya muvozanatining modeli. Korxonalar o‘zaro qarzlarini bartaraf etishi. Reklama kompaniyasini tashkillashtirish. Bozor iqtisodiyoti muvozanatining makromodeli. Iqtisodiy o‘sishning makromodeli. Staxostik modellashtirish.

3.3. Xalqaro baholash dasturlari

Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadlari va chora-tadbirlari. PISA, TIMSS va TALIS xalqaro baholash dasturlari haqida asosiy ma’lumotlar. Xalqaro baholash dasturlarida matematikaga oid mazmun sohalari.

PISA tadqiqotida “XXI asr ko‘nikmalari” tarkibi. PISA xalqaro baholash dasturida aqliy faoliyat turlari. PISA xalqaro baholash dasturida matematik fikrlash va muammoni hal qilish (modellashtirish) orasidagi bog‘lanish sikli.

PISA xalqaro baholash dasturida “Miqdor”, “Fazo va shakl”, “O‘zgarish va bog‘lanishlar”, “Ma’lumotlar va noaniqlilik”, “Mulohazalar yuritish” va “Qo‘llash” mazmun sohasiga oid topshiriqlar.

TIMSS xalqaro baholash dasturida aqliy faoliyat turlari. TALIS xalqaro baholash dasturida aqliy faoliyat turlari:

TIMSS xalqaro baholash dasturida “Son”, “Algebra”, “Geometriya” va “Ma’lumotlar va ehtimollik” mazmun sohasiga oid topshiriqlar.

Xalqaro baholash dasturlarini o‘zida mujassamlashtirgan innovatsion metodlari asosida snif-dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-6 sinflar matematika darslarida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-9 sinflar algebra va geometriya darslarida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish.

3.4. Matematikani kasbga yo‘naltirib o‘qitish

Kasbga yo‘naltirib o‘qitishning maqsad va vazifalari. Kasbga yo‘naltirib o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslari. Matematikaning kasbiy fanlar bilan aloqadorligining o‘rni va ahamiyati. Matematika kasbiy ta’lim sohalariga yo‘naltirish imkoniyatlari. Matematikani ta’lim sohalari: ta’lim, gumanitar fanlar va san’at, ijtimoiy fanlar, biznes va huquq, muhandislik, ishlov berish va qurilish, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, qishloq va suv xo‘jaligi, xizmatlarda kasbga yo‘naltirib o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tenglama va tengsizliklarni o‘qitishda kasbga yo‘naltirish.

Yasashga doir masalalarni yechish orqali o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish. Tekislikda yassi figuralarni o‘qitishda tatbiqiy masalalar orqali kasbga yo‘naltirish. Fazoviy jismlarni o‘qitishning tatbiqiy tomonlari.

Matnli masalalarni yechishda kasbga yo‘naltirish. Harakat, o‘xshash almashtirish, gomotetiyaga doir masallarni yechishda kasbga yo‘naltirish.

Differensial hisobning tatbiqlarini o‘rgatishda kasbga yo‘naltirish. Integral hisobning tatbiqlarini o‘rgatishda kasbga yo‘naltirish. Kombinatorika elementlari o‘rgatishda kasbga yo‘naltirish. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida matematika kursida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarida kasbiy faoliyatiga yo‘naltiruvchi misollaridan foydalanish.

3.5. Mmatematikani o‘qitishda innovatsion ta’lim

“Matematikani o‘qitishda innovatsion ta’lim” o‘quv fanining predmeti.

Yangilik va uning turlari. Innovatsiya va uning turli tasniflari. Innovatsion pedagogik faoliyat. Matematika o‘qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati modeli.

Uzluksiz ta’lim tizimida matematika o‘qituvchisiga qo‘yilgan talablar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida matematika ta’limini takomillashtirishning dolzarb muammolari. Xorijiy davlatlar matematika ta’limi mazmuni. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari matematika ta’limi jarayonida innovatsiyalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari matematika ta’limi jarayonida innovatsion pedagogik muhitni tashkil etishning ilmiy metodik asoslari va vositalari.

Matematika ta’limida an’anaviy va noan’anaviy ta’lim texnologiyalari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari matematika fanlarining maqsadi, mazmuni uzviyligi va uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan innovatsiyalar. Matematika fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilar o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida matematika fanlarini o‘qitish. Matematikani o‘qitishda hamkorlikda, jamoada, muammoli o‘qitish, modul, didaktik-o‘yin, loyihalash texnologiyalari. Matematika fanlarini o‘qitishda xorijiy ilg‘or tajribalar, an’anaviy va noan’anaviy o‘qitish metodlarining qiyosiy tahlili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari matematikasining tanlangan mavzusini pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonini loyihalash. Kasb-hunar kollejlari matematikasining tanlangan mavzusini pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonini loyihalash. Aniq fanlar yo‘nalishidagi akademik litsey matematikasining tanlangan mavzusini pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonini loyihalash.

Matematikani o‘qitishda rivojlantiruvchi ta’lim. Ta’lim oluvchilar tanqidiy tafakkuri, kreativligini rivojlantirish.

Ta’limning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Matematika fanlarini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Multimediali darslar asosida matematika ta’limi samaradorligini oshirish. Matematik amaliy dasturlar asosida matematika darslarini tashkil etish. Kompyuter vositasida matematika darslarini tashkil etish. Grafikli organayzerlar.

Matematikani o‘qitishda Internet tarmog‘i. Masofaviy ta’lim. O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari. O‘quvchining elektron portfoliosi

4. IXTISOSLIK FANLARI

4.1. Matematik analiz

Matematik analiz haqida boshlang‘ich ma’lumotlar: Matematik analiz fanining predmeti. Tarixiy ma’lumotlar. Matematik analizning akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘qitiladigan matematika kursi bilan aloqadorligi.

Haqiqiy sonlar to‘plami: Ratsional sonlar to‘plami va uning xossalari, ratsional sonlar to‘plamining kesimi, irratsional son tushunchasi, haqiqiy sonlar to‘plamining asosiy xossalari. Haqiqiy sonning moduli va uning xossalari. Chegaralangan sonli to‘plamlar: Yuqoridan va quyidan chegaralangan to‘plamlar, ularning chegaralari. Oraliqlar.

Cheksiz kichik ketma-ketliklar va ularning xossalari. Yaqinlashuvchi ketma-ketlikning chegaralanganligi, limitning yagonaligi. Cheksiz katta ketma-ketliklar. Oraliq o‘zgaruvchining limiti haqidagi teorema. Ketma-ketliklar yig‘indisi, ko‘paytmasi va bo‘linmasining limiti. Aniqmasliklar va ularni ochish. Monoton ketma-ketlikning limiti. Ichma-ich joylashgan segmentlar prinsipi. Qismiy ketma-ketlik. Bolsano-Veyershtrass teoremasi. Ketma-ketlik yaqinlashishining Koshi kriteriyasi.

Funksiya tushunchasi: Funksiyaning ta’rifi, funksiyaning berilish usullari. Funksiyaning grafigi. Funksiyaning muhim sinflari: Funksiyalar ustida arifmetik amallar. Juft, toq va chegaralangan, monoton funksiyalar. Teskari funksiya, funksiyalarning kompozitsiyasi. Funksiyaning nuqtadagi limitining ta’riflari. Limitga ega bo‘lgan funksiyalarning sodda xossalari. Bir tomonli limitlar. Bir tomonli limitlar asosida funksiyaning chekli limitga ega bo‘lish sharti. Ikki funksiya yig‘indisi, ko‘paytmasi va bo‘linmasining limiti. Murakkab funksiyaning limiti. Monoton funksiyaning limiti. Koshi kriteriyasi. Ba’zi bir ajoyib limitlar. Cheksiz kichik funksiyalar va ularni taqqoslash. Cheksiz katta funksiyalar.

Funksiyaning nuqtadagi va to‘plamdagi uzluksizligi. Yig‘indi, ko‘paytma va bo‘linmaning uzluksizligi. Funksiyalar kompozitsiyasining uzluksizligi. Bir tomonli uzluksizlik va uzilish nuqtalari. Monoton funksiyaning uzluksizligi va uzilish nuqtalari. Uzluksiz funksiyaning xossalari: Kesmada uzluksiz bo‘lgan funksiyalarning chegaralanganligi, eng kichik va eng katta qiymatlari. Uzluksiz funksiyalarning oraliq qiymatlari haqidagi teoremalar. Monoton funksiyaning uzluksizligi. Teskari funksiyaning mavjudligi va uzluksizligi. Tekis uzluksizlik tushunchasi. Kesmada uzluksiz bo‘lgan funksiyaning tekis uzluksizligi. Asosiy elementar funksiyalar va ularning uzluksizligi: Haqiqiy ko‘rsatkichli daraja. Ko‘rsatkichli, logarifmik, darajali funksiyalar va ularning xossalari. Trigonometrik funksiyalar. Teskari trigonometrik funksiyalar va ularning xossalari.

Hosila va differensial: Hosilaning ta’rifi, uning geometrik va mexanik ma’nolari. Egri chiziq urinmasi va normalining tenglamalari. Differensiallashuvchi funksiyaning uzluksizligi. Yig‘indi, ko‘paytma va bo‘linmaning hosilasi. Murakkab funksiyaning hosilasi. Teskari funksiyaning hosilasi. Asosiy elementar funksiyalarning hosilalari. Differensiallanuvchanlik va differensial. Differensiallanuvchanlik va hosilaning mavjudligi orasidagi bog‘lanish. Differensialning geometrik ma’nosi. Differensial formasining invariantligi. Logarifmik hosila. Daraja ko‘rsatkichli funksiyaning hosilasi.

Yuqori tartibli hosilalar. Ikkinchi tartibli hosilaning mexanik ma’nosi. Parametrik ko‘rinishda berilgan funksiyalarni differensiallash. Differensial hisobning asosiy teoremalari: Roll, Lagranj, Koshi teoremalari. Lopital qoidasi. Teylor formulasi. Ba’zi-bir elementar funksiyalar uchun Teylor formulalari.

Hosila yordamida funksiyalarni tekshirish. Funksiyaning nuqtada va to‘plamdagi monotonlik sharti. Maksimum va minimumlar. Ekstremumning zaruriy sharti. Ekstremumning yetarli shartlari. Eng katta va eng kichik qiymatlarni izlash. Funksiyaning qavariqligi, burilish nuqtasi. Asimptotalar. Hosilaning funksiya grafigini yasashga tatbiqi.

Aniqmas integral va uni topishning sodda usullari: Boshlang‘ich funksiya va aniqmas integral. Asosiy integrallar jadvali. Aniqmas integralda o‘zgaruvchini almashtirish usuli. Bo‘laklab integrallash.

Ratsionalfunksiyalarni integrallash: Sodda ratsional kasrlar va ularni integrallash. To‘g‘ri ratsional kasrlarni integrallash. Kasr ratsionalfunksiyalarni integrallash.

Sodda irratsional va transsendentfunksiyalarni integrallash: $R\left(x,\sqrt[m]{\frac{ax+b}{cx+d}} \right)$, $R\left(x,\sqrt[m_1]{\frac{ax+b}{cx+d}},...,\sqrt[m_k]{\frac{ax+b}{cx+d}} \right)$ ko‘rinishdagi funksiyalarni integrallash. Binomial differensiallarni integrallash. Eyler almashtirishlari.

Trigonometrik funksiyalarni integrallash. Universal usul.

Aniq integral tushunchasiga olib keladigan masalalar: yassi figura yuzasi haqidagi masala, kuchning bajargan ishi haqidagi masala. Aniq integral ta’rifi. Darbu yig‘indilari va ularning xossalari. Aniq integralning mavjudlik sharti. Integrallanuvchi funksiyalar sinfi (uzluksiz funksiya, monoton funksiya, chekli sondagi uzilishga ega bo‘lgan funksiyalar). Aniq integralning tenglik va tengsizlik bilan ifodalanadigan xossalari. O‘rta qiymat haqidagi teoremalar. Yuqori chegarasi o‘zgaruvchi bo‘lgan aniq integral. Nyuton-Leybnis formulasi. O‘zgaruvchini almashtirish va bo‘laklab integrallash usullari.

Xosmas integral: Xosmas integral tushunchasi. Integrallash sohasi chegaralanmagan xosmas integral. Chegaralanmagan funksiyaning xosmas integrali.

Yuza va hajm: Yuza tushunchasining ta’rifi. Kvadratlanuvchi soha. Yuzaning additivligi. Yuzani dekart va qutb koordinatalar sistemasida hisoblash. Aylanma jism hajmlarini hisoblash formulalari. Yoy uzunligi: To‘g‘rilanuvchi yoy va uning uzunligi. Yoy uzunligini hisoblash formulalari. Yoy uzunligining differensiali. Aylanma sirt yuzasi: Aylanma sirt yuzasining ta’rifi va uning aniq integral yordamida ifodalanishi. Aniq integralning fizikaga tatbiqlari: O‘zgaruvchi kuchning bajargan ishi va uni aniq integral yordamida hisoblash. Yassi yoy va figuraning og‘irlik markazlarining koordinatalarini, inersiya momentini hisoblash formulalari.

Yaqinlashuvchi qatorlar va ularning xossalari: Sonli qator tushunchasi, yaqinlashuvchi qator va uning yig‘indisi. Qatorning qoldig‘i. Geometrik qator. Qator yaqinlashishining zaruriy sharti. Garmonik qator.

Yaqinlashuvchi qatorlarning sodda xossalari. Koshi kriteriyasi.

Musbat qatorlar: Musbat qatorlarning yaqinlashish sharti. Musbat qator yaqinlashishining zaruriy va yetarli sharti.

Taqqoslash teoremalari. Koshi va Dalamber alomatlari. Koshining integral alomati. Umumlashgan garmonik qator.

Ixtiyoriy hadli qatorlar: Ishora navbatlashuvchi qatorlar. Leybnis teoremasi. Absolyut va shartli yaqinlashuvchi qatorlar, ularning xossalari. Qator hadlarining o‘rinlarini almashtirish. Qatorlarni ko‘paytirish

Funksional ketma-ketlik va uning limiti: Funksional ketma-ketlik tushunchasi. Yaqinlashuvchi ketma-ketlik, uning limiti. Tekis yaqinlashuvchi funksional ketma-ketlik. Tekis yaqinlashish alomati. Tekis yaqinlashuvchi funksional ketma-ketlik xossalari. (Limit funksiyaning uzluksizligi, uni differensiallash va integrallash).

Funksional qatorlar va uning yig‘indisi, tekis yaqinlashuvchi qatorlar, tekis yaqinlashish sharti. Tekis yaqinlashuvchi qatorning xossalari (qator yig‘indisining uzluksizligi, qatorni hadma-had differensiallash va integrallash).

Darajali qatorlar va uning yaqinlashish sohasi: Darajali qator tushunchasi. Abel teoremasi. Darajali qatorlarning yaqinlashish radiusi, yaqinlashish intervali va sohasi. Darajali qatorning tekis yaqinlashishi. Tekis yaqinlashuvchi darajali qator yig‘indisining uzluksizligi. Darajali qatorni hadma-had differensiallash va integrallash. Teylor qatori: Funksiyalarni darajali qatorga yoyish masalasi. Teylor qatori. $sinx$, $cosx$, ^{ex}, $\ln(1+x)$ va $(1+x)^{\alpha}$ funksiyalarni darajali qatorga yoyish. Darajali qatorlarning taqribiy hisobga tatbiqi.

Fure qatori: Funksiyaning Furekoeffitsientlari va Fure qatori. Funksiyani Fure qatoriga yoyish masalasi. Dirixle teoremasi (isbotsiz). Davriy, juft va toq funksiyalar uchun Fure qatori. [-l; l] va [0; l] oraliqlarda berilgan funksiyalarni Fure qatoriga yoyish.

^{Rn} fazo: ^{Rn} fazo ta’rifi, nuqtaning atrofi. ^{Rn} fazodagi ochiq va yopiq to‘plamlar. ^{Rn} fazodagi nuqtalar ketma-ketligi, Koshi kriteriyasi. Bolsano–Veyershtrass teoremasi.

Ko‘p o‘zgaruvchili uzluksiz funksiyalar: Uzluksizlik ta’riflari. Ko‘p o‘zgaruvchili funksiyaning xossalari. Murakkab funksiyaning uzluksizligi. Ko‘p o‘zgaruvchili funksiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremalar. Veyershtrass teoremalari. Tekis uzluksizlik va Kantor teoremasi.

Ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarni differensiallash: Xususiy hosilalar. Yuqori tartibli xususiy hosilalar. Ko‘p o‘zgaruvchili funksiyaning to‘la differensiali. Urinma tekislik. Ikki o‘zgaruvchili funksiyadifferensialining geometrik ma’nosi. Murakkab funksiyani differensiallash. Differensial formasining invariantligi. Yuqori tartibli differensiallar. Ikki o‘zgaruvchili funksiya uchun Teylor formulasi.

Oshkormas funksiyalar. Oshkormas funksiya mavjudligi va differensiallanuvchanligi. Yo‘nalish bo‘yicha hosila.

Ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarning ekstremumlari: Funksiyaning maksimum va minimumlari. Ekstremumning zaruriy sharti. Ikki o‘zgaruvchili

funksiya uchun ekstremumning yetarli sharti. Eng katta va eng kichik qiymatlarini izlash. Shartli ekstremumlar.

Ikki o‘lchovli integral: Ikki o‘lchovli integral tushunchasi. Uzluksiz funksiyalarning integrallanuvchanligi. Takroriy integrallar. Ikki o‘lchovli integralni hisoblash. Ikki o‘lchovli integralda o‘zgaruvchini almashtirish. Qutb koordinatalarida ikki o‘lchovli integral. Ikki o‘lchovli integralning tatbiqlari.

Uch o‘lchovli integral: Kublanuvchi figuralar. Uch o‘lchovli integral tushunchasi. Uch o‘lchovli integralni hisoblash. Uch o‘lchovli integralda o‘zgaruvchilarni almashtirish. Silindrik va sferik koordinatalarda uch o‘lchovli integral. Uch o‘lchovli integralning tatbiqlari. Hajmlarni hisoblash. Yassi figura va sirt yuzalarini hisoblash. Karrali integralning fizikaga tatbiqlari

Egri chiziqli integrallar: Yoy uzunligi bo‘yicha olingan egri chiziqli integral va uning xossalari. Tekis kuch maydonining bajargan ishi haqidagi masala. Koordinatalar bo‘yicha olingan egri chiziqli integral va uning asosiy xossalari. Egri chiziqli integralni hisoblash. Grin formulasi. Egri chiziqli integral yordamida yuzalarini hisoblash. Egri chiziqli integralning integrallash yo‘liga bog‘liq bo‘lmaslik sharti. To‘la differensiallilik sharti. Funksiyani uning to‘la differensiali bo‘yicha tiklash.

Asosiy tushunchalar. Differensial tenglamaga olib keladigan masalalar. Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglamalar: O‘zgaruvchilari ajraladigan va unga keltiriladigan differensial tenglamalar. Bir jinsli va unga keltiriladigan differensial tenglamalar. Chiziqli tenglamalar, Bernulli tenglamasi. To‘la differensialli tenglama, integrallovchi ko‘paytuvchi. Birinchi tartibli differensial tenglama yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teorema (isbotsiz). Maxsus nuqtalar va maxsus yechimlar.

Hosilaga nisbatan yechilmagan birinchi tartibli differensial tenglamalar: $f\left(x,y'\right)=0$ va $f\left(y,y'\right)=0$ ko‘rinishdagi tenglamalar. Lagranj va Klero tenglamalari.

Asosiy tushunchalar. Tartibi pasayadigan differensial tenglamalar. n-tartibli chiziqli tenglama. n-tartibli chiziqli bir jinsli tenglamalarning yechimlarining fundamental sistemasi. Umumiy yechim. O‘ng tomonli chiziqli tenglamalar va ularning umumiy yechimining tuzilishi.

n-tartiblio‘zgarmas koeffitsientli chiziqli tenglama. n-tartiblio‘zgarmas koeffitsientli chiziqli tenglamalarni yechish. Mexanik tebranishlar tenglamasi. Erkin va majburiy tebranishlar. Rezonans. Differensial tenglamalar sistemasi haqida ma’lumotlar.

Kompleks sonlar to‘plami. Kompleks sonlarning geometrik talqini. Kompleks sonlar ketma-ketligi va qatorlar. Kompleks sonlar to‘plami va Yevklid

tekisligining izomorfligi. Riman sferasi, kengaytirilgan kompleks tekislik. Kompleks o‘zgaruvchining funksiyasi haqida tushuncha, uning geometrik talqini. Funksiyaning limiti, uzluksizligi va tekis uzluksizligi. Kompleks o‘zgaruvchili funksiyaning hosilasi. Differensiallanuvchi bo‘lish sharti. Nuqtada va sohada analitik funksiya tushunchasi. Analitik funksiyaning xossalari. Hosila moduli va argumentning geometrik ma’nosi. Konform akslantirish tushunchasi.

Asosiy elementar funksiyalar: Chiziqli va kasr-chiziqli funksiyalar. Darajali funksiya va radikal. Analitik funksiyalarning bir varaqli sohasi. Riman sirti tushunchasi. Kompleks o‘zgaruvchili ko‘rsatkichli, trigonometrik, logarifmik funksiyalar va ularning xossalari. Trigonometrik va giperbolik funksiyalar orasidagi bog‘liqlik. Ixtiyoriy kompleks ko‘rsatkichli daraja. Kompleks o‘zgaruvchi funksiyasining integrali: Integral ta’rifi va uning xossalari. Koshi teoremasi. Ko‘p bog‘lamli soha uchun Koshi teoremasi. Boshlang‘ich funksiya va integral. Koshining integral formulasi.

Kompleks hadli darajali qatorlar. Abel teoremasi. Yaqinlashish doirasi va radiusi. Darajali qator yig‘indisining yaqinlashish doirasida analitik funksiya ekanligi. Analitik funksiyani Teylor qatoriga yoyish. Koshi tengsizligi va Liuvill teoremasi. Algebraning asosiy teoremasi. Analitik funksiyalarning nollari. Yagonalik teoremasi. Loran qatori haqida tushuncha. Loran teoremasi. Maxsus nuqta. Maxsus nuqtalar klassifikatsiyasi. Chegirma tushunchasi. Chegirmalarni hisoblash. Chegirmalar haqidagi asosiy teorema. Integrallarni hisoblashda chegirmalarni qo‘llash.

To‘plam quvvati: Ekvivalent to‘plamlar. To‘plam quvvati tushunchasi. Quvvatlarni taqqoslash. Sanoqli to‘plamlar va ularning xossalari. Ratsional va algebraik sonlar to‘plamlarining sanoqliligi. Haqiqiy sonlar to‘plamining sanoqsizligi. Kontinuum quvvatli to‘plamlar. To‘g‘ri chiziqdagi nuqtalar to‘plami. Limit nuqtalar. Ochiq va yopiq to‘plamlar. Mukammal to‘plam. Sonlar o‘qidagi ochiq va yopiq to‘plamlarning tuzilishi. Kantor to‘plami va uning xossalari.

Monoton funksiyaning uzulish nuqtalari. O‘zgarishi chegaralangan funksiyalar va ularning xossalari. Uzluksiz chiziq tushunchasi. Jordan, Peano chiziqlari. Kantor va Urison chiziqlari. To‘g‘rilanuvchi chiziqlar.

To‘plamning Jordan o‘lchovi, uning xossalari. Chiziqli to‘plamlar uchun Lebeg o‘lchovi. O‘lchovli to‘plamlar haqidagi teoremalar. Lebeg ma’nosida o‘lchovli funksiyalar va ularning xossalari. Riman integrali. Lebeg teoremasi. Stiltes integrali. Lebeg integrali va uning xossalari. Riman va Lebeg integrallarini taqqoslash.

Metrik fazolar. To‘la metrik fazolar. To‘ldiruvchi fazo haqidagi teorema. Yopiq sharlar haqidagi teorema. Qisqartib akslantirish prinsipi. Qisqartib akslantirish prinsipining algebra va analizdagi tatbiqlari. Separabellik tushunchasi. R^n, $[a,b]$, l_1, l_2 fazolarning separabelligi. Separabel bo‘lmagan fazoga misol. Kompaktlik kriteriysi. R^n, $[a,b]$, l_1, l_2 fazolarda to‘plamlarning kompaktligi. Chiziqli fazolar. Normalangan fazo. Banax fazosi, Gilbert fazosi. Chiziqli funksionallar. Chiziqli funksionallarning uzluksizligi, xossalari. Chiziqli operatorlar. Chiziqli operatorlarning uzluksizligi, xossalari. Chiziqli funksionalning differensiali, variatsiyasi. Differensiallanuvchi funksionalning ekstremumi. Eyler tenglamasi. Braxistoxron masalasining yechimi. Eng kichik aylanma sirt haqidagi masala. Chiziqli fazolar. Normalangan fazo. Banax fazosi, Gilbert fazosi. Chiziqli funksionallar. Chiziqli operatorlar. Chiziqli funksionalning differensiali, variatsiyasi. Eyler tenglamasi.

4.2. Algebra va sonlar nazariyasi

Binar munosabatlar. Binar munosabatlarning aniqlanish va qiymatlar sohalari. Binar munosabat inversiyasi. Refleksiv, antirefleksiv, simmetrik, antirefleksiv, tranzitiv binar munosabatlar. Binar munosabatlar kompozitsiyasi. Akslantirish. Akslantirishlar turlari (in’ektiv, sur’ektiv, biektiv akslantirishlar). Akslantirishlar kompozitsiyasi. Teskari akslantirish.

Kompleks sonlar va ular ustida amallar, xossalari. O‘zaro qo‘shma kompleks sonlar. Muavr formulasi, kompleks sondan ildiz chiqarish.

O‘rin almashtirishning inversiyasi va signaturasi. Toq va juft o‘rin almashtirishlar.

Matritsa tushunchasi. Matritsalarni qo‘shish, matritsani songa ko‘paytirish, matritsalarni ko‘paytirish amallari va ularning xossalari. Matritsani transponirlash. Matritsa satrlarining chiziqli kombinatsiyasi, chiziqli bog‘liq va chiziqli erkli satrlar, satrlar jamlanmasining rangi, satrlar jamlanmasining bazisi, matritsaning rangi.

Kvadrat matritsaning determinanti. 2-, 3- tartibli kvadrat matritsalar determinantlarini hisoblash usullari. Determinantning xossalari.

Determinantning n-tartibli minori. Determinantning ixtiyoriy elementining algebraik to‘ldiruvchisi. Matritsa determinantini satr yoki ustun elementlari bo‘yicha yoyish. Laplas teoremasi.

Teskari matritsa. Matritsaning teskarilanish shartlari. Teskari matritsani hisoblash. Teskari matritsaga doir misol va masalalar.

CHiziqli tenglamalar sistemalari. Matritsalarning ba’zi turlari. CHiziqli tenglamalar sistemasini yechishning Kramer usuli, chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning Gauss usuli.

Bir jinsli tenglamalar sistemasining fundamental va umumiy yechimlari. Kroneker-Kapelli teoremasi.

Ko‘phadlarning umumiy bo‘luvchisi, ko‘phadlar ustida amallar, ko‘phadni ko‘phadga ustunli bo‘lish, ko‘phadlarning eng katta umumiy bo‘luvchisi, ko‘phadlarning eng kichik umumiy karralisi.

Bezu teoremasi. Bezu teoremasidan kelib chiqadigan natija. Gorner sxemasi. Gorner sxemasining ba’zi masalalarga tatbiqi. Algebraning asosiy teoremasi. Viet formulasi.

Kardano formulasi. Uchinchi darajali normallashgan tenglama, ning diskriminanti va uning xossalari.

Musbat ildizlarning yuqori chegarasini izlashning Nyuton usuli, SHturm ko‘phadlar sistemasi.

Binar, n-ar amallar. Amal rangi. Binar amal turlari. Neytral, regulyar, simmetrik elementlar, xossalari. Amallarga nisbatan yopiq to‘plamlar. Algebra tushunchasi. Algebraning tipi. Gruppoid, yarimgruppa, monoid.

Gruppa. Kommutativ gruppa. Gruppa tartibi. Mulьtiplikativ, additiv gruppalar. Gruppaning sodda xossalari. Gruppalar gomomorfizmi. Yarim gruppa. Halqa. Kommutativ halqa. Butunlik soha. Halqaning sodda xossalari. Halqalar gomomorfizmi. Qism halqa. Maydon. Maydonning sodda xossalari.

Butun sonlar halqasida bo‘linish munosabati va uning xossalari. Qoldiqli bo‘lish haqidagi teorema. Yevklid algoritmi. Natural sonlarning eng katta umumiy bo‘luvchisi. Xossalari. Natural sonlarning eng kichik umumiy karralisi va uning xossalari. O‘zaro tub natural sonlar va ularning xossalari. Birni o‘zaro tub sonlar orqali chiziqli ifodalash haqidagi teorema.

Ratsional sonlarni chekli zanjir kasr ko‘rinishida ifodalash. Munosib kasrlar va ularning asosiy xossalari.

Tub son tushunchasi, tub sonlar to‘plami, arifmetikaning asosiy teoremasi.

Nopozitsion, pozitsion sanoq sistemalari. Natural sonning berilgan asosdagi sistematik ifodasi haqidagi teorema. Bir asosdan ikkinchi asosga o‘tish. Sistematik sonlar ustida arifmetik amallar.

Taqqoslama va uning xossalari. Modul bo‘yicha chegirmalar sinflari. CHegirmalarning to‘la sistemasi va uning xossalari. CHegirmalarning keltirilgan sistemasi va uning xossalari. CHegirmalar sinflari halqasi. CHegirmalar halqasidagi teskarilanuvchi elementlarning mulьtiplikativ gruppasi.

Mulьtiplikativ funksiyalar. Eyler funksiyasi. Eyler funksiyasining mulьtiplikativligi. Eyler funksiyasini hisoblash formulasi. Eyler teoremasi. Ferma teoremasi.

Birinchi darajali bir noma'lumli taqqoslamalaring yechimlari soni haqidagi teorema. Birinchi darajali bir noma'lumli taqqoslamalarni yechish usullari. Qoldiqlar haqidagi Xitoy teoremasi. Ixtiyoriy modul bo'yicha n-darajali taqqoslamalar. Vilьson teoremasi.

Lejandr va Yakobi simvollari va ularning xossalari. Tub modul bщyicha yuqori darajali taqqoslamalar.

Butunlik sohasining transdendent kengaytmasi. Ko'p o'zgaruvchili ko'phad haqida tushuncha. Ko'p o'zgaruvchili ko'phadlarni leksikografik tartibda yozish. Simmetrik ko'phad tushunchasi, simmetrik ko'phadlarga misollar. Bir jinsli ko'phadlar. Simmetrik ko'phadlar haqidagi asosiy teorema.

Ikki ko'phad rezultanti. Ikki ko'phad rezulьtantining tatbiqlari. Ikki ko'phad rezultantini hisoblashning turli usullari.

Butun koeffitsientli ko'phadning butun va ratsional ildizlari. Butun koeffitsientli ko'phadning butun va ratsional ildizlarini topish nazariyasi.

Chiziqli fazo, chiziqli bog'liq va erkli vektorlar, chiziqli fazoning o'lchami, fazoning bazisi, vektorning koordinatalari. Vektor fazolar izomorfizmi. Chiziqli fazoning qism fazosi, to'plamning chiziqli qobig'i, gipertekislik, qism fazolarning to'plam sifatida birlashmasi, kesishmasi, qism fazolarning yig'indisi, to'g'ri yig'indisi.

Vektorlarning ortogonal sistemasi. Bazis bo'lmagan ortogonal sistemani ortogonal bazisgacha to'ldirish. Ortogonallash jarayoni. Qism fazo to'ldiruvchisi. Qism fazo ortogonal to'ldiruvchisi va uning asosiy xossalari. Yevklid fazolar.

Chiziqli almashtirishlar va ular ustida amallar, turli bazislarda chiziqli almashtirish matritsalari orasidagi bog'lanish.

Invariant qism fazolar, xos son va xos vektorlar, chiziqli almashtirish matritsasining xarakteristik tenglamasi, xarakteristik ko'phad.

Diskret matematika va matematik mantiqning umumiy tushunchalari va uning zamonaviy amaliy masalalarni yechishdagi o'rni. Mulohaza. Mulohazalar ustida mantiqiy amallar.

Formulalar. Teng kuchli formulalar. Aynan chin, aynan yolg'on va bajariluvchi formulalar.

Formulalarning normal shakllari. Diz'yunktiv va kon'yunktiv normal shakllar. Mukammal kon'yunktiv va diz'yunktiv normal shakllar.

Matematik mantiqning diskret texnikaga tatbiqlari. Funksional elementlar va ulardan sxemalar yasash.

Predikat tushunchasi. Predikatlar ustida mantiqiy amallar. Umumiylik va mavjudlik kvantorlari. Formula tushunchasi. Formulaning qiymatini hisoblash.

4.3. Geometriya

Vektorlar va ular ustidagi amallar, vektorlarning chiziqli bog‘liqligi. Tekislikdagi koordinata metodi. Vektor koordinatalari. Koordinatalari bilan berilgan vektorlar ustida amallar. Tekislikdagi to‘g‘ri chiziq.

Tekislikdagi affin koordinatalar sistemasi. Berilgan kesmani berilgan nisbatda bo‘lish. To‘g‘ri burchakli dekart koordinatalar sistemasi. Ikki nuqta orasidagi masofa. Tekislikning yo‘nalishi. Ikki vektor orasidagi burchak.

Vektorlarning skalyar ko‘paytmasi, uning xossalari va tatbiqlari. Vektorlarning vektorial va aralash hamda qo‘sh ko‘paytmalari.

Koordinata sistemasini almashtirish. Qutb, qutb sferik, qutb silindrik koordinatalar sistemasi.

To‘g‘ri chiziqning turli berilish usullari. Tekislikning almashtirishlari. Tekislikdagi harakatlar. O‘xshash almashtirishlar. Gomotetiya. Tekislikdagi affin almashtirishlar. Tekislikda chiziq va uning tenglamasi. Tekislikda to‘g‘ri chiziq tenglamalari va uni tekshirish. Nuqtadan to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofa

Ikkinchi tartibli chiziqlar. Ellips, giperbola, parabolani kanonik tenglamasi yordamida tahlil qilish.

Fazodagi koordinatalar metodi. Fazoda tekislik va to‘g‘ri chiziqlarning berilish usullari. Ikkinchi tartibli sirtlarni kanonik tenglamalari bo‘yicha o‘rganish. Ikkinchi tartibli silindrik va konus sirtlar, aylanma sirtlarda kesimlar yasash.

Ellipsoid, giperboloidlar, paraboloidlar. Ikkinchi tartibli sirtlarning to‘g‘ri chiziqli yasovchilari. Sirkul va chizg‘ich yordamida yasash postulatlari. Yasashga doir masalalarni yechishdagi bosqichlar. Tekislikdagi geometrik yasashlarning turli metodlari.

n-o‘lchovli vektor fazo. n-o‘lchovli affin fazo. n-o‘lchovli affin fazolarning izomorfligi. n-o‘lchovli tekisliklar va ularning o‘zaro vaziyati. Affin almashtirishlar. Affin almashtirishlar gruppasi va uning qism gruppalari. n-o‘lchovli Yevklid fazosi. n-o‘lchovli fazoda o‘xshash almashtirishlar va uning gruppasi. n-o‘lchovli fazoda o‘xshash almashtirishlar va uning gruppasi. n-o‘lchovli fazoda harakatlar.

Chiziqli va kvadratik formalar. Kvadratik formani kanonik ko‘rinishga keltirish. Normal ko‘rinishdagi kvadratik forma. Inertsiya qonuni. Musbat aniqlangan kvadratik forma. Affin fazosidagi kvadrikalar. Kvadrika tenglamasini kanonik ko‘rinishga

keltirish. Kvadrikaning markazi va tasnifi. Uch o‘lchovli Yevklid fazosidagi kvadrikalar tasnifini.

Sirkul va chizg‘ich yordamida yasash aksiomalari. Sirkul va chizg‘ich yordamida yasashga doir eng sodda masalalar.

Yasashga doir masalalarni yechish bosqichlari. Tekislikdagi geometrik yasashlarning turli metodlari. Yasashga doir masallarni yechishdagi algebraik metod.

Yasashga doir masalalarni Sirkul va chizg‘ich yordamida yechish kriteriysi. Sirkul va chizg‘ich yordamida yechilmaydigan klassik masalalar.

Markaziy, parallel proektsiyalash va ularning xossalari.

Ikki tekislikning perspektiv affin mosligi. Tekislikdagi perspektiv-affin moslik. Perspektiv-affin moslikning bosh yo‘nalishlari.

Ellips va aylananing jinsdoshligi. Ellipsni qo‘shma diametrlarga ko‘ra yasash. Jinsdosh figuralar va ortogonal proektsiyalar

Parallel proektsiyalash usuli bilan yassi va fazoviy figuralarning tasvirini yasash.

Aksonometriya. Polke-SHvarts teoremasi. Fazoviy figuralarning tasvirini yasash.

Pozitsion va metrik masalalar. To‘la va to‘la bo‘lmagan tasvirlar va ularni stereometriyani o‘rganishga tatbiqlari. Qavariq ko‘pyoqlarning kesimlarini yasashga doir masalalar.

Proektiv fazo. Proektiv geometriyaning asosiy faktlari. Proektiv tekislik. Proektiv fazo aksiomalari. Proektiv fazo modellari. Proektiv koordinatalar. Ikkilik printsipi. Dezarg teoremasi. Bir to‘g‘ri chiziqda yotuvchi to‘rtta nuqtaning murakkab nisbati. Proektiv almashtirishlar va ularning gruppasi.

Proektiv geometriya predmeti. Nuqtalarning garmonik to‘rtligi. To‘liq to‘rt uchlikning garmonik xossalari. Qutb va qutb to‘g‘ri chizig‘i. Proektiv tekislikdagi ikkinchi tartibli chiziqlar va ularning klassifikatsiyasi. SHteyn, Paskal va Branshon teoremalari va ularni maktab geometriya kursidagi masalalarni yechishga tadbig‘i. Proektiv tekislikdagi qo‘zg‘almas to‘g‘ri chiziq.

Proektiv geometriya nuqtai nazardan Yevklid geometriyasi. Geometriya asoslari. Geometriya asoslarining tarixiy sharhi. Yevklidga qadar bo‘lgan geometriya. Yevklidning “negizlar” asari. Yevklidning v pastuloti va uni isbotlashga urinishlar. N.I.Lobachevskiy va uning geometriyasi.

Gilbert aksiomalar sistemasi sharhi. Gilbert aksiomalaridan kelib chiqadigan ba’zi natijalar. Tekislikdagi Lobachevskiy aksiomalar sistemasi va undan kelib chiqadigan natijalar. Parallel to‘g‘ri chiziqlar va ularning xossalari. Uchburchak,

to‘rtburchak. Uzoqlashuvchi to‘g‘ri chiziqlar va ularning xossalari. Parallellik burchagi. Lobechevskiy funktsiyasi. Aylana, ekvidistanta va oritsikl. Aksiomalar sistemasini izohlash haqida (interpretatsiyalash). Gilьbert aksiomalar sistemasiga beriladigan analitik interpretatsiya. Uch o‘lchovli Yevklid fazosining Veyl aksiomalar sistemasi. Aksiomalar sistemasining zidsizligi, erkinligi va to‘liqligi. Kesma uzunligi. Mavjudlik va yagonalik teoremasi. Tengdosh va teng tuzilgan ko‘pburchaklar haqida.

Ko‘pyoqning hajmi haqida. Lobachevskiy tekisligining turli modellari. Doimiy manfiy egrilikka ega bo‘lgan sirtda Lobachevskiy geometriyasining o‘rinli bo‘lishi. Parallellik Yevklid geometriyasidagi qolgan aksiomalarga bog‘liq emasligi.

Sferik geometriya va Rimanning elliptik geometriyalari haqida tushuncha. Riman geometriyasining aksiomalar sistemasi.

Topologik fazo va uni kiritish usullari. Ochiq va aksiomasining yopiq to‘plamlar. Ichki, chegaraviy va urinish nuqtalari. To‘plamning yopig‘i. Ajrimlilik aksiomalari. Topologiya bazasi. Bog‘lanishli va chiziqli bog‘lanishli to‘plamlar. Kompakt to‘plamlar.

Uzluksiz akslantirishlar va gomeomorfizm. Skalyar argumentli vektor funktsiyalar. Egri chiziqning berilish usullari. Regulyar chiziqlar. Urinma va normal tekislik. Egri chiziq uzunligi. Egri chiziqning egriligi va buralishi. Frene formulalari. Ikki skalyar argumentli vektor funksiyalar.

Silliq sirt haqida tushuncha. Sirtning birinchi kvadratik formasi. Sirt ustidagi chiziqning uzunligi. Sirt ustidagi chiziqlar orasidagi burchak. Sirt ustidagi sohaning yuzasi. Sirt ustidagi chiziqning egriligi. Sirtning ikkinchi kvadratik formasi. Bosh egriliklar. Sirtning to‘la va o‘rtacha egriligi. Sirtning ichki geometriyasi.

4.4. Matematika o‘qitish metodikasi

“Matematika o‘qitish metodikasi” fanining predmeti, fan sifatida uning taraqqiyoti, bosqichlari o‘quv predmeti sifatida maqsadi, mazmuni. Matematika o‘qitishni tashkil etish formalari. Sinf dars sistemasi. Matematika o‘qitishda kuzatish va tajriba, taqqoslash va analogiya metodlari. Matematika o‘qitishda analiz va sintez kabi metodlarning o‘rni. Analitik metod bilan masalalar yechish va teoremalarni isbotlash. Matematika o‘qitishda induksiya, deduksiya. Matematika o‘qitishda umumlashtirish, abstraksiyalash va ularning ahamiyati.

Maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari matematikasi kursida matematik mantiq elementlari. Matematik tushuncha, ta’rif, aksioma va teoremalarning mantiqiy tuzilishi. Zaruriy va yetarli shartlar. Ularni o‘qitish muammolari. O‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish jarayonida masalalarning ahamiyati. Masala yechishda umumiy va xususiy usullar. Isbotlashga va hisoblashga doir masalalarni analitik metod bilan yechish. Matematikani o‘qitishda masalalarning o‘rni va roli, o‘quvchilarni matnli masalalar yechishga o‘rgatish metodikasi. Matematika o‘qitish jarayonida matematik tafakkurni rivojlantirish shakllari va usullari. Teoremalar, ularning turlari, isbotlash usullari. Teoremalarni o‘qitishning metodikasi.

Matematik o‘qitish metodlari (muammoli, evristik, dasturlashgan, blokli, modulli). Matematika o‘qitish metodlarining klassifikatsiyasi. Matematika o‘qitishda muammoli, evristik, dasturlashgan, blokli, modulli metodlari. Sinfdan tashqari va fakultativ mashg‘ulotlar, ularning tashkiliy shakllari, maqsad va vazifalari, o‘tkazish metodikasi. Matematika o‘qitishda pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari. Matematika o‘qitishga innovatsionyondashuvlar: texnologik, integrativ, faoliyatli yondashuvlar.Matematika o‘qitishda interfaol usullar: “Aqliy hujum”, “Yalpi aqliy hujum”, “6x6,” “Qora quti”, “Charxpalak”, “Bumerang”, “Klaster”, “Sinkveyn” va boshqalar. Matematika o‘qitishni loyihalashtirish va o‘qituvchining darsga tayyorlanish sistemasi, dars tahlili.

Natural sonlarni o‘qitish metodikasi. Kasrlarni kiritish, oddiy va o‘nli kasrlarni o‘qitish metodikasi. Manfiy va irratsional sonlarni kiritish metodikasi. Haqiqiy sonlar mavzusini o‘qitish metodikasi. Haqiqiy sonlar tushunchasini kengaytirish va kompleks sonlar mavzusini o‘qitish metodikasi.

Umumiy o‘rta maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari matematikasida ayniy shakl almashtirish va uni o‘qitish metodikasi. Umumiy o‘rta ta’lim maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari matematikasi kursida funksiya tushunchasini kiritish va o‘qitish metodikasi. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi, AL va KHKlarida tenglama va tengsizliklarni o‘qitish metodikasi. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi “Algebra” kursidan bitta mashg‘ulotning ishlanmasini tayyorlash.

Dekart koordinatalari. Tekislikda va fazoda Dekart almashtirishlar. O‘xshashlik va gomotetiyani o‘qitish metodikasi. Tekislikda va fazoda vektorlar mavzusini o‘qitish metodikasi.

Stereometriya kursining birinchi darslarini o‘qitish metodikasi. Fazoda to‘g‘ri chiziq va tekisliklarni parallel va perpendikulyarligini o‘qitish metodikasi. Geometriya kursida ko‘pburchaklar va ko‘pyoqliklarni o‘qitish metodikasi. Geometriya kursida yuza va hajmlarni o‘qitish metodikasi

Trigonometrik funksiyalar, tenglama va tengsizliklarni o‘qitish metodikasi.

Ko‘rsatkichli va logarifmik funksiyalar, tenglama va tengsizliklarni o‘qitish metodikasi.

Hosila. hosilani funksiyani tekshirishga tatbiqi mavzularini o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich funksiya va integral mavzularini o‘qitish metodikasi. Differensial tenglamalarni o‘qitish metodikasi. Akademik litseylar va kasb hunar kollejlarida hosila mavzusini o‘qitishning o‘rni, maqsadi, ahamiyati va vazifalarini aniqlash. Hosilani qo‘llash usulining matematikani o‘qitishdagi imkoniyatlarini qarab chiqish.

4.5. Matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi

Sanoq sistemalari: pozitsion, nopozitsion sanoq sistemalari, ixtiyoriy pozitsion sanoq sistemalarida arifmetik amallar.

Bo‘linish belgilari. Qoldiqli bo‘lish. Tub va murakkab sonlar. EKUB va EKUK. Arifmetikaning asosiy teoremasi.

Natural sonlarning kanonik yoyilmasi. Butun koeffitsientli aniqmas tenglamalar. Ratsional sonlarni kiritish yo‘llari. Ratsional sonlar ustida amallar. Munosib kasrlar. Cheksiz davriy munosib kasrlar. Irratsional sonlar. Haqiqiy sonlar ustida amallar. Algebraik va transsendent sonlar. Taqribiy hisoblashlar va ularning tatbiqi.

Bir o‘zgaruvchili va bir jinsli ko‘phad. Uning kanonik ko‘rinishi, ko‘phadlar ustida amallar. Ko‘phadning bo‘linishi. Ko‘phadlarni ko‘paytuvchilarga ajratish. Ratsional ifodalarni ayniy almashtirishlar.

Tenglama. Tenglamalar tasnifi. Teng kuchli tenglamalar. Birinchi va ikkinchi darajali tenglamalar. Qaytma va yuqori darajali tenglamalar. Kasr-ratsional tenglamalar. Modul qatnashgan tenglamalar. Tenglamalar sistemasi. Tenglamalar sistemasini yechishning elementar usullari.

Sonli tengsizliklar va ularning xossalari. Tengsizliklarni isbotlash. Tengsizliklar tengkuchliligi. Birinchi va ikkinchi darajali tengsizliklarni yechish.

Kasr-ratsional va yuqori darajali tengsizliklar. Irratsional ifodalarni ayniy almashtirish. Irratsional tenglama va tenglamalar sistemasi. Irratsional tengsizliklar va tengsizliklar sistemasi.

Ko‘rsatkichli va logarifmik ifodalarni ayniy almashtirish. Ko‘rsatkichli va logarifmik tenglama. Tenglamalar sistemasi. Ko‘rsatkichli va logarifmik tengsizliklar. Tengsizliklar sistemasi. Parametr qatnashgan tenglama va tengsizliklar. Parametr qatnashgan tenglama va tengsizliklar sistemasi.

Geometrik almashtirishlarning masalalar yechishga tatbiqlari. Aylana doira va ularda metrik munosabatlar. Uchburchakda metrik munosabatlar. Uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylanalar. Styuart, Ptolemey teoremalari.

Ko‘pburchaklarga ichki aylana chizish shartlari. Ko‘pburchakka doir masalalar. Geometrik figuralar yuzasi mavjudligining zaruriy va yetarli shartlari, ularning xossalari. Yuzalarni hisoblashga doir masalalar.

Stereometriyaning asosiy aksiomalari va ularning natijalari. Fazoda to‘g‘ri chiziq va tekisliklar hamda tekisliklarning o‘zaro joylashuvi. Ikki yoqli, ko‘p yoqli burchaklar va ularning tekis burchaklari. Ko‘p yoqli figuralar, ularning sirtlari, hajmlari. Ko‘pyoqlarning sirti va hajmlarini hisoblashga oid misollar.

Aylanma jismlar, ularning sirtlari va hajmlari. Fazoviy figuralarning o‘zaro kombinatsiyasiga doir masalalar.

Haqiqiy argumentli trigonometrik funksiyalar va ularning xossalari. Argumentning ba’zi qiymatlarida trigonometrik funksiyaning qiymatlari. Trigonometrik funksiyaning berilgan qiymatiga ko‘ra burchagini (yoyini) yasash. Bir xil argumentli trigonometrik funksiyalar orasidagi munosabatlar. Trigonometrik ayniyatlar. Qo‘shish teoremalari va ularning natijalari. Trigonometrik funksiyaning ko‘paytmasini yig‘indiga va aksinchaga almashtirish formulalari. Darajani pasaytirishning umumiy formulasi. Ratsionallashtiruvchi almashtirish va yordamchi burchak kiritish. Ba’zi trigonometrik yig‘indi va ko‘paytmalarni hisoblash. Trigonometrik tengsizliklarni isbotlash. Garmonik tebranishlar va ularni qo‘shish. Trigonometrik funksiyalarning grafiklarini yasash.

Teskari trigonometrik funksiyalar va ularning xossalari, grafiklari. Arkfunksiyalarning trigonometrik funksiyalari. Arkfunksiyalar orasidagi bog‘lanishlar. Trigonometrik funksiyalarning arkfunksiyalari.

Trigonometrik tenglamalar va ularni yechish usullari a) eng sodda trigonometrik tenglamalar; b) trigonometrik funksiyalarga nisbatan algebraik tenglamalar; v) ikki funksiyaning tenglik sharti; g) bir jinsli tenglamalar; d) $a \cdot \sin x + b \cdot \cos x = c$ tenglamani yechish. Arkfunksiyalar qatnashgan tenglamalar. Trigonometrik tenglamalar sistemasi. Trigonometrik tengsizliklar, trigonometrik tengsizliklar sistemasi.

4.6. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika

Ehtimollar nazariyasi predmeti haqida. Qisqacha tarixiy ma’lumotlar. Elementar hodisalar tushunchasi. Tasodifiy hodisalar. Tasodifiy hodisalar ustida amallar (to‘plamlar nazariyasi bilan bog‘liq holda).

Diskret ehtimollik fazosi va ehtimolliklar taqsimoti. Ehtimollikning klassik ta’rifi. Ba’zi klassik sxemalar. Kombinatorika elementlari va ularning klassik sxemalarda qo‘llanishi. Ehtimollikning eng sodda xossalari.

Ehtimollikning statistik ta’rifi. Ehtimollikning geometrik ta’rifi. Uchrashuv haqidagi masala.

Hodisalarning algebra va σ-algebralari. Ehtimollik aksiomalari. (Kolmogorov aksiomalari). Ehtimollikning xossalari. Uzluksizlik xossasi (sanoqli additivlik xossasi).

Shartli ehtimollik ta’rifi. Hodisalar bog‘liqsizligi. To‘la ehtimollik va Bayes formulalari.

Bog‘liq bo‘lmagan tajribalar ketma-ketligi. Bernulli sxemasi. Binomial taqsimot va uning xossalari. Muavr-Laplas lokal va integral teoremalari. Puasson teoremasi.

Tasodifiy miqdor ta’rifi va unga doir misollar. Tasodifiy miqdorning turlari. Tasodifiy miqdorlarning taqsimot funksiyalari. Ba’zi taqsimot qonunlari (normal, tekis, Puasson taqsimotlari).

Diskret tasodifiy miqdorlarning matematik kutilmasi va uning xossalari. Diskret tasodifiy miqdorlarning dispersiyasi va uning xossalari. O‘rtacha kvadratik chetlanish. Uzluksiz tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi va dispersiyasi. Boshlang‘ich va markaziy momentlar. Tasodifiy vektorlar va ularning sonli xarakteristikalari.

Tasodifiy miqdorlarning yaqinlashish turlari. Chebishev tengsizligi. Katta sonlar qonuni (Bernulli teoremasi, Chebishev teoremasi). Misollar.

Xarakteristik funksiya. Xarakteristik funksiyaning xossalari.

Markaziy limit teorema. Bir xil taqsimlangan bog‘liq bo‘lmagan tasodifiy miqdorlar uchun markaziy limit teorema. Bog‘liq bo‘lmagan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi uchun markaziy limit teorema.

Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish. Tanlanma metodi. Matematik statistika elementlari. Bosh va tanlanma to‘plam tushunchasi. Variatsion qator va uning taqsimotlari.

Gistogramma va poligon. Nisbiy chastota. Nisbiy chastota gistogrammasi va poligoni. Empirik taqsimot funksiyasi va uning xossalari. Empirik taqsimot funksiyasining grafigi.

Tanlanmaning o‘rta va vazniy arifmetik qiymatlari. Variatsion qator uchun moda va mediana. Gruppalangan tanlanma uchun moda va mediana formulalari.

Statistik baholar va uning xossalari. Dispersiya, variatsiya koeffitsiyenti va o‘rta kvadratik chetlanish. Korrelyatsion bog‘lanish.Regressiya koeffitsiyenti va tenglamasi. χ^2- kriteriy. Statistik gipotezalar nazariyasi elementlari.

4.7. Tanlov fanlari.

Matematik analizning elementar masalalar yechishga tatbiqlari

Matematikaning turli sohalardagi tatbiqlari haqida ma’lumot. Matematika tarixidan qisqacha ma’lumot. Matematik analizning maktablarda o‘qitiladigan matematika kursi bilan aloqadorligi. Matematik analizning akademik litseylarda o‘qitiladigan matematika kursi bilan aloqadorligi. Hozirda mamlakatimizdagi mavjud sohalar. Turli sohalardagi muammolarning matematik modeli. Funksiya muhim sinflari. Funksiya muhim sinflarini orasidagi aloqadorlik. Funksiya muhim sinflarining elementar masalalarga tatbiqlari. Funksiya muhim sinflarining matematik masalalarga tatbiqlari. Funksiya hosilasi tushunchasi tahlili. Funksiya hosilasining limitlarni hisoblashga tatbiqlari. Funksiya hosilasining haqiqiy sonlarga tatbiqlari. Funksiya hosilasining funksiya qiymatlariga tatbiqlari. Funksiya hosilasining funksiya grafigiga tatbiqlari. Funksiya hosilasining aniq integralga tatbiqlari. Funksiya hosilasining yuza, uzunlik, hajm, sirt yuzalarini hisoblashga oid masalalarga tatbiqlari. Funksiya hosilasining tenglama va tengsizliklarni yechishga, sonlarni taqqoslashlarga oid masalalarga tatbiqlari.

Elementar matematikaning qo‘shimcha boblari

Matematik tushunchalar. Hozirda mamlakatimizdagi mavjud sohalar. Elementar matematikaning qo‘shimcha boblari va ularning tatbiqlariga oid manbalar haqida. Sonlar nazariyasiga oid ochiq masalalar haqida va muammolarni hal qilish uchun ijod qilish uchun masalalar. Uchburchak, to‘rtburchak va aylanaga oid ochiq masalalar va ijod uchun masalalar. Uchburchakni 9 ta elementiga ko‘ra 32 turda yasash. Ikki xonali tub sonlarga bo‘lish alomatlarini topish va ijod uchun masalalar. Kombinatorikaga oid ochiq masalalar va ijod uchun masalalar. Kombinatorik geometriyaga oid ochiq masalalar va ijod uchun masalalar. Tenglamalar va tenglamalar sistemasiga oid ochiq masalalar va ijod uchun masalalar. Tengsizliklarga oid ochiq masalalar va ijod uchun masalalar. Turli mashhur tengsizliklar. Graflar va uning tatbiqlariga oid ochiq masalalar va ijod uchun masalalar. O‘yinlar nazariyasi va boshqaruvchili sistemalarga oid ochiq masalalar va ijod uchun masalalar. Ferma teoremalari va ularning tarixi. Morley teoremasi oid ochiq masalalar va ijod uchun masalalar. Tekislikni ko‘pburchaklar va turli figuralar bilan qoplash masalasi va ijod uchun masalalar. Muntazam ko‘pburchaklar yasashga oid masalalar va ijod uchun masalalar. Sfera ustida yasashlarga oid ochiq masalalar va ijod uchun masalalar.

4.8. Tanlov fanlari.

Qiziqarli matematika va olimpiada masalalari

Arifmetikaga oid qiziqarli masalalar tizimi. Mantiqiy masalalarni yechishning asosiy usullari. Juft-toqlikka oid matnli masalalar. Matnli masalalarni yechishning arifmetik usuli. Graflar nazariyasining asosiy tushunchalari. Butun sonlar bo‘linishiga oid masalalar. Sonlar nazariyasining muhim funksiyalari. Arifmetik reburslar. Matematik naqshlar.Kombinatorika masalalari. Matematik sofizmlar va paradokslar. Kompleks sonlar. Tengsizliklarni isbotlashning klassik usullari. Tengsizliklarni isbotlashning zamonaviy usullari. Nostandart masalalar haqida.

Elementar matematikada kompleks sonlar metodi

Asosiy formulalar. Elementar matematikada kompleks sonlar metodi va ularning tatbiqlariga oid manbalar haqida. Keltirish formulalariga oid masalalarda kompleks sonlarning qo‘llanilishi. Trigonometrik yig‘indi va ko‘paytmalarni hisoblash. Trigonometrik ayniyatlarni isbotlashda kompleks sonlarning qo‘llanilishi. Sinus va kosinuslar ko‘paytmasini trigonometrik ko‘phadga almashtirish. Trigonometrik tenglamalarni yechish. Uch nuqtaning bir to‘g‘ri chiziqda yotish sharti. Vektorlar orasidagi burchak. To‘g‘ri chiziqlarning paralelligi. To‘g‘ri chiziqlarning perpendikulyarligi. Uchburchak va to‘rtburchak yuzalari. O‘xshash va teng uchburchaklar. Kompleks sonlarning elektrotexnikadagi tatbiqi. Ba’zi fizik masalarga tatbiqlar.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187- sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5- sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5538- sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5- sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 3931- sonli Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712- sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 6- oktyabrdagi PQ – 4851- sonli Qarori.

III. Asosiy adabiyotlari

1. Xudayberganov G., Vorisov A., Mansurov X., Shoimqulov B. Matematik analizdan ma’ruzalar. I T.: «Voris-nashriyot». 2010 y. – 374 b.
2. Xudayberganov G., Vorisov A., Mansurov X., Shoimqulov B. Matematik analizdan ma’ruzalar. II T.: «Voris-nashriyot». 2010 y. – 352 b.
3. Ayupov Sh.A., Berdiqulov M.A., Turgunbaev R.M. Funksional analiz. T.: TDPU. 2008 y.-136b.
4. Ayupov Sh.A., Berdiqulov M.A., Turgunbaev R.M. Matematik analiz (funksional analizga kirish). T.: TDPU. 2014 y.-126b.
5. Ayupov Sh.A., Ibragimov M.M., Kudaybergenov K.K. Funksional analizdan misol va masalalar. Nukus. “Bilim”- 2009 y. - 302 b.
6. Turgunbaev R. Matematik analiz. 2-qism. T.:TDPU, 2008 y.-136b.
7. Jo‘raev T. va boshqalar. Oliy matematika asoslari. 2-q. T.: «O‘zbekiston». 1999.- 303b.
8. Turgunbaev R., Ismailov Sh. Abdullaev O. Differensial tenglamalar kursidan misol va masalalar to‘plami. T.:TDPU. 2007 y.-84 b.
9. Sa’dullaev A. va boshq. Matematik analiz kursidan misol va masalalar to‘plami. III qism. T.,«O‘zbekiston». 2000 y.-400b.
10. Arxipov G.I., Sadovnichiy V.A., Chubarikov D.I. Leksii po matematicheskomu analizu. M.: «Vыsshaya shkola». 1999 g. – 695 str.
11. Piskunov N.S. Differensialnoe i integralnoe ischislenie. 1-2-tom. Pb.: «Mifril». 1996 g. – 416 str.
12. Umumiy o‘rta ta’limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent 2017 yil.
13. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2012.
14. A.A. Abduqodirov, Q.M. Karimov, I.A. Yuldoshev. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015.
15. B.Boltayev, A.Azamatov va boshqalar. Microsoft Office dasturlari MS Word // Toshkent, 2014 yil.
16. S.S. Jumanazarov, B.Xaydarov, D.Li, Sh.Qayumov “Kompyuter savodxonligi asoslari”.–T.:2014 y.

17. Aripova S.X.“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2010 y.

18. R.Mavlonova. D.Abdurahimova. “Pedagogik mahorat”. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2012 y.

19. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – T.: “Nihol”, 2013y.

20. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil

21. Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil

22. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiev. “Pedagogika”. – T.: “O‘qituvchi”, 2010 y.

IV. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Azlarov. T., Mansurov. X., Matematik analiz. T.: «O‘zbekiston». 1 t: 1994 y.-416 b.

2. Azlarov. T., Mansurov. X., Matematik analiz. T.: «O‘zbekiston». 2 t . 1995 y.-436 b.

3. A.Gaziev, I.Israilov, M.Yaxshibaev “Matematik analizdan misol va masalalar” T.: “Yangi asr avlodi” 2006 y.

4. Toshmetov O‘, Turgunbaev R. Matematik analizdan misol va masalalar to‘plami. 1-q. TDPU. 2006 y.-140 b.

5. Toshmetov O‘, Turgunbaev R. Matematik analizdan misol va masalalar to‘plami, 2-q. TDPU. 2010 y.-48 b.

6. Turgunbaev R.M., Koshnazarov R.A., Raximov I.K. Matematik analiz. Mustaqil ta’lim uchun metodik ko‘rsatmalar. T.: TDPU. 2013 y. – 56 b.

7. G‘aymnazarov G., G‘aymnazarov O.G. Funksional analiz kursidan masalalar yechish. T.: “Fan va texnologiya”, 2006.-114b.

8. Demidovich B.P.., «Sbornik zadach i uprajneniy po matematicheskomu analizu» Ucheb. Posobie dlya vuzov. M.: OOO «Izdatelstvo Astrel» OOO «Izdatelstvo AST», 2003 g – 558 [2] st.

9. Filippov A.F. Sbornik zadach po differensialnыm uravneniyam. M.:Integral-Press, 1998,-208s.

10. Ivanova Ye.P. Lineynыe differensialnыe uravneniya s postoyannыmi koeffitsientami. Uchebnoe posobie k raschetnoy rabote - Moskva: MAI, 2003.- 52 s. ISBN 5-7035-1283-2. (http://www.iqlib.ru/book/ preview/)

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 30 ”sentabrdagi
367-son buyrug‘iga
5.23-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISH HUQUQINI BERISH BO‘YICHA KASBIY VA PEDAGOGIK QAYTA TAYYORLASH KURSINING

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar:

S.Jumanazarov – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri

N.Xalikova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

S.Normatov – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi v.b. dotsenti

S.Eshqobilov – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi v.b. dotsenti

B.Xurramov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Elektron ta’lim bo‘limi xodimi

D.M. Hakimova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent;

M.T. Ergasheva – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Pedagogika, psixologiya” kafedrasi mudiri p.f.d. (DSc), dotsent.

M.U. Badalova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rektor maslahatchisi.

F.A. Murodova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Tayanch doktorant.

Taqrizchilar:

A.A.Maxkamov – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

S.S.Samijonov – A.Avloniy nomidagi PMMI “Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi” Informatika metodisti

N.A. Yuldasheva – Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.d., DSc, prof.

D. F. Yusupova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim menejmenti kafedrasi mudiri v.b.

Mazkur o‘quv reja va dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2025-yil _____dagi __-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KURSINING NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:

1. **Tabiiy va ilmiy fanlar**

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

2. Pedagogika va psixologiya

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

2.2. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

2.5. Umumiy pedagogika

2.6. Umumiy psixologiya

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

3. Umumkasbiy fanlar

3.1. Umumta’lim maktablarda huquqiy masalalar

3.2. Informatika va raqamli texnologiyalar

3.3. Tarmoq texnologiyalari

3.4. Kompyuterning ta’minoti

3.5. Axborot tizimlari

3.6. Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari

3.7. Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish

3.8. Tanlov fanlari

4. Ixtisoslik fanlari

4.1. Zamonaviy dasturlash tillari

4.2. Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish metodikasi

4.3. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

4.4. Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyalari

4.5. Kompyuter grafikasi va veb-dizayn

4.6. Tanlov fanlari

1. TABIIY VA ILMIY FANLAR

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

Ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Maktab ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”i, Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

Maktab ta’limi sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar.

Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. Maktablarning lokal hujjatlari (ustav, ichki tartib qoidalar).

O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari.

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. Ta’lim oluvchilarning informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi.

Fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Ta’lim oluvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash texnologiyalari zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasi, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish kabi bilimlarga ega bo‘lishi.

Operatsion tizimlar, ularning turlari bilish faolligini oshirish va mustaqil ta’limini tashkil etish asosida amaliy dasturlardan foydalanib, fanni o‘zlashtirishi.

Amaliy dasturlar asosida darslarni tashkil etish. Microsoft Office dasturlarida fanga oid elektron ishlanma va taqdimotlarni yaratish texnologiyalari.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda, o‘zining kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish, amaliy dasturlar, jumladan MS Ofice dasturlar paketi va ularda ishlash, amaliyotda qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi, interfaol ta’lim, “Case study” yordamida o‘quv jarayonida AKTdan foydalanish fanini o‘qitishda amaliy dasturlardan maqsadli foydalanish. Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda elektron jadval muharrirlaridan, jumladan MS Excel dasturi va uning imkoniyatlaridan samarali

foydalanish. MS Excelda avtomati qo‘shish, avtoto‘ldirish, sodda formulalar, funksiyalar, diagrammalar va filtrlash. Power Point dasturida taqdimotlar yaratish.

Multimediali darslar asosida ta’lim samaradorligini oshirish.

Ta’lim oluvchilarning kasbiy yo‘nalishlaridagi bilish faolligini oshirishda multimedianing asosiy elementlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, audio va video axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

Internet tarmog‘i vositalari. Elektron pochta, ro‘yxatdan o‘tish va fanni o‘qitishda undan foydalanish.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda masofadan o‘qitish texnologiyasidan foydalanib, fanni o‘qitish. Masofaviy ta’limda mahorat darslari, vebinarlarni tashkil etish texnologiyalari. LMS texnologiyasi.

Masofaviy ta’lim. O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.

O‘qituvchining virtual kutubxonasi. O‘quvchining elektron portfoliosi. Fanni o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi.

Internet. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar. Internet turlari va ularning klassifikatsiyasi. Internet xizmatlari va jumladan elektron pochta xizmati.

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

Kirish. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. O‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.

Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining tarixi va rivojlanish tendensiyalari, anatomiya, fiziologiya, yosh fiziologiyasi va gigiyena fanlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining biologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Sog‘lom avlod dasturi va uni targ‘ib qilish. Respublikamizda bolalar salomatligini saqlash yo‘lida olib borilayotgan islohotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena sohasidagi yutuqlar. Fanning vazifalari, o‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Ta’lim jarayonida ratsional usullarni qo‘llashda, har bir o‘quvchiga individual yondashishda pedagoglarning bola organizmining o‘ziga xos o‘sish va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimga ega bo‘lishlari. Yoshlik davrlari va yoshga oid o‘zgarishlari haqida tushuncha. Hujayraning umumiy tuzilishi. Irsiy kasalliklar va ularning turlari.

Nerv tizimining yosh xususiyatlari.

Nerv tizimining ahamiyati va umumiy tuzilishi shakli. Nerv markazlari haqida tushuncha. Nerv markazlarining fiziologik xususiyatlari: qo‘zg‘alish va tormozlanish, taassurotlarni summatsiyalash, kislorod tanqisligiga chidamsizlik, irradiatsiya, induksiya, A.A. Uxtomskiyning “Dominanta qonuni”. Markaziy nerv tizimi bo‘limlari-ning yoshga oid xususiyatlari. Vegetativ nerv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Organizm reflektor faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatini tekshirish usullari. Shartli va shartsiz reflekslar haqida tushuncha. Ularning bir-biridan farqi. Shartli reflekslarning hosil bolishidagi shart-sharoitlar. Dinamik stereotip, nutq funksiyasi va uning fiziologik asosi. Bolalar oliy nerv faoliyatining tiplari va ularning plastikligi.

Nerv tizimi gigiyenasi. Bolalar va o‘smirlarning ishchanlik qobiliyati, charchash va o‘ta charchash haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiya psixogigiyeniyasi. Nevroz (asabiylik). Asab buzilishini oldini olish.

Analizatorlarning yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Analizatorlarning umumiy tuzilishi va ahamiyati. Analizatorlarning turlari: ko‘rish analizatorining yosh xususiyatlari. Ko‘rish qobiliyatining pasayishini oldini olish. Eshitish analizatori. Bolalarda eshitish organining rivojlanishi. Eshitish gigiyenasi. Muvozanat apparati.

Ichki sekretsiya bezlarining yosh xususiyatlari.

Organizmdagi fiziologik jarayonlarining neyron-endokrin sistemasi orqali boshqarilishi. Ichki sekretsiya bezlari haqida tushuncha. Ichki sekretsiya bezlarining joylashuvi. Garmonlar, ularning organizmdagi vazifasi. Organizmning gumoral boshqaruvida garmonlarning tutgan o‘rni. Garmon va stress. Garmonlar va jinsiy yetilish. Ichki sekretsiya bezlarining yoshga oid xususiyatlari.

Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Tayanch-harakat apparatining ahamiyati va vazifasi. Odam skeletining umumiy tuzilishi va yosh xususiyatlari. Suyak tuzilishining yosh xususiyatlari. Umurtqa pog‘onasi va ularning egriliklari, egriliklarning shakllanishi. Bosh, gavda va qol-oyoq skeletining o‘sishi va rivojlanishi. Muskullarning dinamik va statik ishi. Turli yosh davrlarida mushaklar kuchi, tezligi, chaqqonligi, chidamliligi, va massasining o‘zgarishi. Charchash, uning fiziologik mexanizmi. Skolioz, uning kelib chiqish sabablari va uni oldini olish.

Ovqat hazm qilish tizimining yosh xususiyatlari va ovqatlanish gigiyenasi.

Og‘iz boshligida, me’da va ichakda ovqat hazm bo‘lishining xususiyatlari. Jigarning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Moddalar va energiya almashinuvining yosh xususiyatlari. Bola o‘sishi va rivojlanishida suv, mineral tuzlar va vitaminlarning ahamiyati. Turli yosh davrlarda bolalar ovqatlanishining o‘ziga xosligi. Ovqatlanish gigiyenasi.

Qon va qon aylanish tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Qonning ahamiyati. Qon tarkibi, uning vazifalari. Ularning yosh xususiyatlari. Qon aylanishining ahamiyati. Katta va kichik qon aylanish doirasi. Ona qornida homilaning qon aylanishi. Yurakning funksiyalari va yosh xususiyatlari. Puls va qon bosimi. Ularning yosh xususiyatlari.

Nafas organlarining yosh xususiyatlari va gigiyenasi. Nafas olishning ahamiyati. Nafas tizimining vazifasi. Tashqi va ichki nafas olish. O‘pkaning tiriklik sig‘imi. O‘pka ventilyatsiyasi. Uning yoshga, jismoniy mashqqa bog‘liqligi. Muskul ishi vaqtida nafas olish. Nafas gigiyenasi.

Ayiruv tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Ayiruv jarayonlarining ahamiyati. Buyraklar tuzilishi va ularni yosh xususiyatlari. Siydik hosil bo‘lish mexanizmi. Turli yoshdagi bolalar sutkalik siydik miqdori. Bolalarda tunda siydik tuta olmaslik, uning kelib chiqish sabablari.

Salomatlik haqida tushuncha. Bolalar va o‘smirlar salomatlik holati. Kasalliklar. Sog‘liq holatining maktab o‘quvchisining ishchanlik qobiliyatiga ta’siri. O‘tkir va surunkali kasalliklar. Kasalliklarni tarqalish manbalari. Tug‘ma va hayot davomida orttirilgan immunitet. Ta’lim va tarbiyaning tinglovchi sog‘ligiga ta’siri.

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

O‘zbekiston Respublikasida atrof muhitni muhofaza qilish masalasida amalga oshirilayotgan isloxotlar. Atrof-muhit tushunchasi va asosiy komponentlari (havo, suv, tuproq, biologik xilma-xillik) haqida tushunchalar berish.

Inson faoliyatining ekologiyaga ta’siri (sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi). Ekologik inqirozlar va ularning oqibatlari (global isish, cho‘llanish, deforestatsiya).

Yashil iqtisodiyot nima? Uning asosiy tamoyillari. Innovatsion yechimlar orqali ekologik muammolarni hal qilish. Quyosh va shamol energiyasi, bioyoqilg‘i, energiya samaradorligi. Oqilona suv va chiqindi boshqaruvi.

Ekologik madaniyat. Fuqaroning ekologik xatti-harakatlari (maishiy chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, transportdan foydalanish odatlari). Jamiyatdagi ekologik tashabbuslar (ko‘ngillilar harakati, daraxt ekish, eko-marafonlar). Aholi o‘rtasida va jamoalarda ekologik faollikni oshirish yo‘llari.

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish. Qonunlar, jazolar va profilaktika choralar.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning biologik, psixologik va ijtimoiy oqibatlari. Giyohvand moddalarni sog‘likka salbiy ta’sirlari. Davolash, reabilitatsiya va jamiyatga moslashuv, davolash usullari (narkologik xizmatlar).

Dunyo va O‘zbekistonda giyohvand moddalar tarqalishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

Milliy strategiyada belgilangan asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi (giyohvand moddalar aylanmasi, tarqatish, saqlash va iste’mol qilish bo‘yicha).

2. PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

O‘quvchilarni baholash nazariyasi. Baholash, baholashning maqsadi va vazifalari. Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot). Baholash turlari (diagnostik, formativ, summativ). Baholash tamoyillari va mezonlari.

O‘quvchilarning sinfdagi faoliyatini baholash. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalari.

O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholash. O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari(tanqidiy, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasi.

2.2. Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar

Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar. Hozirgi kunda jahonda va O‘zbekiston ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan ilg‘or xorijiy tajribalar haqida umumiy ma’lumot. “5E” modeli haqida tushuncha. “4K” tizimi. XXI asr ko‘nikmalari.

“Lesson Study” metodikasining mohiyati. Sharq va G‘arb mamlakatlarida “Lesson Study” yondashuvining paydo bo‘lishi va hozirgi kundagi ahamiyati. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Lesson Study” yondashuvidan foydalanishning amaliy talqini. Boshlang‘ich ta’limda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. 10–11- sinflarda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish istiqbollari. Raqamli ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt.

Ta’limda IT va raqamli platformalardan foydalanish. Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari. Inklyuziv ta’limni joriy etishdagi afzallik va kamchiliklar. Ta’limda kreativlikdan foydalanish. Ta’limda kreativlikning amaliy talqini. O‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv.

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi modernizatsiya jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish muammosi. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv fanini o‘rganishda tinglovchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning

mazmuni va mohiyati. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish. Pedagogik kompetentlikka oid akmeologik yondashuvlar.

Metodik kompetentlik. Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalarini shakllantirish. Mashg‘ulotlarni metodik jihatdan tashkil etish, bilimlarni oqilona baholay olish. Ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish. O‘z kasb mahoratini tinmay oshirib borish.

O‘qituvchi kasbiga qo‘yilgan talablar. Pedagogik kreativlik. Interfaol o‘qitish metodlari asosida tinglovchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi. Pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlari. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari va shartlari. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo‘l va shakllari. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari.

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash. Tarbiya tushunchasini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni. Buyuk allomalarning tarbiya borasidagi qarashlari. Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari.

Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. Maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyati. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati.

Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash. Insonlar ongida ma’naviy va o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish usullari. Shaxsning ma’naviy yuksalishida milliy qadriyatlarning o‘rni.

Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish.

Intellekt so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Insonning aqliy qobiliyatini rivojlantirish usullari. Shaxsning voqelikka munosabatlarini o‘rganish. Boshqarish faoliyati. Fikrlash, o‘qish-o‘rganish qobiliyati. Insonning dunyoni bilish va ijtimoiy

tajribasini qabul qilish qobiliyati. Oqilona ish bajarishni o‘rganish. Voqea-hodisalarni oldindan bilish.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish. Tarbiyaga yo‘naltirilgan vaziyatlarni asoslash. O‘quv munozaralarini tizimli tarzda tashkil etish. O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga ongli ravishda yondashish. O‘quvchilar bilimlarini mustahkamlab axborotlarni egallashga o‘rgatish usullari. O‘quvchilarda muammolarni bilish va ular haqida fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatish usullari.

Tarbiya texnologiyalari.

Tarbiya texnologiyasi haqida tushuncha. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish. O‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish usullari. Tarbiya texnologiyasi rejalashtirish va unga erishish usullari. Tarbiya texnologiyasini modellashtirish. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini tashkil etish usullari. Tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash usullari.

Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari. Tarbiyaning maqsadi – shaxsning rivojlanishini ta’minlashdan iborat ekanligi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayonini tashkil etish mazmuni. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuvning mohiyati. Pedagogning asosiy vazifasi. Jamiyatda shaxs tarbiyasini shakllantirish usullari.

Tarbiya tizimida innovatsiyalar.

Tarbiya tizimining yangilanishida innovatsiyalarning o‘rni. Innovatsiyalarning amalga oshirish usullari. Innovatsiyani tashkil topish jarayonini mazmuni. Innovatsiyani falsafiy-metodologik (o‘qitish maqsadlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani nazariy (o‘qitish mazmuni, o‘qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani texnologik (o‘qitish jarayoni qoidalar tamoyili) asoslarini o‘rganish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Zamonaviy maktab rahbarining vazifasi. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish usullari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga o‘quvchilarni jalb qilish usullari. O‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish usullari. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.

Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari. Tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar tarbiyasidagi o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maktab rejasi bilan bog‘liqligini o‘rganish. Sinf rahbarlari va ota-onalar qo‘mitasi hamkorligi ishini o‘rganish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ishlarini o‘rganish. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishini asoslab berish.

Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash.

Jamoa so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoa tushunchasining ikki xil ma’noda ishlatilish mazmuni. Jamoani tashkil etish usullari. O‘quvchilar jamoasini rivojlantirish usullari. O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xos xususiyatlari. Jamoada shaxsni tarbiyalash usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari. Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o‘rni.

Sinfda sog‘lom muhitini yaratish. O‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va shakllantirish usullari. Sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari. Sinfda do‘stona munosabatlarni shakllantirish usullari. Ota-ona hamda o‘quvchilarning ma’naviy-madaniy qiziqishlari rivojlantirish usullari. Sinfda ta’lim-tarbiya samadorligini oshirish usullari.

Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiyaning zamonaviy usullari. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni va vositalari. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Jamiyatning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishiga, mehnat qilishiga o‘rgatish usullari.

O‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda sinf rahbariga qo‘yilgan talablar.

O‘quvchilarni o‘rganish usullari. O‘quvchilarga tarbiya va ta’lim berish usullari. O‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etish usullari. O‘quvchilarning o‘quv samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishga ijodiy yondashishni o‘rganish usullari. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishiga qo‘yilgan talablar.

Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.

O‘quvchilar bilim sifatini oshirishda sinfda intizomlilikni mustahkamlash. Sinf rahbari ishini rejalashtirish.

Maktabda to‘garak ishlarini tashkil etish.

To‘garak a’zolarining bilim sifatini nazorat qilish. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan Davlat talablarining mazmuni. To‘garak ishlarida ko‘nikma va malakalarni

shakllantirish usullari. O‘quvchilarni to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilish usullari. O‘quvchilarning qiziqish va xohishlariga qarab to‘garak yo‘nalishlarini tanlash. To‘garak a’zolarining to‘laqonli bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Maktabda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda sinf rahbarining vazifalari. Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. O‘quvchilar ongida ma’naviyatni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarning o‘rni.

2.5. Umumiy pedagogika

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida qonun”i. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta’lim. Pedagogikaning ilmiy asoslari. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi.

Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.

Pedagogika fanining metodologiyasi, metodologik madaniyat haqida tushuncha. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limi.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: muhit, irsiyat, ta’lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari.

Didaktika – ta’lim nazariyasi.

Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma(model)lari. Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Ta’lim texnologiyasi. Innovatsion pedagogika mazmuni. Innovatsion jarayonning rivojlanishiga umumiy yo‘nalish. Ta’limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish. Muammoli ta’lim metodlari.

Ta’limning mazmuni.

O‘zbekiston maktablaridagi ta’limning mazmuni. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti. O‘quv rejasi, dasturlari va darsliklar. Darslik va o‘quv faoliyatini tashkil qilish.

O‘qitish jarayoni.

O‘quv jarayonini tashkil etishning shakllari. Ta’limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi. Dars – maktabda o‘quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli. Darsga qo‘yiladigan talablar. Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari. Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar.

O‘qitish metodlari.

O‘qitish metodlarining nazariy asoslari. O‘qitish metodlarining tasnifi. O‘qitishning og‘zaki metodlari. Yangi material ustida ishlash. O‘tilgan material ustida ishlash va yangi materialni o‘rganishga tayyorlanish. O‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari. Reproduktiv ta’limdan amaliy ta’limga o‘tish. O‘qitishning amaliy metodlari.

Kreativ ta’lim.

Kreativ ta’limga zamonaviy yondashish. Kreativlik va uning tashxis etilishi. Kreativ dars tuzilishiga doir metodik tavsiyalar. Kreativ dars yo‘nalishlarining mazmuni va psixologik asosi.

Tarbiya nazariyasi va usullari.

Tarbiya jarayoni mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. Tarbiya usullari. Tarbiya usullari haqida umumiy tushuncha. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashi va taffakurni shakllantirish. Shaxsning ilmiy dunyoqarash shakllantirishda allomalarimiz fikrlari. Fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. O‘quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasining maqsadi, vazifalari va metodlari. Huquqiy tarbiya mazmun mohiyati. Mehnat tarbiyasi. Iqtisodiy tarbiya. Ekologik tarbiya. Nafosat tarbiyasi. Jismoniy tarbiya. Oila tarbiyasi. Oilada bola tarbiyasida ota-onaning o‘rni.

Pedagogika tarixining maqsad va vazifasi. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

Pedagogika tarixi faning mazmun mohiyati. Eng qadimgi davrlardan VII-IX asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. “Avesto” eng qadimgi yozma maorifi yodgorlik sifatida. Pedagogika tarixi ijtimoiy, nazariy va amaliy fan ekanligi. Qadimgi Gretsiyada ta’lim tarbiya.

VII asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrda maktab, tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.

Islom dini g‘oyalarining ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablarida ta’lim-tarbiya mazmuni. Hadis ilmining paydo bo‘lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy, Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.

Sharq uyg‘onish davri va unda ta’lim-tarbiya masalalari.

Sharq Uyg‘onish davrida pedagogik fikr taraqqiyoti. Sharq uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyatlari. Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinoning ta’limiy-axloqiy qarashlari. Mutaffakirlarning hayoti, faoliyati, ijtimoiy falsafiy qarashlari, yaratgan asarlari va undagi inson kamolotiga oid g‘oyalar.

Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar.

Ta’limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo‘lishi. Yusuf Xos Hojib. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida yetuk insonni kamolga etkazish masalalari.

XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogikaning yaratilishi. Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Boburning ta’limiy-tarbiyaviy va ma’rifiy-axloqiy qarashlari. Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ta’limiy-axloqiy qarashlari.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ta’lim tizimi. Turkiston o‘lkasidagi ma’rifatparvar olim va shoirlarining hayoti, ma’naviy merosining tarbiyaviy ahamiyati. Dastlabki maktablarning vujudga kelishi ularning mazmuni. Jadidlik oqimi namoyondalari: Ismoil Gaspirali, Munavvarqori, A.Fitrat, M.Behbudiy va A.Avloniylarning hayoti va ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari.

Chet el va Rossiyadagi ilg‘or pedagogik g‘oyalar. G‘arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti.

Yan Amos Komenskiy, Adolf Disterveg, Konstantin Dmitrievich Ushinskiylarning pedagogik qarashlari.

Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, nazariy asoslari. O‘qituvchi muomalasida pedagogik mahoratning o‘rni. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati.

Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi.

Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo‘llari. Pedagogik texnika. Pedagogik texnikani egallash yo‘llari.

2.6. Umumiy psixologiya

Umumiy psixologiyaning predmeti.

Umumiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, umumiy psixologiya fanining shakllanish tarixi, umumiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Umumiy psixologiyaning amaliy asoslari, o‘quv fanlari tizimida umumiy psixologiya, umumiy psixologiya mutaxassislik fani sifatida.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tadqiqot metodlari.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va prinsiplari. Determinizm prinsipi, ong va faoliyat birligi prinsipi, ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi. Aniq faoliyatni o‘rganuvchi psixologiya sohalari, rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi

psixologiya sohalari, shaxs va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganuvchi psixologiya sohalari. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari va ularning tahlili, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so‘rovnoma metodi, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi, psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.

Psixika va ongning taraqqiyoti.

Psixika haqida tushuncha, psixikaning oriyentirovka biluvchanlik va boshqaruvchalik vazifasi. Psixik aks ettirish – obyektiv olamning subyektiv obrazi ekanligi. Bosh miya va psixika. Odam psixikasining paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti, seskanuvchanlik va sezuvchanlik, tropizmlarning mohiyati, instinkt tushunchasining mazmuni, ko‘nikma va malakalar, hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari, psixikaning muhit va a’zolar tuzilishiga bog‘liqligi. Psixika va ong munosabati. Ongning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib etmagan harakatlar) holatlari. Odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi.

Faoliyat va motivatsiya.

Faoliyat haqida tushuncha, faoliyatning psixologik tahlili. Faoliyatning tuzilishi, faoliyatning o‘ziga xosligi, faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizasiyasi. Faoliyatning o‘zlashtirilishi va malakalarni egallash. Faoliyatning asosiy turlari, o‘yin, ta’lim va mehnat faoliyati mazmuni. A.N. Leontev boyicha faoliyat tuzilishi. Faoliyat va motivlar. Motivatsiya va emotsiya tushunchasining mazmuni, motivatsiya sohalari, Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiya muammosi. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari, motiv muammosiga doir mulohazalar. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning ahamiyati.

Shaxsning hissiy-emotsional sohasi.

Emotsiya va hissiyot haqida tushuncha. His-tuyg‘ularning vazifalari. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Yuksak hislar. Hissiy ton, affekt, stress, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar. Hissiyotning o‘ziga xosligi. Hissiyotni boshqarish.

Shaxs haqida tushuncha va shaxsning o‘z-o‘zini anglashi.

Shaxs haqida tushuncha, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchasining mazmuni. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxs psixologik strukturasi. Biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, konstitutsion nazariya, rollar nazariyasi mazmuni. Dunyoqarash va e’tiqod. Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi. “Men” konsepsiya va uning rivojlanishi. Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi va baholashiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxsning o‘ziga nisbatan ishonchini yuzaga

keltirish va rivojlantirish. Shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarishi muammosi. Milliy ong va milliy o‘zini-o‘zi anglash.

Shaxsning bilish jarayonlari.

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari. Sezgilar haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, ekstroretseptiv sezgilar. Idrok haqida tushuncha. Idrokning nerv-fiziologik asoslari. Idrokning murakkabligi. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik. Idrokning xossalari, idrokda obyekt va fon, appersepsiya, idrokning konstantligi. Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. Xotira turlari, faoliyatga ko‘ra xotira turlari, maqsadiga ko‘ra xotira turlari, muddatiga ko‘ra xotira turlari. Xayol haqida tushuncha. Xayol jarayonlari. Xayol turlari, tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol, orzu, tush ko‘rish va shirin xayol. Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, tafakkur sifatlari, tafakkurning mazmundorligi. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi.

Xarakter, temperament va qobiliyatlarni bilishning ahamiyati.

Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari. Xarakter tipologiyasi, xarakter tarkibi, xarakterning shakllanishi, xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari. Xarakter borasidagi ta’limotlar. Xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog‘liqligi. Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tarixi. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari. Faoliyatning individual uslubi va temperament. Temperamentni tarbiyalash. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo‘lishi va tuzilishi.

Yosh va pedagogik psixologiyaning maqsad va vazifasi.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy sohalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh va pedagogik psixologiyadagi ilmiy maktablar. Yosh va pedagogik psixologiya fanining o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so‘rovnoma metodi, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi.

Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi.

Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o‘ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar). Yosh davrlarining yetakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin). Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi.

Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar.

Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug‘ilish davri inqirozi. “Tirilish kompleksi” haqida. Go‘daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati. Bir yosh inqirozi haqida. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.

Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida (o‘yin faoliyatining mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari, o‘yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta’siri muammosi). Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. Maktabgacha yosh davrida emotsional-ifodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy emotsiyalarning shakllanishi. Maktabgacha yosh davrida motivatsion sohadagi o‘zgarishlar. 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv-affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida bolaning o‘zi haqidagi tasavvurlari va xulq-atvori. Pedagogik baho va kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish aloqasining psixologik mexanizmlari. Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari

O‘smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

O‘smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. O‘smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari.O‘smirlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivatsiyasi, o‘quv faoliyati motivatsiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari). O‘smirlik davrida shaxsning

rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi muammosi.

Ilk o‘spirinlik yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Ilk o‘spirinlik davri psixologiyasiga umumiy tavsif. Ilk o‘spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Ilk o‘spirinlik davrida o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi. Ilk o‘spirinlik davrida o‘quv-kasbiy faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi. Ilk o‘spirinlikda kasbga yo‘naltirishning psixologik muammolari.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mazmuni va ahamiyati. Maktab psixologining ish funksiyalari. Pedagogik faoliyatda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish texnologiyalari. Yosh psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish. Pedagog birlamchi psixologik yordam subyekti sifatida.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

Oilaviy hayotga psixologik tayyorlikning mohiyati. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqida umumiy tushuncha. Oila funksiyalari. Oilada shaxslar-aro munosabatlar. Shaxs psixik taraqqiyotida oilaviy muhitning roli.

O‘qituvchi psixologiyasi.

Jamiyatda o‘qituvchining tutgan o‘rni va uning vazifalari. O‘qituvchiga shaxsiga qo‘yiladigan talablar. O‘qituvchining kasbiga xos xislatlari. O‘qituvchi o‘quvchilarning hayot va faoliyati tashkilotchisi ekanligi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishning psixologik muammolari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot. Pedagogik ijodiyot va uning mohiyati. O‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va pedagogik jamoadagi psixologik iqlim. Bo‘lg‘usi o‘qituvchi shaxsi sifatlari.

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

Ta’limga texnologik yondashuv.

Ta’limga texnologik yondashuv tushunchasi. Ta’lim texnologiyasining kategoriyalari, tamoyillari, tarkibiy qismlari, tasnifi, asosiy jihatlari. Ta’lim texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari. An’anaviy ta’limning texnologik yondashuvga asoslangan ta’limdan farqli jihatlari. Sharqning buyuk qomusiy olimlari asarlarida maktab va madrasalarda insonni aqliy kamolotga etkazishda o‘qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanish haqida.

Ta’limda innovatsion jarayonlar.

Ta’lim jarayonidagi innovatsiya. Pedagogik jarayonlarga innovatsiyalarni tatbiq etish. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mazmuni, maqsadi va amaliyotga joriy

etish zarurligi. Pedagogik texnologiyalar – innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismi sifatida. Texnologik yondashuv ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilganligi. Interfaol va faol ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va qo‘llanilish hollari.

Ta’lim texnologiyalari ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda charxpalak, blits-so‘rov, 3x4 metodi va muammoli savollarni qo‘llash.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati.

O‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi. Innovatsion faoliyat tushunchasi. O‘qituvining innovatsion faoliyati tuzilmasi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarish. O‘qituvchining yangi axborotlar bilan ishlash madaniyati.

Ta’lim vositalari. Grafik organayzerlar texnikasi.

Ta’lim vositalari va ularning ta’lim texnologiyalaridagi o‘rni. Grafik organayzerlar. Ularning turlari. Ta’lim jarayonida qo‘llashning maqsad va vazifasi. Grafik organayzerlar texnikasi haqida amaliy ko‘nikmalar. Noan’anaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

O‘quv jarayonida muammoli o‘qitish texnologiyalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Muammoli o‘qitish. Muammoli o‘qitish mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari. Muammoli vaziyat belgilari, ularni anglab olish va hal etish yo‘llari. Dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari. Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchiga hamda muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarishga qo‘yiladigan talablar. Muammoli ta’limning o‘quvchilar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishdagi ahamiyati. Muammoli o‘qitish texnologiyalari va ularni tashkil etish bosqichlari.

Ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Interfaol ta’lim, uning mazmuni, mohiyati, mezonlari va turlari. Ta’lim va tarbiya jarayonida interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari. Interfaol mashg‘ulot samaradorligini belgilashning pedagogik-psixologik asoslari. Interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni. Interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari, ularni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish usullari. Uning mazmuni va mohiyati. O‘yinli texnologiyalarning ijtimoiy-psixologik muammolari.

O‘yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari. O‘yinli texnologiyalarning funksiyalari.

3. UMUMKASBIY FANLAR

3.1. Umumta’lim maktablarda huquqiy masalalar

Umumta’lim maktablarda huquqiy masalalar fanining maqsad va vazifalari. Xalqaro huquq: “Inson huquqlari” Umumjahon Deklaratsiyasi, “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya, “Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiya va “Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning mazmun-mohiyatini tushuntirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish. Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish. O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning yo‘nalishlari. Ekologik ta’lim – tarbiya, uni milliy urf-odat va qadriyat darajasiga chiqarish hamda amalga oshirish masalalari.

Milliy huquq: “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun va 2021-yil 12-oktyabrdagi Vazirlar Mahkamasining Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid 638-son Qarori hamda Xotin-qizlarning huquqlariga doir kafolatlarini o‘rganish.

O‘quvchilarning raqamli huquqlari va xavfsizligi. Maktabda diskriminatsiyaga (irq, jins, imkoniyati cheklanganlik) qarshi huquqiy yondashuvlar. Pedagogik etika va mehnat qonunchiligi. Ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘zaro huquqiy munosabatlari.

3.2. Informatika va raqamli texnologiyalar

Ma’lumot, axborot va bilim haqida tushunchalar, axborot va uning turlari, tasvirlash usullari, axborotli jarayonlar, axborotning xossalari, o‘lchovi birliklari, kompyuter tuzilishi, axborotli jarayonlarni amalga oshirishda axborotning asosiy xususiyatlari. Kodlash va dekodlash tushunchalari. Kodlash turlari. Matnli axborotlarni kodlash usullari. Grafik axborotlar va ularni kodlash. Audio va video axborotlarni kodlash. Axborotlarning kompyuterda tasvirlanishi. Kompyuterlarda sonlarning qo‘zg‘almas verguli va qo‘zg‘aluvchi verguli usullarda tasvirlanishi. Axborotni kodlash: to‘g‘ri, to‘ldirish, teskari va modifikatsiyalashgan kodlar. Ikkilik sanoq tizimi, sanoq tizimlari.

Elektron hukumat tushunchasi. Elektron hukumat vazifalari va prinsiplari. Elektron hukumat tizimini rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy asoslari. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal. Elektron raqamli imzo va uning ochiq va yopiq kalitlari.

Raqamli texnologiyalar va ularning rivojlanish tendensiyalari. Raqamli texnologiyalarning qo‘llanish sohalari. Zamonaviy raqamli texnologiyalar: smart texnologiyalar (gadjetlar), buyumlar interneti (Internet of Things), simsiz internet, Wi-Fi 6 va 5G, 3D bosma texnologiyalar, robototexnika. Virtual borliq va uning asosiy tushunchalari. Bulutli hisoblashlar (Cloud computing) va ularning asosiy tushunchalari. Bulutli saqlash modellari. Bulutli texnologiyalarning xususiyatlari. Bulutli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari. Taqsimlangan hisoblash (Grid computing). Blokcheyn texnologiyasi va uning asosiy komponentlari. Blokcheyn texnologiyasining ishlash prinsiplari. Blokcheyn texnologiyasining afzalliklari va kamchiliklari. Kriptovalyuta va bitkoin. Raqamli va ijtimoiy media marketing va uning imkoniyatlari. Raqamli va ijtimoiy media marketing yordamida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Freelance imkoniyatlari. Freelance tizimlari.

Kompyuterlarning funksional-tuzilmaviy tashkil etilishi va kompyuterlarning rivojlanish yo‘nalishlarini tushuntirish, kompyuterda axborotni qayta ishlashning arifmetik-mantiqiy asoslariga oid amaliy ko‘nikmalarini hosil qilish. Axborotlashgan jamiyat, ta’lim va jamiyatni axborotlashtirishning muhim xususiyatlari va imkoniyatlarini ochib berish. Kadrlar tayyorlashda ularda axboriy madaniyatni hosil qilishdan iborat.

Kiberxavfsizlik asoslari (raqamli xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, pishing va zararli dasturlardan himoya). Dasturlashning boshlang‘ich asoslari (Scratch yoki Python). STEAM va loyiha asosida o‘qitishda raqamli vositalardan foydalanish. Katta ma’lumotlar (Big Data) tushunchasi va ularning ta’limda qo‘llanilishi. Raqamli savodxonlik (media va axborot madaniyati, feyk yangiliklarni tanish).

3.3. Tarmoq texnologiyalari

Tarmoq texnologiyalari, kompyuter tarmoqlari, axborot uzatish muhiti. Kommunikatsion kanalning o‘tkazish qobiliyati, signallarni modulyatsiya va demodulyatsiyasi, modemlar va ularni sozlash parametrlari. Ma’lumotlarni almashish jarayonlarining xarakteristikasi, ma’lumotlar almashinuvining apparati. Kompyuter tarmog‘ining arxitekturasi, topologiyasi, tarmoq tizimining modeli. Kompyuter tarmog‘ining protokollari. Lokal hisoblash tarmog‘iga kirish. Lokal hisoblash tarmog‘ining tashkil etuvchilari va ularning turlari. Lokal tarmoq topologiyasi.

Tarmoq qurilmalari. Tarmoqlarni tashkil etishda bulutli texnologiyalarning rivojlanishi, bulutli serverlar va ularda ishlash. Tarmoqlar orqali axborotlar almashishning zamonaviy usullari. Tarmoq texnologiyasi istiqbollari. Wi-Fi 6 va 5G texnologiyalari. Internet of Things (IoT) tarmoqlari.

Lokal tarmoqda ma’lumotlarning almashinuv jarayoni, lokal tarmoq tashkil etish usullari. Lokal tarmoqqa kirish va undan ma’lumotlar qidirish, internet lokal tarmog‘i

sifatida. Internet tarmog‘i. Internet tarmog‘ida ma’lumotlar almashinuvini tashkil etish yo‘llari. Internet xizmatlari va ularning turlari. Brauzerlar va ularning turlari. Chrome, Yandex, Mozilla, Opera va boshqa brauzerlar bilan tanishish. Internet va muloqot madaniyati. Internet tizimida axborot xavfsizligi. Veb sahifa yaratish imkoniyatlari, asosiy tushunchalari. Veb sahifa yaratuvchi sun’iy intellekt vositalari imkoniyatlari.

3.04. Kompyuter ta’minoti

Mikroprotsessorlar haqida asosiy tushunchalar. Arifmetik mantiqiy qurilma. Registrlar. Pentium mikroprotsessorlarida registrlar bloki. Shaxsiy kompyuterlarning ta’minoti haqida tushuncha, texnikaviy va dasturiy ta’minot. Zamonaviy mikroprotsessorlar (Intel, AMD, ARM, Apple M1/M2 chiplar) arxitekturasi. Interfeys tushunchasi, uning turlari, dasturiy ta’minot turlari va ularning klassifikatsiyasi. Tizimli dasturiy ta’minot va ularning turlari.

Amaliy dasturiy ta’minot va ularning turlari. Dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari va unda qo‘llaniladigan dasturlar haqida tushuncha. Tizimli dasturiy ta’minot. Operatsion tizimlar va ularning turlari, operatsion tizimlarning tarixi. Operatsion tizimning ichki buyruqlarning tasnifi. Operatsion tizimning tashqi buyruqlari va uni ishlatish xususiyatlari.

Windows operatsion tizimi va uning turlari. Fayllarga xizmat ko‘rsatuvchi dasturlar. Qobiq dasturlar va ularda ishlash imkoniyatlari. Turli formatdagi disklarga fayllar ko‘chirish. Dasturiy ta’minotning holati va rivojlanish tendensiyalari. Operatsion tizim va uning turlari. Windows – zamonaviy axborot texnologiyalarining operatsion tizimi. Arxivlashtirish dasturlari. Antivirus dasturiy vositalar. Disklarga xizmat ko‘rsatuvchi dasturlar. Amaliy dasturiy ta’minot va uning imkoniyatlari. Unga kiruvchi dasturlar. Ofis dasturlarining keyingi versiyalari va ularning oldingi versiyalaridan farqli imkoniyatlari. Kompyuterning grafik imkoniyatlari va ularning turlari.

Amaliy dasturlar paketi va ularning kasbiy sohalarda qo‘llanilishi. Nashriyot tizimida qo‘llaniladigan dasturlar va ularning imkoniyatlari. Matematik masalalarni yechish va ularning grafiklarini yaratishga mo‘ljallangan MAPLE, MathCad dasturlari va ularda ishlash. Buxgalteriya, iqtisod va boshqa sohalarda qo‘llaniladigan dasturlar. Yuqori darajali dasturlash tillari va ularning turlari. Dasturlash texnologiyasi va uning imkoniyatlari. Python, C++, C#, Java dasturlash tillari va ularning imkoniyatlari. Dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari. Elektron va multimediali qo‘llanmalarni yaratishda foydalaniladigan texnologiyalar.

3.5. Axborot tizimlari

Tizim tushunchasi va uning turli ta’riflari, tizim va muhit munosabatlari, tizim tarkibiga kiruvchi elementlar, aloqa va teskari aloqa. Tizimlarning faoliyatini va rivojlanishini xarakterlovchi asosiy tushunchalar: holati, o‘zini tutishi, muvozanatliligi, turg‘unligi, rivojlanishi, tizimlarning tasnifi. Axborot tizimlari, axborot tizimlarining tuzilmasi va turlari. Axborotlarni izlash va tanlash tamoyillari, ma’lumotlarning axborotli modellari. Texnologiya tushunchasi, axborot texnologiyalari va ularning turlari.

Axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari. Axborot texnologiyalarining ta’minoti. Zamonaviy axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari. Ekspert tizimlari imkoniyatlari, multimedia texnologiyalari, tarmoq texnologiyalari. Internet texnologiyasi va uning xizmatlari, masofaviy ta’lim texnologiyasi. Elektron o‘quv-metodik materiallar majmuasi, uning tuzilmasi va tarkibi. Ta’limiy internet resurslar va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari. Zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan tanishish.

Python dasturlash tilida axborot tizimlarini yaratish imkoniyatlari. Python dasturlash tili framevork (Django va Flask)lari bilan ishlash. O‘quv jarayonlarini tashkil etishga doir dasturlarni yaratish. Axborot tizimlarida ma’lumotlar bazasi.

3.6. Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari

Asosiy tushunchalar. Ma’lumotlar bazasi. Ma’lumotlarning konseptual modeli. Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari. Ma’lumotlar bazasining tuzilishi. MS Access dasturida ma’lumotlar bazasini yaratish. MS Access dasturida ma’lumotlar turlari bilan ishlash. Ma’lumotlar bazasini master yordamida yaratish. Ma’lumotlar bazasini Konstruktor yordamida yaratish.

Ma’lumotlar bazasi turlari. MS Access dasturida ma’lumotlarni import va eksport qilish imkoniyatlari, MS Access dasturida ma’lumotlar bazasini loyihalashtirish, MS Access dasturida SQL so‘rovlari. SQL so‘rovlari turlari. SQL so‘rovi orqali jadval yaratish, yozuvlar qo‘shish, o‘chirish, o‘zgartirish. SQL operatorlari. MB obyektlarini tavsiflash operatorlari (DDL) SELECT operatori va uning sintaksisi. So‘rovlarda ifodalardan foydalanish usullari. Operatorlar. O‘zgarmaslar. Funksiyalar. Berilganlar bilan ishlash operatorlari (DML) DELETE, INSERT, UPDATE operatorlari va ularning sintaksisi. So‘rovlar tuzishda SQL yo‘riqnomalaridan foydalanish. Berilganlarni kiritish uchun shakllar yaratish.

Birinchi va ikkinchi darajali kalitlar. Ko‘p kalitlar bo‘yicha izlash. Kalitli maydonlarni aniqlash. Indekslarni yaratish va ulardan foydalanish. Ma’lumotlar bazasida jadvallarni bog‘lash.

Master yordamida oddiy so‘rovlarni yaratish. Konstruktor yordamida so‘rovlarni yaratish. Filtr orqali so‘rovlarni yaratish.

Shakllar bilan ishlash parametrlari. Boshqarishning asosiy elementlari. Shakl va uning elementlarini sozlash. Shakl uslublari. Yozuvlarni qo‘shish va o‘zgartirish. Tarkibli shakllarni yaratish. Joylangan boshqarish elementlari bilan ishlash. Ko‘p jadvalli shakllarni yaratish. Sahifalar yaratish va ular bilan ishlash.

3.7. Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish

Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Ta’lim texnologiyasi faning ilmiy — nazariy asoslari. Muammoli ta’lim. O‘quvchilar faoliyati faolligini jadallashtirish asosidagi ta’lim texnologiyalari. Ta’limning fanga yo‘naltirilgan texnologiyasi. Ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi. O‘quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi texnologiyalar. Ta’limning interfaol strategiyalari. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari. Tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi texnologiyalar. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish. Pedagogik texnologiyalar-ta’lim texnologiyalari sifatida. Informatika o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar. Pedagog mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari. Muammoli o‘qitish texnologiyasining mohiyati va mazmuni. Gamifikatsiya va motivatsiya texnologiyalari (o‘yin elementlari orqali o‘quvchini faollashtirish).

3.8. Tanlov fanlari

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha mavzular qayta tayyorlash kursiga mos ravishda, mavjud ehtiyoj va buyurtmachilarning takliflari inobatga olingan holda ishlab chiqiladi

4. IXTISOSLIK FANLARI

4.1. Zamonaviy dasturlash tillari

Algoritm haqida umumiy intuitiv ta’rif. Algoritmlarni tasvirlash usullari, algoritm turlari, chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi algoritmlar. Tarmoqlar, daraxtlar, ularning turlari. Tanlash va joylashtirish turkumidagi murakkablikka ega saralash algoritmlari. Rekursiya va rekursiv funksiyalar. Matematik induksiya. Rekursiv va iteratsiya algoritmlarni qiyoslash. Dasturlash tillari va ularning sinflari. Python tili sintaksisi. Kattaliklarning asosiy turlari. Python dasturlash tilidagi programmalarning strukturasi. Jadval kattaliklar. Protsedura. Fayllar va ular bilan ishlash. Turlangan va turlanmagan fayllar. Matnli fayllar. Python muhitida ishlash. Xotiraning dinamik taqsimoti.

Pythonda modullar. Grafika moduli va ular bilan ishlash. Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari. Dasturlashning obyektga yo‘naltirilgan paradigmasi. Obyektga yo‘naltirilgan loyihalash. Obyektlarni loyihalash: satrlar, steklar, ro‘yxatlar, navbatlar, daraxtlar.

Matematik obyektlar: ratsional va kompleks sonlar, vektorlar, matritsalar. Obyektlar kutubxonasi, interfeys obyektlari. Boshqarish elementlari, oynalar, dialoglar; voqealar va xabarlar, obyektga yo‘naltirilgan muhitlarda xabarlarni uzatish va ularga ishlov berish mexanizmlari. Obyektlar iyerarxiyasi asosida dasturlarni loyihalash. Python dasturlash tilining ishchi muhiti, undagi oynalar, u o‘rnatilishi zarur bo‘lgan kompyuterga qo‘yiladigan texnik talablar va instrumental tugmalar. **Python** da **WEB**, **Desktop** va **Mobile** dasturlar yaratish. **Python** kutubxonalari bilan tanishish. Python Kirish. Python Muhitini o‘rnatish. Python Izoh qoldirish. Python O‘zgaruvchi. Python Ma’lumot turlari. Python Sonlar. Python Satrlar. Python Boolean (Mantiqiy). Python Operator. Python Ma’lumot to‘plami. List. Python ma’lumot to‘plami. Tuple. Python Ma’lumot to‘plami.

4.2. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish metodikasi

Informatika va AT o‘qitish metodikasining mazmuni va o‘rni. Informatika va AT fanining o‘qitish metodikasi tushunchasi. Pedagogika va didaktika bilan bog‘liqligi. O‘qitish metodikasining asosiy vazifalari. Informatika va AT o‘qitish metodikasi tarixi va rivojlanishi.

O‘qitishning asosiy didaktik tamoyillari. Ta’lim paradigmalari va pedagogik nazariyalar, ularni Informatika va AT fanini o‘qitishda qo‘llash. Zamonaviy axborot texnologiyalarining didaktik vazifalari.

Informatika va AT o‘qitishning uzluksiz tizimi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Informatika va AT kursining mazmuni va o‘rni. O‘quv-metodik ta’minot (darslik, qo‘llanmalar, didaktik materiallar). Elektron o‘quv-metodik ta’minoti va uning turlari. Pedagogik vositalar va ularning turlari.

Informatika va AT fanini o‘qitish metodik tizimi va uning komponentlari. O‘qitish maqsadlari va vazifalari. O‘qitish shakllari va uslublari. O‘quv jarayonida qo‘llaniladigan vositalar.

Davlat ta’lim standartlarining mazmuni. Ta’lim darajalari va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar. Bilimlarni baholash tizimi. Test asosida nazorat qilish shakl va usullari, test turlari. Og‘zaki nazorat (suhbat, savol-javob, intervyu). Yozma nazorat (nazorat ishlari, loyiha topshiriqlari va boshqa). Amaliy nazorat (Laboratoriya ishlari, mashqlar, dastur yozish, amaliy topshiriqlarni bajarish). Portfolio (yig‘ma ishlar). Loyiha asosida baholash (Project-based assessment). Kuzatish asosida baholash. Refleksiya (o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash).

Informatika xonasini jihozlash talablari. O‘quv jarayonini rejalashtirish tizimi. Informatika darslarini tayyorlash va rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Dars rejasi va uning asosiy elementlari. Mavzuviy rejalashtirish va darslar tizimi.

Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish tamoyillari. Informatika va AT fanidan olimpiadalar va musobaqalar. Masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

4.3. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

Raqamli texnologiya tushunchasi. Ta’limni raqamlashtirishning maqsad va vazifalari. Raqamli ta’limning asosiy vositalari. Raqamli texnologiyalar va ularning ahamiyati, raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari, mobil texnologiyalar va ularning rivojlanish istiqbollari. Ta’limda raqamli transformatsiyaning afzalliklari. Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar hamda ularning imkoniyatlari. Bulutli texnologiyalar, SMART texnologiyalari va vositalari, buyumlar interneti (IoT) texnologiyalari, virtual va to‘ldirilgan borliq texnologiyalari, RP (Rapid prototype – tezkor prototiplash) texnologiyasi, kontentni boshqaruv tizimlari(CMS) yordamida ta’limiy saytlar yaratish, ta’limni boshqaruv tizimlari yordamida o‘quv kurslari yaratish. Masofaviy ta’lim tizimlari tarmoqlari (Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, EdTech platformalar). Big Data katta hajmdagi ma’lumotlar, bilimlar bazasi (data science) va ularni ajratib olish usullari (Data mining).

Sun’iy intellekt tushunchasi va uning rivojlanishi tarixi, sun’iy intellekt xususiyatlari, Sun’iy intellekt turlari va elementlari, sun’iy intellekt axloqi va uning ahamiyati, talimda sun’iy intellekt texnologiyalari, mashinani o‘qitish modellari, Teachable Machine orqali aqliy modellar yaratish, sun’iy intellekt chatbotlari (ChatGPT, Copilot, Gemini, DeepSeek, Grok), sun’iy intellekt tasvir yaratish vositalari, sun’iy intellekt orqali video yaratish texnologiyalari, taqdimot yaratuvchi sun’iy intellekt texnologiyalari.

4.4. Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyalari

Pedagogik dasturiy vositalarning umumiy tasnifi va didaktik imkoniyatlari. Ekspert-o‘rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi tizimlar. Foydalanuvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o‘zaro hamkorligini tashkil etish metodlari. O‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini va kompyuterning texnik imkoniyatlari. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish o‘quv jarayonida foydalanish. Elektron darslik va uning turlari. Zamonaviy elektron darsliklarning asosiy jihatlari. Ovozli va harakatli tasvirlarni elektron darsliklarga o‘rnatish. Multimediali elektron darslik yaratish. WEB-texnologiyalari asosida elektron o‘quv materiallarni yaratish texnologiyasi. Zamonaviy dasturiy vositalar yordamida pedagogik dasturiy vositalar (Camtasia, OBS Studio, iSpring Suite) yordamida resurslar yaratish. WEB-texnologiyalar asosida elektron resurslar ishlab chiqish (HTML, CMS, WordPress). Interaktiv mashq va test yaratish texnologiyalari (LearningApps, Quizizz, Kahoot, Google Forms). Pedagogik dasturiy vositalarda dasturlash tillaridan foydalanish (Python, JavaScript asosida test va mashq yaratish).

Pedagogik dasturiy vositalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish. LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom, Edmodo). MOOC platformalari va ularning

ta’limdagi imkoniyatlari. Pedagogik dasturiy vositalardan kompleks foydalanish tamoyillari. Elektron darslik yaratish (mavzu asosida kichik loyiha). Multimediali taqdimot ishlab chiqish. Interaktiv test va mashqlarni yaratish. LMS tizimida onlayn kurs ochish va resurslarni joylashtirish. Camtasia yoki OBS yordamida video dars yozish.

4.5. Kompyuter grafikasi va veb-dizayn

Kompyuter grafikasiga kirish. Kompyuter grafikasining rivojlanishi. Rang modellari (RGB, CMYK, HSB, HSL). Grafik fayllar formatlari (JPG, PNG, GIF, SVG) va ularning xossalari. Grafika turlari (rastrli, vektorli va fraktal).

CorelDRAW muhiti va vositalari. Dasturning asosiy interfeysi (panel, palitra, dokerlar, qatlamlar). Asosiy instrumentlar (chizish, rang berish, poligon, Bezier). Obyektlar bilan ishlash (import, eksport, masshtablash, effektlar). O‘quv jarayoni uchun grafik materiallar tayyorlash.

Adobe Photoshop muhiti va vositalari. Asosiy interfeys va qatlamlar bilan ishlash. Tasvirlarni qayta ishlash va optimallashtirish. Matn va grafik elementlarni birlashtirish. Veb uchun grafik materiallar tayyorlash (banner, ikonka, fon).

Veb-dizayn asoslari. Veb sahifa tushunchasi, tuzilishi va imkoniyatlari. HTML asoslari: teglar, matn, rasmlar, jadvallar, gipermurojaatlar, formalar. CSS asoslari: rang berish, joylashtirish, shablonlardan foydalanish. Rasmlar va multimedia elementlarini veb sahifaga joylashtirish.

Zamonaviy veb-dizayn texnologiyalari. UI va UX tamoyillari. Veb sahifa yaratishda qo‘llaniladigan muharrirlar (Sublime Text, VS Code, Atom). Shablon va masterlar bilan ishlash. Animatsiya va banner yaratish. Dinamik saytlar tushunchasi. Veb-serverlar, saytni testlash va baholash.

Amaliy mashg‘ulotlar. CorelDRAWda oddiy logo yaratish. Photoshopda banner yoki reklama tayyorlash. HTML va CSS asosida shaxsiy veb sahifa yaratish. Canva yordamida tezkor dizayn loyihasi ishlab chiqish. UI/UX asosida oddiy interfeys dizayni tayyorlash.

4.6. Tanlov fanlari

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha mavzular qayta tayyorlash kursiga mos ravishda, mavjud ehtiyoj va buyurtmachilarning takliflari inobatga olingan holda ishlab chiqiladi

Davlat attestatsiyasi

Ta’lim muassasalarida tashkil qilinadigan kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kurslari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi mazkur kurslarning o‘quv rejasi hamda o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq o‘tkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi kursning o‘quv rejasidagi o‘quv fanlari bloklari (mutaxassislik va ixtisoslik) bo‘yicha yakuniy nazorat (test, yozma yoki ijodiy ish, og‘zaki) va bitiruv ishi himoyasidan iborat.

Yakuniy nazorat va bitiruv ishi himoyasiga qayta tayyorlash kursi ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan tinglovchilar qo‘yiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi ta’lim muassasasida qayta tayyorlash kurslari bo‘yicha tuziladigan yakuniy attestatsiya komissiyalari (bundan buyon matnda komissiya deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar fanlar doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturning axborot-metodik ta’minoti

Bloklarni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog‘oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF–60- son qarori bilan tasdiqlangan “2022–2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, T.: 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6- noyabrdagi PF-6108- son Farmoni, T.: 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11- maydagi PF–134- son farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026- yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur”, T.: 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining ta’limga oid qarorlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tegishli buyruqlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

5. Abduqodirov A., Xaitov A., R.Shodiyev Axborot texnologiyalari, T.:O‘zbekiston, 2002 y.

6. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 145 b.

7. B.Boltayev, A.Azamatov, B.Xurramov va boshqalar. “Office dasturlari seriyasidan”. Kitob-II. Toshkent, 2015 yil.

8. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.

9. N.X. Noraliev, S.S. Jumanazarov. Komputer tarmoqlari va tarmoq texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “ZEBO PRINT”, 2024. – 168 b.

10. Eshqobilov S. O‘quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.

11. M.R. Fayziyeva, S.A. Normatov. “Raqamli texnologiyalari va sun’iy intellekt”. Toshkent, 2024.

12. Normatov S. Maktab o‘qituvchilarining sun’iy intellekt texnologiyalariga doir bilimlarini rivojlantirish. Research Focus, 131-135 b., 2023, OOO «Ilm-fan va innovatsiyalar akademiyasi».

13. S.P.Allayorov, Axborot tizimlari fanidan o‘quv qo‘llanma, Guliston. 2020. – 206 b.

14. Агальцов В.П., Титов В.М., Информатика для экономистов: учебник. М.: ИД. Форум: ИНФРА, М. 2013, 448 с.

15. Безручко В. Т. Информатика курс лекций: Учебное пособие. М.: ИД. Форум: ИНФРА, М. 2013, 432 с.

16. В.Г. Кузьменко. База данных и Висуал Басис. Москва, 2004. Бином.

17. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T. 2010 y.

18. Дорогов Б.В., Дорогова Е.Г., Основы программирования на языке С: учебное пособие. М.: ИД. Форум: ИНФРА, М. 2012, 400с.

19. Закирова Ф.М. и др. Информатика и информационные технологии. Ташкент: Алокачи, 2007.

20. Исаев Г.Н. Моделирование информационных ресурсов: теория и решение задач: Учебное пособие. М.: Альфа-М: ИНФРА, М. 2012, 224с.

21. Victoria Ellis, Sarah Lawrey, Doug Dickinson. Informatika va axborot texnologiyalari 5- sinf, Toshkent, 2023 y. 176 b.

22. Victoria Ellis, Sarah Lawrey, Doug Dickinson. Informatika va axborot texnologiyalari 6- sinf, Toshkent, 2023 y. 276 b.

23. Victoria Ellis, Sarah Lawrey, Doug Dickinson. Informatika va axborot texnologiyalari 7- sinf, Toshkent, 2023 y. 180 b.

24. Victoria Ellis, Sarah Lawrey, Doug Dickinson. Informatika va axborot texnologiyalari 8- sinf, Toshkent, 2023 y. 188 b.

25. Victoria Wright, Denise Taylor. Informatika va axborot texnologiyalari 9-sinf, Toshkent, 2023 y. 328 b.

26. Paul Long, Sarah Lawrey, Victoria Ellis. Informatika va axborot texnologiyalari 10–11- sinf, Toshkent, 2023 y. 376 b.

27. Umumiy o‘rta ta’limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent 2017 yil.

28. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2012.

29. A.A. Abduqodirov, Q.M. Karimov, I.A. Yuldoshev. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015.

30. B.Boltayev, A.Azamatov va boshqalar. Microsoft Office dasturlari MS Word // Toshkent, 2014 yil.

31. S.S. Jumanazarov, B.Xaydarov, D.Li, Sh.Qayumov “Kompyuter savodxonligi asoslari”.–T.:2014 y.

32. Aripova S.X.“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2010 y.

33. R.Mavlonova. D.Abdurahimova. “Pedagogik mahorat”. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2012 y.

34. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – T.: “Nihol”, 2013y.

35. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil

36. Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil

37. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiev. “Pedagogika”. – T.: “O‘qituvchi”, 2010 y.

Internet resurslari

38. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
39. uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.
40. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
41. maktab.uz – 1–11- sinflar uchun eng yirik umumta’lim onlayn maktabi hamda maktab o‘quv dasturi bo‘yicha videodarslar va boshqa materiallar platformasi.
42. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi
43. vazirligining raqamli ta’lim platformasi.
44. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
45. https://www.w3schools.com/ – Dunyodagi eng yirik veb-dasturchilar sayti.
46. https://www.programiz.com/ – Amaliy kodlash platformasi.
47. https://www.presentations.ai/
48. https://gamma.app/
49. https://leonardo.ai/
50. https://chatgpt.com/
51. https://claude.ai/

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 30 ”sentabrdagi
367-son buyrug‘iga
5.24-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANINI O‘QITISH HUQUQINI BERISH BO‘YICHA KASBIY VA PEDAGOGIK QAYTA TAYYORLASH KURSINING

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar:

B.N. Nurillayev – Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti Fizika kafedrasi professor, p.f.n., dotsent.

E.B. Xujanov – Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti Fizika kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent.

A.A. Darvishxo‘jayev – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim xizmatlari markazi direktori.

D.M. Hakimova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent;

M.T. Ergasheva – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Pedagogika, psixologiya” kafedrasi mudiri p.f.d. (DSc), dotsent.

M.U. Badalova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rektor maslahatchisi.

F.A. Murodova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Tayanch doktorant.

Taqrizchilar:

H.N. Bozorov – Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti Fizika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

H.X. Davletova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi Fizika va astronomiya fani metodisti.

N.A. Yuldasheva – Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.d., DSc, prof.

D. F. Yusupova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim menejmenti kafedrasi mudiri v.b.

Mazkur o‘quv dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2025-yil _____dagi __-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KURSNING O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:

1. **Tabiiy va ilmiy fanlar**

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

2. Pedagogika va psixologiya

TIMSS qamrov doirasi: mazmun sohalari (“Hayot haqidagi fan”, “Kimyo”, “Fizika”, “Yer haqidagi fan”). Kognitiv sohalar (“Bilish”, “Qo‘llash”, “Mulohaza yuritish”).

Zamonaviy maktab o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish zarurati. Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish metodologiyasi. O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish.

Xalqaro tadqiqotlar (PISA, TIMSS) reytinglarida yuqori o‘rinlarni egallab kelayotgan davlatlar (Finlyandiya, Singapur) ning ilg‘or tajribalari.

4. IXTISOSLIK FANLARI

4.1. Mexanika

Fizika faniga kirish. Fizika fanining maqsad va vazifalari. Fizika fanining predmeti. Fizikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Fizika fanining rivojlanish tarixi. Fizikaning metodologiyasi. Fizik kattaliklar. Birliklar sistemasi. O‘lchamliklar. Fazo va vaqt. Sanoq sistemasi. Kinematika asoslari. Fizikada aniqlik.

To‘g‘ri chiziqli harakat. Tezlik. Kinematika. Moddiy nuqta, trayektoriya, yo‘l va ko‘chish. Harakatning kinematik tenglamalari. To‘g‘ri chiziqli harakat. Tezlik va uning birligi.

To‘g‘ri chiziqli notekis harakat. Tezlanish. Tezlanish va uning birligi. O‘rtacha va oniy tezliklar. To‘g‘ri chiziqli tekis va notekis harakatlar uchun harakatning, tezlikning va tezlanishlarning grafiklari. Tezlik grafigidan foydalanib oniy tezlikni aniqlash.

Egri chiziqli harakat. Egri chiziqli harakat haqida tushuncha. Egri chiziqli harakatda tezlanish. Normal va tangensial tezlanishlar

Gorizontal va gorizontga nisbatan burchak ostidan otilgan jismlarning harakati. Gorizontal otilgan jismning trayektoriyasi, maksimal ko‘tarilish balandligi, uchish vaqti va uzoqligi.

Aylanma harakat. Aylana bo‘ylab harakat. Burchak tezlik va burchak tezlanish. Chiziqli va burchak tezliklar orasidagi bog‘lanish. Aylana bo‘ylab tekis

tezlanuvchan, tekis va tekis sekinlanuvchan harakatlarda normal, tangensial va to‘la tezlanishlar.

Dinamika asoslari. Dinamika. Nyutonning I qonuni. Inersial sanoq sistemalari. Nyutonning birinchi qonunining aks tasdig‘i. Kuch va uning birligi. Tabiatda kuchlar. Massa va uning birligi. Nyutonning II qonuni. Nyutonning III qonuni. Massaning additivligi.

Mexanik ish va quvvat. Energiya. Kuchning ishi va uning birligi. Konservativ va nokonservativ kuchlar va sistemalar. Quvvat va uning birligi. Kinetik va potensial energiya. Energiyaning saqlanish qonuni. Ko‘char bloklar yordamida kuchdan yutishga doir misollar.

Jism impulsi va uning saqlanish qonuni. Jismning impulsi. Jismlar sistemasining impulsi. Impulsning saqlanish qonuni. Elastik va noelastik to‘qnashuvlar. Tiklanish koeffitsiyenti.

Moddiy nuqtalar sistemasining harakati. Massalar markazining harakati. Jismlarning massa va geometrik markazlari haqida. O‘zgaruvchan massali jism harakati. Reaktiv harakat. Meshcherskiy tenglamasi. Siolkovskiy formulasi. Raketalar.

Butun olam tortishish qonuni. Keppler qonunlari. Butun Olam tortishish qonuni. Gravitatsion doimiylik. Gravitatsion maydon (GM) kuchlanganligi va potensiali. Gravitatsion maydonda jismni ko‘chirishda bajaradigan ish. Kosmik tezliklar. Ekvivalentlilik prinsipi.

Ishqalanish kuchlari. Ishqalanish kuchlari. Tinchlikdagi ishqalanish. Sirpanish ishqalanish. Dumalanish ishqalanish. Ichki ishqalanish.

Elastiklik kuchlari. Elastiklik kuchlari. Deformatsiya va uning turlari. Guk qonuni. Elastiklik moduli. Deformatsiyalangan jism potensial energiyasi. Elastiklik gisterezisi.

Noinersial sanoq sistemalaridagi harakat. Noinersial sanoq sistemasi. Inersiya kuchlari. Tekis aylanayotgan sanoq sistemasi. Markazdan qochma kuch. Koriolis kuchi.

Galileyning nisbiylik prinsipi. Galiley almashtirishlari. Tezliklarni qo‘shishning klassik qonuni. Invariantlik prinsipi. Klassik mexanikaning qo‘llanilish chegarasi. Yorug‘lik tezligining doimiyligi. Galileyning nisbiylik prinsipi va elektrodinamika qonunlari.

Qattiq jism mexanikasi. Qattiq jismning harakati. Kuch momenti. Qo‘zg‘almas o‘q atrofida aylanayotgan qattiq jism kinetik energiyasi. Inersiya momenti. Shteyner teoremasi. Aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi. O‘zgarmas kuch momentining bajargan ishi. Impuls momenti va uning saqlanish qonuni.Turli geometrik shaklga ega bo‘lgan jismlarni impuls momentlari. Moddiy nuqtalar sistemasining impuls momenti. Erkin o‘qlar. Giroskop.

Suyuqliklar mexanikasi. Suyuqliklar mexanikasi. Suyuqlik va gazlarda bosim. Paskal qonuni. Arximed kuchi. Atmosfera bosimi. Torrichelli tajribasi. Suyuqlik oqimi. Uzluksizlik tenglamasi.

Bernulli tenglamasi. Qovushqoq suyuqlik harakati. Jismlarning suyuqliklarda harakati. Stoks formulasi. Puazeyl formulasi. Torichelli formulasi. Oqim reaksiyasi.

Mexanik tebranishlar. Tebranma harakat. Garmonik tebranishlar. Tebranuvchi sistemaning tezligi va tezlanishi. Tebranuvchi sistemaning energiyasi. Matematik, prujinali, fizik va buralma mayatniklar.

Tebranishlarni qo‘shish**.** Lissaju shakllari. So‘nuvchi tebranishlar. So‘nishning logarifmik dekrementi. Tizimning aslligi. Majburiy tebranishlar. Rezonans.

Mexanik to‘lqinlar. Tebranishlarni elastik muhitda tarqalishi. Bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqinlar. To‘lqinning amplitudasi, davri, chastotasi, fazasi va uzunligi. To‘lqin tenglamasi. To‘lqin tezligi. To‘lqin energiyasi va intensivligi. Umov vektori. Kogerent to‘lqinlar. To‘lqinlar interferensiyasi va difraksiyasi. Fazaviy va guruhiy tezlik. Turg‘un to‘lqinlar.

Akustika. Tovushning tabiati. Tovush tezligi. Tovushning xarakteristikalari. Tovush manbalari va qabul qilgichlar. Dopler effekti. Ultra tovush. Infratovush.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ To‘g‘ri chiziqli tekis harakat. Tezlik.
- ✓ To‘g‘ri chiziqli notekis harakat.
- ✓ Jismlarning erkin tushishi. Yuqoriga tik otilgan jismning harakati.
- ✓ Harakatning, tezlikning va tezlanishlarning grafiklari.
- ✓ Egri chiziqli harakat. Normal va tangensial tezlanishlar.
- ✓ Aylana bo‘ylab harakat.
- ✓ Gorizontal va gorizontga nisbatan burchak ostidan otilgan jismlarning harakati.
- ✓ Gorizontal otilgan jismning trayektoriyasi, uchish vaqti va uzoqligi.
- ✓ Kuch. Nyuton qonunlari.
- ✓ Ishqalanish kuchlari.
- ✓ Elastiklik kuchlari. Og‘irlik kuchi. Arximed kuchi.
- ✓ Butun olam tortishish qonuni. Kepler qonunlari. Kosmik tezliklar.
- ✓ Jismlarning qiya tekislikdagi harakati. Bloklar.
- ✓ Mexanik ish va quvvat. Mexanik energiya. Kinetik va potensial energiya.
- ✓ Energiyaning saqlanish va aylanish qonuni. Jism impulsi va uning saqlanish qonuni.
- ✓ Relyativistik mexanikada massa, tezlik va uzunlik.
- ✓ Inersiya momenti. Aylanma harakat qilayotgan jismning tezligi va energiyasi.

- ✓ Aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi.
- ✓ Impuls momenti va uning saqlanish qonuni.
- ✓ Suyuqlik va gazlarda bosim. Uzluksizlik tenglamasi. Bernulli tenglamasi. Jismlarning qovushqoq muhitdagi harakati.
- ✓ Mexanik tebranishlar. Tebranishlarni qo‘shish.
- ✓ Mexanik to‘lqinlar. Akustika.

Laboratoriya mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Jismlarning chiziqli o‘lchamlarini shtangensirkul va mikrometr yordamida aniqlash.
- ✓ To‘g‘ri geometrik shakldagi jismlarning zichligini aniqlash.
- ✓ Suyuqlikning va qattiq jismlarning zichligini piknometr yordamida aniqlash.
- ✓ Gorizontal burchak ostidagi harakat
- ✓ Aylanayotgan jismga ta’sir qiluvchi markazdan qochma kuch. Markazdan qochma kuchni o‘lchash qurilmasi bilan aniqlash.
- ✓ Tushayotgan sharning potensial va kinetik energiyalarini aniqlash
- ✓ Noelastik to‘qnashuvda energiya va impuls ikki shoxsimon yorug‘lik datchigi bilan o‘lchash.
- ✓ Qattiq jismlarning elastiklik modulini egilishdan aniqlash.
- ✓ Qattiq jismlarning sirpanish ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash.
- ✓ Oddiy mashinalarning foydali ish koeffitsiyentini aniqlash
- ✓ Maxovikning inersiya momentini dinamik metod bilan aniqlash.
- ✓ G‘ildirakning inersiya momentini tebranishlar usuli bilan aniqlash.
- ✓ Erkin tushish tezlanishini matematik mayatnik yordamida aniqlash.
- ✓ Erkin tushish tezlanishini fizik mayatnik yordamida aniqlash. Erkin tushish tezlanishini ag‘darma mayatnik yordamida aniqlash.
- ✓ Qattiq jismlarning asosiy fizik xossalari. Qattiq jismlarning mexanik va termodinamik xossalari.
- ✓ Maxovikning inersiya momentini dinamik metod bilan aniqlash.
- ✓ G‘ildirakning inersiya momentini tebranishlar usuli bilan aniqlash.
- ✓ Erkin tushish tezlanishini matematik mayatnik yordamida aniqlash.
- ✓ Erkin tushish tezlanishini fizik mayatnik yordamida aniqlash. Erkin tushish tezlanishini ag‘darma mayatnik yordamida aniqlash.

4.2. Molekulyar fizika va termodinamika

Umumiy fizika (Molekulyar fizika) faniga kirish.

Umumiy fizika (molekulyar fizika) fanining maqsad va vazifalari. Molekulyar-kinetik nazariya asoslari. Molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi.

Modda tuzilishining o‘rganishning ikki usuli. Molekulalarning o‘zaro ta’siri.

Ideal gaz va uning holat parametrlari.

Ideal gaz. Gaz bosimi. Temperatura. Holat parametrlarini o‘lchash. Ideal gaz holat tenglamasi. Ideal gaz qonunlari. Izojarayonlar. Broun harakati.

Barometrik formula.

Ehtimollik haqida tushuncha. Taqsimot haqida tushuncha. Taqsimot funksiyasi. Barometrik formula. Bolsman taqsimoti. Zarrachalarning gravitatsion maydondagi harakati. Perren tajribasi.

Molekulalarning tezliklar bo‘yicha taqsimoti.

Molekulalarning tezliklar bo‘yicha taqsimoti, Maksvell taqsimoti. Taqsimot qonunini eksperimentda tekshirish.

Termodinamikaning birinchi qonuni. Ichki energiya.

Ideal gaz ichki energiyasi. Ish va issiqlik miqdori. Issiqlikning mexanik ekvivalenti. Termodinamika 1-qonunining amaliyotga tatbiqi.

Ideal gaz issiqlik sig‘imi.

Gazlarning issiqlik sig‘imi va molekulalarning erkinlik darajalari. Bir va ko‘p atomli gazlar issiqlik sig‘imi. Gazlarning issiqlik sig‘iming klassik nazariyalari. Issiqlik sig‘imlarini o‘lchash.

Adiabatik va politropik jarayonlar.

Ideal gaz hajmining adiabatik o‘zgarishi. Adiabatik jarayon. Adiabatik jarayonda bajarilgan ish. Politropik jarayon. Gazni bo‘shliqda kengayishi.

Gazlarda ko‘chish hodisalari

Molekulyar harakat va ko‘chish hodisalari. O‘rtacha to‘qnashishlar soni. O‘rtacha erkin yugurish yo‘li. Zarralarning effektiv ko‘ndalang kesimi va ehtimollik. Erkin yugurish yo‘lini tajribada aniqlash.

Gazlarda diffuziya.

Diffuziya hodisasi. Statsionar diffuziya. Nostatsionar diffuziya. Diffuziya koeffitsiyentini hisoblash. O‘zaro diffuziya. Termik diffuziya.

Gazlarda issiqlik o‘tkazuvchanlik va gazlarning qovushqoqligi

Gazlarda issiqlik o‘tkazuvchanlik hodisasi. Statsionar issiqlik o‘tkazuvchanlik. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini hisoblash. Gazlarning qovushqoqligi (ichki ishqalanish). Qovushqoqlik koeffitsiyentini va uni o‘lchash. Ko‘chish koeffitsiyentlari orasidagi munosabat.

Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Entropiya

Entropiya tushunchasi. Qaytar va qaytmas jarayonlarda entropiya. Termodinamikaning ikkinchi qonuni va uning ta’riflari. Entropiya va ehtimollik. Termodinamikaning uchinchi qonuni.

Issiqlik mashinalari

Muvozanat holatlar. Qaytar va qaytmas jarayonlar. Kvazistatik jarayonlar. Qaytmaslik va ehtimollik. Karno sikli. Issiqlik mashinalari. Otto va Dizel sikllari

Real gazlar. Van-der-Vaals tenglamasi

Gaz xossalarining ideallikdan chetlanishi. Van-der-Vaals tenglamasi. Van-der-Vaals izotermalari. Real gazlarning issiqlik sig‘imi

Suyuqliklarning xossalari

Suyuqliklarning hajmiy xossalari. Suyuqliklarning issiqlik sig‘imi. Suyuqliklarda ko‘chish hodisalari. Sirt taranglik kuchi. Sirt taranglik koeffitsiyentini temperaturaga bog‘liqligi. Suyuqliklarning bug‘lanishi va qaynashi.

Qattiq jismlar xossalari

Qattiq jismlar va ularning turlari. Qattiq jismlarning asosiy fizik xossalari. Kristall panjara. Kristallarning defektlari. Qattiq jismlarning mexanik va termodinamik xossalari. Elastik deformatsiya va issiqlikdan kengayish. Qattiq jismlarning erishi va qotishi.

Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Molekulyar kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi
- ✓ Ideal gaz holat tenglamasi. Ideal gaz qonunlari. Izojarayonlar.
- ✓ Barometrik formula. Bolsman taqsimoti.
- ✓ Molekulalarning tezliklar bo‘yicha taqsimoti
- ✓ Ideal gaz ichki energiyasi. Ish va issiqlik miqdori
- ✓ Gazlarning issiqlik sig‘imi Issiqlik sig‘imlarini o‘lchash
- ✓ Adiabatik jarayon Adiabatik jarayon jarayonda bajarilgan ish. Politropik jarayon.
- ✓ Gaz molekulalarining o‘rtacha to‘qnashishlar soni. O‘rtacha erkin yugurish yo‘li.
- ✓ Diffuziya hodisasi.Diffuziya koeffitsiyentini hisoblash
- ✓ Gazlarda issiqlik o‘tkazuvchanlik. Gazlarning qovushqoqligi (ichki ishqalanish)
- ✓ Entropiya.Termodinamikaning ikkinchi qonuni
- ✓ Karno sikli. Issiqlik mashinalari. Otto va Dizel sikllari
- ✓ Real gazlar. Van-der-Vaals tenglamasi
- ✓ Suyuqliklarning hajmiy xossalari. Sirt taranglik.Suyuqliklarning bug‘lanishi va qaynashi.

Laboratoriya mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Suyuqliklarning hajmiy kengayish koeffitsiyentini aniqlash.

- ✓ Yakka plastina metodi bilan issiqlik o‘tkazuvchanlikni aniqlash
- ✓ Quyosh kollektorining effektivligini issiqlik izolyatsiyasining funksiyasi sifatida aniqlash.
- ✓ Suv aralashmasi temperaturasini aniqlash.
- ✓ Qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sig‘imini aniqlash.
- ✓ Suv bug‘lari hosil bo‘lishining yashirin issiqligini aniqlash.
- ✓ Gaz qonunlarini o‘rganish
- ✓ Richard metodi bilan havo uchun adiabat ko‘rsatgichini C_p/C_V aniqlash.

- ✓ Gazlarning solishtirma issiqlik sig‘imlari nisbatini aniqlash.
- ✓ Havoning nisbiy namligini Assman psixrometri yordamida aniqlash
- ✓ Suyuqliklarning sirt taranglik koeffitsiyentini halqani uzish usuli bilan aniqlash.

4.3. Elektr va magnetizm

Elektrostatik maydon va uning xarakteristikalari. Elektr va magnit maydonlar yagona elektromagnit maydonning ikki tashkil etuvchilaridir. Elektrostatik maydon – elektrostatik o‘zaro ta’sirning moddiy eltuvchisidir. Elektr zaryadlari. Elektr zaryadlarining saqlanish qonuni. Kulon qonuni. Elektrostatikada birliklar sistemasi.

Elektr maydon kuchlanganligi. Elektr maydon kuchlanganligi. Nuqtaviy zaryad elektr maydoni kuchlanganligi. Maydonlar superpozitsiya prinsipi. Superpozitsiya prinsipi asosida elektr maydonlarni hisoblash. Elektr maydon kuch chiziqlari Kuchlanganlik va induksiya vektorlari. Kuchlanganlik va induksiya vektorlari oqimi. Gauss teoremasi.

Gauss teoremasining turli elektrostatik maydonlarni hisoblashga tatbiqi. Zaryadlangan cheksiz yassi tekislik. O‘zaro parallel zaryadlangan cheksiz yassi tekisliklar. Zaryadlangan silindr. Zaryadlangan sfera. Zaryadlangan shar.

Elektrostatik maydon potensiali. Elektrostatik kuchlarning ishi. Elektrostatik kuchlarning ishi bilan zaryad potensial energiyasi orasidagi bog‘lanish. Elektrostatik maydon potensiali. Ekvipotensial sirtlar. Elektrostatik maydon kuchlanganligi va potensiallar ayirmasi orasidagi bog‘lanish. Elektrostatik maydonda potensial va potensiallar farqini hisoblash.

Elektrostatik maydonda o‘tkazgichlar. Kondensatorlar. O‘tkazgichda zaryadlar taqsimoti. Elektrostatik induksiya hodisasi. Yakkalangan o‘tkazgich zaryadi va potensiali orasidagi bog‘lanish. Elektr sig‘imi. Kondensatorlar. Bir jinsli

elektr maydon. Sodda kondensatorlar sig‘imlarini hisoblash. Zaryadlangan o‘tkazgich va kondensatorning xususiy energiyasi. Zaryadlangan o‘tkazgich va kondensatorning xususiy energiyasi. Qo‘zg‘almas nuqtaviy zaryadlar sistemasi energiyasi. Elektr maydon energiyasi.

Elektr toki. O‘zgarmas tok qonunlari. Elektr toki haqidagi qisqacha tarixiy ma’lumotlar. Elektr toki va uning xarakteristikalari. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni. Tok manbaining EYK va Joul-Lens qonuni. Tok manbaining EYK va bir jinsli bo‘lmagan zanjir qismi uchun Om qonuni. Joul-Lens qonuni.

Kirxgoff qoidalari. Stasionar toklarning berkligi. Kirxgofning birinchi qoidasi. Tashqi kuchlar. Elektr yurituvchi kuch. Kirxgofning ikkinchi qoidasi va uning vositasida murakkab zanjirlardagi toklarni hisoblash.

Vakuumda tokning magnit maydoni. Tokning magnit maydoni. Yerning magnit maydoni. Harakatdagi zaryadlar va elementar toklarning elektromagnit o‘zaro ta’siri. Magnit maydon induksiyasi. Bio-Savar-Laplas qonuni.

Bio-Savar-Laplas qonunining turli magnit maydonlarni hisoblashga tatbiqi. Turli magnit maydonlarni hisoblash. Magnit induksiya vektorining sirkulyatsiyasi. Magnit maydonning uyurmaviy xarakteri. Sirkulyatsiya to‘g‘risidagi teoremaning turli magnit maydonlarni hisoblashga tatbiqi. Induksiya vektorining oqimi.

Lorens kuchi. Amper qonuni. Plazma. Magnit maydonda harakatlanayotgan zaryadli zarrachaga ta’sir etuvchi Lorens kuchi. Elektronni solishtirma zaryadini aniqlash. Magnit maydonni tokli o‘tkazgichga ta’siri. Magnit maydonga kiritilgan tokli berk kontur. Doimiy tokli Elektr motorni ishlash prinsipi. Amper qonuni. Amper qonuniga misollar. Magnit maydon kuchlarining ishi.

Elektromagnit induksiyaning tabiati va asosiy qonuniyatlari. Elektromagnit induksiya hodisasi. Faradey qonuni. Induksion tokning yo‘nalishi. Lens qoidasi. Induksiya EYuK va uni hisoblash. O‘zaroinduksiya.

O‘zinduksiya. Magnit maydon energiyasi. O‘zinduksiya. Induktivlik. Zanjirdagi tokning qaror topishi va yo‘qolishi. Magnit maydon energiyasi. Transformator.

Elektromagnit tebranishlar. Xususiy so‘nmas elektromagnit tebranishlar**.** Xususiy so‘nuvchi tebranishlar**.** Elektromagnit tebranishlarni hosil qilish. Tebranish konturi. Aktiv qarshiliksiz elektr konturida erkin elektromagnit tebranishlar. Erkin elektromagnit tebranishlarni differensial tenglamasi. Tomson formulasi.

Majburiy elektromagnit tebranishlar. Majburiy elektromagnit tebranishlar. Majburiy elektromagnit tebranishlarni differensial tenglamasi. Shartli davr. So‘nish koeffitsiyenti. So‘nishning logarifmik dekrementi. Tebranish konturi aslligi.

O‘zgaruvchan tok qonunlari. O‘zgaruvchan tokning hosil bo‘lishi – generator. Magnit maydonida aylanuvchan kontur. O‘zgaruvchan tokning

amplitudasi va effektiv qiymati.

O‘zgaruvchan tok zanjirida aktiv, induktiv va sig‘im qarshiliklar. O‘zgaruvchan tok zanjiridagi to‘la qarshiligi – impedans. O‘zgaruvchan tok zanjirining ishi va quvvati. O‘zgaruvchan tok zanjirida to‘la qarshilikni hisoblash metodlari.

Vektor diagrammalar. Rezonansning ikki turi. Vektor diagrammalar. Kuchlanishlar rezonansi. O‘zgaruvchan tokning parallel zanjirdan o‘tishi. Toklar rezonansi.

Elektromagnit to‘lqinlar. Elektromagnit to‘lqinlarning xossalari. Elektromagnit maydon. Maksvell tenglamalari sistemasi. Elektromagnit to‘lqinlar. Elektromagnit to‘lqinlarning manbalari va tezligi. Elektromagnit to‘lqinlarning superpozitsiyasi.

To‘lqin tenglamasi. Yassi elektromagnit to‘lqinlar. Elektromagnit to‘lqinlarning xossalari.To‘lqin tenglamasi. Uning yechimi va fizik ma’nosini analiz qilish. Yassi elektromagnit to‘lqinlar.

Elektromagnit to‘lqinlarning energiyasi va impulsi. Elektromagnit to‘lqinlarni energiyasi va impulsi. Elektromagnit to‘lqin energiyasi zichligi Umov-Poynting vektori. Elektromagnit to‘lqinlar shkalasi.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Elektr zaryadlari. Kulon qonuni. Elektrostatikada birliklar sistemasi. Elektr maydon kuchlanganligi.
- ✓ Maydonlar superpozitsiya prinsipi. Superpozitsiya prinsipi asosida elektr maydonlarni hisoblash.
- ✓ Elektrostatik kuchlarning ishi. Elektrostatik kuchlarning ishi bilan zaryad potensial energiyasi orasidagi bog‘lanish.
- ✓ Elektrostatik maydon potensiali. Elektrostatik maydon kuchlanganligi va potensiallar ayirmasi orasidagi bog‘lanish. Elektrostatik maydonda potensial va potensiallar farqini hisoblash.
- ✓ Yakkalangan o‘tkazgich zaryadi va potensiali orasidagi bog‘lanish. Elektr sig‘imi. Kondensatorlar. Sodda kondensatorlar sig‘imlarini hisoblash. Kondensatorlarni ketma-ket va parallel ulash.
- ✓ Zaryadlangan o‘tkazgich va kondensatorning xususiy energiyasi. Qo‘zg‘almas nuqtaviy zaryadlar sistemasi energiyasi. Elektr maydon energiyasi.
- ✓ Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni. Joul – Lens qonuni. Tok manbaining EYK va bir jinsli bo‘lmagan zanjir qismi uchun Om qonuni.
- ✓ Tarmoqlangan zanjirlar. Kirxgoff qoidalari.
- ✓ Bio-Savar-Laplas qonuni. Bio-Savar-Laplas qonunining turli magnit maydonlarni hisoblashga tatbiqi.

- ✓ Amper qonuni. Amper qonuniga misollar. Magnit maydon kuchlarining ishi. Lorens kuchi.
- ✓ Elektr zanjirlarining asosiy tushunchalari: elektr toki, kuchlanish, elektr yurituvchi kuch, qarshilik. Om qonunlari. Elektr zanjiri elementlarining tipik ulanishlari. O‘zgarmas tok elektr zanjirlari.
- ✓ Murakkab o‘zgarmas tok zanjirlarini hisoblash. Kirxgoff qonunlari. Elektr zanjirlarida energiya balansi. (quvvatlar balansi).
- ✓ Potensiallar diagrammasi. Zanjirning bir qismi uchun Om qonunini (umumlashgan shakli) to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash metodi
- ✓ Kondensatorlar. Kondensator energiyasi. Kondensatorlarni parallel va ketma-ket ulash. Kondensatorlarning qo‘llanilishi.
- ✓ O‘zgaruvchan tok elektr zanjirlari: bir fazali o‘zgaruvchan tok, uni ishlab chiqarish. Aktiv, induktiv, sig‘im qarshilikka ega bo‘lgan sodda zanjirlar.
- ✓ Tok iste’molchilarining ketma-ket va parallel ulanishi; toklar va kuchlanishlar rezonansi. Sinusoidal zanjirlarni hisoblash.
- ✓ Murakkab o‘zgaruvchan tok zanjirlarini hisoblash. Elektr zanjirlarida quvvat va energiya balansi.
- ✓ O‘lchashlarning tasnifi va asosiy xususiyatlari. O‘lchash xatoliklari va o‘lchash asboblarining xatoliklari. Elektr o‘lchash asboblarining asosiy tizimlari.
- ✓ Transformatorlar: transformatorlar qurilmasi; ishlash prinsipi; Asosiy xarakteristikalari; transformatorlarning ishlash rejimi; Avtotransformatorlar
- ✓ Yarimo‘tkazgichlarning asosiy xossalari. Yarimo‘tkazgichli asboblar: Yarimo‘tkazgichli diodlar. Tranzistorlar. Tiristorlar. O‘zgaruvchan tok to‘g‘rilagichlari.

Laboratoriya ishlariga tavsiya etiladigan mavzular:

- ✓ Elektrometrik kuchaytirgich yordamida elektrostatikaning asosiy tajribalarini bajarish.
- ✓ Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni yordamida o‘tkazgich qarshiligini aniqlash.
- ✓ Ampermetr va voltmetr asboblarining o‘lchash chegaralarini orttirish.
- ✓ Uitston ko‘prigi yordamida qarshiliklarni aniqlash.
- ✓ Isitish asboblarining FIK ni aniqlash.
- ✓ Yer magnit maydoni kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisini aniqlash.
- ✓ Magnit o‘zakka ega bo‘lmagan induktiv g‘altakning magnit maydonini o‘rganish.

- ✓ Taqasimon magnit maydonida tokli o‘tkazgichga ta’sir etuvchi kuchni o‘lchash
- ✓ Metallar va yarim o‘tkazgichli termorezistor qarshiligining temperaturaga bog‘liqligini o‘rganish.
- ✓ Tok manbaining EYuK ni aniqlash.
- ✓ Quvvat va quvvat koeffitsiyentini aniqlashni o‘rganish.
- ✓ Yarim o‘tkazgichli diodning volt-amper xarakteristikasini o‘rganish
- ✓ Yarim o‘tkazgichli tranzistorning ish rejimini o‘rganish
- ✓ Diodli va tranzistorli sxemalar.
- ✓ Asinxron dvigatelni bir fazali tokka ulashni o‘rganish.
- ✓ O‘zgarmas tok ampermetrini o‘zgaruvchan tokka moslash.

4.4. Optika

Optika fanining rivojlanish tarixi. Optika fanining rivojlanish tarixi. Yorug‘lik to‘lqinlarini qayd qiluvchi asboblar. Chiziqli va nochiziqli optika. Yorug‘likning tabiati. Yorug‘lik tezligini o‘lchash usullari. Maykelson tajribasi.

Yorug‘likning qaytish qonuni. Yorug‘likning qaytish qonuni. Turli sirtlarda yorug‘likning qaytishi. To‘la ichki qaytish. Tolali optika. Tolali optikaning amaliy ahamiyati. Refraktometr. To‘lqin optikasidan geometrik optikaga o‘tishning chegaraviy shartlari. Yorug‘lik energiyasining to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishi. Ko‘zgularning turlari va ular yordamida buyum tasvirini hosil qilish. Ko‘zgularni ishlab chiqarish usullari va qo‘llanilishi.

Yorug‘likning sinish qonuni. Yorug‘likning sinishi. Yassi parallel plastinka, prizmalarda yorug‘likning sinib o‘tishi. Ferma, Frenel va Gyuygens prinsiplari. Linzaning turlari. Linzaning parametrlari. Linzaning kamchiliklari. Linzalarning amaliy axamiyati. Optik sistemalar aberratsiyasi. Bosh optik o‘qda va undan tashqarida kuzatiladigan aberratsiyalar. Sferik, xromatik aberratsiyalar. Koma, distorsiya va astigmatizm. Aplanat va anastigmatik sistemalar.

Optik asboblar. Optik asboblar. Optik asboblar sinfi. Proeksion apparat. Fotoapparat. Ko‘z. Ko‘z optik asbob sifatida. Ko‘rish burchagi. Lupa. Mikroskop. Teleskop. Durbin. Zamonaviy optik asboblar kvalifikatsiyasi.

Yorug‘lik interferensiyasi. Interferensiyani kuzatish usullari. Fazalar farqini yo‘llar farqi yordamida topish. Interferension polosalarning kengligi. Vaqtiy kogerentlik, ko‘rinish funksiyasi. Fazaviy kogerentlik. Yassi parallel plastinka yordamida interferension manzara hosil qilish. O‘zgaruvchan qalinlikli plastina, ponada interferension manzara hosil qilish usullari.

O‘tgan va qaytgan to‘lqinlarda Nyuton xalqasini kuzatish. Nyuton halqasi (o‘tgan va qaytgan to‘lqinlarda). Interferension manzara. Interferometrlarning turi va tuzilishlari. Yorug‘lik interferensiyasi hodisasidan foydalanish.

Yorug‘lik difraksiyasi. Difraksiya turlari. Difraksiya hodisasi. Gyugens-Frenel prinsipi. Difraksion masala. Frenel zonalar usuli. Frenel zonalari sonining tirqish radiusi, manba va kuzatish nuqtalari orasidagi masofaga bog‘liqligi. Zonaviy plastinka. Doiraviy tirqish va to‘siqdan o‘tuvchi to‘lqin difraksiyasi. Bitta tirqishdan o‘tuvchi to‘lqin difraksiyasi. Minimum va maksimum shartlari. Tirqish kengligi va manba o‘lchamining difraksion manzaraga ta’siri. Ikki tirqishdan o‘tuvchi to‘lqinlar difraksiyasi.

Fraungofer difraksiyasi. Difraksion panjara. Fraungofer difraksiyasi. Difraksion manzaraning minimum va maksimum shartlari. Tirqish kengligi va manba o‘lchamining difraksion manzaraga ta’siri. Difraksion panjara. Panjara turlari va ajrata olish qobiliyati.

Yorug‘likning qutblanishi. Elliptik qutblanish. Malyus qonuni. Bryuster qonuni. Yorug‘likning ikkilanib sinishidagi qutblanish. Bir va ikki o‘qli kristallar. Oddiy va g‘ayrioddiy to‘lqinlar. Qutblanish darajasi. Elliptik qutblangan to‘lqin hosil qilish va uning tahlili. Qutblantirgichlar. Nikol prizmasi. Polyaroidlar. Kompensatorlar.

Yorug‘lik dispersiyasi. Yorug‘likning sochilishi va yutilishi. Yorug‘lik dispersiyasini kuzatish usullari. Normal dispersiya. Anomal dispersiya. Dispersiya tenglamasi. Yutilish sohadan uzoqdagi dispersiya. Yorug‘likning sochilishi va yutilishi. To‘lqin optikasi bilan kvant optikasi orasidagi o‘zaro bog‘lanish.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Yorug‘lik tezligi. Fotometriya asoslari.
- ✓ Yorug‘likning qaytish qonuni. To‘la ichki qaytish qonuni.
- ✓ Botiq va qavariq ko‘zgular. Ko‘zgu yordamida buyum tasvirini hosil qilish.
- ✓ Yassi parallel shisha plastinkada yorug‘likning sinish qonuni. Prizmada yorug‘likning sinishi.
- ✓ Yupqa linza formulasi. Linza yordamida buyum tasvirini hosil qilish.
- ✓ Optik asboblar. Proeksion apparat. Fotoapparat. Ko‘z. Lupa. Ko‘rish burchagi. Mikroskop. Teleskop.
- ✓ Yung tajribasi. Yupqa qatlamdagi interferensiya.
- ✓ Ponada interfenrensiya. Nyuton halqalari.
- ✓ Dumaloq tirqish va to‘siqlardagi difraksiya. Frenel zonalari. Parallel to‘lqinlar difraksiyasi. Difraksion panjara.
- ✓ Yorug‘likning qutblanishi**.** Yorug‘likning qutblanish darajasi. Bryuster burchagi. Malyus qonuni.

Laboratoriya ishlariga tavsiya etiladigan mavzular:

- ✓ Elektrfotometr yordamida yoritilganlik qonunlarini o‘rganish.
- ✓ Difraksion panjara yordamida yorug‘likning to‘lqin uzunligini aniqlash.

- ✓ Rangli suyuqliklarning yutilish spektrini aniqlash.
- ✓ Linzaning egrilik radiusini Nyuton halqalari yordamida aniqlash.
- ✓ Inert gaz va metall bug‘larining chiziqli spektrlarini prizmali spektrometr yordamida o‘lchash
- ✓ Ignalar yordamida uch yoqli prizma moddasining nur sindirish ko‘rsatkichini aniqlash.
- ✓ Shishaning nur sindirish ko‘rsatkichini mikroskop vositasida aniqlash.
- ✓ Qavariq va botiq linzalarning bosh fokus masofalarini aniqlash.
- ✓ Mikroskopning kattalashtirishini aniqlash.
- ✓ Qutblanish tekisligining qand eritmasi bilan burish.

4.5. Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi

Atom fizikasiga kirish. Issiqlik nurlanishi. Absolyut qora jism. Kulrang jism. Kirxgoff, Stefan-Bolsman, Plank, Vin, Reley-Jins qonunlari.

Atom modellari. Tomson modeli. Rezerford tajribasi va atomning yadroviy modeli. Effektiv kesim tushunchasi.

Spektral seriyalar va energetik sathlar. Vodorod atomining spektral seriyalari. Balmer formulasi. Kombinatsion prinsip. Pikering seriyasi. Energiya sathlari diagrammalari. Chegaraviy tutash spektr.

Vodorod atomining Bor nazariyasi. Bor postulatlari. Frank va Gers tajribalari. Bor nazariyasining qo‘llanilish chegaralari.

Rentgen nurlanishi. Rentgen nurlanishi. Tormozlanish va xarakteristik Rentgen nurlarining spektrlari. Mozeli qonuni. Rentgen nurlarining qo‘llanilishi.

Lazerlar. Spontan va majburiy nurlanishlar. Kvant generatorlar. Lazerlarlarning turlari va ishlash prinsiplari. Lazerlarning amaliyotda qo‘llanilishi.

Elektromagnit nurlanishning korpuskulyar xossalari. Fotoeffekt. Tashqi fotoeffekt qonunlari. Fotoeffekt nazariyasi. Ichki va tashqi fotoeffektning qo‘llanilishi. Kompton effekti. Kompton effektining qo‘llanilishi.

Mikrozarralarning to‘lqin xossalari. Korpuskulyar to‘lqin dualizmining universalligi. De-Broyl gipotezasi. De-Broyl to‘lqinining xossalari va statistik talqini.

Korpuskulyar-to‘lqin dualizmining eksperimental asoslari. Devisson va Jermer tajribasi. Tomson va Tartakovskiy tajribasi. Geyzenbergning noaniqliklar munosabatlari.

Kvant mexanikasi asoslari. Shryodinger tenglamasi. Bir o‘lchamli potensial o‘radagi zarra. Tunnel effekti. Chiziqli garmonik ossilyator.

Ishqoriy metallar. Ishqoriy metallar energiyasi va spektri. Elektronning orbital magnit momenti. Larmor teoremasi. Ishqoriy metallar spektrining nozik strukturasi.

Vodorodsimon atomlar. Vodorod va vodorodsimon atomlarning nozik strukturasi. Pashen-Bak effekti.

Zeeman effekti. Normal va anomal Zeeman effektlari.

Mikrozarralar spini. Shtern – Gerlax tajribasi. Spin bilan bog‘liq xususiyatlar. Geliy atomi.

Pauli prinsipi. Mendeleyev davriy sistemasi tuzilishi. Hund va Klechkovskiy qoidalari.

Atom yadrosining tuzilishi. Atom yadrosining tuzilishini o‘rganish tarixi. Atom yadrosining tarkibi. Yadro zaryadi, massasi, radiusi. Ularni aniqlash usullari.

Yadroning bog‘lanish energiyasi. Yadroning bog‘lanish energiyasi. Solishtirma bog‘lanish energiyasi. Bog‘lanish energiyasi uchun Veyszekkerning yarim empirik formulasi.

Yadro kuchlari. Yadro kuchlari. Yadro kuchlarining xususiyatlari, nukonlarning tuzilishi. Yadroning spini va orbital magnit momenti. Uni aniqlash usullari. Juftlik. Uning saqlanish qonuni. Izotopik spin.

Yadro modellari. Yadro modellari. Yadroning suyuqlik-tomchi modeli. Fermi gaz modeli. Qobiqli model. Umumlashgan model. Yadro modellarining qo‘llanilish sohalari.

Radioaktivlik hodisasi. Radioaktiv oilalar.

Radioaktivlik. Radioaktivlikning kashf etilishi. Radioaktiv yemirilish qonuni. Aktivlik tushunchasi va birliklari. Yemirilish turlari.

Radioaktiv yemirilish turlari. Alfa, beta yemirilishlar, gamma nurlanishlar va ularning qonuniyatlari. Alfa yemirilishda energetik munosabatlar. Tunnel effekti. Beta–yemirilishda energetik munosabatlar. Neytrino gipotezasi. Beta–yemirilishlarning spektri va neytrino. Gamma nurlanishlar. Gamma nurlanish, ichki konversiya hodisasi. Myossbauer effekti.

Tezlatgichlar va ularning tuzilishi. Yadro reaksiyalari. Chiziqli va siklik tezlatgichlar. Avtofazirovka prinsipi. Siklotron, betatron, sinxrosiklotron, katta adron kollayder. Yadro reaksiyalarida saqlanish qonuni. Yadro reaksiyalarining kesimi. Yadro reaksiyalarining chiqishi.

Og‘ir yadrolarning bo‘linishi. Yadro energetikasi.

Yadrolar bo‘linishining asosiy xususiyatlari. Bo‘linish mahsulotlari, ularning energiya va massa bo‘yicha taqsimoti, zanjir reaksiyasi. Atom elektr stansiyalari. Yadro energiyasidan turli maqsadlarda foydalanish.

Termoyadro reaksiyasi. Termoyadro reaksiyalari hosil bo‘lish shartlari. Quyosh va yulduzlarda termoyadro reaksyalari. Termoyadro reaksiyasini boshqarish. Termoyadro sintezi energiyasidan foydalanish istiqbollari.

Yadroviy nurlanishlarning moddalar bilan ta’siri. Gamma kvantlarning moddalar bilan ta’siri. Yadro nurlanishlarining moddalar bilan ta’sir turlari.

Ionizatsiya energiya yo‘qotishi. Og‘ir yadrolarning muhit bilan ta’sirlashuvi. Vavilov Cherenkov effekti. Yadro nurlanishlarini qayd qilish usullari. Hisoblagichli detektorlar.

Yadro nurlanishlarining biologik ta’siri. Yadroviy nurlanishlarni qayd etish usullari. Dozimetriya. Mass analizatorlar. Nurlanish dozasi. Yadro nurlanishlaridan himoyalanish yo‘llari. Yadroviy nurlanishlarning tibbiyotda qo‘llanilishi, yadroviy tibbiyot.

Elementar zarralar va ularni xarakterlovchi kattaliklar. Elementar zarralar fizikasi tarixi. Elementar zarralar tushunchalari. Adronlar, leptonlar, ta’sir tashuvchilar. Massa, spin, elektr zaryadi.

Adronlarning kvark sturukturasi.

G‘alati zarralar sinfi, xususiyatlari. G‘alati zarralar. G‘alatilik kvant soni. Maftunkor zarralar. Maftunkorlik kvant soni. Adronlar va mezonlarning kvark strukturasi.

Simmetriya va saqlanish qonunlari. Izotopik fazo va izotopik spin (izospin). Fazoviy juftlikning saqlanmaslik xususiyati. Fundamental zarralar sinfi. G‘alatilik, maftunkorlik kvant sonlarining saqlanish qonuni. Simmetriya turlari va ularga mos saqlashnish qonunlari. Geometrik va ichki (yashirin) fazolar va simmetriyalar. Zarralarning o‘zaro bir – biriga aylanishi. Kombinatsiyalangan juftlik va neytral K -mezonlar xossalari. T -almashtirish va CPT -teorema.

Fundamental o‘zaro ta’sirlar.

Elektromagnit, kuchsiz, kuchli va garvitatsion ta’sirlar. Olamning yagona fizik manzarasini yaratish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar va ularning natijalari. “Buyuk birlashuv” nazariyasi. Standart model va Higgs bozonining kashf etilishi. Supergravitatsiya nazariyasi.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Mikrozarralar kinematikasi.
- ✓ Issiqlik nurlanishining klassik nazariyasi.
- ✓ Issiqlik nurlanishining kvant nazariyalari.
- ✓ Zarralarning sochilishi. Rezerford formulasi.
- ✓ Atomning Rezerford – Bor modeli.
- ✓ Vodorod atomining spektral seriyalari.
- ✓ Rentgen nurlanishi. Mozeli qonuni.
- ✓ Fotoeffekt qonunlari.
- ✓ Kompton effekti.
- ✓ Mikrozarralarning to‘lqin xossalari. De-Broyl to‘lqini.
- ✓ Geyzenberg noaniqliklar munosabati.
- ✓ Shryodinger tenglamasi. Potensial o‘zaradagi zarra harakati.

- ✓ Mikrozarralarning potensial to‘siq orqali o‘tishi. Tunnel effekti.
- ✓ Vodorodsimon atomlar. Ishqoriy metallar.
- ✓ Pauli prinsipi. Atomlarning elektron konfiguratsiyalari.
- ✓ Atom yadrosining asosiy xarakteristikalari.
- ✓ Yadrolarning bog‘lanish va solishtirma bog‘lanish energiyalari.
- ✓ Yadro modellari va ularning qo‘llanilish chegaralari
- ✓ Radioaktivlik. Radioaktiv yemirilish qonuni.
- ✓ Alfa yemirilishlar va ularning qonuniyatlari. Geyger – Nettol qonuni
- ✓ Beta yemirilishlar va ularning qonuniyatlari.
- ✓ γ- yemirilishlar: ichki konversiya. Myussbauer effekti.
- ✓ Ionlashtiruvchi nurlanishlarning muhit bilan ta’sirlashuvi.
- ✓ Zaryadlangan zarralarning moddalar bilan ta’sirlashuvi.
- ✓ Gamma kvantlarning modda bilan ta’sirlashuvi.
- ✓ Zarralarni qayd etish, detektorlar. Dozimetriya asoslari.
- ✓ Yadro reaksiyalari. Elementar zarralar. Saqlanish qonunlari.
- ✓ Og‘ir yadrolarning bo‘linishi.
- ✓ Termoyadro reaksiyalari. Plazma.
- ✓ Neytron fizikasi.

Laboratoriya ishlariga tavsiya etiladigan mavzular:

- ✓ Stefan–Bolsman qonuni: Absolyut qora jism nurlanish intensivligining haroratga bog‘liqligini o‘lchash.
- ✓ Plank doimiysini aniqlash.
- ✓ Ravshanlik pirometri yordamida nurlanayotgan jismlarning haqiqiy temperaturasini aniqlash.
- ✓ Elektronning chiqish ishini aniqlash.
- ✓ Tashqi fotoeffekt hodisasini o‘rganish
- ✓ Atomlarning spektrlariga doir kompyuter eksperimenti
- ✓ Frank-Gers tajribasini o‘rganish (atomlarning uyg‘onish potensialini aniqlash).
- ✓ Geliy neon lazeri nurlanishining suyuqlikda yutilish qonuniyatlarini o‘rganish.

4.6. Nisbiylik nazariyasi

Nisbiylik nazariyasi. Olam efiri muammosi maxsus nisbiylik nazariyasi. Maxsus nisbiylik nazariyasining yaratilish tarixi. Nisbiylik nazariyasi va saqlanish qonuni. Harakatning nisbiyligi.

Maxsus nisbiylik nazariyasi tamoyillari. Tezliklarni qo‘shishning relyativistik qonuni. Yorug‘lik tezligining doimiyligi. Eynshteynning nisbiylik prinsipi.

Vaqtning nisbiyligi. Jism uzunligining nisbiyligi. Relyativistik impuls. Relyativistik energiya. Energiya va massa orasidagi munosabat. Foton.

Harakatlanuvchi muhit optikasi va nochiziqli jarayonlar. Yorug‘lik va maxsus nisbiylik nazariyasi. Maykelsonning interferension tajribasi. Maxsus nisbiylik nazariyasi postulatlari.

Fazo-vaqt intervali tushunchasi.

Umumiy nisbiylik nazariyasi. Gravitatsiya va egri fazo tushunchasi. Shvartsshild radiusi va qora tuynuk tushunchasi. Gravitatsion to‘lqinlar va ularning kuzatilishi. Nisbiylik nazariyasining zamonaviy eksperimental isbotlari.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Vaqt kengayishi va uzunlik qisqarishini hisoblash.
- ✓ Harakatlanuvchi soatlarning qanday sekinlashishini aniqlash.
- ✓ Yuqori tezlikda harakat qiluvchi jismlarning uzunlik qisqarishi.
- ✓ Relyativistik Doppler effekti va yorug‘lik chastotalari.
- ✓ Harakatlanuvchi yorug‘lik manbalari uchun chastota o‘zgarishini hisoblash.
- ✓ Qizil va ko‘k siljish hodisasining astrofizik kuzatuvlardagi roli.
- ✓ Impuls-energiya aloqasini tahlil qilish.
- ✓ Relyativistik impuls va energiyani hisoblash.
- ✓ Yadro reaksiyalarida $E = mc^2$ formulasi asosida hisob-kitoblar.
- ✓ Minkovskiy fazosida masofalar va interval hisobi.
- ✓ Minkovskiy diagrammalaridan foydalanish.
- ✓ Gravitatsion vaqt kengayishini tekshirish.
- ✓ Og‘irlik maydonida vaqtning qanday kechishini aniqlash.
- ✓ Gravitatsion linzalash hodisasini matematik tahlil qilish.
- ✓ Qora tuynuklarning yulduzlarga ta’siri.
- ✓ Tadqiqotlar asosida qora tuynuk massasi va radiusini hisoblash.
- ✓ Nisbiylik nazariyasining real hayotdagi qo‘llanilishi.
- ✓ GPS tizimida nisbiylikning rolini hisoblash.
- ✓ Zarracha tezlatgichlarda relyativistik effektlarni tahlil qilish.

4.7. Astronomiya va astrofizika

Astronomiya predmeti, uning bo‘limlari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Astronomiyaning rivojlanish tarixi va unda Yaqin sharq, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining buyuk xizmatlari.

Sferik astronomiya asoslari. Yoritgichlarning ko‘rinma holatlari. Yulduz turkumlari. Quyosh, Oy, Sayyoralar va yulduzlarning ko‘rinma harakatlari.

Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalari. Quyoshning yillik

koʻrinma harakati. Ekliptika.

Koordinatalar sistemasi. Gorizontal, ekvatorial va ekliptikal koordinatalar sistemasi. Olam qutbining balandligi va joyning geografik kenglamasi orasidagi bogʻlanish.

Turli geografik kenglamalarda osmon sferasining sutkalik koʻrinma aylanishi.

Yoritgichlarning kulminatsiyasi va kulminatsiya balandliklari. Joyning kenglamasini taqribiy hisoblash. Refraksiya. Oqshom va oq tunlar.

Vaqtni oʻlchash asoslari. Haqiqiy va oʻrtacha quyosh vaqtlari. Vaqt tenglamasi. Mahalliy va Dunyo vaqtlari.

Kalendarlar. Quyosh kalendarlari. Oy kalendarlari. Hijriy kalendarlar. Quyosh-Oy kalendari va muchal haqida tushuncha. U. Hayyom taqvimi.

Sayyoralarning koʻrinma va haqiqiy harakatlari. Sayyoralarning yulduzlar fonidagi harakati. Olam tuzilishining geotsentrik va geliotsentrik nazariyasi.

Planetalarning konfiguratsiyalari, Kepler qonunlari**.** Butun olam tortishish qonuni va ikki jism masalasi.

Planetalarning konfiguratsiyalari, siderik va sinodik davrlari. Kepler qonunlari. Quyosh sistemasi jismlarning massalarini hisoblash.

Yerning Quyosh atrofidagi harakati.

Yillik parallaks. Yil fasllarining almashinishi. Ulugʻbek nomidagi Xalqaro Kitob kenglik stansiyasi.

Oy harakati va fazalari. Oyning siderik va sinodik davrlari. Quyosh va Oy tutilishlari. Tutilish shartlari. Saros. Yer sirtining koʻtarilishi va pasayishi (Oy va Quyosh ta’sirida).

Quyoshning fizik tabiati. Fotosfera spektri va uning kimyoviy tarkibi. Fotosfera obyektlari.

Quyoshning dogʻlari. Quyoshning temperaturasi. Quyoshning ichki qatlamlarining tuzilishi. Xromosfera va uning obyektlari. Protuberanetslarning sinflari. Xromosfera chaqnashlari.

Quyosh toji va uning radionurlanishi, fizik tabiati.

Quyosh toji va uning radionurlanishi, fizik tabiati. Quyosh yadro energiyasining manbalari. Quyosh aktivligi va uning Yer atmosferasi hamda biosferasiga ta’siri.

Quyosh sistemasi. Yer tipidagi sayyoralarining fizik tabiati.

Merkuriy, Venera, Yer va Marsning fizik tabiati. Marsning yoʻldoshlari.

Gigant sayyoralarning fizik tabiati.

Yupiter, Saturn, Uran va Neptunning fizik tabiati, ularning halqalari va yoʻldoshlari.

Quyosh sistemasining kichik jismlari. Kichik sayyoralar. Kometalar va ularning dumlari. Meteorlar, meteor «yomgʻirlari». Meteoritlar.

Yulduzlar. Yulduzlarning asosiy xarakteristikasi Yulduzlarning spektral sinflari. Yulduzlarning temperaturasi va yorqinligi. Spektr – yorqinlik diagrammasi. Yulduz o‘lchamlarini aniqlash usullari. Yulduzlarning massalarini aniqlash. Radius-yorqinlik-massa diagrammasi. Yulduzlarning massalariga ko‘ra evolyutsiyasi.

Fizik qo‘shaloq yulduzlar. Fizik qo‘shaloq yulduzlar. Fizik o‘zgaruvchi yulduzlar. Eruptiv o‘zgaruvchi yulduzlar.

Galaktikamiz, uning tuzilishi va tarkibi. Bizning galaktikamizning tuzilishi va tarkibi. Yulduzlarning sharsimon va tarqoq to‘dalari. Yulduzlararo chang va gaz.

Galaktikadan tashqi astronomiya. Tashqi galaktikalar: ularning sinflari (spiral, elliptik va noto‘g‘ri). Radiogalaktikalar va kvazarlar

Galaktikalarning koinotda taqsimlanishi.

Galaktikalar to‘dalari. Qizilga siljish. Tashqi galaktikalargacha masofalarni hisoblash. Xabbl qonuni.

Astrofizikaning predmeti va bo‘limlari. Astrofizik tekshirish metodlari va ularning xususiyatlari. Hozirgi zamon astrofizik observatoriyalar. Ilmiy- texnik taraqqiyotda astrofizikaning roli.

Asosiy astrofizik tushunchalar. Fotometrik tushunchalar. Ko‘rinma yulduziy kattalik. Pogson formulasi. Yulduziy kattaliklari shkalasining hisob boshi. Astrofizik va fizik fotometrik birliklar orasidagi bog‘lanishlar. Yorug‘likning mexanik ekvivalenti. Sirt yorug‘ligi.

Astrofizik tekshirish vositalari va tekshirish usullari.

Optik teleskoplarning asosiy ko‘rsatgichlari. Optik teleskoplarning turlari. Radioteleskoplar va ularning asosiy ko‘rsatgichlari. Spektrograflar va ularning asosiy ko‘rsatgichlari. Nurlanish priyomniklari va asosiy ko‘rsatgichlari.

Yulduzlar nurlanishini hosil bo‘lish nazariyasi elementlari.

Yulduzlar fotosferasi va tutash spektrini hosil bo‘lishi. Yulduzlar atmosferasi nazariyasi asoslari. Chiziqiy spektrni hosil bo‘lishi.

Quyosh fizikasining asosiy ko‘rsatkichlari. Quyosh atmosferasi va aktivligi.

Quyoshning asosiy fizik ko‘rsatkichlari. Quyosh spektri. Quyoshning elektromagnit nurlanish tarkibi. Quyoshning tutash spektrida energiyaning taqsimlanishi va uning to‘la energiyasi. Quyosh atmosferasi.

Quyosh sistemasi jismlarining tabiati. Yer tipidagi sayyoralar fizikasi.

Quyosh sistemasiga kiradigan jismlarni tekshirishning xususiyatlari. Atmosferada fizik sharoit, sirkulyatsiya va dissipatsiya. Yer tipidagi sayyoralar atmosferasi. Yer tipidagi sayyoralarni ichki tuzilishi.

Gigant sayyoralar va mayda osmon jismlari fizikasi. Gigant sayyoralar atmosferasining tuzilishi. Gigant sayyoralarning ichki tuzilishi. Sayyoralar yo‘ldoshlari. Quyosh sistemasining kichik a’zolari. Quyosh sistemasining kelib chiqish gipotezasi.

Yulduzlar fizikasi. Statsionar yulduzlarning fizik koʻrsatkichlari. Yulduzlar spektri. Yulduzlarning umumiy fizik koʻrsatkichlari orasidagi bogʻlanishlar. Qoʻshaloq, atrofida gaz – disk va sayyoralar bor yulduzlar. Nostatsionar yulduzlar. Pulsatsiyalanuvchi yulduzlar. Spektrida yorugʻ emission chiziqlar koʻrinadigan yulduzlar. Chaqnovchi mitti (karlik) yulduzlar.

Galaktikaning tuzilishi va fizik koʻrsatkichlari.

Galaktikani tekshirishdan maqsad. Yulduz toʻdalari va assotsiatsiyalari. Gaz va chang tumanliklar. Yulduzlararo gaz. Yulduzlararo moddaning fizik holati va oʻzgarishi.

Tashqi galaktikalar va Metagalaktika. Koinot modellari Galaktikadan tashqi obyektlar. Galaktikalarning fazoda taqsimlanishi. Kosmogoniya va kosmologiya masalalari. Kuzatish natijalari va masalalari. Nostatsionar koinot va masshtab faktori. Kritik zichlik. Kosmologik modellar. Toʻgʻri modelni tanlash qiyinchiliklari. Qaynoq Koinot modeli. Reliktiv nurlanish.

Amaliy mashgʻulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalariga doir masalalar yechish.
- ✓ Osmon jismining koordinatalari va ular orasidagi bogʻlanishlarni topishga doir masalalar yechish.
- ✓ Yoritgichlarning kulminatsiyasi hamda kulminatsiya balandliklarini topishga doir masalalar yechish.
- ✓ Sferik uchburchak va uning asosiy formulalariga doir masalalar yechish.
- ✓ Haqiqiy va oʻrtacha quyosh vaqti hamda vaqt tenglamasi, mahalliy, poyas, dunyo va dekret vaqtlariga doir masalalar yechish.
- ✓ Quyoshning chiqish va botish momentini hamda chiqish va botish nuqtalarining azimutlarini hisoblashga doir masalalar yechish.
- ✓ Yoritgichlarning refraksiyasiga doir masalalar yechish.
- ✓ Kepler qonunlariga doir masalalar yechish
- ✓ Planetalarning konfiguratsiyalari hamda davrlarini hisoblashga doir masalalar yechish.
- ✓ Osmon jismlarining massalarini hisoblashga doir masalalar yechish.
- ✓ Quyosh sistemasi jismlarining masofalari va oʻlchamlarini hisoblashga doir masalalar yechish.
- ✓ Butun olam tortishish qonuni va ikki jism masalasiga doir masalalar yechish.
- ✓ Oyning harakati va fazalari, Quyosh va Oy tutilishlariga doir masalalar yechish.
- ✓ Mayda planetalar efemeridalarini hisoblashga doir masalalar yechish.

- ✓ Teleskoplar va ularning xarakteristikalariga doir masalalar yechish.
- ✓ Yulduzlargacha bo‘lgan masofalarni aniqlashga doir masalalar yechish.
- ✓ Yulduzlarning massalari, o‘lchamlari (radiuslari) va zichliklarini aniqlashga doir masalalar yechish.
- ✓ Yulduzlarning xususiy harakatlari va fazoviy tezliklarini aniqlashga doir masalalar yechish.
- ✓ Yulduzlarning yorqinligini va temperaturalarini aniqlashga doir masalalar yechish.
- ✓ Doppler effekti, Xabbl qonuniga doir doir masalalar yechish.

Laboratoriya mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Yulduzlarning kichik atlaslari.
- ✓ Yulduzlar osmonining surilma xaritasi.
- ✓ Osmon sferasining asosiy elementlari.
- ✓ Vaqtni o‘lchash sistemalarini o‘rganish.
- ✓ Kepler qonunlari va sayyoralar konfiguratsiyasi.
- ✓ Butun olam tortishish qonuni va ikki jism masalasi.
- ✓ Quyoshning chiqish (botish) vaqt daqiqalarini va chiqish (botish) nuqtalarining azimutlarini hisoblash.
- ✓ Teleskop yordamida sayyoralar va ularning yo‘ldoshlarini kuzatish.
- ✓ Yupiter va uning yo‘ldoshlarini orbitalaridagi harakatini o‘rganish.
- ✓ Yulduzlarning spektrini o‘rganish va ularning fizik ko‘rsatkichlarini hisoblash. Yulduzlarni spektral sinflashtirish.
- ✓ Teleskoplar va ularning xarakteristikalarini aniqlash.
- ✓ Yulduzlarning absolyut kattaligini va yorqinligini hisoblash.
- ✓ Yulduzlarning nuriy tezligini va magnit maydoni kuchlanganligini aniqlash.
- ✓ Sayyoralarning fizik ko‘rsatkichlarini hisoblash.
- ✓ Yulduzlarning masofasini hisoblash.
- ✓ Yulduzlarning yillik parallaksi va boshqa ko‘rsatkichlariga ko‘ra uzoqligini aniqlash.
- ✓ Quyoshning fizik ko‘rsatkichlarini hisoblash.
- ✓ Doppler effekti, Xabbl qonunini aniqlash.
- ✓ Galaktikalarning nuriy va fazoviy tezliklarini aniqlash.
- ✓ Koinot modellari

4.8. Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi

«Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi» pedagogik fan sifatida.

Fizika va va astronomiya ta’limida hozirgi zamon davlat siyosati. «Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi» kursining pedagogik fan sifatidagi maqsadi, predmeti va vazifalari. «Fizika o‘qitish metodikasi» kursining yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi, uning ahamiyati. Fizika va astronomiya ta’limidagi islohotlar va ularning asosiy g‘oyalari.

“Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi”ning ilmiy tekshirish metodlari. O‘tgan va hozirgi zamon chet el hamda vatanimiz pedagog olimlarining «Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi» sohasiga qo‘shgan hissalari. Fizikani va astronomiya o‘qitish va o‘rgatishning hozirgi zamon muammolari. Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasining ilmiy tekshirish metodlari. Fizika va astronomiya o‘qitishni takomillashtirish yo‘llari. Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasining falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari bilan bog‘lanishi

Uzluksiz ta’lim tizimida «Fizika va astronomiya» kursi.

O‘rta umumta’lim maktab fizika kursining mazmuni, tuzilishi. Kursning ahamiyati, maqsadi va vazifalari. Fizika o‘quv fani sifatidagi xususiyatlari. O‘rta umumta’lim maktablarida fizika o‘quv dasturining ilmiy uslubiy tahlili va unga qo‘yilgan umumiy-pedagogik talablar

Fizika va astronomi o‘qitish prinsiplari.

Fizika va astronomiya o‘qitish prinsiplari (ilmiylik, qulaylik, tarixiylik, qiyinlik, faollik, jamoatchilik, individuallashtirish, tabaqalashtirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirish, nazariyaning amaliyotga bog‘liqligi, insonparvarlik, politexniklashtirish va h.k.). «Fizika» kursining boshqa o‘quv predmetlar bilan o‘zaro aloqasi. Fizika ta’limi asosida integrativ kurslarning yaratilishi.

Fizika va astronomiya o‘qitish metodlari va ularning turlari.

Fizika va astronomiya o‘qitish metodlarini o‘qitish vositalariga ko‘ra turkumlarga ajratish. Fizika va astronomiya o‘qitishda o‘quvchilarni o‘quv faoliyatini jadallashtirish induksiya va deduksiya, o‘xshatish va modellashtirish. Fizikadan umumlashtiruvchi, yakunlovchi darslarni tashkil qilish, ularning strukturasi, maqsadi va vazifalari.

Fizika va astronomiya o‘qitish shakllari:

O‘qitish mazmuni, metodlari va o‘qitish jarayoni maqsadlariga bog‘liq bo‘lgan turli xil yondashuvlar. Ma’ruza, seminar, amaliy (masala ishlash) va laboratoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ish, darsdan tashqari va uy ishlari. Fizikadan va astronomiya dars tiplari (ko‘rinishlari) va ularning klassifikatsiyasi.

O‘quvchilarning darsdan tashqari ishlari.

Ularni tashkil qilishning ahamiyati, fizika va astronomiyadan darsdan tashqari ishlarning ko‘rinishlari, o‘tkazish shakllari va metodlari. Fizika va astronomiyadan guruh (to‘garak, konsultatsiya va h.k.) va ommaviy (olimpiada,

konferensiya, kecha, ekskursiya va h.k.) shakldagi ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi.

Fizika va astronomiyadan masala yechish darslari va ularning ahamiyati.

Fizikadan masala ishlash darslari va ularning ahamiyati. Masala ishlash darslarini tashkil qilish shakl va metodlari. Fizika va astronomiyadan masalalar turlari va ularning klassifikatsiyasi. O‘quvchilarning turli xil turdagi masalalarni yechishga o‘rgatish. Olimpiada masalalari.

O‘quvchilarning mustaqil ishlarining ko‘rinishlari

Mustaqil ishlarning ko‘rinishlari: ma’ruzadagi mustaqil ish, seminar va laboratoriya praktikumidagi mustaqil ish, darsdan (auditoriyadan) tashqari mustaqil ish va ularni tashkil qilish metodikasi. Auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil qilishda darslik va o‘quv qo‘llanmalarning roli. Zamonaviy fizika va astronomiya darsligi va o‘quv qo‘llanmasiga bo‘lgan talablar.

Fizika va astronomiyadan ish rejasini tuzish.

Fizika o‘qituvchisining darsga tayyorgarligi. Ish rejasini tuzish uchun dastlabki hujjatlar, yillik, choraklik va har bir dars uchun rejalar tuzish. O‘quvchilarning fizika va astronomiyadan bilim, ko‘nikma va malakalariga bo‘lgan talablar.

Fizika va astronomiyadan bilimlarni baholash va uning mezonlari.

Fizika va astronomiyadan o‘quvchilar bilimi, malakasi va ko‘nikmasini nazorat qilish maqsadi va vazifalari, o‘quvchilar bilimi, malakasi va ko‘nikmasini og‘zaki tekshirish, o‘quvchilar bilimi, malakasi va ko‘nikmasini yozma tekshirish, o‘quvchilar bilimi, malakasi va ko‘nikmasini test usulida tekshirish haqida ma’lumot berish. Baholash mezonlari

Fizikadan frontal laboratoriya ishlari va praktikum ishlarini o‘tish metodikasi.

Fizika va astronomiyadan laboratoriya ishlari va ularni turlari. Frontal va praktikum ishlarini o‘tish metodikasi. Demonstratsion eksperimentga qo‘yiladigan didaktik va metodik talablar. Laboratoriya mashg‘ulotlari va ularning fizika o‘qitishdagi roli.

Fizika va astronomiyadan dars turlari va ularning tuzilishi

Dars va unga qo‘yilgan talablar. Turli tipdagi maktablarda fizika o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy fizika darsi. Umumlashtiruvchi dars. Fizikadan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish turlari va ahamiyati.

«Fizika» kursining boshqa o‘quv predmetlar bilan o‘zaro aloqasi

«Fizika» o‘qitishning strukturasi va mazmuni. Fizika o‘qitishda fanlararo bog‘lanishning roli. Fizika ta’limi asosida integrativ kurslarning yaratilishi.

Fizika va astronomiya o‘qitishda politexnik ta’lim

Kasbiga yo‘naltirish. Fizika va astronomiya darslarida texnika taraqqiyotining ba’zi yo‘nalishlarini o‘rganish. Zamonaviy fizikaning yutuqlari va turmushdagi ahamiyati.

Fizikani aniq fanlar yo‘nalishidagi akademik litseylarda tabaqalashtirib o‘qitish. Fizikadan fakultativ kurs. Fizikani chuqur o‘rganish. Aniq fanlar chuqur o‘qitiladigan umumiy o‘rta maktab va akademik litseylarda fizikaga ajratiladigan soatlar hajmi, mavzular mazmuni, ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizikadan birinchi darsni tashkil qilish. Fizikadan birinchi dars va unga qo‘yilgan talablar. Umumta’lim maktablarida fizika faniga kirish qismi. 7-sinfda fizikadan «Kirish» qismining strukturasi, mazmuni va o‘qitish metodikasining ilmiy-metodik tahlili.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi «Mexanika» bo‘limining strukturasi, “Mexanika” bo‘limini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari va tutgan o‘rni. Kinematika, Dinamika va Statika boblaridagi asosiy tushunchalar, ularning ilmiy-metodik tahlili va shakllantirish metodikasi

“Mexanik tebranish va to‘lqinlar”. “Mexanik tebranish va to‘lqinlar” bobidagi asosiy tushunchalar, ularning ilmiy-metodik tahlili va shakllantirish metodikasi, “Mexanik tebranish va to‘lqinlar” bobini o‘qitishda demonstratsion tajribalardan foydalanishning metodik asoslari

«Molekulyar fizika» va «Termodinamika» bo‘limini o‘qitish. “Molekulyar fizika” va “Termodinamika” bo‘limining strukturasi va asosiy tushunchalarini shakllantirish metodikasining ilmiy-metodik tahlili, “Molekulyar fizika” va “Termodinamika” bo‘limini o‘qitishda demonstratsion tajribalardan foydalanishning metodik asoslari

“Elektrostatika” bo‘limining strukturasi. Elektrostatika bo‘limining mazmuni va fizik tushunchalarini shakllantirish metodikasining ilmiy-metodik tahlili. “O‘zgarmas tok qonunlari” bo‘limini o‘qitish metodikasi. Elektrostatika bo‘limi mavzularini o‘qitishda demonstratsion tajribalardan foydalanishning metodik asoslari

«Elektromagnit hodisalar» bo‘limining strukturasi, mazmuni va uning asosiy fizik tushunchalarini shakllantirish metodikasi. “Moddalarning magnit xossalariga ko‘ra turlari: diamagnetiklar, paramagnetiklar va ferromagnetiklar. Magnit singdiruvchanlik” mavzusini o‘qitish metodikasi

“Turli muhitlarda elektr toki” bo‘limining strukturasi.

“Turli muhitlarda elektr toki” bo‘limining strukturasi mazmuni va fizik tushunchalarini shakllantirish metodikasining ilmiy-metodik tahlili. Metallarda,

gazlarda va suyuqliklarda elektr tokining o‘ziga xos jihatlari va texnikada tutgan o‘rni

«Elektromagnit tebranishlar» bo‘limining strukturasi. “Elektromagnit tebranishlar” bo‘limining mazmuni va uning asosiy fizik tushunchalarini shakllantirish metodikasi. elektromagnit tebranishlar bo‘limi mavzularini o‘qitishda demonstratsion tajribalardan foydalanishning metodik asoslari

“**Yorug‘lik hodisalari” bo‘limi**ning strukturasi, mazmuni va fizik tushunchalarini shakllantirish metodikasining ilmiy-metodik tahlili. “Yorug‘likning qaytishi, sinishi, difraksiyasi va interferensiyasi” mavzusini o‘qitish metodikasi.

“Kvant fizikasi” bo‘limini o‘qitish metodikasi.

“Kvant fizikasi” bo‘limini o‘qitish metodikasi strukturasi, mazmuni va fizik tushunchalarini shakllantirish metodikasining ilmiy-metodik tahlili. Yorug‘likning kvant tabiatini tasdiqlovchi hodisalarni o‘rganish metodikasi

X-XI sinf fizika kursining tuzilishi va ilmiy metodik tahlili

Umumiy o‘rta ta’lim maktabining X-XI sinflarida fizika kursining tuzilishi va ilmiy metodik tahlili va o‘qitish metodikasi. X-XI sinflarda amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tuzilishi va o‘tkazish metodikasi.

11- sinfda “Atom va yadro fizikasi” bo‘limining strukturasi, mazmuni va fizik tushunchalari, auditoriyada va mustaqil ishlash uchun masalalar tanlash, demonstratsion tajribalar va kompyuter animatsiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.

Ta’lim muassasalarida astronomik kuzatuvlarning ahamiyati. Ta’lim muassasalarida o‘quv astronomik kuzatishlarni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi. Teleskoplar va ularning xarakteristikalarini tushuntirish yo‘llarini o‘rgatish. O‘quvchilarni teleskop bilan muomala qilish madaniyatini shakllantirishga o‘rgatish. O‘quv astronomik kuzatishlari tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi. Oriyentir olishni o‘rganish.

Astronomiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi. Astronomiyadan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning turlari. Astronomiyadan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning shakllari. Astronomiyadan to‘garak, konferensiya, kechalar o‘tkazish metodikasi haqida.

Astronomiyadan modellarni namoyish etish.

Osmon sferasining asosiy elementlarini modellar yordamida tushuntirish usullari. Osmon sferasining modelini qo‘llash. Planetar modellarni qo‘llash. Yulduzlar osmonining surilma xaritasini yasash va unda ishlash usullari.

Astronomiya o‘qitishda zamonaviy kompyuter va dasturiy mashg‘ulotlardan foydalanish usullari. Astronomiyani axborot texnologiyalari muhitida o‘qitish metodikasi. Astronomik ta’limga axborot texnologiyalarini joriy etishning metod va vositalari. Astronomiyada qo‘llaniladigan dasturiy mahsulotlar.

Astronomiya va internet.

Mustaqil ta’limni tashkil etish va unga qo‘yiladigan talablar. Astronomiyadan mustaqil ta’lim turlari. Astronomiyada mustaqil ishlarni tashkil qilishga qo‘yiladigan talablar. Astronomiyadan mustaqil ishlar uchun mavzular tanlash.

“Amaliy astronomiya asoslari” bobini o‘qitish metodikasi. “Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalari. Yoritgichlarning sutkalik ko‘rinma harakatlari. Yulduz turkumlari.” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Osmon koordinatalari” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Olam qutbining balandligi va joyning geografik kenglamasi orasidagi bog‘lanish. Turli geografik kenglamalarda osmon sferasining sutkalik ko‘rinma aylanishlari.

“Quyosh sistemasining tuzilishi va osmon jismlarining harakati” bobini o‘qitish metodikasi.

“Quyosh sistemasining tuzilishi” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Sutkalik va sutkalik-gorizontal parallaks. Quyosh sistemasi jismlarigacha bo‘lgan masofalarni aniqlash” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Kepler qonunlari” mavzusini o‘qitish metodikasi.

“Astrofizika va uning tadqiqot metodlari” bobini o‘qitish metodikasi.

“Osmonni elektromagnit to‘lqinli nurlarda o‘rganish – keng to‘lqinli astronomiyaning asosi” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Optik teleskoplar. Radioteleskoplar” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Ulug‘bek rasadxonasining bosh teleskopi”mavzusini o‘qitish metodikasi.

“Yulduzlar” bobini o‘qitish metodikasi.

“Yillik parallaks, yulduzlarning masofalarini aniqlash” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Yulduzlarning rangi va temperaturasi” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Yulduzlarning spektri va spektral sinflari” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Spektr-yorqinlik diagrammasi” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Fizik o‘zgaruvchi yulduzlar: sefeidalar, yangi va o‘ta yangilar” mavzusini o‘qitish metodikasi.

“Koinotning tuzilishi va evolyutsiyasi” bobini o‘qitish metodikasi.

“Galaktikamizning tuzilishi, tarkibi va aylanishi. Diffuz va chang tumanliklar” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Tashqi galaktikalar. Galaktikalarning sinflari va spektrlari” mavzusini o‘qitish metodikasi. “Galaktikalarning Koinotda taqsimlanishi” mavzusini o‘qitish metodikasi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari

- ✓ Fizika tajribalarni o‘tkazishda nasoslardan foydalanish
- ✓ Jismlarning muvozanat shartlarini o‘rganish.
- ✓ Dinamika asoslari va ularning amaliy yo‘nalishini o‘rganish
- ✓ Dinamometr yordamida kuchni o‘lchashni namoyish etish.

- ✓ Mexanik tebranish qonunlarni o‘rganish.
- ✓ Mexanik to‘lqinlar, tovush hodisalarini o‘rganish.
- ✓ Molekulyar kinetik nazariya asoslarini o‘rganish
- ✓ Diffuziya tezligining temperaturaga bog‘ligini o‘rganish.
- ✓ Termodinamika asoslarini o‘rganish
- ✓ Elektrostatikaga doir tajribalarni o‘rganish
- ✓ Elektromagnit induksiya hodisasini o‘rganish.
- ✓ Laboratoriya ishlari bilan tanishish
- ✓ Gorizontga 45^0 burchak ostida otilgan snaryadning boshlang‘ich tezlanishi va ko‘tarilish balandligini aniqlash
- ✓ Jismni qiya tekislik bo‘ylab ko‘tarishdagi FIK ni aniqlash
- ✓ Jismning erkin tushish tezlanishini matematik mayatnik yordamida aniqlash
- ✓ Tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan jismning tezlanishini aniqlash
- ✓ Yuqoridan tushayotgan sharchaning potensial va kinetik energiyasini aniqlash
- ✓ Rezinaning elastiklik modulini aniqlash
- ✓ Havoning nisbiy namligini aniqlash.
- ✓ Muntazam va muntazam bo‘lmagan jismlarning zichligini aniqlash
- ✓ O‘tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulanishini o‘rganish.
- ✓ Turli temperaturali suvlar aralashtirilganda issiqlik miqdorlarini taqqoslash.
- ✓ Shishaning nur sindirish ko‘rsatgichini aniqlash. Yorug‘lik nurning shisha plastinkadan o‘tishini kuzatish orqali nur sindirish ko‘rsatkichini aniqlash.
- ✓ Uy sharoitida fizik tajribalarni qo‘llash usullarini ko‘rsatish.
- ✓ Maktab fizika kursi laboratoriya ishlari uchun asboblar yasash metodlari.

- ✓ Astronomiyada qo‘llaniladigan dasturiy mahsulotlar. Astronomiya va internet.
- ✓ Yulduzlar osmonining surilma xaritalarida ishlash.
- ✓ Yulduzlar osmonining atlaslarida ishlash.
- ✓ Teleskoplarda kuzatuvlarni tashkil qilish.
- ✓ Astronomik kalendarlar va spravochniklarda ishlash.
- ✓ Vaqtni o‘lchash asoslari.
- ✓ Kepler qonunlari va konfiguratsiyalarni tushuntirish usullari.
- ✓ Amaliy astronomiyaning ba’zi masalalarini yechish.
- ✓ Quyosh aktivligini kuzatish.
- ✓ Osmon sferasi va modellarini namoyish etuvchi astronomik uskunalar

yasash va uni qo‘llash.

- ✓ Atlaslardan foydalanib «Spektr – yorqinlik» diagrammasini tuzish.

Seminarlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

- ✓ Fizikadan o‘tkaziladigan nazorat ishlarining turlari va ularni o‘tish metodikasi.
- ✓ Kinematikaning asosiy tushunchalari va ularni shakllantirishni ilmiy-metodik tahlili.
- ✓ Dinamikaning asosiy tushunchalari va qonunlarini kiritish ketma-ketligi va bu boradagi metodik yondashishlar
- ✓ «Temperatura. Gaz qonunlari» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ «Suyuqliklarda elektr toki. Faradey qonunlari. Elektroliz va uning qo‘llanilishi» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ “Magnit maydon” mavzusini ilmiy metodik tahlili va o‘qitish metodikasi
- ✓ «O‘zinduksiya va o‘zaro induksiya. G‘altakning induktivligi» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ «Elektr energiya ishlab chiqarish va uzatish, taqsimlash» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ «Elektromagnit to‘lqinlar, ularni hosil qilish va ularning xossalarini o‘rganish» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ «Linzalar. Linza formulasi. Linzaning optik kuchi. Linzada tasvir yasash» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ «Yorug‘likning qaytish va sinish qonunlari» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ «Nisbiylik nazariyasi elementlari» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ «Yorug‘lik kvantlari. Yorug‘lik ta’sirlari» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ «Radioaktivlikning kashf etilishi». Siljish qoidasi» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ «Olamning yagona fizik manzarasi» mavzusini o‘tish metodikasi.
- ✓ Astronomiya o‘qitish metodikasining predmeti va tadqiqot metodlari.
- ✓ Fizika va astronomiya o‘qitishda qo‘llaniladigan didaktik prinsiplar.
- ✓ Fizika va astronomiyani o‘qitishda empirik va nazariy metodlar.
- ✓ Fizika va astronomiya o‘qitish prinsiplari.
- ✓ Fizika va astronomiya o‘qitish metodlari va ularni sinflarga ajratish.
- ✓ Fizika va astronomiyani muammoli o‘qitish.
- ✓ Fizika va astronomiya o‘qitish shakllari va vositalari.

- ✓ Ta’lim muassasalarida o‘quv astronomik kuzatishlarni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi.
- ✓ Teleskoplar va ularning xarakteristikalarini tushuntirish yo‘llarini o‘rgatish.
- ✓ O‘quv astronomik kuzatishlari tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi. Oriyentir olishni o‘rganish.
- ✓ Astronomiyadan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning turlari.
- ✓ Astronomiyadan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning shakllari.
- ✓ Astronomiyadan to‘garaklar tashkil qilish.
- ✓ Konferensiya, kechalar o‘tkazish metodikasi.
- ✓ Osmon sferasining asosiy elementlarini modellar yordamida tushuntirish usullari.
- ✓ Osmon sferasining modelini qo‘llash. Planetar modellarni qo‘llash.
- ✓ Yulduzlar osmonining surilma xaritasini yasash va unda ishlash usullari.
- ✓ Astronomiyadan nostandart masalalar va topshiriqlar tuzish.
- ✓ Astronomiyani axborot texnologiyalari muhitida o‘qitish metodikasi.
- ✓ Astronomiyadan mustaqil ta’lim turlari. Astronomiyada mustaqil ishlarni tashkil qilishga qo‘yiladigan talablar.
- ✓ Mustaqil ishlar uchun mavzular tanlash.
- ✓ “Amaliy astronomiya asoslari” bobini o‘qitish metodikasi.
- ✓ “Quyosh sistemasining tuzilishi va osmon jismlarining harakati” bobini o‘qitish metodikasi.
- ✓ “Astrofizika va uning tadqiqot metodlari” bobini o‘qitish metodikasi.
- ✓ “Quyosh sistemasi jismlarining fizik tabiati” bobini o‘qitish metodikasi.
- ✓ “Yulduzlar” bobini o‘qitish metodikasi .
- ✓ “Koinotning tuzilishi va evolyutsiyasi” bobini o‘qitish metodikasi

4.9. Fizika va astronomiyadan masalalar yechish metodikasi

Tezlik, zichlik, atmosfera bosimi, Arximed qonuni, tovush hodisalariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Ko‘chish va yo‘l uzunligini aniqlash. Tezlik. Tekis harakatda yo‘l, tezlik va vaqt orasidagi bog‘lanishlarga oid grafiklar chizish. Notekis harakat grafigi.

Erkin tushish. Yuqoriga otilgan jismning ko‘tarilish balandligi va vaqti, gorizontal otilgan jismning gorizontga burchak ostidan otilgan jism harakatiga doir masalalar. Aylanma harakat davri, chastotasi, amplitudasi, burchak tezlik, burchak tezlanish, o‘rtacha va oniy tezlik, tezlanish ga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Nyutonning birinchi qonuni, kuch. Nyutonning ikkinchi va uchinchi qonunlari, jismlarning bir necha kuch ta’siridagi harakati, elastiklik kuchi, ishqalanish kuchiga doir masalalar va ularni yechish metodikasi.

Butun olam tortishish qonuni, Kepler qonunlari, og‘irlik kuchi, vaznsizlik, kosmik tezliklarga doir masalalar va ularni yechish metodikasi.

Ish va quvvat, energiya, kinetik va potensial energiya, mexanik energiyaning saqlanish qonuni, foydali ish koeffitsiyentiga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Gaz va suyuqliklarda bosim, Bernulli tenglamasi, suyuqliklarda ichki ishqalanish mavzulariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Mexanik tebranishlar va to‘lqinlarga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Modda tuzilishining molekulyar – kinetik nazariyasi, molekulalarning massasi va o‘lchami, modda miqdori, ideal gaz, temperatura, gaz molekulalarining harakat tezligiga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Ideal gaz holatining tenglamasi, izojarayonlar, izotermik jarayon, izobarik jarayon, izoxorik jarayon, ichki energiya, termodinamik ish, solishtirma issiqlik sig‘imi, termodinamikaning birinchi qonuniga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Issiqlik jarayonlarining qaytmasligi, termodinamikaning ikkinchi qonuni, Karno sikli, issiqlik mashinalarining FIK, suyuqlikning xossalari, ho‘llash va kapillyarlik hodisalariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Jismlarning zaryadlanishi, elektr zaryad, zaryadlarning o‘zaro ta’siri, Kulon qonuni, elektr maydon, o‘tkazgichlarda elektr zaryadining taqsimlanishi, elektr toki haqida tushuncha, tok manbalari, elektr kuchlanish va uni o‘lchash, tok kuchi va uni o‘lchash mavzulariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni, iste’molchilarni ketma-ket va parallel ulash, elektr sig‘imi, kondensatorlar, kondensatorlarni ketma-ket va parallel ulash, kondensator energiyasi mavzulariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Elektr tokining ishi va quvvati, Joul-Lens qonuni, metallarda elektr toki, suyuqliklarda elektr toki, elektroliz, Faradeyning birinchi qonuni, Faradeyning ikkinchi qonuni mavzulariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Magnit maydonning tokka ta’siri, Amper qonuni, Bio–Savar–Laplas qonunining turli magnit maydonlarni hisoblashga tatbiqi, elektr va magnit maydonlardagi zaryadlangan zarralarning harakati, Lorens kuchi mavzulariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Moddaning magnit xossalari, elektromagnit induksiya hodisasi, o‘zinduksiya . o‘zgaruvchan tok qonunlari, elektromagnit tebranishlar, elektromagnit to‘lqinlar, transformatorlar mavzulariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Yorug‘lik tezligini aniqlash usullari, yorug‘likning elektromagnit tabiati, yorug‘likning qaytish qonunlari, to‘la ichki qaytish, yorug‘likning sinish qonunlari mavzulariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Linzalar, yupqa linza, optik qurilmalar, fotometriya qonunlari, yorug‘lik interferensiyasi mavzulariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Yorug‘lik difraksiyasi, difraksion panjara. yorug‘likning qutblanishi, Malyus qonuni, yorug‘likning dispersiyasi mavzulariga oid masalalar

va ularni yechish metodikasi.

Rezerford tajribasi va atomning yadro modeli, fotoeffekt hodisasi mavzulariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi

Osmon koordinatalar sistemasi mavzusiga doir masalalar yechish metodikasi

Yoritgichlarning kulminatsiyalari va kulminatsiya balandliklarini topishga oid masalalar va ularni yechish metodikasi

Sferik uchburchak va uning asosiy formulalari. Parallaktik uchburchak, koordinatalarni almashtirish formulalariga oid masalalar va ularni yechish metodikasi

Vaqtni o‘lchash. Taqvimlar. Yoritgichlarning chiqish va botish momentlarini hisoblashga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Planetalarning harakati Butun olam tortishish qonuni. Osmon jismlarining massalarini hisoblashga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Oyning harakati va fazalari Quyosh va Oy tutilishlari Teleskoplar va ularning xarakteristikalari mavzusiga doir masalalar va ularni yechish metodikasi

Tortishishning markaziy maydoni. Energiya integrali formulasiga oid masalalar va ularni yechish metodikasi

Yer atrofidagi uchishlar. Orbital manyovrlar. Orbita tekisliklarini burishga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

Nurlanish qonunlari. Yulduziy kattaliklar Yoritkichning yoritilganligiga oid masalalar va ularni yechish metodikasi.

4.10. Maktab laboratoriya ishlari

Maktab fizika kursida laboratoriya ishlari va jihozlar:

Arximed qonuni yordamida jismning zichligini aniqlash. Gidrostatik tortish usulida jismning zichligini aniqlash.

Tekis tezlanuvchan harakatlanayotgan jism tezlanishini aniqlash. Qiya novdan dumalab tushayotgan sharchaning bosib o‘tgan yo‘li va harakat vaqtini o‘lchash orqali tekis tezlanuvchan harakatlanayotgan jism tezlanishni aniqlash

Prujina bikrligini aniqlash. Tayanchga osilgan prujinaga turli xil massali yuklarni osish orqali uning bikrligini aniqlash (2-laboratoriya ishi) (1 soat).

Sirpanish ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash. Gorizontal notekis sirtda jismni tekis harakatlantirib, ikkala sirt uchun sirpanishdagi ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash.

Jismni koʻtarishda va uni shu masofaga gorizontal koʻchirishda bajarilgan ishni hisoblash

Jism kinetik energiyasining uning tezligi va massasiga bogʻliqligini aniqlash

Elektr zanjirini yigʻish, uning turli qismlaridagi tok kuchi va kuchlanishni oʻlchash.

Isteʼmolchi (elektr chirogʻi) ning quvvatini aniqlash.

Om qonunini oʻrganish. Ampermetr va voltmetr yordamida oʻtkazgich (rezistor) qarshiligini tajriba oʻtkazish orqali oʻlchash.

Isteʼmolchilarni ketma-ket (parallel) ulashni oʻrganish. Isteʼmolchilarni ketma-ket (parallel) ulaganda zanjirdagi tok kuchi, kuchlanish va qarshiliklarni oʻlchash.

Eng oddiy elektromagnitni yigʻish va uni ishlashini sinash

Oʻzgarmas tok elektr dvigatelini oʻrganish (modelda)

Transformatorning tuzilishi va ishlashini oʻrganish

Qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sigʻimini aniqlash

Aralashmaning temperaturasini oʻlchash orqali issiqlik balansi tenglamasini tekshirish.

Suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini aniqlash. Suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini tomchi usulida aniqlash.

Shishaning nur sindirish koʻrsatkichini aniqlash. Yorugʻlik nurning shisha plastinkadan oʻtishini kuzatish orqali nur sindirish koʻrsatkichini aniqlash.

Linza yordamida tasvir hosil qilish. Linzaning optik kuchini aniqlash.

Gorizontga qiya otilgan jism harakatini oʻrganish. Gorizontga burchak ostida otilgan jismning uchish uzoqligining otilish burchagiga bogʻliqligini oʻrganish.

Gorizontga qiya otilgan jism harakatini oʻrganish. Gorizontga burchak ostida otilgan jismning uchish uzoqligining otilish burchagiga bogʻliqligini oʻrganish.

Matematik mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishini aniqlash.

Tok manbaining EYK va ichki qarshiligini aniqlash.

Yarim oʻtkazgichli diodning volt-amper xarakteristikasini oʻrganish. Yarim oʻtkazgichli dioddan oʻtuvchi tok kuchining qoʻyilgan kuchlanishga bogʻligini oʻrganish.

Oʻzgaruvchan tok zanjirida rezonans hodisasini oʻrganish.

Oʻzgaruvchan tok zanjirida rezonans hodisasini oʻrganish.

Difraksion panjara yordamida yorug‘lik to‘lqin uzunligini aniqlash. Difraksion panjara yordamida difraksiyani kuzatish va yorug‘lik (lazer nuri) ning to‘lqin uzunligini aniqlash.

Yoritilganlikning yorug‘lik kuchida bog‘liqligi.

4.11. Tanlov fanlari:

4.11.1. Nanotexnologiya

Nanotexnologiyaga kirish.

Nanotexnologiyalar haqida asosiy tushunchalar. Nanotexnologiyalar tarixi haqida.Nanotexnologiya uskunalar.

Yakka nanozarrachalar xossalari.

Yakka nanozarrachalar xossalari.Tarkibiy va fazaviy o‘zgarishlar Panjara davri Fononlar spektri va issiqlik sig‘imi.

Uglerodli nanoklasterlar.

Uglerodli nanoklasterlar Fullerinlar, fullerit va grafen.

Xajmiy nanostrukturali materiallar va ularning fizik xossalari.

Nanosistemalarning elektr va magnit xossalari.

Nanomateriallarning elektr xossasi. Nanoguruxlarning magnit xossasi. Suyuq nanosistema.

Biologik nanostrukturalar.

Makromolekulali va supramolekulali nanostrukturalar fizikasi. Biologik va kimyoviy metodlar yordamida nanomateriallarni olish.

Nanomateriallarni olish.

Nanomateriallarni olish texnologiyalari. Nanomateriallar uchun mexanik kukunlar. Zamonaviy fizik usullar. Zondli texnologiyalar. Nanolitografiya. Tunnelli mikroskoplar.

Nanoelektronika. Nanoelektronika va MEMS. Yarimo‘tkazgichli elektronikaning paydo bolishi va rivojlanishi. Nanotexnologiya asboblari Mikroskoplarning rivojlanish tarixi. Nanostrukturalarni modellashtirish. Mexanosintez va nanofabrik.

Biotexnologiya.

Biotexnologiyaning asosiy tushunchalari. Biotexnologik ishlab chiqarishning umumiy sxemasi.

Nanotibbiyot.

Nanotibbiyotning paydo bo‘lishi. Plazmonoka va plazmon dorilar.

Genli injeneriyaning asosiy mexanizmlari. Inson genomi haqida ba’zi bir ma’lumotlar “Inson genomi” loyihasi natijalarining amaliy ahamiyati.

Nanotizimlar. Nanotizimlar va biotexnologiyalar tabiatga monand. Nanotexnologiyalar va abadiy hayot.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Yakka nanozarrachalar xossalari
- ✓ Tarkibiy va fazaviy o‘zgarishlar.
- ✓ Panjara davri.
- ✓ Fononlar spektri va issiqlik sig‘imi.
- ✓ Kimyoviy boglanish. Nanokimyo obektlari.
- ✓ Uglerodli fullerenlar va nanonaychalar olinishi.
- ✓ Ba’zi nanozarralar noyob xossalariga misollar.
- ✓ Yarimo‘tkazgichli elektronika.
- ✓ Integral mikrosxema.
- ✓ MEMS va NEMS texnologiyalar
- ✓ Nanotexnologiyalar haqida asosiy tushunchalar
- ✓ Tabiatdagi nanoeffektlar: g‘aroyib panjalari
- ✓ Nanotexnologiyalar tarixi haqida.
- ✓ Nanotexnologiyalar va ilm. Nanotexnologiya uskunalari. O‘z-o‘zini yig‘ish
- ✓ Fullerenlar va uglerodli nanonaychalar. Ko‘z yumib bo‘lmaydigan xatarlar
- ✓ Yakka nanozarrachalar xossalari
- ✓ Tarkibiy va fazaviy o‘zgarishlar. Panjara davri.
- ✓ Fononlar spektri va issiqlik sig‘imi.
- ✓ Ixchamlashgan nanokristall moddalar mikrotuzilishi. Submikron kristallik metallar tuzilishining xususiyatlari.
- ✓ O‘tkazuvchan polimerlar. MEMS va NEMS texnologiyalar paydo bolishi va rivojlanishi

4.11.2. Kvant fizikasi

Kvant mexanikaning paydo bo‘lishi

Kvant mexanikaning eksperimental asoslari. Atom tuzilishini tushuntirishda klassik fizikaning qiyinchiliklari.

Absolyut qora jismning nurlanish qonuniyatlari. Absolyut qora jismning nurlanishi. Reley-Jins, Vin va Plank formulalari

Mikrozarralarning korpuskulyar xossalari. Mikrozarralarning korpuskulyar xossalari. Fotoeffekt. Stoletov konunlari. Eynshteyn tenglamasi. Kompton effekti

Atom modellari. Atomning Rezerford-Bor modeli. Frank-Gers tajribasi. Vodorod atomining spektral seriyalari

Zarralarning to‘lqin xossalari. Zarralarning to‘lqin xossalari. De-Broyl gipotezasi va to‘lqini, uni tajribada tasdiqlanishi.

Shryodinger tenglamalari. Statsionar va nostatsionar Shryodinger

tenglamalari. Uzluksizlik tenglamasi. To‘lqin funksiyaning statistik talqini. Geyzenberg noaniqlik munosabatlari.

Potensial o‘ra masalasi. Potensial o‘radagi zarra. Erkin zarra.

Tunnel effekti. Mikrozarralarni potensial baryerdan o‘tishi. Tunnel effekti

Chiziqli garmonik ossillyator. Chiziqli garmonik ossillyator, uning energiyasi va to‘lqin funksiyasi.

Operatorlar va ular ustida amallar. Kvant mexanikaning matematik apparati. Operatorlar va ularning xossalari. Fizik kattaliklarning operatorlari

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Kvant fizikaning vujudga –kelishi issiqlik nurlanishi. Releу-Jins, Vin va Plank formulalari
- ✓ Yorug‘lik kvanti- foton ning moddalarda sochilishi. Kompton effekti
- ✓ Spektrial seriyalar va energetik sathlar
- ✓ Vodorodsimon atomlar uchun Bor modeli. Yadro harakatiga tuzatish. Bor nazariyasining eksperimental tasdig‘i
- ✓ Zarralarning to‘lqin xossalari. De-Broyl formulalari va to‘lqini
- ✓ To‘lqin funksiyaning statistik talqini.
- ✓ Kvant mexanikaning matematik apparati. O‘rtacha qiymat va xususiy funksiya va xususiy qiymat. Operatorlar
- ✓ Vodorod atomining kvant mexanik nazariyasi. Vodorod atomi uchun Shryodinger tenglamasi va uni yechish
- ✓ Eynshteynning nurlanish nazariyasi va uning koeffitsiyenti. Lazerlar
- ✓ Kvant sonlari. Mendeleyev elementlar davriy sistemasi. Geliy atomi va vodorod molekulasi.

4.11.3. Fizikadan nostandart topshiriqlar

Kirish. Nostandart topshiriqlar haqida tushuncha.

Nostandart topshiriqlar haqida tushuncha. Nostanrdart topshiriqlarning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab fizika kursida fizikadan nostandart topshiriqlar. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarda nostandart topshiriqlarning qo‘llanilishi. Nostandart topshiriqlardan yuqori sinf fizika fanida foydalanish.

Nostandart topshiriqlarning turlari. Nostandart masalalar, testlar, keyslar, savollar.

Fizikadan nostandart topshiriqlar tuzish. Fizikadan nostandart topshiriqlar tuzish va ulardan foydalanish. Nostandart topshiriqlar mantiqiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida.

Kinematikaning asosiy tushunchalariga oid nostandart topshiriqlar.

Tezlik, yo‘l, ko‘chish. To‘g‘ri chiziqli tekis harakat. To‘g‘ri chiziqli tekis o‘zgaruvchan harakatga oid nostandart topshiriqlar.

Jismlarning harakatiga oid nostandart topshiriqlar. Erkin tushish. Gorizontal va gorizontga nisbatan qiya otilgan jism harakati, aylana bo‘ylab harakat mavzulariga doir nostandart topshiriqlar.

Dinamika bo‘limiga doir nostandart topshiriqlar. Nyuton qonunlari. Jismlarning bir nechta kuchlar ta’siridagi harakatiga tegishli nostandart topshiriqlar.

Statika bo‘limiga doir nostandart topshiriqlar. Statika elementlariga doir nostandart topshiriqlar.

Molekulyar fizikaga oid nostandart topshiriqlar. Molekulyar-kinetik nazariya. MKN ning asosiy tenglamasi. Ideal gaz qonunlari.

Termodinamika asoslariga doir nostandart topshiriqlar.
Termodinamikaning birinchi qonuni. Ideal gazning bajargan ishi, issiqlik sig‘imi.

Elektrostatikaga doir nostandart topshiriqlar. Elektr zaryadi. Kulon qonuni. Elektr maydon kuchlanganligi. Potensial, zaryadni ko‘chirishda bajarilgan ish. Elektr sig‘imi, kondensatorlar.

Elektromagnitizmga doir nostandart topshiriqlar. Elektr toki. Magnit hodisalar. O‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok qonunlari

Optika bo‘limiga doir nostandart topshiriqlar.

Geometrik optika qonunlari. Difraksiya, interferensiya, dispersiya. Optik asboblar.

Atom va yadro fizikasiga oid nostandart topshiriqlar. Atom modellari. Radioaktivlik. Bor postulatlari.

Kvant fizikasi elementlariga oid nostandart topshiriqlar. Yorug‘likning korpuskulyar-to‘lqin dualizmi. Nurlanish qonunlari. Kompton effekti.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Tezlik, zichlik, atmosfera bosimi, Arximed qonuni, tovush hodisalariga oid nostandart topshiriqlar tuzish. Ko‘chish va yo‘l uzunligini aniqlash, tezlik, tekis harakatda yo‘l, tezlik va vaqt orasidagi bog‘lanishlarga oid nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Erkin tushish, yuqoriga otilgan jismning ko‘tarilish balandligi va vaqti. Gorizontal otilgan jismning gorizontga burchak ostidan otilgan jism harakatiga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Aylanma harakat davri, chastotasi, amplitudasi. Burchak tezlik. Burchak tezlanish. O‘rtacha va oniy tezlik, tezlanishga doir nostandart topshiriqlar tuzish.

- ✓ Nyutonning birinchi qonuni, kuch, Nyutonning ikkinchi va uchinchi qonunlari. Jismlarning bir necha kuch ta’siridagi harakati. Elastiklik kuchi. Ishqalanish kuchiga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Butun olam tortishish qonuni, Kepler qonunlari, og‘irlik kuchi, vaznsizlik, Kosmik tezliklar, Ish va quvvat. Energiya. Kinetik va potensial energiya. Mexanik energiyaning saqlanish qonuni. Foydali ish koeffitsiyentiga oid nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Modda tuzilishining molekulyar – kinetik nazariyasi. Molekulalarning massasi va o‘lchami. Modda miqdori. Ideal gaz. Temperatura. Gaz molekulalarining harakat tezligiga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Ideal gaz holatining tenglamasi. Izojarayonlar. Izotermik jarayon. Izobarik jarayon. Izoxorik jarayon. Ichki energiya. Termodinamik ish. Solishtirma issiqlik sig‘imi. Termodinamikaning birinchi qonuniga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Issiqlik jarayonlarining qaytmasligi. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Karno sikli. Issiqlik mashinalarining FIK i. Suyuqlikning xossalari. Ho‘llash. Kapillyar hodisalariga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Jismlarning zaryadlanishi. Elektr zaryad. Zaryadlarning o‘zaro ta’siri. Kulon qonuni. Elektr maydon. O‘tkazgichlarda elektr zaryadining taqsimlanishi. Tok manbalari. Elektr kuchlanish va uni o‘lchash. Tok kuchi va uni o‘lchashga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni. Iste’molchilarni ketma-ket va parallel ulash. Elektr sig‘imi. Kondensatorlar. Kondensatorlarni ketma-ket va parallel ulash. Kondensator energiyasiga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Elektr va magnit maydonlardagi zaryadlangan zarralarning harakati. Lorens kuchi. Moddaning magnit xossalari. Elektromagnit induksiya hodisasi. O‘zinduksiya va o‘zaro induksiya hodisalariga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Yorug‘lik tezligini aniqlash usullari. Yorug‘likning elektromagnit tabiati. Yorug‘likning qaytish qonunlari. To‘la ichki qaytish. Yorug‘likning sinish qonunlariga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Optik asboblar. Fotometriya qonunlari. Yorug‘lik interferensiyasi. Yorug‘lik difraksiyasiga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Yorug‘likning qutblanishi. Yorug‘likning dispersiyasiga doir nostandart topshiriqlar tuzish.
- ✓ Rezerford tajribasi va atomning yadro modeli. Fotoeffekt hodisasiga doir nostandart topshiriqlar tuzish.

4.11.4. Kosmonavtika asoslari

Kirish. Kosmonavtika predmeti. Uning boshqa fanlar bilan aloqasi. Kosmonavtikaning xalq xo‘jaligi va ilmiy tadqiqot ishlarida qo‘llanilishi.

Raketa harakati qonunlari.

Kosmodinamika asoslari. Raketa harakati qonunlari. Raketaning tuzilishi ning konstruktiv xarakteristikasi**.**

Uchish paytida KA ga ta’sir etuvchi kuchlar.

Uchish paytida KA ga ta’sir etuvchi kuchlar. Vaznsizlik. Tortishishning markaziy maydoni.

Tortishishning markaziy maydonida jism harakati trayektoriyalari. Tortishishning markaziy maydonida jism harakati trayektoriyalari. TMM da jismning ellips, parabola va giperbola bo‘ylab harakat trayektoriyalari.

YSY ni erkin harakat trayektoriyasiga chiqarish. YSY ni erkin harakat trayektoriyasiga chiqarish. Yer atrofi orbitasida aktiv harakat. Zo‘riqish. YSY orbita elementlari.

Sun’iy yo‘ldosh harakatiga Quyosh va Oyning ta’siri. Sun’iy yo‘ldosh harakatiga Quyosh va Oyning ta’siri.

YSY orbitasining Yer atmosferasidagi evolyutsiyasi. YSY orbitasining Yer atmosferasidagi evolyutsiyasi. YSY orbitasining Oy va Quyosh ta’sirida evolyutsiyasi. SYning Yer sirtiga nisbatan harakati.

Orbital manyovrlar. Orbital manyovrlar. Sun’iy yo‘ldoshlarni orbitada yaqinlashtirish va tutashtirish.

Oyga uchish. Oyga uchish. Oyga uchish trayektoriyalarining xususiyatlari.Oyni o‘rganish yuzasidan unga uchirilgan KAlar. “Apollon”ning Oyni o‘rganish bo‘yicha erishgan yutuqlari.

Oy orbitasining elliptikligi. Oy orbitasining elliptikligi. Oyning tortishish kuchi va Oyning o‘lchamlarini hisobga olish. Oyni aylanib o‘tish trayektoriyalari

Planetalarga uchish asoslari. Planetalarga uchishning asosiy xususiyatlari. Yerning ta’sir sferasi ichidagi harakat. KAning Yer ta’sir sferasidan tashqaridagi harakati

Gomon va parabolik orbitalar bo‘ylab uchishlar. Gomon va parabolik orbitalar bo‘ylab uchishlar. KAning mo‘ljallangan planeta ta’sir sferasidagi harakati

Planetalararo perturbatsion manyovrlar. Planetalarga SYlarni uchirish.

YSY va orbital stansiyalar. Boshqariluvchi yo‘ldosh kemalar va orbital stansiyalar. Boshqariluvchi transport kosmik kemalar.

YSY va ularning amaliy ahamiyati. Kosmodromlar. YSY turlari va ularning amaliy ahamiyati Kosmonavtika va uning ekologik muammolari.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Siolkovskiy formulasi. Raketa harakati qonunlariga doir masalalar yechish.
- ✓ Raketaning tuzilishi uning konstruktiv xarakteristikalariga doir masalalar yechish
- ✓ Tortishishning markaziy maydoni. Energiya integrali formulasiga doir masalalar yechish..
- ✓ Tortishishning markaziy maydonida jism harakati trayektoriyalariga doir masalalar yechish.
- ✓ Ta’sir sferasi va jism trayektoriyasini hisoblashning taqribiy metodiga doir masalalar yechish
- ✓ YSY ni erkin harakat trayektoriyasiga chiqarish. Yer atrofi orbitasida aktiv harakatga doir masalalar yechish.
- ✓ Orbital manyovrlarga doir masalalar yechish
- ✓ Orbitaning Yer atmosferasidagi evolyutsiyasi: Oy va Quyoshing tortish ta’siri.
- ✓ SYning Yer sirtiga nisbatan harakatiga doir masalalar yechish
- ✓ Oyga uchish, KAni Oyni sun’iy yo‘ldoshlariga aylantirishga doir masalalar yechish
- ✓ Mo‘ljallangan planetaning ta’sir sferasidagi harakatga doir misollar yechish
- ✓ Gomon va parabolik orbitalar bo‘ylab uchishlarga doir masalalar yechish.
- ✓ Kosmik apparatni Yerga qo‘ndirishga doir masalalar yechish
- ✓ Orbita tekisliklarini burishga doir masalalar yechish.
- ✓ Ikki va uch impulsli manyovrlar yordamida SY ni mo‘ljallangan orbitaga chiqarishga doir masalalar yechish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021.
2. Jumanova F. Va boshqalar. Umumiy pedagogika asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Chirchiq. 2020.
3. Harvey Gould, Jan Tobochnik, Wolfgang Christian. “An introduction to compyuter simulation methods. Applications to Phusical Systems”. Pearson Education, Inc., publishing as Addison Wesley, 2016.
4. Tadjibaev I., Tillaboev K., Otojanova N. Investigation of globular cluster of irregular galaxies //EUREKA: Physics and Engineering.–2023.
5. В.С.Волькенштейн. Умумий физика курсидан масалалар тўплами. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 1996.
6. D. V. Sivuxin. Umumiy fizika kursi. Termodinamika va molekular fizika. Toshkent. O‘qituvchi. 1994.
7. Raymond A. Serway, John W. Jewett “Physics for Scientists and Engineers with Modern physics’’, Brooks/cole 20 Channel Center Street Boston, MA 02210 USA-2013.
8. И.Саттаров, Б.Ғ.Қодиров, У.Ш.Бегимқулов. “Astrofizikadan kompyuterda laboratoriya ishlari”. T., Nizomiy nomidagi TDPU., 2002.
9. M.X.O‘lmasova va boshqalar. Fizikadan praktikum. Mexanika va molekular fizika. Toshkent. O‘qituvchi. 1996.
10. Блесман А. И., Полещенко К. Н., Семенюк Н. А., Теплоухов А. А., Основы проектной деятельности. Учебная пособия. Изд. ОмГТУ. Омск. 2021.
11. M.Mamadazimov. Fizikadan masalalar yechishda predmetlararo aloqata tayanib, o‘quvchilarda fan asoslariga qiziqishlari rivojlantirish. Jurnal “Pedagogik ta’lim. – 2004. № 2
12. N.Sh.Turdievning taxriri ostida. Fizikadan savol va masalalar to‘plami. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-9 sinf o‘quvchilari uchun qo‘llanma. Toshkent. “Niso poligraf”. 2014.-192 b.
13. Nu’monxo‘jaev A., Xudoyberganov A., Tursunmetov K. va boshqalar. Fizika 1 qism. Ma’ruzalar matni T:. 2002 yil 400-b.
14. Olimov B. “Fizikadan 6-9 sinflar uchun laboratoriya ishlarini bajarishda multimediadan foydalanish”. Qo‘llanma 2010.
15. R.Ishmuxamedov, A.Abduqodirova, A.Parpiyev. Ta’limda innovatsion texnolotsiyalar.-Toshkent, Iste’dod. 2008 y. 180-b.
16. С.У.Каменецкий и В.П.Орехов. Методика решения задач по физике в средней школе. Издательство “Ўқитувчи” 1996.
17. Fizika va astronomiyani integrativ bilimlar asosida o‘qitish Jurnal. “Uzluksiz ta’lim”. 2006. – № 1. S. 19-25.

18. Fizikadan davlat ta’lim standartlar. 9-sinf uchun. Toshkent, 2009.

19. X.Inatov. Fizika o‘qitish metodikasi. 2-qism. T:. 2010.

20. X.Inatov. Fizika o‘qitishning nazariy masalalari. – T:. 2010.

21. Fizika. 7-sinf. P.Q.Habibullayev, A.Boydedayev, A.D.Bahromov, S.O.Burxonov. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2017.

22. Fizika. 8-sinf. P.Q.Habibullayev, A.Boydedayev, A.D.Bahromov va b. “O‘qituvchi”. 2019.

23. Fizika. 9-sinf. P.Q. Habibullayev, A. Boydedayev, A.D. Bahromov va b. “G‘afur G‘ulom”. 2019.

24. Fizika. 10-sinf. K.A.Tursunmetov, Sh.N.Usmonov va b. “Ilm-nashr” 2022.

25. Fizika. 11-sinf va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun. N.Sh. Turdiyev, K.A.Tursunmetov, A.G.G‘aniyev va b. “Niso Poligraf”. 2018.

26. Umumiy o‘rta ta’limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent 2017 yil.

27. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2012.

28. A.A. Abduqodirov, Q.M. Karimov, I.A. Yuldoshev. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015.

29. B.Boltayev, A.Azamatov va boshqalar. Microsoft Office dasturlari MS Word // Toshkent, 2014 yil.

30. S.S.Jumanazarov, B.Xaydarov, D.Li, Sh.Qayumov “Kompyuter savodxonligi asoslari”.–T.:2014 y.

31. Aripova S.X.“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2010 y.

32. R.Mavlonova. D.Abdurahimova. “Pedagogik mahorat”. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2012 y.

33. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – T.: “Nihol”, 2013y.

34. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil

35. Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil

36. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiev. “Pedagogika”. – T.: “O‘qituvchi”, 2010 y.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 30 ”sentabrdagi
367-son buyrug‘iga
5.25-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

KIMYO FANINI O‘QITISH HUQUQINI BERISH BO‘YICHA KASBIY VA PEDAGOGIK QAYTA TAYYORLASH KURSINING O‘QUV FANLARI

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar: **D.S. Azamatova** – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Aniq va tabiiy fanlar bo‘limi bosh mutaxassisi.

Sh.B. To‘rayev – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti, Organik kimyo kafedrasi o‘qituvchisi, Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

A.A. Minavvarov – A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti, metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti.

D.M. Hakimova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, **p.f.d.** (DSc), dotsent;

M.T. Ergasheva – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Pedagogika, psixologiya” kafedrasi mudiri p.f.d. (DSc), dotsent.

M.U. Badalova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rektor maslahatchisi.

F.A. Murodova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Tayanch doktorant.

Taqrizchilar: **O.Kulimov** – Xorazm viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, kimyo fanlari nomzodi, dotsent.

O.Berdiyeva – Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

N.A. Yuldasheva – Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.d., DSc, prof.

D. F. Yusupova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim menejmenti kafedrasi mudiri v.b.

Mazkur o‘quv reja va dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 20__-yil _____dagi __-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KURSNING NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:

1. **Tabiiy va ilmiy fanlar**
1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari
1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati
1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena
1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish
1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

2. Pedagogika va psixologiya
2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari
2.2. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar
2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari
2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi
2.5. Umumiy pedagogika
2.6. Umumiy psixologiya
2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

3. Umumkasbiy fanlar
3.1. Noorganik kimyo
3.2. Analitik kimyo
3.3. Organik kimyo
3.4. Fizikaviy va kolloid kimyo
3.5. Polimerlar kimyosi
3.6. Kimyoviy texnologiya
3.7. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy ilmiy savodxonlik
3.8. Kimyo tarixi
3.9. Yashil kimyo
3.10. Tanlov fanlari

4. Ixtisoslik fanlari
4.1. Kimyo o‘qitish metodikasi
4.2. Kimyodan masalalar yechish metodikasi
4.3. Kimyoviy eksperimentlar o‘tkazish metodikasi
4.4. Kimyoni o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish.

1. TABIIY VA ILMIY FANLAR

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

Ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Maktab ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”i, Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

Maktab ta’limi sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar.

Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. Maktablarning lokal hujjatlari (ustav, ichki tartib qoidalar).

O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari.

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. Ta’lim oluvchilarning informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi.

Fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Ta’lim oluvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash texnologiyalari zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasi, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish kabi bilimlarga ega bo‘lishi.

Operatsion tizimlar, ularning turlari bilish faolligini oshirish va mustaqil ta’limini tashkil etish asosida amaliy dasturlardan foydalanib, fanni o‘zlashtirishi.

Amaliy dasturlar asosida darslarni tashkil etish. Microsoft Office dasturlarida fanga oid elektron ishlanma va taqdimotlarni yaratish texnologiyalari.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda, o‘zining kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish, amaliy dasturlar, jumladan MS Ofice dasturlar paketi va ularda ishlash, amaliyotda qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi, interfaol ta’lim, “Case study” yordamida o‘quv jarayonida AKTdan foydalanish fanini o‘qitishda amaliy dasturlardan maqsadli foydalanish. Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda elektron jadval muharrirlaridan, jumladan MS Excel dasturi va uning imkoniyatlaridan samarali

foydalanish. MS Excelda avtomati qo‘shish, avtoto‘ldirish, sodda formulalar, funksiyalar, diagrammalar va filtrlash. Power Point dasturida taqdimotlar yaratish.

Multimediali darslar asosida ta’lim samaradorligini oshirish.

Ta’lim oluvchilarning kasbiy yo‘nalishlaridagi bilish faolligini oshirishda multimedianing asosiy elementlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, audio va video axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

Internet tarmog‘i vositalari. Elektron pochta, ro‘yxatdan o‘tish va fanni o‘qitishda undan foydalanish.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda masofadan o‘qitish texnologiyasidan foydalanib, fanni o‘qitish. Masofaviy ta’limda mahorat darslari, vebinarlarni tashkil etish texnologiyalari. LMS texnologiyasi.

Masofaviy ta’lim. O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.

O‘qituvchining virtual kutubxonasi. O‘quvchining elektron portfoliosi. Fanni o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi.

Internet. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar. Internet turlari va ularning klassifikatsiyasi. Internet xizmatlari va jumladan elektron pochta xizmati.

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

Kirish. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. O‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.

Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining tarixi va rivojlanish tendensiyalari, anatomiya, fiziologiya, yosh fiziologiyasi va gigiyena fanlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining biologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Sog‘lom avlod dasturi va uni targ‘ib qilish. Respublikamizda bolalar salomatligini saqlash yo‘lida olib borilayotgan islohotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena sohasidagi yutuqlar. Fanning vazifalari, o‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Ta’lim jarayonida ratsional usullarni qo‘llashda, har bir o‘quvchiga individual yondashishda pedagoglarning bola organizmining o‘ziga xos o‘sish va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimga ega bo‘lishlari. Yoshlik davrlari va yoshga oid o‘zgarishlari haqida tushuncha. Hujayraning umumiy tuzilishi. Irsiy kasalliklar va ularning turlari.

Nerv tizimining yosh xususiyatlari.

Nerv tizimining ahamiyati va umumiy tuzilishi shakli. Nerv markazlari haqida tushuncha. Nerv markazlarining fiziologik xususiyatlari: qo‘zg‘alish va tormozlanish, taassurotlarni summatsiyalash, kislorod tanqisligiga chidamsizlik, irradiatsiya, induksiya, A.A. Uxtomskiyning “Dominanta qonuni”. Markaziy nerv tizimi bo‘limlarining yoshga oid xususiyatlari. Vegetativ nerv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Organizm reflektor faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatini tekshirish usullari. Shartli va shartsiz reflekslar haqida tushuncha. Ularning bir-biridan farqi. Shartli reflekslarning hosil bolishidagi shart-sharoitlar. Dinamik stereotip, nutq funksiyasi va uning fiziologik asosi. Bolalar oliy nerv faoliyatining tiplari va ularning plastikligi.

Nerv tizimi gigiyenasi. Bolalar va o‘smirlarning ishchanlik qobiliyati, charchash va o‘ta charchash haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiya psixogigiyeniyasi. Nevroz (asabiylik). Asab buzilishini oldini olish.

Analizatorlarning yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Analizatorlarning umumiy tuzilishi va ahamiyati. Analizatorlarning turlari: ko‘rish analizatorining yosh xususiyatlari. Ko‘rish qobiliyatining pasayishini oldini olish. Eshitish analizatori. Bolalarda eshitish organining rivojlanishi. Eshitish gigiyenasi. Muvozanat apparati.

Ichki sekretsiya bezlarining yosh xususiyatlari.

Organizmdagi fiziologik jarayonlarining neyron-endokrin sistemasi orqali boshqarilishi. Ichki sekretsiya bezlari haqida tushuncha. Ichki sekretsiya bezlarining joylashuvi. Garmonlar, ularning organizmdagi vazifasi. Organizmning gumoral boshqaruvida garmonlarning tutgan o‘rni. Garmon va stress. Garmonlar va jinsiy yetilish. Ichki sekretsiya bezlarining yoshga oid xususiyatlari.

Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Tayanch-harakat apparatining ahamiyati va vazifasi. Odam skeletining umumiy tuzilishi va yosh xususiyatlari. Suyak tuzilishining yosh xususiyatlari. Umurtqa pog‘onasi va ularning egriliklari, egriliklarning shakllanishi. Bosh, gavda va qol-oyoq skeletining o‘sishi va rivojlanishi. Muskullarning dinamik va statik ishi. Turli yosh davrlarida mushaklar kuchi, tezligi, chaqqonligi, chidamliligi, va massasining o‘zgarishi. Charchash, uning fiziologik mexanizmi. Skolioz, uning kelib chiqish sabablari va uni oldini olish.

Ovqat hazm qilish tizimining yosh xususiyatlari va ovqatlanish gigiyenasi.

Og‘iz boshligida, me’da va ichakda ovqat hazm bo‘lishining xususiyatlari. Jigarning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Moddalar va energiya almashinuvining yosh xususiyatlari. Bola o‘sishi va rivojlanishida suv, mineral tuzlar va vitaminlarning ahamiyati. Turli yosh davrlarda bolalar ovqatlanishining o‘ziga xosligi. Ovqatlanish gigiyenasi.

Qon va qon aylanish tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Qonning ahamiyati. Qon tarkibi, uning vazifalari. Ularning yosh xususiyatlari. Qon aylanishining ahamiyati. Katta va kichik qon aylanish doirasi. Ona qornida homilaning qon aylanishi. Yurakning funksiyalari va yosh xususiyatlari. Puls va qon bosimi. Ularning yosh xususiyatlari.

Nafas organlarining yosh xususiyatlari va gigiyenasi. Nafas olishning ahamiyati. Nafas tizimining vazifasi. Tashqi va ichki nafas olish. O‘pkaning tiriklik sig‘imi. O‘pka ventilyatsiyasi. Uning yoshga, jismoniy mashqqa bog‘liqligi. Muskul ishi vaqtida nafas olish. Nafas gigiyenasi.

Ayiruv tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Ayiruv jarayonlarining ahamiyati. Buyraklar tuzilishi va ularni yosh xususiyatlari. Siydik hosil bo‘lish mexanizmi. Turli yoshdagi bolalar sutkalik siydik miqdori. Bolalarda tunda siydik tuta olmaslik, uning kelib chiqish sabablari.

Salomatlik haqida tushuncha. Bolalar va o‘smirlar salomatlik holati. Kasalliklar. Sog‘liq holatining maktab o‘quvchisining ishchanlik qobiliyatiga ta’siri. O‘tkir va surunkali kasalliklar. Kasalliklarni tarqalish manbalari. Tug‘ma va hayot davomida orttirilgan immunitet. Ta’lim va tarbiyaning tinglovchi sog‘ligiga ta’siri.

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

O‘zbekiston Respublikasida atrof muhitni muhofaza qilish masalasida amalga oshirilayotgan isloxotlar. Atrof-muhit tushunchasi va asosiy komponentlari (havo, suv, tuproq, biologik xilma-xillik) haqida tushunchalar berish.

Inson faoliyatining ekologiyaga ta’siri (sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi). Ekologik inqirozlar va ularning oqibatlari (global isish, cho‘llanish, deforestatsiya).

Yashil iqtisodiyot nima? Uning asosiy tamoyillari. Innovatsion yechimlar orqali ekologik muammolarni hal qilish. Quyosh va shamol energiyasi, bioyoqilg‘i, energiya samaradorligi. Oqilona suv va chiqindi boshqaruvi.

Ekologik madaniyat. Fuqaroning ekologik xatti-harakatlari (maishiy chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, transportdan foydalanish odatlari). Jamiyatdagi ekologik tashabbuslar (ko‘ngillilar harakati, daraxt ekish, eko-marafonlar). Aholi o‘rtasida va jamoalarda ekologik faollikni oshirish yo‘llari.

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish. Qonunlar, jazolar va profilaktika choralar.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning biologik, psixologik va ijtimoiy oqibatlari. Giyohvand moddalarni sog‘likka salbiy ta’sirlari. Davolash, reabilitatsiya va jamiyatga moslashuv, davolash usullari (narkologik xizmatlar).

Dunyo va O‘zbekistonda giyohvand moddalar tarqalishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

Milliy strategiyada belgilangan asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi (giyohvand moddalar aylanmasi, tarqatish, saqlash va iste’mol qilish bo‘yicha).

2. PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

O‘quvchilarni baholash nazariyasi. Baholash, baholashning maqsadi va vazifalari. Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot). Baholash turlari (diagnostik, formativ, summativ). Baholash tamoyillari va mezonlari.

O‘quvchilarning sinfdagi faoliyatini baholash. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalari.

O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholash. O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari(tanqidiy, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasi.

2.2. Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar

Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar. Hozirgi kunda jahonda va O‘zbekiston ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan ilg‘or xorijiy tajribalar haqida umumiy ma’lumot. “5E” modeli haqida tushuncha. “4K” tizimi. XXI asr ko‘nikmalari.

“Lesson Study” metodikasining mohiyati. Sharq va G‘arb mamlakatlarida “Lesson Study” yondashuvining paydo bo‘lishi va hozirgi kundagi ahamiyati. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Lesson Study” yondashuvidan foydalanishning amaliy talqini. Boshlang‘ich ta’limda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. 10–11- sinflarda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish istiqbollari. Raqamli ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt.

Ta’limda IT va raqamli platformalardan foydalanish. Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari. Inklyuziv ta’limni joriy etishdagi afzallik va kamchiliklar. Ta’limda kreativlikdan foydalanish. Ta’limda kreativlikning amaliy talqini. O‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv.

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi modernizatsiya jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish muammosi. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv fanini o‘rganishda tinglovchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning

mazmuni va mohiyati. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish. Pedagogik kompetentlikka oid akmeologik yondashuvlar.

Metodik kompetentlik. Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalarini shakllantirish. Mashg‘ulotlarni metodik jihatdan tashkil etish, bilimlarni oqilona baholay olish. Ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish. O‘z kasb mahoratini tinmay oshirib borish.

O‘qituvchi kasbiga qo‘yilgan talablar. Pedagogik kreativlik. Interfaol o‘qitish metodlari asosida tinglovchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi. Pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlari. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari va shartlari. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo‘l va shakllari. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari.

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash. Tarbiya tushunchasini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni. Buyuk allomalarning tarbiya borasidagi qarashlari. Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari.

Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. Maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyati. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati.

Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash. Insonlar ongida ma’naviy va o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish usullari. Shaxsning ma’naviy yuksalishida milliy qadriyatlarning o‘rni.

Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish.

Intellekt so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Insonning aqliy qobiliyatini rivojlantirish usullari. Shaxsning voqelikka munosabatlarini o‘rganish. Boshqarish faoliyati. Fikrlash, o‘qish-o‘rganish qobiliyati. Insonning dunyoni bilish va ijtimoiy

tajribasini qabul qilish qobiliyati. Oqilona ish bajarishni o‘rganish. Voqea-hodisalarni oldindan bilish.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish. Tarbiyaga yo‘naltirilgan vaziyatlarni asoslash. O‘quv munozaralarini tizimli tarzda tashkil etish. O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga ongli ravishda yondashish. O‘quvchilar bilimlarini mustahkamlab axborotlarni egallashga o‘rgatish usullari. O‘quvchilarda muammolarni bilish va ular haqida fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatish usullari.

Tarbiya texnologiyalari.

Tarbiya texnologiyasi haqida tushuncha. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish. O‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish usullari. Tarbiya texnologiyasi rejalashtirish va unga erishish usullari. Tarbiya texnologiyasini modellashtirish. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini tashkil etish usullari. Tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash usullari.

Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari. Tarbiyaning maqsadi – shaxsning rivojlanishini ta’minlashdan iborat ekanligi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayonini tashkil etish mazmuni. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuvning mohiyati. Pedagogning asosiy vazifasi. Jamiyatda shaxs tarbiyasini shakllantirish usullari.

Tarbiya tizimida innovatsiyalar.

Tarbiya tizimining yangilanishida innovatsiyalarning o‘rni. Innovatsiyalarning amalga oshirish usullari. Innovatsiyani tashkil topish jarayonini mazmuni. Innovatsiyani falsafiy-metodologik (o‘qitish maqsadlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani nazariy (o‘qitish mazmuni, o‘qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani texnologik (o‘qitish jarayoni qoidalar tamoyili) asoslarini o‘rganish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Zamonaviy maktab rahbarining vazifasi. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish usullari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga o‘quvchilarni jalb qilish usullari. O‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish usullari. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.

Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari. Tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar tarbiyasidagi o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maktab rejasi bilan bog‘liqligini o‘rganish. Sinf rahbarlari va ota-onalar qo‘mitasi hamkorligi ishini o‘rganish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ishlarini o‘rganish. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishini asoslab berish.

Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash.

Jamoa so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoa tushunchasining ikki xil ma’noda ishlatilish mazmuni. Jamoani tashkil etish usullari. O‘quvchilar jamoasini rivojlantirish usullari. O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xos xususiyatlari. Jamoada shaxsni tarbiyalash usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari. Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o‘rni.

Sinfda sog‘lom muhitini yaratish. O‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va shakllantirish usullari. Sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari. Sinfda do‘stona munosabatlarni shakllantirish usullari. Ota-ona hamda o‘quvchilarning ma’naviy-madaniy qiziqishlari rivojlantirish usullari. Sinfda ta’lim-tarbiya samadorligini oshirish usullari.

Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiyaning zamonaviy usullari. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni va vositalari. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Jamiyatning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishiga, mehnat qilishiga o‘rgatish usullari.

O‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda sinf rahbariga qo‘yilgan talablar.

O‘quvchilarni o‘rganish usullari. O‘quvchilarga tarbiya va ta’lim berish usullari. O‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etish usullari. O‘quvchilarning o‘quv samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishga ijodiy yondashishni o‘rganish usullari. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishiga qo‘yilgan talablar.

Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.

O‘quvchilar bilim sifatini oshirishda sinfda intizomlilikni mustahkamlash. Sinf rahbari ishini rejalashtirish.

Maktabda to‘garak ishlarini tashkil etish.

To‘garak a’zolarining bilim sifatini nazorat qilish. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan Davlat talablarining mazmuni. To‘garak ishlarida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullari. O‘quvchilarni to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilish usullari.

O‘quvchilarning qiziqish va xohishlariga qarab to‘garak yo‘nalishlarini tanlash. To‘garak a’zolarining to‘laqonli bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Maktabda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda sinf rahbarining vazifalari. Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. O‘quvchilar ongida ma’naviyatni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarning o‘rni.

2.5. Umumiy pedagogika

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida qonun”i. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta’lim. Pedagogikaning ilmiy asoslari. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi.

Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.

Pedagogika fanining metodologiyasi, metodologik madaniyat haqida tushuncha. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limi.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: muhit, irsiyat, ta’lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari.

Didaktika – ta’lim nazariyasi.

Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma(model)lari. Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Ta’lim texnologiyasi. Innovatsion pedagogika mazmuni. Innovatsion jarayonning rivojlanishiga umumiy yo‘nalish. Ta’limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish. Muammoli ta’lim metodlari.

Ta’limning mazmuni.

O‘zbekiston maktablaridagi ta’limning mazmuni. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti. O‘quv rejasi, dasturlari va darsliklar. Darslik va o‘quv faoliyatini tashkil qilish.

O‘qitish jarayoni.

O‘quv jarayonini tashkil etishning shakllari. Ta’limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi. Dars – maktabda o‘quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli. Darsga qo‘yiladigan talablar. Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari. Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar.

O‘qitish metodlari.

O‘qitish metodlarining nazariy asoslari. O‘qitish metodlarining tasnifi. O‘qitishning og‘zaki metodlari. Yangi material ustida ishlash. O‘tilgan material ustida ishlash va yangi materialni o‘rganishga tayyorlanish. O‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari. Reproduktiv ta’limdan amaliy ta’limga o‘tish. O‘qitishning amaliy metodlari.

Kreativ ta’lim.

Kreativ ta’limga zamonaviy yondashish. Kreativlik va uning tashxis etilishi**.** Kreativ dars tuzilishiga doir metodik tavsiyalar. Kreativ dars yo‘nalishlarining mazmuni va psixologik asosi.

Tarbiya nazariyasi va usullari.

Tarbiya jarayoni mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. Tarbiya usullari. Tarbiya usullari haqida umumiy tushuncha. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashi va taffakurni shakllantirish. Shaxsning ilmiy dunyoqarash shakllantirishda allomalarimiz fikrlari. Fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. O‘quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasining maqsadi, vazifalari va metodlari. Huquqiy tarbiya mazmun mohiyati. Mehnat tarbiyasi. Iqtisodiy tarbiya. Ekologik tarbiya. Nafosat tarbiyasi. Jismoniy tarbiya. Oila tarbiyasi. Oilada bola tarbiyasida ota-onaning o‘rni.

Pedagogika tarixining maqsad va vazifasi. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

Pedagogika tarixi faning mazmun mohiyati. Eng qadimgi davrlardan VII-IX asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. “Avesto” eng qadimgi yozma maorifi yodgorlik sifatida. Pedagogika tarixi ijtimoiy, nazariy va amaliy fan ekanligi. Qadimgi Gretsiyada ta’lim tarbiya.

VII asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrda maktab, tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.

Islom dini g‘oyalarining ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablarida ta’lim-tarbiya mazmuni. Hadis ilmining paydo bo‘lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy, Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.

Sharq uyg‘onish davri va unda ta’lim-tarbiya masalalari.

Sharq Uyg‘onish davrida pedagogik fikr taraqqiyoti. Sharq uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyatlari. Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinoning ta’limiy-axloqiy qarashlari. Mutaffakirlarning hayoti, faoliyati, ijtimoiy falsafiy qarashlari, yaratgan asarlari va undagi inson kamolotiga oid g‘oyalar.

Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar.

Ta’limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo‘lishi. Yusuf Xos Hojib. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida yetuk insonni kamolga etkazish masalalari.

XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogikaning yaratilishi. Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Boburning ta’limiy-tarbiyaviy va ma’rifiy-axloqiy qarashlari. Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ta’limiy-axloqiy qarashlari.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ta’lim tizimi. Turkiston o‘lkasidagi ma’rifatparvar olim va shoirlarining hayoti, ma’naviy merosining tarbiyaviy ahamiyati. Dastlabki maktablarning vujudga kelishi ularning mazmuni. Jadidlik oqimi namoyondalari: Ismoil Gaspirali, Munavvarqori, A.Fitrat, M.Behbudiy va A.Avloniylarning hayoti va ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari.

Chet el va Rossiyadagi ilg‘or pedagogik g‘oyalar. G‘arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti.

Yan Amos Komenskiy, Adolf Disterveg, Konstantin Dmitrievich Ushinskiylarning pedagogik qarashlari.

Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, nazariy asoslari. O‘qituvchi muomalasida pedagogik mahoratning o‘rni. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati.

Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi.

Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo‘llari. Pedagogik texnika. Pedagogik texnikani egallash yo‘llari.

2.6. Umumiy psixologiya

Umumiy psixologiyaning predmeti.

Umumiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, umumiy psixologiya fanining shakllanish tarixi, umumiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Umumiy psixologiyaning amaliy asoslari, o‘quv fanlari tizimida umumiy psixologiya, umumiy psixologiya mutaxassislik fani sifatida.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tadqiqot metodlari.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va prinsiplari. Determinizm prinsipi, ong va faoliyat birligi prinsipi, ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi. Aniq faoliyatni o‘rganuvchi psixologiya sohalari, rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi psixologiya sohalari, shaxs va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganuvchi psixologiya sohalari. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari va ularning tahlili, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so‘rovnoma metodi, faoliyat

mahsulini o‘rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi, psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.

Psixika va ongning taraqqiyoti.

Psixika haqida tushuncha, psixikaning oriyentirovka biluvchanlik va boshqaruvchalik vazifasi. Psixik aks ettirish – obyektiv olamning subyektiv obrazi ekanligi. Bosh miya va psixika. Odam psixikasining paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti, seskanuvchanlik va sezuvchanlik, tropizmlarning mohiyati, instinkt tushunchasining mazmuni, ko‘nikma va malakalar, hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari, psixikaning muhit va a’zolar tuzilishiga bog‘liqligi. Psixika va ong munosabati. Ongning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib etmagan harakatlar) holatlari. Odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi.

Faoliyat va motivatsiya.

Faoliyat haqida tushuncha, faoliyatning psixologik tahlili. Faoliyatning tuzilishi, faoliyatning o‘ziga xosligi, faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizasiyasi. Faoliyatning o‘zlashtirilishi va malakalarni egallash. Faoliyatning asosiy turlari, o‘yin, ta’lim va mehnat faoliyati mazmuni. A.N. Leontev boyicha faoliyat tuzilishi. Faoliyat va motivlar. Motivatsiya va emotsiya tushunchasining mazmuni, motivatsiya sohalari, Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiya muammosi. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari, motiv muammosiga doir mulohazalar. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning ahamiyati.

Shaxsning hissiy-emotsional sohasi.

Emotsiya va hissiyot haqida tushuncha. His-tuyg‘ularning vazifalari. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Yuksak hislar. Hissiy ton, affekt, stress, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar. Hissiyotning o‘ziga xosligi. Hissiyotni boshqarish.

Shaxs haqida tushuncha va shaxsning o‘z-o‘zini anglashi.

Shaxs haqida tushuncha, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchasining mazmuni. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxs psixologik strukturasi. Biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, konstitutsion nazariya, rollar nazariyasi mazmuni. Dunyoqarash va e’tiqod. Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi. “Men” konsepsiya va uning rivojlanishi. Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi va baholashiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxsning o‘ziga nisbatan ishonchini yuzaga keltirish va rivojlantirish. Shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarishi muammosi. Milliy ong va milliy o‘zini-o‘zi anglash.

Shaxsning bilish jarayonlari.

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari. Sezgilar haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, ekstroretseptiv sezgilar. Idrok haqida tushuncha. Idrokning

nerv-fiziologik asoslari. Idrokning murakkabligi. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik. Idrokning xossalari, idrokda obyekt va fon, appersepsiya, idrokning konstantligi. Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. Xotira turlari, faoliyatga koʻra xotira turlari, maqsadiga koʻra xotira turlari, muddatiga koʻra xotira turlari. Xayol haqida tushuncha. Xayol jarayonlari. Xayol turlari, tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol, orzu, tush koʻrish va shirin xayol. Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, tafakkur sifatlari, tafakkurning mazmundorligi. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi.

Xarakter, temperament va qobiliyatlarni bilishning ahamiyati.

Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari. Xarakter tipologiyasi, xarakter tarkibi, xarakterning shakllanishi, xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari. Xarakter borasidagi ta'limotlar. Xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bogʻliqligi. Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tarixi. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari. Faoliyatning individual uslubi va temperament. Temperamentni tarbiyalash. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo boʻlishi va tuzilishi.

Yosh va pedagogik psixologiyaning maqsad va vazifasi.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy sohalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh va pedagogik psixologiyadagi ilmiy maktablar. Yosh va pedagogik psixologiya fanining oʻqituvchi faoliyatida tutgan oʻrni.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va soʻrovnoma metodi, faoliyat mahsulini oʻrganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi.

Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi.

Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning oʻziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar). Yosh davrlarining yetakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin). Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi.

Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar.

Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug‘ilish davri inqirozi. “Tirilish kompleksi” haqida. Go‘daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati. Bir yosh inqirozi haqida. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.

Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida (o‘yin faoliyatining mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari, o‘yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta’siri muammosi). Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. Maktabgacha yosh davrida emotsional-ifodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy emotsiyalarning shakllanishi. Maktabgacha yosh davrida motivatsion sohadagi o‘zgarishlar. 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv-affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida bolaning o‘zi haqidagi tasavvurlari va xulq-atvori. Pedagogik baho va kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish aloqasining psixologik mexanizmlari. Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari

O‘smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

O‘smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. O‘smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari.O‘smirlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivatsiyasi, o‘quv faoliyati motivatsiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari). O‘smirlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi muammosi.

Ilk o‘spirinlik yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Ilk o‘spirinlik davri psixologiyasiga umumiy tavsif. Ilk o‘spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Ilk o‘spirinlik davrida o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi. Ilk o‘spirinlik davrida o‘quv-kasbiy faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi. Ilk o‘spirinlikda kasbga yo‘naltirishning psixologik muammolari.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mazmuni va ahamiyati. Maktab psixologining ish funksiyalari. Pedagogik faoliyatda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish texnologiyalari. Yosh psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish. Pedagog birlamchi psixologik yordam subyekti sifatida.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

Oilaviy hayotga psixologik tayyorlikning mohiyati. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqida umumiy tushuncha. Oila funksiyalari. Oilada shaxslar-aro munosabatlar. Shaxs psixik taraqqiyotida oilaviy muhitning roli.

O‘qituvchi psixologiyasi.

Jamiyatda o‘qituvchining tutgan o‘rni va uning vazifalari. O‘qituvchiga shaxsiga qo‘yiladigan talablar. O‘qituvchining kasbiga xos xislatlari. O‘qituvchi o‘quvchilarning hayot va faoliyati tashkilotchisi ekanligi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishning psixologik muammolari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot. Pedagogik ijodiyot va uning mohiyati. O‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va pedagogik jamoadagi psixologik iqlim. Bo‘lg‘usi o‘qituvchi shaxsi sifatlari.

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

Ta’limga texnologik yondashuv.

Ta’limga texnologik yondashuv tushunchasi. Ta’lim texnologiyasining kategoriyalari, tamoyillari, tarkibiy qismlari, tasnifi, asosiy jihatlari. Ta’lim texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari. An’anaviy ta’limning texnologik yondashuvga asoslangan ta’limdan farqli jihatlari. Sharqning buyuk qomusiy olimlari asarlarida maktab va madrasalarda insonni aqliy kamolotga etkazishda o‘qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanish haqida.

Ta’limda innovatsion jarayonlar.

Ta’lim jarayonidagi innovatsiya. Pedagogik jarayonlarga innovatsiyalarni tatbiq etish. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mazmuni, maqsadi va amaliyotga joriy etish zarurligi. Pedagogik texnologiyalar – innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismi sifatida. Texnologik yondashuv ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilganligi. Interfaol va faol ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va qo‘llanilish hollari.

Ta’lim texnologiyalari ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda charxpalak**,** blits-so‘rov, 3x4 metodi va muammoli savollarni qo‘llash.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati.

O‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi. Innovatsion faoliyat tushunchasi. O‘qituvining innovatsion faoliyati tuzilmasi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarish. O‘qituvchining yangi axborotlar bilan ishlash madaniyati.

Ta’lim vositalari. Grafik organayzerlar texnikasi.

Ta’lim vositalari va ularning ta’lim texnologiyalaridagi o‘rni. Grafik organayzerlar. Ularning turlari. Ta’lim jarayonida qo‘llashning maqsad va vazifasi. Grafik organayzerlar texnikasi haqida amaliy ko‘nikmalar. Noan’anaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

O‘quv jarayonida muammoli o‘qitish texnologiyalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Muammoli o‘qitish. Muammoli o‘qitish mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari. Muammoli vaziyat belgilari, ularni anglab olish va hal etish yo‘llari. Dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari. Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchiga hamda muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarishga qo‘yiladigan talablar. Muammoli ta’limning o‘quvchilar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishdagi ahamiyati. Muammoli o‘qitish texnologiyalari va ularni tashkil etish bosqichlari.

Ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Interfaol ta’lim, uning mazmuni, mohiyati, mezonlari va turlari. Ta’lim va tarbiya jarayonida interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari. Interfaol mashg‘ulot samaradorligini belgilashning pedagogik-psixologik asoslari. Interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni. Interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari, ularni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash.

Ta’lim jarayonida o‘yinl**i** texnologiyalardan foydalanish.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish usullari. Uning mazmuni va mohiyati. O‘yinli texnologiyalarning ijtimoiy-psixologik muammolari. O‘yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari. O‘yinli texnologiyalarning funksiyalari.

3. UMUMKASBIY FANLAR

3.1. Noorganik kimyo

Kimyo fani rivojlanishining asosiy bosqichlari. Materiya va uning shakllari, xossalari. Kimyoning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati. O‘zbekistonda kimyo fani va sanoati mustaqillik-yillarida.

Kimyoning asosiy tushunchalari. Atom. Molekula. Kimyoviy element. Izotop va izobarlar. Oddiy va murakkab modda. Noorganik birikmalar asosiy turlarining strukturasi. Atom, ion, metall panjaralar. Asosiy stexiometrik qonunlar. Stexeometrik qonunlarning molekulyar va nomolekulyar moddalarga qo‘llanilishi.

Atom tuzilishi haqidagi ta’limotlarning rivojlanish tarixi. Bor nazariyasi. Atom tuzilishining to‘lqin nazariyasi. Elektronning ikki xil tabiatga ega ekanligi. Noaniqlik prinsipi. Elektron buluti haqidagi tushuncha. Elektron bulutining zichligi. Vodorod atomining asosiy va qo‘zg‘algan holatida yadro atrofida elektron buluti zichligining radial taqsimlanishi. Atom radiusi haqidagi tushuncha. Atomdagi elektron holatlarini tavsiflovchi kvant sonlar. Energetik holat. Elektron qobiqcha, atom orbital (AO). Pauli prinsipi va elektron qobiqlarning sig‘imi. Xund qoidasi va atom orbitalarning to‘lib borish tartibi. Elementlar atomlarining elektron qobiqchalarining tuzilishi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Davriy qonun. Davriy sistema. s-, p-, d-, f-elementlar va ularning davriy sistemadagi o‘rni. Guruhlar. Davrlar. Asosiy va yonaki guruhchalar, atom xossalarining davriyligi. Orbital va effektiv radiuslar. Atom va ion radiuslar, ionlanish potensiallar qiymatlari, elektronga moyillik va elektromanfiylik energiyalarining davr va guruhchalar bo‘yicha o‘zgarishi; d- va f-siqilishlari. Kaynosimmetrik elementlar. Elementlar, oddiy moddalar va murakkab birikmalarning kimyoviy xossalaridagi davriylik. Metallar va metallmaslar kimyoviy faoliyatining davr va guruhlarda o‘zgarish qonuniyati. Klassik, ichki va ikkilamchi davriylik.

Valentlik va kimyoviy bog‘lanish tushunchalarining rivojlanishi. Kimyoviy bog‘ning hosil bo‘lish mexanizmlari. Kimyoviy bog‘ning asosiy turlari; kovalent (qutbsiz va qutbli), ion, metall bog‘lar. Kovalent va ion bog‘lar hosil bo‘lish mexanizmining asosiy holatlari. Donor-akseptor mexanizmi bo‘yicha bog‘ hosil bo‘lishi.

Valent bog‘ (VB) nazariyasining asosiy holatlari. Donor-akseptor mexanizmi bo‘yicha bog‘ hosil bo‘lishi. Valent bog‘lar nazariyasi asosida valentlik. Kovalent bog‘ning hosil bo‘lish mexanizmini kvant mexanik asosida tushuntirish. Kimyoviy bog‘ning miqdoriy tavsiflari. Bog‘ning energiyasi. Bog‘ uzunligi. Valent burchagi. Bog‘ning ionlik darajasi, dipol momenti. Doimiy va o‘zgaruvchan valentlik. Birikmalardagi elementlar atomlarining valentligi va oksidlanish darajasi. Atom orbitalarning gibridlanish konsepsiyasi va molekulalar hamda ionlarning fazoviy tuzilishi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Kimyoviy reaksiyaning sodir bo‘lish va reaksiyaning oxirigacha borish imkoniyatlarini aniqlash. Kimyoviy reaksiyalarni amalga oshirish imkoniyatlari, gomogen va geterogen reaksiyalar. Kimyoviy reaksiyaning tezligi haqida tushuncha. Massalar ta’siri qonuni. Kimyoviy reaksiyaning tezligiga ta’sir etuvchi omillar. Kimyoviy reaksiya tezligining konstantasi. Reaksiyalarning tartibi va molekulyarligi. Kimyoviy reaksiya tezligiga temperatura va katalizatorlarning ta’siri.

Aktivlanish energiyasi va uning fizik ma’nosi; uning qiymatlarini tajriba yo‘li bilan aniqlash. Katalizatorni to‘g‘ri va teskari reaksiyalarga ta’siri. Qaytar va qaytmas kimyoviy reaksiyalar. Kimyoviy muvozanat. Kimyoviy muvozanat konstantasi. Kimyoviy muvozanatning siljishi Le-Shatele prinsipi. Kimyoviy sistema. Sistemaning ichki energiyasi. Entalpiya haqida tushuncha.

Moddalarning hosil bo‘lish standart entalpiyasi. Gess qonuni. Entropiya haqida tushuncha. Gibbs energiyasi haqida tushuncha. Gibbs energiyasining o‘zgarishi va reaksiyaning yo‘nalishi. Moddalarning termodinamik barqarorligi va ularning reaksion qobiliyati. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Dispers sistemalar. Suyuq, qattiq va gaz holidagi eritmalar. Chin eritmalar. Erishning fizik-kimyoviy jarayon ekanligi. Moddalarning erishda entalpiyaning va entropiyaning o‘zgarishi.

Solvatlanish. Solvatlar. Suvning o‘ziga xos erituvchilik xususiyatlari. Gidratlar. Kristallogidratlar. Eritma tarkibini ifodalash usullari. Binar sistemalarning bug‘ bosimlari. Raul qonunlari. Osmos hodisasi. Vant-Goff va Raul qonunlari.

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish.Modda tabiatining suvli eritmada elektrolitik **d**issotsilyanishga ta’siri. Dissotsilyanish mexanizmi. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar. Elektrolitlarning dissotsilyanish darajasi. Dissotsilyanish darajasiga ta’sir qiluvchi omillar. Kuchsiz elektrolitlar eritmalaridagi muvozanat. Dissotsilyanish konstantasi. Suyultirish qonuni. Brenstedning kislota va asoslar nazariyasi. Suvning dissotsilyanishi. Dissotsilyanish konstantasi. Ion ko‘paytmasi. Vodorod ko‘rsatkich. qiyin eriydigan elektrolitlar.

Cho‘kma bilan to‘yingan eritma orasidagi muvozanat. Tuzlarning gidrolizi. Tuzlarning kation va anion bo‘yicha gidrolizlanishi. Gidrolizlanish mexanizmi. Gidroliz darajasi. Gidroliz konstantasi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining turlari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tenglamalari uchun koeffitsiyentlarni tanlash. Koeffitsiyentlar tanlashning ikki usuli: elektron-balans usuli, ion-elektron usuli. Oksidlanish-qaytarilish sistemalari. Elektrod potensiallar. Nernst tenglamasi. Metallarning elektrokimyoviy kuchlanishlar qatori.

Kimyoviy tok manbalari. Galvanik elementi haqida tushuncha. Elektroliz jarayonlari. Noorganik moddalarning elektrosintezi tamoyillari. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Tabiiy radioaktiv elementlar. Radioaktivlik hodisasining ochilishi. Radioaktivlik turlari. Radioaktiv yemirilish. Radioaktiv yemirilish jarayonida hosil bo‘ladigan mahsulotlarni to‘g‘ri aniqlashdagi eng muhim qoidalar.

Yemirilishlar 4 oilani tashkil etishi. Yarim yemirilish davri. Radioaktiv parchalanish konstantasi. Radioaktiv o‘zgarishlarning asosiy qonunlari. Siljish qoidasi.

3.2. Analitik kimyo

Analiz qilinuvchi obyektlar, ularning sifatiy va miqdoriy tarkibini hamda tuzilishini aniqlash. Sifatiy analiz va ularning usullari. Ochish va identifikatsiya usullarini tanlash va ularni vazifalari. Atomlar, ionlar, molekula va moddalarni identifikatsiyalash.

Mikrokristalloskopik analiz. Pirokimyoviy analiz. Sifat analizining xromotogrofik metodlari. Analizning ho‘l va quruq usullari. Analitik reaksiyalar. Reagent. Analitik reaksiyalarning seziluvchanligi. Topilish minimumi va suyultirish chegarasi. Kation va anionlar sifatiy analizining sistemalari. Kationlar sifatiy analizining kislota-asos sistemasi. Reaksiyani amalga oshirishning shart-sharoitlari va bajarish usullari.

Kimyoviy qaytar reaksiyalar. Massalar ta’siri qonuni. Analitik kimyoda muvozanat va uning asosiy turlari. Muvozanat konstantalari, ular orasidagi bog‘liqlik.

Kislota-asosli reaksiyalar va ularda kimyoviy muvozanat. Kislota va asoslar haqida hozirgi zamon tushunchalari. Debay-Xyukkel, Lyuis va Brensted-Louri nazariyalari. Asosli va kislotali konstantalar. Tuz eritmalarida kislota-asosli muvozanat. Bufer eritmalar va ularni xossalari. Bufer sig‘imi. Bufer sistemalarda pH-ni hisoblash. Kompleks hosil qilish reaksiyalari va ularda kimyoviy muvozanat.

Analitik kimyoda ishlatiladigan kompleks birikmalarning turlari. Kompleks birikmalarning barqarorligi, eruvchanligi, rangdorligi. Rangli kompleks birikmalar hosil bo‘lishida xromofor guruhlarning roli. Bir va ko‘p yadroli komplekslar. Bir ligandli va aralash ligandli kompleks birikmalar. Xelatlar va ularning barqarorligini belgilovchi omillar. Funksional analitik guruhlar ularning kompleks hosil qilishda tanlab ta’sir etishi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va ulardagi kimyoviy muvozanat xususiyatlari.

Elektrod potensiallar. Nernst tenglamasi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini yo‘nalishi va mexanizmi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini yo‘nalishiga ta’sir etuvchi omillar. Analizda qo‘llaniladigan asosiy oksidlovchilar va qaytaruvchilar. Analitik kimyoda cho‘kma hosil bo‘lish reaksiyalari. Cho‘kmalarning individual xossalari. Eruvchanlik ko‘paytmasi va eruvchanlik.

Tuz effekti. Cho‘kmaning tuzilishi va cho‘ktirish sharoitiga bog‘liqligi. Kristall va amorf cho‘kmalar, ularni olish sharoitlari. Gomogen cho‘ktirish. Cho‘kmaning yetilishi. Cho‘kmaning ifloslanish sabablari. Birgalikda cho‘ktirish. Nisbiy o‘ta to‘yinish. Cho‘ktirish va birgalashib cho‘kish. Cho‘ktirish uchun anorganik va organik reagentlarning ishlatilishi.

Ajratish va konsentrlash usullarini tanlash. Taqsimlanish konstantalari. Taqsimlanish koeffitsiyenti. Ajratib olish darajasi. Ekstraksiya. Ekstraksion usullar nazariyasi. Taqsimlanish qonuni. Ekstraksion jarayonlarning sinflanish**i**. Ekstraksiya tezligi. Reekstraksiya. Ekstrantlarning tabiati va tavsiflari. Ekstraksiya uchun uskunalar. Mikroelementlarni kollektorlarga birgalikda cho‘ktirish yo‘li bilan konsentrlash.

Xromatografiya. Usulning mohiyati. Xromatografik tajriba texnikasi. Xromatogramma olish usullari. Xromatografiyaning asosiy nazariy tushunchalari.

Suyuqlik xromatografiyasi. Ion almashinish xromatografiyasi. Gaz-suyuqlik xromatografiyasi nazariyasi va amaliyoti.

Asosiy metrologik tushuncha va tavsiflar: o‘lchash, o‘lchash usullari va asboblari. Analizning asosiy bosqichlari. Analiz xatolarining sinflanishi. Sistematik va tasodifiy xatolari. Analiz usulining asosiy tavsiflari. Natijalarning to‘g‘riligi va takrorlanuvchanligi, sezgirlik koeffitsiyenti, aniqlash chegarasi. O‘lchash natijalarini matematik statistika yo‘li bilan qayta ishlash. O‘rtacha qiymat, dispersiya, standart chetlanish. Regression analiz. Darajali grafik chiqarishda kichik kvadratlar usulidan foydalanish. Namuna olish va namuna tayyorlash nazariyasi, amaliyoti.

Analizga birlamchi namuna olish. Namuna va analiz obyekti, namuna va analiz usuli. Gomogen va geterogen tartibli namunalar olish. O‘rtacha namuna olish. Namunani analiz qilinadigan shaklga o‘tkazish. Standart namunalari tayyorlash. Gravimetrik analiz metodlari. Bevosita va bilvosita gravimetrik aniqlash usullari. Gravimetrik analizda xatolar.

Gravimetrik aniqlashning umumiy sxemasi. Tortim, cho‘kmaning miqdori va eritmaning hajmi. Cho‘ktirilayotgan shaklga qo‘yiladigan talablar. Quritish va qizdirishda cho‘kma tarkibining o‘zgarishi. Termogravimetrik analiz. Analitik tarozilar. Ularning turlari va sezgirliklari. Tortish texnikasi.

Titrimetrik analiz usullarining sinflanishi**.** Titrimetrik analizda ishlatiladigan reaksiyalarga qo‘yiladigan talablar. Titrimetrik aniqlashning xillari. Titrimetrik analiz usullarida eritma konsentratsiyasini ifodalash usullari. Birlamchi va ikkilamchi standartlar, ularni tayyorlash. Fiksanallar. Titrlash egrisi va uni tuzish. Titrlash sakramasi va unga ta’sir etuvchi omillar. Kislota-asosli titrlash.

Ishchi va standart eritmalar. Kislota-asosli titrlash egrisini tuzish. Suvsiz muhitda kislota-asoCHi titrlash. Kislota-asosli indikatorlar va ularning tavsiflari. Titrlash xatoliklari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari asosida titrlash. Oksredmetrik titrlash egrisini tuzish. Oksredmetriyada indikatorlar.

Titrlash xatoliklari. Permanganatometriya**.** Iodometriya**.** Bixromatometriya. **Kompleksonometrik** titrlash usullari. Kompleksonlar. Kompleksonatlar hosil bo‘lishiga turli omillarning ta’siri. Kompleksonometrik titrlash egrisini tuzish. Kompleksonometriyada ishlatiluvchi indikatorlar. Cho‘ktirish reaksiyasi asosida titrlash. Gey Lyussak**,** Folgard, Mor, Fayans usullari.Titrlash egrisini tuzish. Titrlash xatoliklari. Merkurometriya va merkurimetriya. Analizning kinetik usullari.

Elektrokimyoviy analiz metodlari. Konduktometrik analiz. Elektr o‘tkazuvchanlik. Kulonometrik va. elektrogravimetrik analiz metodlari**.** Potensiometrik analiz. Indikator elektrodlar va ularning ishlash prinsiplari. Solishtirma elektrodlar. Polyarografik analiz metodlari.

Spektroskopik analiz metodlari. Atom va molekulalarning elektromagnit nurlar bilan o‘zaro ta’sirlashishi. Elektromagnit nurlarni tavsiflovchi kattaliklar. Rangli eritmalar xossalari va tabiati. Nur yutilishi va chiqarilishiga asoslangan metodlar. Spektrofotometrik kattaliklar va ularning konsentratsiyaga bog‘liqligi.

Kolorimetriya. Fotoelektrokolorimetriya. Spektrofotometriya. Atom-emission spektroskopiya usullari. Molekulyar spektroskopiya. Radiospektroskopik usullar. Elektron paramagnit rezonans spektroskopiyasi. Yadro magnit rezonans spektroskopiyasi. Yadro gamma rezonans spektroskopiyasi. Mass-spektroskopiya.

3.3. Organik kimyo

Kimyoviy bog‘ va uning turlari. Uglerodning o‘ziga xos xususiyatlari. Organik kimyoni alohida fan qilib o‘qitishning sabablari. Organik birikmalarning turli tumanligi. Organik birikmalarning tez o‘zgaruvchanligi. Organik birikmalarning murakkabligi. Organik birikmalarning dissotsiyalanmasligi. Organik birikmalarning reaksiyalari va izomeriyasi. Uglerodning zanjirli va halqali birikmalari. Radikallar, asosiy funksional guruhlar. Tuzilish formulalari. Organik kimyo nazariy tushunchalarini rivojlanishi. Radikallar nazariyasi. Tiplar nazariyasi. Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi va uning ahamiyati.

Alkanlarning gomologik qatori, nomlanishi va izomeriyasi. Alkil radikallar.Alkanlarning kimyoviy xossalari. Alkanlardagi radikal-zanjir almashinish reaksiyasi mexanizmlari haqida umumiy tushunchalar: galogenlash, sulfoxlorlash, sulfooksidlash, nitrolash, oksidlash reaksiyalari.

Alkenlar. Alkenlarning nomlanishi, izomeriyasi. Qo‘sh bog‘ni hosil qilish usullari.

Alkenlarning reaksiya mexanizmlari haqida tushuncha.

Alkenlarni geterogen va gomogen gidrogenlash. Qo‘sh bog‘ga kislotalar, galogenvodorodlar, suv va galogenlarning elektrofil birikishi. Markovnikov qoidasi va uni tushuntirish. Elektrofil birikishning fazoviy kechishi. Alkenlarga radikal birikish. Vodorod bromidning (Karash bo‘yicha) birikish yo‘nalishining o‘zgarishi.

Alkadienlar**.** Alkadienlarning tuzilishi, nomlanishi, turlari va izomeriyasi. Muhim 1,3-dienlar va ularni degidrogenlash, degidroxlorlash, degidratlash reaktsiyalari yordamida olish. Konyugirlangan qo‘sh bog‘li dienlarning elektron tuzilishi. 1,3-dienlarning kimyoviy xossalari: katalitik gidrogenlash, galogenlarning va galogenvodorodlarning elektrofil birikishi, bu reaksiyalarning kinetik va termodinamik nazorat sharoitidagi yo‘nalishi.

Kumulenlar**.** Elektron va fazoviy tuzilishi.

Alkinlar. Alkinlarning nomlanishi va izomeriyasi. Uch bog‘ni hosil qilish usullari: atsetilen olishning usullari. sp-gibridlanish tushunchasi asosida uch bog‘ning

tuzilishini tushuntirish. Kucherov reaksiyasi, spirtlar, karbon kislotalar, galogenovodorodlar va sianid kislotaning birikishi.

Fazoviy kimyoning elementlari va organik birikmalarning optik izomeriyasi. Molekulalarning xiraligi. R-,S-nomenklatura. Proyeksion formulalar. Enantiomerlar va ratsematlar**.**

Gidroksikislotalar**.** Nomlanishi va turlari. Alifatik gidroksikislotalar olishning umumiy usullari. Reformatskiy reaksiyasi asosida β-gidrokislotalarni sintez qilish. Gidroksi-kislotalarning tabiiy manbalari va asosiy vakillari. Kimyoviy xossalari.

Aldegido **va ketokislotalar.** Nomlanishi va sinflanishi. Oddiy α-aldegido- va α-ketokislotalar. Ketonlardan, karbon kislotalar va ularning hosilalaridan olinishi. Kimyoviy xossalari.

Uglevodlar. Nomlanishi va turlari. O‘ziga xos kimyoviy xossalari. Monosaxaridlar.

Aminokislotalar. Nomlanishi va turlari. Tabiiy α-aminokislotalarning tuzilishlari bo‘yicha xillari. Sintez qilish usullari.

Oqsillar. Turlari. Polipeptidning tuzilishi, aminokislota tarkibini aniqlash va polipeptid zanjiridagi aminokislota qoldiqlarining tarkibini aniqlash usullari haqida tushuncha. Oqsillarning tuzilishi.

Nomlanishi va turlari, tuzilishi, izomeriyasi. Siklik birikmalarning sintezi. Sikloalkanlarning fazoviy tuzilishi. Siklogeksan va uning hosilalarining konformatsiyalari, ekvatorial va aksial bog‘lar, siklogeksan hosilalarining geometrik izomeriyasi. Siklopropan halqasining fazoviy va elektron tuzilishining o‘ziga xosligi. Siklobutan, siklopentan va siklogeksanning kimyoviy xossalari. siklopropanning o‘ziga xos xususiyatlari.

Aromatik uglevodorodlar. (Arenlar). Benzol va uning gomologlari, nomlanishi, izomeriyasi. Aromatik uglevodorodlarning manbalari. Benzol halqasining elektron tuzilishi va benzolning kimyoviy xossalari. Aromatiklik haqida tushuncha. Xyukkel qoidasi. Nobenzoid aromatik sistemalar. Siklopropenil- va tropiliy kationlari. Siklopentadienil- anioni, azulen, annulenlar. Aromatik qatordagi elektrofil almashinish reaksiyalari: sulfolash, nitrolash, galogenlash, alkillash, atsillash. Bu reaksiyalarning aromatik uglevodorodlarni qayta ishlashdagi ahamiyati, mexanizmlari haqida tushuncha va ularni tajribada asoslash. σ- va π- komplekslar. Benzol halqasidagi o‘rinbosarlarning mahsulotlarning izomer tarkibiga va reaksiya tezligiga ta’siri. Radikal almashinish va birikish reaksiyalari.

Alkilbenzollar. Alkilbenzollarni olish. Benzol halqasida elektrofil almashinish reaksiyalari, bu reaksiyalarda yo‘naltirishning xususiyati. Dezalkillash, disproporsiyalanish, alkilbenzollarning izomerlanishi. Yon zanjirda radikal o‘rin almashinish reaksiyalari.

Naftalin. Naftalin va boshqa ko‘p yadroli uglevodorodlarning manbalari. Naftalin hosilalarining nomlanishi, izomeriyasi, elektron tuzilishi va aromatikligi. Naftalinning kimyoviy xossalari.

Aromatik galoidbirikmalar. Olish usullari. Aromatik uglevodorodlarni galogenlash, diazoniy tuzlaridan olish. Galogen uglerod bog‘i uzilishi hisobiga ketadigan reaksiyalar. Aromatik galoid birikmalarning metallar bilan ta’sirlanishi: metalloorganik birikmalarni olish. Kross-birikish reaksiyalari. Elektrofil almashinish reaksiyalari. O‘rinbosarlarning induksion va mezomer ta’siri haqida tushuncha. Galogen atomlarining o‘rinbosar sifatida ta’siri.

Nitrobirikmalar. Aromatik nitrobirikmalarning xossalari. Nitroguruhning elektrofil almashinish reaksiyasi tezligiga va yo‘nalishiga ta’siri.

Nitrobirikmalarning qisman qaytarilish mahsulotlari. Nitro-birikmalarning tautomerlanishi, dimerlanish, kondensatsiya reaksiyalari.

Aromatik uglevodorodlarning gidroksilli hosilalari. Nomlanishi. Fenol va uning gomologlari. Naftollar. Aromatik yadroga gidroksil guruhi kiritish usullari. Fenollarning kislotalik xususiyatlari.

Karbonil birikmalar. Aromatik aldegidlarga xos xususiyatlar.

Aromatik-alifatik qator ketonlari, ularni olish va kimyoviy xossalari. Ularning oksimlari va fazoviy tuzilishi. Bekman qayta guruhlanishi.

Karbon kislotalar. Almashingan benzoy kislotalarning dissotsiyalanish konstantasiga o‘rinbosarlarning ta’siri. Aromatik karbon kislotalar sintez qilishning umumiy usullari. Benzoy kislotasi va uning hosilalari.

Dolchin kislotasi, olinishi va xossalari. Antranil kislotasi, olinishi va uning digidrobenzol va azobo‘yoqlar olishda ishlatilishi.

Aminlar. Aromatik aminlarning turlari. Aromatik yadrodagi o‘rinbosarlar tabiati va joylashishining aminlar asosligiga ta’siri. Aminoguruhning benzol yadrosiga ta’siri: elektrofil almashinish reaksiyalari. Aminoguruhni himoyalash.

Diazobirikmalar. Diazotirlash reaksiyasi, uni amalga oshirish sharoitining amin tuzilishiga bog‘liqligi. Diazobirikmalarning azot chiqishi bilan boradigan reaksiyalari: diazoguruhni vodorodga, gidroksilga, galogenlarga, sian va nitroguruhlarga almashtirish.

Diazobirikmalarning azot ajralmasdan boradigan reaksiyalari. Qaytarish, triazenlar hosil bo‘lishi.

Geterohalqali birikmalar haqida tushunchalar va ularning sinflanishi. Besh a’zoli bitta geteroatom tutgan geterohalqali birikmalar (furan, tiofen, pirrol), ular sintezining umumiy usuli va o‘zaro aylanishlari (Yurev). Furan, tiofen va pirrol va benzolning fizikaviy va kimyoviy xossalarini taqqoslash. Fenol va pirrol xossalarining o‘xshashligi.

Azot, kislorod va oltingugurt tutgan besh a’zoli halqali birikmalar.

1.4. Fizikaviy va kolloid kimyo

Fizikaviy kimyoning vazifalari. Moddalarning ximiyaviy tuzilishi haqidagi ta’limotni rivojlantirishda A. M. Butlerovning xizmati. Fizikaviy ximiyaning tekshirish metodlari. fizikaviy ximiya uchta metodga asoslanganligi. Moddalar agregat holatlari. Bug‘lanish jarayoni. Kolloid kimyo predmeti. kolloid sistemalar ahamiyati.

Fizikaviy va kolloid kimyoning biologiya, agrokimyo, tuproqshunoslik, farmatsevtika, tibbiyot va boshqa sohalardagi ahamiyati. Kolloid sistemalarning sinflanishi. Liofob kolloid sistemalar. Kondensatsiya va dispergatsiya usullari. Dispergatsiya usulini xalq xo‘jaligidagi ahamiyati. Kolloid eritmalarni tozalash uslublari.

Kolloid kimyo. taraqqiyotining qisqacha tarixi. Dispers sistemalar va ularning turlari. Dispers sistemalar xillari. Zollar. Kolloid sistemalarni hosil bo‘lish nazariyalari. Tabiatdagi va texnikadagi dispers sistemalar.

Termodinamik sistema, izolyatsiyalangan sistema, yopiq sistema, ochiq sistema, gomogen va geterogen sistemalar, uzluksiz sistema, sistemaning holati, termodinamik parametrlar, termodinamik jarayon, holat funksiyasi, aylanma jarayon, izobar, izoterma, adiabat, izohor, izobar-izoterm va izohor-izoterm jarayonlar, qaytar va qaytmas jarayonlar. Intensiv va ekstensiv kattaliklar.

Ideal gaz qonunlari: Klapeyron-Mendeleev, Boyl-Mariott, Sharl-Gey-Lyussak. Universal gaz doimiysi. Holat tenglamalari va termik koeffitsiyentlar: termik kengayish koeffitsiyenti, bosim ortishining koeffitsiyenti, izotermik siqilish koeffitsiyenti. Termik koeffitsiyentlarning o‘zaro bog‘lanishi.

Issiqlik, temperatura, bosim, ichki energiya, ish, intensivlik faktorlari, termometrik shkala, absolyut temperatura, termometrlar. Gazlarning kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi (Bolsman tenglamasi). Gazlarning issiqlik sig‘imi. Issiqlik sig‘imining erkinlik darajasi bilan bog‘liqligi. Real gazlar. Van-der-Vaals tenglamasi. Gazlarning kondensatlanishi. Kritik nuqta. Bug‘ va gaz orasidagi farq. Keltirilgan bosim, hajm va temperaturalar.

Kimyoviy termodinamikaning vazifasi. Fenomenologik (klassik) termodinamika, nomuvozanat jarayonlarning termodinamikasi, statistik termodinamika.Termodinamikani birinchi qonunining ta’riflari. Termodinamika birinchi qonunining matematik ifodasi, uning integral, differensial hamda xususiy ko‘rinishlari. Kalorik koeffitsiyentlar. Termodinamikaning birinchi qonunini kalorik koeffitsiyentlar orqali ifodalash.

Ideal gazning turli jarayonlardagi kengayish ishi, jarayon issiqligi va ichki energiyaning o‘zgarishi. Joul qonuni. Ideal gazning adiabata tenglamasi. Puasson tenglamalari. Entalpiya. Gess qonuni va undan kelib chiqadigan xulosalar. Termokimyo. Hosil bo‘lish va yonish issiqliklari. Issiqlik sig‘imining haroratga bog‘liqligi. Reaksiya issiqlik effektining haroratga bog‘liqligi. Kirxgof tenglamasi.

Termodinamikaning ikkinchi qonuni va uning ta’riflari: Tomson (Kelvin), Ostvald, Klauzius, Karateodori. Entropiya tushunchasi. Karno sikli. Foydali ish koeffitsiyenti. Qaytar jarayonlar uchun termodinamikaning ikkinchi qonuni. Keltirilgan issiqlik va uning to‘liq differensial ekanligi. Entropiya ekstensivlik faktori ekanligi. Izolyatsiyalangan sistemalarda termodinamik jarayonning o‘z-o‘zicha borishini, yo‘nalishi va chegarasini belgilovchi umumiy ko‘rsatkich. Maksimal ish tushunchasi. Energiyaning dissipatsiyasi. Entropiyaning tartibsizlik o‘lchovi ekanligi. Qaytmas jarayonlar uchun termodinamikaning ikkinchi qonuni. To‘liq qaytmas jarayonlar. Qaytmas o‘z-o‘zidan boruvchi jarayonlar uchun izolyatsiyalangan sistemada, izotermik qaytar jarayonlar hamda siklik qaytmas jarayonlar uchun termodinamika ikkinchi qonunining ifodalari. Qaytar va qaytmas jarayonlar uchun termodinamika ikkinchi qonunining ifodasi. Termodinamika birinchi va ikkinchi qonunlarining umumlashgan tenglamasi.

Termodinamikaning 2-qonunini statistik asoslash. Bolsman tenglamasi. Sistema holatining termodinamik ehtimolligi bilan uning entropiyasi orasidagi bog‘lanish. Termodinamikaning 1-qonuni absolyut qonun ekanligi va termodinamikaning 2-qonunining statistik tabiati. Fluktuatsiyalar tushunchasi.

Turli jarayonlarda entropiyaning o‘zgarishi. Termik va kalorik koeffitsiyentlar orasidagi bog‘liqlik.

Termodinamik potensiallar. Xarakteristik funksiyalar. Izobarik-izotermik va izoxorik-izotermik potensiallar. Gibbs va Gelmgols energiyalari. Gibbs- Gelmgols tenglamalari. Kimyoviy potensial. Massalar ta’siri qonuni. Muvozanat konstantalari. Kimyoviy reaksiyaning izoterma tenglamasi (Vant-Goff tenlamasi). Kimyoviy reaksiyaning izobarik va izoxorik tenglamalari. Kimyoviy moyillik. Real sistemalarning termodinamikasi. Lyuis-Rendall postuloti. Uchuvchanlik (fugitivlik) va aktivlik tushunchalari.

Termodinamikaning uchinchi qonuni. Nernstning issiqlik teoremasi. Plank postulati. Absolyut entropiya. Plank postulatidan kelib chiqadigan xulosalar. Absolyut nolga erisha olmaslik prinsipi. Muvozanat konstantasini Temkin va Shvarsman usulida hisoblash. Nernstning issiqlik teoremasi va Plank postulatiga asoslanib, termodinamik funksiyalarning standart qiymatlari bo‘yicha muvozanat konstantasini hisoblash.

Statistik termodinamika vazifalari. Makro va mikroxolatlar va termodinamik ehtimollik. Fazaviy fazo tushunchasi. Bolsman tenlamasi. Statistik termodinamikaning postulati. Holatlar bo‘yicha yig‘indi. Bolsman taqsimoti. Asosiy termodinamik kattaliklar uchun statistik ifodalar. Ularni holatlar bo‘yicha yig‘indi orqali ifodalash. Aralashish entropiyasi. Ilgarilama, tebranma, aylanma va elektron harakatlar holatlari bo‘yicha yig‘indilar.

Qaytmas (nomuvozanat) jarayonlarning termodinamikasi. Oqimlar. Umumlashgan kuchlar. Kvazistatsionar, statsionar, eksponensial ko‘rinishda

o‘zgaruvchi oddiy va lavinasimon jarayonlar. Oqim va umumlashgan kuch orasidagi munosabat. Oqimni harakatlantiruvchi intensivlik faktorlari. Issiqlik oqimining temperatura gradiyentiga, massa oqimining konsentratsiya gradiyentiga, elektr oqimining potensial gradiyentiga bog‘liqligi. Oqimlarning o‘zaro ta’siri: termodiffuziya, Dyufur effekti, diffuzion potensial va konsentratsion qutblanish. Oqimlar jarayonida sistema entropiyasining o‘zgarishi.

Entropiyaning vaqt birligida ortishi bilan oqimlar va umumlashgan kuchlar orasidagi bog‘lanish. Onzagerning o‘zarlik munosabati. Kinetik koeffitsiyentlarning simmetriklik prinsipi. Kompensatsiyalanmagan issiqlik. Kompensatsiyalanmagan issiqlik va kimyoviy moyillik. Entropiyaning tashqi va ichki o‘zgarishi. Entropiyaning hosil bo‘lish tezligi. Izolyatsiyalangan sistemalar uchun entropiyaning to‘liq o‘zgarishi.

Nomuvozanat jarayonlar termodinamikasining rivojlanish bosqichlari. Prigojin, Glansdorf, Kazimir va boshqa olimlarning nomuvozanat jarayonlar termodinamikasining usullarini chiziqli bo‘lmagan sohaga tatbiq qilishi. Lokal muvozanatlar haqidagi postulat.

Kompensatsiyalanmagan issiqlikning termodinamik funksiyalarning o‘zgarishi bilan bog‘liqligi. Kimyoviy o‘zgaruvchi, kimyoviy moyillik va termodinamikaning birinchi qonuni. Ochiq sistemalar uchun termodinamikaning birinchi qonuni.

Faza, komponent, komponentlar soni, erkinlik darajasi tushunchalari. Gibbsning fazalar qoidasi. Sistemaning variantligi. Sistemalarning sinflanishi. Bir komponentli sistemalar uchun fazalar qoidasi. Suv va oltingugurt uchun holat diagrammalari. Bug‘lanish egrisi uchun Klapeyron–Klauzius tenglamasining differensial va integral ko‘rinishlari. Birinchi va ikkinchi tur fazaviy o‘tishlar. Erenfest tenglamasi. Polimorf o‘tishlar. Mono- va enantiotrop fazaviy o‘tishlar. Fizik-kimyoviy analiz. Ikki komponentli sistemalar. Sovush va holat diagrammalari. Holat diagrammalarining turli ko‘rinishlari: kimyoviy ta’sir bo‘lmagan va qattiq eritma hosil qilmaydigan; kimyoviy ta’sir bo‘lmagan va cheksiz eriydigan qattiq eritmalar hosil qiluvchi; kimyoviy ta’sir bo‘lmagan va chekli eriydigan qattiq eritmalar hosil qiluvchi; kongruent suyuqlanuvchi barqaror kimyoviy birikmalar tutgan (qattiq eritmalar hosil bo‘lmaydigan); inkongruent suyuqlanuvchi beqaror kimyoviy birikmalar tutgan sistemalarning holat diagrammalari. Ikki komponentli sistemalarning holat diagrammalarini analiz qilishda likvidus, solidus chiziqlari, evtektiv nuqta, evtektik tarkibli suyuq qotishma, evtektik temperatura, figurativ nuqta, kannoda chizig‘i, kongruent va inkongruent suyuqlanuvchi kimyoviy birikmalar, singulyar va distektik nuqtalar, peritektik nuqta kabi tushunchalar.

Richag yelka qoidasi. Qattiq eritmalar. Izomorfizm tushunchasi. Uch komponentli sistemalar. Uch komponentli sistemaning tarkibini ifodalashda Gibbs va Rozebum usullari. Bir xil ionli va evtonikaga ega bo‘lgan ikki tuz eritmasining holat diagrammasi. Tuzlar suv bilan gidratlar yoki qo‘sh tuzlar, kompleks birikmalar yoki qattiq eritmalar hosil qiluvchi murakkab holat diagrammalari.

Eritmalar haqida umumiy tushunchalar. Ideal, cheksiz suyultirilgan va real eritmalar. Parsial molyar kattaliklar. Gibbs-Dyugem va Dyugem-Margulis tenglamalari. Eritmalarning zamonaviy nazariyasi: solvatlanish va gidratlanish, solvat qavat tushunchasi. Regulyar va atermal eritmalar. Eritma komponentlarining kimyoviy potensiali. Aktivlik, aktivlik koeffitsiyenti. Uchuvchanlik, uchuvchanlik koeffitsiyenti. Komponentning eritma ustidagi bug‘ bosimi. Raul va Genri qonunlari. Ideal, cheksiz suyultirilgan va real eritmalar uchun Raul va Genri qonunlari.

Diffuziya va osmos. Osmotik bosim qonunlari. Taqsimlanish koeffitsiyenti. Ekstraksiya. Suyuqlik-bug‘ muvozanati. Gibbs-Konovalov qonunlari. Vrevskiy qonunlari. Azeotrop aralashmalar va ularning xossalari

Elektrolit eritmalarning tuzilishlari haqida tushunchalar. (T.Grodgus, M.Faradey, S.Arrenius). Arrenius nazariyasi. Ionlarning o‘zaro ta’sirini termodinamik nuqtai nazaridan ifodalash. Faollik va faollik koeffitsiyentlari. Debay-Xyukkel nazariyasining asosiy ehtimolliklari. Ion atmosferasining potensiali. Elektrolitlar haqida zamonaviy tushunchalar. Solishtirma va ekvivalent elektr o‘tkazuvchanlik. Ionlar harakatchanligi va Kolraush qonuni. Tashish soni. Ostvaldning suyultirish qonuni. Konduktometrik titrlash. Ionlarning harakatchanligi, ekvivalent elektr o‘tkazuvchanlik va tashish sonini Debay-Xyukkel-Onzager nazariyasi asosida eritma tarkibiga bog‘liqligini talqini.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini kimyoviy va elektrokimyoviy amalga oshirish usullari. Elektrokimyoviy jarayonlar termodinamikasi. Muvozanatdagi elektrokimyoviy zanjirlar va ularning EYuK, Nernst va Gibbs-Gelmgols tenglamalari. Elektrod potensialining hosil bo‘lishi. Diffuzion va oksidlanish-qaytarilish potensiallari. Konsentratsion elementlar. Elektrodlarni sinflash. Standart elektrodlar. EYuK ni aniqlash usullari. EYuK dan fizik-kimyoviy tahlilda foydalanish. Metallar korroziyasi.

Kimyoviy kinetika- kimyoviy reaksiyalarning tezligi va mexanizmi haqidagi fan. Uning asosiy tushunchalari. Kinetikani o‘rganishning nazariy va amaliy ahamiyati. Kinetik chiziqlar va ularni tuzish usullari. Gomo va geterogen reaksiyalarga massalar ta’siri qonunini qo‘llash.

Kimyoviy reaksiyalarning kinetik jihatdan tabaqalanishi. Oddiy va murakkab reaksiyalar. Oddiy reaksiyalar kinetikasi, ularga mos keladigan kinetik tenglamalarni keltirib chiqarish. Arrenius tenglamasi. Faollanish energiyasi va uni hisoblash usullari.

Kinetikaning nazariyalari: faol to‘qnashuvlar nazariyasi va o‘tish holat nazariyasi (faollanish kompleksi). Qaytar reaksiyalar kinetikasi. Yonma-yon va ketma-ket ketadigan reaksiyalar kinetikasi.

Katalizning ta’rifi va uning umumiy xususiyatlari. Kimyoviy va biokimyoviy reaksiyalarda, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda katalizning o‘rni va ahamiyati. Sanoat miqyosida qo‘llaniladigan asosiy katalitik jarayonlar. Geterogen katalizatorlarni

olish usullari: cho‘ktirish, shimdirish, mexanik aralashmalar va metall qotishmalar tayyorlash.

Gomogen va geterogen katalitik jarayonlarning tabaqalanishi. Gomogen katalizning nazariyalari va mexanizmlari. Gomogen katalizda oraliq birikmalar. Gomogen katalizning kinetikasi. Gomogen katalizga misollar. Geterogen kataliz. Geterogen katalitik reaksiyalarning asosiy bosqichlari. Geterogen katalizatorlar yuzasidagi faol markazlarning mavjudligi haqidagi tasavvurlar va ularning tabiati. Geterogen katalizdagi oraliq birikmalar. Geterogen katalitik reaksiyalarda adsorbsiyaning o‘rni. Katalizatorlar ishtirokidagi geterogen reaksiyalarning mexanizmlari. Adsorbilash qobiliyatiga qarab katalizatorlarning faolligini aniqlash. Katalizatorlarning asosiy tavsiflari: faolligi, selektivligi (tanlab ta’sir qilishi), unumdorligi, regeneratsiya qilishga qobiliyati, solishtirma yuzasi. Kimyoviy reaksiyalarning selektivligi bo‘yicha boshqarishning umumiy yondashuvlari.

Geterogen katalizdagi faollashtiruvchilar va zaharlar haqidagi tushunchalar. Qaytar va qaytmas zaharlanishlar. Katalitik zaharlar vazifasini bajaradigan turli sinflarga kiruvchi birikmalar.Termodinamik barqaror mikrogeterogen dispers sistemalar. Sirt faol kolloidlar.

Broun harakati. Kolloidlarning diffuziyasi. Fik, Eynshteyn qonunlari. Kolloid sistemalarning osmotik bosimi. Sedimentatsiya. Suspenziya va emulsiyalarda sedimentatsiya hodisasi. Perren tenglamasi.

Reley va Lambert-Ber qonunlari. Dispers sistemalarning sirt xossalari va sirt tarangligi. To‘liq, erkin va solishtirma sirt energiyalari. Flotatsiya. Kapillyar bosim. Adsorbilanish. Sirt faol va sirt-passiv moddalar. Gibbs tenglamasi va uning ahamiyati. Lengmyur, Shishkovskiy tenglamalari. Molekulyar adsorbilanish. Yuqori va past molekulyar eritmalarning adsorbilanishi. Adsorbilanishning ahamiyati.

Koagullanish, flokullanish va stabillashish hodisalariga ta’sir etuvchi omillar. Koagullanish ostonasi. Shulse-Gerdi qoidasi. Smoluxovskiy nazariyasi. Kuchli va kuchsiz zaryadlangan zollarning barqarorligi. Peptizatsiya. Sensibillanish, antogonizm, additivlik va himoya.Emulsiyalar va ko‘piklar hosil bo‘lishi haqidagi nazariyalar. Elektr-kinetik potensial. Mitsella tuzilishi. Elektr-kinetik potensialni o‘lchash usullari. Elektr-kinetik hodisalarning tabiatda va texnikadagi ahamiyati. Emulsiyalar, ularning xillari va olinishish usullari. Emulsiyalarda fazalarning almashinuvi. Emulsiyalarning barqarorligi, olinishi. Aerozollarning hosil bo‘lishi va olinish usullari. Aerozollarning amaliy ahamiyati.

Dispers sistemalarning reologik xossalari va ularda strukturalar hosil bo‘lishi. Dispers sistemalarning anomal va struktura qovushqoqligi va ularning hosil bo‘lish sabablari. Dispers sistemalarda fazoviy strukturalarning hosil bo‘lishi. Koagulyasion va kristallizatsion strukturalar.

Reologiya asoslari (qovushqoqlik, plastiklik, elastiklik). Dispers sistemalarning anomal va struktura qovushqoqligi, ularning sabablari. Dispers sistemalarda fazoviy strukturalarning hosil bo‘lishi. Koagulyasion va kristallizatsion strukturalar.

Dispers sistemalarning reologik xossalari va ularda strukturalar hosil bo‘lishi. Dispers sistemalarning anomal va struktura qovushqoqligi va ularning hosil bo‘lish sabablari. Dispers sistemalarda fazoviy strukturalarning hosil bo‘lishi. Koagulyasion va kristallizatsion strukturalar.

Reologiya asoslari (qovushqoqlik, plastiklik, elastiklik). Dispers sistemalarning anomal va struktura qovushqoqligi, ularning sabablari. Dispers sistemalarda fazoviy strukturalarning hosil bo‘lishi. Koagulyasion va kristallizatsion strukturalar.

Aerozollarning buzilishi. Aerozollar va gidrozollar orasidagi farq. Aerozollarni ekologiyaga ta’siri va uni ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Tuproq kolloidlari. Polielektrolitlarni stabillash, flokullash va struktura hosil qiluvchi sifatida ishlatilishi. Suvda eriydigan polielektrolitlar va sirt-faol moddalarning olinishi. Ishlab chiqarish jarayonida uchraydigan dispers sistemalar Ishlab chiqarish jarayonida va tabiatni muhofaza qilishda dispers sistemalarning roli.

1.5. Polimerlar kimyosi

Asosiy tushunchalar, yuqorimolekulyar birikmalar, oligomer, polimerlar. Makromolekula va uning kimyoviy zvenosi. Polimerlanish darajasi va zanjir uzunligi. Polimerlarning tirik tabiatdagi roli va ularning kimyoviy materiallar sifatida ahamiyati. Polimerlar haqidagi fanning rivojlanish tarixi. Polimerlarning kelib chiqishi, kimyoviy tarkibi, zvenolari va asosiy zanjir tuzilishiga qarab sinflash. Tabiiy va sintetik polimerlar. Organik va anorganik polimerlar Chiziqli, tarmoqlangan va choklangan polimerlar. Gomopolimerlar, sopolimerlar, blok-sopolimerlar va payvandli sopolimerlar. Gomozanjirli va geterozanjirli polimerlar. Monoolefinlar va ular hosilalarining polimerlari va sopolimerlari. Poliefirlar. Poliatsetallar. Poliamidlar, poliuretanlar, oqsillar. Polisiloksanlar. Polimerlarning kimyoviy sinflanishi. Polimerlarning molekulyar massasi va molekulyar-massaviy taqsimlanishi o‘rtacha molekulyar massa tushunchasi. Fraksiyalash usullari.

Polimerlarni sintez qilishning asosiy usullari. Zanjirli va bosqichli polimerlanish. Radikal polimerlanish. Radikal polimerlanishni inisirlash. Fotokimyoviy polimerlanish. Initsiatorlar.

Radiatsion polimerlanish. Termik polimerlanish. Rivojlanish, uzilish va zanjir uzatilish reaksiyalari. Kinetik zanjir uzunligi va unga ta’sir qiluvchi omillar. Ingibitorlar. Radikal polimerlanish kinetikasi. Polimerlanish termodinamikasi. Yuqori konversiyada polimerlanish.

Monomer tuzilishining polimerlanishga ta’siri. Ionli polimerlanish reaksiyasi. Kation polimerlanish. Katalizatorlar va hamkor katalizatorlar. Polimerlashning amaliy usullari.

Polikondensatlanish reaksiyasi. Polikondensatlanish reaksiyalarining xillari.

Polikondensatlanishning yo‘nalishi, Polikondensatlanishga haroratning ta’siri.

Muvozanatli polikondensatlanish. Karozers tenglamasi.Korshakning noekvivalentlik qoidasi. Polikondensatlanishdagi destruktiv reaksiyalar. Polikondensatlanish reaksiyasining amaliy usullari. Bosqichli (migratsion) polimerlanish. Siklik birikmalarning chiziqli polimerlarga aylanishi.Polimerlarning fizikaviy kimyosi va eritmalari. Konfiguratsion izomeriya va makromolekulalarning konfiguratsiyasi. Konformatsion izomeriya va makromolekulalarning konformatsiyasi. Makromolekulalarning ichki aylanish imkoniyatlari va bukiluvchanlik.

Makromolekula uchlari orasidagi o‘rtacha masofa. Statistik segment tushunchasi. Kun segmenti. Kinetik va termodinamik bukiluvchanlik va ularni aniqlash usullari.

Eritmalar nazariyasining rivojlanish tarixi. Chin va ideal eritmalar. Polimerlar eruvchanligi va unga ta’sir qiluvchi omillar. Eruvchanlikning termodinamik mezoni va eritmalar termodinamik muvozanatining isboti. Polimer-erituvchi sistemasining fazaviy diagrammasi. Polimerlarning bo‘kishi. Bo‘kish kinetikasi. Polimer eritmalarida assotsilanish va solvatlanish. Eritma komponentlari orasidagi moyillik. Polimer eritmalarining termodinamikasi. Eritmalar bug‘ining bosimi. Ideallikdan chetlanish va uning sabablari. Polimer eritmalarining osmotik bosimi. Bo‘kish bosimi. Ikkinchi virial koeffitsiyent. Teta holat va teta erituvchi tushunchalari.

Polimer eritmalarini tayyorlash va tozalash. Polimer eritmalarining gidrodinamik xossalari. Nisbiy, keltirilgan va xarakteristik qovushqoqlik. Xarakteristik qovushqoqlikning molekulyar massa bilan bog‘liqligi. Eritmadagi makromolekulalarning o‘lchami va shaklini aniqlash usullari.

Polimerlarning ustmolekulyar strukturasi. Amorf va kristall polimerlar. Polimerlar fizikaviy xossalarining o‘ziga xosligi. Relaksatsion hodisa. Polimerlarning fazaviy holatlari. Polimerlarning kristallanishiga ta’sir etuvchi omillar.Amorf polimerlarning uch fizik holatlari. Shishasimon, yuqori elastik va qovushqoq – oquvchan holatlarning polimer molekulyar massasiga bog‘liqligi. Polimerlarni plastifikatsiyalash. Kargin va Jurkov qoidalari. Plastifikatsiya mexanizmi. Plastifikatorlarga qo‘yiladigan talablar. Polimerlarni polimerlar bilan plastifikatsiyalash. Kristall polimerlarning mexanik xossalari.

Polimerlar kimyoviy xossalarining turlari. Funksional guruhlarning kimyoviy xossalari. Polimeranalogik va ichki molekulyar o‘zgarishlar. Ularning mexanizmi va kinetikasi. Funksional guruhlar reaksion qobiliyatining o‘ziga xosligi lokal qamal, konfiguratsiya, makromolekulalarning konformatsiyasi va polimerlar ustmolekulyar strukturasining ta’siri, konsentratsion va elektrostatik samaralar.Polimerlarni kimyoviy

modifikatsiyalash. Blok va payvandli sopolimerlar. Polimerlanish darajasining kamayishiga olib keluvchi reaksiyalar. Destruksiya. Kimyoviy agentlar ta’sirida sodir bo‘luvchi destruksiya. Fizikaviy destruksiya. Polimerlarning eskirishi. Destruksiya mexanizmlari. Havo, nur, radiatsiya ta’siridagi destruksiyalar. Destruksiyani tezlatuvchi va sekinlatuvchi moddalar. Polimerlarni stabillash usullari.

Gomopolimerlar, sopolimerlar, bloksopolimerlar va payvandli sopolimerlar. Gomozanjirli va geterozanjirli polimerlar. Monoolefinlar va ular hosilalarining polimerlari va sopolimerlari. Poliefirlar. Poliasetallar. Poliamidlar, poliuretanlar, oqsillar.

Monoolefinlar va ular hosilalarining polimerlari va sopolimerlari.Poliefirlar. Poliasetallar. Poliamidlar, poliuretanlar, oqsillar. Polisiloksanlar, Polimerlarning strukturasi va fizikaviy xossalari, Eritmalar nazariyasining rivojlanish tarixi. Chin va ideal eritmalar. Polimerlar eruvchanligi va unga ta’sir qiluvchi omillar. Eruvchanlikning termodinamik mezoni va eritmalar termodinamik muvozanatining isboti.

Poliefirlar. Poliasetallar. Poliamidlar, poliuretanlar, oqsillar. Polisiloksanlar, Polimerlarning strukturasi va fizikaviy xossalari, Eritmalar nazariyasining rivojlanish tarixi. Chin va ideal eritmalar. Polimerlar eruvchanligi va unga ta’sir qiluvchi omillar. Eruvchanlikning termodinamik mezoni va eritmalar termodinamik muvozanatining isboti.

Polimerlarning strukturasi va fizikaviy xossalari, Eritmalar nazariyasining rivojlanish tarixi. Chin va ideal eritmalar. Polimerlar eruvchanligi va unga ta’sir qiluvchi omillar. Eruvchanlikning termodinamik mezoni va eritmalar termodinamik muvozanatining isboti.

1.6. Kimyoviy texnologiya

Kimyoviy texnologiya tushunchasi va uning rivojlanishi. Kimyoviy texnologik jarayon va uning elementlari, sinflari. Kimyoviy texnologik sistema. Mexanizatsiyalash. Avtomatlashtirish. Kimyoviy ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichlari: mahsulot unumi, sarf bo‘lish koeffitsiyenti, selektivlik, unumdorlik, intensivlik, mahsulot tannarxi va hokazo. Kimyoviy texnologiyaning asosiy tamoyillari.

Tabiiy xomashyo, uning turlari va manbalari. Tabiat resurslari. Tabiiy resurslarning tasnifi. Tugamaydigan tabiiy resurslar. Xomashyoni boyitishning mexanik, termik, elektromagnit va fizik-kimyoviy usullari. Flotatsiya, uning nazariy asoslari va amalga oshirish texnologiyasi. Xomashyoni kompleks ishlatilishi. Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan xomashyoni boshqasiga almashtirish.

Metallurgiya.Qora va rangli metall ishlab chiqarish texnologiyasi. Po‘lat va cho‘yan ishlab chiqarish texnologiyalari. Sulfat kislotasini ishlab chiqarish. Sulfat kislotasining xossalari, ishlatilishi va olinish usullari. Sulfat kislota ishlab chiqarish uchun xomashyo va undan sulfit angidridi olish. Sulfat kislota ishlab chiqarishning nitroza va kontakt usullari.

Erkin azotni bog‘lash usullari. Ammiak sintezi. Ammiak ishlab chiqarish jarayonining fizikaviy-kimyoviy asoslari. Azot-vodorod aralashmasini tayyorlash va uni tozalash. Ammiak ishlab chiqarish texnologiyasining usullari va ularning sxemalari. Nitrat kislotasining xossalari va ishlatilishi. Nitrat kislota ishlab chiqarish texnologiyasi.

Ma’danli o‘g‘itlarning turlari va ishlatilishi. Azotli o‘g‘itlar. Ammiakli selitra va karbamid ishlab chiqarish texnologiyasi. Fosforli o‘g‘itlar. Oddiy, qo‘shaloq superfosfat va pretsipitat ishlab chiqarish texnologiyalari. Kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarishining fizikaviy-kimyoviy asoslari va texnologiyalari. Mikroo‘g‘itlar.

Silikatlar texnologiyasi. Shisha va bog‘lovchi moddalar ishlab chiqarish. SHishalarning turlari va tarkibi. Shisha ishlab chiqarish xomashyosi va olish texnologiyasi. Keramika ishlab chiqarish. Chinni va sopol. Ohak, gips, sement ishlab chiqarish.

Elektroliz haqida tushuncha. Elektrolizning fizikaviy-kimyoviy asoslari. Elektroliz qonunlari. Faradeyning qonunlari. Osh tuzi eritmasining elektrolizi. Kimyo sanoatida mashg‘ulotlarni elektrokimyo usuli bilan ishlab chiqarish. Kaustik soda va xlor ishlab chiqarishning texnologiyasi. Alyuminiy ishlab chiqarish. Alyuminiyning ishqorlar bilan o‘zaro ta’siri. Alyuminiyning suv bilan o‘zaro ta’siri. Alyuminiyning kislotalar bilan o‘zaro ta’siri. Alyuminiy gidroksidi olish va uning xossalari bilan tanishish.

Organik sintez texnologiyalari. Organik moddalar sintezida ishlatiladigan xomashyolar. Organik sintez texnologiyalarining asosiy jarayonlari va qonuniyatlari. Atsetilen ishlab chiqarish. Kislorod tutgan organik birikmalarni ishlab chiqarish. Metil spirti, etil spirti, formaldegid, sirka aldegidi va sirka kislotasini ishlab chiqarishning sharoitlari va texnologik sxemalari.

Neft va neft mahsulotlarini qayta ishlash. Neftning tarkibi va xossalari. Neftni tarkibiy qismlarga ajratish. Neft mahsulotlarini termik va katalitik krekinglash. Oktan soni va unga ta’sir etuvchi omillar. Toshko‘mirni kokslash. Kokslash mahsulotlari va ularni ajratish. Gazsimon yoqilg‘ilarni qayta ishlash.

Organik sintezning etilen, propilen, butilen, atsetilen, divinil, izopren, benzol va uning gomologlari, naftalin va boshqa bir qancha muhim mahsulotlarini ishlab chiqarish. Ular esa o‘z navbatida plastmassalar, tolalar, kauchuklar. Yuvish vositalari, bo‘yoqlar va boshqa yuzlab ishlab chiqarish uchun muhim xomashyo.

Tabiiy va sun’iy tolalar: sellyuloza, viskoza, atsetat sellyulozalari tolalarining olinishi, xossalari va ishlatilishi. Kimyoviy tolalar polimerlar eritmasidan ho‘l yoki quruq usulda yoki polimer suyuqmasidan olinishi. Erituvchilar tanlashda ularning tannarxi va sanoat miqdorida ishlab chiqarilishi va zararsizligi. Elektrolitlar ta’sirida viskoza koagulyatsiyalanib, ksantogenat va turli sulfat birikmalar parchalanishi.

1.7. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik

PISA – o‘quvchilarning o‘qishdagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi (15 yoshli o‘quvchilarning matematik savodxonligi, o‘qish va tabiiy fanlar sohasidagi savodxonligini baholash);

TIMSS – maktabdagi matematika va tabiiy fanlar sohasidagi ta’lim sifatining xalqaro tadqiqotida (4 va 8-sinflar o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar sohasidagi savodxonligini baholash);

PIRLS – matnni o‘qish va tushunish sifatining xalqaro tadqiqoti (boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish hamda tushunish darajasi va sifatini baholash);.

TALIS – o‘qitish va o‘qish tizimining xalqaro tadqiqoti (o‘qituvchilarning mehnat sharoiti va maktablardagi ta’lim muhitini baholash).

PISA tadqiqoti reytingida yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar kimyo ta’limining ilg‘or tajribalari.

PISA tadqiqotining baholash vositalari (topshiriqlari) tahlili, o‘quv jarayonida ularni qo‘llash imkoniyatini aniqlash.

Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish. Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini shakllantirish.

Kimyoni o‘qitishning zamonaviy metodlari (darslik bilan ishlash, reproduktiv, evristik, muammoli vaziyat, muayyan vaziyatlarni o‘rganish (keys-stadi) metodi, ma’ruza, hikoya, suhbat metodlari,) xulosa chiqarish metodlari (induksiya, deduksiya va analitik metod).

Ta’lim metodlarini tanlash bo‘yicha tavsiyalar.

Jadvallar, grafiklar va diagrammalar bilan ishlash. Grafiklarni tushunish va izohlash. Ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini baholash usullari. PISA uslubida savollar tuzish.

Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasini shakllantirish yo‘llari: tadqiqot, loyihalar metodi, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishi.

Ilmiy dalillarni tanlash va baholash bo‘yicha yondashuvlar. Dalillarga asoslangan qaror qabul qilish usullari. Ilmiy konsensusning ahamiyati va noto‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlash.

Ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi. Ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasini shakllantirish yo‘llari.

TIMSS xalqaro tadqiqoti topshiriqlarining o‘ziga xos xususiyatlari. TIMSS formatidagi vazifalarni ishlab chiqish va kimyo darslarida foydalanish.

Muammoli ta’lim haqida tushuncha. Muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘qitishdagi ahamiyati. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. Evristik ta’lim texnologiyalari.

1.8. Kimyo tarixi

“Kimyo tarixi” faning predmeti, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari.

Kimyo tarixi fanining predmeti ushbu fanning tarixini har tomonlama arxeologik va adabiy ma’lumotlarga tayangan holda ham xronologik va ham mantiqiy bog‘lanish asosida o‘rganish, kimyoviy qonun va qoidalarning kashf qilinishi tarixini bilish va fanni o‘rganayotgan va o‘qitayotgan paytda bu fan negizida olingan ma’lumotlardan didaktik maqsadlarda foydalanishdan iborat. Fanning tadqiqot doirasi kimyoni empirik natijalar. Favquloddagi kutilmagan kashfiyotlar majmuasida, fizika va matematikaga tayangan holda o‘z nazariy tushunchalariga ega bo‘lgan aylanishni asoslashdan iboratdir. Fan tarixini bilish uning qadr qiymatini baholashda uning yutuqlaridan o‘rnak va kelajak uchun impuls sifatida foydalanish imkoniyatini beradi.

Insoniyat rivojlanishi tarixini tosh, yangi tosh (neolit), mis, bronza, temir davrlariga bo‘linishi. Bu davrlarda tajribaviy yutuqlarga asoslangan holda tabiiy xomashyolar-toshlar, rudalar, yog‘ochdan foydalanib intuitiv ravishda turli xil metallar qotishmalar ulardan esa qurollar, uy-ro‘zg‘or anjomlari, taqinchoqlar sifatida foydalanish.

Dastlabki elementlar-suv (Fales Miletskiy), havo (Anaksimen-585-525), olov (Geraklit 540-475), yer (Empedokl 490-430) lardan iborat degan fikrning qaror topishi. Bu «element»larning substansiyalar emas, balki ma’lum sifat belgilari-issiqlik (olov), sovuqlik (suv), quruqlik (er) va namni (havo) tashuvchilar deb hisoblanishi (Aristotel) Beshinchi element-efir (yaltiroq) tushunchasining (Aristotel) kiritilishi.

Grek atomistikasi. Atom tushunchasining kiritilishi (Levkipp 500-440), Demokrit (470-390) va atomlarning nazariyaning paydo bo‘lishi.

Epikur va Tit Lukretsiy Karlar Levkipp va Demokritlarning o‘sha davrdagi eng so‘nggi davomchilari ekanliklari.

Kimyoning vujudga kelish va uning tarixining davr va davrlargacha ajratish.

Kimyo va sivilizatsiya. Ximiyaning predmeti metallar va pista ko‘miri olov-mehnatning universal vositasi sifatida. Kulolchilik, shisha pishirish va unga kerak bo‘lgan xomashyolar. Moddalarni issiqlik ta’sirsiz o‘zgartirish.

Ellinizm davrida kimyo. Kimyo hunar va mo‘jiza yaratuvchi soha sifatida.

Alkimyoning kelib chiqishi va o‘ziga xos tomonlari. Buyuk Albert yunon-misr alkimyosi.

Arab alkimyosi. Sharq alkimyosi va uning eng mashhur namoyondalari. G‘arb alximigi va u erishgan natijalar va yutuqlar. Alkimyoning tugallanishi. Kimyoning birlashish davri.

Kimyoning vazifalari to‘g‘risida aytilgan R.Boyl fikrlar. “Flogiston” nazariyasining alkimyoga qarshi qo‘yilishi. G.Shtal, R.Lulliy, R.Bekonlarning g‘oyalari.

Sanoat revolyutsiyasigacha kimyoviy hunarmandchilikning rivojlanishi. Kashf qilinishi kimyoda yangi yuksalish bosqichini belgilangan moddalar va materiallar shisha, chinni, keramika tuzlar, qog‘oz ishlab chiqarish, Kant, Leblan usullarida soda olish.

Tajribaviy usullarning rivojlanishi Lomonosovning ilmiy faoliyati.Lavuaze laboratoriyasi. Berseliusning kimyoviy analiz sohasidagi ishlari. Moddalarning tarkibi va xossalari to‘g‘risidagi fikrlarning shakllanishi. Yangi-yangi elementlarning kashf qilinishi. Element tushunchasining evolyutsiyasi.

Buyuk Sharq va Markaziy Osiyoda mutafakkir va faylasuf olimlarning namoyondalari va ularning kimyo sohasidagi ishlari (Jobir ibn Xayyom, Kindiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abulabbos Farg‘oniy).Birlashish davri.Yatroximiya Davrining o‘ziga xos tomonlari. Yatroximiya va uning erishgan natijalari. Texnik kimyoning XVI va XVII asrlardagi boshlang‘ich qadamlari. Metallurgiya texnik kimyoni namoyondalari va yutuqlari. Birlashish davri. Pnevmoximiya. XVII asrda amaliy kimyo va atomistika. Boylning zamondoshlari.

Flogistika va uning maydonga chiqishi. Shtal va flogistikaning boshqa namoyondalari va tarafdorlari (Blok, Kavendish, Pristli) va boshqalar.

Lavuazening XVII asr namoyondasi o‘ziga xos o‘rni. Hayoti va faoliyati. Flogiston nazariyasiga qarshi kurash. Kimyoviy nomenklaturaning kiritilishi.

XIX asr kimyosi. Miqdoriy qonunlar davri. XIX asrning dastlabki 60-yili mobaynida hozirgi zamon kimyosining eng muhim qonun va qoidalari (ekvalent, tarkibning turg‘unligi, karrali nisbatlar. Daltonning atom nazariyasi. Gazlarning hajmiy birikish qonunlari (Gey-Lyussak, Avogadroning molekulyar nazariyasi. Atom massalarini reforma qilish elektroliz qonunlari (Faradey)ning kashf qilinishi. S.Kannitsaroning atom reformasi. XIX va XX asrlarga organik kimyoning rivojlanishi. U.Perkin va A.Baerlarning ishlari. Organikkimyo va kimyoviy nazariyalar. Murakkab radikallar, metallepsiya, izomeriya va gomologlar. Organik moddalarning tuzilishi, nazariyalari. XX asrda organik kimyoning taraqqiyoti. Organik sintez (O.Fisher, P.KarrerR.Vudvord, Xofmanlarning organik sintez sohasidagi, Dj.Uotson va F.Kriklarning DNK va RNK larning ikkilamchi tuzilishini aniqlash bo‘yicha erishgan olamshumul yutuqlari). Pregl tomonidan organik reaksiyalarni mikroanaliz metodi vositasida ishlab chiqilishi. Katalitik organik sintez bioorganik kimyo va uning ahamiyati kimyoviy biotexnologiyasi.

Elementlarning davriy sistemasi. Davriy jadvallarning xillari. Davriy qonun kimyoviy elementlarning barqarorligini atom yadrosining tarkibiga bog‘liqligi.

Noorganik kimyoning yangi bosqichga ko‘tarilishi. XX asrda kvant-mexanika va kvant kimyo. Metalloorganik katalizatorlarning yaratilishi (Sigler, Natta). Koordinatsion birikmalar kimyosi. Kimyoviy bog‘lanish nazariyasining yaratilishi. Moddalarning fazoviy tuzilishini atomlar va molekulalarning elektron konfiguratsiyasi asosida tushuntirish.

O‘zbekistonda kimyo fani va sanoati va ularning rivojlanishi asoslari. O‘zbekistonda mashhur kimyogar olimlari va ularning ilmiy faoliyati.

Qishloq xo‘jalik zarakundalariga qarshi kurashishda uglevodlar xomashyosidan ratsional foydalanish.

1.9. Yashil kimyo

Yashil kimyo – atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, resurslardan samarali foydalanish va xavfsiz kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida yaratilgan kimyo sohasining yo‘nalishi. Zararli chiqindilarni kamaytirish va ekotizimni muhofaza qilish. Toksik moddalarning ishlatilishini cheklash. Xomashyodan maksimal foydalangan holda chiqindilarni kamaytirish. Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish. Inson salomatligi uchun xavfsiz bo‘lgan moddalar yaratish. Yashil kimyoning organik, noorganik, analitik, sanoat kimyosi, kimyoviy injeneriya bilan bog‘liqligi. Yashil kimyo sohasidagi yutuqlar.

Jon Varner prinsiplari. Yashil kimyoda miqdoriy o‘lchov Ye-faktori. “Iflos” jarayonlar. Sintetik usullarning ishlatilishi. Kimyoviy reaksiyalar unumini oshirish. Atom effektivligi tushunchasi. Effekt yo‘lini yo‘lini qisqartirish. “O‘ldiruvchi”, “aldab chaqiruvchi”,
“qo‘rqituvchi” moddalar.

“Kraxmal -glyukoza-spirt”sxemasi bo‘yicha yoqilg‘i olish biotexnologiyasi. sellyuloza va kraxmal biomassalaridan foydalanish. Spirtni dondan ishlab chiqarish texnologiyalari. Etilen ishlab chiqarish texnologiyasi. O‘simliklar xom ashyosi. Quyosh, shamol va suv energiyalari. Neft krizisi. Yog‘och yoqilg‘ilar. Ajraladigan zaharli gazlar. Yog‘och yoqilg‘ilarida harakatlanadigan avtomobillar ishlab chiqarish. Yangilanadigan energiya manbalarini yaratish texnologiyasi.

Nanotexnologiya usullari. Ajralib chiqayotgan chiqindilarni tezlikda kamaytirish, samaradorlikni oshirish. Yangi molekulalarni yaratish. Yangi materiallarga DNK joylashtirish. Quyosh energiyasi va yoqilg‘i elementlaridan foydalanish, energiya uzatishning yangi usullarini yaratish.

Chiqindisiz texnologik jarayonlarni hosil qilishning asoslari. Non, vino, pivo, pishloq ishlab chiqarish. Aminokislotalar, har xil oqsillar, fermentlar, vitaminlar, gormonlar, antibiotik. Yog‘och, poya, barg, lignin, sellyuloza, sellobioza. Shakardan sut, limon, shavel kislotalarining olinishi. Kimyoviy jarayonlar o‘rniga biologik jarayonlardan foydalanish. Mikrob va bakteriyalar – biokatalizatorlar. Natriy glutamat. Lizin. “Oq” kimyoning rivojlanishi.

Tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish. Sanoat ishlab chiqarish korxonalaridan chiqariladigan chiqindilarni zararsizlantirish usullari.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning normativ-huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari. Atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun jazo choralari.

1.10. Tanlov fanlari

Kichik molekulali bioregulyatorlar - inson, hayvon va mikroorganizmlarda turli funksiyalarni bajaruvchi fiziologik faol moddalar.

Alkaloidlar, vitaminlar, terpenoidlar, antibiotiklar, steroid gormonlar, o‘simlik gormonlari, tabiiy zaharlar va toksinlar, dorivor moddalar, pestitsidlar, prostoglanidinlar.

Kichik molekulali bioregulyatorlarni o‘rganish.

Polifenollar. O‘simliklardagi polifenollar, ularning ahamiyati, sifat reaksiyalari, ajratib olish usullari, turkumlari. C6-C1 polifenol birikmalar ajratib olish usullari, kimyoviy xossalari.

O‘simlikdan ajratilgan biologik faol anfleraj, Avisenna, Galen, Gattefos,terpenoidlar, monoterpenoidlar moddalar orasida muhim o‘rinni α- va γ-pironlar-kumarinlar, xiromonlar va ksantonlar. Spazmolitik, antikoagulyant, kapillyuar mustahkamlovchi, shamollashga qarshi va o‘t haydash ta’siriga ega bo‘lgan moddalar. Medisinada keng qo‘llanilayotgan preparatlar: bergapten, ksantotoksin, psoralen, ammifurin, beroksan, meladinin, metoksilin; spazmalitik xususiyatli moddalar: visnadin, digidrosamidin, atamantin, pteriksin. 4-gidrooksi kumarin hosilalari.

Flavanoidlar, ularning turkumlari, kimyoviy xossalari, ajratib olish usullari. O‘simlik flavanoidlarining guruhlari. Flavon (I) va flavon (3-oksiflavon (II)) hosilalari uchraydi.

O‘simliklardan ajratib olingan sof holdagi flavonoidlar (glikozidlar va aglikonlar). Flavonoidlarning glikozidlarining xossalari. O‘simlik xom-ashyosini tayyorlash. Flavonoidlarni tekshirish. Flavonoid glyukozidlarning gidrolizi, xalkon-flavonon izomerlanishi va flavonon sintezlar ta’siri.

Xromotogrammadagi erkin qaytaruvchi. Qandlarni aniqlash. Qog‘oz xromatografiyasi, flavonoidlar, ajratish va identifikatsiya, stasionar va mobil faza, erituvchilar tizimi, Rf (Retension faktor) qiymati, rangli reaksiya, spektrofotometriya, o‘simlik ekstraktlari, kimyoviy markerlar.

Katexinlar, polifenollar, antioksidant xususiyatlar, stereokimyo, epikatexin, gallat hosilalari, kondenslangan tanninlar, izomerlar, biosintez, kimyoviy tuzilma, funksional guruhlar, optik faollik, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, biologik faollik.

Xushbo‘y moddalar, efir moylar, aromaterapiya, presslash, distillyatsiya, ekstraksiya, seskviterpenoidlar, klassifikatsiyasi, xossalari, ishlatilishi, biosintez

Antotsianlar ularning tuzilishi kimyosi ajratib olish usullari va ishlatilishi. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish. Xinonlar, p-benzoxinon, o-benzoxinon, gidroxinon, triatsetiloksigidroxinon, oksigidroxinon, 2,5-dianilinxinon, difenilgidroxinon, monoxlorxinon, yuglon, lauson, oksinitroxinon, sil kasali, naftazirin, antraxinon, naftaxinon.

“O‘zbekiston Respublikasi giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha milliy strategiyani amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga

mo‘ljallangan milliy dastur”ining mazmuni, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish.

Terpenlar. Terpenlar tabiiy birikmalarning muhim sinfi. Terpenlarning organik kimyo nazariyasi rivojidagi o‘rni.

Glitsirizin kislota, xossalari, biologik faolligi. Tetra va politerpenlar. Tarakserol, alnusenon, fridepin, gutopercha, kauchuk, xossalari, olinishi, ishlatilishi

Atsiklik monoterpenoidlar – spirtlar, aldegidlar, ketonlar, uglevodlar. Monobitsiklik monoterpenoidlar, kimyoviy xossalari. Seskviterpenlar. Pachuli spirti, farnezol efiri, santalol. Aksa urishni susaytirishda ledol. Seskviterpen laktonlarining xossalari.

Diterpen birikmalar. Taksol. Forbol. O‘simlik o‘stirish xossasiga ega diterpenoidlar. Antifidant va antifungidsid xususiyatlar.Diterpenlar, nomlanishi, tuzilishi. Saqich kislotalari, abiet kislotasi. Lagoxilin, biologik faolligi.

2. IXTISOSLIK FANLARI

2.1. Kimyo o‘qitish metodikasi

Kimyo o‘qitish metodikasi fanining tizimi, tuzilishi va ilmiy fan sifatida rivojlanиши. Kimyo o‘qitish metodikasining vazifalari. O‘quvchilarda dialektik materialistik dunyoqarash asoslari hosil qilish. Uzluksiz ta’lim sistemasi. O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarda kimyoviy ta’limning hozirgi zamon yo‘nalishlari.

Metod tushunchasi. “Kimyoni o‘qitish metodlari”, “kimyo ta’limi metodlari”. Kimyo ta’limi metodlarining tasnifi. Umumiy mantiqiy metodlar. Umumiy pedagogik metodlar.

Kimyo ta’limining xususiy metodlari. Kimyoviy tajriba kimyo o‘qitishning o‘ziga xos metodi sifatida. Kimyo ta’lim jarayonida tarbiyaning ahamiyati. Kimyo ta’limida rivojlantirish metodlari.

Zamonaviy kimyo darsi. Kimyo darsi va unga qo‘yilgan zamonaviy talablar, didaktik, psixologik va metodik talablar. Dars shakllari: 1) individual (o‘qituvchining har bir o‘quvchi bilan yakka tartibda ishlashi), 2) frontal (o‘qituvchining butun sinf bilan bir tomonlama ishlashi), 3) guruhiy (4-6 kishilik guruhlarda o‘quvchilarning ishlashi), 4) jamoaviy (sinf o‘quvchilarining bitta jamoa bo‘lib ishlashi).

Dars turlari: 1) yangi mavzuni o‘zlashtirish darsi, 2) o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash darsi, 3) o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni takrorlash darsi, 4) o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni tizimga solish va umumiylashtirish darsi, 5) o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni nazorati, 6) aralash (kompleks) dars. Har bir dars turlariga mos kelgan dars bosqichlari. Darsning motivatsiya (yangi mavzuga qiziqtirish) bosqichi va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. Darsning refleksiya

(o‘quvchilarning dars davomidagi o‘z faoliyatini tahlil qilishi va baholashi) bosqichi va uni o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar.

Dars ishlanmasi – o‘qituvchi ijodkorligini aniqlovchi omil. Dars rejasi – darsni pedagogik, didaktik va uslubiy jihatdan rejalashtiruvchi, loyihalashtiruvchi hujjat. Dars ishlanmalarini yaratish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. Dars ishlanmasining tuzilmasi: 1) dars mavzusi, 2) dars maqsadlari, 3) dars natijalari, 4) darsda foydalaniladigan ma’lumot manbalari, o‘quv uslubiy adabiyotlar va elektron resurslar, 5) darsda ishlatiladigan zarur texnik vositalar va jihozlar, 6) dars shakli, 7) dars turi, 8) dars metodlari, 9) dars bosqichlari va vaqt taqsimoti, 10) dars borishining qisqacha tafsiloti.

Darsning tafsilotlarini bayon qilish ketma-ketligi: 1) tashkiliy qism, 2) yangi mavzuni boshlashga hozirlik (yangi mavzu bilan bog‘liq o‘tgan dars mavzularini takrorlash; yangi mavzuni o‘tishdan oldin o‘quvchilarning bu mavzuga oid bilim darajalarini aniqlash va baholash; yangi dars maqsadini tushuntirish), 3) yangi mavzuni yoritish (dars materiallarini kichik–kichik bo‘laklarga bo‘lib, ketma-ket ma’lum uzviylikda va mantiqiy bog‘liqlikda ko‘rgazmali tarzda hamda turli o‘qitish uslublaridan foydalangan holda berish), 4) yangi mavzuni mustahkamlash (olingan nazariy bilimlarni aniq misollarga qo‘llab va turli topshiriqlarni bajarib, o‘quvchilarda mavzuga oid amaliy ko‘nikmalar hosil qilish), 5) darsga yakun yasash va baholash (darsning maqsadini yana bir bor eslatish va unga qanchalik erishilganlikni o‘quvchilar bilan birgalikda aniqlash, darsning asosiy lahzalarini esga olish, o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha savollarga javobini tinglash hamda darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni baholash, refleksiya (o‘quvchilarning dars davomidagi o‘z faoliyatini tahlil qilishi va baholashi), 6) uyga vazifa (o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni yanada mustahkamlashga, kelgusi dars uchun hozirlik ko‘rishga qaratilgan mustaqil bajariladigan savol, mashq va topshiriqlar majmuasi) va baholash (baholash uchun beriladigan savol va topshiriqlar aynan dars maqsadidan kelib chiqqan, mavzuni o‘zlashtirishga erishilgan yoki erishilmaganligini aniqlashdan iborat bo‘lishi lozim). Dars maqsadlarini to‘g‘ri va aniq ifodalash bo‘yicha tavsiyalar. Dars maqsadi va natijalarining o‘zaro mutanosibligini ta’minlash. Motivatsiya va refleksiya.

Dars materiallari, testlar, viktorinalar va so‘rovnomalar yaratish, Sway yordamida dars materiallari, taqdimotlar va hisobotlarni interaktiv tarzda yaratish. PhET Interactive Simulations, ChemCollective Virtual labs, Labster, Edulab, Molecular Workbench, Ta’lim.uz da: Virtual Laboratoriya va boshqa texnologik vositalardan foydalanish.

Kimyoviy tushunchalarni vizualizatsiya (ko‘rgazmali) qilishda raqamli manipulyatorlar (interaktiv trenajer, simulyatorlar) dan foydalanish. Interaktiv ta’lim vositalari.

Fan kabineti va laboratoriya xonasini tegishli o‘quv-laboratoriya anjomlari bilan ishlash. fan kabineti va laboratoriya xonasiga tegishli hujjatlarni yuritish. Laboratoriya

ishlarini amalga oshirishda texnika xavfsizligi va unga amal qilish qoidalari. Belgilangan sanitariya-gigiyena normalariga rioya qilish.

Kimyo fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish metodikasi. Maktab dasturida ko‘rgazmali tajribalar. Yangi va qiziqarli tajribalar.

Kimyoga oid elektron o‘quv adabiyotlari, o‘rgatuvchi tizimlar (dasturlar), multimedia ilovalari va ulardan dars jarayonida foydalanish.

Kimyo fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llaniladigan masalalarni zamonaviy ta’lim texnologiyalar asosida yechish yo‘llari: interfaol metodlar, strategiyalar, grafik organayzerlar.

Muammoli ta’lim texnologiyasi (muammo va muammoli vaziyat). Loyihalash texnologiyasi (juftlik, kichik guruhlar, jamoada o‘quv loyihalarini tayyorlash). Moduli ta’lim texnologiyasi (modul va modullar dasturi). Hamkorlikdagi ta’lim texnologiyasi (komandada o‘qitish, kichik guruhlarda o‘qitish).

Baholashning asosiy tamoyillari va maqsadlari. O‘quvchilarni baholashning samarali usullari. Kimyo darslarida summativ va formativ baholash usullari. O‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini samarali baholashning tamoyillari. An’anaviy baholash usullari (testlar, yozma ishlar, og‘zaki so‘rovlar). Innovatsion baholash usullari (portfolio, loyiha baholash, o‘z-o‘zini baholash).

O‘quvchilarning kimyo fanidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalarini baholashga qo‘yiladigan talablar. Baholashning asosiy usullari va tamoyillari. O‘quvchining o‘quv faoliyatini baholashning metodlari. O‘quvchilarning kimyo fanidan o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini hamda tayanch va fanga oid kompetensiyalarini aniqlash bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratni tashkil qilish.

Kimyo fanidan yozma nazorat ishlarini tuzish va o‘tkazish bo‘yicha metodik tavsiyalar. O‘quvchining o‘quv faoliyati monitoringini olib borish mezonlari. Kimyo fanidan ta’lim samaradorligi va sifatini baholash bo‘yicha yo‘riqlar.

Test topshiriqlari va uning asosiy shakllari: 1) ochiq javobli, 2) yopiq javobli, 3) bitta tanlov javobli, 4) ko‘p tanlov javobli, 5) kombinatsiyalashgan test topshiriqlari. Test topshiriqlarini tuzish metodikasi. Kimyo fanidan ishlab chiqiladigan test topshiriqlariga qo‘yiladiladigan asosiy talablar. Kimyo fanidan tuzilgan test topshiriqlarini yechish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar. O‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini baholashning zamonaviy dasturiy vositalari.

Differensial yondashuvning maqsadi. Differensial ta’lim va individual yondashuv (Blended Learning). Kimyo fanini o‘qitishda differensial yondashuvni qo‘llash usullari. Guruh, individual kabi ish shakllaridan foydalangan holda ta’limga differensial yondashuvning maqsadlari – har bir o‘quvchi, uning intilishlari va imkoniyatlarini ko‘rish qobiliyati; sinfda turli xil ish shakllarini tashkil etish.

Kimyo fanini o‘rganishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘quvchilarga yordam berish. Iqtidorli o‘quvchilarning qobiliyatlarini yanada rivojlantirish.

O‘quvchilarning o‘rganish usullariga moslashtirish (vizual o‘rganuvchilar, audial o‘rganuvchilar, kinestetik o‘rganuvchilar). O‘quvchilarning qiziqishlariga mos mavzularni tanlash. O‘quvchilar faoliyatini rag‘batlantiruvchi usullar, o‘yin shaklidagi topshiriqlardan foydalanish. Refleksiya va individual yondashuv.

Kimyo faniga oid differensial yondashuvda o‘quv topshiriqlarini tashkil etish, tayyorlik darajasiga qarab topshiriqlarni tashkil etish (boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilar, o‘rta darajadagi o‘quvchilar, chuqur bilimga ega o‘quvchilar). Topshiriqlarni turli formatlarda berish (yozma topshiriqlar, loyiha asosidagi topshiriqlar, amaliy ishlar). Differensial baholash va natijalarni moslashtirish.

Kimyo fanidan sinfdan va darsdan tashqari mashg‘ulotlar: 1) kimyo to‘garaklari, 2) kimyo kechalari, 3) kimyogar olimlar bilan uchrashuvlar, 4) kimyo musobaqalari, 5) olimpiadalar, 6) “Bilimlar bellashuvi” tanlovi, 7) kimyoviy viktorinalar, 8) kimyo ekskursiyalari, 9) kimyoviy diktant, 10) maktab kimyo matbuotini tashkil qilish, 11) kimyo tarixi va 12) mashhur kimyogar olimlarning ijodiga bag‘ishlangan kechalarni tashkil qilish metodikasi. “Kimyo” fanidan Respublika olimpiadasi. Kimyo bo‘yicha maktab o‘quvchilari uchun xalqaro olimpiadalar. Kimyo fanidan olimpiadalarda test topshiriqlari. Kimyo fanidan Respublika olimpiadasining nazariy bosqichidagi test topshiriqlarining hajmi va mazmuni. Test topshiriqlarining turlari. Test savollari yechimini topishga yondashuvlar. Kimyo fanidan olimpiadaning turli bosqichlarida test topshiriqlarining xususiyatlari. Kimyoning asosiy mavzulariga oid masalalar yechish.

O‘qitish muhitiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar. Kimyo darslarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati. Kimyo darslarida 4K. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarni rivojlantirish. Fanni o‘qitishda o‘quvchilarni kreativ fikrlashga yo‘naltirish asosida darslarni tashkil etishning interfaol metodlari. Kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilar bilish faoliyatini faollashtirish metodlari.

Kimyo fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi. Kimyo bilan geografiya, biologiya, fizika, informatika, matematika, iqtisodiy bilim asoslari va boshqa umumta’lim fanlari orasidagi bog‘lanishlarga doir misollar. Kimyoni va boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘tish darslarida kompetensiyalarni shakllantirish va o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga qaratilgan tadbirlar.

STEAM texnologiyalarini kimyo o‘quv jarayoniga integratsiya qilish. STEAM texnologiyasining afzalliklari. STEAM komponenti. Ilg‘or xorijiy tajriba (AQSh, Ozarbayjon). Tajribalarni simulyatsiya qilish uchun raqamli vositalardan foydalanish (masalan, PhET Interactive Simulations). Muhandislik muammolarini hal qilish (masalan, suv tozalash tizimini loyihalash). San’at orqali kimyoni kundalik hayot bilan bog‘lash.

Loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning). Tadqiqot va loyiha usullari. O‘quvchilarning ilmiy qiziqishlarini rivojlantirish. Ilmiy loyihalar va tadqiqotlarni tashkil etish metodikasi.

Loyihalash texnologiyasi. Loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi. Tadqiqot xarakteridagi loyihalar. Ijodiy xarakterdagi loyihalar. Juftlik, kichik guruhlar, jamoada o‘quv loyihalarini tayyorlash.

Kimyo darslarini kuzatishdan ko‘zlangan maqsadlar. Ochiq, ko‘rgazmali, namunaviy, hisobot darslari va ularga qo‘yilgan talablar. Darsni tahlil qilishning ahamiyati.

Darsni baholash mezonlari: 1) o‘qituvchining darsga tayyorgarligi tahlili (dars ishlanmasi, taqvim-mavzu reja, o‘quv dasturi, darslik, dars taqdimoti, ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va h.k.larni oldindan hozirlab qo‘yilganligi), 2) dars mazmuni tahlili (dars maqsadining to‘g‘ri belgilanganligi, mavzuning boshqa fanlar bilan bog‘langanligi, dars mavzusini mustahkamlash uchun berilgan topshiriqlarning to‘g‘ri tanlanganligi, o‘qituvchining o‘z fanini qanchalik mukammal bilishi), 3) darsning uslubiy tahlili (o‘qitishning turli usullaridan to‘g‘ri va o‘rnida foydalanganligi, darsning interfaollik darajasi (o‘quvchilarni faollashtiradigan guruhlarda yoki mustaqil ishlashiga sharoitning qanchalik yaratilganligi), dars vaqtining to‘g‘ri taqsimlanganligi, o‘quvchilarning darsdagi guruhiy yoki mustaqil ishining to‘g‘ri tashkil qilinganligi, o‘quv materiallarining tabaqalashtirilganlik darajasi (yaxshi va qiyin o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga munosabat), 4) o‘qituvchining pedagogik mahorati tahlili (o‘qituvchining dars mavzusini ravon tilda tushuntira olishi, o‘qituvchining darsda o‘zini dadil tuta olishi, motivatsiya (o‘quvchilarni ta’lim olishga undash) va uni rag‘batlantirib borishi, dars davomida ijodiy, ta’limiy muhitni yarata olganligi, darsga oid ko‘rgazmali qurollar, jihozlar va asboblardan o‘rnida foydalanganligi, o‘quvchilarning faolligi), 5) darsda darslik va boshqa qo‘shimcha o‘quv materiallaridan foydalanish tahlili (darsda darslikdan samarali foydalanish darajasi, qo‘shimcha o‘quv materiallaridan foydalanish darajasi), 6) darsda AKT va ta’limning boshqa vositalaridan foydalanish tahlili (o‘qituvchining proyektor, multimedia va boshqa texnik vositalardan foydalana olish darajasi, o‘qituvchining tayyorlagan taqdimot sifati yoki o‘quv doskasidan samarali foydalana olishi, taqdimot sifati yoki mavzu asosiy momentlarining doskaga yozib borilishi), 7) darsda yaratilgan ta’limiy muhit va munosabatlar tahlili (o‘qituvchining o‘quvchilarga nisbatan munosabati: xushmuomalaligi, til topa olishi, o‘quvchilarning bir-birlariga nisbatan munosabati: o‘zaro yordam, hurmat, hamjihatlik, o‘quvchilarning o‘qituvchiga nisbatan munosabati: hurmat, intizom, eshitish), 8) Baholash va darsga yakun yasash tahlili (o‘quvchilarning dars davomida bilim va ko‘nikmalarining to‘g‘ri baholab borilishi, baholash topshiriqlarining dars maqsadidan kelib-chiqib tuzilganligi, dars oxirida darsga yakun qilinishi, refleksiya)

Umumiy o‘rta ta’lim maktabida kimyo darsini kuzatish va uni didaktik (ta’limiy) va uslubiy tahlil qilish.

2.2. Kimyodan masalalar yechish metodikasi

Kimyoviy masalalarni yechishdan asosiy maqsad – kimyoviy qonun va qoidalarni, ulardan foydalanishni kimyoviy formulalar tuzishni o‘rgatish. Masala yechishda e’tiborni qaratish zarur bo‘lgan jihatlar. Kimyoviy masalalarni yechishda qisqartirilgan yozuvlardan, matematik ifodalardan foydalanish. Nisbiy atom massa va nisbiy molekulyar massa, Moddalar massasining saqlanish qonuni, Stexiometrik sxema asosida masalalar yechish. Moddalarning kimyoviy formulalarini topishga doir masalalar yechish.

Kimyoviy formulalarning oddiy va haqiqiy formulalarga bo‘linishini bilgan holda, oddiy formula modda molekulasi tarkibidagi har bir element atomlari soni orasidagi nisbatni, haqiqiy formula esa modda molekulasi har bir element atomlarining haqiqiy sonini ko‘rsatishi haqida bilimlar berish. Kimyoviy reaksiyalarning tenglamalari reaksiyaga kirishayotgan va reaksiyada hosil bo‘layotgan moddalarning formulalari asosida tuzilishi va moddalar massasining saqlanish qonuniga binoan tenglashtirilishi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va ularni tenglash usullari.

Kimyo sanoatida xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan ko‘pchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda gaz moddalardan foydalanish. Avogadro qonunidan kelib chiqadigan xulosalar. Kimyoviy ekvivalent, elementlarning atom massalari, atom tuzilishiga doir masalalar yechish. Kimyoviy reaksiyalarning tenglamalari reaksiyaga kirishayotgan va reaksiyada hosil bo‘layotgan moddalarning formulalari asosida tuzilishi va moddalar massasining saqlanish qonuniga binoan tenglashtirilishi.

Moddalarning gaz, suyuq va qattiq holatlarda bo‘lishi J.L.Gey-Lyussak reaksiyaga kirishayotgan va hosil bo‘layotgan gazlarning hajmlari o‘zaro oddiy butun sonlar nisbatida bo‘lishi, hajmiy nisbatlar qonuni. Avogadro qonuni Har qanday gazning bir mol miqdori normal sharoitda 22,4 l hajmni egallashi (molyar hajm) va shuncha hajmda $6{,}02 \cdot 10^{23}$ ta molekula (Avogadro soni) bo‘lishi. Gazlar bilan bog‘liq bo‘lgan hisoblashlar, Boyl-Mariott, Gey-Lyussak va Sharl qonunlari.

Eksperimental masalalarning turlari va ularni yechish usullari. Amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish Dispers sistema u yoki bu turining hosil bo‘lishi muayyan agregat holatning yuzaga kelishidagi molekulalararo, ionlararo, atomlararo va boshqa o‘zaro ta’sir kuchlari tufayli. Bir xil agregat holatda faqat bir xil turdagi modda zarrachalari ta’sirlashuvi uchrasa, dispers faza hosil bo‘lishida har xil moddalar zarrachalarining ta’siri.

Kimyoviy masalalar yechishning algebraik usuli. Uch noma’lumli tenglamalar sistemasini tuzib yechiladigan masalalar. Kimyodan murakkab testlar tuzi va test topshiriqlari ishlash usullari. Aralashmadagi metallarning (foiz) tarkibini aniqlash. Uch noma’lumli aralashmalar bo‘yicha namunaviy masalalar. Mustaqil ishlash uchun masalalar.

2.3. Kimyoviy eksperimentlar o‘tkazish metodikasi

Kimyo fanining asosiy vazifalari. Fanning asosiy tushunchalari. Kimyoning biologiya, agrokimyo, tabiatdan foydalanish kabi fanlar bilan bog‘liqligi va ahamiyati. Atom-molekulyar ta’limot va uning zamonaviy talqini. Kimyoning asosiy stexiometrik qonunlari: massaning saqlanish qonuni, tarkibning doimiylik qonuni, ekvivalentlar qonuni, karrali nisbatlar qonuni, Avogadro qonuni.

D.I.Mendeleyevning davriy qonuni. Elementlar davriy sistemasi va uning ahamiyati. Atom tuzilishi, atomning yadro modeli. Bor postulatlari. Atomda elektronning energetik holati va ularning orbitalarda taqsimlanishi.

Kimyoviy bog‘lanish va ularning turlari. elektrmanfiylik. Kimyoviy bog‘ning asosiy xususiyatlari va kimyoviy bog‘ning hosil bo‘lish mexanizmi. Kimyoviy bog‘ning to‘yinuvchanligi va yo‘naluvchanligi. Kimyoviy bog‘lanishlarning asosiy turlari: ion, kovalent (qutbli va qutbsiz), donor-akseptor, vodorod va metall bog‘lanishlar.

Kimyoviy kinetika va kimyoviy muvozanat. Kimyoviy reaksiya tezligi, tezlik doimiysi, uning ifodalanishi va fizik ma’nosi. Reaksiya tezligining ta’sirlashuvchi moddalar tabiati, konsentratsiyasi va haroratga bog‘liqligi, faollashish energiyasi. Qaytar va qaytmas reaksiyalar. Kimyoviy muvozanat.

Eritmalarning umumiy tavsifi va ularning ahamiyati. Dispers sistemalar: emulsiya va suspenziyalar. CHin va kolloid eritmalar. Erishning issiqlik effekti. Eruvchanlik. To‘yinmagan, to‘yingan va o‘ta to‘yingan eritmalar. Qattiq, suyuq va gaz moddalarning suyuqliklarda eruvchanligi.

Osmos va osmotik bosim. Raul qonuni. Eritmaning muzlash va qaynash haroratlari. Eritmalar konsentratsiyasini ifodalashuvlari. Elektrolitik dissotsilanish nazariyasi. Dissotsiatsiya jarayoni. Dissotsilanish darajasi va doimiysi. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar. elektrolitik dissotsilanish nazariyasi nuqtai nazaridan kislota, asos va tuzlarning xossalari.

Tuzlarning gidrolizi. Kation va anion bo‘yicha gidroliz mexanizmlari. qaytmas gidroliz. Bosqichli gidroliz. Gidroliz doimiysi va gidroliz darajasiga ta’sir etuvchi omillar. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari. Biologik jarayonlarda boradigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari. Oksidlanish darajasi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining mohiyati. eng muhim oksidlovchi va qaytaruvchilar. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining turlari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tuzishning elektron va ion balans usullari.

Analitik kimyo va uning uslublari. Analitik kimyoning vazifalari. Hozirgi vaqtda biologik jarayonlarini borishida, tabiatni muhofaza qilishda analitik kimyo fanining roli. Kimyo va moddalar aralashmasining sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash.

Analitik reaksiyalar. Analitik reaksiyalarni o‘tkazish usullari va amalga oshirish shart-sharoitlari. Reaksiyalarning sezuvchanligi, tanlab ta’sir etishi va o‘ziga xosligi. Eritmani bo‘lib-bo‘lib va sistematik analiz qilish.

Kislota – asos nazariyasi ko‘ra kationlar va anionlarning guruhlarga bo‘linishi. Guruh reagenti.

Gomogen sistemadagi muvozanat. qaytar-qaytmas reaksiyalar, kimyoviy reaksiyalarning tezligi va reaksiyalarning tezligiga ta’sir etuvchi omillar, massalar tahsiri qonuni. Muvozanat konsantasi. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar.

Bufer eritmalar va ularning xossalari. Biologik sistemalarda bufer sistemalarning roli, ularning xillari va ta’sirlanish jarayonlari.

Geterogen sistemadagi muvozanat. eruvchanlik ko‘paytmasi. Bir ismli ionlarning eruvchanlikka ta’siri. Cho‘kmalarning hosil bo‘lishi va cho‘kmalarning erishi. Kimyoviy cho‘kish jarayonlariga vodorod ko‘rsatkichi pH ni ta’siri. Birin-ketin cho‘ktirish. Turli omillarning to‘la cho‘kishga ta’siri.

Miqdoriy analiz. Miqdoriy analiz uslublari. Tortma (gravimetrik) analiz va unga qo‘yilgan talablar. Hajmiy analizning mohiyati. eritma konsentratsiyasini ifodalash usullari va hajmiy analiz natijalarini hisoblash. Titrimetrik analiz va uning asosiy qoidalari. Kislota-asosli titrlash. Indikatorlar nazariyasi. Indikatorlarni tanlash. Titrlash egri chiziqlari.

Organik kimyo fani tarixi, rivojlanishi bosqichlari, predmeti va vazifalari, Organik kimyo fanining xalq xojaligidagi ahamiyati. Organik kimyoning nazariy asoslari. Organik birikmalarni nomlashning asosiy tamoyillari.

To‘yingan uglevodorodlar (Alkanlar). Gomologik qatori, izomeriyasi, nomenklaturasi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalar va ishlatilishi. Sikloalkanlar, tuzilishi va xossalari haqida qisqacha ma’lumot.

To‘yinmagan uglevodorodlar: Etilen qatori to‘yinmagan uglevodorod (Alken) larining, gomologik qatori, nomenklaturasi, olinish usullari, Fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi. Etilen qatori uglevodorodlarining polimerizatsiyasi.

Dien qatori to‘yinmagan uglevodorodlaring gomologik qatori, nomenklaturasi, olinishi, izomeriyasi, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi. Sintetik kauchuk olish. Atsetilen qatori to‘yinmagan uglevodorod (Alkin) larning gomologik qatori, nomenklaturasi,olinishi, fizik-ximiyaviy xossalari va ishlatilishi.

Aromatik uglevodorodlar. Aromatik uglevodorodlarning gomologik qatori, sinflanishi va izomeriyasi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi. Izolirlangan va kondensirlangan aromatik uglevodorodlar, Difenil va uning olinishi, fizik-kimyoviy xossalari. Naftalin, antratsen va fenantren. Ularning sinflanishi va nomlanishi,olinish usullari va fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi.

Uglevodorodlarning galogenli birikmalari, ularning nomenklaturasi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi. Spirtlar, ularning nomlanishi, sinflanishi, izomeriyasi, olinish usullari, fizik va kimyoviy xossalari. Spirtlarning xalq xo‘jaligi va tibbiyotdagi ahamiyati. Oddiy efirlar, ularning olinishi, nomlanishi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi.

Karbonil birikmalar, ularning sinflanishi, nomenklaturasi, karbonil birikmalarning olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi (Aldegidlar va ketonlarning tuzilishi va xossalari).

Karbon kislotalarning tuzilishi, nomlanishi, izomeriyasi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi. Murakkab efirlar, yoglar, o‘simlik va hayvon yoglari kimyoviy tarkibi haqida dastlabki tushunchalar hosil qilish, to‘yingan va to‘yinmagan yog kislotalari, amidlar va angidridlar, ularni sanoat va xalq xojaligidagi ahamiyati. Lipidlar va sovunlar.

Azot tutuvchi organik birikmalar, tabiatda uchrashi, nomlanishi, izomeriyasi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va amaliy ahamiyati. Oksi-, okso-, galogen- va aminokarbon kislotalar, ularning nomlanishi, izomeriyasi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va amaliy ahamiyati. Aminokislotalar va oqsillar.

Aromatik uglevodorodlarning galogenli hosilalari, nomlanishi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi. Aromatik nitrobirikmalar, ularning nomlanishi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi. Aromatik aminobirikmalarning sinflanishi, nomlanishi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ahamiyati. Aromatik azo- va diazo-birikmalar. Aromatik sulfobirikmalar, ularning nomlanishi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi.

Fenollar (bir atomli va ko‘p atomli fenollar), ularning nomlanishi , olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi. Naftollar va aromatik spirtlar.

Aromatik karbonil birikmalarning sinflanishi va nomlanishi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va amaliy ahamiyati. Aromatik karbon kislotalarning sinflanishi, nomlanishi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari va amaliy ahamiyati. Aromatik karbon kislotalarning xossalari.

Karbonsuvlar, ularning tabiatda uchrashi, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari. Mono- va polisaxaridlar, ularning tuzilishi va tirik organizmlar hayot faoliyatidagi ahamiyati.

Fizik kimyo fani, uning uslublari. Fizik kimyo fanining biologiya, ekologiya va boshqa tabiiy fanlarining rivojlanishidagi ahamiyati.

Kimyoviy termodinamika asoslari. Termodinamika qonunlari. Ichki energiya. Qaytar va qaytmas jarayonlar. Gess qonuni. Kirxgoff tenglamasi. Termokimyo.

Eritmalar. Krioskopiya va ebulioskopiya. Osmos va osmotik bosim. Osmotik bosimning biologik ahamiyati. Elektrolit eritmalarining xossalari va elektr o‘tkazuvchanligi, biologiyadagi ahamiyati. Ionlarning harakatchanligi. Kolraush qonuni.

Elektr yurituvchi kuch va chegara potensiallari. Kimyoviy zanjirlar. Bufer sistemalar, bufer sig‘imi.

Kimyoviy kinetika. Kimyoviy reaksiyalarning tezligi va unga ta’sir etuvchi omillar. Fermentlarning aktiv markazlari.

Kolloid kimyo. Kolloid kimyoning biologiya va ekologiyadagi o‘rni. Dispers sistemalar. Dispers sistemalar klassifikatsiyasi. Kolloid eritmalarning olinish usullari va optik xossalari.

Adsorbsiya va adsorbsiya ishi. Suyuqliklar va qattiq jismlarning sirt energiyasi. Sirt taranglik. Sirt aktiv moddalar.

Dispers sistemalarning elektr xossalari. Elektroforez, elektroosmos, sedimentatsion potensial.

Kolloid sistemalarni elektrolitlar yordamida koagulyatsiyalash. Peptizatsiya. Elektrolitlar yordamida oqsillarni cho‘ktirish. Dispers sistemalarning barqarorligi. Kolloid dispersion sistemalar. Aerozol. Yarim kolloidlar. Sovunlar. Bo‘yoqlar.

Dispers sistemalarning barqarorligi. Kolloid dispersion sistemalar. Aerozol. Yarim kolloidlar. Sovunlar. Bo‘yoqlar. Dispers sistemalarning strukturalanishi. Iviqlarni xosil bo‘lishi va tuzilishi. Oqsil iviqlari. Sinerezis va bo‘kish xossalari.

Yuqori molekulyar birikmalar. Makromolekula va uning kimyoviy bo‘g‘ini. Polimerlanish darajasi. Polimerlarni sinflash asoslari. Makromolekulalarning konfiguratsiyalari. Stereoizomeriya. Makromolekulalarning xossalari va ularning bukiluvchanligi. Polimer eritmalarining umumiy xossalari.

2.4. Kimyoni o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish

Pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ta’riflari, sharhlari, mazmun va mohiyatini o‘quv fani va uni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo‘lgan pedagogik texnologiyalarni tanlashni pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farqlar.

Pedagogik texnologiyaning turlari, asosiy yo‘nalishlari va tasnifi Dars modullari, pedagogik texnologiyadagi modul va algoritm tushunchalari va ulardan amalda foydalanish.

Interfaol ta’lim, uning shakllari, asosiy mezonlari va amalda qo‘llanilishi.

Tinglovchilarni amalda qo‘llash uchun ayrim turdagi interfaol mashg‘ulot o‘quv materiallarini tayyorlashini tashkil qilish. Tinglovchilarning mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘zlari tanlagan mavzudagi darsni eng maqsadga muvofiq interfaol usullardan foydalanib o‘tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlash va guruh ishtirokida shu mashg‘ulotning qisqa bayoni va tegishli muhokama o‘tkazish.

Bunda interfaol mashg‘ulotlarini kuzatish, tahlil qilish va samaradorligini belgilash usullari haqida tinglovchilarga zarur ma’lumotlar berish.

Interfaol mashg‘ulotning maqsadi, unga erishish uchun belgilangan vazifalar va ularning mashg‘ulot jarayonida amalga oshirilishini kuzatish, tahlil qilish, sifati va samaradorligini belgilash. O‘qituvchining tayyorgarlik darajasi, o‘quv vositalarining yetarliligini va sifati, mashg‘ulot jarayonining maqsadga muvofiq tashkil etilganligi, mashg‘ulot modullarining amalga oshirilish sifati.

Muammoli ta’limning ilmiy-nazariy asoslari. Muammoli o‘qitishning tarixi haqida. Evristik usullar va ularni ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi roli. O‘quv va ilmiy muammolarning bir-biridan farqi. Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar. Muammoli vaziyat tushunchasi haqida. Muammoli vaziyat yaratish usullari. Muammoli vaziyatni hal etish darajalari. Muammoli vaziyatni yechishda qo‘llaniladigan usullar. Muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarishga qo‘yilgan talablar. “Muammoli vaziyat” metodi haqida. Dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari. Muammoli ta’limning o‘quvchilar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishdagi ahamiyati. Muammoni turli nuqtai-nazardan o‘rganish, tahlil qilish. Turli o‘quv fanlari bo‘yicha dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari haqida.

Mavzu bo‘yicha yakka, kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash va o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirish, fikrlarni yozma, chizma, rasm ko‘rinishida ifodalashga o‘rgatish. Tinglovchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

“Zinama-zina” metodi va uni amalga oshirish bosqichlari. “Idrok xaritasi” ning o‘tkazish texnologiyasi, asosiy qoidalari. Idrok xaritasini tuzish g‘oyasini izohlash. Tafakkur xaritada paydo bo‘lgan fikrlar orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish

“Blits” texnologiyasining afzalligi. “Assisment” Metodning tavsifi, maqsadi, qo‘llanilishi. Kerakli tarqatmalarni tayyorlash. Mashg‘ulot uchun mavzu tanlash.

“Bumerang” texnologiyasi. Dars va darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash. O‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olish. Kitob va matn bilan ishlash texnikasi. Texnologiyadan foydalanish tartibi. Kimyo darslarida qo‘llashga qo‘yiladigan talablar.

“Tushunchalar tahlili” texnologiyasi haqida. O‘tkazish metodlari. Kimyo darslarida qo‘llanilishiga qo‘yiladigan talablar. Kimyo darslarida “FSMU” interfaol metodi.

Kimyo darslarida turli xil o‘yin metodlaridan foydalanish metodikasi. Rolli o‘yinlar, ishchanlik o‘yin darsi, yarmarka darsi, mo‘jizalar maydoni va boshqa o‘yin darslaridan foydalanish.

Tinglovchilarning o‘z tajribasiga suyangan holda tayyorlagan ilg‘or pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosidagi darslari ishlanmasi va darsining taqdimoti o‘tkaziladi. Guruh ishtirokida taqdimotlar muhokama etilib, kerakli tavsiyalar beriladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Huquqiy-me’yoriy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni, – T.: 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni, – T.: 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son Farmoni, – T.: 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79 son Farmoni, – T.: 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori, – T.: 2024.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi nazariy , 2017-yil 14-yanvar // Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2020-yil 29-dekabr).

Fanga oid adabiyotlar

1. Umarov B., Kimyo tarixi. Toshkent. 2015.

2. Axmerov Q., Jalilov A., Sayfutdinov R. Umumiy va anorganik kimyo. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2003.

3. Kimyo. 7-sinf uchun darslik, Asqarov I., G‘opirov K., Azamatova D, G‘aniyeva Sh. T-2022.

4. Asqarov I.R., G‘opirov K., To‘xtaboyev N.X., Kimyo, 8-sinf uchun darslik. T:- “Yangiyul Poligraph Service”, -2019.

5. Asqarov I.R., G‘opirov K., To‘xtaboyev N.X., Kimyo, 9-sinf uchun darslik. T:- “O‘zbekiston” -2019.

6. Organik kimyo. 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Ismatov I., Azamatova D. T-2022.

7. Masharipov S., Mutalibov A., Murodov E., Islomova H., Kimyo, 11-sinf uchun darslik. T:-“G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2018.

8. Axmerov Q., Jalilov A., Sayfutdinov R.S., Umumiy va noorganik kimyo. T.:“O‘zbekiston”, 2007-y.

9. Parpiyev N.A, Muxftaxov A.G, Raximov X.R. “Anorganik kimyo”, T.: “O‘zbekiston”, 2003-y.

10. Parpiyev N.A., Raximov H.R., Muftaxov A.G., Anorganik kimyoning nazariya asoslari. Toshkent, 2000.

11. Glinka N.L., Obshaya ximiya, Toshkent, 2007.

12. Ismatov I.Sh., Omonov H.T., Mahmudov Y.G‘. va boshqalar., Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari. “Yangi nashr” Toshkent-2016.

13. Nishonov M., Mamajonov Sh., Xo‘jayev V. Kimyo o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2012-yil.

14. Rahmatullayev N.G. Kimyo o‘qitish metodikasi fanidan ma’ruzalar matni. Toshkent. TDPU, 2017.

15. Ergasheva M. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 167 b.

16. Ergasheva M. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2023-yil.

17. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘aeva G. Qosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan Axborotnoma 1-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2020 yil.

18. Ergasheva M., Pardayeva M., Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Kimyo fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2022-yil.

19. Ergasheva M., Pardayeva M., Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2022-yil.

20. Ismailov A., Ergasheva M., Azamatova D. O‘quvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini rivojlantirish metodlari. O‘quv qo‘llanma.2024-yil,183 b.

21. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – T.: 2023- y. – 46 b.

22. D.S.Azamatova. “Kimyo fanidan topshiriqlar tuzish metodikasi”. Uslubiy qo‘llanma – T.: 2023.

23. A.Yu.Iskandarov “Kimyodan masalalar yechish metodikasi” Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo” – 2022

24. Rahmatullayev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o‘qitish metodikasi. Toshkent., “O‘qituvchi”. 2008.

25. A.Yu. Iskandarov. D.S.Azamatova, I.Sh.Ismatov. Kimyo o‘qitish metodikasi.-T:, 2023, 367 bet.

26. Ismatov I.I., Azamatova D.S. 10-sinf uchun Kimyo darsligi, Toshkent - 2022.

27. Hasanova S., Azamatova D., Ismatov I., 7-sinf uchun. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent -2022.

28. Hasanova S., Azamatova D., Ismatov I., 10-sinf uchun Kimyo darsligi. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent -2022.

29. I. Asqarov va boshq. 8-sinf uchun Kimyo darsligi, 2019.

30. I. Asqarov va boshq. 9-sinf uchun Kimyo darsligi, 2019.

31. Grant Wiggins Every teacher should ask these questions before implementing that lesson plan.

32. L.L.J.Baartman, E. de Bruijn. Integrating knowledge, skills and attitudes: conceptualising learning processes towards vocational competence.

33. Deng, Zongyi, and S. Gopinathan. “PISA and High-Performing Education Systems: Explaining Singapore’s Education Success” Comparative Education, vol. 52, no. 4, 2016, pp.

34. Gopinathan, S. “Globalisation, Education and Singapore” In Globalisation and Education: Critical Perspectives, edited by Nicholas C. Burbules and Carlos Alberto Torres, 101-123. Routledge, 2000.

35. Low, EL, Teylor, PG, Joseph, J., & Atienza, JC (Tahrirlar). (2009). 21-asr uchun o‘qituvchilar ta’limi modeli. Singapur: Milliy ta’lim instituti, Nanyang texnologiya universiteti

36. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Goh, S., & Cotter, K. (Eds.) (2016). TIMSS 2015 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS. pp.1-40

37. Maslow’s Hierarchy of Needs – Theory of Human Motivation Anjanaben Trivedi Amit Mehta Ph.D. Scholer, Research Guide, Dept. of Commerce, Gujarat Uni. Ahmedabad Dept. of Commerce, Gujarat Uni. Ahmedabad. International Journal of Research in all Subjects in Multi Languages [Author: Anjanaen J. Trivedi] [Subject: Commerce]

38. Tan, Charlene. “Mindful Education: Insights from Ancient Chinese Philosophy and Contemporary Singapore” Oxford Review of Education, vol. 42, no. 1, 2016, pp. 103-115.

39. Zulirfan Muhammad Rahmad, Yennita, Nina Kurnia, Muhammad Sofyan Hadi. Science Process Skills and Attitudes toward Science of Lower Secondary Students of Merbau Island: A Preliminary Study on the Development of MaritimeBased Contextual Science Learning Media. Journal of Educational Sciences. Vol. 2, No. 2, 2018, 90-99

40. Grant Wiggins Every teacher should ask these questions before implementing that lesson plan.

41. Hogan, D., Chan, M., Rahim, R., Kwek, D., & Loo, S. C. (2013). Assessment and the Learning of 21st Century Competencies in Singapore. Asia Pacific Journal of Education, 33(3), 279-297.

42. Umumiy o‘rta ta’limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent 2017 yil.

43. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A**.** Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2012.

44. A.A. Abduqodirov, Q.M. Karimov, I.A. Yuldoshev. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015.

45. B.Boltayev, A.Azamatov va boshqalar. Microsoft Office dasturlari MS Word // Toshkent, 2014 yil.

46. S.S. Jumanazarov, B.Xaydarov, D.Li, Sh.Qayumov “Kompyuter savodxonligi asoslari”.–T.:2014 y.

47. Aripova S.X.“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2010 y.

48. R.Mavlonova. D.Abdurahimova. “Pedagogik mahorat”. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2012 y.

49. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – T.: “Nihol”, 2013y.

50. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil

51. Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil

52. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiev. “Pedagogika”. – T.: “O‘qituvchi”, 2010 y.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 30 ”sentabrdagi
367-son buyrug‘iga
5.26-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISH HUQUQINI BERISH BO‘YICHA KASBIY VA PEDAGOGIK QAYTA TAYYORLASH KURSINING

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar: **M.T.Ergasheva –** A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Uzluksiz kasbiy ta’lim kafedrasi” mudiri, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent;

S.Z.Rashidova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Aniq va tabiiy fanlar bo‘limi bosh mutaxassisi;

X.G.Ostanova – A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti.

D.M. Hakimova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent;

M.U. Badalova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rektor maslahatchisi.

F.A. Murodova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Tayanch doktorant.

Taqrizchilar: **S.I.Zayniyev –** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Biologiya va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsent v.b. p.f.f.d. (PhD).

R.M.Niyozova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi.

N.A. Yuldasheva – Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.d., DSc, prof.

D. F. Yusupova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim menejmenti kafedrasi mudiri v.b.

Mazkur o‘quv dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 20__-yil _____dagi __-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KURSINING O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:

1. **Tabiiy va ilmiy fanlar**

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

2. Pedagogika va psixologiya

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

2.2. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

2.5. Umumiy pedagogika

2.6. Umumiy psixologiya

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

3. Umumkasbiy fanlar

3.1. Mikrobiologiya va biotexnologiya asoslari

3.2. Biologik kimyo

3.3. Biologiyani o‘qitishda raqamli resurslardan foydalanish

3.4. Biologiyani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish

3.5. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik

4. Ixtisoslik fanlari

4.1. Botanika

4.2. Zoologiya

4.3. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi

4.4. Genetika va evolyutsion ta’limot

4.5. O‘simlikshunoslik

4.6. Biologik xilma-xillik va uning muhofazasi

4.7. Biologiya fanini o‘qitish metodikasi

4.8. Biologiyadan masalalar yechishni o‘rgatish metodikasi

4.9. Tanlov fanlari

1. TABIIY VA ILMIY FANLAR

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

Ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Maktab ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”i, Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

Maktab ta’limi sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar.

Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. Maktablarning lokal hujjatlari (ustav, ichki tartib qoidalar).

O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari.

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. Ta’lim oluvchilarning informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi.

Fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Ta’lim oluvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash texnologiyalari zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasi, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish kabi bilimlarga ega bo‘lishi.

Operatsion tizimlar, ularning turlari bilish faolligini oshirish va mustaqil ta’limini tashkil etish asosida amaliy dasturlardan foydalanib, fanni o‘zlashtirishi.

Amaliy dasturlar asosida darslarni tashkil etish. Microsoft Office dasturlarida fanga oid elektron ishlanma va taqdimotlarni yaratish texnologiyalari.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda, o‘zining kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan

samarali foydalanish, amaliy dasturlar, jumladan MS Ofice dasturlar paketi va ularda ishlash, amaliyotda qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi, interfaol ta’lim, “Case study” yordamida o‘quv jarayonida AKTdan foydalanish fanini o‘qitishda amaliy dasturlardan maqsadli foydalanish. Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda elektron jadval muharrirlaridan, jumladan MS Excel dasturi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish. MS Excelda avtomati qo‘shish, avtoto‘ldirish, sodda formulalar, funksiyalar, diagrammalar va filtrlash. Power Point dasturida taqdimotlar yaratish.

Multimediali darslar asosida ta’lim samaradorligini oshirish.

Ta’lim oluvchilarning kasbiy yo‘nalishlaridagi bilish faolligini oshirishda multimedianing asosiy elementlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, audio va video axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

Internet tarmog‘i vositalari. Elektron pochta, ro‘yxatdan o‘tish va fanni o‘qitishda undan foydalanish.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda masofadan o‘qitish texnologiyasidan foydalanib, fanni o‘qitish. Masofaviy ta’limda mahorat darslari, vebinarlarni tashkil etish texnologiyalari. LMS texnologiyasi.

Masofaviy ta’lim. O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.

O‘qituvchining virtual kutubxonasi. O‘quvchining elektron portfoliosi. Fanni o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi.

Internet. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar. Internet turlari va ularning klassifikatsiyasi. Internet xizmatlari va jumladan elektron pochta xizmati.

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

Kirish. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. O‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.

Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining tarixi va rivojlanish tendensiyalari, anatomiya, fiziologiya, yosh fiziologiyasi va gigiyena fanlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining biologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Sog‘lom avlod dasturi va uni targ‘ib qilish. Respublikamizda bolalar salomatligini saqlash yo‘lida olib borilayotgan islohotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena sohasidagi yutuqlar. Fanning vazifalari, o‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Ta’lim jarayonida ratsional usullarni qo‘llashda, har bir o‘quvchiga individual yondashishda pedagoglarning bola organizmining o‘ziga xos o‘sish va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimga ega bo‘lishlari. Yoshlik davrlari va yoshga oid o‘zgarishlari haqida tushuncha. Hujayraning umumiy tuzilishi. Irsiy kasalliklar va ularning turlari.

Nerv tizimining yosh xususiyatlari.

Nerv tizimining ahamiyati va umumiy tuzilishi shakli. Nerv markazlari haqida tushuncha. Nerv markazlarining fiziologik xususiyatlari: qo‘zg‘alish va tormozlanish, taassurotlarni summatsiyalash, kislorod tanqisligiga chidamsizlik, irradiatsiya, induksiya, A.A. Uxtomskiyning “Dominanta qonuni”. Markaziy nerv tizimi bo‘limlari-ning yoshga oid xususiyatlari. Vegetativ nerv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Organizm reflektor faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatini tekshirish usullari. Shartli va shartsiz reflekslar haqida tushuncha. Ularning bir-biridan farqi. Shartli reflekslarning hosil bolishidagi shart-sharoitlar. Dinamik stereotip, nutq funksiyasi va uning fiziologik asosi. Bolalar oliy nerv faoliyatining tiplari va ularning plastikligi.

Nerv tizimi gigiyenasi. Bolalar va o‘smirlarning ishchanlik qobiliyati, charchash va o‘ta charchash haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiya psixogigiyeniyasi. Nevroz (asabiylik). Asab buzilishini oldini olish.

Analizatorlarning yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Analizatorlarning umumiy tuzilishi va ahamiyati. Analizatorlarning turlari: ko‘rish analizatorining yosh xususiyatlari. Ko‘rish qobiliyatining pasayishini oldini olish. Eshitish analizatori. Bolalarda eshitish organining rivojlanishi. Eshitish gigiyenasi. Muvozanat apparati.

Ichki sekretsiya bezlarining yosh xususiyatlari.

Organizmdagi fiziologik jarayonlarining neyron-endokrin sistemasi orqali boshqarilishi. Ichki sekretsiya bezlari haqida tushuncha. Ichki sekretsiya bezlarining joylashuvi. Garmonlar, ularning organizmdagi vazifasi. Organizmning gumoral boshqaruvida garmonlarning tutgan o‘rni. Garmon va stress. Garmonlar va jinsiy yetilish. Ichki sekretsiya bezlarining yoshga oid xususiyatlari.

Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Tayanch-harakat apparatining ahamiyati va vazifasi. Odam skeletining umumiy tuzilishi va yosh xususiyatlari. Suyak tuzilishining yosh xususiyatlari. Umurtqa pog‘onasi va ularning egriliklari, egriliklarning shakllanishi. Bosh, gavda va qol-oyoq skeletining o‘sishi va rivojlanishi. Muskullarning dinamik va statik ishi. Turli yosh davrlarida mushaklar kuchi, tezligi, chaqqonligi, chidamliligi, va massasining o‘zgarishi. Charchash, uning fiziologik mexanizmi. Skolioz, uning kelib chiqish sabablari va uni oldini olish.

Ovqat hazm qilish tizimining yosh xususiyatlari va ovqatlanish gigiyenasi.

Og‘iz boshligida, me’da va ichakda ovqat hazm bo‘lishining xususiyatlari. Jigarning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Moddalar va energiya almashinuvining yosh xususiyatlari. Bola o‘sishi va rivojlanishida suv, mineral

tuzlar va vitaminlarning ahamiyati. Turli yosh davrlarda bolalar ovqatlanishining o‘ziga xosligi. Ovqatlanish gigiyenasi.

Qon va qon aylanish tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Qonning ahamiyati. Qon tarkibi, uning vazifalari. Ularning yosh xususiyatlari. Qon aylanishining ahamiyati. Katta va kichik qon aylanish doirasi. Ona qornida homilaning qon aylanishi. Yurakning funksiyalari va yosh xususiyatlari. Puls va qon bosimi. Ularning yosh xususiyatlari.

Umumiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, umumiy psixologiya fanining shakllanish tarixi, umumiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Umumiy psixologiyaning amaliy asoslari, o‘quv fanlari tizimida umumiy psixologiya, umumiy psixologiya mutaxassislik fani sifatida.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tadqiqot metodlari.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va prinsiplari. Determinizm prinsipi, ong va faoliyat birligi prinsipi, ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi. Aniq faoliyatni o‘rganuvchi psixologiya sohalari, rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi

psixologiya sohalari, shaxs va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganuvchi psixologiya sohalari. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari va ularning tahlili, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so‘rovnoma metodi, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi, psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.

Psixika va ongning taraqqiyoti.

Psixika haqida tushuncha, psixikaning oriyentirovka biluvchanlik va boshqaruvchalik vazifasi. Psixik aks ettirish – obyektiv olamning subyektiv obrazi ekanligi. Bosh miya va psixika. Odam psixikasining paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti, seskanuvchanlik va sezuvchanlik, tropizmlarning mohiyati, instinkt tushunchasining mazmuni, ko‘nikma va malakalar, hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari, psixikaning muhit va a’zolar tuzilishiga bog‘liqligi. Psixika va ong munosabati. Ongning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib etmagan harakatlar) holatlari. Odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi.

Faoliyat va motivatsiya.

Faoliyat haqida tushuncha, faoliyatning psixologik tahlili. Faoliyatning tuzilishi, faoliyatning o‘ziga xosligi, faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizasiyasi. Faoliyatning o‘zlashtirilishi va malakalarni egallash. Faoliyatning asosiy turlari, o‘yin, ta’lim va mehnat faoliyati mazmuni. A.N. Leontev boyicha faoliyat tuzilishi. Faoliyat va motivlar. Motivatsiya va emotsiya tushunchasining mazmuni, motivatsiya sohalari, Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiya muammosi. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari, motiv muammosiga doir mulohazalar. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning ahamiyati.

Shaxsning hissiy-emotsional sohasi.

Emotsiya va hissiyot haqida tushuncha. His-tuyg‘ularning vazifalari. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Yuksak hislar. Hissiy ton, affekt, stress, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar. Hissiyotning o‘ziga xosligi. Hissiyotni boshqarish.

Shaxs haqida tushuncha va shaxsning o‘z-o‘zini anglashi.

Shaxs haqida tushuncha, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchasining mazmuni. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxs psixologik strukturasi. Biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, konstitutsion nazariya, rollar nazariyasi mazmuni. Dunyoqarash va e’tiqod. Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi. “Men” konsepsiya va uning rivojlanishi. Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi va baholashiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxsning o‘ziga nisbatan ishonchini yuzaga keltirish va rivojlantirish. Shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarishi muammosi. Milliy ong va milliy o‘zini-o‘zi anglash.

Shaxsning bilish jarayonlari.

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari. Sezgilar haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, ekstroretseptiv sezgilar. Idrok haqida tushuncha. Idrokning nerv-fiziologik asoslari. Idrokning murakkabligi. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik. Idrokning xossalari, idrokda obyekt va fon, appersepsiya, idrokning konstantligi. Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. Xotira turlari, faoliyatga ko‘ra xotira turlari, maqsadiga ko‘ra xotira turlari, muddatiga ko‘ra xotira turlari. Xayol haqida tushuncha. Xayol jarayonlari. Xayol turlari, tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol, orzu, tush ko‘rish va shirin xayol. Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, tafakkur sifatlari, tafakkurning mazmundorligi. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi.

Xarakter, temperament va qobiliyatlarni bilishning ahamiyati.

Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari. Xarakter tipologiyasi, xarakter tarkibi, xarakterning shakllanishi, xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari. Xarakter borasidagi ta’limotlar. Xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog‘liqligi. Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tarixi. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari. Faoliyatning individual uslubi va temperament. Temperamentni tarbiyalash. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo‘lishi va tuzilishi.

Yosh va pedagogik psixologiyaning maqsad va vazifasi.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy sohalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh va pedagogik psixologiyadagi ilmiy maktablar. Yosh va pedagogik psixologiya fanining o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so‘rovnoma metodi, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi.

Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi.

Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o‘ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh

tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar). Yosh davrlarining yetakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin). Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi.

Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar.

Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug‘ilish davri inqirozi. “Tirilish kompleksi” haqida. Go‘daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati. Bir yosh inqirozi haqida. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.

Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida (o‘yin faoliyatining mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari, o‘yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta’siri muammosi). Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. Maktabgacha yosh davrida emotsional-ifodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy emotsiyalarning shakllanishi. Maktabgacha yosh davrida motivatsion sohadagi o‘zgarishlar. 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv-affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida bolaning o‘zi haqidagi tasavvurlari va xulq-atvori. Pedagogik baho va kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish aloqasining psixologik mexanizmlari. Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari

O‘smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

O‘smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. O‘smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari.O‘smirlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivatsiyasi, o‘quv faoliyati motivatsiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari). O‘smirlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi muammosi.

Ilk o‘spirinlik yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Ilk o‘spirinlik davri psixologiyasiga umumiy tavsif. Ilk o‘spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Ilk o‘spirinlik davrida o‘zini-o‘zi

anglashning rivojlanishi. Ilk o‘spirinlik davrida o‘quv-kasbiy faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi. Ilk o‘spirinlikda kasbga yo‘naltirishning psixologik muammolari.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mazmuni va ahamiyati. Maktab psixologining ish funksiyalari. Pedagogik faoliyatda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish texnologiyalari. Yosh psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish. Pedagog birlamchi psixologik yordam subyekti sifatida.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

Oilaviy hayotga psixologik tayyorlikning mohiyati. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqida umumiy tushuncha. Oila funksiyalari. Oilada shaxslar-aro munosabatlar. Shaxs psixik taraqqiyotida oilaviy muhitning roli.

O‘qituvchi psixologiyasi.

Jamiyatda o‘qituvchining tutgan o‘rni va uning vazifalari. O‘qituvchiga shaxsiga qo‘yiladigan talablar. O‘qituvchining kasbiga xos xislatlari. O‘qituvchi o‘quvchilarning hayot va faoliyati tashkilotchisi ekanligi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishning psixologik muammolari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot. Pedagogik ijodiyot va uning mohiyati. O‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va pedagogik jamoadagi psixologik iqlim. Bo‘lg‘usi o‘qituvchi shaxsi sifatlari.

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

Ta’limga texnologik yondashuv.

Ta’limga texnologik yondashuv tushunchasi. Ta’lim texnologiyasining kategoriyalari, tamoyillari, tarkibiy qismlari, tasnifi, asosiy jihatlari. Ta’lim texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari. An’anaviy ta’limning texnologik yondashuvga asoslangan ta’limdan farqli jihatlari. Sharqning buyuk qomusiy olimlari asarlarida maktab va madrasalarda insonni aqliy kamolotga etkazishda o‘qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanish haqida.

Ta’limda innovatsion jarayonlar.

Ta’lim jarayonidagi innovatsiya. Pedagogik jarayonlarga innovatsiyalarni tatbiq etish. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mazmuni, maqsadi va amaliyotga joriy etish zarurligi. Pedagogik texnologiyalar – innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismi sifatida. Texnologik yondashuv ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va

kafolatlangan natija berishga qaratilganligi. Interfaol va faol ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va qo‘llanilish hollari.

Ta’lim texnologiyalari ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda charxpalak, blits-so‘rov, 3x4 metodi va muammoli savollarni qo‘llash.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati.

O‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi. Innovatsion faoliyat tushunchasi. O‘qituvining innovatsion faoliyati tuzilmasi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarish. O‘qituvchining yangi axborotlar bilan ishlash madaniyati.

Ta’lim vositalari. Grafik organayzerlar texnikasi.

Ta’lim vositalari va ularning ta’lim texnologiyalaridagi o‘rni. Grafik organayzerlar. Ularning turlari. Ta’lim jarayonida qo‘llashning maqsad va vazifasi. Grafik organayzerlar texnikasi haqida amaliy ko‘nikmalar. Noan’anaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

O‘quv jarayonida muammoli o‘qitish texnologiyalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Muammoli o‘qitish. Muammoli o‘qitish mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari. Muammoli vaziyat belgilari, ularni anglab olish va hal etish yo‘llari. Dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari. Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchiga hamda muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarishga qo‘yiladigan talablar. Muammoli ta’limning o‘quvchilar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishdagi ahamiyati. Muammoli o‘qitish texnologiyalari va ularni tashkil etish bosqichlari.

Ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Interfaol ta’lim, uning mazmuni, mohiyati, mezonlari va turlari. Ta’lim va tarbiya jarayonida interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari. Interfaol mashg‘ulot samaradorligini belgilashning pedagogik-psixologik asoslari. Interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni. Interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari, ularni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish usullari. Uning mazmuni va mohiyati. O‘yinli texnologiyalarning ijtimoiy-psixologik muammolari. O‘yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari. O‘yinli texnologiyalarning funksiyalari.

3. UMUMKASBIY FANLAR

3.1. Umumiy yer bilimi

Fanlar tizimi. Geografiya fanlari tizimi. Umumiy yer bilimi fanining rivojlanish tarixi. Fanning maqsad va vazifalari. Koinot haqida tushuncha. Quyosh tizimi. Quyosh.

Sayyoralar. Oy. Quyosh va sayyoralarning kelib chiqishi haqida gipotezalar. Yerning sayyora sifatidagi ta’rifi. Yerning harakati va uning geografik oqibatlari. Magnitosfera. Geografik qobiq va uning xususiyatlari. Yerning ichki tuzilishi. Litosfera. Yer po‘stining tuzilishi. Geoxronologik jadval. Platformalar, geosinklinallar. Asosiy tog‘ hosil bo‘lish bosqichlari. Relyef. Relyef hosil qiluvchi omillar. Tog‘lar va ularning turlari. Geografik xaritalar bilan ishlash. Koinot haqida umumiy tushuncha. Quyosh sistemasi haqida umumiy tushuncha. Yerning shakli va kattaligi. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi va buning geografik ahamiyati. Yerning quyosh atrofidagi harakati va uning oqibatlari. Vaqtni hisoblash va uning o‘lchov birliklari haqida tushuncha. Yer yuzasining tuzilishi. Relyef hosil qiluvchi omillar. Quruqlikning geotektura va morfostruktura Relyefi. Havo namligi. Atmosfera bosimi. Daryo suvining harakati. Daryolarning suv sarfi.

3.2. Geologiya

Geologiya faniga kirish. Geologiya fanining rivojlanish tarixi. Kristall panjaralar haqida ma’lumot. Endogen geologik jarayonlar. Tektonik jarayonlar haqida tushuncha. Yerning asosiy geostrukturalari haqida tushuncha. Metamorfik jarayonlar haqida tushuncha. Ekzogen (Nurash jarayoni). Cho‘kindi tog‘ jinslari haqida ma’lumot. Yer usti Relyefining o‘zgarishi haqida tushuncha. Iqtisodiy va ekologik geologiya haqida tushuncha. Kristallografiya simmetriya elementlari. Kristallografik shakllar. Minerallarning fizik diagnostik xususiyatlari. Sof tug‘ma minerallar. Nometall va metall. Sulfidlar va sulfatlar. Galoid, oksigidroksid karbonat. Volfram. Magmatik, metaformik va cho‘kindi tog‘ jinslari. Tekstura va strukturalari bilan tanishish, jinslarni aniqlashda foydalanish. Petrografiya haqida tushuncha. Geologik kesimlar olish. Gorizontal (bo‘ylama) va burchak ostida qiyalab chizish. Tabiat va “Geologiya” muzeylaridagi mavzularga tegishli bo‘lgan eksponatlar bilan tanishish. Paleontologiya.Toshqotgan fauna va floralar bilan tanishish, ularni farqlash, rasmlarini chizish. Fatsiya, Fatsiya tahlil usullari bilan tanishtirish.

3.3. Topografiya va kartografiya asoslari

Topografiya va kartografiya asoslari fanining maqsadi, mazmuni, predmeti va vazifalari. Joyda geodezik ishlarni olib borish to‘g‘risida qisqacha tarixiy ma’lumot. Yerning matematik modeli. Burchak o‘lchash usullari (oriyentirlash burchaklari). Teodolit va u bilan burchak o‘lchash. Nivelirlash turlari, geometrik, trigonometrik gidrostatistik va boshqalar. Topografik xaritalar va ularning elementlari. Topografik xaritalarning varaqlarga bo‘linishi va nomenklaturasi. Topografik xaritalarning mazmuni. Menzula va u bilan plan olish. Aerofototopografiya, aero va kosmik fotosyomka. Masshtablar. Topografik xaritalarda masofalar va maydonlarni o‘lchash.

Oriyentirlash burchaklari. Relyef va uning elementlari. Topografik xaritaning nomenklaturasini aniqlash. Topografik xaritalarda koordinatalarni aniqlash. Yozma ravishda tasvirlangan joyning planini tuzish va topografik xaritani chizish. Teodolit bilan burchak o‘lchash usullarini o‘rganish. Nivelirni o‘rganish. Aerofotosuratlar bilan ishlash, deshifrovka qilish. Globus bilan ishlash.

3.4. O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi

Tabiiy geografiyaga kirish. O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning geografik o‘rni, tabiiy geografik xususiyatlari va tekshirish tarixi. Osiyo qit’asining shakllanish tarixi va va tadqiq etilishi. O‘rta Osiyo Relyefi. O‘rta Osiyoning iqlimi. O‘rta Osiyo ichki suvlari. O‘rta Osiyo geografik mintaqalari, o‘simlik va hayvonot dunyosi. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. O‘zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarining o‘rganilish tarixi. Geologik tuzilishi. Relyefi. O‘zbekiston iqlimi. Ichki suvlari. O‘zbekiston tuproq qoplami. O‘simliklari. O‘zbekistonning hayvonot dunyosi. O‘zbekistonning tabiati, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy geografik rayonlashtirish toksonomik birliklari, tamoyillari, uslubiy masalalari. O‘zbekiston hududining rayonlashtirish tizimi. Zarafshon okrugi. Qizilqum okrugi. Ustyurt okrugi. Quyi Amudaryo okrugi. Tog‘oldi va tog‘ kichik provinsiyalari, Chirchiq-Ohangaron okrugi, Farg‘ona okrugi, Qashqadaryo okrugi, Surxondaryo okrugi, Mirzacho‘l okrugi, G‘arbiy Tyanshanning kompleks tabiiy geografik tavsifi. Turkiston-Nurota.

3.5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi, maydoni, chegaralari, iqtisodiy geografik o‘rni. O‘zbekiston Respublikasining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. O‘zbekiston Respublikasi aholisi va tarkibi. O‘zbekiston Respublikasi aholisining joylashuvi va mehnat resurslari. O‘zbekiston Respublikasining xalq xo‘jaligining umumiy ta’rifi. O‘zbekiston Respublikasi sanoat turlari. O‘zbekiston Respublikasi transporti. O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy rayonlari. O‘zbekiston Respublikasi hududiy ishlab chiqarish majmualari va iqtisodiy rayonlari. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy geografiyasi, siyosiy va ma’muriy bo‘linishi.

Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasiga kirish. Jahonning siyosiy xaritasi. Dunyo mamlakatlari klassifikatsiyasi. Jahon tabiiy resurslari. Jahon aholi geografiyasi. Jahon xalq xo‘jaligi. Jahon sanoati geografiyasi. Jahon qishloq xo‘jaligi geografiyasi. Jahon transport geografiyasi. Jahon mamlakatlarining regional tavsifi. Jahonning rivojlangan davlatlari. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanining predmeti, mazmuni. Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiya va yagona iqtisodiy makon. Dunyo siyosiy kartasida Markaziy Osiyo mamlakatlari. Markaziy Osiyo davlatlarining geografik o‘rni, tabiiy resurslari. Markaziy Osiyo davlatlarining tarixiy shakllanishi. Markaziy Osiyo aholisi va mehnat resurslari. Markaziy Osiyo sanoat tarmoqlari.

Markaziy Osiyo davlatlarining transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari Markaziy Osiyoning MDH va umumjahon mehnat taqsimotidagi ishtiroki.

3.6. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari

Aholi geografiyasi va demografiya asoslari predmeti. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining nazariy, ilmiy-amaliy asoslari va tushunchalari. Aholining demo-ijtimoiy harakatlari. Aholining ijtimoiy sotsial tarkibi. Aholining milliy etnik tarkibi. Dunyo xalqlari klassifikatsiyasi. Dinlar va diniy tarkib haqida tushuncha. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish. Aholining hududiy joylashuvi. Aholining joylashuvi. Aholi migratsiyasi. Aholi joylashuvining geografik shakllari. Shahar tizimining rivojlanishi urbanizatsiya jarayoni.

3.7. Toponimika

Toponimika faniga kirish. Toponimika va ilmiy atamashunoslik faning obyekti, predmeti, vazifasi. Toponimik tadqiqotlar tarixi. Toponimika va ilmiy geografik atamashunoslikning tayanch tushunchalari. O‘zbekistonda hozirgi zamon toponimika va geografik atamalar. Geografik nomlarning paydo bo‘lishi, mazmuni va tasniflash. Geografik nomlarni yozish qoidalari. Geografiya ta’limida toponimika va geografik terminlar. Toponimika faning rivojlanishi, boshqa bilan aloqasi. Toponimika faning tadqiqotlar tarixi. O‘zbekiston toponimiyasiga hissa qo‘shgan olimlar. Toponimik tushunchalar. Klassifikatsiyaga bo‘lingan nomlar. O‘zbekiston toponimiyasining xaritasi. Geografik nomlarni muhofaza qilish.

3.8. Rekreatsion va turizm geografiyasi

Rekreatsiya va turizm tushunchalari. Rekreatsion geografiyaning predmeti, maqsadi va vazifalari. Rekreatsiya va turizm resurslari. O‘zbekistondagi dam olish maskanlari. O‘zbekistondagi qadimiy shaharlar va tarixiy obidalar turizm resursi sifatida. Rekreatsion geografiyaning rivojlanish omillari. Rekreatlarni hisobga olish metodlari. Turizm-tizimi o‘rganish obyekti sifatida. Turizm mohiyati. Turistik yo‘nalishlarining paydo bo‘lishi va shakllanishi. Turistik daromad va xarajatlar. Xalqaro turizm geografiyasi. Turizm turlari

3.9. Tuproqlar geografiyasi

Tuproqshunoslik faniga kirish. Tuproqshunoslik fani, uning vazifalari va metodlari. Tuproqlarning hosil bo‘lishi, taraqqiyoti, tarkibi va xossalari. Tuproq hosil bo‘lish jarayoni va uning biologik asoslari. Tuproqning suv xossalari va suv rejimi. Tuproqning organik qismi. Tuproqning singdirish qobiliyati va singdirish turlari. Tuproq unumdorligi. Tabiatda tuproqlarning tarqalishi, rivojlanishi, tabiat mintaqalari tuproqlari. Arktik va subarktika mintaqa tuproqlari. Tayga-o‘rmon mintaqasi tuproqlari.

Sho‘rlangan tuproqlar va ularning tarqalishi. Tog‘ oldi cho‘l dashtlarning quruq subtropiklar mintaqasi tuproqlarining hosil bo‘lishi, tarkibi, xossalari va klassifikatsiyasi. Respublikamizning tog‘li hududlari tuproqlari.

3.10. Tanlov fanlar

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha qayta tayyorlash kursiga mos ravishda, mavjud ehtiyoj va buyurtmachilarni takliflari inobatga olingan holda ishlab chiqiladi.

4. IXTISOSLIK FANLARI

4.1. Geografiya fanini o‘qitish metodikasi

Geografiya fanni o‘qitishda o‘quvchilarni kreativ fikrlashga yo‘naltirish asosida darslarni tashkil etishning interfaol metodlari. Fanni o‘qitishda o‘quvchilar bilish faoliyatini faollashtirish asosida darslarni tashkil etish metodlari. Geografiya ta’limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Geografiya fanini o‘qitish metodlari va uni tanlash, o‘qitish metodlarini sinflashtirish, katexezik suhbat va evristik suhbat metodlari. Konstruktiv metod. O‘quvchilarga mavzuni yanada aniqroq tushuntirish va ilmiy tushunchalarni amaliyotda ko‘rish imkonini beruvchi samarali o‘qitish metodlar. Mavzularni mantiqiy ketma-ketlik va o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish.

Geografiya darslarini “4K” modeli yordamida tashkil etish yo‘llari. “4K” modeli tahlili. Geografiya darslarida 5E metodining mazmuni va mohiyati, yaratilish tarixi, ularning geografiya darslarida qo‘llashning afzalliklari. Xarita bilan ishlashda SAMR modelini qo‘llash.

Interaktiv usullar: xarita bilan ishlash (yozuvsiz xaritalar, tematik xaritalar), Muammoli masalalarni hal qilish (masalan, iqlim o‘zgarishi yoki tabiiy resurslar taqsimoti haqida), Guruhlarda loyiha ishlari (masalan, ma’lum bir mintaqa bo‘yicha tadqiqot). Amaliy usullar: Tabiatda kuzatuvlar o‘tkazish (masalan, mahalliy landshaftni o‘rganish), Geografik modellarni yaratish (vulkanlar, relyef shakllari), Raqamli texnologiyalardan foydalanish: GIS (Geografik axborot tizimlari) dasturlari yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish, Onlayn xaritalar (Google Earth, ArcGIS) orqali virtual sayohatlar. Kuzatuv va tajriba usullari, Multimedia vositalari, Taqqoslash va tahlil. Geografiya ta’limida kartografik texnologiyalardan foydalanish.

4.2. Geografiya o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish

Geografiyani o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo‘llari. Geografiyani o‘qitishda lokal va xususiy metodik darajada foydalaniladigan texnologiyalar (interfaol metodlar). Geografiyani o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinli darslardan foydalanish yo‘llari. Geografiyani o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo‘llari.

Geografiyani o‘qitishda interfaol metodlar. Geografiyani o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinli darslardan foydalanish yo‘llari. Geografiyani o‘qitishda modulli darslardan foydalanish yo‘llari. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan geografiya darslarida foydalanish yo‘llari. Muammoli o‘qitish metodi. Geografiyani o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinli darslar. O‘quvchilar bilimini tekshirishning shakl va usullari.

Loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning). Tadqiqot va loyiha usullari. O‘quvchilarning ilmiy qiziqishlarini rivojlantirish. Ilmiy loyihalar va tadqiqotlarni tashkil etish metodikasi. Loyihalash texnologiyasi. Loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi. Loyiha turlari va uni geografiya darslarida foydalanish yo‘llari. Tadqiqot, axborotli va ijodiy xarakterdagi loyihalar. Juftlik, kichik guruhlar, jamoada o‘quv loyihalarini tayyorlash.

4.3. Geografiya darslarida o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga (PISA, TIMSS) tayyorlash

O‘quvchilarning o‘qib tushunish savodxonligini aniqlashga yo‘naltirilgan xalqaro dasturlar (PISA, TIMSS) asosida ta’lim samaradorligini nazorat qilish va baholash. Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati. PISA xalqaro baholash tadqiqotiga umumta’lim muassasalarining, o‘qituvchi va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishni tashkil etish. Hayotiy ko‘nikmalarning tavsiflari.

TIMSS — xalqaro baholash dasturining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari. TIMSS — xalqaro tadqiqotining asosiy maqsadi boshlang‘ich va o‘rta maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha ta’lim sifatini qiyosiy baholash xalqaro dasturining afzallik tomonlari. O‘quvchilar o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar mazmuni, matnlarning qiyinlik darajasi va baholash mezonlari. O‘quvchilarning tahliliy va ijodiy fikrlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. Xalqaro va milliy dasturlar asosida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha ishlab chiqilgan topshiriq namunalari tahlili.

4.4. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

Tabiiy geografiyaga kirish. Yevrosiyo materigining geografik o‘rni va tabiiy geografik xususiyatlari. Yevrosiyo materigini shakllanish tarixi. Yevrosiyo materigining relyefi. Yevrosiyo materigining iqlimi. Yevrosiyo materigi ichki suvlari. Yevrosiyo materigi geografik mintaqalari. Yevropa qit’asi. Osiyo qit’asi. Shimoliy Amerika materigining geografik o‘rni, tekshirish tarixi. Shimoliy Amerika materigi shakllanish tarixi. Janubiy Amerika materigining geografik o‘rni, tekshirish tarixi. Janubiy Amerika materigi shakllanish tarixi. Janubiy Amerika materigi relyefi. Janubiy Amerika materigi iqlimi. Afrika materigining geografik o‘rni va tadqiq etilishi. Afrika materigi shakllanish tarixi. Afrika materigi relyefi. Afrika materigi iqlimi. Afrika materigi ichki suvlari. Tinch okeani. Atlantika okeani. Hind okeani. Shimoliy Muz

okeani. Avstraliya materigi. Avstraliya materigi iqlimi va ichki suvlari. Avstraliya materigi tuprog‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi. Avstraliya materigi tabiiy geografik o‘lkalari. Okeaniya. Antarktida materigining geografik o‘rni, tadqiq etilishi. Antarktida iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

4.5. Geografiyadan masala va mashqlar yechish metodikasi

Geografiya fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish metodikasi. Maktab dasturida ko‘rgazmali tajribalar. Atmosfera qobig‘i yuzasidan amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish metodikasi. Atmosfera bosimi va uni aniqlash, havo harorati va bosimini aniqlashga doir masalalar yechish, yerning ichki tuzilishi, gidrosfera va gorizont (ufq)ni aniqlash, dunyo tomonlari va azimut. Soat mintaqalari va vaqt hisobi, yerning ichki tuzilishiga doir masalalar. Okean suvlarining haroratini o‘lchashga doir masalalar. Yangi tahrirdagi 7- va 10-sinf geografiya fanlaridagi amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasi. Yangi va qiziqarli tajribalar.

4.6. Tanlov fanlar

O‘zbekistonda hozirgi zamon toponimika va geografik atamalar. Geografik nomlarning paydo bo‘lishi, mazmuni va tasniflash. Geografik nomlarni yozish qoidalari. Geografiya ta’limida toponimika va geografik terminlar. Toponimika faning rivojlanishi, boshqa bilan aloqasi. Toponimika faning tadqiqotlar tarixi. O‘zbekiston toponimiyasiga hissa qo‘shgan olimlar. Toponimik tushunchalar. Klassifikatsiyaga bo‘lingan nomlar. O‘zbekiston toponimiyasining xaritasi. Geografik nomlarni muhofaza qilish.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5013007.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF–5712- son [Elektron manba].–URL: https://lex.uz /docs/-4312785.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF–60- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5841063.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF–134- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-6008663.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ–4963- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5239538.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/ru/docs/-5828765.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–231- son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6981085

8. “Ta’lim – 2030” Inchxon deklaratsiyasi. – Inchxon: Janubiy Koreya. 2015.

9. Umumiy o‘rta ta’limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent 2017 yil.

10. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2012.

11. A.A. Abduqodirov, Q.M. Karimov, I.A. Yuldoshev. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015.

12. B.Boltayev, A.Azamatov va boshqalar. Microsoft Office dasturlari MS Word // Toshkent, 2014 yil.

13. S.S. Jumanazarov, B.Xaydarov, D.Li, Sh.Qayumov “Kompyuter savodxonligi asoslari”.–T.:2014 y.

14. Aripova S.X.“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2010 y.

15. R.Mavlonova. D.Abdurahimova. “Pedagogik mahorat”. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2012 y.

16. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – T.: “Nihol”, 2013y.

17. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil

18. Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil

19. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiev. “Pedagogika”. – T.: “O‘qituvchi”, 2010 y.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017- yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017- yil 14- yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: 2017. – 48 b.

Asosiy adabiyotlar

1. Abdunazarov L.M, Qambarova Sh.A, Tobirov O.Q. Markaziy Osiyo geografiyasi o‘quv-qo‘llanma. -T.: “Noshir” 2017-y.

2. Musayev P.G‘, Musayev J.P. Geografiya Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. -T .: “SHARQ” NMAK, 2019 y.

3. Gulyamov P, Qurbonniyozov R, Avezov M, Saidova N Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 508 b.

4. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘ayeva G., Qosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma. 1-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 145 b.

5. Vaxobov H., Alimqulov N.R., Sultanova N.B. “Geografiya o‘qitish metodikasi” Toshkent. 2021y.

6. Xoldorova G.M. “Geografiya o‘qitish metodikasi” Jizzax. 2020 y.

7. Gulyamov P, Qurbonniyozov R, Avezov M, Saidova N “Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi” Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

8. Abduvohidov Safar Niyazmatovich, Ganiyev Ziyodulla Akramovich “Geografiya ta’limi metodikasi” O‘quv qo‘llanma. Samarqand — 2021

9. Djo‘raboeva H.Sh “Tabiiyot va geografiya o‘qitish metodikasi” Farg‘ona — 2021

10. Tursunova, M. “Geografiya fanidan moduli ta’lim texnologiyalari” – Toshkent: Fan va texnologiya. 2022

11. Tursunov, S. “Geografiya ta’limida moduli va interfaol metodlar: Innovatsion yondashuvlar” – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2023 y.

12. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.

13. Abduqodirov, Z., Rustamov, A. “Geografiya fanida moduli tizim va interfaol ta’lim metodikasi” – Toshkent: O‘qituvchi. 2023

14. Akhmedova, D. “Geografiya darslarida interfaol ta’lim: Yangi pedagogik yondashuvlar” – Toshkent: O‘qituvchi. 2023

15. Musaev P., Musaev J. 8-sinf “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” “SHarq” nashriyoti, 2014 yil

16. P.lshmuhamedov, M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari.-T. 2016 y.

17. Nizomov. A, Raximova. G, Rasulova. N. Toponimika T., “Sharq”. 2012

18. Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Avezov M.M., Hojiyeva M.T. 7-sinf Geografiya darslik Respublika ta’lim markazi, -T.: 2022, B-176.

19. Fedorko V.N., Safarova N.I., Ismatov J.A., Nazaraliyeva E.Y. 10- sinf Geografiya darslik Respublika ta’lim markazi, -T.: -2022, B-185.

Elektron manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.

2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.

3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.

5. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.

6. uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.

7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.

8. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining raqamli ta’lim platformasi.

9. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.

10. www.edu.uz

11. www.geografiya.uz

12. www.unesco.org

13. www.criticalthinking.org

14. my.maktab.uz – umumta’lim maktablariga o‘quvchilarni onlayn qabul qilish tizimi.

15. erp.maktab.uz – xalq ta’limini boshqarish tizimi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 30 ”-sentabrdagi
367-son buyrug‘iga
5.28-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISH HUQUQINI BERISH BO‘YICHA KASBIY VA PEDAGOGIK QAYTA TAYYORLASH KURSINING

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar: **A.Q. Lutfullayev** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Ijrochilik mahorati va madaniyati” kafedrasi mudiri, professor.

D.A. Karimova – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Musiqa nazariyasi va metodikasi” kafedrasi mudiri, professor v.b.

D.M. Hakimova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent;

M.T. Ergasheva – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Pedagogika, psixologiya” kafedrasi mudiri p.f.d. (DSc), dotsent.

M.U. Badalova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rektor maslahatchisi.

F.A. Murodova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Tayanch doktorant

Taqrizchilar: **Sh.J. Yusupova –** Andijon davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori.

G.A. Xolmirzayeva – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti.

N.A. Yuldasheva – Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.d., DSc, prof.

D. F. Yusupova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim menejmenti kafedrasi mudiri v.b.

Mazkur o‘quv dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 20__-yil _____dagi __-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KURSINING O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:

1.00. **Tabiiy va ilmiy fanlar**

1.01. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

1.02. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

1.03. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

2.00. **Pedagogika va psixologiya**

2.01. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

2.02. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar

2.03. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

2.04. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

2.05. Umumiy pedagogika

2.06. Umumiy psixologiya

2.07. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

3.00. Umumkasbiy fanlar

3.01. Musiqa nazariyasi

3.02. Musiqa tarixi

3.03. Cholg‘u ijrochiligi

3.04. Maktab repertuari

3.05. An’anaviy xonandalik

3.06. Xor va xorshunoslik

3.07. Dirijyorlik asoslari

3.08. Vokal ijrochiligi

4.00. Ixtisoslik fanlari

4.01. Ijrochilik san’ati tarixi

4.02. O‘zbek xalq musiqa ijodi

4.03. Xalq cholg‘ularida ijrochilik uslubiyati

4.04. Musiqa o‘qitish metodikasi va texnologiyalari

4.05. Bolalar musiqa adabiyoti

4.06. Musiqa to‘garaklarini tashkil etish

4.07. Tanlov fanlari

1. TABIIY VA ILMIY FANLAR

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

Ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Maktab ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”i, Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

Maktab ta’limi sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar.

Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. Maktablarning lokal hujjatlari (ustav, ichki tartib qoidalar).

O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari.

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. Ta’lim oluvchilarning informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi.

Fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Ta’lim oluvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash texnologiyalari zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasi, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish kabi bilimlarga ega bo‘lishi.

Operatsion tizimlar, ularning turlari bilish faolligini oshirish va mustaqil ta’limini tashkil etish asosida amaliy dasturlardan foydalanib, fanni o‘zlashtirishi.

Amaliy dasturlar asosida darslarni tashkil etish. Microsoft Office dasturlarida fanga oid elektron ishlanma va taqdimotlarni yaratish texnologiyalari.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda, o‘zining kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish, amaliy dasturlar, jumladan MS Ofice dasturlar paketi va ularda ishlash,

amaliyotda qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi, interfaol ta’lim, “Case study” yordamida o‘quv jarayonida AKTdan foydalanish fanini o‘qitishda amaliy dasturlardan maqsadli foydalanish. Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda elektron jadval muharrirlaridan, jumladan MS Excel dasturi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish. MS Excelda avtomati qo‘shish, avtoto‘ldirish, sodda formulalar, funksiyalar, diagrammalar va filtrlash. Power Point dasturida taqdimotlar yaratish.

Multimediali darslar asosida ta’lim samaradorligini oshirish.

Ta’lim oluvchilarning kasbiy yo‘nalishlaridagi bilish faolligini oshirishda multimedianing asosiy elementlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, audio va video axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

Internet tarmog‘i vositalari. Elektron pochta, ro‘yxatdan o‘tish va fanni o‘qitishda undan foydalanish.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda masofadan o‘qitish texnologiyasidan foydalanib, fanni o‘qitish. Masofaviy ta’limda mahorat darslari, vebinarlarni tashkil etish texnologiyalari. LMS texnologiyasi.

Masofaviy ta’lim. O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.

O‘qituvchining virtual kutubxonasi. O‘quvchining elektron portfoliosi. Fanni o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi.

Internet. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar. Internet turlari va ularning klassifikatsiyasi. Internet xizmatlari va jumladan elektron pochta xizmati.

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

Kirish. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. O‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.

Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining tarixi va rivojlanish tendensiyalari, anatomiya, fiziologiya, yosh fiziologiyasi va gigiyena fanlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining biologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Sog‘lom avlod dasturi va uni targ‘ib qilish. Respublikamizda bolalar salomatligini saqlash yo‘lida olib borilayotgan islohotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena sohasidagi yutuqlar. Fanning vazifalari, o‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Ta’lim jarayonida ratsional usullarni qo‘llashda, har bir o‘quvchiga individual yondashishda pedagoglarning bola organizmining o‘ziga xos o‘sish va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimga ega bo‘lishlari. Yoshlik davrlari va yoshga oid o‘zgarishlari haqida tushuncha. Hujayraning umumiy tuzilishi. Irsiy kasalliklar va ularning turlari.

Nerv tizimining yosh xususiyatlari.

Nerv tizimining ahamiyati va umumiy tuzilishi shakli. Nerv markazlari haqida tushuncha. Nerv markazlarining fiziologik xususiyatlari: qo‘zg‘alish va tormozlanish, taassurotlarni summatsiyalash, kislorod tanqisligiga chidamsizlik, irradiatsiya, induksiya, A.A. Uxtomskiyning “Dominanta qonuni”. Markaziy nerv tizimi bo‘limlari-ning yoshga oid xususiyatlari. Vegetativ nerv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Organizm reflektor faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatini tekshirish usullari. Shartli va shartsiz reflekslar haqida tushuncha. Ularning bir-biridan farqi. Shartli reflekslarning hosil bolishidagi shart-sharoitlar. Dinamik stereotip, nutq funksiyasi va uning fiziologik asosi. Bolalar oliy nerv faoliyatining tiplari va ularning plastikligi.

Nerv tizimi gigiyenasi. Bolalar va o‘smirlarning ishchanlik qobiliyati, charchash va o‘ta charchash haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiya psixogigiyeniyasi. Nevroz (asabiylik). Asab buzilishini oldini olish.

Analizatorlarning yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Analizatorlarning umumiy tuzilishi va ahamiyati. Analizatorlarning turlari: ko‘rish analizatorining yosh xususiyatlari. Ko‘rish qobiliyatining pasayishini oldini olish. Eshitish analizatori. Bolalarda eshitish organining rivojlanishi. Eshitish gigiyenasi. Muvozanat apparati.

Ichki sekretsiya bezlarining yosh xususiyatlari.

Organizmdagi fiziologik jarayonlarining neyron-endokrin sistemasi orqali boshqarilishi. Ichki sekretsiya bezlari haqida tushuncha. Ichki sekretsiya bezlarining joylashuvi. Garmonlar, ularning organizmdagi vazifasi. Organizmning gumoral boshqaruvida garmonlarning tutgan o‘rni. Garmon va stress. Garmonlar va jinsiy yetilish. Ichki sekretsiya bezlarining yoshga oid xususiyatlari.

Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Tayanch-harakat apparatining ahamiyati va vazifasi. Odam skeletining umumiy tuzilishi va yosh xususiyatlari. Suyak tuzilishining yosh xususiyatlari. Umurtqa pog‘onasi va ularning egriliklari, egriliklarning shakllanishi. Bosh, gavda va qol-oyoq skeletining o‘sishi va rivojlanishi. Muskullarning dinamik va statik ishi. Turli yosh davrlarida mushaklar kuchi, tezligi, chaqqonligi, chidamliligi, va massasining o‘zgarishi. Charchash, uning fiziologik mexanizmi. Skolioz, uning kelib chiqish sabablari va uni oldini olish.

Ovqat hazm qilish tizimining yosh xususiyatlari va ovqatlanish gigiyenasi.

Og‘iz boshligida, me’da va ichakda ovqat hazm bo‘lishining xususiyatlari. Jigarning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Moddalar va energiya almashinuvining yosh xususiyatlari. Bola o‘sishi va rivojlanishida suv, mineral tuzlar va vitaminlarning ahamiyati. Turli yosh davrlarda bolalar ovqatlanishining o‘ziga xosligi. Ovqatlanish gigiyenasi.

Qon va qon aylanish tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Qonning ahamiyati. Qon tarkibi, uning vazifalari. Ularning yosh xususiyatlari. Qon aylanishining ahamiyati. Katta va kichik qon aylanish doirasi. Ona qornida homilaning qon aylanishi. Yurakning funksiyalari va yosh xususiyatlari. Puls va qon bosimi. Ularning yosh xususiyatlari.

Nafas organlarining yosh xususiyatlari va gigiyenasi. Nafas olishning ahamiyati. Nafas tizimining vazifasi. Tashqi va ichki nafas olish. O‘pkaning tiriklik sig‘imi. O‘pka ventilyatsiyasi. Uning yoshga, jismoniy mashqqa bog‘liqligi. Muskul ishi vaqtida nafas olish. Nafas gigiyenasi.

Ayiruv tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Ayiruv jarayonlarining ahamiyati. Buyraklar tuzilishi va ularni yosh xususiyatlari. Siydik hosil bo‘lish mexanizmi. Turli yoshdagi bolalar sutkalik siydik miqdori. Bolalarda tunda siydik tuta olmaslik, uning kelib chiqish sabablari.

Salomatlik haqida tushuncha. Bolalar va o‘smirlar salomatlik holati. Kasalliklar. Sog‘liq holatining maktab o‘quvchisining ishchanlik qobiliyatiga ta’siri. O‘tkir va surunkali kasalliklar. Kasalliklarni tarqalish manbalari. Tug‘ma va hayot davomida orttirilgan immunitet. Ta’lim va tarbiyaning tinglovchi sog‘ligiga ta’siri.

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

O‘zbekiston Respublikasida atrof muhitni muhofaza qilish masalasida amalga oshirilayotgan isloxotlar. Atrof-muhit tushunchasi va asosiy komponentlari (havo, suv, tuproq, biologik xilma-xillik) haqida tushunchalar berish.

Inson faoliyatining ekologiyaga ta’siri (sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi). Ekologik inqirozlar va ularning oqibatlari (global isish, cho‘llanish, deforestatsiya).

Yashil iqtisodiyot nima? Uning asosiy tamoyillari. Innovatsion yechimlar orqali ekologik muammolarni hal qilish. Quyosh va shamol energiyasi, bioyoqilg‘i, energiya samaradorligi. Oqilona suv va chiqindi boshqaruvi.

Ekologik madaniyat. Fuqaroning ekologik xatti-harakatlari (maishiy chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, transportdan foydalanish odatlari). Jamiyatdagi ekologik tashabbuslar (ko‘ngillilar harakati, daraxt ekish, eko-marafonlar). Aholi o‘rtasida va jamoalarda ekologik faollikni oshirish yo‘llari.

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish. Qonunlar, jazolar va profilaktika choralar.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning biologik, psixologik va ijtimoiy oqibatlari. Giyohvand moddalarni sog‘likka salbiy ta’sirlari. Davolash, reabilitatsiya va jamiyatga moslashuv, davolash usullari (narkologik xizmatlar).

Dunyo va O‘zbekistonda giyohvand moddalar tarqalishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

Milliy strategiyada belgilangan asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi (giyohvand moddalar aylanmasi, tarqatish, saqlash va iste’mol qilish bo‘yicha).

2. PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

O‘quvchilarni baholash nazariyasi. Baholash, baholashning maqsadi va vazifalari. Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot). Baholash turlari (diagnostik, formativ, summativ). Baholash tamoyillari va mezonlari.

O‘quvchilarning sinfdagi faoliyatini baholash. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalari.

O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholash. O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari(tanqidiy, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasi.

2.2. Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar

Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar. Hozirgi kunda jahonda va O‘zbekiston ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan ilg‘or xorijiy tajribalar haqida umumiy ma’lumot. “5E” modeli haqida tushuncha. “4K” tizimi. XXI asr ko‘nikmalari.

“Lesson Study” metodikasining mohiyati. Sharq va G‘arb mamlakatlarida “Lesson Study” yondashuvining paydo bo‘lishi va hozirgi kundagi ahamiyati. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Lesson Study” yondashuvidan foydalanishning amaliy talqini. Boshlang‘ich ta’limda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. 10–11- sinflarda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish istiqbollari. Raqamli ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt.

Ta’limda IT va raqamli platformalardan foydalanish. Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari. Inklyuziv ta’limni joriy etishdagi afzallik va kamchiliklar. Ta’limda kreativlikdan foydalanish. Ta’limda kreativlikning amaliy talqini. O‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv.

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi modernizatsiya jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish muammosi. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv fanini o‘rganishda tinglovchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish. Pedagogik kompetentlikka oid akmeologik yondashuvlar.

Metodik kompetentlik. Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalarini shakllantirish. Mashg‘ulotlarni metodik jihatdan tashkil etish, bilimlarni oqilona baholay olish. Ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish. O‘z kasb mahoratini tinmay oshirib borish.

O‘qituvchi kasbiga qo‘yilgan talablar. Pedagogik kreativlik. Interfaol o‘qitish metodlari asosida tinglovchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi. Pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlari. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari va shartlari. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo‘l va shakllari. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari.

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash. Tarbiya tushunchasini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni. Buyuk allomalarning tarbiya borasidagi qarashlari. Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari.

Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. Maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyati. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati.

Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash. Insonlar ongida ma’naviy va o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish usullari. Shaxsning ma’naviy yuksalishida milliy qadriyatlarning o‘rni.

Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish.

Intellekt so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Insonning aqliy qobiliyatini rivojlantirish usullari. Shaxsning voqelikka munosabatlarini o‘rganish. Boshqarish faoliyati. Fikrlash, o‘qish-o‘rganish qobiliyati. Insonning dunyoni bilish va ijtimoiy tajribasini qabul qilish qobiliyati. Oqilona ish bajarishni o‘rganish. Voqea-hodisalarni oldindan bilish.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish. Tarbiyaga yo‘naltirilgan vaziyatlarni asoslash. O‘quv munozaralarini tizimli tarzda tashkil etish. O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga ongli ravishda yondashish. O‘quvchilar bilimlarini mustahkamlab axborotlarni egallashga o‘rgatish usullari. O‘quvchilarda muammolarni bilish va ular haqida fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatish usullari.

Tarbiya texnologiyalari.

Tarbiya texnologiyasi haqida tushuncha. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish. O‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish usullari. Tarbiya texnologiyasi rejalashtirish va unga erishish usullari. Tarbiya texnologiyasini modellashtirish. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini tashkil etish usullari. Tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash usullari.

Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari. Tarbiyaning maqsadi – shaxsning rivojlanishini ta’minlashdan iborat ekanligi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayonini tashkil etish mazmuni. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuvning mohiyati. Pedagogning asosiy vazifasi. Jamiyatda shaxs tarbiyasini shakllantirish usullari.

Tarbiya tizimida innovatsiyalar.

Tarbiya tizimining yangilanishida innovatsiyalarning o‘rni. Innovatsiyalarning amalga oshirish usullari. Innovatsiyani tashkil topish jarayonini mazmuni. Innovatsiyani falsafiy-metodologik (o‘qitish maqsadlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani nazariy (o‘qitish mazmuni, o‘qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani texnologik (o‘qitish jarayoni qoidalar tamoyili) asoslarini o‘rganish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Zamonaviy maktab rahbarining vazifasi. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish usullari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga o‘quvchilarni jalb qilish usullari. O‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish usullari. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.

Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari. Tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar tarbiyasidagi o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maktab rejasi bilan bog‘liqligini o‘rganish. Sinf rahbarlari va ota-onalar qo‘mitasi hamkorligi ishini o‘rganish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ishlarini o‘rganish. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishini asoslab berish.

Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash.

Jamoa so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoa tushunchasining ikki xil ma’noda ishlatilish mazmuni. Jamoani tashkil etish usullari. O‘quvchilar jamoasini rivojlantirish usullari. O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xos xususiyatlari. Jamoada shaxsni tarbiyalash usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari. Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o‘rni.

Sinfda sog‘lom muhitini yaratish. O‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va shakllantirish usullari. Sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari. Sinfda do‘stona munosabatlarni shakllantirish usullari. Ota-ona hamda o‘quvchilarning ma’naviy-madaniy qiziqishlari rivojlantirish usullari. Sinfda ta’lim-tarbiya samadorligini oshirish usullari.

Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiyaning zamonaviy usullari. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni va vositalari. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Jamiyatning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishiga, mehnat qilishiga o‘rgatish usullari.

O‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda sinf rahbariga qo‘yilgan talablar.

O‘quvchilarni o‘rganish usullari. O‘quvchilarga tarbiya va ta’lim berish usullari. O‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etish usullari. O‘quvchilarning o‘quv samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini

oshirishga ijodiy yondashishni o‘rganish usullari. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishiga qo‘yilgan talablar.

Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.

O‘quvchilar bilim sifatini oshirishda sinfda intizomlilikni mustahkamlash. Sinf rahbari ishini rejalashtirish.

Maktabda to‘garak ishlarini tashkil etish.

To‘garak a’zolarining bilim sifatini nazorat qilish. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan Davlat talablarining mazmuni. To‘garak ishlarida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullari. O‘quvchilarni to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilish usullari. O‘quvchilarning qiziqish va xohishlariga qarab to‘garak yo‘nalishlarini tanlash. To‘garak a’zolarining to‘laqonli bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Maktabda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda sinf rahbarining vazifalari. Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. O‘quvchilar ongida ma’naviyatni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarning o‘rni.

2.5. Umumiy pedagogika

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida qonun”i. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta’lim. Pedagogikaning ilmiy asoslari. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi.

Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.

Pedagogika fanining metodologiyasi, metodologik madaniyat haqida tushuncha. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limi.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: muhit, irsiyat, ta’lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari.

Didaktika – ta’lim nazariyasi.

Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma(model)lari. Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Ta’lim texnologiyasi. Innovatsion pedagogika mazmuni. Innovatsion jarayonning rivojlanishiga umumiy yo‘nalish. Ta’limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish. Muammoli ta’lim metodlari.

Ta’limning mazmuni.

O‘zbekiston maktablaridagi ta’limning mazmuni. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti. O‘quv rejasi, dasturlari va darsliklar. Darslik va o‘quv faoliyatini tashkil qilish.

O‘qitish jarayoni.

O‘quv jarayonini tashkil etishning shakllari. Ta’limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi. Dars – maktabda o‘quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli. Darsga qo‘yiladigan talablar. Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari. Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar.

O‘qitish metodlari.

O‘qitish metodlarining nazariy asoslari. O‘qitish metodlarining tasnifi. O‘qitishning og‘zaki metodlari. Yangi material ustida ishlash. O‘tilgan material ustida ishlash va yangi materialni o‘rganishga tayyorlanish. O‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari. Reproduktiv ta’limdan amaliy ta’limga o‘tish. O‘qitishning amaliy metodlari.

Kreativ ta’lim.

Kreativ ta’limga zamonaviy yondashish. Kreativlik va uning tashxis etilishi. Kreativ dars tuzilishiga doir metodik tavsiyalar. Kreativ dars yo‘nalishlarining mazmuni va psixologik asosi.

Tarbiya nazariyasi va usullari.

Tarbiya jarayoni mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. Tarbiya usullari. Tarbiya usullari haqida umumiy tushuncha. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashi va taffakurni shakllantirish. Shaxsning ilmiy dunyoqarash shakllantirishda allomalarimiz fikrlari. Fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. O‘quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasining maqsadi, vazifalari va metodlari. Huquqiy tarbiya mazmun mohiyati. Mehnat tarbiyasi. Iqtisodiy tarbiya. Ekologik tarbiya. Nafosat tarbiyasi. Jismoniy tarbiya. Oila tarbiyasi. Oilada bola tarbiyasida ota-onaning o‘rni.

Pedagogika tarixining maqsad va vazifasi. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

Pedagogika tarixi faning mazmun mohiyati. Eng qadimgi davrlardan VII-IX asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. “Avesto” eng qadimgi yozma maorifi yodgorlik sifatida. Pedagogika tarixi ijtimoiy, nazariy va amaliy fan ekanligi. Qadimgi Gretsiyada ta’lim tarbiya.

VII asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrda maktab, tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.

Islom dini g‘oyalarining ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablarida ta’lim-tarbiya mazmuni. Hadis ilmining paydo bo‘lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy, Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.

Sharq uyg‘onish davri va unda ta’lim-tarbiya masalalari.

Sharq Uyg‘onish davrida pedagogik fikr taraqqiyoti. Sharq uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyatlari. Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinoning ta’limiy-axloqiy qarashlari. Mutaffakirlarning hayoti, faoliyati, ijtimoiy falsafiy qarashlari, yaratgan asarlari va undagi inson kamolotiga oid g‘oyalar.

Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar.

Ta’limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo‘lishi. Yusuf Xos Hojib. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida yetuk insonni kamolga etkazish masalalari.

XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogikaning yaratilishi. Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Boburning ta’limiy-tarbiyaviy va ma’rifiy-axloqiy qarashlari. Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ta’limiy-axloqiy qarashlari.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ta’lim tizimi. Turkiston o‘lkasidagi ma’rifatparvar olim va shoirlarining hayoti, ma’naviy merosining tarbiyaviy ahamiyati. Dastlabki maktablarning vujudga kelishi ularning mazmuni. Jadidlik oqimi namoyondalari: Ismoil Gaspirali, Munavvarqori, A.Fitrat, M.Behbudiy va A.Avloniylarning hayoti va ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari.

Chet el va Rossiyadagi ilg‘or pedagogik g‘oyalar. G‘arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti.

Yan Amos Komenskiy, Adolf Disterveg, Konstantin Dmitrievich Ushinskiylar-ning pedagogik qarashlari.

Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati.

Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, nazariy asoslari. O‘qituvchi muomalasida pedagogik mahoratning o‘rni. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati.

Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi.

Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida. Pedagogik

muloqotni tashkil etish yo‘llari. Pedagogik texnika. Pedagogik texnikani egallash yo‘llari.

2.6. Umumiy psixologiya

Umumiy psixologiyaning predmeti.

Umumiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, umumiy psixologiya fanining shakllanish tarixi, umumiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Umumiy psixologiyaning amaliy asoslari, o‘quv fanlari tizimida umumiy psixologiya, umumiy psixologiya mutaxassislik fani sifatida.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tadqiqot metodlari.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va prinsiplari. Determinizm prinsipi, ong va faoliyat birligi prinsipi, ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi. Aniq faoliyatni o‘rganuvchi psixologiya sohalari, rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi psixologiya sohalari, shaxs va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganuvchi psixologiya sohalari. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari va ularning tahlili, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so‘rovnoma metodi, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi, psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.

Psixika va ongning taraqqiyoti.

Psixika haqida tushuncha, psixikaning oriyentirovka biluvchanlik va boshqaruvchalik vazifasi. Psixik aks ettirish – obyektiv olamning subyektiv obrazi ekanligi. Bosh miya va psixika. Odam psixikasining paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti, seskanuvchanlik va sezuvchanlik, tropizmlarning mohiyati, instinkt tushunchasining mazmuni, ko‘nikma va malakalar, hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari, psixikaning muhit va a’zolar tuzilishiga bog‘liqligi. Psixika va ong munosabati. Ongning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib etmagan harakatlar) holatlari. Odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi.

Faoliyat va motivatsiya.

Faoliyat haqida tushuncha, faoliyatning psixologik tahlili. Faoliyatning tuzilishi, faoliyatning o‘ziga xosligi, faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizasiyasi. Faoliyatning o‘zlashtirilishi va malakalarni egallash. Faoliyatning asosiy turlari, o‘yin, ta’lim va mehnat faoliyati mazmuni. A.N. Leontev boyicha faoliyat tuzilishi. Faoliyat va motivlar. Motivatsiya va emotsiya tushunchasining mazmuni, motivatsiya sohalari, Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiya muammosi. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari, motiv muammosiga doir mulohazalar. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning ahamiyati.

Shaxsning hissiy-emotsional sohasi.

Emotsiya va hissiyot haqida tushuncha. His-tuyg‘ularning vazifalari. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Yuksak hislar. Hissiy ton, affekt, stress, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar. Hissiyotning o‘ziga xosligi. Hissiyotni boshqarish.

Shaxs haqida tushuncha va shaxsning o‘z-o‘zini anglashi.

Shaxs haqida tushuncha, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchasining mazmuni. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxs psixologik strukturasi. Biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, konstitutsion nazariya, rollar nazariyasi mazmuni. Dunyoqarash va e’tiqod. Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi. “Men” konsepsiya va uning rivojlanishi. Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi va baholashiga ta’sir etuvchi omillar. Shaxsning o‘ziga nisbatan ishonchini yuzaga keltirish va rivojlantirish. Shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarishi muammosi. Milliy ong va milliy o‘zini-o‘zi anglash.

Shaxsning bilish jarayonlari.

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari. Sezgilar haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, ekstroretseptiv sezgilar. Idrok haqida tushuncha. Idrokning nerv-fiziologik asoslari. Idrokning murakkabligi. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik. Idrokning xossalari, idrokda obyekt va fon, appersepsiya, idrokning konstantligi. Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. Xotira turlari, faoliyatga ko‘ra xotira turlari, maqsadiga ko‘ra xotira turlari, muddatiga ko‘ra xotira turlari. Xayol haqida tushuncha. Xayol jarayonlari. Xayol turlari, tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol, orzu, tush ko‘rish va shirin xayol. Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, tafakkur sifatlari, tafakkurning mazmundorligi. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi.

Xarakter, temperament va qobiliyatlarni bilishning ahamiyati.

Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari. Xarakter tipologiyasi, xarakter tarkibi, xarakterning shakllanishi, xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari. Xarakter borasidagi ta’limotlar. Xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog‘liqligi. Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tarixi. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari. Faoliyatning individual uslubi va temperament. Temperamentni tarbiyalash. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo‘lishi va tuzilishi.

Yosh va pedagogik psixologiyaning maqsad va vazifasi.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy sohalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh va pedagogik psixologiyadagi ilmiy maktablar. Yosh va pedagogik psixologiya fanining o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so‘rovnoma metodi, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi.

Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi.

Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o‘ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar). Yosh davrlarining yetakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin). Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi.

Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar.

Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug‘ilish davri inqirozi. “Tirilish kompleksi” haqida. Go‘daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati. Bir yosh inqirozi haqida. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.

Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida (o‘yin faoliyatining mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari, o‘yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta’siri muammosi). Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. Maktabgacha yosh davrida emotsional-ifodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy emotsiyalarning shakllanishi. Maktabgacha yosh davrida motivatsion sohadagi o‘zgarishlar. 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv-affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida bolaning o‘zi haqidagi tasavvurlari va xulq-atvori. Pedagogik baho va kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish aloqasining psixologik mexanizmlari. Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari

O‘smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

O‘smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. O‘smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari.O‘smirlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivatsiyasi, o‘quv faoliyati motivatsiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari). O‘smirlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi muammosi.

Ilk o‘spirinlik yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Ilk o‘spirinlik davri psixologiyasiga umumiy tavsif. Ilk o‘spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Ilk o‘spirinlik davrida o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi. Ilk o‘spirinlik davrida o‘quv-kasbiy faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi. Ilk o‘spirinlikda kasbga yo‘naltirishning psixologik muammolari.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mazmuni va ahamiyati. Maktab psixologining ish funksiyalari. Pedagogik faoliyatda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish texnologiyalari. Yosh psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish. Pedagog birlamchi psixologik yordam subyekti sifatida.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

Oilaviy hayotga psixologik tayyorlikning mohiyati. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqida umumiy tushuncha. Oila funksiyalari. Oilada shaxslar-aro munosabatlar. Shaxs psixik taraqqiyotida oilaviy muhitning roli.

O‘qituvchi psixologiyasi.

Jamiyatda o‘qituvchining tutgan o‘rni va uning vazifalari. O‘qituvchiga shaxsiga qo‘yiladigan talablar. O‘qituvchining kasbiga xos xislatlari. O‘qituvchi o‘quvchilarning hayot va faoliyati tashkilotchisi ekanligi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishning psixologik

muammolari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot. Pedagogik ijodiyot va uning mohiyati. O‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va pedagogik jamoadagi psixologik iqlim. Bo‘lg‘usi o‘qituvchi shaxsi sifatlari.

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

Ta’limga texnologik yondashuv.

Ta’limga texnologik yondashuv tushunchasi. Ta’lim texnologiyasining kategoriyalari, tamoyillari, tarkibiy qismlari, tasnifi, asosiy jihatlari. Ta’lim texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari. An’anaviy ta’limning texnologik yondashuvga asoslangan ta’limdan farqli jihatlari. Sharqning buyuk qomusiy olimlari asarlarida maktab va madrasalarda insonni aqliy kamolotga etkazishda o‘qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanish haqida.

Ta’limda innovatsion jarayonlar.

Ta’lim jarayonidagi innovatsiya. Pedagogik jarayonlarga innovatsiyalarni tatbiq etish. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mazmuni, maqsadi va amaliyotga joriy etish zarurligi. Pedagogik texnologiyalar – innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismi sifatida. Texnologik yondashuv ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilganligi. Interfaol va faol ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va qo‘llanilish hollari.

Ta’lim texnologiyalari ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda charxpalak, blits-so‘rov, 3x4 metodi va muammoli savollarni qo‘llash.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati.

O‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi. Innovatsion faoliyat tushunchasi. O‘qituvining innovatsion faoliyati tuzilmasi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarish. O‘qituvchining yangi axborotlar bilan ishlash madaniyati.

Ta’lim vositalari. Grafik organayzerlar texnikasi.

Ta’lim vositalari va ularning ta’lim texnologiyalaridagi o‘rni. Grafik organayzerlar. Ularning turlari. Ta’lim jarayonida qo‘llashning maqsad va vazifasi. Grafik organayzerlar texnikasi haqida amaliy ko‘nikmalar. Noan’anaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

O‘quv jarayonida muammoli o‘qitish texnologiyalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Muammoli o‘qitish. Muammoli o‘qitish mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari. Muammoli vaziyat belgilari, ularni anglab olish va hal etish yo‘llari. Dars

jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari. Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchiga hamda muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarishga qo‘yiladigan talablar. Muammoli ta’limning o‘quvchilar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishdagi ahamiyati. Muammoli o‘qitish texnologiyalari va ularni tashkil etish bosqichlari.

Ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Interfaol ta’lim, uning mazmuni, mohiyati, mezonlari va turlari. Ta’lim va tarbiya jarayonida interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari. Interfaol mashg‘ulot samaradorligini belgilashning pedagogik-psixologik asoslari. Interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni. Interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari, ularni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish usullari. Uning mazmuni va mohiyati. O‘yinli texnologiyalarning ijtimoiy-psixologik muammolari. O‘yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari. O‘yinli texnologiyalarning funksiyalari.

3. UMUMKASBIY FANLAR

3.1. Musiqa nazariyasi fani

Fanni o‘qitishdan maqsad: talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish qobiliyatini hosil qilish; talabalarning musiqiy dunyoqarashi, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to‘g‘ri yo‘naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish; talabalarni musiqa o‘qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Fanning vazifasi: talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetishishlarida chuqur bilimlar berish hamda musiqiy-texnik ko‘nikmalarni o‘rgatish;

– kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqa tizimi va unda muhim o‘rin egallagan garmoniya haqida aniq tushunchalar berish;

– musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim musiqa elementlari, musiqiy rivojlanish prinsiplari, shakldagi qismlar funksiyasi bilan talabalarni tanishtirish va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish

– talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani his eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, temp va

uslub tuyg‘usini tarbiyalash hamda o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatishdir.

3.2. Musiqa tarixi

Fanni o‘qitishdan maqsad – Talabalarda musiqiy san’atning tarixiy taraqqiyot bosqichlari, muhim uslubiy yo‘nalishlar, davrlar, maktablar, shuningdek, taniqli bastakorlar va ularning asarlari haqida tizimli tasavvur hosil qilish, turli tarixiy-madaniy davrlarga oid musiqiy uslublarni anglash va musiqiy tafakkurni shakllantirish.

Talabalarni musiqa o‘qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga chet el musiqasi madaniyati tarixiy taraqqiyoti, asosiy yo‘nalishlari, janr va shakllari haqida ma’lumot berish, jahon klassik musiqasiga xos bo‘lgan badiiy ifoda vositalarini va turli xil janrdagi asarlarning mazmunini idrok etishga o‘rgatish, g‘arbiy Yevropa va rus kompozitorlarining ijodiyoti hamda badiiy jihatdan ahamiyatli asarlari bilan tanishtirish, har bir kompozitorning kasbiy mahorat jihatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarini yoritib berish;

- talabalarni o‘zbek musiqasi bosib o‘tgan tarixiy jarayon, uning umuminsoniyat tarixida tutgan o‘rni, milliy musiqiy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, ularga musiqiy-tarixiy bilimlar berish, musiqa san’atining tarixi bilan jamiyat taraqqiyotining bog‘liqligini tushuntirish, o‘zbek musiqasini qadimiy davrlarda, temuriylar davrida qay darajada rivojlanganligini, ulug‘ siymolar va musiqashunoslar nomlarini va ularning musiqa ilmida yaratgan kashfiyotlari hamda uni rivojlantirishdagi hissalarini bilish orqali talabalarda milliy g‘urur, qadr-qimmat, ehtirom tuyg‘ularini shakllantirish;

1. Tarixiy bilim va tushunchalarni shakllantirish
2. Musiqiy uslublarni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish
3. Madaniy meros va bastakorlar faoliyati bilan tanishtirish
4. Tarixiy va badiiy tafakkurni rivojlantirish
5. O‘z musiqiy madaniyatini rivojlantirish va estetik didni oshirish

- Talabani milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan musiqiy estetik qarashlar bilan qurollantirish.

O‘zbek xalq musiqasi, maqom, baxshichilik va bastakorlik maktablariga oid bilimlarni mustahkamlash.

3.3. Cholg‘u ijrochiligi

Fanning talabalarning o‘quv jarayonida olgan maqsadi ansambl bilimlarini sifatida mujassamlashtirish, keyingi o‘qituvchilar faoliyatida cholg‘u asboblari ansambllari tashkil qilish yo‘llarini, talaba va o‘quvchilarning o‘qishdan bo‘sh

vaqtlarini to‘g‘ri tashkil qilish, madaniy merosga to‘g‘ri yondashishga ularning tafakkur va hissiyotlarini rivojlantirib borib, g‘oyaviy – badiiy va ma’naviy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish.

Fanning vazifasi: Maktablarda turli xil umumta’lim ansambllarini tashkil eta olish, repertuar tanlay olish, konsert chiqishlarini uyushtirish malakalarini egallash:

– ansambllarni tashkil qilish haqidagi amaliy ma’lumotlarni bilish ijrodagi usullar (cholg‘u zarblari, shtrixlari), doira usullari, bezaklarda foydalana olish;

– ansambllari ijrosidagi unison, hamda ko‘p ovozli musiqiy asarlarni o‘rganish, tahlil qila olish;

– cholg‘ular haqida qiziqarli suhbatlar o‘tkaza olish;

– cholg‘u ijrochiligi va ansambli tarixi, shakllantirishi haqida ma’lumotga ega bo‘lish;

– cholg‘uda ijro yetishni o‘rgatish jarayoni o‘quvchilar tomonidan ijro asoslarini ongli ravishda puxta egallash, ijro uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni hosil qilish va ularni amalda qo‘llay olish hamda mustaqil ijodiy fikrlash va kuzatish qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, estetik didini shakllantirishga qaratilgan.

3.4. Maktab repertuari

Fanni o‘qitishdan maqsad: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi modulida musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini musiqa madaniyati o‘qituvchisining o‘quvchilar bilan ishlash usullarining mazmunini anglatadi. Talabalarni bo‘lajak musiqa madaniyati o‘qituvchilarini umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limdagi musiqa fanlarini:

– umumiy o‘rta ta’lim musiqa ta’limi mazmuni (boshlang‘ich va o‘rta ta’lim);

– musiqa o‘qitish prinsiplari;

– musiqa o‘qitish metodlar;

– musiqa madaniyati fani bo‘yicha qo‘yiladigan talablar;

– musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quvchilarga sinflar kesimida qo‘yiladigan talablar;

– musiqiy asarlarni o‘qish va ijro etish metodlari;

– musiqa o‘qituvchisi shaxsiga qo‘yiladigan talablar;

– jamoa bo‘lib kuylashni o‘rgatish metodlari.

– musiqiy ritmik faoliyat;

– o‘quvchilarda ijrochilik va ijodkorlik malakalarini rivojlantirish;

– musiqiy tarbiya asoslari;

– maktab repertuari mazmunini bilishi;

– maktab o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini o‘stirish, bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishga o‘rgatish metodikalarini bayon qilish;

– o‘qitishning kompleks metodlari asosida o‘qitishga tayyorlashdir.

Fanning vazifalari: musiqa ta’limi va tarbiyasining mazmuni, tashkil qilinishi, turli shakllari va metodlari haqida asosiy ma’lumotlar berish. Musiqa ta’limi va tarbiyasi sohasidagi ilg‘or tajribalarni umumlashtirish. Darsdan tashqari musiqiy pedagogik amaliyot bo‘yicha metodik adabiyotlarni mustaqil o‘rganishga tayyorlash. Musiqa fanidagi asosiy mavzularni o‘qitish orqali o‘quvchilarning musiqiy-ilmiy savodxonligini oshirish metodikasiga asoslaniladi.

3.5. An’anaviy xonandalik

Fanning maqsadi: An’anaviy xonandalik fani bo‘yicha o‘zbek xonandaligi, an’anaviy xonandalik hamda cholg‘uda ashula ijrochiligi malakalarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalarni taqdim etishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

– an’anaviy xonandalik bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lish;

– o‘zbek xonandalik maktabi haqida nazariy va amaliy bilimlarni egallash;

– mumtoz ashulachilik ijro namunalarini tushunish va ijro eta olish;

– xonandalik asarlarini yakka hamda jamoada kuylash tartib-qoidalarini o‘rganish:

– o‘tmish masxur maqom maktabi vakillari ijro namunalarini asl xolida o‘rganish va kuylash;

– cholg‘uda ijrochilik xonandalik malakalarini o‘rganish va amalda qo‘llash malakalarini egallashdan iborat.

Fanning vazifasi – An’anaviy xonandalik malakalarini shakllantirish bo‘yicha nazariy bilimlarni berishda o‘quv-adabiyotlardan foydalanish.

– o‘zbek xonandaligi va sozandaligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni singdirish.

– xonandalik namunalarini kuylab berish orqali ijro malakalarini shakllantirish.

– ashulachilar jamoasi va boshqa xonandalik janrlari bo‘yicha ansambllar tashkil qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni singdirish.

– cholg‘u ijrochiligi va xonandalik san’ati turlari bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim tizimi va boshqa san’at ta’lim muassasalarida musiqiy to‘garaklarini tashkil etish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

3.6. Xor va xorshunoslik

– talabalarni turli asarlarni jamoa bo‘lib ijro etish orqali badiiy jamoalarni boshqarishga va rahbar sifatida mustaqil fikrlashga tayyorlash;

– “Xor va xorshunoslik” fani jamoaviy ijrochilik tarixi, an’anasi, tajribalarini ijodiy umumlashtirish;

– keng omma orasida ko‘p ovozlik musiqa asarlarini o‘zlashtirib targ‘ibot

qilish masalalarini o‘rgatuvchi vazifalarini bajarish;

– o‘zbek xalq cholg‘ulari tarixi, diapazoni, shtrixlari, musiqa nazariyasi, garmoniya, jahon, qardosh va o‘zbek xalq musiqalari to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘rganish;

– xor guruhlari, sozandalarning joylashish qoidalari, jamoani sozlash, ansambl bo‘lib ijro qilish va musiqa asarlari janrlarini aniqlash;

– ijro etilayotgan asar mualliflari, musiqiy templar, musiqiy ritm, musiqiy asar, undagi asosiy va yordamchi ovozlarni, dirijyor qo‘l harakatlarini his qilish;

– jamoani sozlash, badiiy ijroni tahlil etish, audio yozuvlar va fonotekadan foydalanish, asarlarning tonalligini aniqlashi, musiqadagi alteratsiya belgilariga hamda dinamik belgilarga itoat etish;

3.7. Dirijyorlik asoslari

Dirijyorlik asoslari fanidan talabalar dirijyorlik qilish qoidalari, dirijyorlik belgilari, o‘lchovlar oddiy o‘lchov, murakkab o‘lchov, aralash o‘lchovlar kabi turli amaliy bilimlar bilan qurollantiriladi. Dirijyorlik mahoratini shakllantirishda bo‘ladigan tushuncha va bilimlar taqdim etiladi. Shular bilan xor ijrochilariga (ning psixofiziologik xususiyatlari, kasalliklarni aniqlash, ularga) e’tibor berish, ular bilan ish uslublari haqidagi ma’lumotlar taqdim etib boriladi.

Talabalarning badiiy didini rivojlantirish, xor asarlarining badiiy qiymatini va ularning ijrosini to‘g‘ri baholay olishga o‘rgatish, dirijyorlik texnikasining sirlarini o‘rgatish, dirijyorlik malakalarini hosil qilish, musiqa pedagogikasining tizimlilik, izchilik, oddiydan murakkabga o‘tish, individual yondashish va guruh bilan muloqot o‘rnata olish kabi didaktik tamoyillariga amal qilishni o‘rgatish, badiiy ijroning mukammal variantini oldindan eshita bilish va unga erishish ustida rejali ish olib bora olishga o‘rgatishdan iborat.

3.8. Vokal ijrochiligi

Fanning mazmuni: talabaning shu fan bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari minimumi aniqlangan ya’ni ovoz apparatining tuzilishi va uni boshqarish, vokal ansambli to‘g‘risidagi asosiy tushunchalar bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar tavsiya etilgan.

Fan dasturda talabalarning badiiy-ijrochilik tomonlarini puxta o‘zlashtirilishiga, talabalarning qo‘shiq repertuarini xilma-xil shakl va xarakterdagi rang-barang vokal ansambli va duet asarlari bilan boyitib borishga alohida e’tibor berilgan.

Fanning vazifasi: Talabalarga jahon va mamlakatimiz vokal musiqasi merosi namunalari bilan tanishtirish, ularni ijro etishda to‘g‘ri nafas olish, barcha registrlarda ovoz hosil qilib sof va toza intonatsiyada kuylash, orfoepiya qoidalariga

rioya qilish, ifodali ijro etish usullari (attacca, legato, staccato va v.k) texnikasini bilish va ulardan samarali foydalanish, yakka va turli guruhlar bilan mustaqil ijodiy ishlash, konsertlarda ishtirok etishda sahna madaniyatiga amal qilish hamda o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatishdir.

4. IXTISOSLIK FANLARI

4.1. Ijrochilik san’ati tarixi

Musiqa pedagogikasi, musiqa psixologiyasi, pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va pedagogning metodologik madaniyati; pedagogik tadqiqotlarning mantiqiy-gnoseologik modeli; musiqa pedagogikasi sohasida pedagogik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari; pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish texnologiyasi bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi zarur.

Fanning vazifasi: Fanni o‘qitishdan maqsad – o‘quvchilarning ijro mahoratini mukammal egallashlari bilan birga, ma’naviy merosimiz bo‘lgan xonandalik asoslari hamda ijrochilik namoyonlarining hayoti faoliyatini , shuningdek, musiqiy ijrochiligini kishilik jamiyatida tutgan o‘rni nechog‘lik ahamiyatli ekanligini bilishlari lozim. Zero, musiqa ijrochiligida xonandalik va cholg‘u ijrochiligi o‘zining nozik sadolari bilan inson ruhiyatiga ta’sir etish bilan birga, axloqiy, madaniy va ma’naviy boyliklarni ifoda etadi.

Fanning vazifasi – o‘quvchilar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Magistrlar mazkur fan orqali xonandalik,sozandalik mahoratlarini shakllantirish asoslari, asrlar davomida ijrochilik san’atida yuzaga kelgan o‘zgarishlar, mashhur san’atkorlarning ijrochilik an’analari kabi nazariy tomonlarini bilishlari lozim. Eng avvalo o‘z milliy madaniyatimiz musiqa va san’at turlari tarixini bilishi - keng qamrovli mutaxassis bo‘lib etishiga yordam beradi.

4.2. O‘zbek xalq musiqa ijodi

Fanning maqsadi: pedagogika sohasida musiqa ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga o‘zbek xalq musiqa ijodi tarixi, madaniyat va ma’naviyat sohalari, e’tiqodlari, shu jumladan badiiy ijodiyot shakllari ko‘p jihatdan o‘zbek musiqa merosi va uning qatlamlarini o‘rganishdan, shuningdek, ayni vaqtda, mazkur fanning asosiy maqsadlaridan yana biri – an’anaviy musiqa ijodiyotining shakl tuzilish xususiyatlari, tarixiy mahalliy uslublari kabi masalalari yuzasidan hozirgi zamon musiqiy folkloristika fanida to‘plangan ma’lumot va xulosalardan talabalarni xabardor qilishdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi: o‘zbek xalq musiqa ijodi fanining o‘ziga xos xususiyatlari va uning nazariy va amaliy asoslari, xalq musiqa merosi, qatlamlari,

ilmiy amaliy masalalari, o‘zbek musiqashunosligini shakllanish jarayonlari, cholg‘u ijrochiligi, xonandalik janrlari tasnifi, o‘zbek xalq musiqa ijodi namunalari va shakllari ochib beradi.

4.3 Xalq cholg‘ularida ijrochilik uslubiyati

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarning o‘quv jarayonida xalq cholg‘u asboblarida ijrochilik bo‘yicha olgan bilimlarini mujassamlashtirish, keyingi o‘qituvchilar faoliyatida cholg‘u asboblari ansambllari tashkil qilish yo‘llarini, talaba va o‘quvchilarning o‘qishdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil qilish, madaniy merosga to‘g‘ri yondashishga ularning tafakkur va hissiyotlarini rivojlantirib borib, g‘oyaviy – badiiy va ma’naviy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish.

Fanning vazifasi: Umumta’lim maktablarda xalq cholg‘u asboblari bo‘yicha turli xil ansambllarini tashkil eta olish, repertuar tanlay olish, konsert chiqishlarini uyushtirish malakalarini egallash.

– ansambllarni tashkil qilish haqidagi amaliy ma’lumotlarni bilish ijrodagi usullar (zarblar, shtrixlar), doira usullari, bezaklarda foydalana olish;

– ansambllari ijrosidagi unison, hamda ko‘p ovozli musiqiy asarlarni o‘rganish, tahlil qila olish; cholg‘ular haqida qiziqarli suhbatlar o‘tkaza olish;

– cholg‘u ijrochiligi va ansambli tarixi, shakllantirishi haqida ma’lumotga ega bo‘lish;

– cholg‘uda ijro etishni o‘rgatish jarayoni o‘quvchilar tomonidan ijro asoslarini ongli ravishda puxta egallash, ijro uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni hosil qilish va ularni amalda qo‘llay olish hamda mustaqil ijodiy fikrlash va kuzatish qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, estetik didini shakllantirishga qaratilgan.

4.4 Musiqa o‘qitish metodikasi va texnologiyalari

Fanni o‘qitishdan maqsad: fanni nazariy va amaliy faoliyatni o‘zlashtirish jarayonida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tasvirlab berish, musiqiy ta’lim tarbiya berishda kasbiy kompetensiyasi yondashuvi va ish faoliyatiga kreativ yondashishga qo‘yilgan talablarga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. (Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi, o‘zini o‘zi rivojlantirish va asrash, amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyalari).

Fanning vazifasi: musiqa o‘qitishning innovatsion texnologiyalari ta’limining mazmuni, o‘qituvchi va talabalar ijodiga pedagogik ta’sir etish, musiqa ta’limida rivojlanuvchi ijodiy o‘yinli va interaktiv texnologiyalar, innovatsion texnologiya va axborot texnologiyalari haqida asosiy ma’lumotlar berish. Musiqa ta’limi va tarbiyasi sohasidagi ilg‘or tajribalarni umumlashtirish. Darsdan tashqari olib boriladigan tadbirlarni mustaqil tayyorlashni o‘rganishga tayyorlash.

4.5. Bolalar musiqa adabiyoti

Fanni o‘qitishdan maqsad: talabalarga bolalar musiqasining rivojlanishi haqidagi bilim va tushunchalarni berish, bolalar musiqasining nazariy va amaliy ahamiyatlarini shakllantirish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. Bolalar musiqa adabiyotida O‘zbekiston hamda xorij kompozitorlarining ijodiy faoliyati, ularning bolalar va o‘smirlar uchun yaratgan musiqa asarlari tarixiy – nazariy tahlil qilinib o‘rganiladi.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning mazmuni va ahamiyati. Maktab psixologining ish funksiyalari. Pedagogik faoliyatda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish texnologiyalari. Yosh psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish. Pedagog birlamchi psixologik yordam subyekti sifatida.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

Oilaviy hayotga psixologik tayyorlikning mohiyati. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash haqida umumiy tushuncha. Oila funksiyalari. Oilada shaxslar-aro munosabatlar. Shaxs psixik taraqqiyotida oilaviy muhitning roli.

O‘qituvchi psixologiyasi.

Jamiyatda o‘qituvchining tutgan o‘rni va uning vazifalari. O‘qituvchiga shaxsiga qo‘yiladigan talablar. O‘qituvchining kasbiga xos xislatlari. O‘qituvchi o‘quvchilarning hayot va faoliyati tashkilotchisi ekanligi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishning psixologik

muammolari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot. Pedagogik ijodiyot va uning mohiyati. O‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va pedagogik jamoadagi psixologik iqlim. Bo‘lg‘usi o‘qituvchi shaxsi sifatlari.

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

Ta’limga texnologik yondashuv.

Ta’limga texnologik yondashuv tushunchasi. Ta’lim texnologiyasining kategoriyalari, tamoyillari, tarkibiy qismlari, tasnifi, asosiy jihatlari. Ta’lim texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari. An’anaviy ta’limning texnologik yondashuvga asoslangan ta’limdan farqli jihatlari. Sharqning buyuk qomusiy olimlari asarlarida maktab va madrasalarda insonni aqliy kamolotga etkazishda o‘qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanish haqida.

Ta’limda innovatsion jarayonlar.

Ta’lim jarayonidagi innovatsiya. Pedagogik jarayonlarga innovatsiyalarni tatbiq etish. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mazmuni, maqsadi va amaliyotga joriy etish zarurligi. Pedagogik texnologiyalar – innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismi sifatida. Texnologik yondashuv ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilganligi. Interfaol va faol ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va qo‘llanilish hollari.

Ta’lim texnologiyalari ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda charxpalak, blits-so‘rov, 3x4 metodi va muammoli savollarni qo‘llash.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati.

O‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi. Innovatsion faoliyat tushunchasi. O‘qituvining innovatsion faoliyati tuzilmasi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarish. O‘qituvchining yangi axborotlar bilan ishlash madaniyati.

Ta’lim vositalari. Grafik organayzerlar texnikasi.

Ta’lim vositalari va ularning ta’lim texnologiyalaridagi o‘rni. Grafik organayzerlar. Ularning turlari. Ta’lim jarayonida qo‘llashning maqsad va vazifasi. Grafik organayzerlar texnikasi haqida amaliy ko‘nikmalar. Noan’anaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

O‘quv jarayonida muammoli o‘qitish texnologiyalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Muammoli o‘qitish. Muammoli o‘qitish mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari. Muammoli vaziyat belgilari, ularni anglab olish va hal etish yo‘llari. Dars

jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari. Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchiga hamda muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarishga qo‘yiladigan talablar. Muammoli ta’limning o‘quvchilar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishdagi ahamiyati. Muammoli o‘qitish texnologiyalari va ularni tashkil etish bosqichlari.

Ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Interfaol ta’lim, uning mazmuni, mohiyati, mezonlari va turlari. Ta’lim va tarbiya jarayonida interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari. Interfaol mashg‘ulot samaradorligini belgilashning pedagogik-psixologik asoslari. Interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni. Interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari, ularni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish.

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish usullari. Uning mazmuni va mohiyati. O‘yinli texnologiyalarning ijtimoiy-psixologik muammolari. O‘yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari. O‘yinli texnologiyalarning funksiyalari.

3. UMUMKASBIY FANLAR

3.1. Muhandislik kompyuter grafikasi

Muhandislik kompyuter grafikasi fanining ahamiyati. Muhandislik va kompyuter grafikasi uchraydigan shartli belgilar. Proyeksiyalash usullari. Monj metodi. Formatlar. Masshtablar. Chiziq turlari. Shriftlar.

Umumiy va xususiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziqning ortogonal proyeksiyalari. Umumiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziq kesmasining haqiqiy uzunligi va uning proyeksiyalar tekisliklari bilan hosil qilgan burchaklarini aniqlash. To‘g‘ri chiziqni izlarini yasash qoidalari. To‘g‘ri chiziq kesmasini berilgan nisbatda bo‘lish.

Nuqta. Koordinatalar bo‘yicha nuqtaning proyeksiyalarini chizish. Xususiy vaziyatdagi nuqtalar. Umumiy va xususiy vaziyatdagi nuqtalarga doir masalalar yechish.

Tekislik. Tekislikda yotuvchi nuqta va to‘g‘ri chiziq. Tekislikning bosh chiziqlari. Xususiy vaziyatdagi tekisliklar. To‘g‘ri chiziqning tekislikka va tekisliklarning o‘zaro perpendikulyarligiga oid masalalar. To‘g‘ri chiziqni tekislikka va tekisliklarning o‘zaro parallelligiga oid masalalar.

Detallarning birikmalari. Ajralmaydigan va ajraladigan birikmalar. Rezbalar, ularning turlari, profillari, belgilanishlari va asosiy parametrlari. Rezbali

birikmalarni chizmalarda tasvirlash va belgilash. Rezbaning texnologik elementlari. Yig‘ma birlik chizmalarini chizish qoidalari. Yig‘ma birlik chizmalarida soddalashtirish va shartliliklar. Spetsifikatsiya.

Grafik dasturning (AutoCAD, KOMPAS 3D, SOLIDWORKS) ishchi menyusi bilan tanishish, bajariladigan buyruqlarni yoritish va ulardan foydalanishni o‘rganish. Grafik dastur (AutoCAD, KOMPAS 3D, SOLIDWORKS) yordamida kesim va qirqimlarni amalga oshirish Qirqim bajarilishni ketma-ketligi grafik dasturida. Kesim bajarilishi va qoidalarini grafik dasturida bajarish. Kesim turlari.

Grafik dastur (AutoCAD, KOMPAS 3D, SOLIDWORKS) yordamida detalning uch o‘lchamli ko‘rinishi chizish va undan foydalanib ikki o‘lchamli ko‘rinishlarini keltirib chiqarish. Grafik dastur (AutoCAD, KOMPAS 3D, SOLIDWORKS) yordamida detallarni yig‘ma birliklarini shakllantirish. Yig‘ish chizmalarini tuzish va o‘qish. Yig‘ish chizmalaridagi shartliliklar va soddalashtirishlar.

3.2. Plastik anatomiya

Plastik anatomiya fani uning maqsad va vazifalari. Plastik anatomiya to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Plastik anatomiya rivojlanishining asosiy bosqichlari. Xitoyda anatomiyaga oid tushunchalar. Qadimgi Yunoniston, Gretsiya va Rimda anatomiyaga oid tushunchalar. Musulmon Sharqi. Uyg‘onish davri. Odam skeleti plastikasini o‘rganish. Gavda skeleti suyaklarining tuzilishi.

Suyaklarning bir-biriga birikishi, chok va tog‘aylar, bo‘g‘imlar. Umurtqa pog‘onasi suyaklari. Bo‘yin va ko‘krak umurtqalari. Bel, dumg‘aza va dum umurtqalari. Ko‘krak qafasi suyaklari. Qovurg‘alar va ko‘krak qafasining birlashmalari. Chanoq (tos) va oyoq suyaklari. Oyoq (son) va oyoq panja suyaklari. Qo‘lning erkin suyaklari. Bilak suyaklari. Qo‘l va qo‘l panja suyaklari. Bosh chanog‘i suyaklari. Bosh suyaning miya va yuz qismi. Ensa, chakka, va peshona suyagi. Yuqori va pastki jag‘ suyaklari. Inson muskullar tizimini tasvirlash. Gavda muskullari. Yelka kamari muskullari va ularning harakatlanishi. Bosh va bo‘yin muskullari, uning bo‘laklari. Chanoq va son muskullari. Boldir va oyoq panjasi muskullari.. Oyoq va chanoq harakatlari plastikasi. Qo‘l va qo‘l panjalari muskullari. Mimika muskullari. Chaynov muskullari. Ko‘z, og‘iz, quloq muskullari plastikasi. Gavda skeletini tasvirlash.

3.3. Tanlov fanlari — Dastgohli rangtasvir asoslari va kompozitsiya

Yalang‘och gavdadan ranglavha ishlashda qo‘yiladigan talablar. Rangtasvirda

shakl talqini, rang uyg‘unligi va tasvir yaxlitligi.

Kiyimli ayol gavdasini xolstga to‘g‘ri joylashtirish, qalamda kompanovka qilish va rangda tasvirlash. Ranglarni yoritilish ta’sirida o‘zaro uyg‘unlashuvi. Kiyimli ayol gavdasidagi rang va tus munosabatlari va yoritilish xususiyatlarini hisobga olib rangtasvirini bajarish. Metodik ketma-ketlikka amal qilish. Kiyimli ayol gavdasining o‘ziga xos statik holatini aniqlab tasvirlash. Ishni umumlashtirish va yakuniga yetkazish.

Qalamtasvirini ishlashda yalang‘och gavdaning interyer muhitidagi holati, gavdaning rang xususiyati va fazoviy perspektivasini to‘g‘ri ifodalash. Metodik izchillik.

C:\Users\mullajonov.i\AppData\Local\Temp\Rar$DIa15468.30028\savodxon - FAD2UEHOP6Kompozitsiyani mato sathida kompozitsiya jihatidan to‘g‘ri joylashtirish. Nisbatlarni aniqlab, xarakterini topish va rangtasvirini bajarish Erkak gavdasini tasvirlashda rang va tus munosabatlari va yoritilish xususiyatlarini hisobga olib rangtasvirini bajarish. Metodik ketma-ketlikka amal qilish.

Kompozitsiyani matoda to‘g‘ri joylashtirish, yalang‘och odam gavdasining o‘ziga xos statik g‘olatini aniqlab tasvirlash Qalamtasvirini ishlashda yalang‘och gavdaning interyer muhitidagi holati, gavdaning rang xususiyati va fazoviy perspektivasini to‘g‘ri ifodalash. Metodik izchillikda ishni yakunlash.

4. IXTISOSLIK FANLARI

4.1. Qalamtasvir

Qalamtasvir fani tasviriy san’atning asosi sifatida. Qalamtasvir fanining maqsad va vazifalari. Shaklni konstruktiv tahlil qilish. Qalamtasvir fanini muhim xususiyati va obrazli ifodalash. Soya yorug‘ jihatlari qalamtasvir fanining asosiy vositasi sifatida ahamiyatini o‘rganish. Geometrik jismlarning yorug‘ va soya joylarini belgilab, tus jihatlarini topish. Geometrik shakllarda yorug‘ va soya, refleks, bliklarini, tus berish usullarini o‘rganish. Natyurmort kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Natyurmortni yaxlit bir butunlikda tugallash.

Chiziqli va havo perspektivasi haqida asosiy tushunchalar**.** Chiziqli va havo perspektivasini qo‘llagan holda eskizlar va qoralamalar ishlashni o‘rganish. Natyurmortdagi gips naqshli rozetkaning yorug‘ va soyalarini belgilab, tus jihatlarini topish. Gips rozetkada yorug‘ va soya jihatlarini shtrixlash orqali tasvirlash usullarini o‘rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Gips rozetkadan tashkil topgan natyurmortni yaxlit bir butunlikda

tugallash.

Tasvirlashning turli texnikalaridan foydalanib, kompozitsiyalar bajarish. Yorug‘ va soya jihatlarini shtrixlash orqali tasvirlash qalamtasvir fanining asosiy vositasi sifatida ahamiyatini o‘rganish. Kompozitsiyani qog‘oz yuzasida joylashtirish, konstruktiv qurilishini o‘rganish. Mato burmalari fonida gipsli geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort kompozitsiyasidagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Mato burmalarini och to‘qligini aniqlab tuslash va yaxlit bir butunlikda tugallash

Oltin kesim qonuni, kompozitsiya markazi, simmetriya va assimetriya haqida tushuncha. Chiziqli va havo perspektivasini qo‘llagan holda qalamchizgi va qoralamalar ishlashni o‘rganish. Kapitel bo‘lagini konstruktiv tahlil qilish orqali qurilishini qog‘oz yuzasida mashq qilish. Qalamtasvir fanini muhim xususiyati va obrazli ifodalash. San’at atributlaridan kapitelning turlarini, tuzilishini ahamiyatini o‘rganish. Kompozitsiyani qog‘oz yuzasida konstruktiv qurilishini, joylashtirishni tekshirish va tuslash orqali uning hajmini ko‘rsatish. Kapitel bo‘lagini yorug‘ va soya qonuniyatlariga amal qilgan xolda umumlashtirish. Natyurmort kompozitsiyasini yakuniy bosqichini bajarish**.**

Kompozitsiya markazi, simmetriya va assimetriya haqida tushuncha. Chiziqli va havo perspektivasini qo‘llagan holda natyurmort buyumlarini qog‘oz yuzasida konstruktiv qurilishini, joylashtirish Turli shakl va fakturali uy-ro‘zg‘or buyumlarini bir biriga nisbati, hajmi, xossasiga, materialiga qarab buyumning o‘ziga xos jihatlarini tus orqali ko‘rsatish Natyurmort buyumlarida yorug‘ va soya qonuniyatlariga amal qilib tuslash bosqichi. Natyurmort kompozitsiyasini yakuniy bosqichini bajarish va tugallash

David boshining bo‘laklari, lab bo‘lagi qalamtasviri. Portret, plastik anatomiya, perspektiva qonunlariga asoslangan holda burun modelini qurishni o‘rganish. Burun modelni o‘rganish, qisqa muddatli chizgilarni bajarish, konstruktiv qurilishini topish. Ko‘z modelini nisbatlarini to‘g‘ri ifodalab tasvirlash. Ko‘z modelini yorug‘-soya qonunlariga amal qilgan holda vazifani tuslash. Quloq modelini yorug‘-soya qonunlariga amal qilgan holda vazifani tuslash va yakunlash. Quloq modelini konstruktiv qurilishini topish. B.Mikelanjeloning David haykali boshining bo‘laklari qalamtasviri. Umumlashtirish va ishni yakuniga yetkazish

Odam boshining suyagi qurilishi haqida ma’lumot**.** Modelni o‘rganish, qisqa muddatli chizgilarni bajarish. Inson bosh suyagini konstruktiv qurish orqali o‘rganish. Inson bosh suyagini yuz nisbatlarini to‘g‘ri ifodalab tasvirlash. Inson bosh suyagini yorug‘-soya qonunlariga amal qilgan holda tuslash. Inson bosh suyagini

turli rakurslardagi holatini tuslash orqali umumlashtirish. Inson bosh suyagini umumlashtirish va ishni yakuniga yetkazish.

Odam boshining qurilishi haqida ma’lumot**.** Modelni o‘rganish, kesib ishlash usulida mashq qilish. Kesik bosh gips namunasini qisqa muddatli chizgilarni bajarish. Kesik bosh gips namunasini konstruktiv qurish va tuslash. Kesik bosh nisbatlarini to‘g‘ri ifodalab tasvirlash. Kesik bosh gips namunasini yakuniy bosqichi umumlashtirib yaxlit bir butunlikda yakunlash.

Odam boshining anatomik qurilishi haqida ma’lumot**.** Anatomik bosh namunasi orqali inson yuz mushaklarini o‘rganish. Modelni o‘rganish, qisqa muddatli chizgilarni bajarish. Konstruktiv qurishini topish. Bosh nisbatlarini to‘g‘ri ifodalab tasvirlash. Yorug‘-soya qonunlariga amal qilgan holda vazifani tuslash. Anatomik bosh namunasini umumlashtirish va ishni yakuniga yetkazish.

Kompozitsiya qonuniyatlari, chiziqli, havo, perspektivalari, ufq tekisligi siluet, konstruksiya, shtrix, masshtab, nisbatlar, materiallar xususiyatlari, yorug‘-soya qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalaridan foydalanib modelni o‘rganish, qisqa muddatli chizgilarni bajarish. Antik davrga mansub bo‘lgan bosh niqobini konstruktiv qurish bosqichi. Yuz nisbatlarini to‘g‘ri ifodalab tasvirlash. Yuz niqobidagi yorug‘ soya, shu’la, reflekslarini shtrixlash orqali aniqlashtirish. Antik davrga mansub bo‘lgan bosh niqobini umumlashtirish va ishni yakuniga yetkazish.

Inson boshining anatomik qurilishi haqida ma’lumot**.** Modelni o‘rganish, qisqa muddatli chizgilarni bajarish. O‘ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega bo‘lgan inson qiyofasini konstruktiv qurish. Bosh nisbatlarini to‘g‘ri ifodalab tasvirlash konstruktiv tuzilish, plastika, hajm kompozitsiya asoslari qonun-qoidalarini o‘rgatish. Tuslash orqali insonni o‘ziga xos xarakterini, ko‘rinishini ifodalash. Vazifani yakuniy bosqichi.

Odam boshining anatomik qurilishi haqida ma’lumot**.** Modelni o‘rganish, qisqa muddatli chizgilarni bajarish. Keksa inson boshining murakkab holatdagi portretini konstruktiv qurish. Bosh nisbatlarini to‘g‘ri ifodalab tasvirlash konstruktiv tuzilish, plastika, hajm kompozitsiya asoslari qonun-qoidalarini o‘rganish. Vazifani yakuniy bosqichi.

Amaliy mashg‘ulotlar maxsus dastgohlar va laboratoriya buyumlari: geometrik jismlar (Kub, shar, silindr, prizma, konus), uy-ro‘zg‘or buyumlari (ko‘za, xum, choynak, piyola, lagan, samovar va hokazolar.), gips rozetkalar, gips bosh namunalari, gips bosh, inson bosh suyagi kabi jihozlari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Yuqori kurs uchun qiyofalar taklif etilishi yoki haykallar bilan jihozlanishi zarur. Shuningdek multimedia qurilmalari bilan jihozlangan bir akademik guruh bir

yoki ikki professor-o‘qituvchi tomonidan mashg‘ulotlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi har bir talabaga individual yondashib dars o‘tish maqsadga muvofiq.

4.2. Rangtasvir va kompozitsiya

Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o‘rganish. Grizayl texnikasi. Axromatik va xromatik ranglarni o‘rganish. Natyurmortda buyumlar shakli. hajmi, yorug‘lik xususiyatlarini bir xil rangda to‘g‘ri aks ettirish **(**Akvarel).

Akvarel bo‘yog‘i haqida tushuncha. Chiziqli va havo perspektivasi haqida asosiy tushunchalar**.** Chiziqli va havo perspektivasini qo‘llagan holda shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o‘rganish. Xolis fonda gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortni cheklangan ranglarda tasvirlashni kompozitsiya qonuniyatlari asosida o‘rganish.

Kompozitsiyani qog‘oz yuzasida joylashtirishni o‘rganish. Yorug‘-soya jihatlarini, rang berish usullarini o‘rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Asosiy va qo‘shimcha ranglar haqida tushuncha. Sovuq tusdagi bo‘yoqlar xususiyatini hisobga olib kompozitsiyani aks ettirish. Natyurmortga tushayotgan yorug‘lik kuchini aniqlash, ranglarni to‘g‘ri ifoda eta olish. Shakl, hajm va fazoviy bo‘shliqni ranglar yordamida akvareldagi turli texnikalarda tasvirlashni o‘rganish.

Rangtasvir haqida tushunchaga ega bo‘lish va amalda tezkor rangtasvirlar bajarish. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o‘rganish. Yorug‘-soya jihatlarini, rang berish usullarini o‘rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash.

Rangda jismlarning yorug‘-soya joylarini belgilab, tus jihatlarini topish Yorug‘-soya joylariga rang berish usullarini o‘rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Kontrastlik-tushunchasi haqida nazariy va amaliy ma’lumotga ega bo‘lish.

Rangda kompozitsiyaning yorug‘ va soya joylarini belgilab, tus jihatlarini topish. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o‘rganish. Yorug‘-soya jihatlarini,

rang berish usullarini o‘rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Rangtasvirni tashkil etish, uni ifodalashda yorug‘lik, shu’la va reflekslar (rang aksi)ning ahamiyatini o‘rganish.

Issiq va sovuq ranglar haqida tushunchaga ega bo‘lish va amalda qo‘llay olish. Iliq ranglar majmuiga bo‘ysundirgan holda natyurmort ifodaviyligiga erishish. Muhit, yorug‘lik manbaini to‘g‘ri aks ettirish. ishni yaxlit bir tusga bo‘ysundirgan holda yakunlash.

Guashda ishlash texnikasi haqida tushunchaga ega bo‘lish va ishlay olish. Rang va tus munosabatlarini aniqlashni o‘rganish. Guash bo‘yog‘ida David ko‘z bo‘lagini ishlash birinchi bosqichi. Natyurmortdagi ko‘za, meva, matolar burmalarini ishlash bosqichi. Yorug‘, soya, blik, refleks, yarim soya, shaxsiy soya, tushgan soyalarini rang orqali ifodalash. Umumlashtirish. Yorug‘likni hisobga olgan holda rang va tuslarini topish orqali ishni metodik izchillikda yakunlash.

Buyuk rassomlar asarlari namunalari bilan tanishish. Natyurmort qo‘yilmasini qog‘oz sathida to‘g‘ri joylashtirish. Aniq tushib turgan yorug‘lik muhitini hisobga olgan holda tasvirlash. Buyumlar sirtida atrofdagi ranglarning aks etishini dekorativ usulda amalga oshirish, hajm, yaxlitlik masalalarini hal etish. Murakkab fonda natyurmort ishlash, rang uyg‘unligi (kolorit) qonuniyatlarini o‘rganish.

Hayvonlar va parrandalarning turli holatdagi tasvirlarni bajarishni o‘rganish. Hayvonlar va parrandalarning tasvirlarni to‘g‘ri chizish va rang bilan hajmlilikni ta’minlagan holda aks ettirish. Hayvon va qushlarning anatomiyasi. Hayvonlarning harakat plastikasini tasvirlashni o‘rganish, oldingi va orqa oyoqlari suyaklarining tuzilishi, birikishi va dinamikasi.

Grizayl texnikasi. Axromatik va xromatik ranglarmi o‘rganish. Mato yoki kartonga moybo‘yoqda ishlash texnikasini o‘rganish Buyumlarni fakturasiga qarab rangda tuslash. Natyurmortni umumlashtirish va yakunlash.

Natyurmortni qog‘ozga kompozitsiya jihatidan to‘g‘ri joylashtirish. Nisbatlarni to‘g‘ri aniqlash. Perspektiva qonun-qoidalariga amal qilish. Buyumlarni fakturasiga qarab rangda tuslash. Natyurmortni umumlashtirish va yakunlash.

Natyurmortni qog‘ozga kompozitsiya jihatidan to‘g‘ri joylashtirish. Nisbatlarni to‘g‘ri aniqlash. Perspektiva qonun-qoidalariga amal qilish. Buyumlarni fakturasiga qarab rangda tuslash. Natyurmortni umumlashtirish va yakunlash

4.3. Haykaltaroshlik

Zamonaviy haykaltaroshlik uslublari va rivojlanish bosqichlari. Haykaltaroshlik san’atining estetika va texnologiya nuqtayi nazaridan yangilanishi.

Har bir bosqichda materiallardan foydalanish, shakllarning ifodaviyligi va mavzularni talqin qilish uslublari.

Haykaltaroshlikda kompozitsion mavzularning shakllanish bosqichlari. Mavzularning tarixiy, diniy, madaniy va zamonaviy g‘oyalarga asoslanishi.

Haykaltaroshlikda uyg‘unlik tushunchasi. Shakl, hajm, masshtab va materiallarning muvozanati. Har bir asarning estetik va funksional jihatdan bir butun bo‘lishi.

Haykaltaroshlik kompozitsiyasi maqsadlarini belgilashda vizual ifoda vositalarini samarali ishlatish va san’at asarining ta’sirchanligini oshirish. Shakl va hajmning o‘zaro aloqadorligi, harakat va dinamikaning ifodaviyligi kompozitsiyaning asosiy jihatlari.

Me’morchilikda haykaltaroshlik asarlarining ahamiyati. Binolar va jamoat joylarining estetik qiyofasini shakllantirish. Haykaltaroshlik me’moriy ansambllarning ajralmas qismi sifatida.

Haykaltaroshlikni amalda ishlatilish uslublari. Monumental san’at. Landshaft dizayni. Memorial yodgorliklar. Interyer bezaklari. Har bir uslubning o‘ziga xosligi: material tanlovi va ijodiy g‘oyalar.

Plastik haykaltaroshlik – haykaltaroshlikning bir turi sifatida shakl va materialning o‘zaro uyg‘unligi. Plastik haykaltaroshlik yo‘nalishida klassik va zamonaviy texnikalar birlashtirilishi. Turli materiallardan foydalanish imkoniyatlari.

Zamonaviy haykaltaroshlikning yangi oqimlari. Abstrakt haykaltaroshlik, minimalizm va post-minimalizm. Shaklning ifodaviyligini soddalashtirish. Badiiy ifodaning muhim jihatlariga urg‘u berish tamoyillari.

Kompozitsiyaning plastik yechimi, hajmdorlik, masshtablilik, proporsionallik va shakl plastikligi qonunlari. Haykaltaroshlikda vizual ifoda va estetik mutanosiblikni ta’minlash. San’at asarining hajmi, materiali va shakl tuzilishi bilan muhitga mos kelishi.

Medalyer san’ati asarlarining o‘ziga xosligi. An’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish. Medallar, nishonlar va esdalik tangalari dizayni.

Natyurmort, peyzaj, kichik hajmdagi shaklli haykaltaroshlik, landshaft dizayni va kinetik haykaltaroshlik. Materiallar va shakllarning harakatchanligi, muhit bilan bog‘liqligi va texnologik innovatsiyalar.

4.4. Chizmachilik

Chizmalarini rasmiylashtirish. Chizmachilik fanining qisqacha rivojlanish

tarixi. Fanning maqsadi, vazifalari va mohiyati. Standartlar. Chizma buyumlari, asboblari va moslamalari. Standart chizma formatlari.

Chiziq turlari. Masshtablar. Chizmaning asosiy yozuvi va uni rasmiylashtirish tartibi. Shriftlar. Olcham qo‘yish qoidalari.

Geometrik chizmachilik asoslari. Geometrik yasashlar. Tutashmalar. Sirkul va lekalo egri chiziqlari. Aylanani teng bo‘laklarga bo‘lish va muntazam ko‘pburchaklar yasash. Geometrik ornamentlar.

O‘zaro perpendikulyar ikkita proyeksiya tekisliklarida tasvirlar yasash. O‘zaro perpendikulyar bo‘lgan uchta proyeksiya tekisliklarida tasvirlar yasash. Ko‘rinishlar. Qirqimlar va kesimlar.

Izometrik proyeksiya. Dimetrik proyeksiyalar.

Buyumlar va ularning turlari. Konstruktorlik hujjatlarining turlari. Eskizlar. Detalning eskiziga asosan ish chizmasini bajarish. Ishchi chizmalari. Detallarning ish chizmalari. Buyumlarga birgalikda ishlov berish chizmalari. Rezbalar.

Kinematik sxemalar. Gidravlik va pnevmatik sxemalar. Radio-elektr sxemalar. Algoritmlar va dasturlar sxemalari.

Topografik chizmalar. Oddiy geometrik shakllaring sonlar bilan belgilangan proyeksiyalari. Sirtlarning son bilan belgilangan proyeksiyalari.

4.5. Tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi

Pedagogik yondashuv orqali chizmalarni tuzish va o‘qish metodikasi. Model yasash yo‘li bilan chizmalarni o‘qish. Pedagogik texnologiyaning mohiyati, ta’riflari va o‘qitish metodikasi bilan farqlari.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va metodlarini o‘rganish. Tasviriy san’at darslarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish. Dars ishlanmalarini o‘rganish, tahlil qilish va unda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish.

Tasviriy san’at darslariga ko‘rsatmali materiallar tayyorlash. Ko‘rsatmalilik tamoyilidan chizmachilik darslarida foydalanish. Dars ishlanmalarini o‘rganish, tahlil qilish va unda didaktik o‘yin texnologiyasidan foydalanish.

Didaktik prinsiplar. Ko‘rsatmali qo‘llanmalar yordamida darslarni tashkil qilish. O‘yin texnologiyasining mazmuni va mohiyati. Didaktik o‘yin texnologiyasi va undan darslarda foydalanish metodikasi. Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismlarini o‘zlashtirish, nostandart testlar tuzish. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tish.

Muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari. Tasviriy

san’at mavzularini o‘qitishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish imkoniyatlari.

Badiiy asarda obrazlarga singdirilgan ma’no va mazmun. Obrazlar tasnifi. Badiiy asarlarni o‘rganish bosqichlari. Tahlil turlari. Epik asarlar tahlili, matn ustida ishlash yo‘llari. (“Xamsa” dostonlari misolida). Mumtoz asarlarni sharhlab o‘rganish, lug‘at ustida ishlash (“Farhod va Shirin” asari misolida).

Evristik o‘qitish texnologiyasi. Tasviriy san’at darslarida an’anaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanish.

Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda “Keys-stadi” texnologiyasidan foydalanish. Tasviriy san’at fani mavzulariga keyslar tuzish.

Tasviriy san’at fanlari bo‘yicha o‘quvchilar bilimini tekshirish usullari. Test tushunchasi va test topshiriqlari. Tasviriy san’at fanlaridan darajali testlar tuzish metodikasi. O‘quvchilarning grafik ishlarini tekshirish va baholash jarayonida ularning grafik savodxonligini oshirish.

4.6. Chizmachilik fanini o‘qitish metodikasi

Chizmachilik fani, uning maqsad va vazifalari. Chizmaning inson amaliy faoliyatidagi ahamiyati. Chizmaning O‘rta Osiyo va jahonning boshqa hududlarida rivojlanishi. Chizmachilik asboblari va jihozlari. Standart haqida ma’lumotlar. Chizma qog‘ozlari va bichimlari. Kattalashtirish va kichiklashtirish masshtablaridan foydalanish.

Shriftlarni yozish qoidalari. Shrift turlari, standart chizma shriftlari, shriftlarni guruhlari.

Chiziq turlari va ularni qo‘llash. Chizmadagi shartliliklar. O‘lcham qo‘yish qoidalari, tekis shaklga o‘lcham qo‘yish.

Kesmalarni, burchaklarni va aylanani teng bo‘laklarga bo‘lish, muntazam ko‘pburchakliklar yasash. Qiyalik va konuslik qatnashgan detal chizmasini chizish.

Tutashmalar. Tutashma elementlari. Tutashma elementlari va uning amaliy tatbig‘i.

4.7. Tasviriy san’atda nusxa ko‘chirish

Rangshunoslik asoslari. Ranglar haqida umumiy tushuncha, spektr ranglarning aralashuvi va natijada yangi ranglarni hosil qilish usullari. Ranglarning optik, fazoviy va mexanik aralashuv texnologiyalarini o‘rgatish. Ranglar aylanasi va bo‘yoqlarni aralashtirish metodikasi (Rang doirasi ishlash).

Rangni his qilish. Ranglarni qabul qilish jarayonida ko‘rish xususiyatlari,

adaptatsiya (koʻnikma, koʻnikish) va ranglarda kontrastlilik. Rangning oʻziga xos xususiyatlari, rang psixologiyasi (Kontrast ranglarga mashqlar bajarish).

Spektr ranglarning aralashuvi va ranglarni aralashtirish natijasida yangi ranglarni hosil qilish usullari. Ranglarning optik, fazoviy va mexanik aralashuv texnologiyalarini oʻrgatish. Ranglar aylanasi va boʻyoqlarni aralashtirish metodikasi (Natyurmort akvarelda bajarish).

Suv bilan ishlatiladigan boʻyoqlar va materiallar. Rang va tus munosabatlarini aniqlashni oʻrganish. Palitra haqida tushuncha (Natyurmort akvarelda bajarish).

Moyboʻyoqda rangtasvir ishlash texnologiyasi. Moʻyqalam turlari (Moyboʻyoqda natyurmort nusxa koʻchirish).

Planshet tayyorlash texnologiyasi. Planshetga qogʻoz tortish usullari, qogʻoz turlari (Natyurmortni guash boʻyoğida ishlash). Grafikada ishlatiladigan materiallar va texnologiyalar. Grafik ashyolarda bajarilgan ishlarni koʻmirda och-toʻqligini aniqlab tuslash va yaxlit bir butunlikda tugallash.

Rassom ustalarning badiiy asarlaridan nusxa olish yoʻllari va asosiy qonun-qoidalari. Grafik rassomlarning badiiy asarlaridan nusxa koʻchirish. Rangtasvirchi rassomlarning ijodidan nusxa koʻchirish texnologiyasi. Rassomlarning asarlarini tahlil qilish yoʻllari. Oʻzbek natyurmort yoki manzara janridagi asarlardan nusxa koʻchirish.

Ishlarni koʻrgazmaga tayyorlash texnikasi. Ramkalash usullari, rang tanlash, oʻlcham aniqlash, ikki qavatli ramkalar.

4.8. Tasviriy san’at tarixi

Tasviriy san’atning umumiy tarixiga muqaddima. San’at tarixi fani nimalarni oʻrgatadi. San’atning ijtimoiy hayotda tutgan oʻrni. San’atning tarbiyaviy ahamiyati. Dunyodagi yeng yirik muzeylar. Tasviriy san’atning tur va janrlari haqida ma’lumot. Tasvir va ifoda vositalari.

Ibtidoiy jamoa davri san’ati. Qadimgi Sharq, uning geografik va davriy chegarasi. Qadimgi Sharq xalqlari davlatlari san’atining oʻziga xos xususiyatlari va oʻxshash tomonlari. Qadimgi Sharqda dastlabki quldorlik davlatlarining paydo boʻlishi. San’atda sinfiy xususiyatlarning yuzaga kelishi.

Qadimgi Misr san’ati. Qadimgi Misrning geografik oʻrni. Uning davriy chegarasi. Misrda birinchi davlatning vujudga kelishi. Qadimgi Misr san’ati va madaniyatining oʻziga xos xususiyatlari.

Old Osiyo (Mesopotamiya) san’ati. Qadimgi Hindiston san’ati (VII asrgacha boʻlgan davr). Qadimgi Hindiston tarixi va madaniyatiga xos boʻlgan xususiyatlari.

Moxenjo Doro va Xarappa me’morchiligi, tasviriy va amaliy bezak san’ati. Mauriya davlatining madaniyati va san’ati (er. av. 272–232 yillar.) “Sanchidagi stupa”, Karlidagi “Chaytiya”, “Stambxi”, Adjantadagi g‘orga qurilgan ibodatxonalar. Gandxardagi grek buddalari.

Qadimgi Xitoy san’ati (III asrgacha bo‘lgan davr.). Yanshao kulolchiligi. Shan in va Chjou davrida bronzadan yasalgan idishlar. Xan davri san’ati (er. av. 206-yangi eraning 220-yili) – Buyuk Xitoy devori. Ko‘mish marosimlarida ishlatiladigan mayda haykalchalar.

Antik san’ati tarixiga muqaddima**.** Krit-Miken (Egey) san’ati. Antik san’ati tushunchasi, uning davriy va geografik chegarasi. Antik san’atining jahon san’ati tarixidagi o‘rni.

Qadimgi Gretsiya (Yunon) san’ati. Qadimgi Gretsiyaning geografik o‘rni va davriy chegarasi. Grek san’atining jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni. Yunon san’atidagi yuksak mahorat insoniylik va xalqchillik. Qadimgi grek san’ati mavzusi, tasvir va ifoda vositalari. Grek san’atining rivojlanishida afsonalarning ahamiyati.

Qadimgi Italiya san’ati**.** Italiya tarixiga qisqacha ma’lumot. Uning geografik o‘rni va davriy chegarasi.

Etruriya san’ati va madaniyati (er. av VIII asr — 510 y.). Etruriyaning geografik o‘rni, uning tarixiga oid qisqacha ma’lumot. Me’morchilik, tasviriy va amaliy dekorativ san’at. Rim respublikasi davri san’ati (er. av V-I asrlar). Qadimgi Rim san’ati. Rim tarixi va san’atidagi davriy bosqichlar.

Rim imperiyasi davri san’ati (er. av II asr — eramizning III asri). Me’mor Apollodor Damashqiy va uning qurgan me’morlik binolari. Tasviriy san’at. Realistik haykaltaroshlik (Avgust haykali). Pompey devoriy suratlari. Rim san’ati va madaniyatining ahamiyati.

Sharq va G‘arbda O‘rta asrlar tarixining davriy chegarasi, rivojlanishidagi asosiy bosqichlar. Asosiy dinlarning (xristian, islom, buddizm) O‘rta asrlar san’ati shakl va mazmuniga ta’siri. O‘rta asrlar san’atining avvalgi quldorlik formatsiyasi (Antik davri) san’atidan farqi.

Ilk xristian san’atining vujudga kelishi. San’atda antirealistik tendensiya va mistikaning o‘sib borishi. Ilk xristian haykaltaroshligi. Xristian dinining Davlat dini sifatida qabul qilinishi. Xristian ibodatxonalari yangi tipining ishlanishi. Vizantiya madaniyati va san’atining jahon xaritasiga qo‘shgan hissasi.

Varvarlar san’ati. Varvarlar tushunchasi va ushbu xalqlar san’atining asosiy jihatlari.Roman san’ati. “Roman” iborasining kelib chiqishi. G‘arbiy Yevropadagi Roman san’ati va me’morchiligining asosiy xususiyatlari. Tasviriy san’atda sodir

bo‘lgan yangi tendensiyalar. Me’morchilikda mavjud bo‘lgan asosiy tendensiyalar. Gotika san’ati. G‘arbiy Yevropada Gotika san’atining asosiy belgi va xususiyatlari. Gotika iborasining kelib chiqishi.

Sharqiy slavyanlar san’ati. Ibtidoiy jamoa tuzumi tugashi va dastlabki feodal davlat vujudga kelishi paytidagi slavyanlar Badiiy madaniyati (VI-X asrlar). Din. Haykaltaroshlik. Amaliy san’at.

Kiyev Rusi san’ati. XI-XII asrlarda Novgorod san’ati. XVII asrda Rus san’ati.

O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari san’ati (III-VII asr boshlari). Qadimgi o‘zbek san’ati taraqqiyotining o‘ziga xos yo‘li. Hozirgi O‘zbekiston tuprog‘ida ibtidoiy jamoa davri va uning taraqqiyotining asosiy bosqichlari. V-VSh asrlarda o‘zbek san’ati. Me’morchilik. Shahar qurilishi (So‘g‘d, Toxariston, Shosh, Farg‘ona, Xorazm). IX-X asrlarda san’at va madaniyat. Arab bosqinchilarining O‘rta Osiyoni bosib olishi. Din bilan bog‘liq bo‘lgan me’morchilik binolarining vujudga kelishi. Gumbazli va peshtoqli me’morchilik binolar qurilishi. XI-XIII asr boshlarida O‘zbekiston san’ati. Temur va Temuriylar davrida san’at va madaniyat. Miniatyura san’ati. Kamoliddin Behzod – Sharqning yirik rassomi.

Uyg‘onish davri ilk kapitalizm shakllanishi davri san’ati sifatida. Uning O‘rta asr san’atidan farqi. “Uyg‘onish” iborasining kelib chiqishi. Uyg‘onish davri san’atining rivojlanishida antik san’atining o‘rni.

Protorenessans davri san’ati. Ilk Uyg‘onish davri. Florensiya — Uyg‘onish davri uchog‘i sifatida. Yuqori Uyg‘onish davri san’ati. So‘ngi Uyg‘onish davri san’ati. Manyerizm. Venetsiya tasviriy san’at maktabi. Venetsiyada Yuqori Uyg‘onish davri san’ati. (XV-XVI asrlar).

Fransiyada Uyg‘onish davri san’ati.

Fontenblo maktabi. Fontenblo maktabi. Niderlandiyada Uyg‘onish davri san’ati. Niderlandiya rassomchilik maktabi. Oqimlar kurashi. Romantizmning tarqalishi. Germaniyada Uyg‘onish davri san’ati. XV-XVI asrlarda Germaniya. San’atda oqim va maktablar. XV asrda rangtasvir va grafika. Kitob bosish san’atining rivojlanishi.

XVII-XVIII asr Yevropa san’ati va madaniyatining umumiy xarakteri. San’atda aniq ifodalangan milliy maktablarning paydo bo‘lishi, turli Badiiy oqimlarning kurashi. Barokko. Klassitsizm. Romantizm. Realistik san’at.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus san’ati va madaniyati. “Tanqidiy realizm” tushunchasi, uning vujudga kelish tarixi. Rangtasvir san’ati. “Sayyoh rassomlar” a’zolari va ko‘rgazmalari. P.Tretyakov (1832-1898) – Rossiyada birinchi milliy san’at galereyasi (muzey)ning asoschisi. Manzara janri. Ko‘p figurali kompozitsiya

asarlarining ustalari ijodi.

XIX-XX asrlar Yevropa san’ati. Nemis tasviriy san’atidagi Romantizm oqimining turli ko‘rinishlari. Tasviriy san’atda “Nazariyalik”lar guruhi vakil (F.Ovirbek, P.Kornelius)lari ijodi. Ularning Germaniya Badiiy Akademiyalaridagi hukmronlikligi.

“Impressionizm” tushunchasi va ushbu Badiiy yo‘nalishning paydo bo‘lishi. “Postimpressionizm” tushunchasi va uning yirik vakillari. “Neoimpressionizm” tushunchasi va “Ilmiy impressionizm” nazariyasi. Puantilizm: J.Syora, P.Sinyak.

XX asr Jahon san’atiga umumiy ta’rif. XX asr Jahon san’atiga umumiy ta’rif. Me’morchilik san’ati. Qurilish texnikasining tezkor rivoji. XIX asrning oxirida Fransiyada paydo bo‘lgan “modern” (fr. “zamonaviy”, “eng yangi”) uslubi. Germaniyada “Yugendstil”ning mavjud bo‘lishi. Buyuk Oktyabr revolyutsiyasidan oldingi va undan keyingi davrlarda Jahon san’ati rivojining o‘ziga xos jihatlari. Ushbu davrda vujudga kelgan Badiiy oqimlar – Ekspressionizm va abstraksionizm. G‘arbiy Yevropaning ko‘p davlatlari va Amerika san’atida yangi realizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Me’morlik san’ati. “Bauxauz” Badiiy maktabi. Rangtasvir. Fransiya san’atida “fovizm”. “Kubizm” tushunchasi, oqimning paydo bo‘lishi (1906y.) va uning Badiiy prinsiplari (tamoyillari). Me’morchilik san’ati. “Purizm” va “konstruktivizm” tushunchalari.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rus san’ati. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiyaning siyosiy ahvoli. Uch revolyutsiya – 1905–1907- yillar, Rangtasvir san’atidagi yetuklar va Yevropa rangtasvir maktabining an’analari rus san’atiga kirib kelishi. “МИР ИСКУССТВА” nomli yangi Badiiy jamiyat shakllanishi (1890 y.). “Rus rassomlar uyushmasi” dunyoga kelishi va uning a’zolari. Haykaltaroshlik. P.Trubeskoy, A.Golubkina, S.Konenkov. Rus me’morchilik san’atida “modern” an’analari. Neorus, neoklassitsizm uslublarining shakllanishi**.**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekiston san’ati va madaniyatida yuz bergan o‘zgarishlar. 1941–1945- yillarda O‘zbekistondagi o‘zgarishlar. Ikkinchi Jahon urushi yillarida O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan Moskva, Leningrad (hozirda Sankt-Peterburg), Kiyev, Xarkov Badiiy institutlari, ular bilan birga kelgan yetuk rangtasvir va grafika san’ati ustalarning O‘zbekiston san’ati shakllanishidagi o‘rni. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston san’atidagi jonlanish. Barcha tasviriy san’at janrlarining rivojlanishi.

Mustaqillik davrining o‘ziga xos jihatlari haqida umumiy ma’lumot. Mustaqillik davrida vujudga kelgan O‘zbekiston tasviriy va madaniy hayotidagi

o‘zgarishlar. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining ta’sis yetilishi (1997 yil). Mustaqillik davri O‘zbekiston haykaltaroshlik san’ati. Tarixiy shaxslar siymolarini yaratish. A. Navoiy yodgorligi, A. Temur haykali, Al-Far‘oniy haykali, Cho‘lpon haykali. Mustaqillik davri O‘zbekiston tasviriy san’ati. O‘zbekiston tasviriy san’atida falsafiy oqimining vujudga kelishi. Mustaqillik davri amaliy bezak san’ati. Badiiy kulolchilik. Farg‘ona, Buxoro, Samarqand, Xorazm. Badiiy kulolchilik maktablari. Badiiy kandakorlik, zargarlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik. Lokli miniatyura va dizayn san’atining rivojlanishi.

4.9. Amaliy bezak san’ati

Amaliy bezak san’atining maqsad va vazifalari. Asosiy yo‘nalishlari. **Amaliy bezak san’ati asoslari.** Amaliy bezak san’atining tarixi va rivojlanishi. Milliy va jahon bezak san’ati an’analari. Asosiy san’at yo‘nalishlari va uslublari. Bezak san’atining kundalik hayotdagi o‘rni.

Naqsh va ornamentlar. Milliy naqshlarning kelib chiqishi va turlari. Geometrik, o‘simliksimon, zoomorf va abstrakt naqshlar. Ornament yaratish qonuniyatlari va texnikalari. Naqsh tushunchasi va uning kompozitsiyadagi ahamiyati.

Hunarmandchilik turlari va texnikalari. Yog‘och o‘ymakorligi. Ganch o‘ymakorligi va suvoq san’ati. Zargarlik san’ati. Kashtachilik va to‘qimachilik. Chinni va keramika san’ati. Metallga ishlov berish va misgarlik.

Ranglar va kompozitsiya. Rang san’at asoslari va ranglar uyg‘unligi. Simmetriya va muvozanat tushunchalari. Bezak san’atida kompozitsiya tuzish tamoyillari. Milliy va zamonaviy dizayndagi rang qo‘llanilishi.

Amaliy loyihalar va ijodiy ishlar. Mustaqil san’at asarlari yaratish. Bezakli buyumlar tayyorlash. Hunarmandchilik buyumlarini loyihalash va tayyorlash. Zamonaviy dizaynda milliy bezaklardan foydalanish.

Amaliy bezak san’atining zamonaviy dizayndagi o‘rni. Ichki makon va me’moriy bezak san’ati. Moda va tekstil dizaynida naqshlardan foydalanish. Grafik va reklama dizaynida milliy elementlar. Raqamli texnologiyalar va bezak san’ati.

4.10. Chizma geometriya

Fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va o‘rganish usullari. Markaziy va parallel proyeksiyalash usullari hamda ularning xossalari. To‘g‘ri burchakli proyeksiyalash. Proyeksiyalar tekisliklari. Fazoni choraklarga bo‘lish. Fazoni oktantlarga bo‘lish. Fazodagi, tekislikdagi va koordinata o‘qlarida joylashgan

nuqtalarning chorak va oktantlardagi ortogonal proyeksiyalarini qurish.

Umumiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziq va uning ortogonal proyeksiyalari. Xususiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziq va uning ortogonal proyeksiyalari. To‘g‘ri chiziq kesmasini berilgan nisbatda bo‘lish. To‘g‘ri chiziq kesmasini tahlil qilish. Tekislikning ortogonal proyeksiyada berilish usullari. Umumiy va xususiy vaziyatdagi tekisliklar. Tekislikning izlari. To‘g‘ri burchakning proyeksiyalari. Konkurent nuqtalar. To‘g‘ri chiziq va nuqtaning tekislikka tegishlilik shartlari. Tekislikning gorizontali, frontal va profili. Tekislikning eng katta og‘ma chizig‘i.

To‘g‘ri chiziq va tekislikning o‘zaro parallelligi. Tekisliklarning o‘zaro parallelligi. O‘zaro kesishuvchi tekisliklar. To‘g‘ri chiziqni tekislik bilan kesishishi. To‘g‘ri chiziqning tekislikka perpendikulyarligi. Ikki tekislikning o‘zaro perpendikulyarligi. Nuqtadan tekislikkacha bo‘lgan eng qisqa masofani aniqlashga oid grafik masalalar yechish. O‘zaro parallel va perpendikulyar bo‘lgan tekisliklar o‘tkazishga oid grafik masalalar yechish.

Ortogonal proyeksiyalar (epyura)ni qayta tuzish haqida umumiy ma’lumotlar. Tekis parallel ko‘chirish usuli. Tekis parallel ko‘chirish usulida pozitsion va metrik masalalar yechish. Proyeksiyalar tekisliklarini almashtirish usuli. Proyeksiyalar tekisliklarini almashtirish usulida pozitsion va metrik masalalar yechish.

Ko‘pyoqliklar va uning turlari. Ko‘pyoqliklarni proyeksiyalovchi tekislik bilan kesishishi. Ko‘pyoqliklarning yoyilmalarini bajarish usullari. Ko‘pyoqliklarni to‘g‘ri chiziq bilan kesishishi. O‘zaro xususiy vaziyatda joylashgan ko‘pyoqliklarning kesishishi.

Egri chiziqlar va uning turlari. Tekis egri chiziqning egriligi. Evolyuta va evolventa. Tekis egri chiziq nuqtalarining klassifikatsiyasi. Ikkinchi tartibli egri chiziqlar. Sirtlar va uning turlari. Sirtlarning berilish usullari. Aylanish sirtlari. Sirtning paralleli va meridiani. Ikkinchi tartibli aylanish sirtlari. Sirtlarni tekislik va to‘g‘ri chiziq bilan kesishishi.

Sirtlar kesishish chizig‘ini yasashning umumiy algoritmi. Umumiy o‘qqa ega bo‘lgan aylanish sirtlarining o‘zaro kesishishi. Yordamchi kesuvchi sferalar usuli. Konsentrik va ekssentrik sferalar usulida sirtlarning o‘zaro kesishgan chizig‘ini aniqlashga oid grafik masalalar yechish. Parallel kesuvchi tekisliklar usuli. Parallel kesuvchi tekisliklar usulida sirtlarning o‘zaro kesishgan chizig‘ini aniqlashga oid grafik masalalar yechish.

Perspektivaning maqsad va vazifalari. Perspektiva turlari. Perspektiva yasashning geometrik apparati va uning asosiy terminlari. Nuqtaning perspektivasi. To‘g‘ri chiziq perspektivasi. Tekislikning perspektivasi. Ko‘tariluvchi va

pasayuvchi to‘g‘ri chiziq va tekisliklar. Tekis shakllarning perspektivasi.

Ko‘rish nuqtasini tanlash va eng yaxshi ko‘rish burchagi. Perspektiv tasvir qurish usullarining nazariy asoslari. Radial (nurlar izi) usulida obyekt perspektivasini qurish.

Arxitektorlar usulida obyekt perspektivasini qurish. “Yon devor” va “Plani pastga tushirilgan” usullarida obyekt perspektivasini qurish.

4.11. Grafik tasvirlash asoslari

Fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va o‘rganish usullari. Qadimgi Gretsiya va Misrning buyuk allomalaridan Yevklid, Ptolemey, Arximed va hokazolarning matematika (geometriya) sohasidagi ishlarining tahlili va ularni tasvirlash usullarida qo‘llanilishi.

Yevropada Uyg‘onish davrining yetuk arxitektorlari, rassomlari Leonardo da Vinchi, Dyurer, Dekart va boshqalarning tasviriy geometriya va perspektiv yasashlar usullarini yaratishlarini tahlili.

Geometrik grafika fani noyob adabiyotlaridan Yevklidning “Negizlar”, G.Monjning “Chizma geometriya” va sobiq ittifoq davrining dastlabki yillarida nashr etilgan o‘quv adabiyotlarining mazmuni bilan tanishtirib, ularni hozirgi zamon adabiyotlari bilan taqqoslash.

O‘rta Osiyo allomalari, Farg‘oniy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalarning geodeziya, astronomiya va boshqa fanlar to‘g‘risida yozgan asarlaridan geometriya bo‘limiga tegishli ma’lumotlarni tahlil qilish. Chizma geometriya fanining Rossiyada XIX asrning boshlarida o‘qitilishi, adabiyotlarni rus tilida chop yetilishi va fanning bir necha oliy texnika o‘quv yurtlarida o‘qitilishi, mashhur darsliklar yozuvchi professorlar V.I. Kurdyumov, N.I. Makarov, A.X. Reder, Ye.S. Fyodorov va boshqalarning chizma geometriya darsliklarining mazmunlari haqidagi mulohazalar.

XX asrda Rossiyada chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlari taraqqiyoti yo‘nalishlari.

O‘zbekistonda geometrik grafikaning rivojlanishiga 1918- yilda Turkiston universitetining tuzilishni bog‘liqligi, 1929–1934- yillarda texnika oliy o‘quv yurtlarini tashkil bo‘lishi bilan “Chizma geometriya va chizmachilik” kafedralari tashkil qilinishi. O‘quv adabiyotlarini o‘zbek tilida yaratilishi. 1961, 1966, 1971 yillarda respublikada ilmiy metodik konferensiyalar va maqolalar to‘plamlarini tashkil bo‘lishi, professor V.Ye. Mixaylenkoning O‘zbekiston uchun mutaxassislar tayyorlashdagi xizmatlari, professor R.Xorunov va Yu.Qirg‘izboyevlarning chizma

geometriyadan birinchi adabiyotlar yaratishlarining tahlili.

Ko‘pyoqliklar va ular haqida umumiy ma’lumot. Ko‘pyoqliklarning yoyilmalari. Ko‘pyoqliklarning yoyilmalari asosida model yasash.

Ko‘pyoqlik (piramida)larni umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish chizig‘i va uning yoyilmasini bajarish kutma-ketligi.

Ko‘pyoqliklarning o‘zaro kesishishi chizig‘ini aniqlash.

Aylanish sirtlarni umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishgan chizig‘ini va kesim yuzasining haqiqiy kattaligini aniqlash.

Ortogonal proyeksiyalarda soyalar yasash nazariyasi. Buyumning berilgan ikki ortogonal proyeksiyasining soyalarini aniqlash.

Ikki ko‘rinishi orqali berilgan obyektlarning shaxsiy va tushuvchi soyalarini aniqlash.

Bino va inshootlarning perspektivasini to‘rlar va koordinatalar usulida qurish.

Plani orqali berilgan interyer va burchakli interyer perspektivasini qurish. Plani orqali berilgan xonaning frontal interyer perspektivasini qurish. Markaziy proyeksiyalarda soyalar yasash nazariyasi. Geometrik sirt va me’moriy obidalarning shaxsiy va tushuvchi soyalari perspektivasini qurish. Sun’iy yoritish orqali interyerda soya bajarish. Tavsif asosida detalni loyihalash va uning ortogonal hamda aksonometrik proyeksiyasini bajarish. Konus tishli g‘ildirak va uning parametri, konus tishli uzatmaning ish chizmasi.

Yig‘ish chizmasini o‘qish tartibi va qonuniyatlari. Yig‘ish chizmasidagi nostandart detallarni ajratib chizish.

Alohida berilgan detallarning yig‘ish chizmasini bajarish.

Uy-joy va sanoat binolari qavatlarining planini chizish. Bino va inshootlar elementlarining shartli tasvirlari.

Yopma va chordoq to‘sinlari elementlarining joylashish sxemalari haqida tushuncha. Bino tom plan chizmalari.

Bino ko‘rinishini aksonometriya va perspektivada tasvirlash.

Bosh plan chizmalarini bajarish. Shartli topografik belgilar. Bosh plan chizmalarining mazmuni va ularni taxt qilish tartibi.

Topografik sirtlar bilan tekisliklarning kesishishi. Topografik sirtning profili. Apparel (qiya yo‘l)ni tasvirlash.

Tabiiy yer va qurilish maydonchasi. Maydoncha va apparelni chizish.

4.12. Arxitektura elementlarini loyihalash

Qurilish chizmalarining o‘ziga xos xususiyatlari, bino turlari va qurilish

norma hamda yo‘riqnomalar haqida qisqacha ma’lumotlar. Arxitektura-qurilish chizmalarini grafik taxt qilishning umumiy qoidalari. Binoning asosiy tarkibiy qismlari va me’moriy elementlari haqida qisqacha ma’lumotlar. Bino elementlari va ayrim sanitar-texnik qurilmalarning shartli tasvirlari, qurilish materiallarining grafik belgilanishi.

Bino plani, fasadi va qirqimi haqida tushuncha. Bino planlari (qavatlar, poydevor, pol, devor va pardevorlar, tepadan va orayopmalar, tom, zinapoya) chizmalari haqida umumiy ma’lumotlar.

Plan va kartalar tayyorlashning qisqacha tarixi, ularga qo‘yiladigan talablar. Topografiya va kartografiyaning vazifalari. Son belgili proyeksiyalar. Nuqta, to‘g‘ri chiziq va tekislikning berilishi.

Nuqta va to‘g‘ri chiziq. Xususiy va umumiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziqlarning proyeksiyalari. To‘g‘ri chiziq kesmasini tahlil qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60- son farmoni, — T.: 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–5712- son farmoni, — T.: 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF–134- son farmoni, — T.: 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–79- son farmoni, — T.: 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–231- son qarori, – T.: 2024.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

Ta’lim jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish usullari. Uning mazmuni va mohiyati. O‘yinli texnologiyalarning ijtimoiy-psixologik muammolari. O‘yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari. O‘yinli texnologiyalarning funksiyalari.

3. UMUMKASBIY FANLAR

3.1. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi

Parallel proyeksiyalash usuli va uning xossalari. Choraklar va oktantlar. Nuqtani ikki va uch tekislikka proyeksiyalash.

To‘g‘ri chiziqning proyeksiyalar tekisligiga nisbatan vaziyatlari. Umumiy va xususiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziqlar. To‘g‘ri chiziq kesmasining to‘liq tahlili. Ikki to‘g‘ri chiziqning o‘zaro joylashuvi. To‘g‘ri burchakning proyeksiyalanish xususiyatlari.

Tekislikning izlari. Tekislikning proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan turli vaziyatlari: umumiy vaziyatdagi tekisliklar, xususiy vaziyatdagi tekisliklar. Proyeksiyalovchi tekisliklarning xossalari. Tekislikning bosh (maxsus) chiziqlari. To‘g‘ri chiziq orqali tekislik o‘tkazish. Ikki tekislikning o‘zaro kesishuvi.

To‘g‘ri chiziqning tekislik bilan kesishishi. Tekisliklarning o‘zaro parallelligi va perpendikulyarligi. Ikki to‘g‘ri chiziq, to‘g‘ri chiziq va tekislik, ikki tekislik orasidagi burchakni aniqlash. To‘g‘ri chiziq, tekislik va ikki tekislikka doir metrik, pozitsion masalalarni ishlash yo‘llari.

Tekis-parallel harakatlantirish usuli. Parallel ko‘chirish usuli, aylantirish usuli, ustma-ust jipslashtirish usuli. Proyektiv va boshqa usullar to‘g‘risida tushuncha.

Muntazam koʻpyoqlar. Koʻpyoqlarning ishlatilish sohalari. Koʻpyoqlar ustida nuqta tanlash. Koʻpyoqlarning tekislik va toʻgʻri chiziq bilan kesishishi. Koʻpyoqlarning yoyilmalari va modellarini yasash usullari.

Tekis va fazoviy egri chiziqlarga urinma va normal oʻtkazish. Sirkul va lekalo egri chiziqlari. Geometrik yasashlar.

Chiziqli sirtlar, aylanish sirtlari. Sirtlarda nuqta tanlash. Yoyiladigan va yoyilmaydigan sirtlar. Sirtlarning proyeksiyalovchi tekislik va toʻgʻri chiziq bilan kesishishi. Aylanish sirtlarini tekislik bilan kesish va yoyilmasini yasash. Sirtlarning oʻzaro kesishishi. Qirrali va egri sirtning oʻzaro kesishuvi. Yordamchi kesuvchi tekisliklar usuli. Aylanma sirtlarning oʻzaro kesishuvi. Yordamchi kesuvchi sharlar usuli.

Chizma shriftlarining yozilishi. Oʻlcham qoʻyish qoidalari. Masshtablar. Geometrik yasashlar. Tutashmalar, qiyalik va konuslik, sirkul egri chiziqlari.

Buyumni oʻzaro perpendikulyar ikki va uch tekislikka proyeksiyalash. Asosiy, qoʻshimcha va mahalliy koʻrinishlar.

Tekis-parallel harakatlantirish usuli. Parallel koʻchirish usuli; aylantirish usuli; ustma-ust (jipslashtirish) usuli. Proyektiv va boshqa usullar toʻgʻrisida tushuncha.

Qirqim va uning turlari. Kesim va uning turlari. Standart aksonometrik proyeksiyalar. Turli holatdagi aylanalarning aksonometrik proyeksiyalari. Modelning aksonometrik proyeksiyasi. Aksonometrik proyeksiyalarda qirqim.

Buyumlar va ularning turlari. Ish chizmalari va ularga qoʻyilgan talablar. Rezba va rezbasiz biriktirish detallari. Yigʻish chizmalarini tuzish va taxt qilish. Yigʻish chizmalaridagi shartliliklar va soddalashtirishlar. Yigʻish chizmalarini oʻqish. Yigʻish chizmalarini detallarga ajratish. Yigʻish chizmasi asosida buyum aksonometriyasining bajarilishi.

Sxemalar. Sxema turlari va tiplari. Sxemalardagi shartli grafik belgilar. Vint chiziqlar va vint sirtlar. Rezbalar va ularning turlari. Rezbalarning chizmada tasvirlanishi va belgilanishi. Biriktirish detallari. Boltli, shpilkali, vintli, shurupli, trubali, shponkali va shlitsali birikmalar. Payvand chokli birikmalar. Parchin mixli birikmalar. Kavsharlash va yelimlash orqali biriktirish. Prujinalar va ularning turlari.

Yangi tipdagi loyihalar. Loyihalash bosqichlari. Qurilishda ishlatiladigan materiallar va ularning qirqim, kesimlarini shtrixlash. Qurilish chizmalarini bajarish. Sanitariya-texnika jihozlari va ularning shartli tasviri. Bino elementlari. Bino bosh plani. Bino plani, fasadi va qirqimi.

Topografik kartalarning umumiy tavsifnomasi. Topografik kartalarning xalq xoʻjaligi, ishlab chiqarish, sanoat va qurilishda qoʻllanilishi. Topografik kartalarga oid tushunchalar, eng muhim shartli belgilar va ularni chizmada tasvirlash.

3.2. Texnik mexanika

Statikaning asosiy tushunchalari, kesishuvchi kuchlar, kuchning nuqtaga va o‘qqa nisbatan momentlari, tekislikda va fazoda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasi va ularning muvozanati, parallel kuchlar, ular sistemasining muvozanati, qattiq jismlarning og‘irlik markazlari va ularni aniqlash usullari, nuqta kinematikasi.

Moddiy nuqtaning to‘g‘ri chiziqli harakati kinematikasi, qattiq jismning ilgarilanma, aylanma va tekis-parallel harakatlari kinematikasi, qattiq jismning murakkab harakatlari kinematikasi.

Nuqta harakatining differensial tenglamalari va ularni integrallash, nuqta dinamikasining umumiy teoremalari. Nuqta harakat miqdori va kinetik energiyasining o‘zgarishi haqidagi teorema, nuqta harakat miqdori momentining o‘zgarishi haqidagi teorema. Qimirlamas egri chiziq bo‘yicha harakatlanuvchi nuqta tenglamalari. Inersiya momenti, sistema massalari markazining harakati va harakat miqdorining o‘zgarishi haqidagi teoremalar.

Mashina detallari bo‘limida detallarning konstruksiyasiga qo‘yiladigan asosiy talablar. Detallarning ishlash layoqati va uni ta’minlash. Ruxsat etilgan kuchlanishni aniqlash.

Mexanik uzatmalar: friksion uzatmalar, ularning tuzilishi, yutuqlari va kamchiliklari, qo‘llanish sohasi. Friksion uzatmalarning kinematikasi va geometriyasi. Tasmali uzatmalar. Tasmali uzatmalarni hisoblashning nazariy asoslari. Yassi tasmali uzatmalar. Ponasimon tasmali uzatmalarni hisoblash usullari. Uzatmaning kinematikasi va geometriyasi. Chervyakli uzatmalarni eguvchi va kontakt kuchlanish bo‘yicha hisoblash. Zanjirli uzatmalarning umumiy xarakteristikasi, uzatmada hosil bo‘ladigan kuchlar. Zanjir elementlaridagi kuchlanishlar. Zanjirli uzatmalarning amaliy hisobi.

Vallar va o‘qlar, ularning tayanchlari. Vallarni mustahkamligini hisoblashning aniqlashtirilgan usuli. Podshipniklar. Sirpanish podshipniklari va ularning shartli hisobi. Dumalash podshipniklari va ularni hisoblash. Reduktorlar. Muftalar. Doimiy biriktirilgan muftalar. Boshqariladigan va o‘lchovchi muftalar.

Rezba haqida umumiy ma’lumot. Rezbani mustahkamligini hisoblash. Bir necha boltli birikmalarni hisoblash. Shponkali va shlisali birikmalar va ularni hisobi.

Kinematik juftlar va ularning klassifikatsiyalari. Kinematik zanjirlar va ularning ta’riflari. Fazoviy va tekislikda harakat qiluvchi mexanizmlarning harakatchanlik darajasi, ularning klassifikatsiyasi.

Ferma sterjenlaridagi zo‘riqishlarni tugunlarni kesish usuli bilan aniqlash. Fermani grafik usulda hisoblash tartibi. Sharnirlar vositasida geometrik o‘zgarmas qilib tutashtirilgan sterjenlardan hosil bo‘lgan konstruksiyalar. Tekis fermalarni hisoblashda ularga qo‘yilgan aktiv kuchlar ta’sirida tayanch reaksiyalari hamda sterjenlarda hosil bo‘ladigan ichki kuchlarni (zo‘riqishni) aniqlash.

Mashinaning dinamik parametrlari va ularning xarakteristikalari. Mashinaning dinamik modeli. Keltirilgan kuch (moment) va massalar (inersiya momenti). Dinamik modelning kinetik energiyasi hamda differensial tenglamalar shaklidagi harakat tenglamalari. Mashinaning harakat rejimlari. Harakat tenglamalarini yechish. Mexanizmlarning notekis harakati. Maxovikning vazifasi va uning inersiya momentini aniqlash usullari.

Kinematik juftlardagi reaksiya kuchlarini kuch planlari yordamida aniqlash. Yetaklovchi zvenoning kuch hisobi. Jukovskiy teoremasi yordamida muvozanatlovchi kuchni aniqlash. Mexanizmlarni muvozanatlash. Rotorlarni statik va dinamik muvozanatlash.

Sirpanma va dumalash ishqalanish. Ishqalanish koeffitsiyenti va unga ta’sir etuvchi omillar. Yeyilishning asosiy qonuniyatlari. Mexanizmning ishlashiga va ishonchliligiga kinematik juftlardagi yeyilishning ta’siri. Yeyilishni miqdoriy hisoblashda EHMdan foydalanish.

3.3. Materialshunoslik va konstruksion materiallar

Materialshunoslik va konstruksion materiallar fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Faning texnikaviy va ilmiy fanlar, mehnat hamda politexnik ta’lim bilan bog‘liqligi.

Metallarning ichki tuzilishi. Kristall panjaraning turlari. Materiallarning polimorf va allotropiya xususiyatlari. Haqiqiy kristallarning ichki tuzilishi. Kristall panjaradagi nuqsonlar: nuqtali, chiziqli va sirtqi nuqsonlar. Metallar strukturasi. Kristallanish jarayonining mexanizmi va kinetikasi.

Qotishmalar nazariyasining asoslari. Qotishmalar. Qattiq eritma, kimyoviy birikma, mexanik aralashma kabi qotishma turlari. Metall va qotishmalarning fizik, kimyoviy, mexanik, elektrik, magnit, optik, issiqlik-fizikaviy va texnologik xossalari. Mustahkamlik, qattiqlik, zarbiy qovushqoqlik, ishqalanishga chidamlilik. Mexanik xossalarni aniqlash usullari.

Temir-uglerodli qotishmalar. Temir-uglerodli konstruksion qotishmalar va ularning turlari. Po‘latlarning turlari va qo‘llanilishi. Legirlangan konstruksion va asbobsozlik po‘latlari. Maxsus xossali po‘latlar va legirlovchi elementlarning ularga ta’siri. Cho‘yan: oq va kulrang cho‘yan, yuqori mustahkam cho‘yanlar, bolg‘alanuvchan cho‘yanlar, maxsus legirlangan cho‘yanlar.

Rangli metallar va ularning qotishmalari. Alyuminiy va mis qotishmalari. Rangli metallar va ularning turlari. Mis va uning qotishmalari, alyuminiy asosli, magniyli, titanli qotishmalar, nikel va qiyin eruvchi metallar asosidagi qotishmalar. Ularning tuzilishi, xossalari va ishlatilishi.

Kukunli materiallar va ularning strukturalari. Qattiq qotishmalarning strukturasi, xossalari, markalari va ishlatilishi. Mineralokeramik materiallar.

Otashbardosh metallokeramika materiallar. G‘ovaklik materiallar. Elektrotexnikaviy va antifriksion kukunli materiallar.

Metall va qotishmalarga termik va kimyoviy-termik ishlov berish. Po‘latni qizdirish jarayonida ichki strukturadagi o‘zgarishlar. Termik ishlov berish texnologiyasi: po‘latni yumshatish, normallash, toblash. Yumshatishning turlari. Toblash usullari. Toblanuvchanlik va toblanish chuqurligi. Bo‘shatish va uning turlari. Kimyoviy-termik ishlov: sementsiyalash, azotlash (va uni qo‘llash joylari), sianlash, diffuzion metallash. Termomexanik ishlov.

Korroziya turlari va mexanizmi. Metall korroziyasi va uning belgilari. Korroziyaga qarshi kurashish usullari: legirlash, metall va metallmas materiallar bilan qoplash, protektorlar bilan himoyalash.

Metallmas materiallar va ularning turlari. Polimer materiallar: xossalari va qo‘llanilishi. Yog‘och materiallari: fizik va mexanik xossalari, yog‘ochdagi nuqsonlar. Rezina: turlari, tarkibi, xossalari, ishlatilishi. Shisha: tarkibi, tuzilishi, xossalari. Laklovchi va bo‘yash materiallari.

3.4. Elektrotexnika, elektronika va elektr yuritmalar

O‘zgarmas tok qonunlari. O‘zgaruvchan tok, uni hosil qilish, uzatish va taqsimlash. O‘zgaruvchan tokning effektiv va o‘rtacha qiymatlari. O‘zgaruvchan tok zanjirlarida aktiv, induktiv va sig‘im qarshiliklar. Vektor diagrammalar. O‘zgaruvchan tok zanjirlari uchun Om qonunlari. Ketma-ket va parallel ulangan elementlar uchun qarshiliklar va quvvatlar uchburchaklari.

Tok va kuchlanish rezonansi. Ketma-ket va parallel rezonansga oid ifodalar. Elektromagnit to‘lqinlarni qabul qilishda rezonans hodisasining ahamiyati. Quvvat koeffitsiyenti va uning ahamiyati.

Uch fazali tokni hosil qilish. Uch fazali tok generatorining tuzilishi va ishlash prinsipi. Tok va EYUK tenglamalari, grafiklari va vektor diagrammalari. Uch fazali tokning aylanuvchan magnit maydoni, tuzilishi va belgilanishi.

Magnit maydon induksiyasi va magnit oqim ifodalari. Generator chulg‘amlarini yulduz va uchburchak usullarida ulash. Liniya va faza kuchlanishlari hamda ular orasidagi munosabatlar.

Uch fazali tokning quvvati. Generator chulg‘amlarining yulduz va uchburchak ulanishlarida aktiv, reaktiv va to‘la quvvat ifodalari.

Transformatorlar. Bir fazali transformatorning tuzilishi va ishlash prinsipi. Sxematik tuzilishi, oniy va haqiqiy EYUK qiymatlari, transformatsiya koeffitsiyenti, magnit induksiya vektori va magnit oqimi.

Salt ish rejimi. Iste’molchisiz transformatorning ulanish sxemasi. Aktiv quvvat isroflari. Iste’molchilik rejimdagi ishlash.

Magnitlanish sabablari va foydali ish koeffitsiyenti. Uch fazali

transformatorlar, avtotransformatorlar va ularning ulanish sxemalari. O‘lchash transformatorlari.

Elektr o‘lchash asboblari. Umumiy tushunchalar. Namuna asboblari. Absolyut xatoliklar. O‘lchov asboblari, ularning shartli belgilari, ishlash prinsipi va o‘lchash paytidagi holatlar.

Magnitoelektrik, elektromagnit, elektrodinamik, ferrodinamik va induksion tizimli asboblar. Elektrodinamik vattmetr. Detektorli va termoelektrik asboblar. Detektorli asboblarning sxemalari. Magnitoelektrik ommetr, logometr va fazometr.

O‘zgaruvchan tok elektr mashinalari. Asinxron elektr dvigatellar. Mashinaning ishlash prinsipi, dvigatel va generatorning qaytuvchanligi.

Aylantiruvchi moment, sirpanish, quvvat isrofi. Mexanik va ish xarakteristikalari. Quvvat koeffitsiyenti bilan foydali quvvat bog‘liqligi.

Elektr ta’minoti. Tarqatish tarmoqlarini loyihalashda rejim talablarini e’tiborga olish. Elektr energiya bilan ta’minlash usullari. Uzatish va taqsimlash sxemalari.

Kuchlanish og‘ishining iste’molchilarga ta’siri. Radial va magistral taqsimot. Elektr energiya sifatining ahamiyati.

Ta’minot ishonchliligi talablari. Ishonchlilikni oshirish usullari. Liniyalarni guruhlarga taqsimlash. Reaktiv quvvat iste’molini kamaytirish. Kichik quvvatli dvigatellar bilan almashtirish.

3.5. Kasb-hunarga yo‘naltirish

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya ta’limining maqsad va vazifalari, kasb tanlashga yo‘llashning usullari, bilim, ko‘nikma, malakalari, mehnat qurollari, texnik vosita, didaktik materiallar, elektron va tarqatma materiallar.

Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini rivojlantirish, kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirish, kasb-hunar, kasbga yo‘naltirish, kasb turlari, intellektual qobiliyat, maslahat byurosi, bozor iqtisodiyoti sharoitida kasblar, kasbiy konsultatsiya.

Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari: pedagogik kuzatish, suhbat, test, eksperiment, matematik va statistik tahlil, ijtimoiy tadqiqot metodi, tarbiya jarayoni, mutaxassislik, so‘rovnomalar, hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma’lumotlar.

Texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulot, o‘qitish shakllari, kombinatsiyali dars, o‘quv sexlari, mehnat ta’limining tashkiliy shakllari, operatsiyalarni o‘zlashtirish darsi, kompleks ishlarni bajarish darsi, nazorat-tekshirish sinov darsi, individual o‘qitish, instruktaj, aralash dars, instruktor, shtat ish o‘rni, ixtisoslik.

Umumta’lim maktablarida ilmiy-metodik ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish, maktab rahbarining pedagogik kompetentligi,

metodik ishlar, metodik xizmat, pedagogik kengash, uslubiy komissiya, metodik birlashma, pedagogik o‘qish, uslubiy kengash, istiqbolli reja.

Ta’lim jarayoni, ta’lim ishtirokchilari, ta’limning tashkiliy shakllari, o‘quvchilar jamoasi, dars tiplari, o‘qitish shakllari, nazariy mashg‘ulot, amaliy va amaliy-laboratoriya mashqlari, ishlab chiqarish korxonasiga ekskursiya, firmalar, xususiy korxonalar bazasida mashg‘ulot, o‘quvchilarning mehnatga oid mustaqil ishlari, mehnatni tashkil etish shakllari, masofaviy ta’lim.

Texnologiya darslarida ekskursiyalarni tashkil etish, texnologik jarayonlar, ilg‘or ish usullari, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, taassurot, maslahat, taqqoslash, ishlarni mexanizatsiyalash, qiziqish, ishlab chiqarish intizomi, korxona rahbari, ekskursiyani olib boruvchi, ekskursiya natijalari.

Texnologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarning materiallarga ishlov berishi, elektr montaj ishlarini bajarishi, mashinalarga xizmat ko‘rsatishi, mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo‘naltirish, shakl va metodlar, bozor iqtisodiyoti, sohalar, tasniflagich, kasblar dunyosi, tashxis markazlari.

Pedagogik texnologiya, pedagogik yondashuv, ta’lim texnologiyasi, keys-stadi, baliq skeleti, nilufar guli, aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, tarmoqlar metodi, o‘yinli texnologiyalar, blits so‘rov.

Ijtimoiy, psixologik va fiziologik asoslar, rahbarlik qilish va uni rejalashtirish, kasbkorlik, mexanizatsiyalash munosabati, ixtisoslik tavsifnomasi, tibbiy va psixofiziologik ko‘rsatkichlar, ixtisoslik razryadi, kasb vakillari, kasbga yo‘naltirish ishlarida ijtimoiy, psixologik va fiziologik asoslar.

3.6. Metrologiya va standartlashtirish

Kirish. Metrologiya va texnik o‘lchashlarning mohiyati. “Metrologiya, standartlashtirish” fanining mazmuni va mahsulot sifatini oshirishdagi roli. Asosiy tushunchalar va ta’riflar. O‘lchash vositalari va usullari, o‘lchashdagi noaniqlik va xatoliklar. Universal hamda avtomatlashtirilgan o‘lchash usullari.

Davlat standartlashtirish tizimi. Standartlashtirish va iqtisod o‘rtasidagi bog‘liqlik. Standartlarning kategoriyalari va turlari. Standartlashtirishda qo‘llaniladigan unifikatsiya, agregatlash va tipizatsiyalash kabi usullar.

Davlat nazoratining standartlashtirishdagi o‘rni. Korxonalarda standartlashtirish ishlari. Sohalararo, kompleks va ketma-ket standartlashtirish yondashuvlari. O‘zaro almashinuvchalik tushunchasi, uning asoslari va vazifalari. O‘zaro almashinuvchalik turlari, zamonaviy holati va istiqbollari. Val va teshik sistemasi tushunchasi.

Dopusk va o‘tqazishlar tizimi. Xalqaro dopusk tizimlari. Nominal va haqiqiy o‘lchamlar. Cheklangan og‘ishlar, dopusk maydoni va chizmalarda ularni belgilash usullari. Dopusk birligi va kvalitet tushunchalari. O‘tqazish turlari: oraliq, tarang va

o‘tuvchi o‘tqazishlar.

Mashina detallarining geometrik shakli va joylashuvdagi og‘ishlari. Shakldan og‘ishlar hamda sirt va o‘qlar joylashuviga doir dopusklarning chizmalarda belgilanishi.

Detal sirtlarining g‘adir-budurliklari. G‘adir-budurlik parametrlari. Sirtning g‘adir-budurligini aniqlash usullari va o‘lchov vositalari. Chizmalarda sirtlarning g‘adir-budurligini belgilash usullari.

Silliq silindrik birikmalarda qo‘llaniladigan dopusk va o‘tqazishlar. 1 dan 500 mm gacha bo‘lgan o‘lchamlar uchun dopusklar va ularning qo‘llanilishi. Dumalovchi podshipniklarda qo‘llaniladigan dopusklar va mos o‘tqazishlar.

Burchak o‘lchamlari va konussimon birikmalar uchun dopusklar. Konus birikmalarga oid dopusk va o‘tqazishlar. Burchaklarni nazorat qilishda qo‘llaniladigan metodlar va vositalar. Konuslarni kalibrlar bilan bilvosita nazorat qilish usullari.

Rezbali birikmalar uchun dopusklar va nazorat qilish usullari. Biriktiruvchi rezbalarga qo‘yiladigan talablar. Metrik rezbali birikmalar profili. Rezbali birikmaning dopusk maydonining joylashuvi. Rezbali birikmalarda o‘zaro almashinuvchalikni ta’minlash. Rezbaning muhim parametrlarini nazorat qilish vositalari.

Tishli g‘ildiraklar va uzatmalarga tegishli dopusklar. Tishli g‘ildirak turlari va ularning asosiy elementlari. Tishli uzatmalarni nazorat qilish vositalari.

Shponkali va shlitsali birikmalar uchun dopusklar. Shponkali birikmalarda dopusk va o‘tqazishlar. Shlitsali birikmalarda nazorat qilish uchun kalibrlar. O‘lcham dopusklari.

O‘lchamlar zanjiri tushunchasi. O‘lchamlar zanjiri va uni hisoblash tartibi. Mahsulot sifati va uning boshqaruvi. Mahsulot sifatiga ta’sir qiluvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot sifatini boshqarishning xususiyatlari. Marketing xizmati faoliyati. Mahsulot sifatini attestatsiyalar. Mahsulot sifatini nazorat qiluvchi xalqaro tashkilotlar va Xalqaro sifat markazining vazifalari.

3.7. Texnik ijodkorlik va dizayn

Bozor munosabatlari sharoitida ijodiy faoliyatning ahamiyati. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning tafakkuri, didi va madaniyatini rivojlantirishda fanning tutgan o‘rni. Tinglovchilarning ijodkorlik faoliyatiga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari.

Ijodkorlik faoliyatining asosiy tushunchalari. Ijod, ijodiyot va ijodkorlik atamalari. Ijodkorlik qobiliyatining mazmuni. Texnik ijodkorlik. Shaxsning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi. Iqtidor, talant va geniallik sifatlari. Texnik ijodkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari va tashkiliy asoslari.

O‘quvchilarning texnik ijodkorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari. Ilmiy ijodkorlik jarayonida mantiqiy va intuitiv tafakkurning o‘rni.

Texnik ijodkorlik faoliyatining bosqichlari. O‘quvchilarning ijodiy tayyorgarlik darajalari. Davlat patent idorasi, sanoat mulki obyektlarini huquqiy himoya qilish masalalari. Sanoat mulki subyekti, muallif huquqlari, intellektual mulk davlat fondi faoliyati.

Kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatorlik va patent. Kashfiyot tushunchasi va turlari. Kashfiyotning me’yoriy sifatlari. Ixtiro tushunchasi, uning kashfiyotdan farqlari. Ilmiy-texnik taraqqiyotda kashfiyot va ixtirolarning o‘rni. Ratsionalizatorlik takliflari, patent hujjatlari va axborotlari.

Texnik ijodkorlikni rivojlantirish metodlari. Texnik ijodkorlikda qo‘llaniladigan metodlar, ularning afzallik va kamchiliklari. Ijodiy faoliyatning roli. Ixtirochilikda kuzatuvchanlik, intuitsiya va intellektning ahamiyati.

Ixtirochilarning shaxsiy-psixologik xususiyatlari: ijtimoiy, tajriba, aqliy va irsiy sifatlar majmui.

Texnik konstruksiyalash va modellashtirishning moddiy sharoitlari, o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar va tashkiliy shakllar. O‘quv binosiga qo‘yiladigan talablar. Texnik loyihalash jarayoni va unga zarur materiallar. Texnik va badiiy modellashtirishning umumiy jarayoni. Ijodiy masalalarni tadqiq etish uslublari.

Texnik ijodkorlikda dizayn yechimlarining xususiyatlari. Dizaynning vujudga kelishi, dizayn va modern tushunchalari. Dizaynning asosiy vazifasi va san’at sifatidagi tarkibiy tuzilishi. Hunarmandchilik va sanoat bog‘liqligi. Birinchi dizaynerlar. O‘zbekistonda dizaynning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va hozirgi holati. Tinglovchilarda dizaynerlik ijodkorlik faoliyatini shakllantirish. Texnika obyektlarini konstruksiyalash va badiiy modellashtirish.

Loyihalash ishlarining xususiyatlari. Model va modellashtirish. Texnik modellar klassifikatsiyasi. Badiiy modellashtirishning mazmuni. Ishlab chiqariladigan buyumlarning texnik va estetik xususiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik. Dastgoh va qurilmalarning tashqi shakli, nisbatlar, materiallarning ahamiyati, kompozitsiya va uyg‘unlik tushunchalari.

Dizayn nazariyasining ijtimoiy, iqtisodiy, ergonomik va funksional masalalari. Buyumlarni loyihalashda turli kasb egalari – materialshunos, muhandis, konstruktor, dizaynerlarning hamkorligi.

Loyihalash mazmuni va bosqichlari. Dizaynerlarning ish mazmuni. O‘quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish bosqichlari va metodlari.

Texnik ijodkorlikning rivojlanishi. O‘quvchilarning texnik ijodkorlik faoliyatini tashkil etish tizimi. Texnik ijodkorlikning asosiy yo‘nalishlari. Konstruktorlik izlanish faoliyatining mantiqiy va tuzilishi. Modellashtirish va

modeli-texnik tajribalar, ijodiy masalalarni hal qilishda mantiqiy ketma-ketlik.

Mehnat va texnika turlari bo‘yicha sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan tashkiliy ishlar. O‘quvchilar bilan individual ishlash. Ularni maktabdan tashqari ishlarga jalb etishning guruhiy va ommaviy shakllari. Ish yo‘nalishini tanlash, ishchi-dastur va reja tuzish, to‘garakni komplektlash va tashkil etish.

4. IXTISOSLIK FANLARI

4.1. Kompozit materiallarga ishlov berish texnologiyasi

Duradgorlikda ishlatiladigan yog‘och turlari va xossalari. Duradgorlikda ishlatiladigan rejalash asbob va uskunalari. Birikmasiz to‘g‘ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi. Birikmasiz egri chiziq shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi. Kesuvchi asboblarni ishga sozlash texnologiyasi.

Detallarni mix, burama mix, yog‘och mixlar bilan biriktirish. Mix, burama mix, yog‘och mixlarni tanlash. Yelimlar, biriktiriladigan detal yuzasini yelimlashga tayyorlash. Yelimlangan choklarni tozalash. Smola va kazein yelimlarini tayyorlash va ulardan foydalanish. Tirnoqli birikmalar tasnifi va texnologiyasi. Burchakli va tirnoqli birikmalarni tayyorlashda ishlatiladigan material.

Tayyor buyumlarga ishlov berish texnologiyasi. Quloqcha va turumli o‘rtalik birikmalarni tayyorlash texnologiyasi. O‘rtalik birikmalarni bajarishda ishlatiladigan materiallar. Burchakli murakkab ko‘p tirnoqli birikmalar tayyorlash texnologiyasi. Ochiq qaldirg‘och dumli va ochiq to‘g‘ri burchakli ko‘p tirnoqli birikmalarni tayyorlash texnologiyasi.

Yog‘ochlarni kuydirib ishlov berish. Yog‘ochlarni kuydirib ishlov berishda ishlatiladigan materiallar va asboblar. Duradgorlik polirovkasi (pardoz berish) va uni bajarish texnologiyasi. Yog‘ochlarga lak bilan pardoz berish texnologiyasi. Yog‘ochlarga elektr asboblarda ishlov berish.

Yog‘ochlarga mexanik ishlov berish. Yog‘ochlarga mexanik ishlov beruvchi tokarlik dastgohining tuzilishi, konstruktiv elementlari, asosiy va yordamchi qismlari. Tokarlik dastgohlarida buyumlar tayyorlash texnologiyasi. Yog‘och materiallariga yumaloq arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi. Yog‘ochlarga ishlov beruvchi parmalash va frezalash dastgohlarining tuzilishi, konstruktiv elementlari, asosiy va yordamchi qismlari. Yog‘ochga ishlov beruvchi dastgohlarda bajariladigan ishlar turlari va dastgohdan foydalanish qoidalari.

Chilangarlik ishlari haqida umumiy ma’lumot. Rejalash. Chilangarlikda o‘lchov va rejalash asboblari. Metallarni tekislash texnologiyasi. Chilangarlik tiskilari va ularda ishlash texnologiyasi. Metallarga egovlash orqali ishlov berish texnologiyasi.

Elektr parmalash dastgohi. Metallarga zenker orqali ishlov berish texnologiyasi. Metallarni qirqish asbob-uskunalari va ulardan foydalanish

texnologiyasi. Metallarni egish va bukish texnikasi va texnologiyasi. Varaqa tunikalardan buyumlar tayyorlash texnologiyasi. Metallarni parchinlash texnologiyasi. Detallarga rezba ochish turlari va usullari.

Chilangarlikda simlar bilan ishlash texnologiyasi. Chilangarlik ishlarida kesuvchi asboblar bilan ishlash. Detallarga termik ishlov berish texnologiyasi. Detallar sifatini tekshirishda foydalaniladigan asbob va uskunalar, ularda ishlash texnologiyasi.

Metall kesish stanoklarining klassifikatsiyasi. Tokarlik vint qirqar stanogining tuzilishi. Kesib ishlash haqida tushuncha. Kesish jarayonida keskichga ta’sir etuvchi kuchlar. Asosiy metall kesuvchi stanoklar va ularning ishlatilishi. Parmalash stanoklari, ularning tuzilishi va ishlashi. Frezalovchi stanoklar, ularning tuzilishi va ishlashi. Metallarni payvandlash, payvandlash turlari va birikmalari. Elektr yoyi yordamida payvandlash usuli.

4.2. Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi

Maxsus materialshunoslik va tikuvchilik jihozlari fanining maqsad va vazifalari. Tikuvchilik materiallari va gazlamalarning rivojlanish tarixi. Gazlamalarni ishlab chiqarishning asosiy sexlari va ularning vazifalari. Gazlamaning paydo bo‘lish tarixi hamda ularni ishlab chiqaruvchi zavod va firmalar haqida umumiy tushuncha.

To‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda materialshunoslik fanining roli va ahamiyati. Tola, ip va mahsulotlar haqida asosiy ma’lumotlar.

Tabiiy tolalar: paxta tolasi, uning sanoatdagi ahamiyati, navlari, fizik-mexanik xossalari, dastlabki ishlov berish jarayoni. Lub tolalari: zig‘ir tolasi (turlari, asosiy xossalari, dastlabki ishlov berish prinsiplari, assortimenti), kanop tolasi (agrotexnikasi, dastlabki ishlov berish prinsiplari, ishlatilishi va assortimenti), jun tolasi, tabiiy ipak.

Sun’iy tolalar va iplar: asbest tolasining olinishi va ishlatilishi, viskoza tola va iplarining olinishi va ishlatilishi. Sintetik tolalar va iplar: kapron, shisha va metall iplarning olinishi va ishlatilishi.

Namlik, uning turlari va ahamiyati. Namlikning tolalar, iplar va tayyor mahsulotlarga ta’siri.

Tola va iplarning geometrik xossalari: uzunligi, chiziqli zichligi, qalinligi, nuqsonlari. Tola va iplarning eshilish darajasi va mexanik xossalari: yarim siklli, bir siklli va ko‘p siklli deformatsiyalar.

Iplar: ularning turlari, olinishi va ishlatilishi. To‘quvchilik asoslari. Chit, zig‘ir, shoyi, jun va kimyoviy gazlamalarni pardozlash. To‘qimachilik nuqsonlari va ularning sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri. To‘qimachilik urilishlari: oddiy, mayda, gulli, murakkab, kuchaytirilgan, jakkard va boshqalar.

Gazlamalarning geometrik xossalari: qalinligi, uzunligi, eni, og‘irligi. Mexanik xossalari: yarim, bir va ko‘p siklli deformatsiyalar, tuzilishga chidamliligi, g‘ijimlanuvchanligi. Haqiqiy va nisbiy zichlik. Draplanuvchanlik. Fizik xossalari: kirishish darajasi. Tola tarkibini aniqlash usullari. Kiyim detallarini biriktirish uchun ishlatiladigan mahsulotlar va ularning standart turlari.

Izonit gazlamalar assortimenti. Shoyi gazlamalar assortimenti. Sun’iy va sintetik iplardan izonit usulida gul naqshlarini chiqarish. Bezak materiallari. Gazlama va tayyor mahsulotlarni sortini nuqsonlarga qarab aniqlash. To‘qimachilik mahsulotlari haqida asosiy ma’lumotlar: standart turlari va aniqlash mezonlari, asosiy nuqsonlar va mahsulotlarga ta’siri, sanoatda qo‘llanilishi.

Tikuvchilik jihozlarining maqsad va vazifalari. Tikuvchilik jihozlarining rivojlanish tarixi. Tikuvchilik korxonalarining asosiy ishlab chiqarish sexlari va ularning vazifalari. Tikuv mashinalarining paydo bo‘lish tarixi va ularni ishlab chiqaruvchi zavod va firmalar to‘g‘risida umumiy tushuncha.

Tikuv mashinalari, asosiy turlari va guruhlarga bo‘linishi: moki va baxya tikuv mashinalari, zanjirsimon baxya tikuv mashinalari va ularning turlari. Tikuv mashinalarida texnika xavfsizligi qoidalari.

Tikuv mashinalarining baxya qator turlari, texnik xarakteristikalari va klassifikatsiyasi. Asosiy mexanizmlari: biriktiruvchi detallari, harakatni uzatadigan va aylantiruvchi qismlar, sxema tuzilishi va individual yuritmalari.

Tikuv mashinalarini texnologik ta’mirlash vositalari. Qo‘shimcha operatsiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan yordamchi qurilmalar, ularni ishlatish prinsiplari. Joriy, o‘rta va kapital remont turlari. Uskunalarni texnik ko‘zdan kechirish. Texnika xavfsizligi qoidalari.

Tikuv mashina mexanizmlarini sozlashning asosiy prinsiplari. Material surish mexanizmlarini sozlash, ularning turlari va xarakteristikalari. Asosiy ish organlarini sozlash. Mashina detallari va ayrim qismlarini sozlash.

4.3. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish

Fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Kiyimlarning tasnifi, ularga qo‘yiladigan talablari, zamonaviy kiyim assortimenti, o‘lchamlari, shakli, konstruksiyasi va sifat ko‘rsatkichlari. Aholining o‘lchov tipologiyasi va antropologik o‘lchov standartlari, kiyim qo‘shimchalari.

Odam gavdasining tuzilishi va turlari, bolalar gavdasining o‘ziga xosliklari. Antropometrik nuqtalar va chiziqlar, modul bo‘yicha chizma tuzish. Kiyim loyihalashda ishlatiladigan o‘lchov turlari va ularni olish usullari. Kiyim loyihalash usullari, qo‘shimchalar, bolalar kiyimlariga xos konstruktiv yechimlar.

Buyum loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimlari (LAS), ularning vazifalari, tuzilishi, bosqichlari. Kiyim loyihalash, andaza qurish, gradatsiya, marker

joylashuvi kabi fanlar mazmuni. Avtomatlashtirilgan tizimlar turlari, kompyuter dasturlarining afzallik va kamchiliklari. Model rasmini yaratish, bitta o‘lchovdagi bazaviy konstruksiyani qurish, model konstruksiyasi va andazalar komplektini tayyorlash, o‘lchov va bo‘ylar doirasida gradatsiya qilish.

Modellashtirishning maqsadi va asosiy bosqichlari. Yangi modellarni badiiy-texnik loyihalash, o‘xshash modellarni tanlash va tahlil qilish. Bazaviy asosdan yangi model konstruksiyasini tuzish, konstruktiv tuzilmani tahlil qilish, mos bazaviy konstruksiyani tanlash va uni o‘zgartirish.

Birinchi xil konstruktiv modellashtirish usullari, jumladan vitachka yo‘nalishini o‘zgartirish, detallarni ajratish, taxlamlarni loyihalash, model xususiyatlarini chizmada aks ettirish.

Ikkinchi xil konstruktiv modellashtirish usullari, konstruktiv asos silueti orqali modellashtirish: parallel kengaytirish, konussimon kengaytirish yoki toraytirish, detallarni toraytirish yoki burmalar kiritish.

O‘tkazma yengli asosdan reglan bichimlarini yaratish, o‘miz va qiyama shakllarining bog‘liqligi, reglan yenglarning konstruktiv xususiyatlari, yelka vitachkasiz reglan konstruksiyasi. Yaxlit bichilgan yenglar va ularning konstruksiyalash usullari.

Andaza loyihasi, texnik ko‘paytirish, gazlama ustiga joylashtirish va bichish. Berilgan modelga andaza yoyilmasini tayyorlash va material sarfi normasini hisoblash. Andaza sathini o‘lchash usullari va maxsus o‘lchash mashinalari. Gazlama sarfini normallashtirish: bo‘rlamaga, to‘shama va fond sarf me’yorlari.

4.4. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash

Xalq hunarmandchiligi san’atining tarixi va uning rivojlanish bosqichlari. O‘zbekistonda xalq amaliy san’ati va milliy hunarmandchilikning rivojlanishi. Xalq hunarmandchiligi va amaliy san’at turlari, ulardagi umumiylik va farqlar. Umumta’lim maktablaridagi texnologiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni milliy hunarmandchilik va amaliy san’at asoslariga o‘rgatishning mazmuni.

Xalqning turmush madaniyati va ma’naviyatini ko‘tarishda fanning tutgan o‘rni. Xalq hunarmandchiligi turlari, ularning tarixi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi vaqtdagi imkoniyatlari.

Kashtado‘zlik san’ati, uning tarixi, rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari. Kashtachilik maktablari va ustalari. Kashtachilik mahsulotlari turlari va ularni tayyorlashda ishlatiladigan jihoz va moslamalar. Ish o‘rnini tashkil etish. Kashtachilikda qo‘llaniladigan chok turlari. Oshxona buyumlari, bolalar va kattalar kiyimlariga applikatsiya ishlari. Merijka choklari.

Zardo‘zlik san’ati, uning tarixi, rivojlanishi va zamonaviy holati. Zardo‘zchilik maktablari va ustalari. Naqshlarning ramziy ma’nolari. Tikuv

buyumlarini zardo‘zlik bilan bezash. Zardo‘zlik mahsulotlari turlari, jihoz va moslamalar. Naqsh elementlarini chizish, kompozitsiya eskizlarini tuzish, zar tikish usullari va texnologiyasi.

Do‘ppi tikish bo‘yicha materiallar va bezak elementlari. O‘lchov olish, bichish, tikish, andoza tayyorlash, naqsh chizish va bezash texnologiyasi.

Quroq tikish jarayoni, gazlama qoldiqlarini tayyorlash, kompozitsiya tuzish, taxlama va yassi quroq tikish usullari. Lentali kashtalar, applikatsiya turlari va texnikasi. Milliy qo‘g‘irchoqlarni tayyorlash va ularning liboslarini tikish hamda bezash usullari.

Gilam to‘qish san’ati, uning tarixi, rivojlanishi va hozirgi holati. O‘zbek milliy gilamchilik maktablari, mahsulot turlari, xom-ashyo, jihoz va moslamalar. Gilam to‘qish texnologiyasi, o‘rindiqlar uchun gilamcha tayyorlash.

Savatchilik hunari, uning tarixi, xom-ashyo, jihoz va moslamalar. Savat to‘qish uslublari. Savat va makrame to‘qish texnologiyasi.

Yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha tarixiy ma’lumotlar, rivojlanish bosqichlari, ustalar, naqsh atamalari. Yog‘ochga naqsh solish texnologiyasi. Ishlatiladigan asbob-uskunalar va o‘lchov asboblari.

Naqqoshlik san’ati, uning tarixi, ustalar, naqsh atamalari. Naqsh solish texnologiyasi. Asboblar, uskunalar, naqsh turlari va elementlari.

Me’morchilik san’ati tarixi, rivojlanish bosqichlari, mahsulot turlari, xom ashyo va materiallar.

Ganchkorlik san’ati bo‘yicha tarixiy manbalar, O‘zbekistondagi rivojlanish bosqichlari, turlari, maktablari, mahsulotlar, materiallar, naqshlar va kompozitsiya tuzish jarayonlari.

Kulolchilik san’ati, uning tarixi, ustalari, hozirgi holati, mahsulotlar, materiallar va asbob-uskunalar.

Zargarlik san’ati, uning tarixi, maktablari, buyumlar, materiallar va ularni tayyorlash texnologiyasi.

Kandakorlik san’ati, uning tarixi, rivojlanishi, hozirgi holati, maktablari, mahsulot turlari, xom-ashyo, mis buyumlar va badiiy bezak turlari.

Pichoqchilik san’ati, uning tarixi, rivojlanish bosqichlari, mahsulot turlari, xom ashyo va materiallar.

4.5. Robototexnika asoslari

Fanni o‘qitishdan maqsad va vazifalari. “Robototexnika asoslari” fanining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda zamonaviy texnologik tafakkur, dasturlash, konstruktsiyalash va avtomatlashtirish bo‘yicha asosiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning vazifalari: robototexnik qurilmalar bilan

tanishtirish, Arduino va boshqa platformalarda dasturlash asoslarini o‘rgatish, sanoatdagi robotlardan foydalanishni amalda tushuntirish.

Fanlararo va ta’lim turlari o‘rtasidagi bevosita aloqalar. Robototexnika fizika, informatika, elektronika, mexatronika, matematika, texnologiya va muhandislik fanlari bilan uzviy bog‘liq. Mazkur fan umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’limda o‘zaro integratsiyani talab qiladi.

Robotlar haqida umumiy tushunchalar. Robotlar, ularning turlari, vazifalari va ishlash prinsiplari. Robotlarning sinflanishi. Sanoat roboti va uning strukturasi. Intellektual, adaptiv va programmali robotlar. Robotlarning texnik xarakteristikalari. Robotning modul qurish prinsipi. Avtomobilsozlikda robotlarning qo‘llanilishi.

Sanoat robotining kinematikasi. Robot manipulyatorlarining kinematik komponovkalari, konstruktiv xususiyatlari, ishchi organlari. Sanoat robotlarining qisqich qurilmalari, harakatlanish qurilmalari va uzatish mexanizmlari.

Arduino asoslari. Arduino qurilmasi bilan tanishish. Ilk dasturga kirish: svetodiodni algoritm asosida dasturlash. Serial funksiyasi va monitor portlar bilan ishlash.

Boshqarish tizimlari. Boshqaruv tizimlarining sinflari: avtomatik, programmali, siklli, pozitsion, konturli boshqaruv tizimlari. Sensor tizimlari, ishchi organlar, manipulyatorlar, mobil robotlar haqida umumiy tushuncha. RTK (robototexnik kompleks)larga qo‘yiladigan talablar. RTKlarning sinflanishi. Int o‘zgaruvchisi, if operatori, monitor portlar va amallar bajarish.

Robototexnik komplekslarda qo‘llanilishi. Sanoat robotlarining RTKlarda qo‘llanish sxemalari. RTKlarni joylashtirish turlari. RTK yordamida yig‘uv operatsiyalarini avtomatlashtirish. Yig‘uv robotlari va moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari. 7 segmentli indikator, tugmacha (button), zummer orqali turli ohanglar hosil qilish.

Mexanik ishlov berish RTKlari. Stanoklar guruhiga xizmat qiluvchi RTKlar. Temirchilik-presslash operatsiyalaridagi RTKlar. Issiq shtamplash RTKlari va ularga xizmat ko‘rsatish. Termik ishlov berish RTKlari. AnalogWrite funksiyasi bilan tanishish. RGB svetodiodlar orqali rangli yoritishni dasturlash.

Mobil robototexnik tizimlar. MRT (mobil robototexnik tizim)larning vazifalari, sinflanishi. MP-12T robokara – tashqi datchikli mobil transport tizimi. RTKlarning informatsion qurilmalari: taktil sensorlar, texnik ko‘rish tizimlari, lokatsion sezish tizimlari.

Sensorlar va dasturlash. Potensiometr, fotorezistor, MQ gaz sensori, tuproq namligini o‘lchash sensori, DHT harorat va namlik sensori. Map funksiyasi haqida tushuncha, For operatori bilan tanishuv. Servo motorni dastur yordamida

boshqarish.

4.6. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi

Texnologiya ta’limi metodikasi fanining mazmuni, maqsad va vazifalari. Fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Maktab o‘quv rejasining mazmuni. Texnologiya fanining o‘quv rejadagi o‘rni. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanining tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari.

Texnologik ta’lim konsepsiyasining asosiy maqsadi va rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari. Texnologik ta’limning o‘quv-metodik ta’minotini ishlab chiqishda uzviylikni ta’minlash va uni mustahkamlash. Texnologik ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish. Texnologik ta’limni tashkil etishda maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarining o‘zaro integratsiyasi. Amaliy fanlar tavsifi va integratsiyasi. Amaliy fanlar bo‘yicha bitiruvchilarga qo‘yiladigan talablar. Amaliy fanlar orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish.

Texnologiya ta’limining didaktik tamoyillari. Didaktik tushunchalar. Ta’limning didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha. Predmet tizimi, operatsiya tizimi, operatsiya-buyum tizimi, operatsion-kompleks tizimi va motorli mashq tizimi. Texnologiya ta’limi didaktik tizimlarini takomillashtirish. Didaktik va tarqatma materiallarga qo‘yiladigan talablar. Ko‘rgazmali qurollarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar. Texnologiya fanidan dars mavzusiga taqdimot tayyorlash. Tarqatma va didaktik materiallar tayyorlash.

Texnologiya fanining mazmuni, yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishga qo‘yiladigan talablar. O‘quvchilarning umummehnat tayyorgarligi. 9- sinfdan keyingi kasbiy tayyorgarlik mazmuni. Texnologiya fanini o‘qitish shakllari va ularning mazmuni. Texnologiya darslarining tiplari. “Ta’lim metodlari” tushunchasining tavsifi va turlari. Ta’lim metodlarini tanlash yo‘llari. Texnologiya darslarida ta’lim metodlaridan foydalanish.

Rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Texnologiya fanida rejalashtiruvchi hujjatlar. Texnologiya fani dasturi bilan tanishtirish. Kalendar-mavzuli reja ishlab chiqish. Umumta’lim maktabida o‘quv-pedagogik hujjatlar va ularni yuritishning elektron shakllari bilan tanishtirish. Texnologiya fani o‘qituvchisining o‘quv jarayoniga tayyorgarligi. O‘qituvchining lavozim vazifalari va shaxsiy fazilatlari. Dars ishlanmasi tayyorlash.

Texnologiya darslari jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning maqsad va vazifalari. Baholashda hisobga olinadigan omillar. O‘quvchilarning o‘zlashtirishini baholash mezonlari. O‘zlashtirishlarni hisobga olish turlari. O‘zlashtirishni hisobga olishga qo‘yiladigan umumiy talablar.

O‘quvchilarga beriladigan vazifalarni tekshirish. O‘quvchilarni baholashning xalqaro tizimi.

O‘quv ustaxonalarini jihozlashga qo‘yiladigan talablar. O‘qituvchining ish o‘rni. Asbob-uskuna va moslamalar. Sanitariya-gigiyena va texnika xavfsizligi talablari. Texnologiya darslaridagi mashg‘ulot turlari. Amaliy mashg‘ulotlarning tarkibiy tuzilishi va mazmuni. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida texnologiya fani bo‘yicha metodik xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish tizimi. Metodik ishlarni tashkil qilish shakllari va mazmuni. Metodik ishlarni boshqarish tizimi. Metod birlashmalari va ularning faoliyati. Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish (Mahorat maktablari). O‘qituvchining jamoaviy uslubiy ishlari. Ochiq darslar va ularni o‘tkazish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari. Maktab sharoitida to‘garaklar tashkil qilish. To‘garaklar faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish. Ekskursiya: maqsadi, vazifalari, obyekt tanlash, tayyorgarlik, o‘tkazish va yakunlash bosqichlari. To‘garak mashg‘ulotlarining yillik ish rejasini tuzish.

4.7. Mashinasozlik texnikasi va ishlab chiqarish texnologiyasi

Fanning mazmuni, tarixi, rivojlanish bosqichlari va vazifalari. O‘zbekiston mashinasozlik sanoati va uning rivojlanish istiqbollari.

Zagotovkalarga dastlabki ishlov berish. Zagotovkalarni to‘g‘rilash. Chiviqlarni qirish. Chiviq, val, truba va listlarni qirqish. Markazlashtirish.

Aylanuvchi jism turidagi detallar klassifikatsiyasi va ularga ishlov berish turlari. Ko‘p keskichli tokarlik dastgohlarida ishlov berish. Nusxakash moslamali dastgohlarda ishlov berish. Tashqi silindrik sirtlarga pardozlab ishlov berish turlari va usullari. Detallarda uchraydigan teshiklar va ularning turlari. Tig‘li asboblar yordamida teshiklarga ishlov berish. Teshiklarni parmalashda ko‘p shpindelli kallaklardan foydalanish. Abraziv asboblar yordamida teshiklarga ishlov berish.

Rezbalar turlari va rezba kesuvchi asboblar. Rezbalarni keskichlar va taroqlar yordamida kesish. Ko‘p kirimli rezbalarni kesish. Plashka yordamida rezba o‘yish. Rezbalarni frezalash. Metchiklar yordamida ichki rezbalarni kesish. Rezbalarni jilvirlash. Dumalatib rezba o‘yish. Rezbalarni nazorat qilish.

Tekis sirtlarga randalab ishlov berish. Frezalab ishlov berish. Sidirib ishlov berish. Tekis sirtlarni jilvirlash. Abrazivlar va shaberlar yordamida pardozlash. Shakldor sirtlarga yo‘nib, parmalab, frezalab, randalab va sidirib ishlov berish. Shakldor sirtlarga jilvirlab ishlov berish. Raqamli dastur bilan boshqariladigan (RDB) dastgohlarda shakldor sirtlarga ishlov berish.

Silindrik tishli g‘ildiraklarning tishlarini diskli va barmoqli frezalarda nusxa

ko‘chirish usulida kesish. Obkatka usulida tishlarni qirqish. Tish yo‘nish usuli. Chervyaklarga ishlov berish. Tishli g‘ildirak tishlarini sidirish. Konussimon tishli g‘ildiraklar tishlarini kesish.

Mexanik ishlov berish texnologik jarayonlarini loyihalashning asosiy prinsiplari. Texnologik jarayonlarni loyihalash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar. Ishlab chiqarish topshirig‘i hajmi. Mexanik ishlov berish rejasi va uni tuzish. Texnologik dastgohlar, moslamalar, kesuvchi va o‘lchash asboblarini tanlash. Kesish rejimlarini aniqlash. Raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgohlarning qo‘llanilishi va ularning texnologik imkoniyatlari. RDB dastgohlarida ishlov berish texnologik jarayonlarini loyihalashning o‘ziga xos xususiyatlari. Texnologik jarayonlarni hujjatlashtirish.

Korpus detallarining turlari, konstruktiv shakllari va materiallari. Korpus detallariga mexanik ishlov berish ketma-ketligi va bajarilish tartibi. RDB dastgohlarda korpus detallariga ishlov berish. Korpus detallarini nazorat qilish.

Tishli g‘ildiraklar: asosiy konstruktiv shakllari va turlari, ishlatiladigan materiallar va zagotovkalar. Aniqlik darajasi bo‘yicha texnik talablar. Tishli g‘ildiraklarga mexanik ishlov berish texnologik marshruti. Nazorat qilish tartiblari.

Lazer nuri yordamida detallarni ishlov berishning mohiyati. Lazer nuri yordamida materiallarga mexanik va termik ishlov berish. Lazer nuri yordamida qirqish, teshik hosil qilish. Elektrofizik va elektrokimyoviy ishlov berish usullari.

Mashinalarni yig‘ish jarayonining ahamiyati. Yig‘ish turlari va ularning tasnifi. Yig‘ishning tashkiliy shakllari. Oqim bo‘yicha yig‘ish. Tipavoy texnologik yig‘ish jarayonlarini ishlab chiqish. Yig‘ish operatsiyalari ketma-ketligini va mazmunini belgilash. Texnologik yig‘uv sxemalarini tuzish. Vaqt me’yorini aniqlash. Texnologik hujjatlarni ishlab chiqish. Yig‘ilgan qismlar va mashinalarni texnik nazoratdan o‘tkazish va sinovdan o‘tkazish.

4.8. Metallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblar va stanoklar

Mashinasozlikda kesib ishlash va uning hozirgi zamon ishlab chiqarish korxonalarida tutgan o‘rni, rivojlanishi va vazifasi. Kesib ishlash to‘g‘risida umumiy tushuncha. Kesish rejimlarining elementlari. Kesuvchi asboblar elementlari. Kesuvchi asboblarning geometriyasi. Kesuvchi asboblarni tayyorlashda qo‘llaniladigan asbobsozlik materiallarini o‘rganish.

Mehnat unumdorligi to‘g‘risida tushuncha. Detal ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqt. Materiallarni kesib ishlashdagi fizikaviy hodisalar. Kesish jarayonining mohiyati. Metall kesish stanoklarining asosiy turlari va mexanizmlari. 1K62 modeli tokarlik stanogining kinematik sxemasini o‘rganish. Tokarlik keskichlarining turlari va konstruksiyasi. Tokarlik keskichlarining geometrik parametrlarini aniqlashni o‘rganish.

Qirindi hosil bo‘lish jarayoni. Qirindi turlari. Qirindining cho‘kishi. 2A135 modeli vertikal parmalash stanogining tuzilishi, bajariladigan ishlar va kinematik sxemasi. 6M81 modeli universal frezalash stanogining tuzilishi, bajariladigan ishlar va kinematik sxemasi. Jilvirlash stanoklarining tuzilishi, bajariladigan ishlar va kinematik sxemasi.

Materiallarni kesib ishlash jarayonida issiqlik hodisalari. Turli faktorlarning issiqlik miqdoriga ta’siri. Issiqlikni o‘lchash usullari. Kesish jarayonida hosil bo‘lgan issiqlikni o‘lchash va issiqlik miqdoriga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish.

Kesuvchi asboblarning yeyilishi. Yeyilish kriteriyalari. Yeyilishga ta’sir etuvchi faktorlar. Kesuvchi asboblarning yeyilish jarayoni va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish.

Materiallarning kesishga qarshiligi. Kesishga ta’sir etuvchi kuchlar. Kuchning kattaligiga ta’sir etuvchi faktorlar. Yo‘nishda kuchni hisoblash formulasi. Kesish tezligi va unga ta’sir etuvchi omillar. Tezlikni hisoblash formulasi. Kesish jarayonida hosil bo‘luvchi kuchlar va ularga ta’sir etuvchi faktorlarni o‘rganish. Kesish natijasida hosil bo‘lgan yuza tozaligini o‘lchash va kesish rejimlarining unga ta’sirini o‘rganish.

Metalmas materiallarni kesib ishlash. Yog‘och va plastmassa materiallarga ishlov berish. Parmalarning turlari va konstruksiyasi. Parmalarning geometrik parametrlarini o‘rganish. Frezalarning turlari va konstruksiyasi. Frezalarning geometrik parametrlarini o‘rganish. Qirindining kirishuvini o‘lchash va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish.

4.9. Sanoat ishlab chiqarish texnologiyasi

Texnologiyaning asosiy tushunchalari. Texnologik jarayonlarning tasnifi. Texnologik jarayonlarning rivojlanish yo‘llari va qonuniyatlari. Standartlashtirish va mahsulot sifatini ta’minlashning texnologik asoslari. Ishlab chiqarishni texnik tayyorlash. Texnik taraqqiyotning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni.

Metallurgiya sanoatidagi texnologik jarayonlar. Cho‘yan, po‘lat va rangli metallar hamda qotishmalar ishlab chiqarishning texnologik bosqichlari. Metall va qotishmalarni quyish orqali blankalar tayyorlash. Metall va qotishmalarni prokatlash, bosish, chizish, zarb qilish, issiq shtamplash texnologiyasi. Blankalarni payvandlash, profillangan plitalar ishlab chiqarish texnologiyasi.

Mashina qismlari va qurilmalari uchun material hamda ish qismlarini tanlash. Mashinasozlik korxonalarida qo‘llaniladigan texnologik jarayonlar. Plitalarni shtamplash texnologiyasi. Sovuq holatda hajmli deformatsiyalash. Kesish orqali materiallarga ishlov berish. Metall buyumlarni qotirish texnologiyasi.

Noorganik kislotalarni ishlab chiqarish texnologiyasi. Mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish jarayonlari. Yoqilg‘ini qayta ishlash texnologiyasi. Polimer materiallar va

plastmassalar ishlab chiqarish. Kimyo sanoatida texnologik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari.

Ishlab chiqarishni axborotlashtirish va avtomatlashtirishning ilg‘or texnologiyalari. Axborot texnologiyalari — ishlab chiqarishni takomillashtirishning asosi sifatida. Axborotni uzatish va qayta ishlash texnologiyalari. Moslashuvchan avtomatlashtirilgan texnologiya asoslari. Boshqarish va loyihalash vositalarini avtomatlashtirish. Kompyuter yordamida texnologik jarayonlarni boshqarish. Biotexnologiya. Lazer texnologiyalari. Qismlar va blankalarni tayyorlashda kukunli metallurgiyadan foydalanish.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish texnologiyasi. Qurilishda qo‘llaniladigan shisha materiallar. Gidroizolyatsiya, muhrlash, yopishtirish va tom yopish materiallari. Qurilishda yig‘ma va monolit betonlardan foydalanish. Binolarning qo‘shimcha issiqlik izolatsiyasini o‘rnatish texnologiyasi.

Yog‘ochga ishlov berish jihozlari. Yog‘ochga zarur shakl va o‘lcham berish uchun qo‘llaniladigan asbob va stanoklar. Yog‘ochdan tayyorlanadigan materiallar va yarim tayyor mahsulotlar (taxta, brus, faner, qipiq, plitalar, yog‘och plitalar va boshqalar), mebel, vagon, kema kabi buyumlar va qurilma detallarini ishlab chiqarish texnologiyasi.

Texnologik jarayonlar. Mahsulotning texnik xususiyatlari, sifat standartlari va miqdori. Xom ashyo turlari, ularning narxlari va sifat ko‘rsatkichlari. Mavjud uskunalar, ularning quvvati va samaradorligi. Har bir variant uchun ishlab chiqarish jarayonining sxematik tasviri.

To‘qimachilik texnologiyalari. Tikuvchilik va kiyim-kechak texnologiyalari. Poyabzal va charm mahsulotlari texnologiyasi. Zargarlik buyumlari va aksessuarlar tayyorlash texnologiyasi. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar. Yengil sanoatda sifat nazorati, iqtisodiy ahamiyati va rivojlanish istiqbollari.

Don, un, yorma, omixta yem, non, makaron, qandolatchilik, moy va yog‘lar, qand, go‘sht, sut, pivo va konservalangan mahsulotlar texnologiyasining ilmiy asoslari. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xomashyo va materiallarning tavsifi.

4.10. Qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil etish texnologiyasi

“Qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil etish texnologiyasi” fanini o‘rganishning zaruriyati, qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlaridan yuqori hosil olishga erishish tadbirlari, tashqi muhit omillarining o‘simliklarga ta’siri va uni boshqarish orqali yuqori hosil olish imkoniyatlari haqida tushuncha berish.

Tuproq morfologiyasi, tuproq qatlamlarining tuzilishi, qatlamlarning qalinligi, rangi, mexanik tuzilishi, tarkibi, yaralmasi, qo‘shimchalari va ularning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati. Tuproqning mexanik tarkibi. N.A. Kachinskiy

bo‘yicha tuproq klassifikatsiyasi, tuproqdagi organik moddalar, tuzilish, qatlamlar, struktura hosil bo‘lishi. Tuproqning asosiy tiplari va yer yuzasida ma’lum qonuniyat asosida tarqalishi.

Yerni ishlash, begona o‘tlar va ularga qarshi kurash. Tuproqni donador holatga keltirish, suv, havo va issiqlik rejimini yaxshilash, chirindi hosil qilish, mikroorganizmlar uchun qulay sharoit yaratish, begona o‘t va kasalliklarga qarshi kurash. Haydash usullari, muddatlari, yerning meliorativ holatini yaxshilash.

Tuproq tarkibidagi zararli tuzlarning ko‘payishiga qarshi chora-tadbirlar, sho‘rlanish va botqoqlanishga qarshi kurashish, sho‘r yuvish tadbirlari va ularning muddatlari. Yerni ekishga tayyorlash, qatqaloq bosgan dalalarni yumshatish, begona o‘tlar bilan kurashish.

O‘g‘itlar va ulardan foydalanish. O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishida, hosildorlikni oshirishda o‘g‘itlarning ahamiyati. Organik o‘g‘itlar va ularning turlari. Mineral o‘g‘itlar, mikroo‘g‘itlar, bakterial o‘g‘itlar va ularning oziqlantirishdagi o‘rni. O‘g‘itlashning me’yori va zarurligi.

Urug‘ va uni ekishga tayyorlash. Urug‘ning sifat belgilari: tozaligi, yirikligi, unuvchanligi, xo‘jalik jihatdan yaroqliligi. Urug‘ni tozalash, zararkunandalarga qarshi dorilash, ivitish, undirish. Ekish usullari, chuqurligi, muddatlari va me’yorlari.

Dehqonchilik sistemasi va almashlab ekish. Bo‘z yer sistemasi, shudgor sistemasi, eng sodda almashlab ekish turlari. Almashlab ekishning ahamiyati, hosildorlikni oshirish, yer unumdorligini saqlash, begona o‘t, kasallik va zararkunandalarni kamaytirishdagi o‘rni.

Sabzavot ekinlari. Sabzavotlarning inson hayotidagi ahamiyati, guruhlari, sabzavotchilik fanining asoslari. Sabzavotlarni biologik xususiyatlariga qarab guruhlarga ajratish. Parnik va teplitsa xo‘jaliklarida sabzavot yetishtirish. Plyonka ostida va isitiladigan teplitsalarda sabzavot yetishtirish, isitish manbalari.

Dala ekinlari. Don ekinlarining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati. I va II guruh donli ekinlar, ularning morfologik tuzilishi, biologik xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari. Kuzgi va bahorgi don ekinlarining ahamiyati, agrotexnikasi, parvarishlash va hosilni yig‘ib olish.

Gulli o‘simliklarni o‘stirish. Xonaki o‘simliklarning xilma-xilligi, ahamiyati, kelib chiqishi, biologik xususiyatlari. Tropik o‘simliklar (begoniya, tradeskansiya, fikus) va subtropik o‘simliklar (geran, fuksiya, oleandr, primula, siklomen)ning o‘stirish usullari.

Mevachilik. Mevali daraxtlar va ularning guruhlari, tarqalishi, biologik xususiyatlari. Urug‘li va danakli mevalar, yong‘oqliklar (yong‘oq, pista, pekan) haqida umumiy ma’lumot. Mevali daraxtlarning tuzilishi, yer ostki va ustki qismlari, changlanish usullari va rivojlanish davrlari.

Chorvachilikning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati. Chorva mollarining oziqlanishi, ozuqa turlari (azotli, dag‘al, shirali, konsentrat, mineral, aralash yemlar), oziq birliklari va vitaminlar (A, B, C, D, E) bilan ta’minlash. Hayvon mahsulotlari, tana tuzilishi, hazm qilish tizimi.

4.11. Gazlama materiallardan buyum tayyorlash texnologiyasi

Kirish. Tikuvchilik ustaxonalarida ish o‘rnini tashkil qilish texnologiyasi. Texnika xavfsizligi qoidalari. Igna, ip va tikuv mashinalarini tanlash, gazlamaning o‘ngini aniqlash, dekatirovka jarayoni. Igna, ip, gazlamaning bir-biriga mos kelishi. Asosiy tushuncha va atamalar: qo‘l ishlari, mashinada bajariladigan ishlar va dazmollashga oid atamalar.

Qo‘l choklaridan namunalar tayyorlash. Mashina choklaridan namunalar tayyorlash.

Kiyimlarga taqilmalar tikish bo‘yicha namunalar tayyorlash. Ayollar kiyimlarida vitachkani ko‘chirish usullari bo‘yicha namunalar tayyorlash. Ayollar kiyimlarining bo‘yin o‘yindilariga ishlov berish namunalarini tayyorlash.

Ayollar milliy ko‘ylagi, yubkasi va bluzkasi namunalarini tayyorlash.

O‘g‘il bolalar va erkaklar ko‘ylagi hamda shimining namunalarini tayyorlash.

Gazlama qoldiqlari bilan ishlash. “Bezak” namunalarini tayyorlash.

4.12. Oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash texnologiyasi

Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashga oid ma’lumotlar berish, sabzavot va mevalarni saqlash qoidalari, mahsulotlarga birlamchi ishlov berish, taomlar tayyorlash jarayoni haqida tavsiyalar berish, tayyorlangan taomlarni dasturxonga bezab tortish tartiblarini tushuntirish.

Oziq-ovqat mahsulotlari turlari. Sabzavotlar, ularning turlari, tarkibi va ozuqaviy qiymati. Sabzavotlardan yaxna taomlar tayyorlash, dasturxonga tortish tartibi. Sabzavotlarni pishirish usullari (qaynatish, qovurish, bug‘da dimlash). Issiq ishlov berish usullari. Kartoshka bo‘tqasini tayyorlash texnologiyasi (tayyorlash bosqichlari va texnika xavfsizligi qoidalari).

Sabzavotlar turlari, navlari, sifatiga bo‘lgan talablar, saqlash sharoiti va muddatlari. Mevalarning turlari, navlari, sifatiga bo‘lgan talablar, saqlash sharoiti va muddatlari. Qayta ishlangan sabzavot va mevalar.

Sabzavotlarga birlamchi ishlov berish va turli taomlar uchun to‘g‘rash usullari. Issiq ishlov berish usullari, qaynatish va qovurish usullari. Mahsulotlarga issiq ishlov berilganda bo‘ladigan o‘zgarishlar. Meva va sabzavotlarga har xil “karving” usulida shakllar berish. Dasturxonni did bilan bezash.

Go‘shtning kimyoviy tarkibi, oziqlik qiymati. Go‘shtning hayvon turiga, yoshiga, tana haroratiga va semizlik darajasiga ko‘ra turlari. Parranda go‘shti turlari.

Sifatiga talablar. Kolbasa mahsulotlari: turlari, navlari, sifati, saqlash sharoiti va muddatlari.

Baliqning kimyoviy tarkibi va oziqlik qiymati. Baliq oilalari. Tirik, sovutilgan, muzlatilgan baliqlarning sifat koʻrsatkichlari. Tuzlangan, quritilgan, dudlangan baliqlar. Baliq konservalari. Ikraning oziqlik qiymati, turlari.

Sut va sut mahsulotlarining oziqlik qiymati. Sut turlari, qaymoq, achitilgan sut mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni, sifati va saqlash sharoiti. Qayta ishlangan sut mahsulotlari turlari. Pishloq ishlab chiqarish: turlari, sifati, saqlash sharoiti va muddatlari. Saryogʻ ishlab chiqarish turlari, sifati, saqlash sharoiti.

Don mahsulotlari turlari. Yormalar: turlari, sifati, pazandachilikda ishlatilishi. Un va uning sifati koʻrsatkichlari, sifatini aniqlash usullari. Non va non mahsulotlari: turlari, sifati, saqlash sharoiti. Makaron mahsulotlari: ishlab chiqarish, turlari, navlari, pazandachilikda ishlatilishi.

Qandolat mahsulotlari turlari. Sharq milliy qandolat mahsulotlari, ularning turlari. Qandolat mahsulotlarini saqlash muddati va sharoitlari. Lazzatli tovarlarning ovqatlanishdagi ahamiyati, turlari. Shakar va qand ishlab chiqarish, turlari, sifati, saqlash sharoitlari. Asal va uning oziqlik hamda davolovchi xususiyatlari. Asal turlari.

Tuxumning ozuqaviy qiymati (qaynatish, qovurish). Tuxum va uning ozuqaviy qiymati, pishirish usullari va texnika xavfsizligi qoidalari. Ochiq, yopiq va gazak uchun buterbrodlarni tayyorlash, dasturxonga tortish va xavfsizlik texnikasi qoidalari.

Parhez taomlari: Parhez №1 – №13 uchun taom tayyorlash. Mahsulotlarga umumiy tavsif berish va ovqatlarni tayyorlash usullari.

Issiq ichimlik va shifobaxsh damlamalarni tayyorlash texnologiyasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari. Choy ishlab chiqarish: navlari, sifatiga boʻlgan talablar, saqlash sharoitlari. Qahva ichimliklari. Dorivor va ziravorlarning ovqatlanishdagi ahamiyati, turlari va pazandachilikda ishlatilishi. Oziq-ovqat konsentratlari.

4.13. Texnologik ta’limda to‘garak ishlarini tashkil qilish

To‘garak ishlarini tashkil qilish fanining mazmuni, maqsad va vazifalari. To‘garak ishlarini tashkil qilish fanini o‘zlashtirish jarayonida egallanishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi. To‘garak ishlarini tashkil qilish fanini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari.

Ta’lim islohotlarida sinfdan va maktabdan tashqari ta’lim to‘g‘risida. To‘garak ishlarini tashkil qilishda moddiy-texnik ta’minot. To‘garak turlari. To‘garak ish rejasini tuzish.

To‘garak ishlarini tashkil qilish nizomining umumiy qoidalari. To‘garaklarning maqsad va vazifalari. To‘garak ishlarini tashkil qilish tartibi. To‘garak ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodlari. Fan to‘garaklarini tashkil etish metodikasi. Ijodiy to‘garaklarni tashkil etish metodikasi.

To‘garak ishlarini tashkil qilishda o‘quv reja va dasturlar. To‘garak ishlarini tashkil qilishda taqvim-mavzuli reja va ularga qo‘yiladigan talablar. Kasbiy to‘garaklarni tashkil etish metodikasi. To‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar o‘zlashtirishlarini hisobga olish.

To‘garak mashg‘ulotlarida ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar. To‘garak mashg‘ulotlarida ta’lim metodlari. To‘garaklarni tashkil etish tartibi va ularga rahbarlik qilish.

To‘garak rahbarining tashkiliy tayyorgarligi. To‘garak rahbarining metodik tayyorgarligi. To‘garak ishlarida o‘quv-me’yoriy hujjatlarni tuzish va yuritish.

O‘yinli texnologiyalar va ularning funksiyalari. O‘yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari. Pedagogik o‘yinlar klassifikatsiyasi. Tadbirkorlik o‘yinlari va ularning turlari. To‘garak mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan mashg‘ulot shakllari va metodlari.

To‘garak mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalashning ahamiyati. To‘garak mashg‘ulotlarida iqtisodiy, mehnat, jismoniy, axloqiy va estetik tarbiya berish. Amaliy to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida pedagogik texnologiyalar va metodlaridan foydalanish metodikasi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish. Kasb tiplari. To‘garaklarda kasb tanlashga yo‘llash. To‘garak ishlarida o‘quvchilarni kasblarga qiziqtirish. To‘garak ishlariga o‘quvchilarni qiziqtirish va kasb-hunarga yo‘naltirish.

Ijodiy ishlarni namoyish qilish. O‘quvchilarni taqdirlash va rag‘batlantirish. Amaliy mashg‘ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular. To‘garak ishlarida o‘quvchilarni rag‘batlantirish. To‘garak rahbarining o‘quv yili va mashg‘ulotlarga tayyorgarligi.

4.14. Tanlov fanlari

Texnologik jarayonda mehnat faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi, vazifalari va tarkibiy qismlari to‘g‘risida ma’lumot berish. Fan aksiomalari. Texnologik jarayonda mehnat faoliyati xavfsizligi fanining asosiy tushunchalari va ta’riflari bilan tanishtirish.

Texnologik jarayonda mehnat faoliyati xavfsizligining ilmiy asoslarini tushuntirib berish. Texnologik jarayonda mehnat faoliyati xavfsizligini ta’minlash prinsiplarini, uslublari va vositalari to‘g‘risida ma’lumot berish. Tavakkal nazariyasining asosiy qoidalarini o‘rgatish.

Geologik tabiiy ofatlar: zilzilalar, o‘pirishlar, ko‘chkilar va qor

koʻchkilarining kelib chiqish sabablari, tarqalishi va halokatli oqibatlari, shuningdek, ularni muhofaza qilishga oid tadbirlar toʻgʻrisida maʼlumot berish.

Gidrometeorologik tabiiy ofatlar: dovul, toʻfon, quyun, sel, suv toshqinining kelib chiqish sabablari, tarqalishi va halokatli oqibatlari, ularning oldini olish va muhofazalash boʻyicha tadbirlar haqida maʼlumot berish.

Biologik ofatlarning sabablari va ularning oldini olish tadbirlari haqida tushuncha berish. Biologik tabiiy ofatlar (epidemiya, epizootiya, epifitotiya)ning kelib chiqish sabablari, tarqalishi va oqibatlari, shuningdek ularni muhofazalashga oid tadbirlar haqida maʼlumot berish.

Texnogen xususiyatli xavfli vaziyatlar va ulardan muhofaza tadbirlari haqida maʼlumot berish. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari, tarqalishi va halokatli oqibatlarini tahlil qilish.

Texnologik jarayonlar turlari va ularda yuz beradigan avariya va halokatlar. Avariyalarga olib keluvchi sabablar va ularning oqibatlari, ulardan muhofaza qilish usullari haqida maʼlumot berish. Transport turlarida yuz beradigan avariya va halokatlar haqida tushuncha berish.

Uzluksiz taʼlim tizimida fuqaro muhofazasining vazifasi va oʻrni haqida maʼlumot berish. Fuqaro muhofazasining taʼlimdagi roli, funksiyalari va mazmuni bilan tanishtirish.

Xavfli tabiiy jarayonlar va hodisalar, ularning turlari va qisqacha tavsifi. Tabiiy tusdagi xavfli hodisalarning muhofaza tadbirlari haqida maʼlumot berish.

Yongʻin ofati va yongʻin xavfsizligini taʼminlashning samarali usullari haqida maʼlumot berish. Yongʻin-portlash xavfi mavjud obyektlardagi avariyalar va ularning oldini olish choralari bilan tanishtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023- yil 30- aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-6445145.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ–637- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5013007.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni: 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ–419- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-3088008.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF–5712- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-4312785.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF–60- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5841063.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF–134- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-6008663.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ–4963- son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-5239538.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/ru/docs/-5828765.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–231- son qarori, T.: 2024.

Ilmiy-metodologik adabiyotlar

1. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.

2. Mavlonova R. A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.

3. Po‘latov Sh. Ta’lim menejmenti yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 76 b.

4. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘ayeva G., Qosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma. 1-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 145 b.

5. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.

6. Ismailov A., Axmedov X. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda xalqaro PIRLS dasturining ahamiyati // PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy masofaviy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – 131–137 b.

7. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – Toshkent: RBIMM, 2008. – 68 b.

8. Ishmuhamedov R. J, Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 96 b.

9. Tolipova J. O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. – Toshkent: UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2005. – 128 b.

10. Shlyaxer A. Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? / so‘z boshi Sh.Shermatov, H.Umarova; Umumiy tahrir D.Norboeva; tarjimonlar: R.Axmatova, D.Norboeva. – Toshkent: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022 – 344 bet.

11. Begimkulov U. Sh. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: FAN, 2011. – 232 b.

12. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.

13. Mavlonova R. A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.

14. Po‘latov Sh. Ta’lim menejmenti yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 76 b.

15. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘ayeva G., Qosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma. 1-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 145 b.

16. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.

17. Ishmuhamedov R. J, Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 96 b.

18. Begimkulov U. Sh. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: FAN, 2011. – 232 b.

19. Karimov I. “Texnologiya o‘qitish texnologiyalari” o‘quv – uslubiy qo‘llanma. Qo‘qon 2013

20. Avazboyev A.I., Ismadiyarov Y.U. Texnologiya o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma) – T.: TDPU, 2018. – B.284.

21. Toxirov O‘.O., Sultonova D.M. va b. Texnologiya darsligi. 5 sinf. –T.: “Sharq” nashriyoti. 2020.

22. Qo‘ysinov O.A., Sattorov V.N., Yaqubova H.S. “Texnologiyadan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi.” metodik qo‘llanma.Toshkent 2011.

23. Abdusalomov R.B. Maktab o‘quvchilari texnik ijodkorligini rivojlantirish – o‘quv qo‘llanma – Toshkent.; — Ta’lim nashriyoti 2018, — B. 234.

24. Qo‘ysinov O.A., Mamatov D. N., Nasrullayeva F.A. va boshqalar 6– sinf texnologiya darsligi. – T.: “Sharq” nashriyoti. 2021. B.240.

25. Qo‘ysinov O.A., Mamatov D. N., Nasrullayeva F.A. va boshqalar 7– sinf texnologiya darsligi. – T.: “Sharq” nashriyoti. 2022. B.240.

11. Umumiy o‘rta ta’limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent 2017 yil.

12. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2012.

13. A.A. Abduqodirov, Q.M. Karimov, I.A. Yuldoshev. Aniq fanlarni o‘qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015.

14. B.Boltayev, A.Azamatov va boshqalar. Microsoft Office dasturlari MS Word // Toshkent, 2014 yil.

15. S.S. Jumanazarov, B.Xaydarov, D.Li, Sh.Qayumov “Kompyuter savodxonligi asoslari”.–T.:2014 y.

16. Aripova S.X.“Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2010 y.

17. R.Mavlonova. D.Abdurahimova. “Pedagogik mahorat”. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2012 y.

18. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – T.: “Nihol”, 2013y.

19. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 yil

20. Qodirov K.B. “Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis”, Toshkent 2001 yil

21. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiev. “Pedagogika”. – T.: “O‘qituvchi”, 2010 y.

Elektron ta’lim resurslari

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
5. infocom.uz – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali sayti.
6. uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.
7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
8. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining raqamli ta’lim platformasi.
9. e-shahodatnoma.uz – maktabgacha va maktab ta’limi elektron shahodatnoma tizimi.
10. my.maktab.uz – umumta’lim maktablariga o‘quvchilarni onlayn qabul qilish tizimi.
11. erp.maktab.uz – xalq ta’limini boshqarish tizimi.
12. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
13. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
14. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.
15. yaklass.ru – maktab o‘quvchilari uchun raqamli ta’limiy resurs, Rossiya.
16. intuit.ru – milliy ochiq universitet, Rossiya.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 30 ”-sentabrdagi
367-son buyrug‘iga
5.31-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

TABIIY FANLARNI O‘QITISH HUQUQINI BERISH BO‘YICHA KASBIY VA PEDAGOGIK QAYTA TAYYORLASH KURSINING

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

Tuzuvchilar: **I.A. Xurramov –** A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi v.b.dotsenti.

D.S. Azamatova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Aniq va tabiiy fanlar bo‘limi bosh mutaxassisi.

Q.E. Qalandarov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Fizika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi v.b.dotsenti.

B.X. Boymatov – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, tayanch doktoranti.

S.Z. Rashidova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Aniq va tabiiy bo‘limi bosh mutaxassisi

D.M. Hakimova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent;

M.T. Ergasheva – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Pedagogika, psixologiya” kafedrasi mudiri p.f.d. (DSc), dotsent.

M.U. Badalova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Rektor maslahatchisi.

F.A. Murodova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Tayanch doktorant.

Taqrizchi **A.B.Amirullayeva** – Samarqand viloyati pedagogik mahorat milliy markazi, Fizka fani katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

A.A. Darvishxo‘jayev – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Ta’lim xizmatlari markazi direktori, mustaqil izlanuvchi.

N.A. Yuldasheva – Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.d., DSc, prof.

D. F. Yusupova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ta’lim menejmenti kafedrasi mudiri v.b.

Mazkur o‘quv reja va dastur A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Kengashining 2025-yil _____dagi __-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KURSINING O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:

1. **Tabiiy va ilmiy fanlar**

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

2. Pedagogika va psixologiya

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

2.2. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

2.5. Umumiy pedagogika

2.6. Umumiy psixologiya

2.7. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

3. Umumkasbiy fanlar

3.1. Tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM yondashuv

3.2. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik

3.3. Biologiya

3.4. Geografiya

3.5. Fizika va astronomiya

3.6. Kimyo

3.7. Tanlov fan

4. Ixtisoslik fanlari

4.1. Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi

4.2. Tabiiy fanlarni o‘qitishda tajriba-tadqiqot ishlarini o‘rganish metodikasi

4.3. Tabiiy fanlardan o‘quv topshiriqlarni amaliyotda qo‘llashda o‘rgatish metodikasi

4.4. Tanlov fan

1. TABIIY VA ILMIY FANLAR

1.1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning normativ-huquqiy asoslari

Ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Maktab ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”i, Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

Maktab ta’limi sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar.

Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. Maktablarning lokal hujjatlari (ustav, ichki tartib qoidalar).

O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari.

1.2. Media-savodxonlik va axborot madaniyati

Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. Ta’lim oluvchilarning informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi.

Fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Ta’lim oluvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash texnologiyalari zamonaviy kompyuterlar va ularning arxitekturasi, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish kabi bilimlarga ega bo‘lishi.

Operatsion tizimlar, ularning turlari bilish faolligini oshirish va mustaqil ta’limini tashkil etish asosida amaliy dasturlardan foydalanib, fanni o‘zlashtirishi.

Amaliy dasturlar asosida darslarni tashkil etish. Microsoft Office dasturlarida fanga oid elektron ishlanma va taqdimotlarni yaratish texnologiyalari.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda, o‘zining kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish, amaliy dasturlar, jumladan MS Ofice dasturlar paketi va ularda ishlash,

amaliyotda qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi, interfaol ta’lim, “Case study” yordamida o‘quv jarayonida AKTdan foydalanish fanini o‘qitishda amaliy dasturlardan maqsadli foydalanish. Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda elektron jadval muharrirlaridan, jumladan MS Excel dasturi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish. MS Excelda avtomati qo‘shish, avtoto‘ldirish, sodda formulalar, funksiyalar, diagrammalar va filtrlash. Power Point dasturida taqdimotlar yaratish.

Multimediali darslar asosida ta’lim samaradorligini oshirish.

Ta’lim oluvchilarning kasbiy yo‘nalishlaridagi bilish faolligini oshirishda multimedianing asosiy elementlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, audio va video axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

Internet tarmog‘i vositalari. Elektron pochta, ro‘yxatdan o‘tish va fanni o‘qitishda undan foydalanish.

Ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishda masofadan o‘qitish texnologiyasidan foydalanib, fanni o‘qitish. Masofaviy ta’limda mahorat darslari, vebinarlarni tashkil etish texnologiyalari. LMS texnologiyasi.

Masofaviy ta’lim. O‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.

O‘qituvchining virtual kutubxonasi. O‘quvchining elektron portfoliosi. Fanni o‘rgatish jarayonining elektron boshqaruvi.

Internet. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar. Internet turlari va ularning klassifikatsiyasi. Internet xizmatlari va jumladan elektron pochta xizmati.

1.3. Yosh fiziologiyasi va gigiyena

Kirish. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. O‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.

Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining tarixi va rivojlanish tendensiyalari, anatomiya, fiziologiya, yosh fiziologiyasi va gigiyena fanlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena fanining biologiya, pedagogika va tibbiyot fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Sog‘lom avlod dasturi va uni targ‘ib qilish. Respublikamizda bolalar salomatligini saqlash yo‘lida olib borilayotgan islohotlar. Yosh fiziologiyasi va gigiyena sohasidagi yutuqlar. Fanning vazifalari, o‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Ta’lim jarayonida ratsional usullarni qo‘llashda, har bir o‘quvchiga individual yondashishda pedagoglarning bola organizmining o‘ziga xos o‘sish va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimga ega bo‘lishlari. Yoshlik davrlari va yoshga oid o‘zgarishlari haqida tushuncha. Hujayraning umumiy tuzilishi. Irsiy kasalliklar va ularning turlari.

Nerv tizimining yosh xususiyatlari.

Nerv tizimining ahamiyati va umumiy tuzilishi shakli. Nerv markazlari haqida tushuncha. Nerv markazlarining fiziologik xususiyatlari: qo‘zg‘alish va tormozlanish, taassurotlarni summatsiyalash, kislorod tanqisligiga chidamsizlik, irradiatsiya, induksiya, A.A. Uxtomskiyning “Dominanta qonuni”. Markaziy nerv tizimi bo‘limlari-ning yoshga oid xususiyatlari. Vegetativ nerv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Organizm reflektor faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari.

Oliy nerv faoliyatini tekshirish usullari. Shartli va shartsiz reflekslar haqida tushuncha. Ularning bir-biridan farqi. Shartli reflekslarning hosil bolishidagi shart-sharoitlar. Dinamik stereotip, nutq funksiyasi va uning fiziologik asosi. Bolalar oliy nerv faoliyatining tiplari va ularning plastikligi.

Nerv tizimi gigiyenasi. Bolalar va o‘smirlarning ishchanlik qobiliyati, charchash va o‘ta charchash haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiya psixogigiyeniyasi. Nevroz (asabiylik). Asab buzilishini oldini olish.

Analizatorlarning yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Analizatorlarning umumiy tuzilishi va ahamiyati. Analizatorlarning turlari: ko‘rish analizatorining yosh xususiyatlari. Ko‘rish qobiliyatining pasayishini oldini olish. Eshitish analizatori. Bolalarda eshitish organining rivojlanishi. Eshitish gigiyenasi. Muvozanat apparati.

Ichki sekretsiya bezlarining yosh xususiyatlari.

Organizmdagi fiziologik jarayonlarining neyron-endokrin sistemasi orqali boshqarilishi. Ichki sekretsiya bezlari haqida tushuncha. Ichki sekretsiya bezlarining joylashuvi. Garmonlar, ularning organizmdagi vazifasi. Organizmning gumoral boshqaruvida garmonlarning tutgan o‘rni. Garmon va stress. Garmonlar va jinsiy yetilish. Ichki sekretsiya bezlarining yoshga oid xususiyatlari.

Tayanch-harakat apparatining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Tayanch-harakat apparatining ahamiyati va vazifasi. Odam skeletining umumiy tuzilishi va yosh xususiyatlari. Suyak tuzilishining yosh xususiyatlari. Umurtqa pog‘onasi va ularning egriliklari, egriliklarning shakllanishi. Bosh, gavda va qol-oyoq skeletining o‘sishi va rivojlanishi. Muskullarning dinamik va statik ishi. Turli yosh davrlarida mushaklar kuchi, tezligi, chaqqonligi, chidamliligi, va massasining o‘zgarishi. Charchash, uning fiziologik mexanizmi. Skolioz, uning kelib chiqish sabablari va uni oldini olish.

Ovqat hazm qilish tizimining yosh xususiyatlari va ovqatlanish gigiyenasi.

Og‘iz boshligida, me’da va ichakda ovqat hazm bo‘lishining xususiyatlari. Jigarning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Moddalar va energiya almashinuvining yosh xususiyatlari. Bola o‘sishi va rivojlanishida suv, mineral tuzlar va vitaminlarning ahamiyati. Turli yosh davrlarda bolalar ovqatlanishining o‘ziga xosligi. Ovqatlanish gigiyenasi.

Qon va qon aylanish tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Qonning ahamiyati. Qon tarkibi, uning vazifalari. Ularning yosh xususiyatlari. Qon aylanishining ahamiyati. Katta va kichik qon aylanish doirasi. Ona qornida homilaning qon aylanishi. Yurakning funksiyalari va yosh xususiyatlari. Puls va qon bosimi. Ularning yosh xususiyatlari.

Nafas organlarining yosh xususiyatlari va gigiyenasi. Nafas olishning ahamiyati. Nafas tizimining vazifasi. Tashqi va ichki nafas olish. O‘pkaning tiriklik sig‘imi. O‘pka ventilyatsiyasi. Uning yoshga, jismoniy mashqqa bog‘liqligi. Muskul ishi vaqtida nafas olish. Nafas gigiyenasi.

Ayiruv tizimining yosh xususiyatlari va gigiyenasi.

Ayiruv jarayonlarining ahamiyati. Buyraklar tuzilishi va ularni yosh xususiyatlari. Siydik hosil bo‘lish mexanizmi. Turli yoshdagi bolalar sutkalik siydik miqdori. Bolalarda tunda siydik tuta olmaslik, uning kelib chiqish sabablari.

Salomatlik haqida tushuncha. Bolalar va o‘smirlar salomatlik holati. Kasalliklar. Sog‘liq holatining maktab o‘quvchisining ishchanlik qobiliyatiga ta’siri. O‘tkir va surunkali kasalliklar. Kasalliklarni tarqalish manbalari. Tug‘ma va hayot davomida orttirilgan immunitet. Ta’lim va tarbiyaning tinglovchi sog‘ligiga ta’siri.

1.4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish

O‘zbekiston Respublikasida atrof muhitni muhofaza qilish masalasida amalga oshirilayotgan isloxotlar. Atrof-muhit tushunchasi va asosiy komponentlari (havo, suv, tuproq, biologik xilma-xillik) haqida tushunchalar berish.

Inson faoliyatining ekologiyaga ta’siri (sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi). Ekologik inqirozlar va ularning oqibatlari (global isish, cho‘llanish, deforestatsiya).

Yashil iqtisodiyot nima? Uning asosiy tamoyillari. Innovatsion yechimlar orqali ekologik muammolarni hal qilish. Quyosh va shamol energiyasi, bioyoqilg‘i, energiya samaradorligi. Oqilona suv va chiqindi boshqaruvi.

Ekologik madaniyat. Fuqaroning ekologik xatti-harakatlari (maishiy chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, transportdan foydalanish odatlari). Jamiyatdagi ekologik tashabbuslar (ko‘ngillilar harakati, daraxt ekish, eko-marafonlar). Aholi o‘rtasida va jamoalarda ekologik faollikni oshirish yo‘llari.

1.5. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish. Qonunlar, jazolar va profilaktika choralar.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning biologik, psixologik va ijtimoiy oqibatlari. Giyohvand moddalarni sog‘likka salbiy ta’sirlari. Davolash, reabilitatsiya va jamiyatga moslashuv, davolash usullari (narkologik xizmatlar).

Dunyo va O‘zbekistonda giyohvand moddalar tarqalishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

Milliy strategiyada belgilangan asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi (giyohvand moddalar aylanmasi, tarqatish, saqlash va iste’mol qilish bo‘yicha).

2. PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

2.1. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari

O‘quvchilarni baholash nazariyasi. Baholash, baholashning maqsadi va vazifalari. Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot). Baholash turlari (diagnostik, formativ, summativ). Baholash tamoyillari va mezonlari.

O‘quvchilarning sinfdagi faoliyatini baholash. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalari.

O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholash. O‘quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari(tanqidiy, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasi.

2.2. Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar

Ta’limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar. Hozirgi kunda jahonda va O‘zbekiston ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan ilg‘or xorijiy tajribalar haqida umumiy ma’lumot. “5E” modeli haqida tushuncha. “4K” tizimi. XXI asr ko‘nikmalari.

“Lesson Study” metodikasining mohiyati. Sharq va G‘arb mamlakatlarida “Lesson Study” yondashuvining paydo bo‘lishi va hozirgi kundagi ahamiyati. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Lesson Study” yondashuvidan foydalanishning amaliy talqini. Boshlang‘ich ta’limda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. 10–11- sinflarda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish metodikasi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda “Lesson Study” yondashuvidan foydalanish istiqbollari. Raqamli ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt.

Ta’limda IT va raqamli platformalardan foydalanish. Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari. Inklyuziv ta’limni joriy etishdagi afzallik va kamchiliklar. Ta’limda kreativlikdan foydalanish. Ta’limda kreativlikning amaliy talqini. O‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv.

2.3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi modernizatsiya jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish muammosi. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv fanini o‘rganishda tinglovchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish. Pedagogik kompetentlikka oid akmeologik yondashuvlar.

Metodik kompetentlik. Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalarini shakllantirish. Mashg‘ulotlarni metodik jihatdan tashkil etish, bilimlarni oqilona baholay olish. Ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish. O‘z kasb mahoratini tinmay oshirib borish.

O‘qituvchi kasbiga qo‘yilgan talablar. Pedagogik kreativlik. Interfaol o‘qitish metodlari asosida tinglovchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi. Pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlari. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari va shartlari. Pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar.

Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo‘l va shakllari. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.

2.4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari.

Ta’lim tizimida barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash. Tarbiya tushunchasini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni. Buyuk allomalarning tarbiya borasidagi qarashlari. Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari.

Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. Maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyati. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati.

Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash. Insonlar ongida ma’naviy va o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish usullari. Shaxsning ma’naviy yuksalishida milliy qadriyatlarning o‘rni.

Intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish.

Intellekt so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Insonning aqliy qobiliyatini rivojlantirish usullari. Shaxsning voqelikka munosabatlarini o‘rganish. Boshqarish faoliyati. Fikrlash, o‘qish-o‘rganish qobiliyati. Insonning dunyoni bilish va ijtimoiy tajribasini qabul qilish qobiliyati. Oqilona ish bajarishni o‘rganish. Voqea-hodisalarni oldindan bilish.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish. Tarbiyaga yo‘naltirilgan vaziyatlarni asoslash. O‘quv munozaralarini tizimli tarzda tashkil etish. O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga ongli ravishda yondashish. O‘quvchilar bilimlarini mustahkamlab axborotlarni egallashga o‘rgatish usullari. O‘quvchilarda muammolarni bilish va ular haqida fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatish usullari.

Tarbiya texnologiyalari.

Tarbiya texnologiyasi haqida tushuncha. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish. O‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish usullari. Tarbiya texnologiyasi rejalashtirish va unga erishish usullari. Tarbiya texnologiyasini modellashtirish. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini tashkil etish usullari. Tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash usullari.

Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari. Tarbiyaning maqsadi – shaxsning rivojlanishini ta’minlashdan iborat ekanligi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayonini tashkil etish mazmuni. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuvning mohiyati. Pedagogning asosiy vazifasi. Jamiyatda shaxs tarbiyasini shakllantirish usullari.

Tarbiya tizimida innovatsiyalar.

Tarbiya tizimining yangilanishida innovatsiyalarning o‘rni. Innovatsiyalarning amalga oshirish usullari. Innovatsiyani tashkil topish jarayonini mazmuni. Innovatsiyani falsafiy-metodologik (o‘qitish maqsadlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani nazariy (o‘qitish mazmuni, o‘qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) asoslarini o‘rganish. Innovatsiyani texnologik (o‘qitish jarayoni qoidalar tamoyili) asoslarini o‘rganish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Zamonaviy maktab rahbarining vazifasi. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish usullari. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga o‘quvchilarni jalb qilish usullari. O‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish usullari. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.

Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari. Tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar tarbiyasidagi o‘rni.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maktab rejasi bilan bog‘liqligini o‘rganish. Sinf rahbarlari va ota-onalar qo‘mitasi hamkorligi ishini o‘rganish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ishlarini o‘rganish. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishini asoslab berish.

Jamoani tashkil etish metodikasi. Jamoada shaxsni tarbiyalash.

Jamoa so‘zining ma’nosi va tushunchasi. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoa tushunchasining ikki xil ma’noda ishlatilish mazmuni. Jamoani tashkil etish usullari. O‘quvchilar jamoasini rivojlantirish usullari. O‘quvchilar jamoasi o‘ziga xos xususiyatlari. Jamoada shaxsni tarbiyalash usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari.

Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari. Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o‘rni.

Sinfda sog‘lom muhitini yaratish. O‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va shakllantirish usullari. Sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari. Sinfda do‘stona munosabatlarni shakllantirish usullari. Ota-ona hamda o‘quvchilarning ma’naviy-madaniy qiziqishlari rivojlantirish usullari. Sinfda ta’lim-tarbiya samadorligini oshirish usullari.

Tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha. Ta’lim-tarbiyaning zamonaviy usullari. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni va vositalari. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Jamiyatning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishiga, mehnat qilishiga o‘rgatish usullari.

O‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda sinf rahbariga qo‘yilgan talablar.

O‘quvchilarni o‘rganish usullari. O‘quvchilarga tarbiya va ta’lim berish usullari. O‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etish usullari. O‘quvchilarning o‘quv samaradorligini oshirish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini

oshirishga ijodiy yondashishni o‘rganish usullari. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish usullari. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishiga qo‘yilgan talablar.

Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.

O‘quvchilar bilim sifatini oshirishda sinfda intizomlilikni mustahkamlash. Sinf rahbari ishini rejalashtirish.

Maktabda to‘garak ishlarini tashkil etish.

To‘garak a’zolarining bilim sifatini nazorat qilish. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan Davlat talablarining mazmuni. To‘garak ishlarida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullari. O‘quvchilarni to‘garak mashg‘ulotlariga jalb qilish usullari. O‘quvchilarning qiziqish va xohishlariga qarab to‘garak yo‘nalishlarini tanlash. To‘garak a’zolarining to‘laqonli bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Maktabda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda sinf rahbarining vazifalari. Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. O‘quvchilar ongida ma’naviyatni shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarning o‘rni.

2.5. Umumiy pedagogika

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida qonun”i. Ta’limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta’lim. Pedagogikaning ilmiy asoslari. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi.

Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari.

Pedagogika fanining metodologiyasi, metodologik madaniyat haqida tushuncha. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limi.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: muhit, irsiyat, ta’lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari.

Didaktika – ta’lim nazariyasi.

Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma(model)lari. Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Ta’lim texnologiyasi. Innovatsion pedagogika mazmuni. Innovatsion jarayonning rivojlanishiga umumiy yo‘nalish. Ta’limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish. Muammoli ta’lim metodlari.

Ta’limning mazmuni.

O‘zbekiston maktablaridagi ta’limning mazmuni. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti. O‘quv rejasi, dasturlari va darsliklar. Darslik va o‘quv faoliyatini tashkil qilish.

O‘qitish jarayoni.

O‘quv jarayonini tashkil etishning shakllari. Ta’limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi. Dars – maktabda o‘quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli. Darsga qo‘yiladigan talablar. Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari. Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar.

O‘qitish metodlari.

Ushbu **Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi** huquqini berish bo‘yicha kasbiy pedagogik qayta tayyorlash kursining o‘quv rejasi va dasturida yuqorida keltirilgan fanlarning maqsad va vazifalari, fan bo‘yicha tinglovchilarning bilimiga, ko‘nikma, malaka va kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablar, fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi, uning amaliyotdagi o‘rni qamrab olingan bo‘lib, fanning asosiy mazmuni auditoriyada mashg‘ulot shakllari bo‘yicha soat taqsimotlari keltirilgan.

KURSINING O‘QUV DASTURI QUYIDAGI FANLAR MAZMUNINI O‘Z ICHIGA QAMRAB OLADI:

1. Umumkasbiy fanlar.

1.1	Maktabgacha ta’lim tizimiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar
1.2	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hayot faoliyati xavfsizligi
1.3	Umumiy psixologiya
1.4	Umumiy pedagogika
1.5	Maktabgacha yosh davr psixologiyasi
1.6	Bolalar psixodiagnostikasi
1.7	Maktabgacha pedagogika
1.8	Maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasi va gigiyenasi asoslari
1.9	Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar
1.10	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari
1.11	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini mazmun mohiyati
1.12	Bolalarni ijtimoiy moslashuvi
1.13	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inkuliziv ta'limni tashkil etish

2. Ixtisoslik fanlari.

2.1	Tarbiyachining ish hujjatlari
2.2	Ona tili va bolalar adabiyoti
2.3	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oila va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi
2.4	Bolalar nutqini o‘stirish
2.5	Matematik tasavvurlarni shakllantirish
2.6	Bolalar jismoniy tarbiyasi
2.7	Tabiat bilan tanishtirish va ekologik ta’lim-tarbiya
2.8	Tasviriy faoliyatga o‘rgatish
2.9	Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash
2.10	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida axborot kommunikatsiya texnologtyalaridan foydalanish
2.11	Tarbiyachining kasbiy mahorati va kompetentligi
1.12	Sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish
2.13	Tanlov fani

1. UMUMKASBIY FANLAR

1.1. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIGA OID ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR”

KIRISH

Bugungi kunda davlatimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy bazani yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. O‘z navbatida, maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan har bir soha xodimi samarali ish faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun davlatimizda sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yaxshi bilishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2019-yil 16-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida gi PF-152 sonli farmoni, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida ”gi PQ-231-sonli qarori, 2021-yil 12-apreldagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5071-sonli qarori, 2022-yil 14-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-322-sonli qarori, 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79 sonli farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son hamda 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 867-sonli qarorlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan har bir soha xodimi samarali ish faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun davlatimizda sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini bilishi lozim.

Ushbu o‘quv moduli bo‘yicha jami auditoriya o‘quv yuklamasi 18 soat bo‘lib, shundan: Nazariy mashg‘ulotlar - 6 soat;
Amaliy mashg‘ulotlar - 12 soat.

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Maktabgacha ta’lim tizimiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar”.

2.2.Modulning maqsadi: Ushbu o‘quv modul oraqli tinlovchilarga “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarining mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berish.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

Bilim	Ko‘nikma	Malaka
Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatining yanada takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida qabul qilinayotgan qonunlarning huquqiy jihatlari; maktabgacha ta’lim sohasida tashkiliy faoliyatning maqsadlari, vazifalari, mazmuni; maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malaka tavsiflari va ularning huquq va majburiyatlari kabi bilimlarni bilishi kerak.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni me’yoriy huquqiy asoslarga ko’ra tashkil etish; maktabgacha talim tashkilotini attestatsiyadan o‘tkazish; ota-onalar bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish va me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir ko‘nikmalarga ega bo’lishi kerak.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlardan o‘z faoliyati davomida samarali va unumli foydalana olishi hamda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalangan holda samarali ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir malakalarga ega bo‘lishi kerak.

2.4. Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi				
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot	
1	Maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati	6	6	2	4	
2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlari.	6	6	2	4	
3	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim sohasiga oid qabul qilingan qarorlarining ahamiyati.	6	6	2	4	
	Jami:	**18**	**18**	**6**	**12**	

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy va amaliy ta’lim mazmuni.

1-Mavzu: Maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati. (2 soat nazariy)

Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. Maktabgacha ta’lim tizimiga oid amalga oshirilayotgan ishlar. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari.

2-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlari. (2 soat nazariy)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarorlari, 2023-yil 26-maydagi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-79 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim sifati

va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida gi PF-152 sonli farmoni.

3-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim sohasiga oid qabul qilingan qarorlarning ahamiyati. (2 soat nazariy)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 391-son qarori. 2020 yil 9 martdagi “Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 132-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 802-son qarori.

3.2.Amaliy ta`lim mazmuni.

1-Mavzu: Maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati. (4 soat amaliy)

Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. Maktabgacha ta’lim tizimiga oid amalga oshirilayotgan ishlar. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari.

2-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlari. (4 soat amaliy)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarorlari, 2023-yil 26-maydagi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-79 sonli farmoni

3-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim sohasiga oid qabul qilingan qarorlarning ahamiyati. (4 soat amaliy)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 391-son qarori. 2020 yil 9 martdagi “Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 132-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini

tasdiqlash to'g'risida”gi 802-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi 867-sonli

IV. O‘QITISH VOSITALARI

1. Doska.
2. Markerlar.
3. Tarqatma materiallar.
4. Videoproektor.
5. Kompyuter.
6. Vatman qog‘ozi, magnit.
7. Slaydlar

V. NAZORAT SAVOLLARI

1. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering?
2. Alohida ta’lim olishga ehtiyojlari bo‘lgan bolalar kimlar?
3. Inklyuziv ta’lim va tarbiyaning huquqiy asoslari nimadan iborat?
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va undan chiqarish qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. Maktabgacha ta’lim tashkilotini qanday tartibda boshqariladi?
6. Maktabgacha ta’lim tashkilotining Kuzatuv kengashi vakolatlariga nimalar kiradi?
7. Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat ta’lim dasturining vazifalarini sanab bering?
8. Maktabgacha ta’lim tashkiloti turlarini sanab bering?
9. Jismoniy shaxslar tomonidan maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim xizmatlari ko‘rsatish qaysi tartibda amalga oshiriladi?
10 Maktabgacha ta’lim tashkilotining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
11. “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qaroriga izoh bering.
12 Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy printsiplari nimalardan iborat?
13 Maktabgacha ta’lim tashkiloti qanday tartibda boshqariladi?
14. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining huquqlari nimalardan iborat?
15. “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning mazmunini yoritib bering?

VI. ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -T.: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-yanvardagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4581-son Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-apreldagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5071-son Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-322-son Qarori
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79 son Farmoni
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang’ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-son Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Davlat maktabgacha ta’lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to‘lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 135-son Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy shekriklik munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 426-sonli Qarori.

1.2. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini o‘zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi. Uzluksiz ta’limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta’limni rivojlantirish, jamiyat va shaxs ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-yil maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3261-sonli qarorida belgilangan zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan rivojlanish va o‘zgarishlar bilan birgalikda, mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan rahbar va pedagog xodimlar lavozim majburiytlariga ham o‘ziga xos talablarni belgilab berdi.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan biri bu inson xavfsizligi, xususan hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash hisoblanadi. Mazkur ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2019-yil 8-mayda 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 867-sonli qarorlari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”dagi 410-sonli, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “MTT pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 99-sonli buyruqlari ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Mazkur o‘quv dastur: Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilarini tayyorlash jarayonida qo‘llaniladi.

Ushbu o‘quv modulda tinglovchining auditoriya o‘quv yuklamasi 18 soat bo‘lib, shundan:

nazariy mashg‘ulot - 6 soat;

amaliy mashg‘ulot - 12 soat.

MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hayot faoliyati xavfsizligi”.

2.2. Modul maqsadi: Tinglovchilarda pedagogik jarayon, mehnat faoliyatini tashkil etish xavfsizligi, MTTda hayot faoliyati xavfsizligini tashkil etish va tarbiyalanuvchilarda xavfsizlik ko’nikmalarini shakllantirishga doir bilim, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish.

2.3. Kutilayotgan natija: tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

Bilim	Ko‘nikma	Malaka
MTTda HFXni tashkil etish mazmuni, bolalar salomatligini muhofaza qilish va xavfsizligini ta’minlash qaratilgan jarayonalarni tashkil qilishning zamonaviy talablarini bilib oladi. MTTda mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta’minlash, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda xavfsizlik me’yorlarini bilib oladi.	MTTda xavfsizlik me’yorlari, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, hayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha olgan tegishli bilim va ko‘nikmalarni MTTda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo’ladi.	MTTda bolalar hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash, tarbiyalanuvchilarida hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishlari bo‘yicha malakaga ega bo’ladi.

2.4. Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1.	MTTda hayot faoliyati xavfsizligini tashkil etish	2	2	2	-	-	-
2.	MTTda xavfsizlikka qo'yiladigan talablar	2	2	2		-	-
3.	MTTda mehnat muhofazasini tashkil etish	2	2	-	2		
4.	Mustaqil faoliyatda bolalarni hayot faoliyati xavfsizligi bilan tanishtirish asoslari	2	2	2	-		
5.	Ta’limiy faoliyat jarayonida bolalarni hayot xavfsizligi bilan tanishtirish va tashkil etish shakllari	4	4		4		
6.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda yo'l harakati xafvsizligi ko'nikmalarini shakllantirish	2	2	-	2		
7.	Ekologik xavfsizlik, bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish	4	4		4		
Jami:		**18**	**18**	**6**	**12**	**-**	**-**

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy ta’lim mazmuni

1-mavzu: MTTda hayot faoliyati havfsizligini tashkil etish (2 soat)

Hayot faolyati xavfsizligi tushunchasi, mazmuni va mohiyati. MTTda HFXni tashkil etish asoslari.

2-mavzu: MTTda xavfsizlikka qo'yiladigan talablar (2 soat)

MTTda xavfsizlikka umumiy qo'yiladigan talablar. MTTda bolalar salomatligini muhofaza qilish va xavfsizligini ta’minlash ishlarini tashkil etish.

4-mavzu: Mustaqil faoliyatda bolalarni hayot faoliyati xavfsizligi bilan tanishtirish asoslari (2 soat)

HFX bo’yicha tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan faoliyat yo’nalishlari. Bolalarni xafvli vaziyatlarda o'zini tutish va hayotini himoya qilish qoidalari bilan tanishtirish.

3.2. Amaliy ta’lim mazmuni

3-mavzu: MTTda mehnat muhofazasini tashkil etish (2 soat)

Mehnat muhofazasini tashkil etish yo’riqnomasini yuritish tartibi. Pedagoglar va xodimlarni mehnat muhofazasi bo’yicha yo’riqnomadan o’tkazish.

5-mavzu: Ta’limiy faoliyat jarayonida bolalarni hayot xavfsizligi bilan tanishtirish va tashkil etish shakllari (4 soat)

Kundalik faoliyat xavfsizligi. Favqulodda vaziyatlarda o’z hayotini himoya qilish qoidalari bilan tanishtirish.

6-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda yo'l harakati xafvsizligi ko'nikmalarini shakllantirish

Bolalarga yo'l harakati qoidalarini o'rgatish ishlarini tashkil etish. Yosh xususiyatlariga ko’ra tarbiyalanuvchilarda yo’lda harakatlanish ko’nikmalarini shakllantirish.

7-mavzu: Ekologik xavfsizlik, bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish

Ekologik xavf-xatarlar haqida tushuncha. Tarbiyalanuchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini tashkil etish. Tarbiyalanuvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish asoslari.

IV. Nazorat savollari

1. MTTda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini sanab bering.
2. Xodimlarga yo’riqnoma berish qaysi me’yoriy huquqiy hujjat asosida amalga oshiriladi?
3. Xodimlarni kirish yo’riqnomasidan o’tkazish tartibini yoritib bering.
4. MTTda xavfsizlikka qanday umumiy talablar qo’yiladi?
5. MTT binosini jihozlashga qo’yiladigan talablarni sanab bering.
6. MTTda favqulodda vaziyatlarda amalga oshiriladigan xavfsizlik talablarini yoritib bering
7. Ta’lim-tarbiya faoliyatida bolalarni qanday xavfli va zararli omillardan ehtiyot qilish zarur?
8. Bolalarda hayot xavfsizligi ko’nikmalarini shakllantirish qanday amalga oshiriladi?
9. MTTlarida bolalarda HFX ko'nikmalarini shakllantirish dasturi nechta bo’limni o’z ichiga oladi?
10. Bolalarda yo’lda xavfsiz harakatlanish ko’nikmalari qanday shakllantirladi?
11. Bolalarda xavfsizlik malaкasini shakllantirishda qanday metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi?
12. Bolalarda sog'lom turmush tarzi asoslari qoidalari qanday rivojlantiriladi?
13. Bolalarda yo'l harakati qoidalarini shakllantirishning qanday usullarini bilasiz?
14. Bolalar asosan qaysi yo'l belgilarini bilishlari lozim?
15. Yo'l alifbosining mazmuni o'z ichiga qaysi materiallarni olishi kerak?
16. Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini aytib bering
17. Bolalarga jamoa transportida harakatlanish qoidalarini o'rgatish tartibini sanab bering
18. Yo'l harakati xafvsizligi ko'nikmalarini shakllantirishda ota-onalar bilan olib boriladigan hamkorlik faoliyati mazmuni nimalarni o'z ichiga oladi?
19. MTTda ekologik ta’limning mazmunini bayon eting.
20. MTTda ekologik tarbiyaning mazmunini bayon eting.
21. Tarbiyalanuvchilarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish maqsadi nimaga qaratiladi?
22. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ta’lim-tarbiya berish mazmuni qaysi davlat dasturlarida o‘z aksini topgan?
23. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni tarbiyalash tizimida olib boriladigan ishlarga nimalar kiradi?

24. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo‘llariga nimalar kiradi?

V. O‘qitish vositalari

1. Elektron doska
2. Tarqatma materiallar
3. O‘quv adabiyotlar
4. Kompyuter
5. Slaydlar

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni. -T.2019 y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti stategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni. – T.2022y.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4312-son Qarori. -T.2019 y.

4. O'zRning Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g'risida”gi 802-son qarori. –T.2020y.

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va Sog'liqni saqlash vazirliklarining «Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida nizom» 20/1, 10-qq/1-son qo'shma qarori. -T.2018y.

6. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish yuzasidan tavsiyalar. O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi. -T.2016 y.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 434-son Qarori. - T.2019 y.

8. Маханева М. Д. Воспитание здорового ребёнка: пособие для практических работников детских дошкольных учреждений. — М.: АРКТИ, 1997г.

9. Теркина Р.Б., Авдеева Н.Н., Князева О.Л, учебно – методическое пособие по основам безопасности, изд – во Детство – Пресс, 2005.

10. Белая К.Ю. Формирование основ безопасности у дошкольников, пособие для педагогов дошкольных учреждений и родителей. – М.: Мозаика – Синтез Москва, 2013г.

11. Гарнышева Т.П. ОБЖ для дошкольников. Планирование работы, конспекты занятий, игры, изд – во: Детство – Пресс, 2011г.

12. Казанцев Г. Безопасность жизнедеятельности в образовательных учреждениях // Основы безопасности жизни. – 2001. – № 9 . – С. 14-17

13. Шипунова В.А. "Детская безопасность", 2013 г.

14. Комплексная оценка результатов освоения программы "От рождения до школы" под редакцией Н. Е. Вераксы, Т. С. Комаровой, М. А. Васильевой. Диагностический журнал, 2013г.

15. Sodikova SH. Maktabgacha pedagogika. Darslik. To'ldirilgan qayta nashr. – T., 2017

1.3.UMUMIY PSIXOLOGIYA

KIRISH

Mazkur o‘quv dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi 867-sonli qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”gi 410-sonli buyrug’ini ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Umumiy psixologiya o’quv moduli orqali tinglovchi psixologiyaning asosiy predmeti va vazifasi xaqida, shaxsning shakllanishi, shaxsning faoliyati, uning ehtiyojlari, bilish jarayonlarining namoyon bo’lishi, va ularni boshqarish, shaxsda namoyon bo’ladigan individual psixologik xususiyatlar va ularning shaxsining faoliyatiga ta’siri xaqida aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan bo‘gliq malaka va ko’nikmalar hosil bo‘lishi uchun asosiy manba bo’lib xizmat qiladi.

“Umumiy psixologiya” o‘quv dasturi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti kasbiy qayta tayyorlash kurslari uchun mo‘ljallangan.

Ushbu o‘quv modulida tinglovchining o‘quv yuklamasi 42 soat, jumladan:
nazariy – 12 soat;
amaliy mashg‘ulotlar – 30 soat;

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Umumiy psixologiya”.

2.2. Modulning maqsadi. Tinglovchilarga umumiy psixologiya mazmuni bilan tanishtirishb, umumiy psixologiya to’g’risidagi tushunchalarga ega bo’ladilar va psixologik bilimlarini amaliyotga samarali tadbiq etadilar.

2.3.Kutilayotgan natija: Tinglovchilar mavzuni o‘zlashtirish jarayonida quyidagi ***bilimlarga*** ega bo‘ladilar:

Bilim	Ko‘nikma	Malaka
Umumiy psixologiya moduli, umumiy psixologiya nazariy va amaliy asoslari, umumiy psixologiyaning predmeti, maqsadi va vazifalari, umumiy psixologiyaning asosiy predmeti, asosiy tarmoqlari, va ilmiy tadqiqot usullari, psixologiyaning asosiy kategoriyalari, psixikaning namoyon bo’lishi va ong, faoliyat xaqida tushuncha va uning turlari, shaxs tushunchasi va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, bilish jarayonlari xaqida, shaxsning individual psixologik xususiyatlari va ularning shaxsining faoliyatiga ta’siri xaqida tushuncha bilimlarini oshirish.	Bo’lajak psixologlar inson psixologiyasini yaxshi bilishi, shaxsning bilish jarayonlarini namoyon bo’lishini va shaxs faoliyati, shaxsning individual psixologik xususiyatlari aniqlashga imkoniyat yaratish.	Psixologir shaxs faoliyati, shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash metodlarini qo’llash, shaxs haqida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va baholay olish.

2.4. Moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot	Ko‘ chma mashg‘ ulot	
1.	Umumiy psixologiya fanining predmeti, dolzarbligi, maqsadi va vazifalari	4	4	2	2		

2.	Umumiy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari	2	2		2		
3.	Bilish jarayonlari psixologiyasi: diqqat va sezgilar haqida umumiy tushuncha	4	4	2	2		
4.	Idrok, xotira va tafakkur inson faoliyatining asosi sifatida	2	2		2		
5.	Nutq va hayol jarayonlarining psixologik tuzilishi	2	2		2		
6.	Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari	4	4	2	2		
7.	Shaxsda temperament va xarakterini tadqiq etish yo‘llari	2	2		2		
8.	Shaxs qobiliyatlarining psixologik tuzilishi	2	2		2		
9.	Faoliyat psixologiyasi	4	4	2	2		
10	Psixologiyada motiv va motivatsiya tushunchalari	2	2		2		
11	Shaxsning emotsional-irodaviy xususiyatlari	4	4	2	2		
12	Shaxs emotsiyalarini psixologik o‘rganish usullari	2	2		2		
13	Shaxs insoniy munosabatlar tizimida	4	4	2	2		
14	Muomala texnikasi va strategiyasi	2	2		2		
15	Psixologiyada ijtimoiy ta’sir masalasi	2	2		2		
	Jami:	**42**	**42**	**12**	**30**		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy ta’lim mazmuni

1-Mavzu: Umumiy psixologiyaning predmeti, maqsadi, vazifalari (2 soat)

Umumiy psixologiyaning asosiy predmeti va vazifasi haqida tushuncha. Umumiy psixologiyaning kategoriyalari va tarmoqlari.

3-mavzu. Bilish jarayonlari psixologiyasi: diqqat va sezgilar haqida umumiy tushuncha (2 soat nazariy)

Bilish jarayonlari - diqqat, sezgi, xotira inson faoliyatining asosi sifatida. Bilish jarayonlari - idrok, tafakkur, hayol inson aqliy faoliyatining mezoni sifatida.

6-Mavzu: Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari (2 soat nazariy)

Shaxs, individ va individuallik. Shaxs individual-psixologik xususiyatlari. Individual-tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi haqidagi nazariy bilimlarni shakllantirish.

9-mavzu. Faoliyat psixologiyasi (2 soat nazariy)

Faollik va faoliyat haqida tushuncha. Faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi.

11-Mavzu: Shaxsning emotsional-irodaviy sifatlari (2 soat nazariy)

Hissiyot haqida tushuncha, hislarini namoyon bo‘lish shakllari. Iroda inson faoliyatining mexanizmi sifatida, shaxsning irodaviy sifatlari.

13-mavzu. Shaxs insoniy munosabatlar tizimida (2 soat nazariy)

Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Muloqotning psixologik tizimi: muloqotning kommunikativ tomoni; muloqot – interaktiv hamkorlik sifatida; muloqot – shaxslararo bir-birini idrok qilish ekanligi.

3.2. Amaliy ta’lim mazmuni

1-Mavzu: Umumiy psixologiya fanining predmeti, dolzarbligi, maqsadi va vazifalari (2 soat amaliy)

Mavzuni esga olish hamda uyga berilgan vazifalar hisoboti. Hozirgi zamon psixologiyasining tamoyillari. Psixologik trening o‘yinini o‘tkazish. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari.

2-Mavzu: Umumiy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari (2 soat amaliy)

Psixologiyaning asosiy metodlari. Psixologiyaning tadbiqiy va amaliy sohalari. Amaliy psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari. Maorif sohasidagi amaliy psixologik ishlar.

3-mavzu. Bilish jarayonlari psixologiyasi: diqqat va sezgilar haqida umumiy tushuncha (2 soat amaliy)

Bilish jarayonlari haqida umumiy tushuncha. Diqqat jarayonining psixologik tuzilishi. Sezgilar haqida umumiy tushuncha, sezgilar turlari. Sezgilarning psixologik mexanizmlari.

4 -Mavzu. Idrok, xotira va tafakkur inson faoliyatining asosi sifatida (2 soat amaliy)

Idrok haqida umumiy tushuncha. Idrok qilish qonunlari. Xotira va shaxs tajribasining ahamiyati. Xotiraning samaradorligi va eslab qolish qonunlari.Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati. Tafakkur turlari, shakllari va operatsiyalari. Fikrlashni rivojlantirish metodlari.

5-Mavzu: Nutq va hayol jarayonlarining psixologik tuzilishi (2 soat amaliy)

Nutq haqida tushuncha. Notiqlik va nutqni o‘stirish usullari. Hayol jarayonining psixologik mexanizmi.

6-Mavzu: Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari (2 soat amaliy)

Temperament haqida umumiy tushuncha. Xarakter haqida umumiy tushuncha. Qobiliyat haqida tushuncha.

7-Mavzu: Shaxsda temperament va xarakterni tadqiq etish yo‘llari (2 soat amaliy)

Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari. Temperamentni tadqiq etuvchi metodlar. Xarakter va shaxs. Xarakterni tadqiq etuvchi metodlar.

8-Mavzu: Shaxs qobiliyatlarining psixologik tuzilishi (2 soat amaliy)

Qobiliyatlarning psixologik strukturasi. Qobiliyatlardagi tug‘ma va orttirilgan sifatlar. Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi.

9-mavzu. Faoliyat psixologiyasi (2 soat amaliy)

Faoliyatning tarkibiy qismlari. Faoliyatning asosiy turlari.

10-Mavzu: Psixologiyada motiv va motivatsiya tushunchalari (2 soat amaliy)

Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi. Motivlarning turlari. Motivlarni diagnostika qilish metodlari.

11-Mavzu: Shaxsning emotsional-irodaviy sifatlari (2 soat amaliy)

Inson hissiyotlarining namoyon bo‘lish shakllari. Iroda inson faoliyatining mexanizmi sifatida, shaxsning irodaviy sifatlari diagnostikasi.

12-Mavzu: Shaxs emotsiyalarini psixologik o‘rganish usullari (2 soat amaliy)

Shaxs emotsional intellekti. Shaxs emotsiyalarini diagnostika qilish metodlari.

13-mavzu. Shaxs insoniy munosabatlar tizimida (2 soat amaliy)

Muloqotning kommunikativ, interaktiv hamda perpestiv tomonlarini psixologik ochib berish. Ijtimoiy-psixologik trening va muloqotni samarali tashkil etish masalasi

14-Mavzu: Muomala texnikasi va strategiyasi (2 soat amaliy)

Muloqotda ta’sir etish mexanizmlari. Muloqotda tinglash texnikasi. Amaliy muloqot treningi.

15-Mavzu: Psixologiyada ijtimoiy ta’sir masalasi (2 soat amaliy)

Muloqot jarayonida insonga psixologik ta’sir etish usul va texnikalari. Tushuntirish usullarnidan samarali foydalanish. Ishontirish usullaridan samarali foydalanish.

IV. O‘QITISH VOSITALARI

1. Flipchart qog‘ozi;
2. Markerlar;
3. Tarqatma materiallar;
4. Slaydlar;
5. Video roliklar va ko‘rgazmali diagnostik vositalar.

V. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3651-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3305-son qarori.
3. V.Karimova "Psixologiya". -T.2009.TDIU.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2010
5. Bodalev A.A, Stolin V.V. Общаya psixodiagnostika. SPb.: Rech, 2001 . Yo'ldoshev M, Nazarzoda N., Rahbarlik psixologiyasida axloq. Toshkent-2010
6. Nishonova Z.T.Psixologik xizmat. T., 2006
7. Boymurodov N. Raxbar psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma, «Yangi asr avlodi» Toshkent- 2007
8. Sattorov E.N., Alimov X.M. Boshqaruv muloqoti. Rahbarga psixologik yordam. Toshkent 2004 y

Elektron ta'lim resurslari

1. www.mdo.uz
2. www.bimm.uz
3. www.ziyonet.uz

1.4.UMUMIY PEDAGOGIKA

KIRISH

Umumiy pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborini qaratganligi bois didaktika va tarbiya nazariyasi fanining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogika tarbiya va ta'lim sohasiga tegishli bilimlar yig'indisi bo'lib, u tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va qonuniyatlarini, uning jamiyat hayoti va shaxs taraqqiyotidagi rolini, ta'lim jarayonini o'rganadi.

Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"

802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi 867-sonli qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”gi 410-sonli buyrug’ini ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu o‘quv dastur kasbiy qayta tayyorlash kursi mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy qayta tayyorlash kursi jarayonlarining mazmunini takomillashtirish va ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni taqozo etadi.

Modulning o‘quv dasturi kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasi asosida tuzilgan bo‘lib, “Umumiy pedagogika” fanining ta’lim jarayoniga tatbiq etishning mazmun mohiyatini ochib beradi.

Mazkur o‘quv dastur maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi yo’nalishi kasbiy qayta tayyorlash kursi jarayonida qo‘llaniladi.

Ushbu o‘quv moduli bo‘yicha jami auditoriya o‘quv yuklamasi 48 soat bo‘lib, shundan:

Nazariy mashg‘ulotlar - 12 soat

Amaliy mashg‘ulotlar - 36 soat

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Umumiy pedagogika”

2.2. Modulning maqsadi: Tinglovchilarga Umumiy pedagogika bo‘yicha dastlabki bilimlarni berish va ularni pedagogikaning bo‘limlari maqsad va vazifalari bilan tanishtirishdan iborat.

2.3. Kutilayotgan natijalar: tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar:

Bilimlar	Ko‘nikma va malakalar
Umumiy pedagogika to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘ladilar	Pedagogikaning umumiy asoslari; bola shaxsi tarbiya ob’ekti va sub’ekti sifatida; pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlarini biladilar
Umumiy pedagogika fanining mavzusi va bahsi. Umumiy pedagogika fanining maqsadi va vazifasi. Umumiy pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari. Umumiy pedagogika fanining yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashdagi o‘rni. Umumiy pedagogikaning asoslarida ifodalangan qonuniyatlar bilan taqqoslansa, ular o‘rtasidagi bog‘liqligi	Tarbiyaning maqsad va vazifalari, mazmuni; tarbiya qonuniyatlari, tamoyillari va metodlari; shaxs ma’naviyati va ma’naviy-axloqiy tarbiya; tarbiyalanuvchilarda fuqarolik tarbiyasini shakllantirish; jamoa va uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni; tarbiyada oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilikning hamkorligi yuzasidan

anglagan holda, maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillarni, tarbiyaning maqsad va vazifalari haqida ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.	bilimlarni egallaydilar.

2.4. Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy	Ko‘ chma	
1.	Pedagogikaning umumiy asoslari.	2	2	2			
2.	Pedagogika tarixi va uni tataqqiyoti	2	2	2			
3.	Didaktik ta’lim nazariyasi	4	4	2	2		
4.	O‘quv jarayonlarini tashkil etishning shakllari	2	2		2		
5.	O‘qitish metodlari	4	4		4		
6.	Tarbiya qonuniyatlari, tamoyillari va metodlari.	4	4		4		
7.	Shaxs ma’naviyati va ma’naviy-axloqiy tarbiya.	4	4	2	2		
8.	Ta’lim texnologiyalari	2	2		2		
9.	Tarbiya jarayonlarining mohiyati va uni jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni	2	2		2		
10.	Milliy tarbiya va uning mazmuni	2	2		2		
11.	Jamoa va uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni.	4	4	2	2		
12.	Tarbiyada oila, ta’lim tashkiloti va jamoatchilikning hamkorligi.	2	2		2		
13.	Didaktika ta’lim nazariyasi va amaliyoti asoslari	4	4		4		
14.	Zamonaviy ta’lim mazmuni va unga qo‘yiladigan talablar.	6	6	2	4		
15.	Ta’limni tashkil etish shakllari va turlari. Ta’lim metodlari va vositalari.	2	2		2		
16.	Pedagogik mahorat va uni amalga oshirish	2	2		2		
	Jami:	**48**	**48**	**12**	**36**		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy ta’lim mazmuni

1-Mavzu: Pedagogikaning umumiy asoslari (nazariy 2 soat)

Umumiy pedagogikaning fan sifatidagi ahamiyati. Umumiy pedagogikaning dolzarb masalalari.

2-Mavzu: Pedagogika tarixi va uni taraqqiyoti (nazariy 2 soat)

Sharq uyg‘onish davri pedagogikasi. Islomda pedagogik qarashlar

3-Mavzu: Didaktik ta’lim nazariyasi (nazariy 2 soat)

Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Didaktik tamoyillar.

7-Mavzu: Shaxs ma’naviyati va ma’naviy-axloqiy tarbiya (2 soat nazariy) Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mavzmuni. Mehnat tarbiyasi.

11-Mavzu: Jamoa va uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni (2 soat nazariy)

Bolalar jamoasini shakllantirish. Jamoaviy tarbiya metodlari

14-Mavzu. Zamonaviy ta’lim mazmuni va unga qo‘yiladigan talablar (2 soat nazariy)

Zamonaviy ta’limning o‘ziga xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim jarayonlarini tashkil etish.

3.2. Amaliy ta’lim mazmuni

3-Mavzu: Didaktik ta’lim nazariyasi (nazariy 2 soat)

Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Didaktik tamoyillar.

4-Mavzu. O‘quv jarayonlarini tashkil etishning shakllari (amaliy 2 soat)

Dars va mashg‘ulotlarga qo‘yiladigan talablar. Mashg‘ulotga tayyorlanish.

5-Mavzu: O‘qitish metodlari (amaliy 4 soat)

O‘qitish metodining nazariy asoslari. O‘qitish metodlarini tasnifi.

6-Mavzu: Tarbiya qonuniyatlari, tamoyillari va metodlari (4 soat amaliy)

Tarbiya usullari haqida tushuncha. Tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish.

7-Mavzu. Shaxs ma’naviyati va ma’naviy-axloqiy tarbiya (2 soat nazariy)

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mavzmuni. Mehnat tarbiyasi.

8-Mavzu. Ta’lim texnologiyalari (2 soat amaliy)

Ta’lim texnologiyasi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari.

9-Mavzu. Tarbiya jarayonlarining mohiyati va uni jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni (2 soat amaliy)

Tarbiya jarayonlarining mohiyati. Tarbiya qoidadalari.

10-Mavzu. Milliy tarbiya va uning mazmuni (2 soat amaliy)

Sharqona tarbiyaning o‘ziga xususiyatlari. Milliy tarbiyaning pedagogik asoslari.

11-Mavzu. Jamoa va uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni (2 soat amaliy)

Bolalar jamoasini shakllantirish. Jamoaviy tarbiya metodlari.

12-Mavzu. Tarbiyada oila, ta’lim mussasasi va jamoatchilikning hamkorligi
(2 soat amaliy)

Oila bilan hamkorlik. Jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik.

13-Mavzu. Didaktika ta’lim nazariyasi va amaliyoti asoslari (4 soat amaliy)

Didaktikaning predmeti va vazifalari. Didaktik tamoyillar.

14-Mavzu. Zamonaviy ta’lim mazmuni va unga qo‘yiladigan talablar (4 soat amaliy)

Zamonaviy ta’limning o‘ziga xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim jarayonlarini tashkil etish.

15-Mavzu. Ta’limni tashkil etish shakllari va turlari.Ta’lim metodlari va vositalari (2 soat amaliy)

Ta’limni tashkil etish turlari. Ta’lim vositalari.

16-Mavzu. Pedagogik mahorat va uni amalga oshirish (2 soat amaliy)

Pedagogik qobilyat. Pedagogik texnika.

IV. O‘qitish vositalari

1. Doska
2. Markerlar
3. Tarqatma materiallar
4. Videoproektor
5. Kompyuter
6. Vatman qog‘ozi, magnit
7. Slaydlar

V. ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 - son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-son qarori.
3. 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28 dekabrdagi “Pedagog xodimlarni kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1026-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13 maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son qarori.

6. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. – T.: 2018.

7. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – T.: 2018.

8. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini joriy etish bo‘yicha trenerlar uchun qo‘llanma. – T.:2019.

1.5. MAKTABGACHA YOSH DAVR PSIXOLOGIYASI

KIRISH

Bugungi kunga kelib, dunyo ta'lim tizimida zehnli, iqtidorli, qobiliyatli va ijodkor bolalarga ta'lim-tarbiya berish, hamda ularni jamiyat taraqqiyotiga tayyorlash muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda ayni paytda olib borilayotgan islohotlar o‘qituvchi va tarbiyachilarni tayyorlovchi qayta tayyorlash ta'lim muassasalarining shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgarishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tarbiyachilarning malakasini oshirish mazmuni va shakllarnini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi 867-sonli qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”gi 410-sonli buyrug’ini ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini sifatida bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar huquqiy savodxonligini

shakllantirishdagi o‘rni hamda, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta'kidlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bola huquqlariga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ta'lim sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

“Maktabgacha yosh davr psixologiyasi” modulining o‘quv dasturi maktabgacha ta'lim tashkilotlari kadrlarini kasbiy qayta tayyorlash kursining o‘quv rejasi asosida tuzilgan bo‘lib, u maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilariga bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini, rivojlanishi va faoliyatining psixologik tavsifi, ta'lim jarayoniga psixologik jihatdan tayyorlashning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Ushbu o‘quv modulda tinglovchining auditoriya o‘quv yuklamasi 18 soatdan iborat bo‘lib:

Nazariy mashg‘ulotlar - 6 soat;

Amaliy mashg‘ulotlar - 12 soat.

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Maktabgacha yosh davr psixologiyasi”.

2.2. Modulning maqsadi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisiga “Maktabgacha yosh davr psixologiyasi”ga oid bilimlar berish va amaliyotda qo‘llash kompetentsiyalarini rivojlantirishdan iborat.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

Bilim	Ko‘nikma	Malaka
Tinglovchilarga maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining hozirgi kundagi dolzarb muammolari, shuningdek maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining mazmun va mohiyati haqida ma'lumot berish	Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir yosh bosqichida o‘yin faoliyatini psixologik tashkil eta bilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar	Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini diagnostika qilish malakasiga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, shuningdek boshqa fanlar bilan bog‘liqligi hamda tadqiqot	Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘qish faoliyatini psixologik tashkil etish	Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini korrektsiyalash malakasiga ega bo‘ladilar

metodlari haqida ma'lumot berish	ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar	
Tinglovchilar go‘daklik davrining psixologik xususiyatlari hamda ilk bolalik davridagi rivojlanish va bolaning aqliy rivojlanishi haqida umumiy bilimlarga ega bo‘ladilar	Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat faoliyatini psixologik tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar	Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarda individual-psixologik xususiyatlardan:temperament, xarakter hamda qobiliyatlarni aniqlash hamda korrektsiyalash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar
Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi, ilk bolalik davrida shaxsning rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini psixodiagnostika qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi: bolalarning sezgisi, diqqati, xotirasi, idroki, tafakkuri, tasavvuri, hayoli va nutqini o‘stirish hamda rivojlantirish bo‘yicha bilim va malakalarga ega bo‘ladilar.

2.4. MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1.	Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining dolzarb muammolari, predmeti, maqsadi va vazifalari	2	2	2			
2.	Go‘daklik va ilk bolalik davr psixologiyasi	4	4	4			
3.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi	4	4		4		
4.	Bolani maktabga psixologik tayyorlash	4	4		4		
5.	Maktabgacha yoshda o‘yin faoliyatini qo‘llash	4	4		4		
	JAMI:	18	18	6	12		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. NAZARIY TA’LIM MAZMUNI

1-mavzu. Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining dolzarb muammolari, predmeti, maqsadi va vazifalari (nazariy 2 soat)

Reja:

1. Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining dolzarb muammolari
2. Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining mazmun va mohiyati
3. Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
4. Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi hamda tadqiqot metodlari

Tayanch tushunchalar: Maktabgacha yosh davr, alfa bolalar, psixik taraqqiyot, fanlar tizimi, ottogenez, akseleratsiya, metod, metodologiya.

Savollar:

1. Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining dolzarb muammolari nimalardan iborat?

2. Yangi avlodlar nazariyasi haqida aytib bering?

2. Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining mazmun va mohiyati nimalardan iborat?

3. Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini ayting?

4. Maktabgacha yosh davr psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi hamda tadqiqot metodlari haqida aytib bering?

2-mavzu. Go‘daklik va ilk bolalik davr psixologiyasi (nazariy 4 soat)

Reja:

1. Yosh davr psixologiyasi ontogenezi
2. Go‘daklik davriga xos psixologik rivojlanish
3. Ilk go‘daklik, 3-4 yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari
4. Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot.
5. 5-6 yoshdagi bolalar psixologik xususiyatlari
6. Ilk bolalik davrida qo‘llaniladigan psixologik metodikalar

Tayanch tushunchalar: go‘daklik, ilk bolalik, ontogenez, psixik jarayonlar, akseleratsiya,

Savollar:

1. Yosh davr psixologiyasi ontogenezi haqida aytib bering?
2. Go‘daklik davriga xos psixologik rivojlanish qanday kechadi?

3. Ilk go‘daklik, 3-4 yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?

4. Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot qanday kechadi?

5. 5-6 yoshdagi bolalarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?

3.2. AMALIY MASHG‘ULOTNING MAZMUNI

3–Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi (amaliy 4 soat)

1. Bolaning psixik jihatdan o‘sishi

2. Bolaning aqliy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishining psixologik tomonlari: turli munosabat shakllari va bilish faoliyatlariga tayyorlash

3. 3-5 yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini tadqiq etuvchi metodikalar

4. 5-6 yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini tadqiq etuvchi metodikalar

4-Mavzu: Bolani maktabga psixologik tayyorlash (amaliy 4 soat)

1. Bolalarni ta'lim jarayoniga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlari

2. Bolalarni yangi munosabat shakllariga va yangicha bilish faoliyatiga tayyorlash

3. Bolalarni maktabga tayyorlashda yangi psixologik texnikalarni qo‘llash amaliyoti

4. Bolalarni maktabga tayyorligini tekshirishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish

5-Mavzu: Maktabgacha yoshda o‘yin faoliyatini qo‘llash (amaliy 4 soat)

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida didaktik o‘yinlarning qo‘llanilishi

2. Bolaning psixologik rivojlanishida o‘yin faoliyatining ahamiyati

3. Yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan o‘yinlar

4. 5-6 yoshdagi bolalarning o‘yin mashg‘ulotlari

IV. NAZORAT SAVOLLARI

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi fanining predmeti maqsadi va vazifalari?

2. Maktabgacha yosh davrda muloqotning psixologik jihatlari?

3. Maktabgacha yoshdagi davrda asosiy faoliyat?

4. Maktabgacha yosh davrda shaxs shakllanishining psixologik asoslari nimalardan iborat?

5. Maktabgacha yoshdagi bolalar inqirozi?

6. 3-6 yoshdagi bolalarda asosan diqqatning qaysi turi shakllanadi?

7. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat tushunchasining mohiyatini izohlang?

8. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tushunchalarini qanday shakllantirish mumkin?

9. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlanishi?

10. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qanday o‘yin faoliyatlarini qo‘llash mumkin?

V. O‘QITISH VOSITALARI

1. Doska
2. Markerlar
3. Tarqatma materiallar
4. Videoproektor
5. Kompyuter
6. Vatman qog‘ozi, magnit,
7. Slaydlar.

VI. ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-595-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

3. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qaror. 2019-yil 8-may.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori.

5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta`lim agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘i

6. Nishanova Z. Alimova G. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” – T.: O‘qituvchi, 2006.

7. G‘oziyev ¬E.G‘. “Ontogenez psixologiyasi”. – T.: O‘qituvchi, 2009.

8. G‘oziyev ¬E.G‘. “Yosh davrlar psixologiyasi”. – T.: O‘qituvchi, 1994.

9. Rahmonov A. Jumanazarov Yo., Akbarov S. “Yosh davrlari psixologiyasi”. Namangan, 2009.

10. Maklakov A.G. Общаya psixologiya. SPb.: Piter, – 2001.

11. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – T.: Fan va texnalogiyalar, – 2010.
12. Yugay A.X. Общaya psixologiya. – T.: TDPU,2007.
13. David G.Mayers «Psychology». NY, 2010 Worth publishers.
14. Michel W. Eysenck, Mark T.Keane Cognitive psychology. Psychology pess USA, 2005.
15. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. M.G.Davletshin tahriri ostida. Toshkent. – 1974.
16. Nemov R.S. Psixologiya. Kniga 3. – M.: 2003.
17. Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya. Poznaniye sebya: vliyaniye na lyudey – M.: VLADOS, 2004. – 320 s.
18. Platonov K.K. Kratkiy slovarь sistemы psixologicheskix ponyatiy. - M.: Vыsshaya shkola, 1981. – 174 s.
19. Praktikum po obщey psixologii. – Sverdlovsk.: 1988.
20. Psixologiya. Qisqacha izohli lug‘at. – T.: 1998. – 45 b.
21. Psixologicheskiye testы. Tom 2. Pod redaktsiyey A.A.Kalerina. – M.: 1999.
22. Psixologiya individualьnыx razlichiy: Testы pod red. Yu.B.Gippenreyter, V.Ya.Romanova. – M.: 1982.
23. Tertelь A.L. Psixologiya. Kurs lektsiy: Uchebnik. posobiye. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. – 248 s.
24. www.mdo.uz
25. www.mdomoi.uz

1.6. BOLALAR PSIXODIAGNOSTIKASI

KIRISH

O‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish eng muhim shart hisoblanadi,buning uchun o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llash zarurdir. Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelayotgan shart-sharoitlar qayta tayyorlashning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son qarori,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi 867-sonli qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”gi 410-sonli buyrug’i va O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-agustdagi “Maktabgacha ta’lim tahkiloti pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli sonli buyrug’ini ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishining individual variantlari, maktabgacha yoshdagi bolalar xulqi motivlari, tortinchoqlik va uning ijobiy tomonlari, bolalar hayotida o‘yin faoliyatining ahamiyati, ularning psixologik xususiyatlari to‘g‘risida bilim, malaka va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish, yangilash modulning maqsadi hisoblanadi.

“Bolalar psixodiagnostikasi” modulining o’quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasi asosida tuzilgan bo‘lib, u tinglovchilarga bolalar psixodiagnostikasining asosiy metodlari, bolalarning bilish faoliyati diagnostikasi, bolalarni psixologik holatini to‘g‘ri diagnostika qilish, bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ega bo‘ladilar.

Mazkur o‘quv dastur kasbiy qayta tayyorlash kursi maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisi yo’nalishi tinglovchilari uchun mo’ljallangan.

Ushbu o’quv moduli bo’yicha jami auditoriya o’quv yuklamasi 18 soat bo’lib, shundan:

Nazorat soatlari -6

Amaliy mashg’ulot -12

I. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Bolalar psixodiagnostikasi”

2.2. Modul maqsadi: Tinglovchilarda bolalar psixodiagnostikasi bo’yicha bilim, bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini o’rganish va tahlil qilish bo’yicha muayyan bilim, tushunchalar berish va ularning bu boradagi bilim, ko’nikma hamda malakalarni takomillashtirishdan iborat.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Bilim	Ko'nikma	Malaka
Bola psixologik rivojlanishi taraqqiyotiga doir nazariy va amaliy bilimlarga hamda maktabgacha yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarga ega bo'ladilar	Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi predmeti, vazifalari, nazariy asoslari, psixodiagnostik metodikalar, bilish jarayonlari, intellektual qobiliyatlar, shaxslararo munosabatlar hamda bolalar va ota-onalarga psixologik maslahat berishni o'rganadilar.	Bola shaxsi shakllanishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatlari va shart-sharoitlari, shaxs nazariyalari, "Men" obrazi, va umuman bolalarga to'g'ri psixologik yondashuv malakasiga ega bo'ladilar.

1.4. Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg' ulot	Ko' chma mashg' ulot	
1.	Bolalar psixodiagnostikasi fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari	2	2	2			
2.	Maktabgacha tarbiya yosh davri bolalarning bilish sohasi psixodiagnostikasi	2	2	2			
3.	Maktabgacha tarbiya yosh davri bolalarning shaxsiy-irodaviy sohasi psixadiagnostikasi	2	2		2		
4.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarligining psixologik xususiyatlari	2	2		2		
5.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishidagi buzilishlarni psixodiagnostikasi	2	2		2		
6.	Uch yosh inqiroz davri psixologiyasi va psixodiagnostikasi	2	2		2		
7.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional sohasi psixodiagnostikasi	2	2		2		
8.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellekt darajasini tashxislash	2	2	2			
9.	Maktabgacha tarbiyachilarni rivojlantirishda diagnostika vositalarini qo'llash.	2	2		2		
	Jami:	**18**	**18**	**6**	**12**		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu: Bolalar psixodiagnostikasi fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari (2 soat nazariy)

Bolalar psixodiagnostikasi fani haqida tushuncha. Bolalar psixodiagnostikasi fani predmeti, maqsadi va vazifalari. Bolalar psixologiyasi fanining tadqiqot metodlari.

2-mavzu: Maktabgacha tarbiya yosh davri bolalarning bilish sohasi psixodiagnostikasi (2 soat nazariy)

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari va ularning rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish sohasi psixodiagnostik metodlar bilan tanishtirish.

3-mavzu: Maktabgacha tarbiya yosh davri bolalarning shaxsiy-irodaviy sohasi psixodiagnostikasi (2 soat amaliy)

Bolalarning shaxsiy-irodaviy sohasi haqida umumiy tushuncha.Maktabgacha tarbiya yosh davri bolalarning shaxsiy-irodaviy sohasi psixodiagnostikas

4-Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarligining psixologik xususiyatlari (2 soat amaliy)

Bolalarni ta'lim jarayoniga psixologik tayyorlash.Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlash, diagnostika metodlari.

5-Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishidagi buzilishlarni psixodiagnostikasi (2 soat amaliy)

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish sohasidagi buzilishlarni diagnostika metodlari mazmuni.

Bolalarning emosional sohasidagi buzilishlarni aniqlashda diagnostika metodlarini qo'llash.

6-Uch yosh inqiroz davri psixologiyasi va psixodiagnostikasi (2 soat amaliy)

Uch yosh inqiroz davri psixologiyasi. Uch yosh inqiroz davri psixodiag-nostikasi

7-Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional sohasi psixodiagnostikasi (2 soat amaliy)

Emosional soha rivojlanishidagi buzilishlar. Bolaning o'zgalar hissiyotlarini farqlashi va ularga mos ravishda javob berishni aniqlash

8-Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellekt darajasini tashxislash (2 soat nazariy)

Idrok va tafakkurning rivojlanganlik darajasini aniqlash. 6-7 yoshlilarni diognostik tekshirish.

9-Maktabgacha tarbiyachilarni rivojlantirishda diagnostika vositalarini qo'llash. (2 soat amaliy)

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixodiagnostik xususiyatlari. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda izchil nutqni diagnostikasi

IV. O'qitish vositalari

1. Doska;
2. Markerlar;
3. Tarqatma materiallar;
4. Slaydlar;
5. Elektron o’quv-metodik majmua.

V.Nazorat savollari

1. Bolalar psixodiagnostikasi modulining vazifalari nimalardan iborat?
2. Bolalar psixodiagnostikasi predmetining qanday metodlari mavjud?
3. Ilk bolalik davri taraqqiyotining o’ziga xos tomonlarini ta’riflab bering.
4. Shaxs psixik taraqqiyotida qanday inqiroz davlarini bilasiz?
5. Maktabgacha yosh davrida bola taraqqiyotining psixologik xususiyatlari haqida ma’lumot bering.
6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning bilish sohalaridagi o’zgarishlarni qaysi metodikalar yordamida aniqlash mumkin?
7. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning shaxsiy-irodaviy sohalaridagi o’zgarishlarni qaysi metodikalar yordamida aniqlash mumkin?
8. Bolalarning emosional sohasi haqida ma’lumot bering va diagnostik metodlarni misol keltiring.
9. Qanday emosional buzilishlar mavjud?
10. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda nimalarga e’tibor berish kerak?

VI. ADABIYOTVA MANBALAR RO’YXATI

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” T., 2017-y.
2. Z.Nishanova, G.Alimova. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi”.T.,2006 - y.
3. G‘oziyev E. “Psixologiya” T., 1994 -y.
4. V.Karimova, O.Hayitov, F.Akramova, N.Lutfullayeva. Psixologiya. Toshkent. T.: TDIU, 2007. – 435 b.
5. М.Г.Давлетшин ва бошқалар "Ёш даврлар ва ва педагогик психология" Т.ТДПУ. 2009.
6. *Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.
7. *Nemov R.S.* Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576

8. *Obuxova L.F.* Vozrastnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Vissheye obrazovaniye; MGPPU, 2006. – 460 s.

9. Psixodiagnostika i proforiyentasiya v obrazovatelnix uchrejdeniyax / Red. –sost. *L.D. Stolyarenko.* – Rostov n/D: Feniks, 2005. – 416

10. Slovar prakticheskogo psixologa // Sost. *S.Yu.Golovin.* – Minsk: Xarvest, M.: OOO "Izdatelstvo AST", 2003. – 800 s.

11. Рогов Е.И. Эмоции и воля. – М.: Владос, 2001.

12. Vyunova N.I. Psixologicheskaya gotovnost rebenka k obucheniyu v shkole. Ucheb.posobie. 2003. -951

1.7.MAKTABGACHA PEDAGOGIKA

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida" qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida gi PF-152 sonli farmoni, 2019-yil 8-maydagi "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" PQ-4312-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida" 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 867-sonli qarorlari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to'g'risidagi"dagi 410-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Maktabgacha pedagogika modulining namunaviy o‘quv dasturi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy qayta tayyorlash kursining ishchi o‘quv rejasiga asosida tuzilgan bo‘lib, u y maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi uchun maktabgacha ta'lim pedagogikasi mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Ushbu o‘quv modulda tinglovchining auditoriya o‘quv yuklamasi 48 soat bo‘lib, shundan:

Nazariy mashg‘ulotlar - 12 soat;
Amaliy mashg‘ulotlar - 36 soat.

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Maktabgacha pedagogika”

2.2. Modulning maqsadi: Pedagogikaning nazariy – metodologik asoslari. Milliy pedagogikaning mohiyati. Maktabgacha pedagogika tushunchasi. Maktabgacha pedagogika fanining mazmuni, predmeti va vazifalari. Pedagog-tarbiyachi shaxsini shakllantirish. Bugungi kunda murabbiy tarbiyachilarga qo‘yilgan zamonaviy talablar va vazifalar. Tarbiyachi va uni jamiyatda tutgan o‘rni. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash mazmuni va metodikasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash mazmuni va metodikasi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishiga tasir etuvchi omillar. Aqliy rivojlanish va aqliy tarbiya tushunchasi. Aqliy tarbiya mohiyati va mazmuni. Ahloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari.

Estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyati. Jismoniy tarbiyanining mohiyati va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari. Maktabgacha talimda qo‘llaniladigan o‘yinlar va ularni tashkil etish metodikasi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yin faoliyati. Bola faoliyatida o‘yinning asosiy turi sifatidagi o‘ziga xosligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab talimiga tayyorlash. Maktabgacha talim tashkiloti va maktab hamkorligi. Maktabgacha talim tashkilotlari va oila hamkorligi. Maktabgacha talim tashkilotida pedagogik jarayonni tashkil etish.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

Bilim	Ko‘nikma	Malaka
Tinglovchilarni maktabgacha pedagogikaga oid nazariy - metodologik asoslarni bilishi	Tinglovchilarni maktabgacha pedagogikada keltirilgan ilmiy-nazariy ma’lumotlarni ta’lim jarayonida qo‘llash ko‘nikmalarini egallaydilar.	Tinglovchilarni maktabgacha pedagogikada keltirilgan ilmiy-nazariy ma’lumotlarni ta’lim jarayonini loyihalashda qo‘llash malakalariga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning, individual xususiyatlari,o‘yin faoliyatining bola rivojlanishidagi o‘rni, bolalar jamoasi bola shaxsini shakllantirishning muhim shart-sharoitlarini biladilar	Bola shaxsi rivojlanishida qo‘llaniladigan metodlar hamda bolalarga ta’lim berishni bevosita o‘yin va o‘yin texnologiyalari asosida tashkil etish borasidagi ko‘nikmalarni egallaydilar	Bola shaxsi rivojlanishida qo‘llaniladigan metodlar hamda bolalarga ta’lim berishni bevosita o‘yin va o‘yin texnologiyalari asosida tashkil etish malakalariga ega bo‘ladilar.

O‘quv - tarbiya jarayonini tashkil etish, boshqarish va amalga oshirishning nazariy – amaliy asoslari ***biladilar***	Tinglovchilar maktabgacha pedagogikada keltirilgan ilmiy-nazariy ma’lumotlarni ta’lim jarayonida qo‘llash ko‘nikmalarini egallaydilar.	Maktabgacha pedagogikada keltirilgan ilmiy-nazariy ma’lumotlarni ta’lim jarayonida kreativ yondashuv asosida qo‘llash malakalariga ega bo‘ladilar.

2.4. Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1.	Maktabgacha pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari. Milliy tarbiyaning mohiyati	4	4	2	2		
2.	Maktabgacha pedagogika fanining mavzusi, uslubiyati va barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni	4	4	2	2		
3.	Zamonaviy pedagog xususiyatlari	4	4		4		
4.	Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv	4	4		4		
5.	Bolalar jamoasi bola shaxsini shakllantirishning muhim shart-sharoitlari	4	4	2	2		
6.	Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning nazariy asoslari. Aqliy ta’lim va tarbiya	2	2		2		
7.	Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish	2	2		2		
8.	Milliy-Ma'naviy tarbiya	4	4	2	2		
9.	Badiiy-ijodiy tarbiya. Estetik tarbiya	4	4		4		
10.	Tarbiyaning ijtimoiy asoslari. Mehnat tarbiyasi	4	4	2	2		
11.	Maktabgacha ta’lim va tarbiyada bolalar faoliyati turlari. O‘yin faoliyati	4	4	2	2		
12.	MTTda pedagogik jarayonni tashkil etish asoslari	4	4		4		
13.	Maktabgacha ta’lim va tarbiyada MTT va oila hamkorligi	4	4		4		
	Jami:	**48**	**48**	**12**	**36**		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy ta’lim mazmuni

1-mavzu: Maktabgacha pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari. Milliy tarbiyaning mohiyati (2 soat)

Maktabgacha pedagogikaning nazariy asoslari. Maktabgacha ta’lim metodologiyasi

2-mavzu: Maktabgacha pedagogika fanining mavzusi, uslubiyati va barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni (2 soat)

Maktabgacha pedagogika fanining yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashdagi o‘rni. Maktabgacha pedagogika uzluksiz ta’limdagi o‘rni.

5-mavzu: Bolalar jamoasi bola shaxsini shakllantirishning muhim shart- sharoitlari **(2 soat)**

Bola shaxsning rivojlanishi haqida tushuncha. Bolani rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Bola psixik taraqqiyotining yosh bosqichlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

Bolalar jamoasi haqida tushuncha. Bola shaxsini tarbiyalashning shart-sharoitlari. Bolalar jamoasining shakllanishiga yordam beruvchi omillar. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish.

8-mavzu: Milliy-Ma'naviy tarbiya (2 soat)

Milliy-ma'naviy tarbiya asoslari.Vatanparvarlik tarbiyasi. Axloqiy tarbiya haqida tushuncha Axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari. Axloqiy tarbiyaning vazifasi va tamoyillari.

10-mavzu: Tarbiyaning ijtimoiy asoslari. Mehnat tarbiyasi (2soat)

Tarbiyaning ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi haqida tushuncha. Bolalar mehnatining o‘ziga xos xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati. Mehnat tarbiyasining vazifasi va vositalari

11-mavzu: Maktabgacha ta’lim va tarbiyada bolalar faoliyati turlari. O‘yin faoliyati (2 soat)

Maktabgacha ta’lim va tarbiyada bolalar faoliyati turlari. O‘yin etakchi faoliyat turi sifatida. Maktabgacha ta’limda qo‘llaniladigan o‘yinlar va ularni tashkil etish metodikasi. MTTda tashkil etiladigan o‘yin turlari va shakllari.

3.2. Amaliy mashg‘ulotning mazmuni

1-mavzu: Maktabgacha pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari. Milliy tarbiyaning mohiyati (2 soat)

Maktabgacha pedagogika fanining mavzusi va bahsi. Maktabgacha pedagogika fanining maqsadi va vazifasi. Maktabgacha pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari. Maktabgacha pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

2-mavzu: Maktabgacha pedagogika fanining mavzusi, uslubiyati va barkamol insonni tarbiyalashdagi o‘rni (2 soat)

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning meyoriy asoslari. Maktabgacha pedagogikada zamonaviy innovatsion texnologiyalar.

3-mavzu: Zamonaviy pedagog xususiyatlari (4 soat).

Zamonaviy pedagog xususiyatlari. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilan ishlash. Tarbiyachining ma’naviy qiyofasi.

4-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv (4 soat)

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari

5-mavzu: Bolalar jamoasi bola shaxsini shakllantirishning muhim shart- sharoitlari (2 soat)

Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi. Bolalar jamoasini shakllantirishda o‘yin faoliyati.

6-mavzu: Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning nazariy asoslari. Aqliy ta’lim va tarbiya (2 soat)

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning nazariy asoslari. T’lim va tarboya tushunchalari, Tarbiya turlari. Aqliy tarbiyaning maisad va vazifalari. Aqliy tarbiya va ta’limning mohiyati.

7-mavzu: Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish (2 soat)

Maktabgacha yoshdagi bolada sog‘lom turmush tarziga rioya etish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Jismoniy tarbiyaning mohiyati va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari.

8-mavzu: Milliy-Ma'naviy Tarbiya (2 soat)

Milliy-Ma'naviy tarbiya. MTTida axloqiy tarbiya vositalari. Axloqiy tarbiya metodlari. Axloqiy odatlarni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari.

9-mavzu: Badiiy-ijodiy tarbiya. Estetik tarbiya (4 soat)

Badiiy-ijodiy tarbiya. Estetik tarbiyalashning vazifasi maqsadi va metodi.Estetek tarbiya vositalari.mazmuni, mohiyati va ahamiyati.

10-mavzu: Tarbiyaning ijtimoiy asoslari. Mehnat tarbiyasi (2soat)

Tarbiyaning ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi haqida tushuncha. Bolalar mehnatining o‘ziga xos xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati. Mehnat tarbiyasining vazifasi va vositalari

11-mavzu: Maktabgacha ta’lim va tarbiyada bolalar faoliyati turlari. O‘yin faoliyati (2 soat)

Maktabgacha ta’lim va tarbiyada bolalar faoliyati turlari. O‘yin etakchi faoliyat turi sifatida. Maktabgacha ta’limda qo‘llaniladigan o‘yinlar va ularni tashkil etish metodikasi. MTTda tashkil etiladigan o‘yin turlari va shakllari.

12-mavzu: MTTda pedagogik jarayonni tashkil etish asoslari (4 soat)

MTTda pedagogik jarayonni tashkil etish asoslari MTTdagi pedagogik jarayonni tashkil etish tamoyillari.

13-mavzu: Bola tarbiyasida MTT va oila hamkorligi (4 soat)

Bola tarbiyasida oilaning o‘rni. Maktabgacha talim tashkilotining oila bilan hamkorlikdagi faoliyati. Maktabgacha talim tashkilotining ota-onalar bilan

hamkorlikdagi ishining shakl va usullar. Ota-onalar bilan tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. Yangi O‘zbekistonda oilalarni farovonligini oshirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
2. Oilada bolani to‘g‘ri tarbiyalash shart-sharoitlari deganda nimani tushunasiz?
3. MTTning oila bilan ishlash shakllaridan misol keltiring.
4. Estetik tarbiya atamasi va tushunchasi
5. Estetik so‘zining ma’nosi nima?
6. Estetik tarbiya shakllarini aytib bering.
7. «Axloq» yoki «axloqiylik» nima va uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati qanday?
8. Ma’naviyat tushunchasining mazmuni.
9. Axloqiy tarbiya vazifasi.
10. Axloqiy tarbiya tamoyillari.
11. Aqliy tarbiya va ta’limning mazmunini ayting.
12. Aqliy rivojlanish deb, nimaga aytiladi.
13. Aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
14. Aqliy tarbiyaning metodologik asoslari.
15. Bolalar bilimlarni qanday jarayonlarda egallaydilar?
16. Bola shaxsini tarbiyalashning shart-sharoitlari.
17. Bola jamoasini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari.
18. Bolalar jamoasini tarbiyalash jarayonida qanday sifatlar takomillashadi?
19. Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta’riflang.
20. Quyidagi fikrlarga qo‘shilasizmi?.«Agar bolalar muntazam tanqid qilinsa, aldashga o‘rganadi»; «Agar bolalar qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilinsa, dunyoni go‘zal ko‘rishga o‘rganadi»; «Agar bolalarga xurmat bilan munosabatda bo‘linsa, ular olijanob va sahiy bo‘lishni o‘rganishadi».
21. Shaxs faoliyati haqida so‘zlab bering.
22. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tavsiflang.
23. Shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz.
24. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o‘rnini qanday tushunasiz?
25. Tarbiyachi - murabbiy to‘g‘risida mutaffakirlarimizning qarashlarini yoritib bering.
26. Tarbiyachi shaxsiga qanday talablar qo‘yilgan?
27. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining kasbiy malakasini tushuntirib bering.

V. O‘qitish vositalari

1. Doska
2. Markerlar

3. Tarqatma materiallar
4. Videoproektor
5. Kompyuter
6. Vatman qog‘ozi, magnit,
7. Slaydlar.

VI. ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, , 16.12.2019-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 3261-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ 3305-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ 4312-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ 3651-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘i.
11. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi.

Mualliflar guruhi-Toshkent:2022-yil.
12. “Ilm yo‘li” variativ dasturi (6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash).Mualliflar guruhi. Toshkent: 2019-yil.
13. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A’zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. – T.:Tafakkur, 2019-yil.
14. Saidova D.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish.O‘quv qo‘llanma.-T.:2022-yil.
15. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish. Mualliflar guruhi.Metodik qo‘llanma (birinchi nashr).Toshkent: 2020-yil.
12. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X. To‘xtaxo‘jayeva tahriri ostida. – T.: «Moliya-iqtisod», 2008.
13. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012 y. Toshkent, «Ilm-Ziyo» nashriyoti.
14. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedgogik oliy ta’lim muassasalari uchun). 2013 y.
15. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
http://www.google.co.uz
http://www.lex.uz
http://www.mdo.uz
http://www.mpe.uz
http://www.mdomoi.uz
http://play.google.com (Bebbo)
http://bolakadem.uz
https://innocentr.uz (Bilim makon)

1.8. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FIZIOLOGIYASI VA GIGIYENASI ASOSLARI

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi 867-sonli qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi

“Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”gi 410-sonli buyrug’ini ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasi va gigienasi asoslari” modulining o‘quv dasturi kasbiy qayta tayyorlash kursining o’quv rejasi asosida tuzilgan bo‘lib, modulni o‘rganish mobaynida tinglovchilar bola organizmining tuzilishini, bolaning jismoniy rivojlanishi va asab-ruxiy tizimining yoshga xos o‘zgarib borishi, bolalik davrlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularni o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur gigienik sharoitlar, bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillari: sog‘lomlashtirish, chiniqtirish tadbirlarini tashkil qilish va ratsional ovqatlantirish, bolalarda uchraydigan yukumli kasalliklarni oldini olish. Milliy emlash kalendari. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish asoslari haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

Ushbu o’quv dastur kasbiy qayta tayyorlash kurslari “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi” yo’nalishi uchun mo’ljallangan.

O‘quv modulida tinglovchining o‘quv yuklamasi 24 soat bo‘lib, shundan:

Jami auditoriya o‘quv yuklamasi – 24 soat

Jumladan:

Nazariy mashg‘ulotlar – 6 soat

Amaliy mashg‘ulotlar – 18 soat

II.MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasi va gigiyenasi asoslari”

2.2. Modul maqsadi: maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari kasbiy qayta tayyorlash kurslari tinglovchilariga bolalik davrlarining yoshga oid xususiyatlari to‘g‘risida bilim berish, bolaning kun tartibi va hayot muhitini, aniq tashkillashtirishda ushbu bilimlarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

Bilim	Ko‘nikma	Malaka
Tinglovchilarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida guruhlarda : “Maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasi va gigienasi asoslari” modulidan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari kasbiy qayta tayyorlash kurslari tinglovchilariga bolalik davrlarining yoshga oid xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berish	Tinglovchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari kasbiy qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari bolaning kun tartibi va hayot muhitini aniq tashkillashtirishda ushbu bilimlarni qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida tinglovchilarni nazariy va amaliy bilimlarini bog‘cha bolalariga ta’lim va tarbiya berishida tadbiq etishga tayyorlash va metodik ta’minlanishi haqida malakaga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga maktabgacha yoshidagibolalarni o‘sishi va rivojlanishi bolalarning salomatlik ko‘rsatkichlari, jismoniy rivojlanishi monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida ma’lumot berish	Tinglovchilar Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘sishi va rivojlanishi bolalarning salomatlik ko‘rsatkichlari haqida olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilar Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘sishi va rivojlanishi bolalarning salomatlik ko‘rsatkichlari haqida olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilar bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillari: sog‘lomlashtirish, chiniqtirish tadbirlarini tashkil qilish va ratsional ovqatlantirish haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.	Bolalarning sog‘lomlashtirish va chiniqtirish muolajalarini badantarbiya mashqlari, dush, havo vannalari, cho‘milish, suv quyish, artinish muolajalarni o‘tkazish haqida olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar	Tinglovchilar Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillari haqida olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar.
Bolalarda uchraydigan yukumli kasalliklar va ularni oldini olish. Milliy emlash kalendari. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish asoslari haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilar Maktabgacha yoshdagi bolalarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish asoslari tkazish haqida olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar	Tinglovchilar Maktabgacha yoshdagi bolalarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish asoslari tkazish haqida olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar

2.4. Moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot	Ko‘ chma mashg‘ ulot	
1.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘sishi va rivojlanishi	4	4	2	2		
2.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning asab-ruxiy rivojlanishi, asab tizimining o‘ziga xos xususiyatlari	4	4	2	2		
3.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning nafas va yurak qon-tomir tizimi a’zolari fiziologiyasi va gigienasi	2	2		2		
4.	Maktabgacha yoshdagi bolalar ovqat xazm qilish tizimi a’zolari fiziologiyasi va gigienasi	2	2		2		
5.	Maktabgacha yoshdagi bolalar tayanch –xaraka tizimi a’zolari fiziologiyasi va gigienasi	2	2		2		
6.	Maktabgacha yoshdagi bolalar sezgi a’zolarining fiziologiyasi va gigienasi	2	2		2		
7.	Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ratsional ovqatlantirish asoslari	4	4	2	2		
8.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sanitar-epidemiologik rejimni ta’minlash.	2	2		2		
9.	Bolalarda uchraydigan yukumli kasalliklar va ularni oldini olish. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish asoslari.	2	2		2		
	Jami:	24	24	6	18		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy ta’lim mazmuni

1. Mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘sishi va rivojlanishi

Maktabgacha yoshdagi bolalar organizmining anatomo-fiziologik hususiyatlari. Bolalik davrlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Bolalikni davrlari uchun xarakterli bo‘lgan morfofunksional o‘zgarishlar.

3-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning asab-ruxiy rivojlanishi, asab tizimining o‘ziga xos xususiyatlari

Oliy asab faoliyatining taraqqiy etishi, shartli reflekslarning yuzaga kelishi va shakllanishini kuzatish. bolalarning asab-ruxiy rivojlanishi bosqichlarini taxlil qilish.

7-Mavzu: Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ratsional ovqatlantirish asoslari.

Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillari. Tarbiyalanuvchilarni sog‘lomlashtirish, chiniqtirish tadbirlarini tashkil qilish Bolalarda ovqatlanish gigienasini shakllantirish

3.2. Amaliy mashg‘ulotning mazmuni

2-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘sishi va rivojlanishi

Bolalarning salomatlik ko‘rsatkichlari, jismoniy rivojlanishi monitoringini o‘tkazish. Bolalarda antropometriya o‘tkazish qoidalarini o‘rganish (bo‘y uzunligi, tana vazni, ko‘krak kafasini aylanasi) va natijalarni taxlil qilish.

4-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning asab-ruxiy rivojlanishi, asab tizimining o‘ziga xos xususiyatlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asab-ruxiy rivojlanishi monitoringini olib borish. Bolaning rivojlanish xaritalarida boladagi ijtimoiy, emotsional, bilish, idrok etish ko‘nikmalarini aks ettirib borish.

5-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning nafas va yurak qon-tomir tizimi a’zolari fiziologiyasi va gigienasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nafas va yurak qon-tomir tizimi a’zolari fiziologiyasi va gigienasi. Nafas va yurak qon-tomir tiziminig yosh xos xususiyatlari

6-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar ovqat xazm qilish tizimi a’zolari fiziologiyasi va gigienasi

Maktabgacha yoshdagi bolalar og‘iz bo‘shlig‘ida, meda va ichakda ovqat hazm bo‘lishiningxususiyatlari. Moddalar va energiya almashinuvining yosh xususiyatlari.

8-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar tayanch–xaraka tizimi a’zolari fiziologiyasi va gigienasi

Maktabgacha yoshdagi bolalar skeletining umumiy tuzilishi va yosh xususiyatlari. Maktabgacha yoshdagi bolalar tachnch xarakat tizimi gigienasi ko‘nikmalarini shakllantirish.

9-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar sezgi a’zolarining fiziologiyasi va gigienasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi analizatorlarning umumiy tuzilishi va ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarda eshitish va ko‘rish a’zolari gigienasi ko‘nikmalarini shakllantirish.

10-Mavzu: Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ratsional ovqatlantirish asoslari.

Bolalarning sog‘lomlashtirish va chiniqtirish muolajalarini badantarbiya mashqlari, dush, havo vannalari, cho‘milish, suv quyish, artinish muolajalarni o‘tkazish. Bolalarda ovqatlanish gigienasinishakllantirish.

11-Mavzu Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sanitar-epidemiologik rejimni ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotilarida sanitar-epidemiologik rejimni ta’minlash sanitariya qoida va me’yorlarining mazmun moxiyati. (San QvaM №0355-18 27.04.2018y.)

12-Mavzu: Bolalarda uchraydigan yukumli kasalliklar va ularni oldini olish. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish asoslari.

Bolalarda uchraydigan yukumli kasalliklar va ularni oldini olish. Milliy emlash kalendari.

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish asoslari.

IV. Nazorat savollari:

1. O‘zbekistonda “Onalik va bolalikni” ximoya qilish tizimi.
2. Bolalik davrlari o‘ziga xos xususiyatlari
3. Bola organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘sishi va rivojlanishi.
5. Chaqaloqlik davri (neonatal) xususiyatlari.
6. Ko‘krak yoshi davrining o‘ziga xos xususiyatlari.
7. Maktabgacha davrining o‘ziga xos xususiyatlari.
8. Maktab oldi yoshi davrining o‘ziga xos xususiyatlari.
9. Kichik maktab yoshi davrining o‘ziga xos xususiyatlari.
10. Bola rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillar.
11. Bolaning jismoniy rivojlanishini baxolash.
12. Bolalarda antropometriya o‘tkazish qoidalari.
13. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘sishi va rivojlanishi monitoringini olib borish.
14. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asab-ruxiy rivojlanishi, asab tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.
15. Bolalarda shartli reflekslarning yuzaga kelishi va shakllanishi.
16. Bola hayotida nutqning ahamiyati, nutq va harakat koordinatsiyasi uyg‘unligi. motor ko‘nikmalari.
17. Bog‘cha yoshigacha bo‘lgan davr (1-3 yoshgacha)da bolada yoshiga mos fiziologik o‘zgarishlar.

18. Maktab oldi davri (3-7yosh) bolaning asab-ruxiy tizimida yoshga xos o‘zgarishlar.

19. Oliy asab faoliyatining bolalarda taraqqiy etishi.

20. Bola ruhiyatining shakllanishi bosqichlari.

21. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nafas va yurak qon-tomir tiziminig yoshga xos xususiyatlari.

22. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ovqat xazm qilish tiziminig yoshga xos xususiyatlari.

23. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch xarakat tiziminig yoshga xos xususiyatlari.

24. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi a’zolarining yoshga xos xususiyatlari.

25. Maktabgacha ta’lim tashkilotilarida sanitar-epidemiologik rejimni ta’minlash sanitariya koida va me’yorlari.

26. Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillari.

27. Tarbiyalanuvchilarni sog‘lomlashtirish, chiniqtirish tadbirlarini tashkil qilish.

28. 2 - 3yoshli bolalarda chiniqtirish va sog‘lomlashtirish.

29. 4 - 5 yoshli bolalarda chiniqtirish va sog‘lomlashtirish.

30. 6 -7yoshli bolalarda chiniqtirish va sog‘lomlashtirish.

31. Bolalarning ratsional ovqatlantirish asoslari.

32. Bolalarda ovqatlanish gigienasini shakllantirish.

33. Bolalarda uchraydigan yukumli kasalliklar va ularni oldini olish.

34. Bolalarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish asoslari.

V.O‘qitish vositalari

Flipchart qog‘ozi;

Markerlar;

Tarqatma materiallar;

Rangli qog‘ozlar;

Yelim;

Qaychi

VI. ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-595-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

3. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qaror. 2019-yil 8-may.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori.

5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta`lim agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘i

6. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil (o`zbek va rus tillarida)

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha tarbiya tashkilotilariga qo‘yiladigan sanitariya va gigiena talablari. San MvaQ №0355-18. 27.04.2018y

Sharipova D.D. Agar bolam sog‘lom bo‘lsin desangiz. Toshkent – “ILM ZIYo” – 2016y.

G‘. Jalolov, S.Tursunov. «Bolalar kasalliklari va ularning anatomik-fiziologik xususiyatlari». Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. Toshkent. 2018.

D.D. Sharipova va boshqalar. Kelajak avlodni sog‘ligini saqlash sizning qo‘lingizda. Toshkent, 2019.

D.D Sharipova va boshq. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish maqsadida uzluksiz ta’lim tizimida sog‘liqni saqlash-texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2014y.

Ismoilov M.N. Bolalar va o‘smirlar gigienasi. Toshkent 2016y.

Sharipova D.D.Arbuzova T.L. Vozrastnaya fiziologiya i gigiena. Toshkent 2019-y.

1.9. “MAKTABGACHA TA’LIMDA INNOVATSIYALAR VA XORIJIY TAJRIBALAR

KIRISH

Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birinchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan maktabgacha ta’limning rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Qisqa davr ichida sohani rivojlantirishning huquqiy bazasi yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi 867-sonli qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”gi 410-sonli buyrug’ini ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Mazkur o‘quv dasturda maktabgacha ta’lim tizimida ilg‘or xorijiy tajribalar, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishda innovatsion usullar va samarali zamonaviy pedagogik amaliyotlar, ilg‘or pedagogik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kasbiy qayta tayyorlash kursining ta’lim jarayoniga keng joriy etish ko‘zda tutilgan.

Ushbu namunaviy o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachisi kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilarini tayyorlash jarayonida qo‘llaniladi.

“Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar” o‘quv modulida tinglovchining auditoriya o‘quv yuklamasi 24 soat bo‘lib, shundan:

nazariy mashg‘ulotlar - 6 soat

amaliy mashg‘ulotlar - 18 soat qilib belgilangan.

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar

2.2. Modulning maqsadi: tinglovchilar maktabgacha ta’limdagi innovatsion ta’lim texnologiyalari, o‘qitishning innovatsion shakl, metod va vositalari, pedagogik kompetentlik sifatlari hamda maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tajribalarni samarali o‘zlashtirilishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

2.3. Kutilayotgan natijalar: tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar:

- maktabgacha ta’limda innovatsiyalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari, innovatsion ta’lim shakl, metod va vositalari, pedagogik kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlar, pedagogik mahorat asoslari va tarkibiy qismlari, maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tajribaning o‘rni kabi tushuncha va ma’lumotlar haqida **bilimga ega bo‘ladilar;**
- maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;
- interfaol ta’lim texnologiyalariga asoslangan o‘quv jarayonini loyihalash va rejalashtirish;
- shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish;
- interfaol ta’lim texnologiyalari (amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, blended learning (aralash o‘qitish), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar texnologiyasi)ni maktabgacha ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etish;
- kasbiy kompetentlik sifatlarini farqlash;
- pedagogik mahorat tarkibiy qismlarini amaliy tarzda qo‘llash;
-amaliy tajribada xorijiy ish namunalari, texnologiyalaridan foydalanish **ko‘nikmalarini egallaydilar;**
-innovatsion ta’lim texnologiyalarining oqilona tanlab olish;
- mutaxassislik bilan bog‘liqlikda innovatsion ta’lim texnologiyalarini real amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga erishish;
- innovatsion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- xorijiy tajriba asnosida innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish **malakalarini egallaydilar.**

2.4. Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi	
			Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar: mohiyati, nazariy asoslari va turlari	4	2	2
2.	Maktabgacha ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va innovatsion ta’lim shakl, metod va vositalari	6	2	4
3	Maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tajriba: qiyosiy tahlil	6	2	4
4	Pedagogik kompetentlik sifatlarinirivojlantirish	4		4
5	Pedagoglarda kasbiy mahoratni takomillashtirish	2		2
6	Pedagoglarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish	2		2
	Jami	**24**	**6**	**18**

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy ta’lim mazmuni

1-mavzu: Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar: mohiyati, nazariy asoslari va turlari

Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari. Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati.

2-mavzu: Maktabgacha ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va innovatsion ta’lim shakl, metod va vositalari

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari turlari. Ta’limning innovatsion shakllari: amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol darslar, masofali o‘qitish, blended learning (aralash o‘qitish), mahorat darslari. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion metodlar va vositalar.

3-mavzu: Maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tajriba: qiyosiy tahlil

Xorijiy davlatlar maktabgacha ta’lim tizimi haqida ma’lumotlar. Zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi xorijiy ilg‘or tajribalar.

3.2. Amaliy ta’lim mazmuni

1-mavzu: Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar: mohiyati, nazariy asoslari va turlari

Ta’lim tizimining modernizatsiyasi va pedagogik texnologiyalar mohiyatiga oid blis-so‘rov. Kichik guruhlarda maktabgacha ta’lim tizimining modernizatsiyasining ahamiyatini yorituvchi “Ikki sahifali kundalik”ni shakllantirish. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish. Mavzuga oid darajali testlarni yechish.

2-mavzu: Maktabgacha ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va innovatsion ta’lim shakl, metod va vositalari

Maktabgacha ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llanilishining ahamiyati. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish. Mavzuga oid darajali testlarni yechish. MTTda ta’limiy-tarbiyaviy jarayonda ta’limiy (didaktik) o‘yinlardan foydalanish borasida o‘zaro tajriba almashish. MTTlarning ta’limiy-tarbiyaviy jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash yuzasidan mahorat darslarini tashkil etish.

3-mavzu:Maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tajriba: qiyosiy tahlil

Xorijiy davlatlar maktabgacha ta’lim tizimi haqida ma’lumotlar. Zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar.

4-mavzu: Pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish

Mavzuga oid “Kichik esse” yozish. “Individual rivojlantirish dasturi” bo‘yicha ishlash. “Kasbiy rivojlanish shkalasi” asosida tinglovchilarning pedagogik kompetentligi darajasini baholash. “O‘z-o‘zini rivojlantirishning 36 qoidasi” asosida tarbiyachi-pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

5-mavzu: Pedagoglarda kasbiy mahoratni takomillashtirish

Mavzuga oid tushunchalar mohiyatini o‘rganish. Shaxsning pantomimik harakatlari va jestlari mohiyati bilan tanishish. M.Snayderning “Muloqot jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish” nomli testi asosida tinglovchilarning kommunikati kompetentlikka egaliklarini aniqlash. Pedagoglarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantiruvchi amaliy mashqlarni bajarish.

6-mavzu: Pedagoglarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish

Maxsus testlar yordamida pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini o‘rganish. Pedagogik kreativlikni rivojlantirishga doir topshiriqni bajarish. E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi bilan ishlash. Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari bilan tanishish va u yuzasidan muhokama tashkil etish.

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. Maktabgacha ta’limda nnovatsiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Innovatsiya tushunchasininig mohiyatini yoritib bering?
3. Innovatsiyaning rivojlanishi bosqichlarini qaysilar?

4. Innovatsion jarayon deganda nimani tushunasiz?
5. Maktabgacha ta’limda innovatsion jarayonni qanday izohlaysiz?
6. Innovatsion faoliyat deganda nimani tushunasiz?
7. Maktabgacha ta’limda innovatsion faoliyatni o‘rni va ahamiyati.
8. Innovatsion muhit deganda nimani tushunasiz?
9. Maktabgacha ta’limda innovatsion muhit o`z ichiga nimalarni qamrab oladi?
10. Modernizatsiya” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
11. “Ta’lim tizimining modernizatsiyasi” deganda nimani tushanasiz?
12. Ta’lim tizimining modernizatsiyalashda qanday vazifalar hal qilinadi?
13. Ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?
14. Innovatsiya nima?
15. Innovatsion ta’lim qanday ta’lim sanaladi?
16. Ta’lim innovatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
17. Ta’lim innovatsiyalarining qanay turlari mavjud?
18. Nimalar innovatsiyalarning asosiy ko‘rinishlari sanaladi?
19. Novatsiya va innovatsiyaning asosiy farqlari nimalarda ko‘rinadi?
20. Innovatsion jarayonlar qanday yondashuvlar asosida tashkil etiladi?
21. Innovatsion faoliyat nima va unga qanday belgilar xos?
22. Innovatsiyalarni asoslash qanday bosqichlarda kechadi?
23. Ta’lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish qanday bosqichlarda kechadi?
24. Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror topish qanday bosqichlardan iborat?
25. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nima?
26. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning qanday turlari mavjud?
27. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari qanday didaktik imkoniyatga ega?
28. Amaliy o‘yinlarning zamonaviy ta’lim uchun ahamiyati qanday?
29. Amaliy o‘yinlarning qanday turlari mavjud?
30. Muammoli o‘qitish qanday shartlar asosida samarali tashkil etiladi?
31. Interfaol ta’lim qanday vazifalarni amalga oshiradi?
32. Masofali o‘qitish qanay tamoyillarga asoslanadi?
33. Blended learning (aralash o‘qitish) qanday tashkiliy-didaktik imkoniyatga ega?
34. Mahorat darslari nima va ular qandan tashkil etiladi?
35. Shaxsan ciz faoliyatingizda qanday interfaol metodlarni qo‘llaysiz?
36. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida qanday innovatsion xarakterga ega vositalar qo‘llanilmoqda?
37. O‘quv loyihasi nima va uning qanday turlari mavjud?

38. Tinglovchilarning o‘quv faoliyatlarini nazorat qilishda o‘quv portfoliosi qanay ahamiyat kasb etadi?

39. Germaniya MTMlari bilan O‘zbekiston MTMlarining farqi.

40. Yaponiyada maktabgacha ta’lim tizimi.

41. Singapurda maktabgacha ta’lim tizimi

42. Singapur MTM lari bilan O‘zbekiston MTM larining farqli jihatlari.

43. Xitoyda maktabgacha ta’lim tizimi.

44. Janubiy Koreyaning maktabgacha ta’lim tizimi.

45. Janubiy Koreya MTTlari bilan O‘zbekiston MTTlarining o‘xshash va farqi.

V. O‘QITISH VOSITALARI

8. Doska
9. Markerlar
10. Tarqatma materiallar
11. Videoproyektor
12. Kompyuter
13. Flipchart qog‘ozi, magnitlar
14. Skotch, stikerlar
15. Taqdimot (Power Point)
16. Videoroliklar
17. Keyslar

VI. ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

6.1. Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3651-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi

“Maktabgacha ta’lim sohasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish uchun eksperimental maydonchalarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-son Qarori.
8. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta`lim agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘i.
9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi 1-MH son buyrug‘i.
10. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil (o`zbek va rus tillarida).
11. Qodirova F.R. va boshq. “Maktabgacha pedagogika”, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2019, 159 bet.

6.2. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. A. Meliboyev, Sh.Zarmasov. L To‘raqulov. Maktabgacha ta’lim jarayonini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T. “Fan va texnologiya”, 2015,76 bet.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: “Nihol” nashriyoti, 2016, 279b.
3. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A “O‘yin orqali ta’lim berish” Uslubiy qo‘llanmasi, T – 2020
4. Qilichova M.X. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari. Journal American. (SJIF)Impact Factor-5.714. —Current research journal of pedagogies. Pp. 241-246

Elektron ta’lim resurslari:

http://www.google.co.uz
http://www.lex.uz
http://www.mdo.uz
http://www.mpe.uz
http://www.mdomoi.uz

1.10. ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TALABLARI

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ 637-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ 595-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi 867-sonli qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”gi 410-sonli buyrug’ini va O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish xujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘ining ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” asosida bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda maktabgacha ta’limning mazmuni va tashkil etilishida, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan talablarni amalga oshirish doirasida maktabgacha ta’lim tashkilotarida o‘quv jarayonini samarali rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishda bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining jarayonlari mazmunini takomillashtirish, muntazam yangilab borishni taqozo etadi.

Ushbu o‘quv modulda tinglovchining auditoriya o‘quv yuklamasi 18 soat bo‘lib, shundan:

Nazariy mashg‘ulotlar - 6 soat;

Amaliy mashg‘ulotlar - 12 soat.

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari.

2.2. Modulning maqsadi: Tinglovchilarga Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyillari, rivojlanish sohalari, ularga taalluqli kichik sohalarda

belgilangan ko‘rsatkichlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

Bilim	**Ko‘nikma**	**Malaka**
Tinglovchilarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi va asosiy vazifalari va tamoyillari to‘g‘risida ma’lumot berish.	Tinglovchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi va tamoyillari asosida belgilangan vazifalari amalga oshirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi va tamoyillari asosida belgilangan vazifalari amalga oshirish bo‘yicha malakaga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar hamda ularga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida ma’lumot berish.	Tinglovchilarda “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilarda “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning samarali usullari bo‘yicha malakaga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar hamda ularga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida ma’lumot berish.	Tinglovchilarda “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilarda “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning samarali usullari bo‘yicha malakaga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga “Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar hamda ularga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida ma’lumot berish.	Tinglovchilarda “Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilarda “Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning samarali usullari bo‘yicha malakaga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar hamda ularga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida ma’lumot berish.	Tinglovchilarda “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilarda “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning samarali usullari bo‘yicha malakaga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga “Ijodiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar hamda ularga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida ma’lumot berish.	Tinglovchilarda “Ijodiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilarda “Ijodiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning samarali usullari bo‘yicha malakaga ega bo‘ladilar.

2.4. Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1.	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi va asosiy vazifalari	**2**	2	2			
2.	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining asosiy tamoyillari	**2**	2		2		
3.	“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar	**2**	2		2		
4.	“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar mazmuni	**2**	2		2		
5.	“Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar	**2**	2	2			
6.	“Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari” sohasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish	**2**	2		2		
7.	“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar	**2**	2	2			
8.	“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish	**2**	2		2		
9.	“Ijodiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar	**2**	2		2		
	Jami:	**18**	**18**	**6**	**12**		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy ta’lim mazmuni

1-mavzu: Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi va asosiy vazifalari.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarining mazmuni. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarining maqsad va vazifalari.

5-Mavzu. “Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar.

“Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari” sohasi va uning asosiy maqsadi. “Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari” sohasiga taalluqli kichik sohalar va ularga qo‘yiladigan talablar.

7-Mavzu. “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi va uning asosiy maqsadi. “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasiga taalluqli kichik sohalar va ularga qo‘yiladigan talablar.

3.2. Amaliy mashg‘ulotning mazmuni

2-Mavzu. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining asosiy tamoyillari.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining tamoyillari. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining asosiy tamoyillari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish.

3-mavzu: “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush” tarzining shakllanish sohasi va unga taalluqli kichik sohalar.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush” sohasi va uning asosiy maqsadi. “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush” sohasiga taalluqli kichik sohalar va ularga qo‘yiladigan talablar.

4-mavzu: “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar mazmun.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi va uning asosiy maqsadi. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasiga taalluqli kichik sohalar va ularga qo‘yiladigan talablar.

6-Mavzu. “Nutq, muloqot, o‘qish va ozish malakalari” sohasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish.

“Nutq va til” va “O‘qish malakalari” kichik sohalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish. “Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi” kichik sohasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish.

8-Mavzu. “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish.

“Intellektual-anglash malakalari” kichik sohasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish. “Elementar matematik malakalar” kichik sohasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish. “Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat” kichik sohasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish.

9-Mavzu. “Ijodiy rivojlanish” sohasi va unga taalluqli kichik sohalar.

“Ijodiy rivojlanish” sohasi va uning asosiy maqsadi. “Ijodiy rivojlanish” sohasiga taalluqli kichik sohalar va ularga qo‘yiladigan talablar.

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari qanday hujjat?
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi nima?
3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining asosiy vazifalarini aytib bering.
4. Davlat talablari asosidagi yosh davrlari qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
5. Bolalarda kutilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatkichi nima deb ataladi?
6. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining asosiy tamoyillarini aytib bering.
7. Bola rivojlanishidagi aniq bir yo‘nalishlar nima deb ataladi?
8. Bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik nima deb ataladi?
9. Sensomotorikani rivojlantiruvchi o‘yinlarga misollar keltiring.
10. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan beshta rivojlanish sohasini aytib bering.
11. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasining kichik sohalari mazmunini ta’riflab bering.
12. “Men” konsepsiyasini izohlab bering.
13. Qo‘l barmoqlarining mayda motorikasi tegishli ko‘rsatkichlarni aytib bering
14. “Nutq va til” va “O‘qish malakalari” “Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi” kichik sohalari qaysi sohaga tegishlii?
15. Nutq va til kichik sohasiga qanday talab qo‘yilgan?
16. O‘qish malakalari kichik sohasi asosida bolalarni kitob o‘qishga qanda qiziqtirish mumkin?
17. 6-7 yoshli bolalarda nutq va til kichik sohasi bo‘yicha qanday indekatorlar rivojlanishi kerak?
18. Qo‘l barmoqlari mayda motorikasini rivojlantirishga oid misollae keltiring.
19. Elementar matematikani shakllantiruvchi o‘yinlarga misollar keltiring.
20. Intellektual-anglash malakalari kichik sohasiga qanday talab qo‘yilgan
21. Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat kichik sohasi asosida 6-7 yoshli bolalar qanday tajribalar o‘tkazish munkin?
22. 6-7 yoshli bolalarda intellektual-anglash malakalari l kichik sohasi bo‘yicha qanday indekatorlar rivojlanishi kerak?

23. 5-6 yoshli bolalarda elementar matematik malakalar kichik sohasi bo‘yicha qanday indekatorlar rivojlanishi kerak?
24. 3-4 yoshli bolalar qanday gemetrik shakllarni bilishi kerak?
25. San’at va madaniyatga qiziqishini namoyon qilish qaysi sohaga tegishdi?
26. "Ijodiy rivojlanish" sohasining kichik sohalarini ayting.
27. Tasviriy faoliyat turlari qaysilar?

V. O‘qitish vositalari

1. Doska
2. Markerlar
3. Tarqatma materiallar
4. Videoproektor
5. Kompyuter
6. Vatman qog‘ozi, magnit,
7. Slaydlar.

VI. ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ 595-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ - 4312-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28-dekabrdagi “Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1026 sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi “Reabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan Davlat ixtsoslashtirilgan ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 510-sonli qarori.
7. Maktabgacha ta’lim vazirining 2021-yil 12-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 128-sonli buyrug‘i.
8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “MTT pedagoglarining ish xujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i.

9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim Agentligining 2023-yil 9-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘i.

10. O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (2-nashr), 2022-yil.

11. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (kichik guruh).

12. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (o‘rta guruh).

13. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh).

14. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (maktabga tayyorlov guruh).

1.11. ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURINING MAZMUN MOHIYATI

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi “Reabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ixtsoslashtirilgan ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 510-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi 867-sonli qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”gi 410-sonli buyrug’i va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Shuningdek, mazkur dastur kasbiy qayta tayyorlash kurslari mazmuni, sifati, ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida kasbiy qayta tayyorlash jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni taqozo etadi.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini joriy etish” modulining o‘quv dasturi Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi yo’nalishi kasbiy qayta tayyorlash kursi jarayonida qo‘llaniladi.

Ushbu o‘quv modulida tinglovchining auditoriya o‘quv yuklamasi 18 soat bo‘lib, shundan:

Nazariy mashg‘ulotlar	– 6 soat
Amaliy mashg‘ulotlar	– 12 soat

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: "Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturini mazmun mohiyati.

2.2. Modul maqsadi: tinglovchilarga “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini mazmun mohiyatiga oid bilimlar berish va amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalarining haftalik mavzuli reja asosida tashkil etilayotgan ta’limiy faoliyatga integratsiyani ta’minlagan holda maqsadlarni to‘g‘ri belgilash to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

Bilim	Ko‘nikma	Malaka
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 802-sonli qarori bilan o‘z tasdig‘ini topgan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablaridan foydalanib, ta’limiy faoliyatning maqsadini integratsiyalashgan yondashuv asosida tanlash haqida bilimlarga ega bo‘ladi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini hayotga tatbiq etish to‘g‘risida, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda rejalashtirish turlari: yillik mavzuli va haftalik reja, bir kunlik ish reja mazmuni, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yila-digan Davlat talablaridagi rivojlanish sohalarini o‘zaro bog‘lanishini nazarda tutib mashg‘ulot ishlanma tayyorlash.	“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlan-ishiga qo‘yiladigan Davlat talablaridan foydalanib, ta’limiy faoliyatning maqsadini integratsiya-lashgan yondashuv asosida belgilashni o‘rganadi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida guruhlarda rivojlanish markazlarining faoliyatini tashkil etishni o‘rganadi. Davlat o‘quv dasturida belgilangan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondas-huv asosida rivojlanish sohalariaro integratsiyani ta’minlaydi. Shaxsga yondashuv tamoyillarining ta’limiy jarayonda muhim-ligini anglaydi. Rivojla-nish markazlarida olib boriladigan ta’limiy-tarbiyaviy jarayonlarni tahlil qiladi.	“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini joriy etilishini nazorat qilibqiladi, vazifalar yuzasidan taklif va tavsiyalar beradi. Shaxsga yondashuv tamoyillarini ta’limiy jarayonda qo‘llaydi. Bola rivojlanish xaritasining yuritilishini nazorat qiladi, amalga oshirilgan vazifalar yuzasidan taklif va tavsiyalar beradi.

2.4. Moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot	Ko‘ chma mashg‘ ulot	
1.	Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish	2	2	2			

2.	Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv.	2	2	2			
3.	“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish	2	2	2			
4.	“Ilk qadam”davlat o‘quv dasturi asosida guruhlarda rivojlanish markazlarini tashkil etish	2	2		2		
5.	Umumiy guruhlarda ta’lim jarayonini tashkil etish va ularni olib borish tartibi	2	2		2		
6.	“Ilk qadam” dasturini bajarilishini ta’minlash maqsadida pedagogik jarayonni metodik ta’minlash	2	2		2		
7.	Guruhlardagi ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatni kuzatish va tahlil qilish	2	2		2		
8.	Davlat o‘quv dasturi asosida guruhlarda rivojlanish markazlarining jihozlanishini kuzatish va tahlil etish	2	2		2		
9.	Bola rivojlanish xaritasining yuritilishini o‘rganish va tahlil qilish	2	2		2		
	Jami:	**18**	**18**	**6**	**12**		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar mazmuni

1-Mavzu. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish

Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining mazmuni va uni amaliyotga tatbiq etish. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

2-Mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv.

Maktabgacha yoshdagi bolada tayanch muhim kompetensiyalari. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari

3-Mavzu. “Ilk qadam”davlat o‘quv dasturi asosida ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish

Ta’lim-tarbiyaviy jarayonda rejalashtirish turlari: yillik va haftalik mavzuviy reja. “Mavzuli rejalashtirish” metodik qo‘llanmasidan foydalangan holda rivojlanish markazlarida ta’limiy faoliyatni tashkil etish.

3.2. Amaliy ta’lim mazmuni

4-Mavzu. “Ilk qadam”davlat o‘quv dasturi asosida guruhlarda rivojlanish markazlarini tashkil etish

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlariga qo‘yiladigan talablar. “Ilk qadam” dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish.

5-Mavzu. Umumiy guruhlarda ta’lim jarayonini tashkil etish va ularni olib borish tartibi

Umumiy guruh bo‘lib ishlash ta’limiy faoliyatlarni tashkil etish.

Umumiy guruh bo‘lib ishlash shaklidagi ta’limiy faoliyat ishlanmasini yoritib berish va o‘tkazish tartibi.

6-Mavzu. “Ilk qadam” dasturini bajarilishini ta’minlash maqsadida pedagogik jarayonni metodik ta’minlash

14. www.mdo.uz

15. www.mdomoi.uz

2.5. MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH

KIRISH

Dunyo miqyosida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning innovatsion modellarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish, pedagog-tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, tarbiyalanuvchilarning intellektual, estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida gi PF-152 sonli farmoni, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 867-sonli qarorlari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risidagi”dagi 410-sonli buyrug’i ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Shuningdek, pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish va ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni taqozo etadi.

«Matematik tasavvurlarni shakllantirish» modulining o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkilot tarbiyachisini kasbiy qayta tayyorlash kursining o‘quv reja asosida tuzilgan bo‘lib, u maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilariga tarbiyalanuvchilarda matematik tasavvurlarni shakllantirishga oid ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va rivojlantiruvchi muhitni yaratishning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Ushbu o‘quv modulida tinglovchining o‘quv yuklamasi: 42 soat bo‘lib, shundan:

Nazariy - 12 soat;

Amaliy mashg‘ulot - 30 soat;

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Matematik tasavvurlarni shakllantirish”

2.2. Modulning maqsadi: Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari yo‘nalishi bo‘yicha qayta tayyorlov kursi tinglovchilariga “Matematik tasavvurlarni shakllantirish”ga oid bilimlar berish va amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim.

Bilimlar	**Ko‘nikma va malaka**
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari hamda "Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish to‘g‘risida ma’lumotlar.	“Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotning Davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonini tashkil etish bo‘yicha ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladilar.
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari hamda "Ilk qadam" Davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishning mazmun mohiyati to‘g‘risida ma’lumotlar.	Turli yosh guruhlarida rivojlantiruvchi markazlarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha ta’limiy-tarbiyaviy jarayonini rejalashtirish va tashkillashtirish bo‘yicha ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladilar, tarbiyachilarning “Qurish-yasash va matematika” nomli rivojlantiruvchi markazlarida olib boradigan ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarini tahlil qilish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmalarni tuzish kabi ***ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar***

2.4. Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil ta’ lim
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot	Ko‘ chma mashg‘ ulot	
1.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishning nazariy asoslari	2	2	2			
2.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	2	2	2			

3.	Matematika ta`limiy faoliyatlarining didaktik talablari	2	2		2		
4.	Bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha ishni rejalashtirish	2	2		2		
5.	“Qurish, konstruktsiyalash va matematika” rivojlantiruvchi markazida ta`limiy –tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishni rejalashtirish.	2	2		2		
6.	Bolalarda miqdor va son sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish, sanashga o‘rgatish	2	2	2			
7.	Yosh guruhlari kesimida miqdor va son sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish, sanashga o‘rgatish	2	2		2		
8.	Bolalarni arifmetik masalalar yechishga o‘rgatish	2	2		2		
9.	Bolalarda predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	2	2	2			
10.	Matematik tasavvurlarni tarkib toptirishda bolalarni buyumlarning kattaliklari bilan tanishtirish	2	2		2		
11.	Yosh guruhlari kesimida predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	2	2		2		
12.	Hajmli geometrik shakllar olami-to‘plam ustida ishlash	2	2		2		
13.	Bolalarda fazoviy va vaqt tasavvurlarni shakllantirish	2	2	2			
14.	Yosh guruhlari kesimida fazoviy va vaqt tasavvurlarni shakllantirish	2	2		2		
15.	Matematika ta`limiy faoliyati uchun – Soat bilan tanishtirish uchun resurslar tayyorlash	2	2		2		
16.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarni shakdlantirishda zamonaviy texnologiyalari o‘rni	2	2		2		
17.	Multimediali kompyuter o‘yinlari	2	2		2		
18.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tafakkurini rivojlatirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish	2	2	2			
19.	Maktabgacha ta’limda STEAM ta’limi faollashtirish	2	2		2		
20.	Bolalarning matematik tafakkurini rivojlatirishda media ta’lim vositalarini tayyorlash.	2	2		2		
21.	Tarbiyachining media kompetentligini faollashtirish	2	2		2		
	Jami*:*	**42**	**42**	**12**	**30**		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy mashg‘ulotlar mazmuni

1-Mavzu: Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasining nazariy asoslari (2 soat)

Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasi.

Matematika mashg‘ulotlarining o‘tkazish metodikasi.

2-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi (2 soat)

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish usullari. Maktabgacha ta’lim tashkilotining har xil yosh guruhlarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilish.

6-Mavzu: Bolalarda miqdor va son sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish, sanashga o‘rgatish (2 soat)

Kichik, o‘rta guruhlarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilish. Katta, maktabga tayyorlov guruhlarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilish.

9-Mavzu: Bolalarda predmetlarning o‘lchami va ularni o‘lchash haqidagi tasavvurlarni shakllantirish (2 soat)

Matematik tasavvurlarni tarkib toptirishda bolalarni buyumlarning kattaliklari bilan tanishtirish. Bolalarda shartli o‘lchov yordamida turli o‘lchamlarni o‘lchash haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

13-Mavzu: Bolalarning predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari (2 soat)

Kichik va o‘rta guruhlarda bolalarning predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarda bolalarning predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.

18-Mavzu: Bolalarda fazoviy va vaqt tasavvurlarni shakllantirish (2 soat)

Kichik va o‘rta guruhlarda bolalarda fazoviy va vaqt tasavvurlarni shakllantirish. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarda bolalarni fazoviy va vaqt tasavvurlarni shakllantirish.

3.2. Amaliy ta’lim mazmuni

3-Mavzu: Matematika ta`limiy faoliyatlarining didaktik talablari (2 soat)

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi. Elementar matematik mashg‘ulotlarining didaktik talablari.

4-Mavzu: Bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha ishni rejalashtirish (2 soat)

Kichik, o‘rta guruhda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha ishni rejalashtirish. Katta, maktabga tayyorlov guruhlarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha ishni rejalashtirish.

5-Mavzu: “Qurish-yasash va matematika” rivojlantiruvchi markazida ta`limiy –tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishni rejalashtirish(2 soat)

“Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotning Davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish

“Qurish-yasash va matematika” rivojlantiruvchi markazida ta`limiy –tarbiyaviy faoliyatni oy mavzusi asosida tashkil etishni rejalashtirish

7-Mavzu: Yosh guruhlari kesimida miqdor va son sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish, sanashga o‘rgatish (2 soat)

Kichik, o‘rta guruhlarda bolalarda miqdor va son sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish

Katta, maktabga tayyorlov guruhlarda bolalarda miqdor va son-sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish

8-Mavzu: Bolalarni arifmetik masalalar yechishga o‘rgatish(2 soat)

Kichik, o‘rta guruhlarda bolalarda mantiqiy tafakkurni faollashtirish

Katta, maktabga tayyorlov guruhlarda bolalarda mantiqiy tafakkurni faollashtirish

9-Mavzu: Bolalarda predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari (2 soat)

Matematik tasavvurlarni tarkib toptirishda bolalarni buyumlarning kattaliklari bilan tanishtirish

Bolalarda shartli o‘lchov yordamida turli o‘lchamlarni o‘lchash haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

10-Mavzu: Matematik tasavvurlarni tarkib toptirishda bolalarni buyumlarning kattaliklari bilan tanishtirish(2 soat)

Kichik va o‘rta guruhlarda buyumlarning miqdor va kattaliklari bilan tanishtirish bo‘yicha ishlanma tayyorlash

Katta va maktabga tayyorlov guruhlarda buyumlarning miqdor va kattaliklari bilan tanishtirish bo‘yicha ishlanma tayyorlash

11-Mavzu: Yosh guruhlari kesimida predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari(2 soat)

Kichik va o‘rta guruhlarda bolalarning predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarda bolalarning predmetlar shakli va geometrik shakllarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

12-Mavzu: Hajmli geometrik shakllar olami-to‘plam ustida ishlash(2 soat)

Konus va piramida bilan tanishtirish bilan tanishtirish

Denish kubiklari bilan ishlash

13-Mavzu: Bolalarda fazoviy va vaqt tasavvurlarni shakllantirish (2 soat)

Kichik va o‘rta guruhlarda bolalarda fazoda mo‘ljalga olishga o‘rgatish. Tevarak –atrofda mo‘ljalga olish. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarda bolalarda fazoda mo‘ljalga olishga o‘rgatish. Tevarak –atrofda mo‘ljalga olish.

14-Mavzu: Yosh guruhlari kesimida fazoviy va vaqt tasavvurlarni shakllantirish(2 soat)

Kichik va o‘rta guruhlarda bolalarda fazoda mo‘ljalga olishga o‘rgatish. Tevarak –atrofda mo‘ljalga olish.

Katta va maktabga tayyorlov guruhlarda bolalarda fazoda mo‘ljalga olishga o‘rgatish. Tevarak –atrofda mo‘ljalga olish.

15-Mavzu: Matematika ta`limiy faoliyati uchun –Soat bilan tanishtirish uchun resurslar tayyorlash(2 soat)

Kichik va o‘rta guruhlarda bolalarda fazoda mo‘ljalga olishga o‘rgatish. Tevarak –atrofda mo‘ljalga olish

Katta va maktabga tayyorlov guruhlarda bolalarda fazoda mo‘ljalga olishga o‘rgatish. Tevarak –atrofda mo‘ljalga olish.

16-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari (2 soat)

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda zamonaviy kompyuterli ta’limiy o‘yinlar texnologiyasi

Kompyuterli didaktik o‘yinlarni o‘tkazish

17-Mavzu: Multimediali kompyuter o‘yinlari (2 soat)

Kompyuterli didaktik o‘yinlarga qo‘yilgan talablar

Kompyuterli didaktik o‘yinlarni mavzu asosida tayyorlash

18-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tafakkurini rivojlatirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish (2 soat)

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuterli va rivojlantiruvchi o‘yinlar o‘tkazish uslubiyoti

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarning shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari

19-Mavzu: Maktabgacha ta’limda STEAM ta’limi faollashtirish (2 soat)

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM ta’limi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarning shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari-STEAM uchun tarqatmalar tayyorlash

20-Mavzu:Bolalarning matematik tafakkurini rivojlatirishda media ta’lim vositalarini tayyorlash (2 soat)

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta’limiy jarapyonlar uchun media ta’lim vositalarini tayyorlash metodikasi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda tarbiyachining axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta’limiy jarapyonlar uchun media ta’lim vositalarini tayyorlash

21-Mavzu: Tarbiyachining media kompetentligini faollashtirish (2 soat)

Tarbiyachining media kompetentligini faollashtirish

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda tarbiyachining sentabr-may oylariga media ta’lim vositalarini tayyorlash

IV. O‘QITISH VOSITALARI

1. Tavsiya etiladigan adabiyotlar
2. O‘quv-metodik majmua
3. Doska, flipchart qog‘ozi va markerlar
4. Qog‘oz A4 formatli-30 dona
5. Tarqatma materiallar
6. Multimediya to‘plami (kompyuter, videoproektor, ekran)

V. ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-595-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni
3. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qaror. 2019-yil 8-may.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori.
5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta`lim agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘i
6. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil (o`zbek va rus tillarida)
7. **“**Ilm yo‘li” variativ dastur 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash. T.: 2022

8. Abdullayeva N.Sh. Kelajak sari ilk ta’lim bilan: Variativ ta’lim ; – T.: “Iqtisod-moliya”, 2020. – 104 b.

9. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A “O‘yin orqali ta’lim berish” Uslubiy qo‘llanmasi, T - 2020

10. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Nazarova V.A., Mikaylova U.T., Abdunazarova N. F., Zakirov A. A., Isxakova M. R., Umirzakova N. R. “Oila va mahalla bilan hamkorlik” Uslubiy qo‘llanmasi, T - 2020

11. Qodirova F.R., Fayzullaeva M. Maktabga tayyorlov guruhida nutqni rivojlantirish ta’limiy faoliyatini tashkil etish. – T.: 2021 y.

12. Nurmatova M.SH., Xasanova Sh.T., Azimova D.E. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. – T.: 2020

13. Oren R. Sekret plastilina. Maxaon.:2021y.

14. Isxoqova M., Fayzullaeva M., va boshqalar “Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka o‘rgatish. Tarbiyachi kitobi”. – T.: 2018.

15. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari T.: 2006. – 163

16.Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008. 68 b.

17. Kurmakaeva R., A’zamova M., Normatova S., Yusupova M., Elementar matematika rejalari. T. 1992y.

18. Bikbaeva N.U., Ibroximova 3.I., Qosimova X.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish, T., 1995

19. Bikbaeva N.U., Ibroximova Z.I., Qosimova X.I.. «Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. T. «O‘qituvchi», 1995 y.

20. Jo‘raeva N.T., Djanpeisova G.E va boshqalar. “Matematika aql va zakovat kaliti”. T.: 2019

21. Metlina L.S. «Bolalar bog‘chasida matematika» — 1981 y.

22. Tolyar A.A. «Formirovanie elementarnых matematicheskix predstavleniy u doshkolnikov — M. 1988y.

23. Rixtarman T.D. Formirovanie predstavleniy o vremeni u detey doshkolnogo vozrasta. M. 1982 y.

24. Metlina L.S. «Bolalar bog‘chasida matematika mashg‘ulotlari». M., 1981

2.6. BOLALAR JISMONIY TARBIYASI

KIRISH

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida gi PF-152 sonli farmoni, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 867-sonli qarorlari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risidagi”dagi 410-sonli buyrug’i ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Qabul qilingan me’yoriy hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini kasbiy qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiya berish uchun nazariy va metodik bilimlarni egallashi g‘oyat muhimdir.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakillanishi” sohasi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlangandan so‘ng 6 – 7 yoshli bolalar quyidagilarni o‘zlashtirishlari lozim:

- o‘z imkoniyatlari va yosh bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish meyorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarda mayda matorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;
- o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiyena malakalarini qo‘llaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya bo‘yicha ishni tashkil etish va o‘tkazish metodikasini tinglovchilar “Jismoniy tarbiya metodikasi” modulini o‘zlashtirish orqali egallab boradilar.

“Bolalar jismoniy tarbiyasi” modulining o‘quv dasturi Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi yo’nalishi kasbiy qayta tayyorlash kursi jarayonida qo‘llaniladi.

Ushbu o‘quv modulda tinglovchining auditoriya o‘quv yuklamasi 36 soat bo‘lib, shundan:

Nazariy mashg‘ulotlar - 12 soat;
Amaliy mashg‘ulotlar - 24 soat.

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Bolalar jismoniy tarbiyasi”

2.2. Modulning maqsadi: maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi kasbiy qayta tayyorlash kursi tingovchilarining jismoniy tarbiya bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmalarini Davlat talablari asosida chuqurlashtirish, yangilash va ta’lim-tarbiya jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish.

2.3. Kutilayotgan natijalar: tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:

dastur asosida tinglovchilarga maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiyaga oid nazariy qarashlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar berish;

tinglovchilarga maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiyaning asosiy taraqqiyot yo‘nalishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar berish;

tinglovchilarga maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiya sohasidagi kadrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi ma’lumotlar berish;

tinglovchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari tashkil etish uchun zarur bo‘lgan metodologik bilimlarni o‘zlashtiradi;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyaning me’yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘zlashtiradi;

jismoniy tarbiya jarayonida bolalarning rivojlanishi, harakat malaka va ko‘nikmalarini obyektiv baholashga qaratilgan didaktik vositalarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga o‘zlashtiradi;

balalar jismoniy tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan metodlardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya bo‘yicha ish shakllarini tashkil etishni o‘zlashtiradilar;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun didaktik ta’minotni takomillashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalar asosida bolalar o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo‘llash kabi ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishadilar.

Bilim	**Ko‘nikma**	**Malaka**
Tinglovchilarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida guruhlarda “Bolalar jismoniy tarbiyasi” ta’limiy faoliyatni takomillashtirishga qo‘yiladigan talablar, asosida bolalarning rivojlanishidagi o‘zga xos muhit ekanligi to‘g‘risida ma’lumot berish.	Tinglovchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanishidagi o‘zga xos xususiyatlariga bog‘liq pedagogik jarayonning mazmuni haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va uni amaliyotda qo‘lay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanish jarayonning mazmuni metodik ta’minlanishi haqida malakaga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga bolalarni bilish sohalari kompetensiyalarini “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanishi to‘g‘risida ma’lumot berish	“Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanishidagi amaliy ishlarni (sport va harakatli o‘yinlar) mustaqil bajarish ko’nikmasiga ega	Tinglovchilarni “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanish soha kompetensiyalarini hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar.

	bo’ladilar	
“Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarni tayanch kompetensiyalarini faollashtirishda qo‘llaniladigan amaliy metod va uning turlari haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.	“Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanishda amaliy ishlarni (sport va harakatli o‘yinlar) mustaqil bajarish ko’nikmasiga ega bo’ladilar	Tinglovchilar “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarni tayanch kompetensiyalarini faollashtirishda harakatli o‘yinlardan foydalanish hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida ta’limiy faoliyatga oid bilimlar, maktabgacha ta’lim tashki-lotlarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘yin orqali tashkil etish haqida bilimga ega bo‘ladilar.		Tinglovchilarga “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida rivojlanishga oid bilimlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘yin orqali tashkil etish va amaliyotda qanday tashkil etish malakasiga ega bo‘ladilar.

2.4. Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

	Mavzular	**Tinglovchining o‘quv yuklamasi**					
		Hammasi	**Auditoriya o‘quv yuklamasi**				**Mustaqil tayyorgarlik**
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablarining bajarilishi						
.	Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tuzilishi, mazmuni, maqsad va vazifalari						
.	Harakatli o‘yinlar haqida tushuncha, uning o‘ziga xosligi va o‘tkazish metodikasi						

.	Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini multimedia vositalari orqali tashkil etish						
.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida sport o‘yinlarning ahamiyati						
.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari olib borilishi metodikasi						
.	Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tuzilishi, mazmuni va o‘tkazish metodikasi						
.	Bolalarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo‘yicha ishlarni tashkil etish						
.	Jismoniy mashqlar bilan birga amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlari						
0.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini rejalashtirish va tashkil etish						
1.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish						
	Jami:	**6**	**6**	**2**	**4**		

II. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar mazmuni

1-Mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablarining bajarilishi. “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanishga qaratilgan pedagogik jarayon mazmunini boyitish. “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanishidagi o‘zga xos xususiyatlariga bog‘liq pedagogik jarayonning mazmuni haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va uni amaliyotda qo‘lay olish.

2-Mavzu. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tuzilishi, mazmuni, maqsad va vazifalari. “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanishga qaratilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining jarayon mazmunini. “Bolalar jismoniy tarbiyasi” asosida bolalarning rivojlanishga qaratilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini jarayon metodik ta’minlash.

5-Mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida sport o‘yinlarning ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida sport o‘yinlarning ahamiyati jarayon mazmunini. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida sport o‘yinlarning ahamiyati jarayonini metodik ta’minlash.

7-Mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari olib borilishi metodikasi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida

jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari olib borilishi metodikasi jarayon mazmunini. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari olib borilishi jarayonini metodik ta’minlash.

10-Mavzu. Bolalarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo‘yicha ishlarni tashkil etish. Bolalarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo‘yicha ishlarni tashkil etish jarayon mazmunini. Bolalarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo‘yicha ishlarni tashkil etishni metodik ta’minlash.

12-Mavzu. Jismoniy mashqlar bilan birga amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlari. Jismoniy mashqlar bilan birga amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlarining jarayon mazmunini. Jismoniy mashqlar bilan birga amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlarini metodik ta’minlash.

3.2. Amaliy mashg‘ulotning mazmuni

3-Mavzu. Harakatli o‘yinlar haqida tushuncha, uning o‘ziga xosligi va o‘tkazish metodikasi. Harakatli o‘yinlar haqida tushuncha, uning o‘ziga xosligi va o‘tkazish metodikasi takomillashtirish. Harakatli o‘yinlar o‘tkazish bo‘yicha ta’limiy faoliyatini tashkil etish.

4-Mavzu. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini multimedia vositalari orqali tashkil etish. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini multimedia vositalari orqali tashkil etish takomillashtirish. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini multimedia vositalari orqali tashkil etishga o‘rgatish

6-Mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida sport o‘yinlarning ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida sport o‘yinlarni o‘rgatish usullari. Maktabgacha yoshdagi bolalarni sport o‘yinlarniga o‘rgatish.

8-Mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari olib borilishi metodikasi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari olib borilishi metodikasini takomillashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga o‘rgatish.

9-Mavzu. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tuzilishi, mazmuni va o‘tkazish metodikasi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tuzilishi, mazmuni va o‘tkazish metodikasi takomillashtirish.

11-Mavzu. Bolalarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo‘yicha ishlarni tashkil etish. Bolalarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo‘yicha ishlarni tashkil etishni takomillashtirish.

13-Mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini rejalashtirish va tashkil etish. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini rejalashtirish va tashkil etishni takomillashtirish.

14-Mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish takomillashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni sport musobaqalariga o‘rgatish.

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. Harakat ko‘nikmalari, malakalari jismoniy sifatlarning me’yoriy ko‘rsatkichi qanday nomlanadi?
2. Kishi organizmi shakl va funksiyalarining o‘zgarish jarayoni qanday aytiladi?
3. Jismoniy kamolotga erishishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon nima deb ataladi?
4. Jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari nechta?
5. “Jismoniy mashqlarni tanlashda bola organizmini har tomonlama sog‘lomlashtirishga intilish, uning jismoniy sifatlarini rivojlantirish” qaysi tamoyil xaqidaligini ayting?
6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim berishda ularning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish uchun qaysi metodlardan foydalaniladi?
7. Maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiya metodikasining vazifalari aytib bering.
8. Harakatlanishiga ko‘ra o‘yinlarning qanday turlari mavjud?

V. O‘QITISH VOSITALARI

29. 1 Doska
30. Markerlar
31. Tarqatma materiallar
32. Videoproektor
33. Kompyuter
34. Vatman qog‘ozi, magnit,
35. Slaydlar.

VI. ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-595-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

3. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qaror. 2019-yil 8-may.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori.

5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta`lim agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘i

6. Salomov R.S. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” – Toshkent.: 2014.

7. Nuriddinova M.M. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo‘riqchilari uchun me’yoriy hujjatlar majmuasi”. – Toshkent.: “Muharrir”, 2013.

8. Usmonxo‘jayev T.S. “500 harakatli o‘yinlar”. – Toshkent.: “Yangi asr avlodi”, 2014.

9. Muxammadiyev. K.B. “Jismoniy tarbiya ta’limi jarayoni samaradorligini oshirish va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari”. – Toshkent.: 2020. – 294 bet.

10. Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi. – Toshkent.: 2008.

11. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. – Toshkent.: 2015.

12. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi – Toshkent.: 2018.

13. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika / Tafakkur sarchashmalari. – Toshkent.: 2013.

2.7. TABIAT BILAN TANISHTIRISH VA EKOLOGIK TA’LIM TARBIYA

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni , 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli, 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 867-sonli qarorlari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to’g’risida”gi 410-sonli buyrug’i ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu o‘quv dastur ishlab chiqilgan.

Qabul qilingan me’yoriy hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, tabiat bilan tanishtirish orqali ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining mutaxassislarini o‘qitishning ta’lim yo‘nalishlaridan biridir.

“Tabiat bilan tanishtirish va ekologik ta’lim tarbiya” modulining o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy qayta tayyorlash kursining o‘quv rejasi asosida tuzilgan bo‘lib, u maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilariga “Tabiat bilan tanishtirish”ga oid ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Mazkur o‘quv dastur maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy qayta tayyorlash kursi jarayonida qo‘llaniladi.

Tinglovchilar “Tabiat bilan tanishtirish” modulini o‘zlashtirish orqali yangi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

Ushbu o‘quv modulida tinglovchining auditoriya o‘quv yuklamasi 36 soat bo‘lib, shundan

Nazariy mashg‘ulotlar - 12 soat;

Amaliy mashg‘ulotlar - 24 soat;

II. MODULNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Modul nomi: “Tabiat bilan tanishtirish va ekologik ta’lim-tarbiya”.

2.2. Modul maqsadi: Tinglovchilarga “Tabiat bilan tanishtirish va ekologik ta’lim tarbiya” modulini ta’lim jarayoniga tatbiq etishga oid bilimlar berish va amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

2.3. Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

Bilim	Ko‘nikma	Malaka
Tinglovchilarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida guruhlarda “Fan va tabiat, markazlarida ta’limiy faoliyat rivojlanish markazlarini loyihalash, markazlarga qo‘yiladigan talablar, markazlarning bolalar rivojlanishidagi o‘zga xos muhit ekanligi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar	Tinglovchilarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida“ tabiat bilan tanishtirish va ekologik ta’lim-tarbiyada bolani erkin tanlovi asosida faoliyatlarni tashkil etish haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va uni amaliyotda qo‘lay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida “Fan va tabiat, markazlarida ta’limiy faoliyat rivojlanish markazining metodik ta’minlanishi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va uni amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga “Fan va tabiat, markazlarida ta’limiy faoliyat rivojlanish markazlari tarkibidagi barcha komponentlar (o‘yinchoqlar, anjomlar, ta’limiy materiallar) o‘zgarishi, yangilanishi va to‘ldirilib borishi kerakligi haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.	“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida “Fan va tabiat, markazlarida ta’limiy faoliyat rivojlanish markazida bolani erkin tanlovi asosida faoliyatlarni tashkil etish haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va uni amaliyotda qo‘lay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilarga “Fan va tabiat, markazlarida ta’limiy faoliyat rivojlanish markazlari tarkibidagi barcha komponentlar (o‘yinchoqlar, anjomlar, ta’limiy materiallar) o‘zgartirilgan, yangilangan va to‘ldirilgan o‘yinlardan foydalanish hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘ladilar.
Tinglovchilarga “Fan va tabiat” rivojlanish markazida ta’limiy faoliyatga oid bilimlar, jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish, bolalar bilan tajriba o‘tkazish, o‘yin orqali jarayonlarni tashkil etish haqida bilimga ega bo‘ladilar.	“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida“Fan va tabiat, markazlarida ta’limiy faoliyat rivojlanish markazida bolani erkintanloviasosida faoliyatlarni tashkil etish haqida tushunchaga ega bo‘ladilar va uni amaliyotda qo‘lay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.	Tinglovchilarga “Fan va tabiat” rivojlanish markazida ta’limiy faoliyatga oid bilimlar, jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish, bolalar bilan tajriba o‘tkazish, o‘yin orqali jarayonlarni tashkil etish malakasiga ega bo‘ladilar.

2.4. Moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti

	Mavzular	Tinglovchiningo‘quv yuklamasi					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot	Ko‘ chma mashg‘ ulot	
1.	Tabiat bilan tanishtirish metodikasining fan sifatida shakllanishi	2	2	2			
2.	MTT da ekologik ta’lim-tarbiyaning ahamiyati	2	2	2			
3.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda xavfsizlik qoidalariga rioya etish talablari.	4	4	2	2		
4.	Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda kuzatishning maqsadi.	4	4		4		
5.	MTTda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda innovatsion metodlardan foydalanishni rivojlantirish.	6	6	2	4		
6.	Fan va tabiat markazida bolalarni qo'l barmoq mayda matorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar.	6	6	2	4		
7.	MTT da bolalarni jonli va jonsiz tabiyat bilan tansihtirish.	6	6	2	4		
8.	MTTning tabiat burchagi.	4	4		4		
9.	MTTning yer maydonchasi.	2	2		2		
	Jami:	**36**	**36**	**12**	**24**		

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy mashg‘ulotlar mazmuni

1-Mavzu. Tabiat bilan tanishtirish metodikasining fan sifatida shakllanishi (2 soat nazariy)

Tabiat bilan tanishtirish metodikasi faning rivojlanishida O‘rta osiyo faylasuflarining tabiatning inson hayotidagi roli haqidagi fikrlari.

G‘arb pedagoglarining bola tarbiyasida tabiatning ahamiyati haqida.

2-Mavzu. MTT da ekologik ta’lim-tarbiyaning ahamiyati (2 soat nazariy)

Ekologiya tushunchasining mohiyati.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ekologik tarbiyaga jalb qilish.

3-Mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda xavfsizlik qoidalariga rioya etish talablari. (2 soat nazariy)

Davlat talablarining maqsadi va vazifalari, Davlat talablarining sohalari va yo‘nalishlari, MTTning maqsad va vazifalari.

MTT ta’lim jarayonining maqsad va tamoyillari, qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini tashkil qilish.

5-Mavzu. MTTda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda innovatsion metodlardan foydalanishni rivojlantirish.

(2 soat nazariy)

Pedagogikada metod — pedagog va ta’lim oluvchining (bolaning) ma’lum ta’lim-tarbiyaviy bilimlarni egallanishi.

Bolalarning malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish hamda ularda ilk tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlavtirish.

6-Mavzu. Fan va tabiat markazida bolalarni qo'l barmoq mayda matorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar.

(2 soat nazariy)

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni.

Turli xil ikkilamchi materiallardan foydalanishni takomillashtirish.

7-Mavzu. MTT da bolalarni jonli va jonsiz tabiyat bilan tansihtirish.

(2 soat nazariy)

MTT da bolalarni jonli tabiat bilan tanishtirishda AKT ning o‘rni.

Bolalarni jonsiz tabiat bilan tanishtirishda suv, tosh, qumning xususiyatlari.

3.2. Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda xavfsizlik qoidalariga rioya etish talablari. (2 soat amaliy)

«Ilk qadam» davlat o‘uv dasturida tabiat bilan tanishtirish bo‘limini o‘rganish.

Tabiat bilan tanishtirish prinsiplari.

4-Mavzu. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda kuzatishning maqsadi. (4 soat amaliy).

Tabiat bilan tanishtirish dasturida fasllar bo‘yicha bilim berishning mazmuni.

MTTda kuzatuv bog‘ini yaratish.

Uzoq muddatli hamda qisqa muddatli kuzatishning mazmuni.

Bolalarga o‘simliklarni parvarishlashni o‘rgatish.

5-mavzu. MTTda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda innovatsion metodlardan foydalanishni rivojlantirish

(4 soat amaliy)

Turli guruhlarda tabiatga oid mashg‘ulotlar, ularni tashkil etish va o‘tkazish.

Mashg‘ulotlarni yangi innovatsion metodlar asosida tuzishni takomillashtirish.

Solishtirma metodi haqida tushuncha.

Turli xil bo‘yoqlar asosida qum yaratish texnologiyasi.

6-Mavzu. Fan va tabiat markazida bolalarni qo'l barmoq mayda matorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar.

(4 soat amaliy)

Tabiat ustahonasida tajribalar kartotekasi.

Tabiat burchagida tabiiy va sun’iy ranglar.

Donli mahsulotlardan bolalarni qo‘l barmoq mayda matorikasini rivojlantiruvchi o‘yinlar yaratish.

7-Mavzu. MTT da bolalarni jonli va jonsiz tabiyat bilan tansihtirish.

(4 soat amaliy)

Faoliyat jarayonida barglardan turli jonli mavjudotlarni yasash. Gerbariy

Fan va tabiat rivojlanish markazi uchun oy mavzusi asosida ko‘rgazma tayyorlash.

MTT da ekologik yo‘lakcha.

“IKL-QADAM” davlat o‘quv dasturi asosida didaktik to‘plamlar yaratish.

8-Mavzu. MTTning tabiat burchagi. (4 soat amaliy)

MTTda bolalarni tabiat bilan tanishtirish bilan doimiy bevosita munosabatda bo‘lish.

